


N.SH.SHODIYEV, N.B.DILMURODOV

SITOLOGIYA, GISTOLOGIYA VA EMBRIOLOGIYA



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV
XO'JALIK VAZIRLIGI

SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI

N.SH.SHODIYEV, N.B.DILMURODOV

SITOLOGIYA, GISTOLOGIYA VA EMBRIOLOGIYA

TOSHKENT – 2015

576:591,8

SL 74

UOT: 576.31:591.81

Mazkur darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2015 yil 21 avgustdagi 303-soni buyrug'iiga asosan "5440100 - veterinariya", "5111009 - kasb ta'limi (veterinariya)" ta'lim yo'nalishlarida tahlil olayotgan talabalar uchun tavsiya etilgan va bakalavrilar hamda magistrler tayyorlash o'quv dasturlari va rejalarini hisobga olgan holda yozilgan.

Darslik biologiya fanining sitologiya, histologiya va embriologiya bo'limlarini mujassamlashtirgan bo'lib, ularning har birini alohida fan sifatida batafsil o'rganish vazifasi qo'yilgan. Muayyan fanlar, ya'ni sitologiyada hujayralar tuzilishi, funksiyalari, histologiyada to'qimalar tuzilishi, evolyutsiyasi va histogeneti, embriologiyada hayvonlar embrionlari o'sishi va rivojlanishi haqida aniq tushunchalar beradigan to'liq ma'lumotlar bayon etilgan.

Taqribchilar:

Dehqonov T.D., Samargand davlat tibbiyot instituti professori;

Kuliev B.A., veterinariya fanlari nomzodi, dotsent.

Muharrir va musahhih Shodiyev N.SH.

SamVII Axborot-
res markazi
Inv 346-151

SO'Z BOSHI

Sog'lom hayvonlar organizmida yuz berayotgan juda nozik fiziko-kimyoviy jarayonlarni bilmasdan turib veterinariya mutaxassislarini tayyorlash mumkin emas. Bu esa o'z navbatida faqat morfologik strukturalarningina emas, balki bu strukturalarning o'zaro bog'liqligi va bir-birini taqozo qilishini ham bilishni talab qiladi. Texnik omillarning qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida tutgan o'mi ortishi bilan bu holatning muhimligi ham orta boradi, chunki chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonini jadallashtirish, jumladan veterinariya chora-tadbirlarining samaradorligi umuman organizmnning, xususan organlar, to'qimalar va hujayralarning fiziko-kimyoviy potensialiga bog'liq.

Bu bilimlarning barchasi hozirgi zamont veterinariyasining poydevo-rini tashkil qiladi va biofizika, biokimyo, radiobiologiya, fiziologiya, anatomiya, sitologiya, gistogramiya hamda embriologiya fanlarini qamrab oladi.

Gistogramiya, sitologiya va embriologiya boshqa biologik fanlar kabi bosh masala - hayotiy jarayonlarning mohiyatini, ularning struktur asosini aniqlash masalasini echish bilan shug'ullanadi. Qishloq xo'jalik hayvonlari gistogramiyasining ma'lumotlari bir tomonidan hayvonlar organizmlariga aniq maqsadlarga qaratilgan ta'sir ko'rsatish (yosh hayvonlarni ma'lum yo'nalishda o'stirish, har xil mahsulotlikka ega bo'lgan hayvonlarni ratsional parvarish qilish va oziqlantirish)ga, ikkinchi tomonidan to'qimalardagi patologik o'zgarishlarni, kasallik patogenezini ilmiy asosda tushuntirib berish, kasallikni barvaqt diagnostika qilish, profilaktika va davolashni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Yuqorida bayon qilingan mulohazalar munosabati bilan gistogramiya (sitologiya, gistogramiya va embriologiya)ning mavzusi veterinariya mutax-assisini tayyorlaydigan fanlar hisoblanuvchi patfiziologiya, patanatomiya, veterinariya genetikasi, hayvonlarni urchitish, akusherlik va terapiya kabi fanlar mavzusini bilan charmbarchas bog'liq.

Shunday qilib, gistogramiya, sitologiya va embriologiya hayvonlar organizmini sog'lomlik paytida va patologiyada struktur-funksional tahlil qilishga asos soladi va veterinariya ta'limi sistemasida muhim o'rinn tutadi.

Sitologiya, gistologiya va embriologiyani o'rganish mikro-preparatlarni mikroskop yordamida o'rganishga asoslangani uchun darslikning boshida sitologiya, gistologiya va embriologiya tarixining qis-qacha obzoridan keyin gistologik preparatlarni tayyorlash usullari - gistologik texnika hamda mikroskop bilan ishlash qoidalarining bayoni berilgan. Keyin organizmning asosiy struktura elementi hujayra to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan. To'qimalar va organlar strukturalari ontogenez yoki organizmning individual taraqqiyoti jarayonida gametalar (jimsiy hujayralar)ning qo'shilishidan taraqqiy qilgani uchun "Umumiy embriologiya" bo'limida gametalarning biologiyasi, gametogenezi (spermatoogenezi va ovogenezi) jarayonlari, urug'lanish va otalanish tushunchalari bayon qilingan; qiyosiy embriologik nuqtai nazardan taraqqiyot sharoitlariiga bog'liq holda embriogeneznинг umumiyligi va murakkablashuvi, shuningdek to'qima strukturalarining embrional kurtaklari va ulardan organlar bosil bo'lishi (organogenezi) tushuntirilgan.

"To'qimalar to'g'risida ta'limot" bo'limida filoembriogenezdagi hujayralarning differensialish jarayoni, to'qimalarning tasnifi, tuzilishi va biologik xossalari keltirilgan.

"Organologiya" (xususiy gistologiya) bo'limida sistemalar bo'yicha turli hayvonlar organlarining mikroskopik va ultramikroskopik tuzilishi, ularning to'qimaviy asosiga alohida e'tibor berilgan holda yoritilgan. Shuningdek, xususiy sitologiya, embriologiya va qisman mikrofiziologiyaga doir ma'lumotlar berilgan.

Darslikni tayyorlash paytida veterinariya va meditsina institutlari uchun sitologiya, gistologiya va embriologiyaga doir rus va o'zbek tillarida nashr etilgan ko'pgina darsliklar, qo'llanmalar, monografiyalar, kafedramiz o'qituvcilarining ish tajribalari va laboratoriymizda to'plangan ma'lumotlardan foydalanildi.

Mualliflar darslikda kamchiliklar bo'lishini hisobga olib, hurmatli kitobxonlardan o'z fikr-mulohazalarini nashriyot manziliga yuborishlarini ilmos qildilar.

MUALLIFLAR.

I-QISM. UMUMIY GISTOLOGIYA

GISTOLOGIYA FANI VA UNI

O'RGANISH USULLARI

Gistologiya (yunon. *histos*-to' qima, *logos*-ta'limot, fan) hayvonlar va odam organizmida to'qimalarning taraqqiyoti, tuzilishi va hayot faoliyatini o'rjanuvchi fandir. Hozirgi paytda gistologiya fani faqatgina organizm strukturalari, ularda yuz beradigan jarayonlarni o'rjanish bilan chegaralanib qolmasdan, balki moddalar almashuvi va funksional jarayonlarni shu strukturalar bilan bog'liq holda mikroskopik va submikroskopik darajada o'rjanadi.

To'qimalar hujayra va hujayra shakliga ega bo'lмаган тирік moddalarдан tuzilganchigi, to'qimalarning embrional taraqqiyot jarayonida keliб chiqishi va barsha a'zolar to'qimalardan tuzilganchigini hisobga olib, gistologiya kursi tarkibida sitologiya, embriologiya, umumiy va xususiy gistologiya bo'limlari farq qilinadi.

Gistologiya fani anatomiya, fiziologiya, biokimyo, genetika, patologik anatomiya va boshqa biologik hamda klinik fanlar bilan yaqin aloqadadir.

Hozirgi paytda gistologiyada keng qo'llanilayotgan biokimyo, biofizika va molekulyur biologiyaning tadqiqot usullari shikastlamagan hujayraning struktur-biokimyoviy tashkilotanishi va tuzilmalarini o'rjanish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Gistologiyada qo'llaniladigan xilma-xil va ko'p qirrali tadqiqot usullari o'rjanilayotgan obyektni mikroskopik va submikroskopik hamda gistikimyoviy tahlili qilish imkonini beradi.

To'qimalarni turli usullar bilan o'rjanish uchun ularga ma'lum tartibda ishlov beriladi. Birinchi navbatda to'qimalar chirimasligi, o'z-o'zini yemirib yubormasligi va tirkilik paytidagi o'z strukturasini saqlab qolishi uchun fiksatsiya (fixus-mustahkam) qilinadi. Fiksatsiya qiluvchi moddalarga 5-20% li formalin eritmasi, etil spirti, osmyi kialota va shuningdek bir necha kimyoviy moddalarning aralashmasidan iborat murakkab birikmalar kiradi. Fiksatsiya qiluvchi suyuqliklarni tayyorlash va ularni qo'llash maxsus qo'llanmalarda batafsil bayon qilingan.

Tekshirilayotgan organ (to'qima) bo'lakchasi fiksatsiya qilingach, uni parafin, selloidin yordamida yoki sovuqlik ta'sirida muzlatib zichlashtiriladi. Zichlashtirilgan materialdan yupqa qilib kesadigan maxsus asbob - mikrotorn yordamida yupqa (qalinligi 1-50 mikrometr) kesmalar tayyorlanadi. Suyuq to'qimalar (qon, sperma)dan surtmalar, yupqa pardalardan yaxlit (total) preparatlar tayyorlash mumkin. To'qimalarning strukturalarini differensiatsiya qilish va aniq kuzatish uchun kesmalar bo'yataldi. Kesmalarni bo'yashda to'qimalar strukturalarining ma'lum ko'satkichli pH ga ega bo'yoqlarni qabul qilishi hisobga olinadi. pH ning ko'satkichiga qarab bo'yoqlar uch guruh: kislota yoki asos xossal hamda neytral bo'yoqlarga bo'linadi. Kislotali bo'yoqlar - kislotalar yoki ularning tuzlari (pikrin kislota, eozin, floksin, azokurmin va boshqalar)dir. Bu bo'yoqlarning kislota xususiyati nitroguruh (NO_2), xinoid guruh ($\text{O}=\text{N}=\text{O}$), gidroksil guruh (OH), karboksil guruh (COOH)larga bog'liq. Kislotali bo'yoqlar bilan bo'yahuvchi

strukturalar oksifil (atsidofil, eozin bo'yog'i ishlatilganda - cozinofil) strukturalar deb nomlanadi. Asos xossalari bo'yoqlar (safronin, pironin, tionin, azur va boshqalar)ning asos (ishbor)lik xossasi aminoguruh (NH_2), monometilaminguruh (NH-CH_3), imidoguruh (NH) va boshqalarga bog'liq. To'qimalarining asos xossalari bo'yoqlar bilan bo'yadigan qismi bazefil strukturalar deyiladi. Ham kislota, ham asos xossalari bo'yoqlarni qabul qiluvchi, ya'ni neftrofil strukturalar ham mavjud.

To'qimalar tarkibidagi ma'lum moddalar bilan reaksiyaga kirishadigan va ulurni ma'lum rangga bo'yadigan bo'yoqlar (masalan, sudan III, osmiy kislota faqat yog' va yog'simon moddalarni aniqlash imkonini beradi) maxsus bo'yoqlar deyiladi.


Ma'lum bir maqsadni ko'zlab bo'yagan kesmalar suvsizlantiriladi va predmet shishasiga yopishdiriladi. Shu yo'l bilan tayyorlangan gistogramparat mikroskop yordamida o'rGANILADI. Ko'pchilik tadqiqotlar yorug'lik nuri yordamida ishlaydigan mikroskoplarda olib boriladi.

Hozirgi paytda 2000-2500 martagacha kattalashtiradigan yorug'lik mikroskoplari mavjud bo'lib, ular yordamida bir-biridan 0,2 mikm¹ uzoqlikda turuvchi nuqtalarni ejratib ko'rish mumkin. Bo'yalmagan, tiniq obyektlar (masalan, tirk hujayra va to'qimalar) fazokontrast mikroskop yordamida o'rGANILADI. Bunday muhit orqali o'tayotgan yorug'lik nurlari to'qinlarining fazasi material qalinligi va o'tayotgan yorug'lik tezligi bilan belgilanadigan kattatikka silijydi. Fazokontrast mikroskop bunday ko'zga ko'rinnmaydigan faza siljishlarini yorug'lik nurlari to'qinlar amplitudasining o'zgarishlariga aylantirib beradi. Bunda hosil bo'ladigan qora-oq tasvir muayyun qismlarining zichligi obyekt qalinligi bilan obyekt va uning atrof-muhiti nuri sindirishadagi farq bosilasi kattaligiga bog'liq.

Flyuorescent mikroskopiya. Flyuoresensiya obyektning nurli energiya ta'sirida yuzaga keladigan nurlanishidir. Flyuorescent mikroskopda gistogramparat to'qin uzuunligi qisqaroq bo'lgan ultrabilansha, binalash va ko'k nurlar yordamida o'rGANILADI. Bu mikroskop bir-biridan 0,1 mikm uzoqlikda turuvchi nuqtalarni farq qilish imkonini beradi. Vitaminlardan A, B₂, pigmentlar, lipoidlar kabi moddalarning o'zlariga xos bo'lgan flyuoresensiya birlamchi flyuoresensiya deyiladi. Ma'lum bir xil moddalar va strukturalar maxsus bo'yoqlar - flyuoroxromlar bilan ishlav berilgach, flyuoresensiya qobiliyatiga ega bo'ladi. Bunday flyuoresensiya ikkilamchi flyuoresensiya deyiladi. Antigen-anitanacha reaksiyalariga asoslangan immunoflyuorescent analiz usullari ham mavjud.

Hujayralarning differentiallanishini o'rGANISHDA, maxsus kimyeviy transmission (elektronlar oqimi preparat orqali o'tadigan) elektron mikroskop yordamida amalga oshiriladi. (1-rasm) birikmalar va strukturalarni aniqlash va kazatishda bu usullardan foydalaniлади.

¹ mikm (1 mikron)=0,001 mm



A-rum. Biologik tiziqotler uchun mikroskop.

A-optik biologik mikroskop "Bennet C": 1-arozi (zinqir); 2-objektiv; 3-qima shax; 4-olduvay; 5-zeriflar; 6-objektorlar; 7-zavich; 8-izlitsi; difragmali kondensor; 9-kondensor shax; 10-purjigul shax; 11-makrometrish shax; 12-makrometrish shax;

B-elektron mikroskop "SEM-100AK" parvessi elektronik oshimchi sistemi bilan; 1-mikroskop kabineti (elektron-optik sistemi va nishonlangan uchun Janara bilan); 2-bo'shgaruv yut'i; 3-luminanss skravdi kamerasi; 4-sizirki analiz qurilishi bo'lsa; 5-ko'rsak qisqali hozir polgich.

Elektron mikroskopiya submikroskopik tekshirish usuli bo'lib, elektromagnit to'lqinlari yorug'lik surʼi to'lqinlaridan 100.000 marta qisqaroq (σ -rtacha- $0,0056 \text{ nm}^2$) bo'lgani uchun bu mikroskop kuchlanish bo'lganda 50000 V ko'rsata oladigan ikki nuqta oralig'i $0,002 \text{ nm}$ yoki $0,000\ 002 \text{ mkm}$ ga teng bo'lishi kerak. Armaida esa zamonaqav transmission elektron mikroskoplar bir-biridan $0,1\text{-}0,7 \text{ nm}$ uzoqlikda turuvchi nuqtalarni farq qilish imkonini beradi. Gistologik strukturalar hajmi to'g'risida tasavvur hosil qilish imkonini beradigan (rastrirovchi) elektron mikroskoplar ham mavjud.

Yuqorida bayon qilingan usullardan tashqari gistologik strukturalarni o'rGANISHNING YANA BIR QANCHU BOSHQA FIZIKO-KIMYOVIY USULLARI QO'LLANILADI.

Avtoradiografiya usuli radioaktiv elementlar bilan nishonlangan moddalarning hujayra va to'qimalarda tarqalishi (joylanishi)ni amqlash uchun qo'llaniladi va moddalar almashinuvni to'g'risida aniqroq tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

Bu usul qo'llanilganda fosfor- P^{32} , karbon- C^{14} , oltингугурт- S^{35} , vodorod- H^3 yoki boshqa radioaktiv elementlardan biri bilan nishonlangan modda organizmiga kirtiladi va ma'lum vaqt o'tgach, to'qima va organlarda radioaktivlik miqdori aniqla-

² nm (nanometr)= $0,001 \text{ mkm}$

nadi. Avtoradiografiya usuli bilan turli moddalarning sintezlanishi, bujayra ichida tashilishi (transport), oqsillarning turkibi va h.k. larni o'rganish mumkin.

Gistokimyoviy usullar bujayra, to'qimi strukturalarining kimyoviy tabiatini o'rganishda qo'llanilib, o'rganilayotgan strukturalarda kimyoviy sintezning erismaydigan maxsus mahsulotlari to'planishiga asoslangan. Bu usul bilan bujayra va to'qimalarda ammokislotalar, oqsillar, nuklein kislotalar (DNK, RNK), har xil karbonsuvlar, yog'lar, ularning birikmlari, fermentlar sifat va miqdor jihatdan aniqlanishi mumkin.

Hayvon to'qimalarini tiriklik paytida ham o'rganish mumkin bo'lib, buning uchun to'qima va bujayralar oziqloqtiruvchi muhitda va optimsal harorat sharoitida organizmdan tashqarida o'stililadi. Organizmdan tashqarida o'stililayotgan to'qimalarda bujayralarning harakatini, ko'payishi, o'sishi va turli xil fiziko-kimyoviy ta'sirotlarga javobini kuzatish mumkin. Bu usul ko'proq viruslarni o'rganishda qo'llansadi. Maxsus sharoitda o'stililayotgan to'qimalar muayyan vaqt oraliqlarida suratga tushiriladi yoki kinoga olinadi.

Turli xil tekshurish yo'llari yordamida qo'lga kiritilgan ma'lumotlarni analiz qilishda morfometriya, sitospektrofometriya, sitospektroflyuorometriya va biometriya usullaridan foydalaniлади.

GISTOLOGIYA TARAQQIYOTINING TARIXI

Gistologiya qadimiy fanlardan biri bo'lishiga qaramasdan, u yoki bu strukturalarni ilmiy asosda talqin qilish, ularni (strukturalarni) kattalashtirib ko'rish va nozik struktur tuzilmalarini aniqlash imkoniyati gistologik tadqiqot usullarining mukammallashuvidan keyingina yozaga keldi.

Gistologiya taraqqiyotining bozirgi darajasi to'qimalar va ularning turkibiyi qismi bo'lgan hujaynlarning struktur tuzilmalari to'g'risida mulohaza qilish imkonini beradi. Lekin gistologiyu taraqqiyotining bozirgi bolati ham eng oxirgi chegara bo'imasdan, strukturalar to'g'risidagi ma'lumotlarning yanada kengayishi va chuoqurlashishi o'z-o'zidan ravshanadir. Shunday qilib, gistologiya taraqqiyotining har bir davriga tadqiqot usullarining mukammalligiga mos keladigan to'qimalar strukturalari to'g'risidagi tasavvurlar xos bo'lib, ularni talqin qilish hukmron bo'lgan ideologiyani aks ettiradi.

Shu munosabat bilan gistologiya taraqqiyotining tarixini ikki bosqich: mikroskopiyagacha bo'lgan bosqich va mikroskopik gistologiyi bosqichlariga bo'lish mumkin. Mikroskopiyagacha bo'lgan davr gistologiyasi ("anatomik histologiya"). Bu davrda morfoligik strukturalarni o'rGANISHDAN Aristotel (eramizdan avvalgi IV asr), Galen (eramizdan avvalgi III asr), keyinroq (X asrda) Abu Ali ibn Sinoning asarlari ma'lum ahamiyatiga ega. O'ra osiyolik ulkaa olim va mutafakkir, tabib Abu Ali ibn Sino (Evropa nashrlarida Avitsenna) "Meditisina odam tarasini u sog'loemligi yoki sog'ligini yo'qotganligi tuftayli tekshiradi" deb hisoblaydi va a'zo yoki uning qismulari "tabiatini" alohida sinchkovlik bilan o'rGANADI. U oddiy va murakkab a'zolarni farq qilgan. Murakkab a'zolarga suyak kiradi. U qattiq va taranining tayanchi hamda harakatlanishining asosi bo'lib xizmat qiladi. Undan keyin tog aylur, paylar, bog'lamlar, arteriyalar, venalar, pardalar va go'sht (et) keladi. Ibn Sino miyaning, "his-tuyg'ular asosi"- shuningdek, yurak va jigarning tasvirini keltiradi. Ko'zning tuzilishi, vazifasi, xususian ko'z gavhari va shishusimon taranining tuzilishini batafsil bayon qiladi. Ibn Sino ko'rish jarayonida to'g'ardan ahamiyintini mutfaqo to'g'ri qayd qilgan. Ko'z muskullarini va ularning atrofilagi organ va to'qimalar bilan aloqasini ham ibn Sino ta riflab bergan.

Gistologiya taraqqiyotining birinchi bosqichi uzoq, 2000 yillar davom etgan bo'lsa-da, u to'qimalar - organizmning o'zaro faqat fizik xossalari (qattiq, yumshoq, suyuq), rangi (oq, qizil, sariq) va solishtirma og'rifigi (suvida cho'kadigan, cho'kmaydigan) bilan farq qiladigan qismulari to'g'risida umumiy tasavvurlar hosil qilish imkonini berdi. Tadqiqot usullari anatomiyaiga xos bo'lgan bu davrni histologiya fanning ilk tarixi (muqaddimosi) deb atash mumkin.

Mikroskopik histologiya to'qimalarining strukturalarini o'rGANISH maqsadida mikroskopni qo'llashdan (Robert Guk, 1665 y.) boshlanadi. Fizik R.Guk, anatom M.Malpigi, botanik N.Gryu, havaskor-optik A.Levenguklar birinchi mikroskopistlardan hisoblanadi. Ular 140-300 marta kattalashtiradigan mikroskoplar yordamida teri, tuloq, qon, muscular, urug suyuqligi va boshqalarining tuzilishini tasvirlab bergan. Lekin bu davruning mikroskoplari sferik va xromatik aberratsiya bilan bog'liq bo'lgan malum kamchilikka ega bo'lib, ko'rish maydonida kamalaksimon shafaq hosil bo'lishi u yoki

bu strukturani aniq farq qilishiga xalaqt berar edi. Bu bol tadqiqotchilarning ilmiy kuzatishlarga bo'lgan ishtiyoqini so'ndirib, mikroskopining keng qo'llanilishiga to'siq bo'ldi. Mikroskopiyaga nisbatan salbiy munosabatlarga bu davrdan hukmron bo'lgan, tabiatda hech bir narsa yangidan bosil bo'lmaydi, organizmlarning taraqqiyoti - duman yaratalishi paytida asos solingan kurtaklarning o'sishidir, deb hisoblovchi pre-formatsiya nazariyası (Galler) ham sahab bo'ldi. Bu nazariyaga ko'ra, yangi organizmlarning taraqqiyoti qiliшибida shakllangan va jinsiyl bujayraga (tuxum hujayraga - ovizm, spermiya - animalkulzim) kiritib (solib) qo'lligan organizmaning o'sishi yuz beradi.

XVIII asrning oxiri - XIX asrning boshlarida peterburglik, shuningdek goldansiyalik olimlar va ustalar mikroskopik kuzatishlar natijalarini ishonari qilgan va xilma-xil o'simlik hamda hayvonlarning strukturalarini sistemali ravishida o'rghanishga kirishish imkonini berган axromatik mikroskoplarni yaratdilar. Ilmiy tadqiqotlarda axromatik mikroskopni qo'llash histologiyaning taraqqiyoti uchun yangi turki bo'ldi.

Peterburg fanlar akademiyasida I.Kuleman jinsiyl sikl va bo'g ozlik jarayonida qo'y tuxumdonini, P.Ash - urug suyuqligini, L.M.Shumlyanskiy esa buyrakning mikroskopik tuzilishini o'rindi. Ya.Purkine (1825-1827) tovuq tuxumida, keyinroq esa hayvonlar turli to'q qismalarining hujayralarida o'zakni tasvirlab berdi. Keyinchalik u fanga "protoplazma" tushunchasini kiritdi, nerv hujayralari shaklini, bezlarning tuzilishini va bosqalarini o'rindi. R.Braun o'zak barcha o'simlik hujayralarining dosmий tarkibey qismidir, degan xulosaga keldi. Shunday qilib asta-sekinlik bilan hayvon va o'simlik organizmlarining mikroskopik tuzilishi, ilgariroq R.Guk tomonidan "hujayra" (cellula) deb atalgan strukturni to'g'risida material to'plana boshladi. Bu davr A.Dyutroshe, P.F.Goryainov, G.Valentin, Ya.Genli, M.Shleyden va T.Shyann tadqiqotlari bilan yakunlandi. T.Shyann o'zidan oldingi barcha tadqiqotlarni umumlashtirish, 1838-39 yillarda hujayra nazariyasini yaratdi.

Theodor Shvann hujayranı o'simlik va hayvonot dunyosi uchun universal bo'lgan asosiy element deb qaradi.

Hujayra nazariyasining yaratilishi nafaqt biologiya va meditsinanining, balki falsafaniн ham taraqqiyoti uchun juda katta progressiv ta'sir ko'rsatdi, o'sindik va hayvonlar struktur tuzilishini obyektiv baholash uchun imkon tug'dirdi. XIX asrning o'talarini organlar va to'qimalar histologiyasi, ularning histogenezini o'rghanish avj olgan davr deb hisoblash mumkin. Organlar va to'qimalarining mikroskopik tuzilishini o'rghanish to'qimalar tasmifiga aniqlik kiritdi (F.Leydig, A.Kyolliker va b.) va mikroskopik anatomiya asoslarini yaratish imkonini berdi.

Lekin mikroskopik texnikaning holati o'sha paytidagi ilmiy fikri qanoatlantira olnass edi. Sovli va moyli immersion obyekтивларни qo'llash natijasida mikroskopining katalashtirish qobiliyatini oshirildi, mikrotom ixtiro qilindi va yangi fiksstorlar (formulin, osamiv va xrom kislotalar) qo'llaniladigan bo'ldi. K.Golji to'qimalarni kumush tuzlari bilan impregnatsiya qilish usulini ishlash chiqish va qo'llash yo'li bilan plastinkali kompleks (hujayra ichidagi to'rsimon appurashni kuzardi va tasvirlab berdi. R.Kaxal bu usulni mukammallaشتirilgan bolda qo'llab, nerv sistemasini har tomonlana pecta o'rghanish va neyrogistologiya asoslarini yaratishi 1906 yilda K.Golji va R.Kaxalga Nobel mukofotini berish uchun asos bo'ldi.

XIX asrda Rossiya Moskva va Peterburg (1868), keyinroq Qozon, Kiev, Xarkov, Derpt (Tartu)da meditsina fakultetlarida mustaqil histologiya kafedralari tush-

kil qilinib, sistemali ravishda ilmiy tadqiqotlar olib borila boshlandi va ilmiy maktablar yaratildi.

Moskva ilmiy maktabi o'z shogirdlari bilan birgalikda turli to'qimalar, ayniqsa, muskul va nerv to'qimalarining gistogramenezi va gisto-fiziologiyasini o'rangan A.I.Babuxin (1827-1891) tomonidan yaratildi. Keyinroq I.F.Ognev (1855-1927) o'rjanilayotgan masalalar doirasiga hujayralar, to'qimalar va organlarning gistostrukturasi va fiziologiyasiga turli xil ichki va tushqi omillarning ta'sirini tadqiq qilishni kirdi.

Peterburg universiteti va mediko-xirurgiya akademiyasida gistoligiya kafedrulariga F.V.Ovsyannikov (1827-1906), N.M.Yakubovich (1817-1879), A.S.Dogel (1852-1922), M.D.Lavdovskiy (1846-1903), A.A.Maksimov (1874-1928), A.A.Zavarzin (1886-1945), L.G.Xlopin (1897-1961) va boshqalar rahbarlik qildi. Ular, ularning shogirdlari va izdoshlari (Nemilov, Danini, Rumyansev, Yasvein, Eliseev, Kadilov va b.) tomonidan biriktiruvchi va epiteliy to'qimalarni qiyosiy-gistologik va eksperimental tadqiq qilish bo'yicha juda katta material to'plandi va urmumlashtirildi. Embrional gistogramenezing qonuniyyatlari (Katsnelson, Shelkunov, Vinnikov, Knorre), endokrin sistemaning struktur tuzilishi, muskul to'qimasining gistogramenezi va regeneratsiya jarayonlari (Nemilov, Rumyansev, Alyoshin, Studitskiy va b.) o'rGANildi.

Kiev universitetida gistoligiya kafedrasining tashkilotchisi P.I.Peremejko bo'ldi. U va uning shogirdlari tomonidan embrion varaqlari va organlar (ko'z, buyrakusti bezi, qon tomirlari, muskul to'qimasasi va b.) ning taraqqiyoti o'rGANildi.

Qozon gistoligiya maktabi (K.A.Arnsbeyn, A.S.Dogel, A.E.Smirnov, D.A.Timoseev, A.N.Mislavskiy, B.I.Lavrentyev, G.I.Zabusov, E.K.Plechkova, M.A.Grigojeva, P.A.Kovalskiy) neyrogistoligiya sohasida ixtisoslashdi.

Hozingi paytda qishloq xo'jalik hayvonlari organlari va to'qimalarining struktur tuzilishi va gistolizmyosi masalalarini Yu.T.Texver, O.V.Aleksandrovskaya, L.V.Davletova, P.A.Ilin, A.F.Rijix, I.S.Rjanitsina, N.A.Goroxovskiy, A.I.Pilipenko, L.P.Telsova va boshqalar rahbarligidagi gistololar janovalari muvaffaqiyatli ravishda o'rGANmoqda.

O'zbekistonda gistoligiya kurslari va kafedralari Toshkent (1920) Samarqand (1930) universitetlari va zooveterinariya institutida tashkil etildi.


Samarqand zooveterinariya (keyinchalik qishloq xo'jaligi) institutining gistoligiya va embrionlogiya kafedrasи 1930 yilda professor G.M.Semyonov tomonidan tashkil qilindi. G.M.Semyonov O'zDU (SamDU) meditsina fakulteti gistoligiya kafedrasining ham mudiri edi. 1938 yil, kafedrami professor V.V.Averburg boshqura boshilagan davrda, tuyalar ovqat hazm qilish yo'lining gistoligiysi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borildi. 1946 yildan SamQXI gistoligiya kafedrasini ayni paytda Samarqand meditsina institutining kafedra mudiri bo'lgan Z.X.Rahmatulin boshqardi. Bu davrda kafedra qoshida aspirantura ochilib, O'zbekiston sharoiti uchun spetsifik hayvon - qorako'l qo'yining zot gistoligiyasini o'rGANish boshlandi (ovqat hazm qilish sistemasi - N.A.Goroxovskiy, quyoshishni chigal-H.A.Shripova). 1960 yildan boshlab kafedrada qorako'l qo'yining morfologiysi hayvon yoshini hisobga olgan holda o'rGANilmogda.

UMUMIY GISTOLOGIYA SITOLOGIYA ASOSLARI

Hujayralar tirk materiyaning yashash shakllaridan biri bo'lib, ularning tuzilishi, taraqqiyoti va hayot faoliyatini o'rganadigan fan sitologiyadir. Sitolog V.YA.Aleksandrov hujayrani

"O'zaro chambarchas bog'langan ikki muhim qism - sitoplazma va o'zakdan iborat elementar, bir butun tirk sistema" deb ta'riflaydi. Robertis, Novinskiy va Saeslar o'zlarining "Hujayra biologiyasi" nomli qo'llammasida "hujayra tirk materiyaning uncha katta bo'limgan protoplazma massasidan iborat, o'zakka ega, plazmatik membrana bilan o'talgan asosiy birligi" deb hisoblaydilar.

Hujayra (yunon.-*kytos*, lotin.-*cellula*) hayvon va o'simliklar organizmlari tuzilishi, taraqqiyoti va hayot faoliyatining asosi hisoblanadi. Murakkab, ko'p hujayrali organizmlar jinsiy hujayralarning qo'shilishi - otalanish natijasida hosil bo'ladigan yagona hujayradan taraqqiy qiladi. Organizmdagi milliardlarcha hujayralar va ularning mahsuli bo'lgan hujayralararo moddalardan iborat to'qimalar, ana shu yagona hujayra - zigotaning ko'payishi va taraqqiyoti natijasida hosil bo'ldi.



2-sasm. Hujayralarning shakllari va nuzulni sanayushi (xetma).
1-otinatrik epitelius hujayrasi; 2-holokson epitelius hujayrasi; 3-pust epitelius (mesothel) hujayrasi; 4-yusulig hujayrasi (ta-1) zig qindor - segmentlarbo'lgan seyratli leydolti; 5-nervli sinboli hujayrasi; 6-muskel o'sakli hujayrasi; 7-qidashshenos hujayra; 8-spermatozoyda hujayra; 9-ko'chqanda hujayra (oz hujayrasi); 10-izchukli hujayra (peritone); 11-ko'p o'sakli hujayra (tornedikt); 12-o'sakli hujayra (oz emtiazchilarning emtoma).

Hayvon organizmi to'qimalarining hujayralari xilma-xil shaklga ega bo'lib (2-rasm), bu shakl hujayralar bajaradigan vazifalar bilan bog'liq (m., nevrotsitlarning uzun o'simtalarga ega ekanligi, qon hujayralarining yumaloq, sharsimon shaklda bo'lishi va boshqalar). Shuningdek, hujayralarning kattaligi ham turlichadir. Eng kichik hujayralar - kichik limfosit, ba'zi hayvonlar eritrotsiti 4-4,5 mkm kattalikda bo'lsa, miyaning yirik nevrotsitlari 120 mkm, sut emizuvchilarining tuxumi 200 mkm keladi. Qushlar tuxum hujayrasi (tuxum-sarig'i)ning diametri hatto bir necha sm ga etadi. Hujayra hajmining doimiylik qonuriga ko'ra, turli hayvonlarning bir tipdagi hujayralari (m: jigar hujayralari)ning hajmi teng bo'ladi. Organlarning turli hayvonlarda har xil kattalikda bo'lishi hujayralar bajmiga emas, balki ular sonining turlicha bo'lishiga bog'liq.

Hujayralarning barcha tarkibiy qismlari: sitoplazma, o'zak va qobig'i protoplazmani tashkil qiladi. Shu jihatdan u "tirik modda" tushunchasiga yaqin. Lekin tirik modda kengroq ma'noda ishlataladigan tushuncha, chunki uning hujayra tuzilishiga ega bo'lgan shakllari ham mavjud.

PROTOPLAZMANING KIMYOVİY TARKIBI VA FİZİKO-KİMYOVİY XOS SALARI

Tirik modda bilan atrof-muhit o'rtaida to'xtovsiz moddalar almashinuvni sodir bo'lib turadi. Organizmlarning o'ziga kerakli moddalarni tanlab qabul qilishi tufayli atrof-muhitda keng tarqalgan ayrim elementlar tirik modda tarkibida juda kam uchrashi, aksincha atrof-muhitda kam uchraydigan ba'zi elementlar ma'lum organlar va to'qimalarda ko'proq to'planishi mumkin. Avvalo shuni e'tirof etish kerakki, eng soddaligi organizmlarning kimyoviy tarkibi ham g'oyat murakkabdir. Organik olamni tashkil qiluvchi xilma-xil o'simliklar va hayvonlar organizmlarining biokimyoviy tuzilish plani bir xil. Turli organizmlarning hujayralari tarkibidagi kimyoviy birikmalar o'zaro o'xshashdir. Tirik modda tarkibiga kiruvchi kimyoviy elementlardan C (karbon) alohida ahamiyatga ega - u organik birikmalar hosil qiluvchi elementdir. C, H, O, N, K, Ca, Na, P, S, Mg, Fe, Cl hayvon organizmi massasining 99 foizini tashkil qiladi va **makroelementlar** deb nomlanadi. C, H, O, N - bular organik birikmalarning asosini tashkil qiluvchi elementlardir. Tirik modda tarkibida juda kam miqdorda uchrovchi elementlar (**mikroelementlar**) Cu, Co, Zn, Mo, J, F va boshqalar ham moddalar almashinuvni va boshqa hayotiy jarayonlarda faol qatnashadi.

Kimyoviy elementlar protoplazma tarkibida murakkab organik birikmalar - oqsillar, nukleotidlar, nuklein kislotalar, karbonsuvarlar, lipidlar va

boshqalar holida bo'tadi.

Oqsillar aminokislotalarning juda yirik (gigant) molekulali polimerlari - polipeptid moddalardir. Ular organizm barcha strukturalarining qurilish (plastik) materiali hisoblanadi. Protoplazma quruq moddasining 80 foizi plastik oqsillardir. Oqsillar juda muhim vazifalar - ferment, transport, himoya (immun tamalar) va qisqarish (harakat) vazifalarini bajaradi. Oqsillarning molekulalari tarkibiga kiruvchi 20 xilga yaqin aminokislotalarning polipeptid zanjirda joylashish tartibini oqsil molekulasingning birlamchi strukturasi deb ataldi. Molekulaning ikkilamchi, uchlamchi strukturalari va boshqa xossalari avvalo ana shu tartibga bog'liq. **Fibrillyar** (tolador) tuzilishga ega, kimyoviy faoliigi past oqsillar va **globulyar**, kimyoviy faol, moddalar almashinuvida katta aharniyatga ega oqsillar mavjud.

Oddiy oqsillar - proteinlar va murakkab oqsillar - proteinlар farq qilinadi. Proteinlar (kollagen, elastin, albumin, globulin, miozin va boshqalar) ko'pchilik hollarda faqat aminokislotalarning qoldiqlaridan iborat. Proteinlар tarkibiga aminokislotalarning qoldiqlaridan tushqari oqsil bo'lmanan modda (prostetik guruh) ham kiradi. Protestik guruhning kimyoviy tarkibiga ko'ra, nukleoproteidlar, glikoproteidlar, lipoproteidlar va xromoproteidlar farq qilinadi.

Nukleotiddar va nuklein kislotalar. Nukleotiddar aminokislotalar kabi polimer molekulalar (DNK va RNK)³ hosil qila oladigan birikmalaridir. Ularning molekulalari karbonsuv (riboza yoki dezoksiriboza), fosfor kislota qoldig'i hamda tarkibida N bo'lgan purin yoki pirimidin organik asoslardan tuzilgan. Purin asoslari adenin (A) va guanin (G), pirimidin asoslari timin (T) va sitozin (S)⁴lar bo'lib, RNK tarkibida timin o'miga boshqa pirimidin - uratsil (U) uchraydi. DНK molekulasi ikki zanjirli spiral, RNK molekulasi esa zanjirsimon tuzilishga ega. DНKning asosiy qismi hujayra o'zagida, RNK esa sitoplazmada va qisman o'zakda uchraydi. DНK molekulasi zanjirlarida nukleotidlarning joylanishi tartibi DНK kodи decyiladi va u hujayrada sintezlanadigan oqsil molekulasida aminokislotalarning joylanishi tartibini belgilaydi.

Molekulasida bir necha fosfor kislota qoldig'i saqlovchi nukleotidlar ham bor. Masalan, ATF va ADF⁴ hujayradagi energetik jarayonlarda juda katta aharniyatga ega.

Lipidlar (yunon. *lipos-yog*) protoplazmada ancha keng tarqalgan. Lipidlar soddarоq tuzilgan yog'lar va ularga nisbatan murakkabroq tuzilgan birikmalar (lipoidlar)ni o'z ichiga oladi. Yog'lar yog' kislotalari va uch

³ DНK - dezoksiribonuklein kislota, RNK - ribonuklein kislota

⁴ ATF - adenosintrifofat, ADF - adenosindifofat

atomli spirit glitserinning birikmasi bo'lib, oqsillar bilan kam kimyoviy aloqada bo'ladi, yog' tomchilari holida uchraydi va parchalanganda ko'p energiya ajratadi. Lipidlar tarkibida glitserin va yog' kislotalaridan tashqari, fosfor kislota hamda azotli asoslar uchraydi. Ular oqsillar bilan birikkan holda (lipoproteidlar) protoplazmaning turli strukturalari, masalan, membranalar tarkibida uchraydi. Bunday molekulalarning hidrofil va hidrofob qutblari mavjud.

Karbonsuvlar C, H va O ning birikmasi bo'lib, H va O karbonsuvlar molekulasida 2:1 (ya'ni H_2O) nisbatdadir. Glyukoza, saxaroza, laktosa, kraxmal, hayvon kraxmali - glikogen karbonsuvlardir. Ular hujayradagi turli jarayonlar uchun kerakli energiyaning muhim manbaidir. Karbonsuvlar, ayniqsa, o'simliklar dunyosida keng tarqalgan (o'simliklar organizmining 80 foizi karbonsuvlardir), hayvonlar organizmida kamroq (20 foiz atrofida) bo'ladi.

Murakkab polisaxaridlar-glikozaminoglikanlar biriktiruvchi to'qimaning hujayraaro moddasi va ko'pgina bezlarning sekreti tarkibiga kiradi. **Neytral** va **kislotali glikozaminoglikanlar** farq qilinadi. Oliy hayvonlar to'qimalarida ko'proq kislotali (gialuron va xondroitin sulfat kislotalar, heparin) glikozaminoglikanlar uchraydi. Glikozaminoglikanlar so'ruchchi (shimuvchi) membranalar (ichak va buyrak epiteliysi)da uchrab, suv va undagi, ionlar hamda mayda molekulalar harakatlanadigan yo'llar sistemasini hosil qiladi.

Anorganik moddalar: suv va tuzlar. Organizmning 70-80 foizi suvdır. Suv erituvchi modda bo'lishi bilan birga, protoplazma turli strukturalarining tarkibiga kiradi. Ko'p miqdordagi suvning yo'qotilishi organizmdagi hayotiy jarayonlarning to'xtashiga olib keladi. Metallarning ionlari Na^+ , K^+ , Ca^{++} , Fe^{+++} va boshqalar turli jarayonlarda ishtirok qiladi. Ular murakkab kompleks birikmalar tarkibiga kirib, xefatlari hosil qiladi (m: gemoglobin).

Tirik modda organik birikmalar va anorganik moddalarning oddiy aralashmasi bo'lmasdan, balki bir butun murakkab sistemadir.

Protoplazma rangsiz, yorug'likni suvdan ko'ra kuchliroq sindiradigan, solishtirma og'irligi 1,03 bo'lgan modda. Protoplazmaning xossalari hujayraning fiziologik holatiga qarab ancha oson o'zgaradi. Uning yopishqoqligini glitserinnikiga tenglashtirish mumkin. Protoplazma fizik holatining o'zgaruvchanligi uning moddalari kolloid holatda ekanligi bilan bog'liq.

Eritma tarkibida diametri 1-100 nm zarrachalar bo'lsa, bunday eritmani kolloid eritma deyiladi. Kolloid eritmadiagi zarrachalarning maydalish darajasi disperslik darajasi deyiladi. Kolloid eritma zarrachalarning

yig'indisi - dispersion faza va erituvchi (dispersion muhit) farq qilinadi.

Kolloid zarrachalarning disperslik darajasi, ularning o'zaro yopishib qolmasligi, avvalo, bu zarrachalarning bir ismli zaryadga ega ekanligiga bog'liq. Shuning uchun elektrolit eritmasi qo'shish kolloid eritma zarrachalarining cho'kisiga sabab bo'ladi. Bu hodisa koagulyatsiya deb ataladi. Odatda koagulyatsiya orqaga qaytuvchi jarayondir. Cho'kmaga tushgan oqsil zarrachalarining fiziko-kimyoviy sharoitlar o'zgarishi bilan yana eritmaga o'tishi peptizatsiya deyiladi. Fiziko-kimyoviy ta'sirlar (og'ir metallarning tuzlari, anorganik kislotalar, qizdirish) ta'sirida qaytmas koagulyatsiya - denaturatsiya yuz beradi.

Oqsil zarrachalar o'z zaryadini oson o'zgartira oladi: kislotali muhitda mushat (+), ishqorli muhitda manfiy (-) zaryadga ega bo'ladi. Demak, dispers muhit zaryadining o'zgarishi hujayrada kechadigan jarayonlarga juda katta ta'sir qiladi. Kolloid zarrachalarning maydalanishi natijasida eritma suyuqlanishiga eritmaning zol holatga o'tishi deyiladi. Ma'lum sharoitlarda eritma quyuqlashib gel holatga o'tadi. Sovutilgan jelatina eritmasining zichlashishi zolning gelga o'tishi (jelatinizatsiya)ga misol bo'ladi.


HUJAYRANING TARKIBIY QISMLARI.

Hujayralar uch tarkibiy qism: sitoplazma, o'zak va plazmolemmadan tashkil topadi. Sitoplazma va uning organellalari hujayra hayot faoliyatini, shuningdek ko'p hujayrali organizmlarda hujayraning o'ziga xos (spetsifik) vazifasini ta'minlovchi asosiy metabolizm apparatidir. O'zak esa genetik axborot (informatsiya)ni hosil qiluvchi va saqlovchi, bu axborotni hujayraning bo'linishi natijasida hujayra avlodlari qatorida o'tkazilishini ta'minlovchi tuzilmadir. Plazmolemma hujayraning tashqi muhit bilan o'zaro fiziko-kimyoviy ta'sirini, shuningdek ko'p hujayralarda organizm hujaynalarining o'zaro aloqasini ta'minlaydi (3-rasm).

Sitoplazma. Sitoplazma hujayra atrofi muhitidan plazmolemma bilan chegaralangan bo'lib, gialoplazma va unda joylashuvchi doimiy komponentlar - organellalar va turli xil doimiy bo'lagan strukturalardan iborat.

Gialoplazma yoki asosiy plazma hujayraning ichki muhiti hisoblanuvchi juda muhim qismidir. Elektron mikroskopning ko'rsatishicha, u elektron zichligi past bo'lgan gomogen yoki nozik donador modidladir. Unda murakkab kolloid holatda oqsillar, nuklein kislotalar, polisaxaridlar va boshqa birikmalar mavjud. Gialoplazmada ribosomalar va poliribosoma (polisoma)lar ishtirokida hujayraning o'z ehtiyojlari uchun kerakli oqsillar sintezlanadi.

Hujayraning membranalari lipoproteid tabiatli yupqa plast (qavat) bo'lib, oqsillar (60%), lipidlar (40%), ayrim membrana karbonsuvlaridan (5-10%) tuzilgan (4 rasm).



4-rasm. Ke'p hujayrali hayvondar hujayrali ultrastrukturining shemasi
(A.A.Zavarzin dan M.Yu.Pesin
bo'yicha):

- 1-kromat; 2-kromatin asifligi granular; 3-o'zakha asifligi xromatin; 4-c'arakchong fibrillar kompoziti; 5-o'zakha qobig'ning pasteri; 7-permakine boshligi; 8-soriroki; 9-gurunlyk sinplastikni to'; 10-erkin yonuchi rho-somalar; 11-siliq steplamatik to'; 12-plastintali kompleksi; 13-sekret granular; 14-leucosoma; 15-pirofagosome; 16-piterolipidico-soma; 17-ikozoma; 18-anofagosome; 19-vimondriyde; 20-lipid kremalari. Ko'sistikich chiziq hujayra ichida fagosomes, limenatur, fagolizozmalar va secret granelarining harakat-hushini ko'natadi.


Lipidlar qalinligi 5-7 nm keladigan ikki qavat (bilipid) membranalardan hosil qila oladi. Ularning bu qobiliyati molekulalarining funksional jihatdan har xil bo'lgan ikki qism: gidrofob va hidrofil qutblari borligi bilan bog'liq. Oqsil molekulalari ham ikki qism, zaryadga ega (qutblangan) aminokislotalarga boy va zaryadsiz (qutblanmagan) aminokislotalardan iborat qismlarga ega. Bunday oqsillarning qutblanmagan qismlari membrananing hidrofob qismlariga botib kirib turadi. Qutblangan qismlari esa membranadagi lipidlarning hidrofil qismlari bilan aloqada bo'lib, hujayradagi suvli muhit tomoniga yo'nalgan bo'ladi. Shuningdek, bilipid qavat bilan qisman aloqada bo'lgan va aloqada bo'lmasan oqsillar ham mavjud. Biologik-funksional ahamiyatiga ko'ra ferment, transport (tashuvchi), retseptor va struktur oqsillar farq qilinadi.

Karbonsuvlar membrana tarkibida erkin holda emas, balki lipidlar va oqsillar bilan birikkan (glikolipidlar va glikoproteidlar) bo'ladi.

Plazmolemma yoki hujayraning tashqi membranasini hujayra turli membranalari orasida alohida o'rinni egallaydi. Bu membrana hujayrani chegaralovchi, shuningdek, uning hujayra atrof-muhiti, hujayraga ta'sir

qiluvchi barcha faktorlar bilan aloqasini ta'minlovchi strukturadir. Plazmolemma qalinligi 10 nm atrofida bo'lgan lipoproteid kompleksdir. Uning tashqi yuzasida glikoproteidlardan iborat 3-4 nm qalnilikdagi glikokaliks joylashadi. Plazmolemma sitoplazmuni atrof muhitdan chegaralab turish, retseptoriq va moddalar tashish (transport) kabi muhim vazifalarni bajaradi.

4-cism. Hujayra membranining tuzilishi (oxuma):
1-lipidlar, 2-ikki qavat lipid molekulalarning gidrofob zonası; 3-
membranuning integral oqsillari; 4-
gliko-kaliksning polisakaridlari.




Uning yuzasida joylashgan glikoproteidlар va glikolipidlar gormonlar, mediatorlar hamda maxsus (spetsifik) antigenlar uchun sezuvchi retseptor rolini o'taydi. Hujayralarning o'zaro bir-birini tanishi (amqlashi), immunitet bosil bo'lib rivojlanishi, turli fizik ormillarni qabul qilish kabi muhim jarayonlar plazmolemmanning retseptortari bilan bog'liq. Plazmolemmanning transport vazifasi suv, ionlar, ayrim mayda molekulalarning diffuziya yo'li bilan (nofaol) o'tkazilishidan tashqari, konsentratsiya gradientiga qarshi yo'nalishda, ATP parchalanishi energiyasi hisobiga faol tashilishi bilan ham bog'liq. Bu jarayonlarda maxsus oqsil-tashuvchilar ishtirot qiladi. Biopolimerlarning yirik molekulalari amalda plazmolemma orqali o'tmaydi. Qator hollarda makromolekulalar va hatto yirik zarrachalar hujayra ichiga **endotsitoz** yo'li bilan kiradi. Endotsitoz shartli ravishda fagotsitoz (hujayra tomonidan yirik zarrachalar, m., bakteriyalar, hatto boshqa hujayralarning qismalarini qamrab olinishi va yutilishi) hamda pinotsitoz (makromolekulyar birikmalarning qamrab olinishi)ga bo'lindi. Endotsitoz yutiladigan moddalarning retseptor molekulalalar vositasida plazmolemma sirtiga yopishib olishi (sorbsiya) dan boshlanadi. Keyin plazmolemmanning hujayra ichiga qaragan va uncha katta bo'lmagan botiqlari paydo bo'la boshlaydi. So ngra bu botiqlar yiriklashib, pufakchalar holida plazmolemmadan ajraladi va sitoplazmada joylashadi. Endotsitoz pufakchalar o'zaro qo'shilib yiriklashadi, ular ichida lizotsomalardan o'tgan gidrolitik fermentlar paydo bo'ladi. Fer-

mentar ta'sirida parchalangan biopolimerlar mono-merlar holida pufakchadan gialoplazmaga chiqadi. Shunday qilib, endotsitoz yo'li bilan hujayraga kirgan molekulalar membrana bilan o'ralgan pufakcha (vakuola)da hujayra ichi hazm jarayoniga uchraydi. Plazmolemma ekzotsitoz (hujayradan moddalarlarning chiqarilishi)da ham ishtirok qiladi. Bunda hujayra ichida hosil bo'lgan moddalar - oqsillar, glikozaminoglikanlar, yog' tom-chilari va boshqalar hujayra atrofmuhitiga chiqariladi.

Endotsitoz va ekzotsitoz amalga oshishida plazmolemma bilan aloqada bo'luvchi fibrillyar sitoplazmatik strukturalar - qisqaruvchi mikrofila-mentlar va mikronaychalar ishtirok qiladi.

Hayvonlar ko'pchilik hujayralarining plazmolemmasi turlicha tuzilishga ega bo'lgan o'smalar hosil qila oladi. Qator hujayralarning o'smali tarkibida sitoplazmaning mikromaychalar, fibrillalari bo'tishi natijasida maxsus tuzilmalar - tukchalar, xivchinlar va boshqalar yuzaga keladi. Aksariyat ko'pchilik hollarda hayvon hujayralarining yuzasida mikroso'rg'ichlar (mikrovorsinkalar) uchraydi. Ularning diametri 100 nm atrofida, uzunligi va bir hujayradagi soni turlicha bo'ladi. Mikroso'rg'ichlar so'ruchchi (shimuvchi) epiletiy hujayralari yuzasida ayniqsa ko'p va baland bo'yli bo'ladi.



5-sizm. Hujayralararo beg'lisishlar (sizma):
1-odiy beg'lisish; 2-burmog'umon beg'lisish;
3-desmosoma; 4-ach beg'lisish; 5-yengizma
beg'lisish.

HUJAYRALARARO BOG'LANISH (KONTAKT)LAR.

Ko'p hujayralarda plazmolemma har xil hujayralararo bog'lanishlar hosil bo'lishi va hujayralar o'rjasida aloqa o'matilishida ham faol ishtirok qiladi (5-rasm).

Eng oddiy bog'lanishda qo'shni hujayralarning plazmolemmalari o'zaro 15-20 nm gacha yaqinlashib, ularning glikokaliksi aloqaga kirishadi. Zich bog'lanish (bekituvchi zona) ikki qo'shni hujayraning plazmolemmasi maksimal darajada yaqinlashib go'yoki qo'shilishidan hosil bo'ladi. Bu zona ionlar va makromolekulalar o'ta olmaydigan to'siq bo'lib, hujayraaro yoriqlarni bekitib, tashqi muhitdan chegaralab turadi. Ko'pincha, ayniqsa, epiteliyda hujayralar bog'lanishining alohida turi - desmosomalar uchraydi. Ular diametri 0,5 mkm keladigan tuzilmalar bo'lib, qo'shni hujayralar membranalari orasida elektronlar uchun zich zona joylashadi. Desmosomalar asosan hujayraiar orasidagi mexanik bog'lanishni ta'minlaydi.

Yoriqsimon bog'lanish (neksus) 0,5-3 mkm keladigan zona bo'lib, bu erda qo'shni hujayralarning plazmolemmasi 2-3 nm misofa bilan ajralib turadi. Plazmolemmalari orasida maxsus oqsil komplekslar joylashadi va hujayralar orasida ionlar hamda mayda molekulalar tashilishini ta'minlovchi kanallar hosil qiladi. Bunday bog'lanishlar barcha to'qimalarda uchraydi. Bog'lanishning yana bir turi - sinapslar nerv to'qimasini o'rganishda qarab chiqiladi.

HUJAYRANING ORGANELLALARI

Organellalar barcha hujayralarda doimo uchraydigan va o'ziga xos tuzilishga ega bo'lgan, hujayraning muayyan va muhim vazifalarini bajaradigan mikrostrukturalardir. Membranalı tuzilishga ega (plazmolemma, sitoplazmatik to'r, mitoxondriyalar, plastinkali kompleks, lizosomalar, peroksisomalar) va membranasiz tuzilgan (erkin yotuvchi ribosomalar va polisomalar, mikronaychalar, sentriolalar va filamentlar) organellalar farq qilinadi. Tuzilishida membrana ishtirok etadigan organellalardan sitoplazmatik to'r, plastinkali kompleks, lizosomalar, peroksisomalar va o'zak qobig'i hujayraning vakuolyar sistemasini tashkil qiladi. Bu sistemaning elementlari gialoplazmadan bir membrana bilan chegaralangan bo'lib, hujayra ichida moddalar sintezi va transporti (tashilishi)ni amalga oshiradi. Mitoxondriyalar ikkita membrana vositasida gialoplazmadan chegaralaniib turadi. Organellalar ichini o'z tarkibi, xossalari va vazifalariga ko'ra gialoplazmadan farq qiluvchi modda - matriks to'ldirib turadi.

Sitoplazmatik to'r vakuola, yassi xaltachalar, naychalar shaklidagi o'zaro tutashgan, membrana bilan o'ralgan bo'shliqlar sistemasi bo'lib, elektron mikroskop vositasida ko'rindi. Granulyar va agranulyar sitoplazmatik to'r farq qilinadi.


Granulyar sitoplazmatik to'r (6-rasm) kengligi 20 nm dan bir necha mkm gacha bo'lган, membrana bilan o'ralgan bo'shliqlar sistemasi bo'lib, membrananing sirtqi yuzasida donacha (granula)lar shaklida ribosomalar joylashadi. Sitoplazmatik to'ming bu turi oqsillar biosintezida faol ishtirok qilib, oqsilli sekret ishlab chiqaruvchi bez hujayralari, gepatotsitlar, fibrot-sitlar va plazmotsitlarda uyniqsa, yaxshi taraqqiy qilgan. Bu erda sintezlangan oqsil hujayradan tashqariga chiqarilishi (eksport qilinishi) yoki hujayra ichida boradigan metabolizm jarayonlarida ishtirok etishi mumkin. Granulyar sitoplazmatik to'rda membrana tarkibiga kiruvchi integral oqsillar ham hosil bo'ladi.

Agranulyar sitoplazmatik to'r membrana bilan chegaralangan mayda, diametri 50-100 nm keladigan vakuolalar va tarmoqlanishi hamda bir-biri bilan tutashishi mumkin bo'lган naychalardan iborat. Bu erdag'i membrana yuzasida ribosomalar uchramaydi. Agranulyar sitoplazmatik to'r granulyar sitoplazmatik to'r hisobiga hosil bo'lib taraqqiy qiladi. Agranulyar sitoplazmatik to'r lipidlar va ayrim polisaxaridlar metabolizmida, turli xil zararli moddalarning maxsus fermentlar yordamida zararsizlanrilishida ishtirok qiladi.

Plastinkali kompleks (ichki to'rsimon apparat, Golji kompleksi). (7-rasm) Preparatlarga og'ir metallarning tuzlari bilan ishlov berilganda ko'rindigan organella bo'lib, K.Golji tomonidan birinchi marta nevrotsitlarda antqilangan. Elektron mikroskopda bu organella sitoplazmaning kichik bir qismida to'plangan membranalni tuzilmalar holida ko'rindi. Bunday to'planlar **diktiosomalar** deyilib, hujayrada bir nechta bo'lishi mumkin.

Plastinkali kompleks membrana bilan o'ralgan yassilangan xaltachalar (sisternalar), naychalar va mayda pufakchalar (vezikulalar)dan iborat murakkab organella. Sekretor hujayralarda u o'zak bilan hujayra apikal uchi (qutbi) orasida joylashadi. Bu organella sitoplazmatik to'rda sintezlangan moddalarning segrigatsiyasi va to'planishida, ularning kimyoiy qayta qurilish va yetilishida ishtirok qiladi hamda shu yo'l bilan sekretsiyada qatnashadi. Sekret tarkibiga kiruvchi murakkab oqsillar - glikoproteidlar va mukoproteidlarning polisaxaridlari plastinkali kompleksda sintezlanadi. Ayrim hollarda bu organellaring pufakchalarida qayta sintezlangan lipidlar molekulalarining to'planishi va lipoproteidlar hosil bo'lib, pufakchalar yordamida hujayradan tashqariga chiqarilishi mumkin.

Plastinkali kompleks membranalari granulyar sitoplazmatik to'r ishtirokida hosil bo'ladi.




6-samus. Granulyar sitoplazmatik to'rning tuzilishi:

A-vessica, B-jigit hujayrasini ko'nni bir qismining electron mikrofotografiyası; 1-ribosemalar; 2-plastinkalar; 3-sistemalarning ichidagi bo'shligi; 4-ribosomatarga ega bolnagan membranalar qisyluvchi pefekchalar.

Lizosomalar pufaksimon shakldagi 0,2-0,5 mkm kattalikka ega bo'lgan bir (yakka) membrana bilan o'ralgan tuzilmalardir. Ularning xarakterli belgisi turli biopolimerlarni gidrolizlovchi fermentlar (proteinazalar, nukleazalar, glyukozidazalar, fosfatazalar, lipazalar) saqlashidir. Birlamchi, ikkilamchi (fagolizasomalar va autofagosomalar) lizosomalar va qoldiq tanachalar farq qilinadi. Birlamchi lizosomalar strukturatsiz modda bilan to'lgan, gidrolazalar, jumladan faol kislotali fosfataza saqlovchi pufakchalardir. Ferment granulyar sitoplazmatik to'rda hosil bo'lib, plastinkali kompleks orqali birlamchi lizosomaga o'tadi. Ikkilamchi lizosomalar hujayra ichi hazm qilish vakuolalari hisoblanib, birlamchi lizosomalarning fagotsitoz va pinotsitoz vakuolalari bilan qo'shilishidan hosil bo'ladi. Ikkilamchi lizosomalarning maxsus turi - autofagosomalar o'zgargan va parchalanishi lozim bo'lgan hujayra organellalarining birlamchi lizosomalar bilan qo'shilishining natijasidir. Lizosomalar ichida turli biopolimerlarning batamom parchalanmasligi natijasida, bunday mahsulotlar to'planishidan qoldiq tanachalar (telolizosomalar) paydo bo'lishi mumkin. Ba'zan lizosomalar ishtirokida hujayra sintezlagan moddalar modifikatsiyaga uchraydi. Masalan, qalqonsimon bez hujayralarida tiroglobulin gidrolizlanib tiroksin gormostiga aylanadi.

Peroksisomalar membrana bilan o'ralgan 0,3-1,5 mkm kattalikdagagi oval tanachalar bo'lib, ularning ichini to'ldirib turgan donador matriks markazda joylashuvchi, ipchalar va naychalardan iborat kristallsimon strukturalar saqlaydi. Peroksisomalar sitoplazmatik to'r sistemalarining

kengaygan tormonlarda hosil bo'ladi, deb hisoblanadi. Bu organellada aminkislotalarni oksidlovchi fermentlar, shuningdek bu jarayon natijasida hosil bo'luvchi H_2O_2 ni parchalovchi katalaza fermenti uchraydi. Peroksisomalar, ayniqsa, buyrak va jigar hujayralari uchun xarakterli strukturalardir.



7-rasm. Plasticall kompleks:
A-Goji usali bilan impregnasiya
qilingan orqa miya serv hujayri – 1-
o'sak; 2-o'rikchi; 3-plastikali kompleks;
4-alternativskopik xozra (ish
o'chishli rekonstruksiyasi); 5-
plastikali kompleksning ulug'usiga
ketini (jager hujayralarda) – 1-
pulakchilar; 2-egychilar; 3-
yapsoqligasi salincha (sistemlari); 4-
granulyar sinoplazmatik to'eng
plastin-kalari.

Mitoxondriyalar (xondrosomalar) (8-rasm) barcha eukariot hujayralarda uchrudigan ipcha, tayoqcha yoki donachalar shaklidagi, 1,0-10,0x0,2-0,5 mkm kattalikka ega organellalardir. Mitoxondriyalarning asosiy vazifasi hujayraning nafas olishida qatnashish, ya'ni qand va yog'arning oksidlansidan hosil bo'ladigan energiya hisobiga ATP sintezlashdir. Shuning uchun ularni hujayraning energetik stansiyalari deb ham ataydilar. Hujayralarda mitoxondriyalarning soni bir necha yuz (hatto 2-3 mingtagacha) bo'lishi mumkin. Ularning shakli va kattaligi esa o'zgartuvchan bo'ladi. Tirkik hujayralarda mitoxondriya o'z o'mini o'zgartirishi, o'zaro qoshilishi, bo'linishi mumkin. Mitoxondriyalar butun sitoplazmada bir tekis tarqalgan yoki energiyaga ehtiyoj ko'p bo'lgan qismlarga, masalan, harakat apparati yaqiniga to'plangan holda uchraydi.

Ularning ko'payishi hujayrada mavjud bo'lgan mitoxondriyalarning bo'linishi natijasida yuz beradi.

Mitoxondriya har birining qalnligi 7 nm keladigan ikkita membrana bilan chegaralangan. Tashqi membrana konturi tekis xaltaga o'xshagan bo'lib, mitoxondriyani gialoplazmadan ajratib turadi. Tashqi va ichki membrana oralig'i da 10-20 nm bo'shiq mavjud. Ichki mitochondrial membrana ichi matriks bilan to'lgan bo'shilqni o'rabi turadi. Ichki membrana bo'shilq ichiga burma (krista)lar shaklida o'sib kiradi. Kristalarning membranalarida ATP sintezlanishi uchun zarur fermentlar joylashadi. Mitoxondriyalarning matriksi donador tuzilishga ega bo'lib, unda 15-20 nm kattalikdagi donachalar va 2-3 nm yo'g'onlikdagi ipchalar uchraydi. Ipchalar DNK molekulalari, donachalar mitochondrial ribosomalardir.


Mitoxondriyalarda mitochondrial oqsil sintezining avtonom sistemi joylashgan va bu erda mitoxondriya faoliyati uchun zarur oqsillarning bir qismi sintezlanadi.

Ribosomalar kattaligi 25x20x20 nm, oqsil va RNK molekulalaridan tashkil topgan ribonukleoproteid tamachalar bo'lib, hujayraning oqsillar sintezlovchi tuzilmalaridir. Har bir ribosoma biri kattaroq va ikkinchisi kichikroq ikki qismdan tuzilgan. Alovida-alohida yotuvchi ribosomalar va kompleks ribosomalar - polisornalar farq qilinadi. Kam tabaqlangan va tez o'sayotgan hujayralarda ribosomalar gialoplazmada asosan erkin yotadi. Ixtisoslashgan hujayralarda esa ribosomalar sitoplazmatik to'r bilan bog'liq bo'lib, hujayra "eksport" qiladigan oqsillarni sintezlaydi. Ribosomalarga boy, intensiv ravishda oqsil sintezlovchi hujayralarning sitoplazmasi bazoifilik xossasiga ega.

Mikronaychalar. Sitoplazmada ko'p miqdorda tuzilishi va vazifalari xilma-xil fibrillyar strukturalar mayjud. Shulardan biri tarmoqlanmaydigan, uzun va ichi kovakli silindrga o'xshash mikronaychalaridir. Ularning yo'g'oni 24 nm, bo'shilg'i 15 nm bo'lib, devorining qalnligi 5 nm atrosida. Turli manbalar (eng sodda hayvonlarning tukchalar, nevrotsitlar, mitotik duk)dan ajratib olingan mikronaychalar bir xil oqsil - tubulindan iborat. Tubulin ham, mikronaychalar ham faol ATP-azaga ega bo'lmagan uchun qisqara olmaydi va faqat tayanch strukturalar, sentriollar, tukchalar, xivchinchalar hosil bo'lishida ishtirot qiladi.

Interfazani o'tayotgan hujayralarda gialeplazmada doimo uzun va tarmoqlanmaydigan mikronaychalar uchraydi. Bunday strukturalar nevrotsitlarning o'simtalarida, fibroblastlarda va boshqa shaklini o'zgartira oladigan hujayralarda, ayniqsa, ko'plab uchraydi. Mikronaychalar sitoplazmada elastik va barqaror sitoskelet hosil qilib hujayraning o'ziga

xos shaklini saqlab turadi. Ularning emirilishi (masalan, kafxitsin ta'sirida) hujayraning shakli o'zgarishi, moddalar tashilishi (transport) hamda sekretsyaning to'xtashi va boshqalarga sabab bo'ladi. Bo'linayotgan hujayrada mikronaychalarining taraqqiyoti sentriol bilan bog'liq.



B-sasm. Mitoondriyalarning ultramikroskopik tuzilishi:
A-schem. B-jiga: hujayrasi mitoondriyalarning elektron mikroskopografisi:
yoki 1-tashqi mitoondrial membrana; 2-ikki mitoondrial membrana;
3-kristalar; 4-mitoondrial matriks.

larning nozik ichki tuzilishini faqat elektron mikroskop yordamida o'rGANISH mumkin bo'ladi.

Sentriol kovakli silindr shaklida bo'lib, uning devori har biri uchta mikronaychaga ega 9 triplet (uchtalik)dan iborat. Sentriolning yo'g'onligi 0,2 mikm atrofida, uzunligi esa 0,3-0,5 mikm keladi. Har bir sentriol strukturasiz yoki ingi-chka tolalardan iborat matriks bilan o'ralgan. Interfazadagi hujayrani "ona" va "qiz" sentriollarini farqlanib, "qiz" sentriolning uchi "ona" sentriola yuza-siga to'g'ri burchak hosil qilib yo'nalgan. Hujayra mitoza tayyorlanayotganda sentriollar soni ikki marta ortadi. Bunda diplosomalar sentriollari bir-biridan uzoqlashadi va har biri yonida "qiz" sentriol hosil bo'ladi. Bunda "ona" sentriol bo'linmaydi, balki uning yonida, unga nisbatan perpendikulyar joylashgan yangi ("qiz") sentriol hosil bo'ladi. Sentriol tubulindan mikronaychalar hosil bo'lishiga induktiv ta'sir ko'rsatadi.

Tukchalar va xivechinlar maxsus harakat organellalari bo'lib, turli organizzmlarning ayrim hujayralarida uchraydi. Tukchalarining uzunligi 5-10 mikm, yo'g'onligi 20 nm ga teng, xivechinchalarning uzunligi esa 150 mikm


Sentriollar juda mayda, zinch tanachalar bo'lib, odatda juft holda (9-rasm) (diplosoma) joylashadi. Diplosoma ochroq bo'yahuvchi sitoplazma bilan o'ralgan. Undan radial yo'nalihsda sitoplazmaga tarqaluvchi fibrillalar **sentrosfera** deyiladi. Sentriollar va sentrosfera **hujayra markazi** deb nomlanadi. Hujayra markazi bo'linayotgan hujayrada mitotik dux (urchuq) hosil bo'lishda qatnashadi. Sentriol-

gacha yetadi.

Tukcha sitoplazmaning silindr shaklidagi ingichka, plazmolemma bilan o'ralgan o'simtasidir. Bu o'simtaning asosida, sitoplazmada basal tanacha, ichida esa mikronaychalardan iborat, murakkab tuzilishga ega aksонема ("o'q ip") yetadi. Basal tanacha va aksонemaning diametri bir xil - 150 nm atrofida bo'ladi. Basal tanacha tuzilishiga ko'ra sentriolga o'xshash bo'lib, 9 guruh mikronaycha (triplet)lardan iborat. Ko'pincha diplosomadek juft, bir-biriga nisbatan perpendikulyar joylashgan basal tanachalarni uchratish mumkin. Aksонema basal tanachadan farq qilib, uning devori 9 juft mikronaychalardan tuzilgan va bir juft markaziy mikronaychalar ham mavjud. Aksонema va basal tanacha o'zaro bog'langan bir butun tuziltmadir.

Yuqori darajada taraqqiy qilgan tukchaning namunasi xivchinlardir. Xivchinlar ko'pgina bir hujayralilarda uchrayıdi va harakat organellasi hisoblanadi. Xivchinlar va tukchalar bir-biriga o'xshash bo'lib, ularning asosiy farqi xivchinchaning anchagini uzun bo'lishidir. Sut emizuvchilarning birdan-bir xivchinchali hujayralari spermiylar bo'lib, ularning bat biri bittadan xivchinchaga (dumchaga) ega.

Kiritmalar sitoplazma uchun doimiy bo'ligan tarkibiy qismlar bo'lib, hujayrada moddalar almashinuviga holatiga ko'ra paydo bo'lishi va yo'qolib ketishi mumkin. Trofik, ekskretor, sekretor va pigment kiritmalar farq qilinadi. Trofik kiritmalar kimyoiy tarkibiga ko'ra carbonsuv, yog va oqsil kiritmala larga bo'linadi. Hayvon hujayralaridagi glikogen polisaxaridi, yog' tomchilari, tuxum hujayralaridagi vitellin oqsili trofik kiritmalar hisoblanadi. Sekretor kiritmalar odatda yumaloq shaklga ega bo'lib, hujay-ralarning hayot faoliyatini natijsida hosil bo'luvchi biologik faol moddalar saqlaydi. Ekskretor kiritmalar hujay-ralardan chiqarilishi lozim bo'lgan metabolitlar bo'lib hech qanday ferment yoki biologik faol moddalarga ega emas.




S-raqam. Minn. dakkiring qutibida joylashgan hujayra
markazining usulli:

A-schem. Il-elektron mikroskopiyasi-inglezhka libillyar marka
biyu o'ralgan "one" usru (1) va under tangishchi
mikronaychalaridan iborat markazining usulli (2), usbu "qa"
siderdi.

Pigment kiritmalar kelib chiqishiiga ko'ra **ekzogen** (tashqaridan kiran) va **endogen** (organizmda hosil bo'lган) bo'lishi mumkin. Karotin, chang zarrachalari, bo'yogqlar va boshqalar ekzogen pigmentlar hisoblanisa, hemoglobin, hemosiderin, bilirubin, melanin va lipofussin endogen pigmentlardir. Pigmentlar to'qimalarning rangini o'zgartiradi va ko'pincha diagnostik belgilarni hisoblanadi.

O'ZAK

O'zak (yunon. - *carnon*, lotin. - *nucleus*) hujayraning muhim tarkibiy qismi va uning vazifalari hujayrada yuz beradigan oqsil biosintezi bilan chambarchas bog'liq (10-rasm).



10-rasm. Hujayra o'zag'i:

A-qim hujayrasi qizuvchi hujayra o'zagini electron mikroloqrafiyasi (16.000 narta kamal); 1-o'zak qobiq; 2-qobiqdagi poralar; 3-sromatni puchkalar; 4-o'zakha; 5-granulyar sitoplazmatik m'ri (Fusset bo'yicha).

Te'interzadag hujayrasining o'zag'i: 2-o'zaking yuzi surʼati; 2,3-o'zak qobiq'ning tushgi va ichki membranalar; 4-zich plastiko; 5-pora kompleks; 6-ribosomular; 7-petromontatin; 8-cizmamat; 9-o'zak matrikasing elementlari; 10-RNP zarrachalari; 11-o'zakha; 12-o'zakha amri sromatni (Zavarin va Xarova bo'yida).

O'zakda irlsiy informatsiya (axborot) o'zgarmasdan saqlanadi. Bu hol o'zakda DNA molekulalarining qaytdan hosil bo'lishi, ya'ni redundansiyasi natijasida amalga oshadi. Mitoz bo'linishidan keyin paydo

bo'lgan har bir hujayra sifat va miqdor jihatdan tamomila bir xil genetik informatsiya oladi. O'zakda hujayranging oqsil sintezlovchi apparati ham yaratiladi. Bu jarayon o'zakning DNA molekulalarida informatsion, transport va ribosomal RNA sintezlanishi, o'zakda sintez-lungan ribosomal RNA bilan sitoplazmada sintezlanib o'zakka o'tgan ribosomal oqsillar birikishi natijasida ribosomal subbirliklar hosil bo'li-shini o'z ichiga oladi. Shunday qilib o'zak strukturalarini nuklein kislotalar va oqsillar sintezida asosiy ahamiyatga ega.

O'zak eukariot hujayra-larning doimiy tarkibiy qismi bo'lib, odatda bir, ayrim hollarda bir necha o'zak mavjud. O'zakning kattaligi hayvon organizmining turiga, yoshiga, to qimalar tipi va funksional holatiga bog'liq. O'zak tipidagi (ya ni o'zagi katta) va sitoplazma tipidagi (sitoplazmasi ko'p) hujayralar farq qilinadi. O'zakning shakli, odatda, hujayranging shakliga bog'liq, lekin murakkab o'zakli hujayralar (masalan, leykotsitlar) ham uchraydi.

O'zak uni sitoplazmadan ajratib turuvchi qobiq - **kariolemma**, o'zak plazmasi - **karioplazma** va o'zakchadan iborat. Xromatin karioplazmaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.


Kariolemma ikkita - ichki va tashqi o'zak membranalaridan iborat. Bu ikkala membrana perinuklear bo'shilq vositasida bir-biridan ajralib tutradi. Kariolemmasing membranalari o'z tuzilishiga ko'ra, boshqa hujayra membranalaridan farq qilmaydi. Kariolemma tashqi membranasini sitoplazmatik to'r bilan bevosita aloqasi mavjud bo'lishi mumkinligi, gialoplazma tomonidagi yuzasida poliribosomalar saqlashiga ko'ra, sitoplazmatik to'r membrana sistemasiga kiritish mumkin. Ichki membrana esa o'zakdag'i xromatin modda bilan aloqador bo'ladi. O'zak qobig'ida xarakterli strukturalar - teshik (pora)lar mavjud. Ular kariolemma membranalarining o'zaro qo'shilishi natijasida hosil bo'ladi. Teshiklarning diametri 80-90 nm, bu teshikda murakkab tuzilgan donador va tolador strukturalar bor. Hujayrada moddalar almashinuvni qanchalik yuqori bo'lsa, kariolemma teshiklarining soni ham shuncha ko'p bo'ladi.

Karioplazmaning turli bo'yoqlar, ayniqsa, asosli bo'yoqlarni yaxshi qabul qiladigan zinch moddadan iborat qismi **xromatin** (yunon, *chromos-rang*, bo'yoq) nomini olgan. Xromatinning tarkibi DNA va oqsildan iborat. Mitoz yo'li bilan bo'linayotgan hujayralarning xromosomalarini ham xuddi shunday xossalarga ega. Bo'linmayotgan hujayrada yorug'lik mikroskopida ko'rinadigan xromatin karioplazmada ma'lum darajada bir tekis tarqalib yoki ayrim-ayrim parchalar holida to'planib joylashishi mumkin.

Interfazadagi o'zakning xromatini dekondensatsiya natijasida

siyraqlashgan (yumshoqlashgan) xromosomalardir. Xromosomalarning to'liq dekondensatsiyalangan qismi euxromatin nomini oladi va bu joyda moddalar sintezi yuqori sur'atlar bilan amalga oshadi. To'liq dekondensatsiyalangan qismi esa geteroxromatin deb nomlanadi. Xromatin mitoz paytida maksimal darajada kondensatsiyalani zichiashadi va xromosomal shaklida ko'rindi. Bu davrda xromatin hech qanday sintez jarayonlarini amalga oshirmaydi. Shunday qilib, interfazadagi o'zakning xromosomalari dekondensatsiya holatida bo'lib, faol ravishda transkripsiya va reduplikatsiya jarayonlarini amalga oshiradi, mitoz paytida esa maksimal darajada kondensatsiyalanganadi, moddalar sintezlanishida ishtirok qilmaydi va genetik materialni "qiz" hujayralar orasida taqsimlash vazifasini bajaradi.

Xromosomalar (yunon. *chromos*-rang, *soma*-tanacha) DNKnинг oqsillar (asosan giston oqsili) bilan birikmasi, ya'ni dezoksiribonukleoprotein (DNP)dan iborat tuzilmalardir (11-rasm).



11-rasm. Xchromosome morfologi: Xchromosome yang'li mikroskopida ko'rindi (A) va emosiodi tayroni (B); differensial bo'yagan mikroskopida (C) va uning mikroskopicheskii (D).

Xchromosome rasslozheni QD va megnut (E) electron mikroskopleda ko'rindi; 1-chimerler; 2-sentromerler; 3 - metacentromerler; 4 - akrotsentromerler.

DNP molekulalari xromosomalarning elementar fibrillalarini hosil qiladi. Keyingi paytlarda har bir xromosoma murakkab ravishda taxlanib joylashgan gigant (juda yirik) bir DNP fibrilladan iborat, degan fikr ilgari surilmoqda.

Mitotik xromosomalarni ular eng yuqori darajada kondensatsiyalangan paytida, ya'ni metafazada va anafazaning boshida o'rganish qilay. Bu holatda xromosomalalar uzunligi turliha tayoqchalar shaklida bo'ladi. Ularning ko'philigidagi xromosomani ikki elkaga bo'luchchi birlanchi ingichkalashgan joy - sentromer osonlik bilan kuzatiladi. Elkalarini teng yoki

deyarli teng xromosomalalar **metatsentrik**, elklari teng bo'limganlari - **submetatsentrik** xromosomalalar deyiladi. Bir elksi juda qisqa, bilinarbilinmas darajada bo'lgan xromosomalalar **akrotsentrik** xromosomalalar deyiladi. Sentromer bilan mitoz paytida xromosomalalar harakatini ta'minlovchi mitoz dukining mikronaychalari tutashgan bo'ladi. Ayrim xromosomalarning uchlaridan biriga yaqin joyida kichik bir qism - xromosoma yo'ldoshini chegaralab turuvchi ikkilamchi ingichkalashgan joy mavjud. Bu joy aynan shu erda interfazada o'zakcha hosil bo'lgani uchun

o'zakcha tashkilotchisi deb nomlanadi. Bu erda ribosomalar RNK sin sintezlovchi DNK joylashadi. Xromosomalarning elkalari telomerlar (oxirgi qismlar) bilan tamom bo'ladi. Xromosomalarning katta-kichikligi ham ularning soni kabi turli organizmlarda har xil bo'ladi. Xromosomalarning soni, katta-kichikligi va tuzilishining o'ziga xosliklari shu turning kariotipi deyiladi. Maxsus bo'yalganda xromosomalarning turli qismlari bo'yoqlarni bir xil qabul qilmaydi: xromosomalarning uzunligi bo'ylab yaxshi bo'yagan va bo'yalmagan qismlar navbatlashib keladi. Har bir xromosomalning uzumasiga differensial bo'yalihi o'ziga xos ekanligi ham alumiyyatga ega. Differensial bo'yash usuli bilan xromosomalarning tuzilishi sinchiklab o'r ganilgan.

Ma'lum bir turdag'i hayvonning barcha hujayralarida kariotipni tashkil qiluvchi xromosomalarning soni bir xil ekanligini qayd qilish lozim. Cho'chquning har bir somatik hujayrasida 40, qo'ynikida 54, qoramol va echkinikida 60, otmikida 66, it va tovuqlarnikida 78 xromosoma bor. Kariotipni tashkil qiluvchi xromosomalarning deyarli barchasi (**autosomal**) o'z justiga ega va faqat ikkitasi o'zaro juft emas. O'zaro juft bo'lmagan ikki xromosoma **geteroxromosomal** deb ataladi va X, Y harflari bilan belgilanadi. Kariotipda bu xromosomalarning qanday kombinatsiyada mavjud bo'lishi jinsni belgilagani uchun ular **jinsi xromosomal** deb ataladi. Sut emizuvchilarining urg'ochi jinslari hujayralarida jinsi xromosomalarning ikkalasi ham X, erkak jinslari hujayralarida bular X va Y dir. Qushlarning erkak jinslarida har ikkala jinsi xromosoma ham Z, urg'ochilarida esa Z va W bo'ladi. Sut emizuvchilar urg'ochi jinslarining hujayralari o'zagidagi 2 ta X xromosomalardan biri interfazada ish holatida (dekondensatsiyalangan), ikkinchisi esa, nofaol, kondensatsiyalangan holatda bo'ladi. Kondensatsiyalangan nofaol X xromosomani o'zakcha yaqinida, ayrim hollarda kariolemma ichki yuzasida yumaloq yoki oval tanacha holda kuzatish mumkin. Bunday tanacha faqat urg'ochi hayvonlar hujayralarida uchrashi va X xromosoma bilan bog'liqligi uchun **jinsi xromatin** yoki **Barr tanachasi** deyiladi.

Elektron mikroskop vositasida xromosomalarda dezoksiribonukleoproteidlardan iborat elementar xromosoma fibrillalarini kuzatish mumkin. Xromosomadagi DNK molekulalari bir necha yuz mikron, hatto bir necha sm uzunlikda bo'lishi mumkin. Xromatin quruq massasining 60-70%si giston va giston bo'lmagan oqsillardan iborat. Gistonlar DNK bilan yaqin aloqada bo'lib, uning molekulasiida bir tekis tarqalib joylashadi. Har 8 molekula giston oqsili nukleosoma deyiluvchi xarakterli kompleks hosil qiladi. Nukleosomalar hosil bo'lishi hisobiga DNK molekulasi o'ta yuqori darajada spiralizatsiyaga uchraydi va taxminan 5 marta qisqaradi. Giston

emas oqsillar interfazadagi o'zakning oqsil matriksi deyiluvchi to'r hosil qilib, o'zakning o'ziga xos strukturasi va metabolizmini belgilaydi.

O'zakeha. Odatda hamma tirik eukariot hujayralarning o'zagida bir yoki bir necha yumaloq shakldagi, 1-5 mkm kattalikka ega va yorug'likni kuchli sindiruvchi struktura - o'zakcha ko'rindi. O'zakcha RNKga boy, binobarin, bazofil bo'yaladi. U o'zakdagi eng zich tuzilma bo'lib, xromosomaning hosilasi hisoblanadi va interfazada faol ravishda RNK sintezlaydi. O'zakcha ribosomal RNK va ribosomalar hosil bo'indigan joy ekanligi aniqlangan.

O'zakchuning tuzilishi bir xil emas: yorug'lik mikroskopida uning nozik tolador tuzilishini kuzatish mumkin. Elektron mikroskopda tolador va donador qismlar ko'rindi. Donachalarning diametri 15-20 nm, fibrillalarning yo'g' onligi 6-8 nm. Fibrillalar ribonukleoproteid ipchalar, donachalar esa ribosomalarning shakllanayotgan qismlari hisoblanadi. Intensiv ravishda RNK sintezlanayotganda o'zakchada ko'p miqdorda donachalar ko'rindi, bunday sintez to'xtaganda o'zakcha bazofil zich fibrillyar tanachaga aylanadi. RNK sintezini susaytuvchi moddalar (aktinomitsin, siklogeksim, gidrooksimochevina va b.) o'zakcha strukturasining o'garishiga sabab bo'ladi.


O'zak shirasi oqsilning kolloid eritmasi bo'lib, gematoksilin-cozinda bo'yalmaydi. U metabolitlar tez diffuziyaga uchraydigan va ribosoma ribonukleoproteidlari hamda RNK molekulalari o'zak poralariga qarab harakatlanadigan muhitdir.

HUJAYRALARNING FIZIOLOGIK XOSSALARI

HUJAYRANING BO'LINISHI

Organizmdagi hujayralar sonining ortishi mavjud hujayralarning bo'linib ko'payishi hisobiga amalga oshadi. Hujayra bo'linishidan oldin DNK sintezi yuz beradi va xromosomalar reduplikatsiyaga uchraydi. Hujayraning bo'linishi boshlanishidan navbatdagi bo'linishigacha, yoki bo'linish boshlanishidan qarib nobud bo'lishigacha bo'lgan yashash davri hujayra sikli deylidi. Yuqori umurtqalilarining voyaga etgan organizmlaridagi turli to'qima va organlar hujayralarining bo'li-nish qobiliyatini bir xil emas. Tabaqalangan va ixtisoslashgan hujayralar (masalan, qon granulotsitlari) bo'linish qobiliyatini to'lig'icha yo'qotgan. Organizmda hujay-

ralari doimo yangila-nib turadigan to'qi-malar - turli epiteliy-lar, qon yetishtiruvchi to'qimalar ham mavjud. Bu xil to'qimalardagi bir qism hujayralar doimo bo'linib, o'z fio-liyatini tugatayot-gan va o'layotgan hujayralarning o'mini oladi. Odatdagisi sharoitda ko'paymaydigan hujayralar reparativ regeneratsiya (to'qimalar shikastlangandan keyin tiklanish) jarayonlari da qaytadan ko'payish qobiliyatini tiklashi mumkin.



12-rasm.
A-votin sh. Sistem (Kom bo'yicha).
B- mitoz surʼani (Maciga bo'yicha). a- 6-izofaz; b- e-predita; c- emifaza; d- usifaz; e- 6-izofaz; f- 6-izofaz.

Hujayra sikli ikki bo'linish oraliq'i - interfaza va mitoz bo'linish davrini o'z ichiga oladi (12-rasm). Hujayra siklining bosqichlariga ko'ra, ko'payayotgan hujayralardagi DNK miqdori har xil bo'ladi. Bu holni somatik hujayrlar ham, gametalar ham ko'payayotganda kuzatish mumkin. Ma'lumki, yetilgan tuxum va urug' hujayralarda xromosomalar soni haploid bo'lib, DNK miqdori organizmning boshqa hujayralardanidan 2 marta kamadir. Ploidlik n harfi bilan belgilanadi, ya'ni $1 n$ sondagi xromosomalarga ega hujayralar haploid, $2n$ -diploid, $3n$ -triploid va h. Shunga mos ravishda hujayraning DNK miqdori (c) hujayra ploidligi bilan bog'liq: xromosomalarning soni $2 n$ bo'lgan (diploid) hujayrada DNK miqdori $2 c$.

Otalanish jarayonida ikki haploid hujayra qo'shilishidan hosil bo'ladigan hujayra - zigota diploid ($2n$, $2c$)dir. Bundan keyin zigitning maydalishidan hosil bo'ladigan diploid hujayralarning navbatdagi bo'linishi natijasida taraqqiy qiladigan organizmning yetilgan jinsiy hujayralardan tashqari barcha hujayralari odatda diploid bo'ladi.

Diploid hujayralarning hujayra sikli tekshirilsa, ularning populiyatsiyasida ham diploid ($2c$), ham tetraploid ($4c$) va oraliq miqdorda DNK saqlovchi interfazadagi hujayralarni uchratish mumkin. Hujayralarning DNK miqdoriga ko'ra, bunday turli xil bo'lishning sababi DNK miqdorining ikki barobar ortishi interfazaning ma'lum bir paytida yuz berishi, bo'linishi esa faqat bu jarayondan keyin amalga oshishi bilan bog'liq.

Butun hujayra sikli to'rt davr: mitoz (M) hamda interfazaning prezintez (G_1), sintez (S) va postsintez (G_2) davriaridan iborat. Bevosita mitozdan keyin bolanadigan G_1 davrda hujayralar diploid bo'lib, har bir o'zakda $2c$ miqdorda DNK bor. Bo'linishdan keyin G_1 davrda oqsillar va RNK miqdori ona hujayradagidan kam. G_1 davrda hujayraning o'sishi asosan RNK miqdori ortishi bilan bog'liq bo'lgan hujayra oqsillarining to'planishi hisobiga boradi. Bu davrda hujayraning DNK sinteziga tayyorlanishi boshlanadi. Navbatdagi, S davrda har bir o'zakka to'g'ri keladigan DNK miqdorining va bunga mutanosib holda xromosomalar sonining ikki barobar ortishi yuz beradi. S davrdagi turli hujayralarda DNK miqdori $2c$ dan $4c$ gacha bo'lishi mumkin. Bu hol DNK sintezining turli bosqichidagi (endigina sintezga kirishgan yoki uni yakunlagan) hujayralar tekshirilayotgani bilan bog'liq.

S davr hujayra sikkining markaziy davridir. D NK sintezi davrimi o'tmagan hujayralarning mitoz bo'linishiga kirish hollari uchramaydi. Faqat meyozining ikkinchi bo'linishi bundan mustasnodir.

S davrda D NK miqdorining ortishiga mutanosib holda RNK sintezi darajasi ham ortib, G_2 davrda u o'zining maksimumiga etadi. G_2 (postsintez) davr premitotik davr ham deb ataladi. Bu davrda mitoz amalga oshishi uchun lozim bo'lgan i-RNK, bundan sal avvalroq esa ribosomalarining r-RNK si sintezlanadi. Premitotik davrda sintezlanuvchi oqsillardan tubulin - mitotik dukning oqsillari alohiда ahamiyatga ega. G_2 davr oxirida va mitoz davomida xromosomalarining kondensatsiyalanishi bilan RNK sintezi keskin susayib, mitoz paytida umuman to'xtaydi. Shunga mutanosib holda oqsil sintezi ham susayadi va boshlang'ich darajasining 25%ni atrofida bo'ladi.

O'simlik va hayvonlarning o'sayotgan to'qimalarida "tinch ho-

latdagi", vaqtincha yoki umuman bo'linishdan to'xtagan hujayralar mavjud bo'lib, ularni G_0 davrdagi hujayralar deyiladi. Ayrim to'qimalarda bunday hujayralar uzoq vaqt o'z morfologik xususiyatlarini o'zgartirmasdan, bo'linishga bo'lgan qobiliyatini saqlovchi kambial (stvol) hujayralar holatida turishi mumkin. Ko'pincha bo'linish qobiliyatini yo'qotish ixtisoslashish va tabaqalanish qobiliyati paydo bo'lishi bilan bog'liq amalga oshadi. Tabaqalanayotgan bunday hujayralar sikldan chiqadi, lekin ma'lum sharoitda (shikastlanish yuz berganda) yana qaytdan siklga kirishi mumkin. Ko'pchilik jigar hujayralari G_0 davrda bo'ladi; ularda DNK sintezi va bo'linish kuzatilmaydi. Ammo tajriba sharoitida jigarning bir qismi olib tashlansa, ko'pchilik hujayralarda DNK sintezi boshlanib, ular mitoz bo'linishi mumkin. Boshqa hollarda, masalan epidermisda sikldan chiqqan hujayralar qaytib siklga kirmaydi, ma'lum vaqt faoliyat ko'rsatib, keyin nobud bo'ladi.

MITOZ

Mitoz (kariokinez) yoki murakkab bo'linish hujayralarning keng tarqalgan bo'linish usulidir. Bunda kondensatsiyalangan va reduplikatsiyaga uchragan xromosomalar zichlanib, mitotik xromosomalar shaklini oladi, mitozning axromatin tuzilmalari hosil bo'ladi. Gomologik xromosomalar qarama-qarshi tomonga yo'naladi, hujayra qutblarida to'p bo'lib joylashadi va hujayra tanasining bo'linishi (sitotomiya) yuz beradi. Murakkab bo'linishda hujayralarda izchillik bilan yuz beradigan o'zgarishlarga ko'ra to'rt faza: profaza, metafaza, anafaza va telofaza farq qilinadi (12-rasm).

Profaza. S dav'r tamom bo'lgan, xromosomalar materialining ikki barobar ortishi natijasida interfazani o'tayotgan o'zak 4 c miqdorda DNK saqlaydi. Profaza, yangi mitozning boshlanishida xromosomalar zinchashgan ipsimon strukturalar shaklida ko'rina boshlaydi. Yorug'lik mikroskopida ko'rinyotgan xromosomalarни sanashga harakat qilinsa, ularning soni 2 n ga teng bo'ladi. Lekin interfazada reduplikatsiyaga uchraganligi uchun profazadagi har bir xromosoma qo'shaloq bo'ladi. ularning qo'shaloq ekanligini kuzatib bo'lmaslikning sababi oqa-singil yoki gomologik xromosomalarning o'zaro zinch yopishib yotganligidir. Keyinroq har bir juftni tashkil qiluvchi "opa-singil" xromosomalar bir-biridan ajrala boshlaydi va bo'linayotgan hujayradagi xromosomalarning umumiy soni 4 n ekanligi ko'rindi. Demak, profazaning boshidayoq xromosomalar ikki "opa-singil" xromosoma yeki boshqacha qilib aytganda ikki xromatidadan iborat

bo'ladi. Ularning soni (4 n) profazada DNK miqdori (4 c) ga aniq mos keladi.

Profazada o'zakcha yo'qoladi, o'zak qobig'i parchalana boshlaydi. Oqsil sintezi bilan bog'liq bo'lgan granulyar sitoplazmatik to'r mayda pufakchva va sisternalarga parchalanib, ribosomalar soni kamayadi. Yana bir muhim hodisa yuz beradi - mitoz duki hosil bo'ladi. S davrda ikkilangan sentriollar hujayraning qarama-qarshi uchlariga, keyinroq dukning qutblari shakllanadigan joyga tomon harakatlana boshlaydi. Har bir qutbga qo'shaloq sentriol (diplosoma) yo'naladi. Diplosomalarining harakati bilan birga, har bir diplosoma sentriollaridan birining periferik qismidan boshlanuvchi mikronaychalar shakllana boshlaydi.

Shakllangan bo'linish apparati duk shaklida bo'ladi va bir necha zona: ichida sentriollar joylashgan ikkita sentrosfera zonasini va ularning orasidi joylashgan hamda duk tolalaridan iborat oraliq zonani o'z ichiga oladi. Mikronaychalar tubulin oqsilining polimerlanishi natijasida hosil bo'lib, hayvon hujayralarida ularning shakllanishini induksiyalovchi markazlar sentriollar va xromosomalarning kinetoxor (sentromer)lari hisoblanadi.

Metafaza. Bu fazada bo'linish duki batamom shakllanib, xromosomalar dukning ekvator tekisligida joylashadi va metaphaza plastinkasi (yoki "ona yulduz") hosil qiladi. Metaphaza oxiriga borib "opa-singil" xromosomalar (xromatidalar)ning bir-biridan ajralishi nihoyasiga etadi. Bu ikkala xromosomalar o'rtasidagi kontakt saqlanadigan oxirgi joy sentromerdir.

Anafaza. Bu fazada barcha "opa-singil" xromosomalarning sentromer vositasidagi aloqasi sinxron ravishda yo'qolib, ular hujayraning qarama-qarshi qutblari uchlariga tomon bir-biridan uzoqlasha boradi. Xromosomalar bir xil tezlikda harakat qilib, bu tezlik 0,2-0,5 mkm/sek ga teng. Anafazaning eng muhim yakuni - hujayra qutblari oldida joylashgan xromosomalarning o'zaro aynan o'xshash 2 ta nabori hosil bo'lishidir. Xromosomalarning qutblarga tomon harakatlanish mexanizmi to'lig'icha aniqlanmagan.

Telofaza xromosomalarning o'zaro ajralgan diploid nabori -(2 n)ning ma'lum bir joyda to'xtashi (erta telofaza)dan boshlanadi va yangi interfaza o'zagini shakllanishi (kech telofaza, erta G₁ davr) hamda "ona" hujayraning ikkita "qiz" hujayraga ajralishi (sitokinez, sitotomiya) bilan yakunlanadi. Erta telofazada xromosomalarning dekondensatsiyalanishi va hajmi ortishi boshlanadi. Ularning membranalar bilan o'ralgan pufakchallarga tegib turgan joylarida yangi o'zak qobig'i hosil bo'ladi. Bu qobiq batamom shakllangach, yangi o'zakchalar hosil bo'la boshlaydi. Hujayra

navbatdagi G₁ davrga o'tadi.

Telofazada yuz beradigan muhim voqe - hujayraning ikkiga bo'linishi (sitotomiya) plazmatik membrananing hujayra ichiga botib kirishidan to'siq hosil bo'lish yo'li bilan boradi.

Mitoz apparati turti omillar ta'sirida shikastlansa, mitozning yoki metafazada to'xtab qolishi yoki xromosomalarining butun hujayrn bo'ylab tarqalib ketishi yuz berishi mumkin. Sentrillarning ko'payishi buzilsa, ko'p qutbli va assimetrik mitozlar kuzatiladi. Sitotomiya buzilganda gigant o'zakli yoki ko'p o'zakli hujayralar hosil bo'ladi.

Mitozning biologik mohiyati bo'liyonatgan "ona" hujayra o'zagidagi irlisyat moddasi - DNKnинг hosil bo'lувчи иккى "qiz" hujayra o'rтасида miqdor va sifat jihatidan teng taqsimlanishidir.

Turli manbalarda keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, mitoz 30 daqiqadan 5 soatgacha davom etadi. Sut emizuvchilar va qushlarning hujayralari uchun mitoz fazalarining davomliligi quyidagicha: profaza-30-60 daq.; metafaza-2-10 daq.; anafaza-2-3 daq.; telofiza-20-35 daq.

O'simlik va sovuq qonli hayvonlarning hujayralarida mitoz ancha sekin boradi. Yosh kalmushlar jigarining hujayralari kunduz soat 6 dan 20 gacha bo'linadi va kelasi kuni ertalabki soat 2-4 da interfazada bo'ladi. Mitozning intensivligi hayvon organizmi va to'qima turi, harorat, kislorod bilan ta'minlanish, muhitning reaksiyasi, sitoplazmaning yopishqoqligini o'zgartiruvchi omillar ta'siri va boshqalarga bog'liq. Mitoz yo'li bilan bo'limiyotgan hujayralar sonining bo'linmayotgan hujayralar soniga nisbatining % larda ifodalangan ko'rsatkichi **mitoz koeffetsienti** deyiladi.

DNK sintezi me'yori amalga oshib turgan holda mitoz yuz bermasligi yoki uning ayrim bosqichlari oxirigacha bormasligi ortiqcha miqdorda DNA saqlovchi hujayralar hosil bo'lishi - endoreproduksiyaga olib keladi. Endoreproduksiya natijasida hosil bo'lgan xromosomalarining soni ortgan hujayralar **poliploid hujayralar** deyiladi. G₁ davrdan mitoz bo'limshiga o'tishda mitoz dukining vazifasi va yaxlitligi buzilishi yoki sitotomiyanig buzilishi bir yoki ikki o'zakli poliploid hujayralar hosil bo'lishiga olib keladi. Mitozning endi boshlangan, G₂ davrdan profazaga o'tish paytida to'silishi natijasida hujayra DNA sintezining navbatdagi sikliga kirishib, o'zakdag'i DNKnинг miqdori progressiv ravishda ortadi. Bunda o'zak hajmining ortishidan boshqa morfologik belgilari namoyon bo'lmaydi.

Voyaga yetgan sut emizuvchilar jigarida tetra-(4 n) va oktoploid (8 n) hujayralar, shuningdek ploidligi turlicha bo'lgan ikki o'zakli hujayralar uchraydi. Bunday hujayralarning poliploid holatga o'tishi quyidagicha yuz

beradi. S davrdan keyin DNK miqdori 4 c bo'lgan hujayralar mitozga kirishib, uning barcha bosqichlarini, jumladan, telofazani ham o'tadi, lekin sitotomiya yuz bermaydi. Shu yo'l bilan ikki o'zakli ($2n \times 2n$) hujayra hosil bo'ladi. Agar bunday hujayra yana S davrni o'tsa, uning har ikkala o'zagi 4 s miqdorda DNK va 4 n sondagi xromosomalarga ega bo'ladi. Ushbu ikki o'zakli hujayra mitozga kirishib, metafazada o'zaklarning xromosomalar komplekti umumlashadi, ularning umumiyo soni 8 n ni tashkil qiladi. Mitozning keyingi fazalari odatdagidek amalga oshib, ikkita tetraploid hujayra paydo bo'lishining bu tarzda navbatma-navbat kelishi 8 n, 16 n va hatto 32 n sondagi xromosomalarga ega o'zaklar paydo bo'lishiga olib keladi. Jigarda, siyidik pufagining epiteliyida, to'r pardanining pigmentli epiteliyida, so'lak bezlari hamda me'da osti bezi atsimuslarida va qizil ilikning megakariotsitlarida poliploid hujayralar hosil bo'lishi shu yo'l bilan amalga oshadi. Somatik hujayralarning poliploidianishi hujayralar, to'qimalar hamda organlar taraqqiyotining so'nggi (terminal) davrlarida yuz beradi va ko'pincha ixtisoslashgan (tabaqalangan) hujayralarga xos. Poliploidianish embrionenez (provizor organlarning hosil bo'lishini hisoblamaganda) va jinsiy hujayralarning hosil bo'lishi kabi generativ jarayonlarda, shuningdek stvol hujayralar orasida kuzatilmaydi.

Amitoz yoki oddiy bo'linish xromosomalarining spirallanishi, mitoz duki hosil bo'lishi kabi murakkab o'zgarishlarsiz amalga oshadigan bo'linishdir. Ko'pincha amitozdza o'zak bo'yiga anchagini cho'zilib, o'rta qismi ingichkalashadi va tezda bu joydan uzilish yuz beradi. Natijada ikki o'zakli hujayra paydo bo'ladi. Keyinchalik sitotomiya yuz berishi natijasida undan ikkita bir o'zakli hujayra hosil bo'lishi mumkin. Sitotomiya yuz bermagan hollarda ko'p o'zakli hujayralar hosil bo'ladi. Amitoz umumlashtirilgan tushuncha bo'lib uning generativ, degenerativ va reaktiv amitoz kabi xillari mavjud. Generativ amitoz eng sodda hayvonlarda, regenerativ amitoz to'qimalar shikastlanishidan keyin hujayralarning keskin faoliashuvida kuzatilsa, degenerativ amitoz mitoz qobiliyatini yo'qotgan, tabaqalanayotgan hujayralurda uchraydi.

Organizmlar tuzilishi, taraqqiyoti va hayot faoliyatining asosi hisoblangan tuzilmani ifodalovchi "hujayra" so'zi bilan yonma-yon "tirik" so'zining ishlatalishi tamomila o'rinnlidir. Hujayraning tirikligi (hayot faoliyat) biz yuqorida qarab chiqqan mitoz va amitoz bo'linish va ko'payishdan tashqari oziqlanish, ta'sirlanish, harakatlanish, tabaqalanish, sekretsiya hamda qarish va nobud bo'lish orqali namoyon bo'ladi. Hayotiy jarayonlar doimo harakatda, ya'ni rivojlanishda bo'lib, rivojlanishni shu sisternaga xos ichki ziddiyatlarsiz tasavvur qilish mumkin emas. Ana shunday ichki ziddiyut hamma biologik sistemalar uchun moddalar almashinuvidir.

Hujayralarning hayot faoliyati uchun tegishli shart-sharoitlar: kislorod, oziq moddalar, suv va harorat zarur. Kislorod hujayradagi oksidlanish jarayonlarida ishtirok qiladi. Natijada organik moddalarning kimyoiy energiyasi hujayralar ishlata oladigan energiya - ATP energiyasiga aylanadi. Kislorodni qanduy manba lurdan olishiga ko'ra aerob va anaerob hujayralar farq qilinadi. Aerob hujayralar uchun atmosfera kislorodi mutlaqo zarur. Hayvon organizmi hujayralari oqsillar, yog'lar va carbonsavlarni anorganik moddalaridan sintez qila olmaydi. Shuning uchun ular o'simliklar yoki boshqa hayvon organik moddalarini oziq modda sifatida ishlataladi. Hayotiy jarayonlar uchun zarur bo'lgan haroratlarning ma'lum daraja atrofida cheklanganligi oqsillarning yuqori haroratga chidamasligi bilan bog'liq. Harorat 43-45° bo'lganda oqsillar denaturatsiyaga uchraydi. Tirik hujayralar past haroratlarga nisbatan chidamli bo'ladi. Lekin shuning bilan birga issiq (termal) suvlarda, 80-85° haroratlarda, yashovchi tuban (bir hujayrali) organismlarni uchratish mumkin. Suv kolloid eritma (protoplazma) uchun erituvchi bo'lib, hayotiy jarayonlar uchun muhim shamiyatga ega. Barcha boikimyoiy jarayonlar suvli muhitda yuz beradi. Yuqorida sanab chiqilgan barcha sharoitlar kompleksi mavjud bo'lganda hujayralarning fiziologik xossalari namoyon bo'ladi.

Tabaqalanish (differensiatsiya) tirik hujayralarga xos muhim xususiyatdir. Organizmning barcha hujayralari yagona hujayra - zigotaning ko'payishi va tabaqalanishidan bosil bo'ladi va odatda barcha hujayralarning o'zagidagi xromosomalar va genlar yig'indisi bir xil bo'ladi. Lekin bu hol organizm hujayralarining o'zaro keskin farq qilishiga to'sqinlik qilmaydi, chunki turli hujayralardagi genlarning hammasi ayni bir vaqtida faoliyat ko'rsatmaydi. Zigotaning maydalaniishi natijasida bosil bo'lgan embrional tuzilma - blastulada hali bo'lajak to'qima va organlarni farq qilib bo'lmaydi. Bundan keyin blastula hujayralari qayta guruhlanadi, gastrulyatsiya yuz beradi va uchta embrion varag'i shakllanadi. Shu paytdan e'tiboran hujayralarning tabaqalanishi boshlanadi. Tabaqalanish rivojlanayotgan organizmdagi nisbatan bir xil hujayralarning tuzilishi, biokimyoiy xossalari hamda vazifalari o'zgarishi va natijada turli hujayralarga aylanishidir. Tabaqalanishning sabablarini chuqr o'rjanish embriologiyaning asosiy masalalaridan biri hisoblanadi.

Hujayralarning oziqlanishida fagotsitoz va pinotsitozning shamiyatini to'g'risida yuqorida to'xtalib o'tdik. Hujayra ichiga atrof-muhitdan oziq moddalarning kiritilishida so'ralish (shimilish) katta shamiyatga ega. So'rilish plazmolemmanning o'tkazuvchanligi bilan bog'liq bo'lgan murakkab jarayondir. Bu jarayon ichak va buyrak siyidik naychalarining

epiteliotsitlarida yaxshi ifodalangan. So'rilish eritmadiagi ma'lum modda konsentratsiyasi gradientiga qarshi yo'nalishda ham amalga oshadi. Bunda plazmolemmanning maxsus oqsil-tashuvchilari so'rileyotgan (tashilayotgan) modda bilan birikadi va vaqtinchalik yangi xil modda (birikma) hosil qiladi. Yangi hosil bo'lgan birikma hujayra ichiga kirishi bilanoq parchalanadi va oqsil-tashuvchi qaytadan plazmolemma tashqi yuzasiga chiqadi. Bu jarayon ATF energiyasi sarflanishi hisobiga boradi. So'rligani moddalar sitoplazma organellalari ishtirokida hujayra uchun spetsifik bo'lgan oqsillar, yog'lar va carbonsuvlarga aylanadi.

Ta'sirlanuvchanlik atrof-muhitning etarli darajadagi keskin o'zgarishlariga javob qaytarish xususiyati bo'tib, barcha hujayralarga xosdir. Tashqi muhitni ta'sirlanishga sabab bo'ladigan o'zgarishlari **ta'sirlovchi** (qitiqlovchi) deyiladi. Ta'sirlanish va ta'sirga javob qaytarish hujayraning energiya sarflashi bilan amalga oshadi. Bu energiya dissimiliyatsiya natijasida hosil bo'ladi, binobarin, hujayra ta'sirga moddalar almashinuvining kuchayishi bilan javob beradi.

Moddalar almashinuvining kuchayishi natijasida hujayra qo'zg'algan holatga o'tib, protoplazmada hujayraning faol holatini ta'minlovchi vaqtinchalik o'zgarishlar yuz beradi. Qo'zg'algan sekretor hujayra ta'sirga sekret ajrattysh, muskul hujayra - qisqarish bilan javob beradi va hokazo. Ta'sirning yo'nalishi unga bo'ladigan javob reaksiyasining yo'nalishini belgilaydi. Erkin harakatlamuvchi hujayralar ta'sir manba'iga yaqinlashadi yoki undan uzoqlashadi, ya'ni **musbat** yoki **manfiy** taksis namoyon qiladi. Yorug'lik ta'siriga nisbatan fototaksis, issiqlikka (haroratga) nisbatan - termotaksis, kimyoiy moddalarga nisbatan xemotaksis yuz beradi.

Hujayraga uni halokatga olib kelmaydigan eng kuchli ta'sirlovchi ta'sir qilganda **paranekroz** holati kuzatiladi. Paranekroz chaqiradigan ta'sirlovchidan kuchliroq ta'sirlovchi ta'sirida hujayra nobud bo'ladi. Paranekroz hujayraning hayot faoliyatini vaqtincha susaytirib, uni emirishdan saqlaydi. Katta kuchiga ega yoki uzoq davom etadigan ta'sirdan plazmolemma o'z normal o'tkazuvchanligini tezda tiklay olmay hujayra kritik holatga tushadi. Sitoplasmaga Na⁺ ionlari va boshqa zararli moddalarining kirishi davom etadi. Hujayraning hayot faoliyatini buzilib, mitokondriyalar emirildi. Hujayra energiyani glikoliz hisobga ola boshlaydi. Natijada batamom oksidlanmagan mahsulotlar (sut kislotosi) to'planadi va hujayrada atsidoz yuz beradi. Sitoplazmanın kolloid holati o'zgarishi donador distrofiyaga sabab bo'ladi. Lizosomalarda kislotali fosfataza faollashib hujayraning oqsillari parchalanadi (proteoliz). Proteoliz natijasida ammiak miqdori odatdagidan 10 martagacha ortadi. Suv to'planishi na-

tijasida sitoplazmaning tiniqligi yo'qoladi. Shunday qilib, hujayraning strukturasi buziladi.

Paranekroz hujayraning juda muhim foydali reaksiyasi bo'lib, uni ta'sirlovchining emiruvechi ta'siridan saqlaydi. Funksiyaning to'xtashi va parchalanish jarayonlarining kuchayishi natijasida hujayra parchalangan elementlardan xoli bo'lish, ularni yangilari bilan almashtirish va odatdag'i holatga qaytish uchun etarli energiya to'playdi. Paranekroz qaytar hodisadir.

Hujayralarning ta'sirlovchi ta'sirga javobi faol harakat tarzida bo'lishi mumkin. Hayvon hujayralariga **amyobasimon**, **tukchalar** va **xivchinshalar** yordamida harakatlanish va qisqarish (muskul to'qima uchun) xosdir. Amyobasimon harakat harakatlanishning eng sodda turi bo'lib, u maxsus organellalar ishtirokisiz, protoplazmaning o'zi tomonidan amalga oshiriladi. Bunda hujayra vaqtincha hosil bo'ladigan protoplazmatik o'sintalar (pseudopodiyalar - yolg'on oyoqchalar) yordamida harakatlanadi. Harakutning tezligi bir daqiqada 0,5-1,0 mm atrofida bo'ladi. Amyobalar, murakkab hayvonlarda biriktiruvchi to'qimalarning ayrim hujayralari (leykotsitlar) amyobasimon harakatlanadi. Maxsus harakat organellari - tukchalar va xivchinlar yordamida harakatlanish hayvonot olamida ancha keng tarqagan. Tukchalar infuzoriyalarda, ko'p hujayralarning ayrim to'qimalari hujayralarida (masalan, olyi hayvonlarning nafas va jinsiy yo'llarini qoplovchi epiteliy hujayralarida), xivchinshalar xivchinshaliilar sinfi vakillarida, ko'p hujayralarning urug' hujayralarida mavjud bo'ladi. Ular sitoplazmaning ixtisoslashgan o'smalaridir. Tukchalar va xivchinshalarning tuzilishi sentrosoma bilan bog'liq holda yuqorida bayon qilindi. Harakatlanishning bu turi hujayraning nisbatan katta tezlikda harakat qilishini tu'minlaydi.

Muskul to'qima yordamida harakatlanish bu to'qima elementlarining qisqarishiga asoslangan bo'lib, faol harakatlanishning eng murakkab va mukammal turidir. Muskul to'qima elementlari, ularagi harakat apparatinning tuzilishi va qisqarishning gistogramiologiyasi keyinroq (III bobda) yoritiladi. Hujayralar harakatining barcha turlari oqsil molekulalarining xossalari bilan bog'liq bo'lgan umumiy molekulyar zaminga ega.

Sekretsiya. Barcha hujayralar moddalar almashinuvni natijasida hosil bo'ladigan metabolizm mahsulotlarini hujayra atrof-muhitiga chiqaradi. Ayrim hollarda bu mahsulotlar boshqa hujayralarning faoliyati uchun mutlaqo zarur. Organizmning boshqa hujayralari uchun zarur moddalar (sekret) ishlab chiqarishi - sekretsiya ixtisoslashgan moddalar almashinuvining natijasidir. Faqat sekret ishlab chiqarishga ixtisoslashgan hujayralar bez hujayralari deyiladi. Sekret hosil bo'lishida plastinkali kompleksning faoliyati

katta ahamiyatga ega. Sekretsiya organizmning tashqi muhit bilan aloqasi natijasida paydo bo'lgan va asosan epileptiy to'qima bilan bog'liq.

Hujayralarning qarishi va hayot faoliyatining so'niши. Organizm hujayralari ochiq, o'z-o' zini idora qiluvchi sistemadir. O'z-o' zini idora qilish qobiliyati hujayraning o'ziga taalluqli bo'lishi bilan birga, organizmning nerv va endokrin reguliyatsiya mexanizmlariiga ham bo'ysunadi. Moddalar almashinuvu natijasida hujayralarning o'zini-o'zi idora qilish qibiliyati asta-sekin so'nib, ularning hayot faoliyati buziladi va qariydi. Yuqorida qarab chiqilgan paranchkroz hodisasi ma'lum sharoitlarda nekrobiozga o'tishi mumkin. Nekrobioz hujayraning asta-sekin o'lishidir. Katta kuchga ega zararli ta'sirotlar nekrozga (hujayraning o'lishi va yemirilishiga) sabab bo'ladi. Nekroz sitoplazma va o'zakda xarakterli o'zgarishlar yuz berishi bilan boradi. Sitoplazmatik to't va plastinkali kompleks sisternalari yemiriladi. Glikogen va sitoplazmaning bazofilligi yo'qoladi, oqsil sintezi to'xtaydi. O'zak bujmayib kichiklashadi, bir tekis va kuchli bo'yaluvchi (giperxrom) massaga aylanishi (**kariopiknoz**), ayrim-ayrim qismalarga parchalanib ketishi (**karioreksis**) va hatto bo'lig'icha erib ketishi (**kariolizis**) mumkin.

Tirik moddaning hujayraviy tuzilishiga ega bo'lmagan shakllari. Hayvon organizmi to'qimalarida hujayralardan tashqari simplast, sinsitiy va anchagina miqdorda hujayralararo moddalar ham uchraydi. Ayrim hollarda kattagina hajmiga ega bo'lgan protoplazma hujayralarga bo'linmagan bo'lib, ko'plab o'zaklar va sitoplazmaga xos organellalar saqlaydi. Bunday tuzilmalar **simplast** (*sin-birgalikda, plastos-hosil bo'lgan, tashkillashgan*) deb ataladi. Simplastning yorqin misoli ko'ndalang-targ'il muskul tolasi bo'lib, uning tuzilishi bilan keyimroq (III bobda) batafsil tanishamiz. Qo'shni hujayralar o'simtalarini vositasida bir-biriga juda tig'iz tegib turishi va ular orasida yorug'lik mikroskopni ko'rsata oladigan yoriqlar bo'lmagan hollarda **sinsitiy** (*sin-birgalikda, kyotos-hujayra*) hosil bo'ladi. Elektron mikroskop bunday hollarda qo'shni hujayralarning o'zaro tegib turadigan qismalari orasida plazmolemmadan iberat chegara borligini ko'rsatadi. Sinsitiy odatda to'rsimon ko'rinishiga ega (masalan, biriktiruvchi to'rsimon to'qima).

Ayrim to'qimalar ko'p miqdorda hujayraro moddalar hosil qiladi. Bu moddalar organellalarga ega emas, ularda moddalar almashinuvu sekin bora-di. Hujayraaro moddalar hujayralar bilan yaqindan bog'langan va ularning hosilalari hisoblanadi. Ularni **metaplastmatik tuzilmalar** ham deb ataydilar. Kollagen, elastik va retikulin totalari hamda amorf modda metaplastmatik tuzilmalar bo'lib, ularning tuzilishi biriktiruvchi tolador to'qimalar o'rganiyatganda qaratadi. Tirik moddaning hujayra tuzilishiga ega bo'lmagan shakllari hujayralardan yoki ularning hosilalaridan ikkilamchi yo'l bilan hosil bo'ladi.

EMBRIOLOGIYA

Embriologiya (*embryon* - o'suvchi, homila) otalangan tuxum hujayra - zigotadan ko'p hujayrali murakkab organizm hosil bo'lish jarayonini o'rjanadigan fandir. Embriologiya hamma organizmlar taraqqiyotining otalanish va zigota hosil bo'lishidan boshlanib, to shu turdag'i voyaga etgan organizmlarga xos bo'lgan hamma organlar sistemalarining hosil bo'lishi bilan tamom bo'ladigan davrini o'rjanadi. Embrional taraqqiyot davrida organizmning taraqqiy qilish jarayoni juda intensiv ravishda boradi. Embriyon zigota hosil bo'lgandan to rivojlanayotgan organizmning hamma organlari sistemalari asosan hosil bo'lguncha davom etadigan davrdagi organizmdir. Bu davr ontogenez yoki individual taraqqiyotning **embrional davri** deb ataladi.

Embriologik faktlarni to'plash, ulardan amalda foydalanish juda qadim zamonlardan boshlangan. Bundan 5000 yillar ilgari qadimgi misrliklar inkubatorda jo'ja chiqarishni bilishganlar va undan keng foydalaniganlar. Qadimgi Gretsiyada embrion taraqqiyotini yorituvchi asarlari mavjud bo'lgan. Lekin bu asarlarda ko'pgina noto'g'ri fikrlar bo'lgan, al-batta.

Aristotel (preformatsiya va epigenez tushunchalarini o'rta ga tashlagan), Leonardo da Vinci ("ona" va "bola" qon tomirlari bevosita aloqa qilmasligini aytgan) embriologiya to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni qoldirganlar.

Mikroskop ixtiro qilingach, embriologiya, ayniqsa, gurkirab rivojiana boshladi. Garvey (1651) "Hamma tirk mavjudotlar tuxumdundir" degan iborani maydonga tashladi. Dastlabki mikroskopistlardan Levenguk (turli sut emizuvchilar, qushlar, amfibiyalar, baliqlar va hasharotlar spermiyalarini tasvirlab berdi), Malpigi (tovuq embrioni taraqqiyotini o'rgandi), Swammerdam (hasharotlar taraqqiyotini o'rgandi) embriologiya bilan shug'ullangan.


Preformatsiya nazariyasining tarafidori (A. Levenguk, Ya. Swammerdam, M. Malpigi, Djems Kuk, A. Galler, Sh. Bonne) organizmlar "dunyoning yaratilishi" paytida yaratilgan va juda kichik (mayda holda jinsiy hujayralar ichiga joylashgan, degan noto'g'ri, fanning kelajak taraqqiyotiga to'sqinlik qilgan, fikrlarni asoslashga harakat qilishgan).

Epigenez nazariyasini ilgari surgan olimlar (Aristotel, K.F. Volf, G.X. Pander, K.M. Ber, A.O. Kovalevskiy, I.I. Mechnikov) preformatsiyaga keskin qarshi chiqqib, organizmlarning taraqqiyoti g'oyasini ilgari surganlar.

Ivan Kulenan qo'yilar tuxumdonida yuz beradigan siklik o'zgarishlarni o'rgangan bo'lsa, Petr Ash odam va turli hayvonlar urug'suyuqligini o'rgangan rus mikroekopist-bioleglaridandir.

Jinsiy hujayralar (gametalar)

Tuxum hujayra (*oos* - yunon., *ovum* - lot. tuxum) hamma hayvonlarda nisbatan yirik hujayra hisoblanib, ko'pincha yumaloq shakliga ega, o'zak, o'zakcha organellalar va ko'p miqdorda sitoplazmasi bor (13-rasm). Tuxum hujayra sitoplazmasida oqsil tabiatli kiritma - **sariq modda** uchraydi va bu moddaning miqdoriga asoslanib tuxum hujayralar klassifikatsiya qilinadi. Sariq moddasi kam tuxum hujayralar - **oligoletsital** (*oligos*-kam, *lecithos*-sariq modda), sariq moddasi o'rtacha miqdordagi tuxum hujayralar - **mezoletsital** (*mesos*-o'rtacha) va sariq moddasi ko'p tuxum hujayralar - **poliletsital** (*polys*-ko'p) tuxum hujayralar farq qilinadi.



13-rasm. Sariq mezoletsitalning tuxum hujayri.
1-ot'nik; 2-va zaxira; 3-kirgizmasi; 4-furkanshi qurug'; 5-akkaschi qurug'.

Sariq moddaning sitoplazmada joylashtishiga ko'ra, izoletsital yoki gomoletsital (*isos*, *homos* - bir xil, o'xshash) tuxumlar (bunga oligoletsital tuxumlar misol bo'ladi), teloletsital (*telos* - oxiri) tuxumlar (bunga mezo- va poliletsital tuxumlar misol bo'ladi) va sentroletsital (ayrim hasharotlar tuxumi) tuxumlar uchraydi. Izoletsital tuxumlarda sariq

modda sitoplazmada bir tekis tarqalgan, teloletsital tuxumlarda qutblardan biriga, sentroletsital tuxumlarda esa markazga to'plangan bo'ladi.


Tuxum hujayralarning bir yoki bir necha pardasi bo'lib eng birinchisi xususiy pardasi yoki birlamchi pardasi deyiladi. Birlamchi pardasi tuxum hujayra sitoplazmasi (tuxum hujayra moddasi) hisobiga hosil

bo'lgan. Bu pardalarda hayvonlar tuxum hujayralariga xes bo'lib, vitellin pardalari deyiladi.

Ikkilamchi pardalar tuxumdonning tuxum hujayrami o'rabi turuvchi hujayralari - **follikulyar hujayralar** hisobiga bosil bo'ladi. Bu pardalar tuxum hujayra o'sayotgan va rivojlanayotganda unga oziq moddalar etkazib berishi uchun xizmat qiladi. Sut emizuvchilar tuxumining yaltiroq pardasi (*zona pellucida*) va nurli toji (*corona radiata*) ikkilamchi pardalardir. Nurli tojni pardalari hisoblamasa ham bo'ladi, chunki u follikulyar hujayralardan iborat. Yaltiroq pardanining ichki qismi neytral, tashqi qismi kislotali mukopolisaxaridlarga boy.

Uchlamlachi pardalar tuxum hujayra tuxum yo'lidan o'tayotganda, tuxum yo'lidagi bezlar ishlab chiqaradigan sekret hisobiga bosil bo'ladi. Masalan: qushlar tuxumini qoplab turuvchi po'choq, po'choq osti pardalar va tuxum oqsili uchlamlachi pardalar hisoblanadi. Taraqqiy qilayotgan embrion oqsilning tarkibiy qismlarini va hatto tuxum po'chog' idagi mineral moddalarini ham o'zlashtiradi.

Tuxum hujayrada **animal** (yuqorigi) va **vegetativ** (pastki) qutblari farq qilinib, tuxum hujayra otalangach, bosil bo'lgan zigotaning maydalaniishi animal qutbdan boshlanadi, chunki bu qutba sariq modda nisbatan kamroq bo'ladi.



14-sars. Urug' hujayrasining urug' hujayrasidan

1-eg' (1-uch); 2-otobaski; 3-huquqchi; 4-qo'zharorli; 5-takarli; 6-sherxapchi; 7-talik; 8-masulotchi; punkt - 2, 3, 4 - buqchining yon nisbatan ko'rsatish

ralari, aksariyat ko'pchilik hollarda, ushbu tarzda tuzilgan bo'lib, bu ular bajaradigan vazifanining bir xilligiga bog'liq.

Spermiyning boshchasi turli hayvonlarda turli shaklga ega:

Urug' hujayrasasi (*spermiiy, spermatozoid, spermatozoon*) harakatchan hujayra bo'lib, tuxum hujayraga nisbatan ancha mayda (kichik), chtiyot oziq moddalar deyarli yo'q, shuning uchun erkak hayvon organizmidan tashqarida, mustaqlil ravishda uzoq fursat yashayolmaydi (14-rasm). Buganining urug' hujayrasidan 160000 marta kichik.

Spermiy boshcha, bo'yinchalik, oraliq yoki bog'lovchi bo'lim, dumchaning asosiy va oxirgi bo'limlariga ega. Hayvonot dunyosida bir-biridan ancha uzoq turuvchi hayvonlarning urug' hujay-

ayg'irlarda ovalsimon, bo'qalarda - noksimon (14-15-rasmlar). Boshcha asimmetrik tuzilgan bo'lib, qoshiqchaga o'xshaydi. Boshchaning oldingi qismida plastinkali kompleksning o'zgarishidan hosil bo'lgan **akrosoma** (*acros-yuqorigi, chetki; soma-tuna*) joylashadi. Akrosoma gialuronidaza fermentiga boy. Boshchaning akrosomadan keyingi qismi zinchashgan o'zak moddasidan iborat.

Bo'yincha boshchadan bazal plastinka bilan ajralib turuvchi, uncha katta bo'lmanan qism. Bo'yinchaning sitoplazmasi ikkita sentriolga ega. O'zakka yaqin joylashgan oldingi (proksimal)

sentriol silindriga o'xhash tipik tuzilishi saqlab qolgan va otalanish yuz berganda zigota tarkibiga o'tib, uning maydalanishiда ishtirot qiladi. Ikkinchchi (distal) sentriol o'z tuzilishini ancha o'zgar-tirgan bo'lib, spermiy-ning harakat apparati tarkibiga kiradi.

Bog'lovchi qismi spermiy dumchasinig asosi bo'lib, dumcha-ning o'q ipchasi va mitoxondriyalarga boy sitoplazmadan iborat. Bu joyda glikogen va boshqa makroergik moddalarning joylanishi bog'lovchi qismi spar-miyini energiya bilan ta'minlashini ko'rsatadi.

Dumchaning asosiy bo'limi faqat o'q ipcha va uni o'rovchi sitoplazmadan iborat bo'lib, sitoplazmada ATP-aza fermenti, sitoplazmaning periferik qismida esa tayanch fibrillalar bor.

Dumchaning oxirgi bo'limi - ingichkalashib boruvchi o'q ipchadan iborat bo'lib, tashqaridan faqat plazmolemma bilan o'ralgan.

Xivchinshalar va tebranuvchi tukchalar shaklidagi harakat apparati hayvonot olamida juda keng tarqalgan bo'lib, eng sodda hayvonlarda ham, yuqori tabaqalangan hayvonlarda ham ularning tuziliishi umumiy bir asosga ega va o'z kelib chiqishi jihatidan yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek sentrosoma bilan bog'liq.

Har qanday xivchin yoki tebranuvchi tukcha asosida doimo sentrioldan hosil bo'lgan bazal tanacha yotadi. Tukchaning o'q ipi sentriolning davomridir. Shuning uchun ham tukchaning yoki xivchinchaning periferik qismida 9 (yoki 18, 27) ta mikronaycha joylashadi. Sentrioldan farqli o'laroq xivchincha yoki tukcha yana 2 ta markaziy mikronaychaga ega. Ya'ni xivchinchada (dumchada)gi mikronaychalar formulasi 9+2 ga teng. Markazda joylashgan mikronaychalar qisqarish, periferiyadagilari qo'zg'alishni o'tkazish vazifasini bajaradi, deb taxmin qilinadi.

Dumchaning periferik qavati tog sondagi mikronaychalarga egaligi (asimetriya) va markaziy mikronaychalarining joylashishi dumchaning faqat bir tekislikda qisqarishini ta'minlaydi. Spermiy boshchasing asimetrik (qoshiqchimon) tuziliishi va dumchaning bir tekislikda qisqarishi uning aylanma va ilgarilanma (parmasimon) harakat qilishiga sababchi

bo'ldi.

Spermiyning ayrim biologik xossalari. Sperma tarkibida 10 mird.gacha (ayg'irning cyyakulyatida) urug' hujayra bo'ldi.Urug'lanish va otlanish uchun esa bundan ancha kam sondagi spermiylar ham etarli bo'lib, hayvonlarni sun'iy urug'lantirish ana shu hodisaga asoslangan. Sun'iy qochirishni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun spermiyning biologiyasini chuqur bilish zarur. Erkak hayvon jinsiy yo'llarida spermiylarda moddalar almashinish darajasi juda past bo'lib, urg'ochi hayvon jinsiy yo'llariga tushgach, ular faollashadi va 2-5 mm/daqiqa tezlikda harakat qiladi.

Spermiy harakatining yo'naliishi reotaksis bilan belgilanadi. Jinsiy yo'llardan oqayotgan suyuqlikning haddan ziyod ko'pligi, kislotali muhit va shuning kabiitar reotaksisning yo'qolishiga olib keladi. Spermiydag'i oziq moddalar kamliyi tufayli, u erkak hayvon jinsiy yo'llaridan tashqriderda 24-36 saat ichida halok bo'ldi.

Spermani oziq moddalarga boy maxsus suyultirgichlar bilan suyultirish yoki kuchli sovutish (78° - 196° C) yo'li bilan spermiylarning saqlanish vaqtini uzaytirish mumkin. Spermiylar ionlar, kislotalar ta'siriga va elektr zaryadining o'zgarishiga chidamsizdir.

Jinsiy hujayralar somatik hujayralardan bir qancha xarakterli belgilari bilan farq qiladi. Yetilgan jinsiy hujayralar (gametalar) o'zagidagi xromosomalarning soni gaploid bo'ldi. Gametalarda o'zak sitoplazma nisbati somatik hujayralarnikidan keskin farq qiladi. Masalan, tovuq tuxumidagi sariq modda miqdori boshlang'ich hujayra hajmidan millionlarcha marta ($4 \cdot 10^7$) ko'p. Spermiylar juda kichik - timsohniki 20 mkm, odamniki va ko'pchilik uy hayvonlarniki 50-70 mkm, amfibiya-*discoglossus pictus* niki 2 mm uzunkilda bo'ldi. Hozirgi zamон odamlarining (6 mird. ga ya-qin) taraqqiy qiliishida ishtirok qilgan spermiylarning jami hajmi 2 ta no'xatdek keladi. Spermiy o'zagi somatik hujayra o'zagidan uncha kichik bo'limasada sitoplazmasi juda kam.

Jinsiy hujayralarda moddalar almashinuviga depressiya holatida bo'lib, B.P. Tokin (1955) bu holatni anabiozga o'xshatishni taklif qilgan. Uzoq vaqt davomida biologlar jinsiy hujayralar kam tabaqalangan "totipotent" hujayralardir, degan fikri ilgari surib kelganlar. Aksincha, urug' va tuxum hujayralar yuqori darajada tabaqalangan, juda ko'p maxsus tuzilmalar: otalanishni ta'minlovchi moslamalar, tuxum qobiqlari va boshqalarga ega. Turli hayvonlar tuxumi sariq moddaning miqdori va joylashishiga ko'ra turfichaligi embrional taraqqiyotning o'ziga xos tomonlarini ta'minlaydi.

Moddalar almashinuvining o'ta sustligi jinsiy hujayralar bo'linish

qobiliyatining yo'qolishiga sabab bo'ladi. Urug' hujayraning bo'linayotganini hech kim kuzatgan emas, tuxum hujayra otalanishsiz yoki biror partenogenetik ormlning tu'sirisiz bo'lmaydi.

Jinsiy hujayralar yuqori darajada ixtisoslashgan va tabaqalanganligining belgisi tuxum hujayralarning o'ziga xos pardalarga egaligidir. Kelib chiqishiga ko'ra, birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi pardalar borligi yuqorida qayd qilindi.

GAMETOGENEZ, MEYOZ VA OTALANISH

Gametogenez - jinsiy hujayralarning paydo bo'lishdan to'otalanish qobiliyatiga ega bo'lgancha o'tadigan taraqqiyotdir. Birlamchi jinsiy hujayralar sariq xalta endodermasida vujudga keladi, keyinchalik esa gonadalar - urug'don va tuxumdonga tushadi. Ular ishqorli fosfatazaga boy bo'lib, boshqa hujayralardan yirik.


Gametogenez spermatogenez va ovogeneznini o'z ichiga oladi (16-rasm).

Spermatogenez erkak hayvon jinsiy bezlari - urug'donlarda yuz beradi. Jinsiy yetilishgacha bo'lgan hujayralar gonositlar deyilib, jinsiy yetilish paytda ular tez ko'payib, spermatogen hujayralarga aylanadi, yordamchi hujayralar esa yiriklashib, follikulyar hujayralarga aylanadi, sitoplazmasi bilan spermatogen hujayralarni o'tab oladi. Spermatogenez to'rt davr: ko'payish, o'sish, yetilish va shakllanish davrlariga bo'linadi. Spermatogenez urug'donning egri urug' naychalarida amalga oshadi. Eng "yosh" hujayralar naychaning periferik qismida, voyaga yetganlari - naychaning markuziy qismida joylashadi.

Ko'payish davri: ko'payayotgan hujayralar spermatogoniylar deyiladi. Ko'payish mitoz bo'linishlardan iborat. Spermatogoniylar ikki xil bo'ladi: o'zagi oval, och va xromatini changsimon spermatogoniylar - asosiy liniya hujayralari va yumaloq o'zakli, xromatin parchalariga boy spermatogoniylar - asosiy liniyadan ajralgan hujayralar. Bunday hujayralar tezda bo'linishni to'xtatib o'sish davriga kiradi. Asosiy liniya spermatogoniylari yana bo'linib, spermatogoniylar hosil qiladi.

O'sish davri: o'sayotgan hujayralar **birinchi tartibli spermatotsitlar** deyiladi. Ular yirik hujayralar bo'lib, o'zagida meyozga xos bo'lgan muhim o'zgarishlar yuz beradi. Birinchi tartibli spermatotsitda xromosomalar biroz spirallangan holda qolib, ularni yorug'lik mikroskopida ko'rsa bo'ladi. Spiralisatsiya kuchsiz darajada bo'l-gani uchun xromosomalar juda ingichka ip shaklida ko'rindi va genetikada bu faza leptoten

faza (lepto-nema deyiladi (*leptos-ingichka*, *taenia-tasma*, *nema-ip*), keyingi fazada gomologik xromosoma-lar bir-biriga tortilib, yaqinlashib, yon tomon-lari bilan zinch yopishishadi - bu **zigonemfa** (zigonema, sinapsis) deyiladi (*zeugninae*-birikmoq, *synapsis*-tegib turish, qo'shilish). Bu fazada ota-onadan olingan xromosomalar - gomologik xromosomalardan autosomalalar o'rtasida genlar almashtishi yuz beradi. Keyin autosomalalar keskin spirallashib yo'g'onlashadi. Bu faza **paxiten faza** (pixinema) deyiladi (*pachis-yo g'on*). Bu fazadan keyin autosomenalar bir-biridan itarila boshlaydi va **diplofen faza** (diplonema) boshlanadi (*diploos-qo'shaloq*). Diplonema fazasida har bir autosoma ikkitadan xromatidadan iborat bo'lib, bir-biri bilan zigonemada sinaps (kon'yugatsiya) hosti qilgan ikki autosoma tetra-da holida ko'rindi.



Horusi: Spermangenez (I) va ovogenet (II) xemosi - olingan xromosomalari qara rang, uning xromosomalar rangiz.

A-autosomalar, X,Y-jinsiy xromosomalari. Ko'payish davrida mazre yo'lli bilan be'lissushi diploidligini saqlab quruvchi spermatogoniya va ovogenoyalarning uch avlodni ko'satilga.

O'zagida bunday murakkab o'zgarishlar yuz bergan birinchi tartibli spermatotsit yetilish davriga kiradi. Yetilish davrida jinsiy hujayra diploid holatdan haploid holatga o'tadi, ya'ni hujayrada mavjud bo'lgan xromoso-

malarning yarim soni qoladi. Bu jarayon hujayra interfazani o'tmasdan, DNK molekulalari ikkilanmasdan bo'linishi natijasida yuz beradi. Birinchi meyotik bo'linish (yetilish bo'linishi) natijasida birinchi tartibli spermatotsitdan ikkita ikkinchi tartibli spermatotsit hosil bo'ladi. Bu bo'linishda har bir tetradan bir xromosoma - ikki xromatida ikkinchi tartibli spermatotsitiga o'tadi. Ikkinci tartibli spermatotsitlarda interfazani o'tmasdan, ya'ni DNK molekulalari ikkilanmasdan, yana bo'linadi va spermatidalarga aylanadilar. Sentromerlar parchalanish oqibatida har bir spermatida avvalgi tetradan faqat bitta xromatida oladi. Bu xromatida endi mustaqil xromosomadir. Oqibatda "qiz hujayralar" o'zagidagi xromosomalarning soni haploid holga kelib, bunday bo'linishini **reduksion** yoki **meyoz bo'linish** deyladi (*meiosis*- kamaytirmoq, yunon. *reducere* - kamayish). Meyozning birinchi bo'linishi reduksion bo'linish, ikkinchisi ekvatsion bo'linishdir.

Shuni esda tutish kerakki, X va Y xromosomalar birinchi tartibli spermatotsitning ikki marta bo'linishi natijasida hosil bo'lgan to'rt spermatidalarining boshqa-boshqalarida bo'lib, hosil bo'lgan spermatida (keyinroq spermiy)larning 50%ni X, 50%-ni Y jinsiy xromosomaga ega bo'ladi.

Shakllanish davri - "nishonlangan" atomlar bilan o'tkazilgan tekshirishlarning ko'rsatishicha, yetilish va shakllanish davridagi erkaklik hujayralarida murakkab o'zgarishlar yuz berishiga qaramay, ulurga tashqaridan moddalar kirishi keskin tormozlanadi. Sitoplazmaning eng faol zonası - plastinkali kompleks zonası hisobiga mukopolisaxaridlarga boy akrosoma hosil bo'ladi, o'zakning akrosomaga qarama-qarshi tomonida sentriollar joylashadi. Distal sentrioldan dumchaning o'q ipchasi o'sadi. Distal sentriolning ikkiga bo'linishidan hosil bo'lgan halqa dumcha o'sishi bilan o'q ipcha bo'ylab orqaga suriladi va o'zi bilan sitoplazma, mitokondriyalarni ergashtirib ketadi hamda bog'lovchi bo'limni hosil qiladi. Sitoplazma orqaga qarab siljishni davom ettirib, dumcha asossiy bo'limning qobig'ini hosil qiladi. Spermatidalarining spermiy tarkibiga kirmagan qismalari so'rilib ketadi.

Oogenez (ovogenez) uch davri: **ko'payish, o'sish, va yetilish davrlariga** bo'linadi. Bu jarayoning spermatogenezdan muhim farqi shuki, u juda uzoq davom etdi. Ovogenezning ko'payish davri embrionning tuxumdonida yuz beradi, organizm tug'ilish vaqtiga kelib tugallanadi. Ayrim tadqiqotchilar bu jarayon kemiruvchilarda hayvonning butun umri davomida yuz berishini qayd qiladilar. Organizm tug'ilgach, tez orada uning tuxumdonida ovogenezning o'sish davri boshlanadi.

Tuxum hujayraning yetilishi urg'ochi hayvon jinsiy halog'atga yetgach, ovulyatsiyadan (uchlamchi follikul yorilib, ovotsit tuxumdonidan chiqqandan) so'ng yuz beradi.

Ko'payish davridagi yosh tuxum hujayralar - oogoniylar nisbatan mayda, sitoplazmasi kam bo'lib, yanada maydaroq follikulyar hujayralar bilan o'ralgan.

O'sish davri spermatogenezning o'sish davriga nisbatan ham murakkabroq bo'lib, bu davrda meyozga tayyorgartlik bilan birga oziq moddalarining to'planishi ham yuz beradi. O'sayotgan hujayralar birinchi tartibli ovotsitlar deyiladi. Ko'payish davriming oxirgi bo'linishidan keyin hosil bo'lgan yosh **birinchi tartibli ovotsitlar** interfaza holatiga o'tmasdan, bo'lajak meyozga tayyorgartlik ko'ra boshlaydi (bu jarayonning batafsil bayoni genetika kursida beriladi), ya ni leptoten, zigoten, paxiten va diplo-tent fazalarni o'tadi.


Keyin xromosomalar bir-biridan uzoqlashadi, despiralizatsiyaga uchraydi va o'sish davrinining oxirigacha ko'rinnmay qoladi. Bu vaqtida ovotsitda sintetik jarayonlar intensiv ravishda boradi va bunda xromosomalar faol qatnashadi. Birinchi tartibli ovotsitda moddalar to'planishi ikki faza - **previtellogenez** (kichik o'sish fazasi) va **vitellogenez** (katta o'sish fazasi)ga bo'linadi.

Previtellogenezda kelajakda yuz beradigan oqsil sinteziga tayyorgartik ko'rildi: sitoplazma ko'payadi, ribosomalar, mitoxondriyalar soni ortib, plastinkali kompleks strukturalari taraqqiy qiladi. O'zak yaqinida "sariqlik tana" yoki "mitochondrial bulut" hosil bo'ladi. Mitochondrial bulut tarkibiga organellalar bilan birga yog' tomchitlari ham kirishi mumkin. RNK sintezida o'zakchaning roli ham sezilarlidir.

Vitellogenezda intensiv ravishda oqsillar sintezlanadi va sariq modda to'planadi. Bu jarayonda ovotsiti kerakli moddalar bilan ta'minlaydigan follikulyar hujayralar ham faol ishtirok qiladilar. Follikulyar hujayralurga yaqin zonada birinchi tartibli ovotsitning po'stloq (kortikal) qavatida sitoplazmaning mitoxondriyalarga boy faol qavati hosil bo'ladi.

Polyletsital tuxumlarda sariq modda to'planishi, ayniqsa, intensiv boradi. Masalan: tovuqlarda ovotsit diametri 6 mm ga etish bilan sariq modda to'planishi keskin ortadi, bir kecha-kunduzda 2 mm qalinlikda, keyingi 24 soat ichida esa 5000 mm^3 gacha sariq modda to'planadi. 5-8 kun davom etadigan vitellogenez fazasida jami sariq moddarining 99 foizi hosil bo'ladi. Sariq modda sintezlanishida butun organizm, ayniqsa, jigar faol ishtirok qiladi va hosil bo'lgan sariq modda qon orqali ovotsitga keladi. Previtellogenezda moddalar ovotsitning o'zida o'zak va uning atrofida joylashgan organellalarning faol ishtirokida yuz bersa, vitellogenezda moddalar qisman yoki batamom ovotsitdan tashqarida sintezlanadi. Bu paytda organellalar butun sitoplazma bo'ylab tarqalgan bo'ladi yoki kortikal zona-da joylashadi.

Yetilish ketma-ket yuz beradigan ikki marta bo'linish (meyoz) bo'lib, odatda tuxumdonidan tashqarida, ayrim hollarda hatto urug' hujayra ovotsitga kirishidan so'ng amalga oshadi. Bu jarayon natijasida tuxum hujayra haploid holatga o'tadi. Birinchi tartibli ovotsitning bo'linishidan ikkinchi tartibli ovotsit va birinchi tartibli reduksion tanacha hosil bo'ladi, ikkinchi tartibli ovotsitning bo'linishi natijasida yetilgan tuxum hujayra va ikkinchi tartibli reduksion tanacha vujudga keladi. Reduksion tanachalar ikkinchi tartibli ovotsit va etilgan tuxum hujayraga nisbatan ko'p marta kichik, ular yordamida yetilayotgan tuxum hujayrasini "ortiqcha" xromosomalaridan xalos bo'ladi. Ular tez orada so'rilib ketadi. Yetilish (meyoz)ning ikkinchi bo'linishida tuxum hujayrasining sentrosomasini yo'qoladi.



17-rasm. Qabel glerchidagi meiosis tuxum hujayra shiflashuviga surʼili kiritilayotgan sprejdi (electron mikroskopografii, 3x).

1-qurd qilancha da'mboqqa, 2-spermiy uchun; 3-hazaroq qo'siq; 4-mikrovibrat suuschi; 5-spermoying o'zagi. 6-tuxum hujayrasining shiflashuv (VIII va Dush be'yech).

urug' lantirisbda spermani haddan tashqari suyultirib yuborish yaramaydi. Keyin spermialar tuxum hujayraning yaltiroq pardasi ichiga kiradi va ni-hoyat boshchasi bilan sariq (vitellin) pardaga tegib, uning dumchasi harakatdan to'xtaydi. Tuxum hujayra va spermialar o'zaro murakkab ta'sir ko'rsatib, spermialar tuxum hujayra ichiga kiritiladi (17-rasm). Vitellin parda qalinlashib, otalanish pardasiga aylanadi va tuxumga boshqa seprmiylarning kirishiga to'sqinlik qiladi. Sariq moddasi kam tuxum hujayralar ot-alanganda tuxum ichiga bir spermialar kiritiladi va bunday otalanish mono-

Otalanih onalik va otalik jinsiy hujayralari (gametalar)ning qo'shili-shidir. Natijada **zigota** (yunon. *zenqynayl*-birik-moq) hosil bo'ladi va undan yangi organizm turaqqiy qiladi. Urug' suyuqligi urg'ochi hayvon jinsiy yo'llarga kiritilgan (urug'lanish)dan so'ng spermiylar tuxum hujayrasiga yaqinlashadi va maxsus fermentlar yorda-mida follikulyar hujayra-larni birlashtirib turuvchi mukopolisa-xaridlarni parchalab nurli toj deyiluvchi ikkilamchi pardani yemira bosh-laydi. Buning uchun ma'lum miqdordagi urug' hujayralari talab qilinadi va sun'iy

spermiya deyiladi. Sariq moddaga boy tuxumlar otalanganda tuxum hujayra ichiga bir necha spermiy kirishi (**polispermiya**) kuzatiladi. Polispermiyada ham zigota o'zagini shakllanishida faqat bir spermiy ishtirok qiladi, qolganlari esa yordamchi ahamiyatga ega. Otalanish yuz berganda spermiyning boshcha va bo'yinchasi tuxum hujayra ichiga kiritilib, qolgan qismlari tashqarida qoladi va ahamiyati yo'q. Spermiy tuxum hujayra ichiga kiritilishi bilan tuxumning yetilishi tugallanadi. Spermiyning ichkariga kiritilgan boshchasi shishib **otilik pronukleusiga** aylanadi. Yetilgan tuxum hujayraning o'zagi esa **onalik pronukleusini** hosil qiladi, ikkala pronukleus ham zigitaning markaziga qarab silijiysi. (18-rasm).

Spermiy tomonidan kiritilgan sentrosoma ishtirokida mitoz diki hosil bo'ladi. Ikki pronukleusning umumlashib, sinkarion hosil qilishi organizmlarga xos diploid to'plamga ega o'zakning tiklanishiga olib keladi. Pronukleuslarning qobig'i crib ketadi, tuxum hujayra va spermiy xromosomlari ekvatorial plastinka shaklida joylashib, embrional taraqqiyotning navbatdagi bosqichi - maydalanish boshlanadi.

Bir turdag'i organizm tuxum hujayrasi faqat shu turdag'i organizm urug'hujayrasи bilan otalanadi - ya ni otalanish qat'iy tanlanish usosida boradi. Otalanish natijasida xromosomalar to'plamida jinsiy xromosomalar kombinatsiyasiga qarab, organizmning jinsi belgilanadi. Tuxum hujayrasи X xromosomaga ega spermiy bilan otalansa urg'ochi jins rivojlanib, Y xromosomaga ega spermiy bilan otalanganda erkak jins rivojlanadi.

Turli zoologik guruhlarga kiruvchi organizmlarda tuxum hujayraning otalanmasdan taraqqiy qilishi ham kuzatiladi. Bu hodisa **partenogenez** deyiladi, hasharoqlar, tuban qisqichbaqsimonlar, mollyuskalar, baliglarda kuzatilgan. Sun'iy partenogenez tuxum hujayrasiga turli fiziko-kimyoiy omillar ta'sir qildirib amulga oshiriladi. Ipak qurtida bu hodisani zoolog A.A.Tixomirov (1886) o'rgangan. Akademik B.L.Astaurov va uning laboratoriysi xodimlari bu hodisani chuqur o'rjanib va nozik tajribalar o'tkazib, partenogenez yordamida ipak qurtida jinsni boshqarish (regulyatsiya qilish)ga muvaffaq bo'ldi.

Klonlash ("klon" - navda, shoxcha) yoki individuning genetik aniq nusxasini olish. Odatda, hayvonlar o'simliklardan farqli o'laroq, vegetativ yo'l bilan ko'paymaydi. Faqat sodda hayvonlardagina vegetativ ko'payish (kurtaldanish)ni jinsiy ko'payish bilan navbatma-navbat almashinishi kuzatiladi.


Vegetativ ko'payish natijasida hosil bo'ladigan individlar "ona" organizmning genetik aniq nusxasi hisoblanadi. Mikroorganizmlar, o'simliklar va sodda hayvonlarga xos klonlar hosil qilish hayvonot olamining keyingi evolyutsiyasi natijasida yo'qotilgan. Aniqrog'i bunday

xususiyat ko'p hujayrali hayvonlarning voyaga yetgan individlarida yo'qotilgan bo'lsa, ularning embrionlari saqlanib qolgan. Ko'p hujayrali organizmni zigitadan rivoj-langan gigant klon deb qarash mumkin. "Klon" tushunchasi faqat kelib chiqish umumiyligini emas, balki individlarning genetik struk-turasi (genotipi) umumiy bo'lishini ham taqozza qiladi. Agar individ genotipi o'zgarса u yangi klon uchun boshlang'ich asos bo'ladi.

Jinsiy ko'payish jarayonida ota va ona genlarning rekombinatsiyasi yuz beradi. Buning natijasida turli individlar, liniyalar, zotlarda yuzaga kelgan genetik o'zga-rishlar asta-sekin tur ichida aralashib ketadi, rekombina-tsionalanadi va butun tur uchun xos bo'lib qoladi. Vegetativ ko'payishda individlar orasida genlarning aralashishi yuz bermaydi va individ nima xossaga ega bo'lsa, bu uning avlodlarining ham xossasi bo'ladi. Demak jinsiy jarayonning asosida tur ichida genetik aynan o'xshash avlodlar hosil bo'lishiga qarshi, tur ichidagi individlar xilmalligini yuzaga keltiruvchi mexanizm yotadi. Shu sababdan hayvonlarda genetik aynan o'xshash individlar (monozigot egizaklardan tashqari) uchramaydi.

Ishlab chiqarish manfaatlari talablariga javob beradigan standartlashgan belgilarga ega, genetik aynan o'xshash populyatsiyalar yaratish yo'lida bir necha yo'naliishlarda tadqiqotlar olib borildi: 1) ota-onalaridan biri genlarning ishtirokisiz embrional taraqqiyotni amalga oshirish - partenogenez, ginogenez yoki androgenezdan foydalanish; 2) bir tuxumdan rivojlanuvchi (monozigot) egizaklar olish; 3) hayvon tuxum hujayrasini o'zagini ko'paytirilishi maqsadga muvofiq bo'lgan individ somatik hujayralarning genetik aynan o'xshash o'zaklari bilan almashtirish.

Har uchala yo'naliishda olib borilayotgan tadqiqotlar o'zlarining ijobjiy samaralarini bermoqda.




18-simon.Otalarish hisoqlari va maydavolchilik berilishi
(korona)

1-egozitma; 2-koronal doschular; 3-yulmasq parsi; 4-follikular suyu; 5-spermoyalar; 6-embriokora - tanohola; 7-ovulering yutlik bo'tishi; 8-otalarish do'zhishqat; 9-otalarish suyu'; 10-naslik prezervativ; 11-naslik prezervativ; 12-naslik; 13-egozitma berilishi mene bo'tishi; 14-blasterlar.

EMBRIONAL TARAQQIYOTNING DASTLABKI BOSQICHLARI

Maydalaniш. Maydalaniш zigota hosil bo'lgach yuz beradigan jarayon bo'lib, buning natijasida zigota ko'p hujayrali embrionga aylanadi va blastula hosil bo'ladi. Maydalaniш mitoz bo'linish bo'lib bu vaqtда hosil bo'layotgan embrional hujayralar - balstomerlar o'smaydi, chunki interfazaning G, davri bo'lmaydi. Har bir navbatdagi bo'linishdan keyin blastomerlarning hajmi kichiklashib boradi, hamma blastomerlarning umumiy hajmi zigotaning boshlang'ichi hajmidan oshmaydi. Maydalaniш shu turga xos organizmlar somatik hujayralaridagi o'zak-sitoplazma mutanosibligi tiklanguncha davom etadi. Tuxum hujayradagi sariq moddaning miqdori va sitoplazmada taqsimlanishining turlicha bo'lishiغا ko'ra, har xil hayvonlar zigotasing maydalaniшi ham turlicha bo'ladi.



19-sim. Lepthothrix zigotining nu'lq-teklis maydalaniш processi:
I-4-kali blastomer; II-8-kali blastomer; III-16-kali blastomer; IV-32-kali blastomer; V-
64-kali blastomer; VI-128-kali blastomer; VII-256-kali blastomer; VIII-512-kali blastomer;
IX-1024-kali blastomer; X-2048-kali blastomer; XI-4096-kali blastomer; XII-8192-kali
blastomer. 1-Hansederer; 2-Hanseler; 3-Hanselereng' turi; 4-qo'rg'oz amni; 5-
meridional chiziq qopqopshasi.

tativ qutbgacha davom etadi. Birinchi va ikkinchi maydalaniш egatlari bir-biriga perpendikulyar bo'lgan tekis-likda meridional chiziqlar bo'yab o'tadi. Natijada avval 2, keyin 4 ta bir-biriga teng blastomerlar hosil bo'ladi. Uchinchi maydalaniш egatchasi zigota ekvatoriga parallel holda, ekvatoridan sal yuqoriroqdan o'tadi va hosil bo'lgan blastomerlarning 4 tasi qolgan 4 tusiga nisbatan sal kichikroq bo'ladi.


Lansetnik zigotasining maydalaniшi (19-rasm) - to'лq-teklis maydalaniшning klassik misoli bo'lib, A. O. Kovalevskiy tomonidan o'rGANILGAN. Tuxum hujayrasi otalangach, sitoplazmada sariq moddaning qaytadan taqsimlanishi yuz berib, zigotada sariq moddan xalos bo'lgan animal va sariq moddaga boyroq vegetativ qutblar farq qilinadi. Maydalaniш egatchasi animal qutbdan boslanib, meridional chiziq bo'yab vegetativ qutbgacha davom etadi. Birinchi va ikkinchi maydalaniш egatlari bir-biriga perpendikulyar bo'lgan tekis-likda meridional chiziqlar bo'yab o'tadi. Natijada avval 2, keyin 4 ta bir-biriga teng blastomerlar hosil bo'ladi. Uchinchi maydalaniш egatchasi zigota ekvatoriga parallel holda, ekvatoridan sal yuqoriroqdan o'tadi va hosil bo'lgan blastomerlarning 4 tasi qolgan 4 tusiga nisbatan sal kichikroq bo'ladi.

To'rtinchi bo'li-nishda bir yo'la 2 ta meridianal egatchalar hosil bo'lib, embrionni 16 blastomeriga bo'ladi. Beshi-nchi bo'linishda ikkita kenglik bo'yab o'tadigan egatchalar hosil bo'lib embrionni 32 blastomeriga bo'ladi. Oltinchi bo'linish-da to'rtta meridianal egatcha, yettinchi bo'linish-da to'rtta kenglik egatchalari hosil bo'lib, embrion 128 blastomerli bosqichga keladi. Shunday qilib to'liq-tegis maydala-nishda hamma blastomerlarning sinxron (bir vaqtida) bo'linishi bilan amalga oshib, blastomerlarning soni geometrik progressiya bo'yicha (1, 2, 4, 8, 16, 32, 64, 128 kabi) ko'payadi.

Keyin maydalanihsning sinxronligi buziladi. Tashqi ko'rinishi tut mevasiga o'xshash bo'lgan, blastomerlar to'plamidan iborat embrion **morula** deyiladi. Blastomerlar soni 1000 ga yetib pufakcha shaklidagi embrion - **blastula** (*blastos-hornila*) hosil bo'ladi. Blastulaning devori bir qavat balstomerlardan iborat, ichida esa shilliqsimon modda (dirildoq) bilan to'lgan bo'shliq - **blastotsel** bor. Bu bo'shliq tananing birlamchi bo'shilig'i deyiladi. Blastulada tub qismi va qopqoqcha farq qilinadi. Qopqoqcha qismi blastomerlari tub qismnikiga qaragunda biroz maydarqdır. Lansetnik zigotasining maydalishi shuni ko'rsatib turibdiki, oligoletsital tuxumlar otalanganda to'liq maydalaniadi, hamma material embrion tanasi hosil bo'lishiga sarflanadi. To'liq maydalaniadi tuxumlar **goloblastik** (*holos-butunlay*) tuxumlar deyiladi. Bunday maydalanihs natijasida **seloblastula** hosil bo'ladi, uning kattaligi taxminan shu blastula rivojlangan tuxumning kattaligiga teng.

Amfibiyalarning mezoletsital tuxumi otalanib zigota hosil bo'lgach, u to'liq-notekis maydalanihsiga uchraydi (20-rasm). Tuxumning animal va vegetativ qismlari lansetnik tuxumidagiga nisbatan ancha keskin farqlar bilan ajralib turadi. Animal qutbda qoramir-jigarrang pigment to'plangan, vegetativ qutbda sariq modda ko'p. Sariq modda sitoplazmaga nisbatan og'iroq bo'lganligi sababli animal qutb yuqori tomonga, vegetativ qutb quyiga qaragan holda joylashadi.

To'liq-notekis maydalanihs yuz berayotgan zigota bo'linishda




20-rasm. Amfibiya zigotasining to'liq-notekis maydalanihsiga uchraydi
1-ko'rsatishda; 2-morula; 3-blastula; 4-blastotsel

to'liq ishotirok qilsa ham, bo'limishlar natijasida hosil bo'lgan blastomerlarning kattaligi turlichadir. Birinchi va ikkinchi maydalanish egatchalarini lansetnikdag'i yo'naliishda o'tadi. Hosil bo'lgan birinchi to'rt blastomer kattaligi jihatdan o'zaro tengdir.

Uchinchi maydalanish egatchasi, ekvatoridan yuqorida, animal qutbga yaqin joydan o'tadi va natijada 4 katta (**makromer**) va 4 kichik (**mikromer**) blastomerlar hosil bo'ladi. Blastomerlarning kattaligidagi bunday farq vegetativ qutbining sariq moddaga boyligi bilan bog'liq. Bundan keyingi maydalanish animal qismi blastomerlarida tezroq, vegetativ qismi blastomerlarida sekirroq boradi. Natijada bu ikki guruh blastomerlarning kattaligidagi o'zaro farq ortaboradi. Shu bilan birga tangensial (zigota yuzasiga parallel) maydalanish egatchalarini paydo bo'lib, hosil bo'luechi blastulaning devori bir necha qavat bo'lib joylashgan blastomerlardan iborat. Shunday qilib amfibiyalar blastulasining qopqoqcha qismidagi blastomerlar kichik, tub qismidagilari katta va sariq moddaga boy, blastotsel nisbatan kichiklashgan va blastoderma ko'p qavatlidir.

Tuxum hujayra tarkibida sariq moddaning yanada ko'proq to'planishi maydalanish jarayonida yanada chuqurroq o'zgarishlar yuz berishiga olib keladi. Sariq moddaning ko'pligi vegetativ qutbda maydalanishning tormozlanishiga sabab bo'ladi, poliletsital tuxumlarning vegetativ qutbi maydalanishda mutlaqo ishtirok qila olmaydi. Maydalanish faqat animal qutbda yuz berib, hosil bo'lgan blastomerlarning bir qismi embrion tanasining shakllanishiga sarflanadi, qolgan qismi embriondan tashqi organlar (embrion pardalari, vaqtinchalik organlar)ni hosil qiladi (21-rasm).



21-rasm. Tunica tigritasining qismi - diskoidan maydalanishi:

A,B - regulorliy bo'sqichlar - urli sonordan bo'yinda (A - dörd, B - seksan) egatchalar; B - keyingi bo'sqichi - bo'sqich; C - entektik dokuning kusuni (A'da - sariq moddasi joylasigan chetli bo'sqich); D, E, F, G, H - sariq moddadan ajralib tarafilet bo'sqichlar.

Bunday qisman maydalish **meroblastik** (*meros-qism*) va **diskoidal** deyiladi va akulalar, suyakli balicqlar, reptiliyalar hunda qushlar zigotasiga xosdir. Meroblastik-diskoidal maydalishni **diskoblastula** hosil bo'lishiga olib keladi. Akulada tuxumning diametri 20 sm gacha bo'lib, diskoblastula uning taxminan 1/500 qismini egallaydi.

Gastrulyatsiya.


Blastula hosil bo'lishi bilan tugaydigan maydalishidan so'ng gastrula (*gaster-me'da*), ya'ni ikki qavatlari embrion hosil bo'ladi. Bu jarayon gastrulyatsiya, hosil bo'luvchi hujayraviy tuzilishi ega qavatlar **embrion varaq (qavat)lari** deyiladi.

Turli hayvonlarda blastula hosil bo'lishidagi farqlarni yuqorida ko'rib chiqdik. Bu farqlar gastrulyatsiya davomida yanada orta boradi va turli hayvonlarga gastrulyatsiya-ning turli xillari xos.


Lansetnikda **invagi-natsion** gastrulyatsiya ku-zatiladi (22-rasm). Blastula-laning qopqoqcha va unga tutashgan qismi blasto-merlari tub qismni hosil qiluvchi kattaroq blastomerlarga nisbatan tezroq ko'payadi. Bu hol blastula tubining asta-sekin blastotsel ichiga botib kirishiga (invaginatsiyaga) olib keladi.

Blastula tubining blastomerlari embrion ichki qavati - **endoderma**, qopqoqcha qismniki esa tushqi qavat - **ekto-dermaga** aylanadi. Gastru-laning bo'shiligi - **gastro-tsel** (biriamchi ichak) blastopor (biriamchi og'iz) orqali tushqi muhit bilan tutashgan va dengiz suvi bilan to'lgan bo'ladi.

Blastoporing yuqorigi (dorsal), pastki (ventral) va yon (lateral) lablari bor. Gastrula ektodermasi hujayralari tukchalarga ega va lichinka harakatchandir.




22-rasm. Lansetnikda blastula va gastrulyatsiya:
1-5- endoderm matrudi; 2-blasterid; 3-ekto derma matrudi; 4- matrudi; 5-archenteron; 6-gastrost; 7-blastopor; 8-blastoporing formulasi.



23-rasm. Lansetnikda gastrulyatsiya va u'g organoforming hollari bo'lib:
aer-ekto derma; aer-endoderma; os-kira-nchi ichak; os-u'g planchet;
os-u'g nagi; s-sode; os-ekto derma; s-sode.

Gastrulyatsiya yuz bergach embrion bo'yiga tez o'sadi. Ektoderma dan **me-dullyar (nerv) plastinka** ajralib, asta-sekin nerv naychasi, keyin orqa miyaga aylanadi. Umurtqalilarda esa orqa miyaning oldingi qismi tez rivojlanib bosh miyaga aylanadi. Ektodermaning qolgan qismi embrionning tashqi tomonini qoplovchi teri ektodermasi deyiladi. Endodermadan xorda kurtagi va bu kurtak ikki yon tomonidan **mezoderma** ajralib chiqqach, qolgan qismi ikkilamchi yoki ichak endodermasi deyilib, u birlamchi ichakka aylanadi.

Mezoderma kurtaklari ikki tomonda ikkita xaltasimon o'sma hosil qilib, birlamchi ichak va teri ektodermasi orasida joylashadi. Mezoderma o'smalari ichida hosil bo'lgan bo'shilq tananining ikkilamchi bo'shilg'i - seloma deyiladi (23-rasm). Amfibiyalar blastulasining o'ziga xos tuzilishi, ularda gastrulyatsiya invaginatsiya yo'li bilan borish imkoniyati yo'qligini ko'rsatib turibdi. Blastula tubi ancha qalin bo'lib, sariq moddaga boy makromerlarning nofaol bo'lishi, blastotselning kichikligi gastrulyatsiyaning yangi tipi - **epiboliyaning** birinchi o'ringa chiqishiga sabab bo'ladi (24-rasm).




24-rasm. Amfibiyalarda gastrulyatsiya:

A-f-qiziq o'simmon je'si (regi) chiq payaki bo'lishi da; B, C, D - payoq o'simmon ja yur'uchasining uchlar qo'shilishi ta blasstopor hosil bo'lishi. E-sariq tijor teshit bo'libdi.

Gastrulyatsiya qirg'oq zonada o'roqsimon shakldagi egut hosil bo'tishidan boshlanadi. Bu egatning chuqurlashishi natijasida gastrotsel, blasstopor, ventral va lateral lablar hosil bo'ladi. Dorsal lab esa hali vujudga kelmag'an bo'lib, uming o'mida sariq moddaga boy blastomerlar joylasha-di. Invaginatsiya bilan bir vaqtning o'zidu blastulanining yirik blastomerlardan iborat tubini tez bo'linayotgan mayda hujayralar bosib o'sib epiboliya boshlanadi. Invaginatsiya va epiboliya natijassida endoderma va ekto-derma qavatlari, shu-

ningdek dorsal lab vujudga keladi. Late-ral lablar zonasida bo'lgan qirg' oq zonaning deyarli hamma mayda blastomerlari materiali ichki varaq (endoderm) tarkibiga kirmaydi va endoderm bilan ektodermma orasiga o'sib kirib, hosil bo'layotgan xordaning yon tomonlarida joylashadi. Bu bo'lajak mezodermadir. Gastrulyatsiya tamom bo'lgach, embrion tez o'sadi. Embrion varaqlarining tabaqalanishi lansetniknikiga ko'p jihatdan o'xshash bo'ladi. Nerv sistemasi materiali nerv plastinkasi shaklida embrionning elka qismida xorda ustida joylashadi, uning baland va yirik hujayralari qoplag'ich ektodermaning anchagina mayda hujayralardan keskin farq qiladi. Nerv plastinkasining chetlari bir oz ko'tariladi va tashqi tomonidan yaxshi ifodalangan nerv valiklarini hosil qiladi. Plastinka asta-sekin egilib, valiklarning qo'shilishi natijasida nerv nayini hosil qiladi. Nerv nayi ustidagi ektodermaning bitib ketishi sababli embrionning ichiga botib kiradi (25-rasm).



25-rasm. Aesthysdarda gastrulyatsiya va e'q organlari hosl bo'lib ravvad:
I-embrioz; II-III - gastrulyatsiya; IV - myalq; 1 - ektoderm; 2 - endoderm; 3 - mosa; 4 - endoderm; 5 - nerv plastinkasi; 6 - blastoporeng yusqaga o'sa pasto (7); 7 - nerv; 8 - mosaq; 9 - gastroz; 10 - nerv nayi; 11 - nerv kanali; 12 - segmentlangan rektoderm; 13 - segmentlangan myalqa; 14 - sariqlik endoderma (nayi nayi).

qoladi va sariq modda ustidan ko'tarilib o'sadi. Embrion diskining ust tomonidagi mayda hujayralardan ektoderm, pastiki tomonidagi yirik hujayralardan esa endoderm vujudga keladi. Blastopor lablari zonasida mayda blastomerlardan iborat xordomezodermal kurtak hosil bo'lib, u gastrulyatsiyaning boshidayoq ektoderm va endodermma orasiga suqilib kirib, o'sa boshlaydi. Embrionning me'yori rivojlanishi uchun embrion va sariq modda orasida tana burmasi hosil bo'lib, u embrion va sariq moddani bir-

Nerv nayi hosil bo'lishi bilan bir vaqtida embrionning ichki qismlarida o'zgarishlar yuz beradi. Bunday o'zgarishlar mezoderma materialida xususan muhim bo'ladi.

Akulalar va suyakli baliqlar diskoblastulasining tubi sariq moddadan iborat bo'lib, qopqoqchasi embrion diski (blastodisk)dir. Gastrulyatsiya blastodiskning orqa qirg' og'iga (chekkasiga) blastomerlarning ko'plab (ommaviy) ko'chishi bilan boshlanadi. Embrion diskining orqa chekkasi bukilib, ikki qavatlari bo'lib

biridan ajratib turadi. Sariq modda xaltasini embriondan tashqarida yetgan ekto-, endo- va mezoderma hosil qiladi. Embrion bilan sariq modda o'rtasida sariq poyacha bog'lovchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Sariq modda xaltasidagi oziqlar ishlatalib bo'lgach, bu xaltsu embrion tanasidan ajraydi.


EMBRION VARAQLARINING DIFFERENSIATSIYASI

Embrion taraqqiyoti paytida embrion varaqlari va to'qimalar hamda organlar hosil bo'lishi divergent tabaqalanish (**differensiatsiya**) yo'li bilan boradi. Bunday tabaqalanishning bir necha bosqichlarini tafovut qilish mumkin: ootipik differensiatsiya, blastomerlarning differenziatsiyasi, embrion varaqlarining va to'qimalarining differensiatsiyasi.

Ootipik differensiatsiyani tuxum hujayra yoki zigota siteplazmasida bo'lgusi kurtaklarning prezumptiv (*presumptio-ctitomol*) qismlar shaklida kuzatish mumkin. Masalan, zigota

animal qutbi kelajakda ektodermaga, vegetativ qutb materiali endodermaga aylanadi.

Blastomerlarning diffe-rensiatsiyasi bo'lajak to'qima kurtaklari zigotadan shu to'qima rivojlanishini ta'minlaydigan blastomerlar hosil bo'lishi bilan belgilanadi. Ko'pincha maydalananishning ilk davrlaridayoq bir-biridan farq qiladigan blastomerlar hosil bo'ladi. Blastula bosqichida blastula tubi, qopqoqchasi va qirg'oq zonasiga blastomerlari bir-biridan farq qiladi.



26-rasm. Amfibiyalar embrionining stereogrammasi:
teri - ectoderm; meso - mezoderma; endo - endoderm;
vitsensel varag' - vesicle; mi-mezo-dermasing parietal varag' - meso-chor;
ir-nerv nayi; x-xorda; cern-segment oyogchasi;
derm-dermatom; oks-eklerom; muz-mezotekton;
cus-splanchnom; usi-miotom; o-senit.

o'xshashliklari ham bor. Xordalilarda ektodermadan nery to'qimasi, terini qoplovchi epidermis va uning hosilalari taraqqiy qiladi. Endodermadan ovqat hazm qilish nayi, nafas yo'li va siyidik pufagi shilliq pardasini

Embrion varaqlarining differensiatsiyasida birlam-chi embrion varaqlari alohida tuzilishga ega bo'lgan chegaralangan qismlar hosil qilib, ulardan turli organlar va to'qimalar tabaqalanadi. Bunga biz birlamchi endo-dermadan xorda va mezoderma ajralib chiqi-shini (lansetnikda) misol qilib keltirishimiz mumkin. Embrion varaqlarining differensiatsiyasi turli hayvonlarda o'ziga xos tomonlarga ega bo'lishiga qaramasdan, o'zaro

qoplovchi epitely, ovqat hazm qilishda ishtirok etuvchi bezlar rivojlanadi. Embriomning o'rta qavati - mezoderma ko'pdan-ko'p to'qimalar hosil bo'lishida ishtirok qiladi. Uning differensiatsiyasini amfibiyalar misolida qarab chiqamiz (26-rasm).

Mezoderma kurtagi visseral (ichki) va parietal (tashqi) varaqlarga ega, xaltasimon tuzilishda bo'lib, xorda va birlamchi ichak nayining yon tomonlarida teri ektodermasi ostida joylashadi. U asta-sekinlik bilan orqa (elka) segmentlari - somitlarga bo'linadi. Segmentlanish mezodermaning dorsal qismini o'z ichiga olib, ventral qismi segmentlarga bo'linmay qoladi. Somitlar mezodermaning segmentlanmagan ventral qismidan ajralib miotomlarga aylanadi. Ventral qism splanchnotom nomini oladi. Ma'lum vaqtgacha miotomlar segment oyoqchalari vositasida splanchnotomlar bilan bog'langan bo'ladi. Miotomlarning medial qismi skelet muskulurasiga aylanadi, ventro-medial qismi - sklerotom (*skelet varagi*), xorda tomoniga qarab siljib, mezenximal to'qimani hosil qiladi. Miotomning lateral plastinkasi yoki dermotom to'lig'icha mezenximaga aylanib, terining biriktiruvchi to'qima qismi - dermani hosil qiladi. Splanchnotom qorin pardasi, plevra, perikard kabi zardob pardalarning hosil bo'lishida ishtirok qiladi.

Sudralib yuruvchilar, qushlar va sut emizuvchilarning embrion varaqlari embriondan tashqaridagi qismlarga ham ega. Bu qismlar embrion pardalari hosil bo'lishini ta'minlaydi. Bu hayvonlarni amniotlar (o'z taraqqiyoti davrida embrion paradalari, jumladan, *amnion hosil qiluvchilar*) deb ataydilar.

Differensiatsiyaning to'rtinchchi bosqichida to'qima kurtaklari to'qimalarga aylanadi. Muayyan kurtakni hosil qiluvchi hujayralar tegishli to'qima hujayralari va hujayramas tuzilmalarni hosil qilib, ularning biokimyoiy va fiziologik xossalarni ta'minlaydi.

Embriyon taraqqiyotning ilk bosqichlari dayoq uning turli qismlari o'rtasida morfologik va biokimyoiy farqlar vujudga kelib, keyinroq bu farqlar yanada yaqqolroq ko'zga tashlanadi va sifat o'zgarishlariga olib keladi. Taraqqiy qilayotgan embrion qismlarining o'zaro ta'siri zigotaning maydalishidayoq paydo bo'ladi. Endigina hosil bo'lgan ikki blastomer bir-biridan ajratilsa, har biridan mustaqil organizm hosil bo'ladi (bir tuxumdan rivojlanuvchi egizaklar). Embriolog V.Ru (1888) tajribalarida isbotlanganidek, blastomerlardan biri o'ldirilib, ikkinchisi, shikastlanmagani bilan aloqasi buzilmasa, unda qolgan blastomer tananining yarmini hosil qiladi. Bu hodisa blastomerlarning o'zaro ta'siriga yaqqol misol bo'la oladi.

Taraqqiyot ilgarilab borgan sari embrion qismlarining o'zaro ta'siri

kuchliroq namoyon bo'la boradi. Bu ta'siri embriologlar **induktiv ta'sir (induksiya)** deb ataydilar. Biz yuqorida zigota, blastula va embrion varoqlarida prezumptiv qismlar holida differensiatsiya mavjudligini ko'rgandik. Prezumptiv qismlarning tegishli organlar, to'qimalarga aylanishi embrional taraqqiyot uchun zarur me'yori shart-sharoitlar mavjud bo'lganda va embrion turli qismlarining o'zaro induktiv ta'siri ostida yuz beradi. Masalan birlamchi endoderma tarkibidagi xorda kurtagi ektodermaning uning ustida joylashgan qismiga tu'siri natijasida bu qism nerv plastinkasi, keyinchalik nerv nayiga aylanadi. O'z navbatida nerv plastinkasi xorda kurtaginining xordaga aylanishiga sabab bo'ladi. Bo'lajak xorda-mezodermal materialni embrion tanasining boshqa biror joyiga ko'chirib o'tqazib, o'z taraqqiyoti uchun xarakaterli bo'limgan joyda nerv nayi taraqqiy qilishini kuzatish mumkin.


Embrion taraqqiy qilayotgan muhit omillarining o'zgarishi, uning turli qismlariga har xil ta'sirlar ko'rsatilishi embrional taraqqiyotning me'yori, genetik jihatdan asoslangan (**determinatsiya** qilingan), borishi buzilishiga sabab bo'lishi mumkin.

QUSHLARNING EMBRIONAL TARAQQIYOTI

Qushlar tuxumining sarig'i gigant poliletsital tuxum hujayradir. Qushlar, shuningdek reptiliyalar quruqlikda hayot kechiradi, ularning embrional taraqqiyoti esa o'ziga xos sharoitda - tuxum pardalari ichida yuz beradi va embrional taraqqiyot davrida lichinka bosqichi yo'q.

Embrional taraqqiyot paytida embrion sifatlari va mo'lko'l oziqa moddalar bilan ta'minlanishi kerak. Poliletsital tuxum hujayralarda oziq moddalar, mineral tuzlar keragicha to'plangan. Tashqi muhitdan kislorod va issiqlik kelib tursa, embrionning taraqqiyoti me'yori ravishda boradi.

Tuxum hujayraning o'zagi uning animal-qutbiga joylashgan. Tovuq yangi qo'ygan tuxumda, agar bu tuxum otalangan bo'lsa, o'zak o'rniembrion - "blastodisc" bo'lib, unga "chandiqcha" deyiladi. Embrion tagida ko'zcha shakliga ega bo'lgan rangi ochroq sariq modda -latebra joylashadi. Latebranining sariq moddasi kislorodsiz parchalanib, energiya bera oladigan karbonsuvlarga boy bo'ladi. Latebra atrofida tuxumning sitoplazmasida sariq moddaning ochroq va to'qroq rangli qismlari navbatma-navbat joylashadi. Sariq moddaning rangi ikki xil bo'lishi, uning kechakunduzning qaysi paytida hosil bo'lganiga, ya'ni pigment, vitaminlarning organizrniga kirishi va insolyatsiyaning ta'siriga bog'liq (27-rasm).



Tuxum qo'yilguncha o'tgan vaqt, kunlar
27-rasm. Tavuq tuxumi tazlilishining xesmasi:

1-pitum po'chog'i; 2-lateber; 3-po'chog osti parda; 4-och rangli sariq modda; 5-to'q rangli sariq modda; 6-lateber ostida joylashgan och rangli sariq modda; 7-blastodemma; 8-sariq parda; 9-havo kamerasi; 10-tuxum esqili (albuminining tashqi qavat); 11-tuxum esqili (tofador qavat); 12-xalaza; 13-xalazasimon qavat; 14-tuxum esqili (albuminening ichki qavat).

O'ng tomonidagi qiya chiziq tuxum qo'yilishidan oldin 18 km mobaynida sariq modda su'planish tezligini ifsalaydi. Sariq moddaning tarzi qavatlaridan boshlanuvchi va qiya chiziqga yo'nashvchi sherk chiziqlar sariq modda qavatining hosil bo'lishi vaqtni ko'natadi.

ishtiroy qiladi va tuxum hujayra tuxumdonidan chiqqach erib ketadi.

Qushlarda otalanish ichki bo'lib, tuxumdonda (yoki tuxum yo'lida) yuz beradi. Otalanish uchlanchi pardalar hosil bo'lishdan

avval yuz berib, polispermdir. Qushlar tuxumiga 5-24 urug' hujayra kiradi. Lekin faqat bir urug' hujayra bevosita otalanishda ishtiroy qilib, qolga-nlari tuxum hujayra tomonidan assimiliyatsiya qilinadi.

Qushlar zigotasiда microblastik maydala-nish (segmentatsiya) yuz berib, uni qisman-diskoidal maydalanish deyiladi (28-rasm).

Chunki zigotaning animal qutbidagi disk-ka o'xshash bir qismi maydalanib, vegetativ qismiga to'plangan ko'p miqdordagi sariq modda maydalanmay qoladi.

Qushlar blastulasi diskoblastula deyiladi (29 rasm).

Qushlar tuxumi (4-27) soat mobaynida tuxum yo'lidan tashqariga chiqadi. Bu vaqt ichida, agar tuxum hujayra otalangan bo'lsa, maydalanish yuz beradi va tashqariga qo'yilgan tuxumda blastodisk mayjud bo'ladi. Tuxum qo'yilgach u sovuydi va taraqqiyot vaqtinchada to'xtaydi. Tuxum inkubatorga qo'yilsa yoki tovuqqa bostirilsa taraqqiyot davom etadi.

Qushlar tuxumi birlamchi - vitellin pardadan tashqari oqsil, skorlupa ostidagi ikki qavatlari yupqa parda va skorlupa (Ca^{++}) tuzlariga boy po'choqiga ega bo'lib, ular uchlanchi pardalaridir. Oqsil modda hisobiga hosil bo'lgan "apparat" - xalazalar (chalaza-do'l donesi) tuxum sarig'ini doimo bir bolatda - animal qutbi yuqoriga qaragan holatda tutib turadi. Follikulyar epiteliyidan hosil bo'lgan ikkilamchi parda faqat tuxumdonagi tuxum hujayra strofini o'mb turib, uni oziqa moddalar bilan ta'minlashda

Tuxum yo'lidan tashqariga chiqqan tuxumning tez sovushi, uning ichidagi moddalar zinchlashishi natijasida po'choq "pora"lari orqali havo kirib, havo kamerasi hosil bo'ladi.

Inkubatsiya qilinadigan tuxum iloji boricha yangi qo'yilgan bo'lishi, $+3\text{--}6^{\circ}\text{C}$ da 5-10 kundan ortiq saqlanmasligi kerak.




28-rasm. Tovsq zigotasing maydalanishi:
A-2 blastomer; B-4 blastomer; C-8 blastomer; D-16
blastomer.

Tuxum 25-30 kundan ortiq saqlanganda undagi embrion o'ladi. Otsalangan va tashqariga chiqqan tuxumdag'i blastodiskda embrion disk'i, juda kichik blastotsel va blastula tubi xizmatini o'tavchi ko'p midorda sariq modda bor.

Qushlarda gastrulyatsiya jarayoni yaxshi o'r ganilmagan, endoderma tuxum qo'yilmasdan oldin hosil bo'ladi. Endoderma hujayralari blastodiskdan delami-natsiya yo'li bilan ajraladi. Endoderma hosil bo'lishida **immigratsiya** – hujayralarning faol ravishda ko'chishi ham ma'lum ahamiyatga ega (30-31-rasmlar).

Inkubatsiyaning birinchi 12 soatlida blastodisk tez o'sadi va uning o'rasisida embrion qalqonchasi hosil bo'ladi. Embrion qalqonchasinining materiali embrion tanasi to'qimalarining taraqqiyoti uchun sarf bo'ladi. Embrion qalqonchasisiga yaqin joylashgan zona timiqroq bo'ladi, chunki bu zona hujayralari sariq moddadan ajralgan va ko'tarilib turadi. Bu zona esa qoramit (qorong i) zona bilan o'ralgan.

Inkubatsiyaning birinchi soatlari dayoq embrion qalqon-chasi astrofidi-dagi hujayralarning faol ravishda ko'chishi natijasida hujayraviy material zinchashib **birlamchi tasmacha (chiziq)** hosil qildi. Hujayralarning harakati oqibatida u tez uzayadi. Ayni paytda embrion qalqonchasi cho'zilib noksimon shaklini oladi. Birlamchi tasmachaning oldingi qismi yo'g'onlashib, unga **birlamchi tugun** nomi berilgan. Hujayralardan iborat materialning harakati birlamchi tasmacha va birlamchi tugun hosil bo'lishi bilan cheklanmaydi. Birlamchi



29-rasm. Tovsqning embrion disk'i:
(A-maydalishning so'nggi bosqichi va t-gastrulyatsiyaga yaqin davr) - 1- blasto-medial;
2-ekstoderma; 3-blastotsel; 4-sariq modda.


tasmacha hujayralarning bir qismi ichkariga ko'chib o'tib, u erda har tomonga taraqaladi va endoderma bilan ektoderma oralig'ida mezodermani hosil qiladi.



30-rasm. Qushlarda gastrulyatsiyaning erta (harvaqt) bosqichti:
defaminatsiya va migratsiya - 1 - ektoderma; 2 - endoderma

joy hosil bo'ladi. Bosh chuqurchasi o'z mohiyati bilan blastoporga mos keladi, chunki shu joydan material embrion ichiga silib kiradi. Chuqurchaning oldidan ektoderma ostiga birlamchi egatcha materialidan zinch o'simta o'sib chiqadi va u bosh o'simta nomini oladi. Bosh o'simtadan xorda rivojlanadi. Gastrulyatsiya oxirida qushlarning embrioni ektoderma, nerv plastinka kurtagi, endoderma, xorda va mezodermadan iborat bo'ladi.

Embrion varaqlarining tabaqalanishi va o'q organlarining hosil bo'lishi asosan, biz yuqorida ko'rib chiqqan, boshqa hayvonlarda yuz beradigan shu jarayonga o'xshash bo'ladi.




31-rasm. Qushlarda gastrulyatsiya:
A-embrion qilgunchasida hujayreni migratsiyasi; B-xedamezodermal xarak bosil bo'lishi; 1 - ektoderma; 2 - bo'lajak nerv plastinkasining materiali; 3 - xorda plastinkasining materiali; 4 - birlamchi egatcha; 5 - xorda; 6 - mezoderma. Yaxlit chiziqli stekular materialning embrion tashqi qavmi tarkibida, pusktir, chiziqli stekular esa o'rta qavm tarkibida ko'chish yo'nalishini ko'rsatadi.

embrion pardalari hosil bo'ladi (I-jadval).

Birlamchi tasmacha hujayralari o'rta chiziq bo'ylab ko'chganligi sababli, unda bo'ylama chuqurcha paydo bo'lib, u birlamchi egatcha nomini oladi. Shu vaqtida birlamchi tugunchada bosh chuqur-chasi deb nomlangan chuqur

Embrion tanasidan tashqarida joylashgan ektoderma, mezoderma va endoderma sariq modda yuzasi bo'ylab o'sa boshlaydi. Har uchala embrion varag'i hisobiga tana burmasi shakllanib, u embrionni sariq moddadan ajratib turadi, embrion varaqlarining embrion qismi va embriondan tashqarida joylashgan qismi endi aniq tafovut qilinadi. Embrion varaqlarining embriondan tashqi qismi hisobiga



I-jadval. Inkubatsiyasining turli bosqichlaridagi tovuz taxamining uzunusiga kesimi (I,II,III,IV) - m -ektoderma, m -endoderma, mez-mezoderma, 6-oqsil, m -sariq modja, ac-amniyon burma, an-allantos ichi (cho'shilg'i), cu-semz pardal, an-allantos, me-tana hamma, sap-embrion (Koming bo'yicha).

Embriondan tashqi ektoderma va mezodermanın parietal (tashqi) varagi asta-sekinlik bilan embrionning dorsal tomoniga qarab bukiib o'sadi. Bu o'smalar **amnion burmalar** nomini oladi. Amnion burmalari o'sishda davom etib bir-biri bilan tutashadi. Bunday tutashuv dastlab bosh qism ustida yuz berib, keyin tutashuv kaudal tomoniga qarab tarqaladi. Amnion burmalarning tutashuvi natijasida ikkita parda - **amnion** va **seroz (zardob) parda** hosil bo'ladi.

Amnion (amnion-kosa) ichida suyuqlik to'planuvchi parda bo'lib, bu suyuqlik embrionni hamma tomonidan o'rabi turadi. Suyuqlik amnion hujayralari tomonidan ishlab chiqariladi. Amnion yoki suv parda dastlab quruqlikda hayot kechiruvchi, embrional taraqqiyoti quruqlikda o'tadigan hayvonlardan reptiliyalarda paydo bo'ladi va embrion atrofida suyuq, suvli muhit yaratadi. Yuqori umurtqalilar - reptiliylar, qushlar va sut emizuvchilar **amniotlar** (amnion pardaga ega hayvonlar), bunday pardasi bo'lmagan (turban) hayvoslar **anamniyalar** deb ataladi.

Amnion ichidagi suyuqlik embrionning nozik to'qimalarini mexanik ta'sirotlardan shikastlunishdan saqlaydi. Amnion hosil bo'lishi, shuningdek suyuqlashgan sariq modda ichiga embrionning cho'kishi nofaol hodisa bo'imasdan, balki tana burmasi va embriondan tashqi qismalarning

hosil bo'lishi bilan bog'liq. Reptiliyalar amnioni hali mezoderma paydo bo'lmasdan shakllanadi, proamnion deb atalib, faqat ektodermidan iborat va muskulga ega emas.

Qushlarda amnion burmasi oqsilning ko'pligi sababli sekinroq, inkubatsiyaning uchinchi kunida hosil bo'ladi, bu paytgacha esa mezoderma hosil bo'lib ulguradi. Amnionning qisman muskul to'qimaga aylanuvchi mezodermasi, uning ritmik ravishda qisqarishimi ta'minlaydi. Binobarin, amnion suyuqligi doimo aralashib turadi, embrion terisi ishlab chiqargan zararli muddalar embrion yaqinida to'planib qolmaydi.

Seroz (zardob) parda amnion burmalarining tashqi qismi hisobiga hosil bo'ladi, uning barcha pardalari bilan birga tashqaridan o'rabi turadi. Bu parda embrion pardalaridan yana biri - **allantois** bilan birligida gazlar almashinuvni, mineral muddalarning embrion tanasiga etkazilishida xizmat qiladi. Amnion hosil bo'lguncha suyuq muhit rolini o'tagan tuxum oqsili, keyinchalik sariq modda tagiga qarab siljiydi. Seroz pardanering tuxum po'chog'iga zinch tegib turadigan hujayralari po'choqdagi tuzlarni erishi, embrion tanasiga yetkazilishimi ta'minlaydi.

Embriondan tashqi endoderma mezodermaning visseral varagi bilan birga sariq muddanering ustiga o'sishda davom etib, **sariq modda xaltasini** hosil qiladi. Sariq xalta ichida tuxum sarig'ining maydalamanasdan qolgan qismi joylashgani uchun embrionning oziqlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Sariq xalta devori boshlang'ich qon hujayralari va qon tomirlari hosil bo'lishida ishtirot qiladi. Eng birinchi qon hosil qiluvchi orolchalar sariq xalta devorida paydo bo'ladi.

Inkubatsiyaning uchinchi kuni ichak endodermasining va mezodermaning o'smasi sifatida allantois paydo bo'ladi. **Allantois (allantoides - hasipsimon)** yoki siyidik xaltasi tez o'sib, sariq xalta, amnion va seroz pardalari orasini to'ldiradi. Uning mezodermal qavati seroz parda mezodermasi bilan yaqindan qo'shib o'sadi, tuxum po'chog'i yaqinida qon tomirlarinining to'ri ni hosil qiladi. Bu tomirlar to'ri gazlar almashinuvida katta ahamiyatga ega. Allantoisda chiqindi modda - siyidik kislota to'planib turadi. Allantoisning embrion tanasida qoladigan qismi keyinchalik siyidik pufagini hosil qiladi.

Shunday qilib, embrion varaqlarining embriondan tashqi qismilari quyidagi to'rt pardan: amnion, seroz parda, sariq xalta va allantoisning shakllanishi uchun surflanadi. Bu pardalar o'zlariga xos, embrion hayoti va taraqqiyoti uchun zatur vazifalarni bajaradi. Jo janing tuxumidan ochib chiqishi oldidan bu pardalar teskari taraqqiyotga uchraydi. Amnion burmalar qaytadan ajraladi, sariq xalta qoldig'i jo'ja ichiga tortilib kiradi, zardob parda va allantois qurib ketadi.

Inkubatorda jo'ja chiqarilganda embrional taraqqiyotning ayrim bosqichlari va ular uchun zarur bo'lgan sharoitlarni bilish katta ahamiyatga ega. Inkubatordagi harorat va havoning namligi embrionning taraqqiyot bosqichlariga qarab moslashtirilsa, ochib chiqqan jo'jalar sog'lom bo'lib, kam nobud bo'ladi, ochib chiqish koeffitsienti yuqori bo'ladi. Embrional taraqqiyotning nozik paytlari bo'lib, ular bir bosqichning ikkinchisi bilan almashinish paytiga to'g'ri keladi. Afsuski, bu masala chuqur o'r ganilmagan, taraqqiyot bosqichlarini tasnif qilish qoidalari to'g'risida umumiy fikr yo'q.

N.P.Tretyakov va M.D.Popov embrional taraqqiyot bosqichlarini quyidagicha tasnif qiladi:

1. Latebral oziqlanish davri - inkubatsiyaning birinchi 30-36 soatini o'z ichiga olib, bu davrda hali qon aylanish vujudga kelgan emas. Embrion latebradagi karbonsuv (glikogen)ga boy bo'lgan sariq modda hisobiga oziqlanadi va kislorodga ehtiyoji kam;

2. Sariq modda hisobiga (sariqlik qon aylanish doirasi mavjud bo'lgan holda) oziqlanish davri - inkubatsiyaning 30-36 soatidan 7-8 kuni-gacha bo'lgan vaqt. Qushlar embrional taraqqiyotining muhim o'ziga xos tomonlaridan biri qon tomirlar va yurakning erta hosil bo'lib, faoliyat ko'rsatishidir. 30 soatdan keyin yurak ishlay boshlaydi. Shuning bilan birga maxsus oziqlanish apparati - qon tomirlariga boy sariq xalta hosil bo'ladi. Embrion tanasigu allantois orqali kislorod kela boshlaydi. Bu hol oqsillar va yog'larning o'zlashtirilishiga yordam beradi. Jigar ishga tushib, mochevina sintezlana boshlaydi. Bu davrda embrionning barcha organlari sistemalari va embrion pardalar hosil bo'ladi;

3. Atmosfera kislorodi bilan nafas olish va tuxum oqsili bilan oziqlanish davri - inkubatsiyaning 7-8 kunidan 18-19 kunigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda qon tomirlariga boy, yaxshi taraqqiy qilgan allantois zardob parda bilan birgalikda tuxum po'chog'iga zich tegib turadi, embrionning kislorod bilan ta'minlanishi yaxshilanib, yog'larni o'zlashtirish yengillashadi. Embrion jo'ja shakliga keladi. Oziqlanish uchun quyuqlashgan va seroz parda bilan o'ralgan oqsil ishlatiladi. Sintezlangan ammiak mochevinaga nisbatan inertroq siyidik kislotaga aylanadi va allantoisiga to'planadi. Siyidik kislotasi suvda erimagan uchun mochevinaga nisbatan zararsizdir;


4. Jo janing havo kamerasidagi kislorod bilan nafas olish davri - inkubatsiyaning 18-21 kunlarini o'z ichiga oladi. Allantois teskari taraqqiyotining boshlanishi sababli kislorodga ehtiyoji ortgan jo'ja havo kamerasidagi kislorodni ishlatadi. Nafas olish o'pka orqali amalga oshib, sof arteriyal qon paydo bo'ladi. To'qimalarning kislorod bilan ta'minlanishi va

ularda moddalar almashinuvni yaxshilanadi;

5. Ochib chiqish davri - inkubatsiyaning 20-21 kunlarini o'z ichiga oladi. Jo'ja sariq modda qoldig'i hisobiga oziqlanib, allantoidal qon aylanish to'xtaydi, embrion pardalari qurib, jo'ja tuxum po'chog'ini yorib chiqadi.

Parrandalarda inkubatsiyaning davomliligi: tovuqlarda 20-21 kun, g'ozlarda 29-30 kun, o'rdaklar va kurkalarida 27-28 kundir.

SUT EMIZUVCHILARNING EMBRIONAL TARAQQIYOTI



32-sasm. Sut emizuvchilar, zigotasining maydalanish sxemasi:

1-yaltilsq pada; 2-reduksion usachalar; 3-blastomeras; 4-trofoblast besil qiluvchi och rangli blastomeras; 5-qoramur blastomerlar; 6-trofoblast; 7-embrion tuguni.

so'rg'ichni emishga ham qodir emas. Onasi sut bezining so'rg'ichi bola qizilo'ngachiga kiritiladi, sut vaqtiga vaqt bilan bola qizilo'ngachiga chiqarib turi-ladi. Bunday hayvonlarning tuxumida sariq modda kam.

Sut emizuvchilarning ajdodlari tuxum qo'yuvchi reptiliyalar bo'lgan. Aytim hozirgi zamondan sut emizuvchilari (o'rdakburun va yexidna)ning tuxum qo'yuvchi hayvonlar ekanligi bu fikrga asos bo'ladi. Bularning tuxumi poliletsital, zigotasining maydalanishi meroblastik bo'tib, embrion taraqqiyotining muhim tomonlari reptiliyalarining taraqqiyotiga o'xshashdir. Tuxumdan chiqqan bolalari onasining qorin tomonidagi mayda teshiklardan sizib chiqadigan sutni yalab oziqlanadi. Bu hayvonlarda emchak yo'q.


Xaltalilarda embrion ma'lum vaqtgacha bachadonda taraqqiy qiladi, batto ularning ayrimlarida mukammal bo'l-magan (primitiv) platsenta hosil bo'ladi va qisqa muddat vazifa bajaradi. Lekin bola to'la taraqqiy qilmasdan (1-2 sm uzunlikda) tug'iladi va onasining xaltasi (qop-chig'i)da taraqqiy qilishni davom ettiradi. Bunday hayvonlarning bolasi so'rg'ichni emishga ham qodir emas. Onasi sut bezining so'rg'ichi bola qizilo'ngachiga kiritiladi, sut vaqtiga vaqt bilan bola qizilo'ngachiga chiqarib turi-ladi. Bunday hayvonlarning tuxumida sariq modda kam.

Yuqori (oliy) sut emizuvchilarining bolasi yetarli darajada yetuk holda tug'iladi. Lekin bular orasida ham hayvonlarning yashash sharoitlari (ekologik sharoitlar)ga ko'ra chala, zaif bola tug'uvchilar - **immaturenathlar** va tug'ilgan zamoni oyoqqa turib, poda orqasidan ergashib ketadigan yetuk, rasmana bola tug'uvchilar - **maturenathlar** farq qilinadi.

Bachadonda o'tadigan taraqqiyotning davomliligi tug'iladigan bostaning yetukligiga va bola bilan ona organizmi o'rtasidagi aloqaning mukammalligiga bog'liq. Agar xaltali sut emizuvchilar aplatsentar hayvonlar bo'sa, oliy sut emizuvchilar embrion pardalari bachadon devori bilan yaqin aloqaga kirishib, **platsenta** (*placenta* - bola joyi) hosil qiladi.

BACHADONDA O'TADIGAN TARAQQIYOT

Oliy sut emizuvchilar tuxum hujayrasidagi sariq moddaning miqdori juda kam, embrion taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan moddalar mutlaqo yetarli emas. Ajoddlari polietsital tuxum hujayrali hayvonlar bo'lgan sut emizuvchilarining ko'pchiligi embrional taraqqiyot sharoiti o'zgarishi bilan sariq moddasini ikkilamchi ravishda yo'qotgan. Embrion va ona organizmi o'rtasidagi aloqaning juda barvaqt yuzaga kelishi natijasida embrionga kerakli oziqa moddalar yetkazib beriladi.




33-rasm. Maydalananotgan zigota ning vizir tuxum yo'li bo'ylab siljishi.

Sut emizuvchilar izoletsital tuxum hujayrasining kattaligi 100-200 mkm keladi. Otalanish ichki va monosperm bo'lib, tuxum yo'lining yuqori qismida yuz beradi. Tuxum hujayra izoletsital bo'lishiga qaramasdan zigota to'liq-notekis maydalananadi (32-rasm). Lekin bu maydalaniishi noto'g'ri, anarxiyaviy deb bo'lmaydi. Bu yerda sut emizuvchilarining taraqqiyoti g'oyat murakkab bo'lib, o'ziga xos sharoitda - bachadonda borishini hisobga olish kerak. Ko'pchilik sut emizuvchilarida zigotaning birinchi bo'linishlaridayoq ancha yirik, sariq moddasi ko'proq va qoramtil hamda maydarloq, sariq moddasi kam va och rangli blastomerlar hosil bo'ladi. Birinchi xil blastomerlar kelajakdagagi ahamiyatiga ko'ra em-


brioblastlar, ikkinchi xillari - trofoblastlar (*trophe* - oziqa) nomini oladi. Bu ikki xil blastomerlarning maydalanishi

simxron bo'lmaydi, natijada hosil bo'ladigan blastomerlar soni toq bo'lishi ham mumkin. Trofoblastlar tezroq maydalanib, embrioblastlarni o'rab oladi. Embrioning tashqi ko'rinishi tut mevasi shakliga kelib morula (morumtut mevasi) hosil bo'ladi. Morula bir necha maydalanishdan keyin blas-tulaga aylanadi. Maydalanish embrion tuxum yo'li bo'ylab sekin harakat qilayotgan davrda yuz berib, bachadon bo'shilg'iga tushganda, u blastotsist (sut emizuvchilarning blastulasi) yoki blastodermik pufakcha holida bo'ladi (33-rasm). Blastotsist (*u sterroblastula* ham deyiladi)ning trofoblastlardan iborat devori va bu devorga



34-rasm. Makakning 9 kumlik embrionini implantatsiya davrida:

1-emбриобласт; 2-трофобластининг бачадон дарвон билан алоға бо'лган қисми; 3-3-бачадон тоқимлари (O-епителий, 4-шиллиқ падаминг нусуси, 5-ишилдиши ва 6-дистрофила тоқатидаги беҳзас) (Visotskiy va Sotier be'yicha)



35-rasm. 11 segment bosqichidagi sut emizuvchi hayvon embrionining ko'ndalang ko'smi (bachadon devori bilan bo'lgan aloqa ko'rinih turidi): 1-bachadon bezlari; 2-visseral va 5-parietal mezodermia qavstari; 4-miotom; 5-aeta; 6-embrioning selomas; 7-embriondan tashq seloma; 8-sariglik xaltasi endodermissi; 9- xorion so'rg'ichisi; 10-trofoblast; 11-ektodermia.


bo'lishi uchun sarflanadi. Bachadonga tushgan blastotsist trofoblast yordamida "bachadon suti"ni qabul qila boshlaydi va uning o'sishi tezlashadi. "Bachadon suti" bachadon bezlari ishlab chiqargan shiradir.

Trofoblastlar tomonidan ishlab chiqariluvchi maxsus moddalar bachadon devorini yemiradi. Blastotsist embrion tugunchasi joylashgan

ichkari tomonidan yopishib turuvchi embrion tuguni bor. Sterro-blastula ichidagi bo'shilg'liq blastomerlar hayot faoliyatini natijsida hosil bo'ladi. Suyuqlik bilan to'lgan bu bo'shilg' embrion ichida emas, balci undan tashqari-dadir. Embrion tuguni embrioblastlardan iborat. Embrioblastlar embrion tanasi hamda provizor organlar hosil

tomoni bilan bachadon devorining yemirilgan joyiga yopishadi. Bu jarayon implantatsiya nomini oladi (34-rasm).

Turli sut emizuvchilarda bachadon devorining yemirilish darajasi turlicha, u primatlarda eng kuchli, shuning uchun primatlar embrioni bachadon devori qu'riga kirib joylashadi va ma'lum vaqt bu yerda embrion borligi sezilmaydi. Trofoblast bachadon devoriga tegib turishi natijasida o'sib qalinchashadi va keyinchalik platsenta tarkibiga kiradi (35-rasm).



36-rasm. Sut emizuvchilarda embrion pardalarini taraqqiyotining ketma-ket keladigan otli bosqechi: A-homila pufagi bo'shilg'ining o'sayotgan endoderma (1), mezoderma (2) va ectoderma (3) bilan o'stashish janroyoni; B-berk endodermal prefakeha hosil bo'lishi (4); B-amniyon burma (5) va ichlik egatchasi (6) hosil bo'lishi; Г-embrion tasaqning alishidalanishi (7); surʼqlik xaitasi (8); Д-amniyon burmalarining o'mzo tegib yopilishi (9); alishadaning hozir bo'lishi va taraqqiyotining boshamishi (10); E-berk ("yoraq") amniyon bo'shilg'i (11); taraqqiy qilgan allantoi (12); ximion so'rg'ichisi (13); mezodermaning parietal (14) va visseral (15) qavoldari.

day pardal bo'lganligi uchun ham bu organ hosil bo'ladi.

Embrion taraqqiyotining bundan keyingi davrlari turli sut emizuvchilarda bir xilda bormaydi. Lekin ayrim detallarini hisobga olmaganda taraqqiyotning ikki asosiy tipini kuzatish mumkin (36-rasm).

I-tip rivojlanish tuyeqli hayvonlar, yirtiqichlar, quyonlar va boshqa

Sut emizuvchilar embrional taraqqiyotining xarakterli tomonlaridan biri embriondan tashqi qismlar (trofoblast)ning juda barvaqt hosil bo'lib, ona organizmi bilan aloqa o'rnatilishidir. Zigota va blastomerlarda ehtiyoj oziq moddalar yo'q. Shuning uchun implantatsiya embrionning bayoti va kelajak taqdirida muhim ahamiyat kasb etadi. Blastomerlar to'p bo'lib joylashib (morula), ko'pchilik sut emizuvchilarda blastotsel hosil bo'lmaydi. Embrion pufakchasingin bo'shlig'i esa ikkilamchi yo'l bilan hosil bo'ladi.

Gastrulyatsiya delaminatsiya yo'li bilan boradi. Endodermaning embriondan tashqi qismlari trofoblast ichki yuzasi bo'ylab tez o'sib, birlamchi sariq xalta endodermasiga aylanadi. Bu sariq xalta ichida hech qanday sariq modda yo'q, lekin sut emizuvchilarning ajodolarida shun-


ko'pchilik sut emizuvchilarga xos. Bunda embrion qavatlарининг табақаланishi, о'q органлари хосил bo'lishi ko'p томонлама ular poliletsital түхумли аждодларининг ривожланышини еслатади, шу билан бирга, sut emizuvchilarga xos xarakterli xусусиятлар paydo bo'ladi. Bu hayvonлarda embrion диски устидаги joylashган trofoblast emirilishi natijasida embrionдан tashqi ektoderma bevosita trofoblast bilan tutashadi. Amnion хосил bo'lguncha embrion ochiq yotadi, lekin bachadon to'qimalariga tegib turmaydi.

II-tip rivojlanish primatlarga xosdir. Bunda trofoblastdan tashqari, embrion таркебига кирмайдиган mezoderma ham embrionдан mustaqil ravishda хосил bo'ladi. Styrik joylashuvchi mezoderma hujayralari hali gas-trulyatsiya yuz bermasdan ajralib chiqadi. Embrion устидаги joylashuvchi trofoblast yo'qolib ketmasdan, aksincha tez qalinishib, ona организм билан yaqindan aloqa qilish uchun sharoit yaratiladi. Primatlar homilasi butun taraqqiyot mobaynida tashqi томондан trofoblast bilan o'rulgan. Gastrulyatsiya delaminatsiya yo'lli bilan boradi. Bunda endoderma "sariq pufakcha"ga, ektoderma "amnion pufakcha"ga aylanadi. Shunday qilib, avval embrion tugunchasi joylashgan joyda ikkita pufakcha yuzaga keladi. Bu pufakchalarining bir-biriga tegib turgan томонлари qalinishadi: sariq pufakcha devorining qalinishgan qismi embrion endodermasi; amnionniki - embrion ektodermasidir. Natijada embrion ikki qavatlari bo'lib qoladi, embrion qalqonchasi хосил bo'ladi. Unda esa hujayra materialining ko'chishi natijasida birlamchi tasmacha va birlamchi tugunchalar paydo bo'ladi, xorda va mezoderma materialining ektoderma ostiga siljishi yuz beradi. Sariq va amnion pufakchalarining embrion tanasi таркебига кирмайдиган qismlari o'sib sariq xalta va amnionga aylanadi. Keyinchalik yuz beradigan o'zgarishlar, umuman olganda, barcha sut emizuvchilarda ancha o'xshash yo'l bilan boradi.

Amnion homilaning eng ichki pardasi bo'lib, uni hamma томонидан o'rab olgan va faqat kindik oblastida uning terisi bilan birikadi va kindik o'tadigan teshik qoldiradi. Amnion ichidagi suyuqlik rivojlanayotgan homilia uchun barcha taraflardan bir xil bosim хосил qiluvchi, mexanik ta'sirotlardan himoya vositasidir.

Xorion (*chorion* - teri) yoki so'rg'ichli parda qushilar zardob pardasining gomologи bo'lib, vorsinka yoki so'rg'ichlarga boy. Bachadonning shilliq pardasi bilan yaqin aloqaga kirishadi va bola platsentasi hisoblanadi.

Sariq xalta - ichida ehtiyyot sariq modda saglamagani uchun sut emizuvchilarda embrionni oziqlantirish vazifasini bajar-maydi. Lekin uning endodermasi birlamchi jinsiy hujay-ralar manbaidir. Embrional qon хосил bo'lishi ham sariq xalta devori mezenximasida boshlanadi.



37-rasm. Platsentalarning texnasi:

a-epiteliosial; 6-desozozial; b-endodermial; 1-genezial; 1-xonion-ning epitelyi; 2-bachadon devorining epitelyi; 3-xonion so'rg'chining bekiu-suvechi so'qmasi; 4-bachadon devorining birikinuvchi to'qimas; 5-xonion so'rg'chi-karang qon tuzishlari; 6-bachadon devorining qon tuzishlari; 7-ena qoni.

Bachadonda kechadigan taraqqiyotning bosqichlari. Embrional taraqqiyotning turli davrlarida homila tanasida yuz beradigan o'zgarishlarga qarab taraqqiyotni bosqichlarga bo'lish mumkin. Yirik shoxli mollar taraqqiyoti embriolog G. A. Shmidt tomonidan chuqur o'rqa-nilgan va u quyidagi uch bosqichdan iborat:

1. Embrionalik davri - 1 - 34 kunlarni o'z ichiga olib, bu vaqt ichida hamma provizor organlar hosil bo'lgan, homila (embriyon) tanasidagi barcha sistemalar sod-da (primitiv) tuzilishga ega bo'sada, hosil bo'lgan bo'ladi. Umumiy embriolo-giyaning vazifasi ana shu davrni har tomonlama va chuqur o'rghanishdir.


2. Oraliq davri - 35-60 kunlar - platsentdagagi kotiledonlar ko'payadi, tog'ay skelet paydo bo'lib, keyinroq bu skelet suyakka aylanadi. Hornilaning jinsi aniqlanadi;

3. Bola (homila) davri 60 kun va undan keyingi kunlar. Shakllangan bola (homila) ning humma organlari o'sish va rivojlanishni davom ettiradi.

Qo'yilar embrional taraqqiyotini ham embrional (1-29 kunlar), oraliq (30-45 kunlar) va bola davrlariga (45 kundan keyin bola tug'ilguncha) bo'lish mumkin.

Allantois (siydiq parda) birlamchi ichak endodermasining kindik teshigi orqali o'sib chiqishidan yuzaga kelib, bunda visseral mezoderma ham ishti-rok qiladi. Siydiq parda qon toenirlariga boy bo'lib, xonion va amnion oralig'ida joylashadi, hornilani xonion bilan tutashtiradi.

Platsenta allantoxorion bilan bachadon shilliq pardasining birkishidan hosil bo'ladi va ona organizmi bilan taraqqiy qilayotgan hornila o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi (37-38 rasmlar).



38-rasm. Sizimning 20 kundik komila pufagi:
1-kotiledonlar; 2-allantoz.

allantois orqali qon aylanish yuzaga kelishigu, jigarning esa embrional qon yetishtirish, moddalar almashinishi hamda shu almashinish zararli qoldiqlarini zararsizlantirish vazifalari bilan bog'liq.

Embrional davrda avval hamma umurtqalilarga xos belgililar (o'q organlar), keyin esa sut emizuvchilarga xos belgililar paydo bo'ladi. Oraliq davrda oilaga xos (masalan, qo'sh tuyeqllilar) va nihoyat bola davrida tur, zot hamda individual belgililar ketma-ket paydo bo'ladi. Bu qoidadan taraqqiy qilayotgan organizm ehtiyojlariiga ko'ra chetga chiqish (mustasno)lar ham bo'ladi. Masalan, jigar va yurak juda barvaqt paydo bo'ladi.

Yurakning shakllanishi va ishiga tushishi sariq xalta va

TO'QIMALAR TO'G'RISIDA TA'LIMOT

Bir necha xil to qimalardan tashkil topgan murakkab sistema hisoblanuvchi organizm o'z taraqqiyotini yagona hujayra - zigotadan boshlashi bizga embriologiya kursidan ma'lum. Zigota maydalanish natijasida ko'p hujayrali organizmga aylanadi. Bu maydalanish mitoz bo'linish bo'lib, hosil bo'layotgan hujayralar bir xil genotipga ega. To qimalar esa hujayralarning organizm taraqqiyoti jarayonida tabaqalaniши (differensiatsiyasi) natijasida hosil bo'ladi. Tabaqalishni tuxum hujayra stioplasmasida moddalar taqsimlanishining bir xil emasligi va turli to qimaiar taraqqiy qilayotgan sharoitlarning bir-biridan farq qilishi bilan izohlash mumkin.

To qima (*histos* - to qima) evolyutsion taraqqiyot natijasida vujudga kelgan, morfo-funksional xossalari va muddalar almashinuvining umumiyligi bilan xarakterlanadigan, individual taraqqiyot jarayonida umumi manbalardan kelib chiqadigan hujayralar va ularning hosilalaridan iborat sistemadir. To qimalarni o'rganish va tasrif qilishda uch asosiy omilni: to qimalarning kelib chiqishi hamda **tarqqiyoti** (genezi)ni, **morfologik** va **funktsional xossalarni** hisobga olish lozim. Faqat ana shu uch omilga asoslangan tusnif tabiiy, to qimalar o'rtasidagi munosabatlarni to'g'ri aks ettiruvchi tasrif bo'ladi. To qimalar embrionenez davrida paydo bo'lib, tabiiyki keyin ham rivojlanishni davom ettiradi: hujayralar va hujayra shakliga ega bo'limagan elementlarning differensiatsiyasi doimo yuz berib turadi. Binobarin, to qimalar tarkibida yetilgan va ma'lum vazifani bajarishga ixtisoslashgan hujayralar bilan birga kam tabaqalangan, ko'payish va differensiatsiya qobiliyatini saqlangan **yosh hujayralar - kambiyal elementlar** ham mavjud bo'ladi.

To qimalarning evolyutsion taraqqiyot natijasida kelib chiqishi masalasini o'rganishda mashhur rus olimi I.I.Mechnikovning **fagotsitella** (parenximella) nazariyasi katta ahamiyatga ega. Bu nazariyaga ko'ra hozirgi zamон ko'p hujayrali hayvonlarining ajododlari sharsimon koloniylar shaklidagi organizmlar bo'lgan. Parenximella (fagotsitella) ichi hujayralar bilan to'lgan epitelial shar bo'lib, ovqat hazm bo'lishi hujayra ichida fagotsitoz yo'li bilan yuz bergen. Oziq muddalarni atrof-muhitdan faqat koloniya chetida joylashgan hujayralar qabul qila olgan. Oziq muddalar bilan to'yingan hujayralar koloniya ichiga o'tib, ular o'rniiga esa ichki qismdiragi hujayralur chiqqan. Chetki hujayralar cho'zinboq shaklga ega bo'lib, tukchalari bo'lishi ehtimol, ichki hujayralar esa amyobasimon harakat qilishiga qobil bo'lgan. Keyinchalik, iborali qilib aytganda, hujayralar o'rtasida

mehnat taqsimoti yuz bergan; chetki hujayralar koloniyaning suvda harakat qilishini ta'minlash va oziq moddalarni qabul qilish bilan mashg'ul bo'lsa, ichki hujayralar fagotsitoz yo'li bilan himoya vazifasini amalga oshirgan hamda sodda (primitiv) skelet xizmatini o'tagan. Differensiatsiya yuz berishi bilan koloniyalur ko'p hujayrali va to'qimalarga ega tuzilishli organizmlarga aylangan. Ikki eng qadimgi to'qima - qoplovchi (chegara) to'qima va tuyanch-trofik to'qimalar guruhi oliv hayvonlarda ham mavjud. Filogenez natijasida, hayvonlar organizmi harakatining mukammallahuvi oqibatida o'zaro aloqador ravishda muskul va nerv to'qimalari kelib chiqqan.

Ko'pchilik olimlar c'tirof qiladigan va Leydig (1857) tomonidan taklif etilgan tasnisiga muvofiq oliv hayvonlar organizmida **epiteliy**, **biriktiruvchi**, **muskul** va **nerv to'qimalar** mavjud. To'qimalar evolyutsiyasini o'rghanishga A.A.Zavarzin va N.G.Xlopinlar katta hissa qo'shgan. Hayotiy jarayonlarining asosiy tomonlarini ochib beruvchi funksional principlarga asoslanib A.A.Zavarzin himoya vazifani o'tovchi chegara to'qima (epiteliy); moddalar almashinuvni va tuyanch-mexanik funksiyalarini bajaruvchi ichki muhit to'qimalari guruhi; qisqarishni ta'minlovchi muskul to'qimasi va reaktiv vazifa hajaruvchi nerv to'qimalarni farq qilishni tavsiya qilgan. To'qimalarning evolyutsiyasi divergent yo'l bilan boradi.


EPITELIY TO'QIMALAR

Epiteliy - qoplovchi (chegara) to'qimalar tananing butun yuzasini, kovakli organlar ichini va zardob pardatarni qoplab turadi, shuningdek organizmda ko'pdan-ko'p bezlarni hosil qiladi. Epiteliy himoya, trofik (moddalar almashinuvi) va sekretsiya vazifalarini amalga oshiradi. Bu to'qima ma'lum qalinlikka ega, bir yuzasi tashqi muhitga qaragan, ikkinchi yuzasi biriktiruvchi to'qimaga tegib turuvchi hujayralardan iborat qavat (plast)dir.

Epiteliy to'qimalari bir necha o'ziga xos belgilari:

Organismning tashqi muhit bilan chegarasida joylashganligi, faqat hujayralardan tuzilib, hujayramas moddalar yo'qligi; qutbli (polyar) differensiatsiyalanganligi; hujayralarning nisbatan tez o'lib, intensiv ko'payuvchi yosh (kambial) elementlar bilan alma-shib turishi va qon tomlari bo'imasligi bilan xara-kterianadi. Epiteliy-ning bu xossalari asosan uning chegarada joy-lashganligi bilan bog'liq. Epiteliy qavati (plasti)ning ikki yuzasi turlicha sharoitda ekanligi uchun bu yuzalarning morfologik

farqlari ham bor (qutbli differensiatsiya). Bir qavatlari epiteliylarda hujayranging tashqi muhitga qaragan qutbi **apikal**, biriktiruvchi to'qimaga qaragan uchi **bazal qutblari** deyiladi. Ko'p qavatlari epiteliyda esa yuza qavat hujayralarning maxsus strukturalari va tuzilishining ko'p tomonlari qutbli differensiatsya bilan bog'liq; kutikula, tukchalar, mikrovorsinkalar hujayranging apikal qutbida, mitokondriyalar bazal qutbga yaqin, plastinkali kompleks o'zak bilan apikal qutb oraliq ida joylashadi. Elektron mikroskop vositasida o'tkazilgan tekshirishlar fermentlarga boy sekret ishlab chiqaruvchi bez epiteliy hujayralarda sitoplazmatik to'r yaxshi taraqqiy qilganligini ko'rsatadi. Epiteliy to'qimasining oziqlanishi biriktiruvchi to'qimaning suyuqligi hisobiga diffuziya yo'li bilan amalga oshadi. Bu suyuqlikning to'qima yuzasiga sizib chiqmasligi uchun epiteliynig apikal yuzasida maxsus moslamalar (hujayralararo yopuvchi plastinkalar) mavjud.



39-rasm. Epiteliyning morfoloqik klassifikatsiyasi (exema).


hisoblaydi) ancha qulaydir. Bu tasnifga ko'ra epiteliylar ikki guruh: bir qatlamlari va ko'p qatlamlari epiteliylarga bo'linadi (39-rasm).

Epiteliy va uning ostida joylashuvchi biri-ktiruvchi to'qima ora-sida asosiy (**bazal**) membrana bor. Bu membrana bosil bo'li-shida har ikkala qo'shni joylashgan to'qima ishtirok qiladi. Bir qatlamlari epiteliylarda barcha hujayralar o'zlarining bazal uchi bilan ana shu membranaga tegib tursa,

Epiteliy embrion varaqlarning har uchalasidan ham hosil bo'ladi.

Tananing turli qismlarida joylashgan epiteliy to'qimasari tubityki bir-biridan farq qiladi. Bu hol epiteliyni tasniflashni qiyinlashtiradi. Ko'pchilik tomonidan qabul qilingan morfologik tasniflash ayrim kamchiliklarga qaramasdan (ko'p qatorli silindrik epiteliy o'z biologik xossalariiga ko'ra, ko'p qatlamlari epiteliya yaqin tursada, uni bu tasniflash bir qatlamlari deb

ko'p qatlamlı epiteliyda basal membranaga tegib turuvchi hujayralar qatlarni ustiga bu membrana bilan aloqador bo'limgan hujayralar bir necha qatlaml bo'lib joylashadi (40-rasm).



40-rasm. Qoplovchi epiteliylar (Aleksandrovskaya bo'yicha, sxema): 1-hir qavatl (oddiy) epiteliylar; 2-ko'p qavatl epiteliylar – a-bir qavatl yassi; 3-hir qavatl kubsimon; b-hir qavatl prizmasimon; c- bir qavatl ko'p qatorli prizmasimon tukchali-tevamuvchi (yolg'on ko'p qavatl); f1-bozid qavat hujayralari; f2-tevamuvchi tukchalar; f3-onliq (almash-truvchi) hujayralar, d-shoxlamaydigan ko'p qavatl yassi epiteliy; d1-bazal qavat hujayralari; d2-tikanli qavat hujayralari; d3-yura qavat hujayralari; e-shoxlamaydigan ko'p qavatl yassi epiteliy; e-a-bazal qavat; e-b-tikanli qavat; e-b-dosodor qavat; e-c-yalbiroq qavat; e-d-shox qavat; x-o'sih tunuvechi epiteliy; x-a-bazal qavat; x-b-onliq qavat; x-c-qoplavchi qavat; x-birkitsuvchi yumbiq to'qima; x-qadahsimon hujaya.

O'z navbatida bir qatlamlı epiteliylarning bir qatorli va ko'p qatorli turlari bor. Bir qatorli epiteliyda hamma hujayralarning balandligi bir xil bo'lsa, ko'p qatorli epiteliyda ularning balandligi turlicha bo'ladi. Ko'pchitik epitelial hujayralarning apikal uchi epiteliy yuzasigacha borib tursa, ayrimlariniki bu yuzaga yetib bormaydi. Bunday hujayralarning shakli turlicha, o'zaklari turli balandlikda joylashib, bir necha qator bordek fikr tug'diradi.

Morfologik tasniflash hujayralar qavatlarining sonidan tashqari ularning shaklini ham hisobga oladi. Yassi, kubsimon, prizmasimon epiteliotsitlar farqlanadi. Aniq qilib sityganda, kub yoki prizma shaklidagi hujayralar uchramaydi, chunki ular tig'iz joylashib, o'zar bosim ko'rsatadi va shakli o'zgaradi. Kub yoki prizmatik (silindrsimon) hujayralar deganda, ular asosining balandligiga nisbati ko'zda tutiladi. Bir qavatl epiteliyning yassi, kub va prizmatik (silindrsimon), silindrsimon epiteliyning esa bir qatorli va ko'p qatorli xillari uchraydi. Epiteliy ayrim turlarining, ayniqsa, silindrsimon epiteliyning maxsus moslamalari - hoshiya, tukchalar bo'ladi.

Epiteliylarning embrional taraqqiyotini hisobga oluvchi genetik

tasnifga muvofiq ektodermal, endodermal va mezodermal epiteliylar farq qilinsa, funksional tansif teri, ichak (trofik), tukchali-tebranuvchi, bez (sekretor) epiteliylarini qayd qiladi.

Ko'p qatlamlı epiteliylar

Ko'p qatlamlı yassi epiteliy teri usti (epidermis)da (41-rasm), og'iz bo'shilg'i, qizilo'ngach, me'da oldi bo'limlari, burun dahlizi, qin, to'g'ri ichak oxirgi bo'limining shilliq pardalarida, ya'ni tananing ko'proq mexanik ta'sirotlarga uchraydigan joylarida uchraydi. Ko'zning shox pardasida ham bu epiteliyini uchratamiz. O'z-o'zidan ravshanki, bu epiteliyning tananing turli joylaridagi xillari bir-biridan ancha farq qiladi. Lekin ko'p qavatli yassi epiteliyda uchta: ko'payuvchi hujayralardan iborat chuqur joylashgan **bazal**; kam tabaqalangan, turli shakldagi hujayralardan qatlamlarni farq qilish mumkin.



41-rasm. Shoxlanadigan ko'p qavatli yassi epiteliy:
1-o'suvchi qavat; 2-bazal qavat; 3-tikanli hujayralar
qavat; 4-donador qavat; 5-shox qavat; 6-birikiruvchi
yumbaq to'qimsa; 7-birikiruvchi zinch lo'qima.

Bazal qatlaml (silindrsimon qatlaml, kambial yoki mitoz qatlamlari) silindrsimon shakldagi kam tabaqalangan va ko'payuvchi (stvol liniya) hujayralardan iborat. Bu qatlaml hujayralari plazmolemmning qalinlashgan qismi-dan iborat juft, des-mosomaga o'xshash mos-lamalar bilan basal membranaga yopishib turadi. Plazmolemmanning bunday qalinlashgan joyla-riga tonofilamentlarning guruhlari kelib tutashadi. Bazal qatlamlning hujayralari bo'linganda mitoz duk o'qi epiteliy yuzasiga parallel holda yo'nalgan bo'lib, hosil bo'lgas hujayralardan biri basal membranaga tutashgan holda qoladi, ikkinchisi esa atrofdagi hujayralarning bosimi natijasida o'rta qatlangu chiqadi.

Oraliq qatlam asta-sekin mitotik faolligini yo'qotuvchi, lekin hali kam tabaqalangan, konturi (chegarasi) noto'g'ri va burmaslarga ega, o'z shaklini oson o'zgartiruvchi bir necha qavat qanotdor yoki tikanli hujayralardan iborat. Epiteliy shikastlanganda bu qatlam hujayralari mitoz yo'li bilan bo'lina oladi.

Qoplavchi qatlam to'lig'icha tabaqalangan, tez o'lib nobud bo'luvchi hujayralardan iborat. Ko'pincha bu hujayralarda shox modda (keratin oqsili) paydo bo'ladi. Hujayralar desmosomalar tipidagi moslama lar yordamida o'zaro tutashib, hujayraaro bo'shilqlarni "sement" modda to'ldiradi. Bu hol to qima suyuqligini tashqariga chiqishdan saqlaydi. Elektron mikroskopik tekshirishlar "sement" epiteliy oraliq qatlamiagi hujayralarning plastinkali kompleksida hosil bo'lishini ko'rsatadi. O'lgan epiteliy hujayralari uzuksiz ajralib tushib turadi.

Shunday qilib, bu epiteliy hujayralari sekinlik bilan yuza qism tomon siljiydi va bu jarayon davomida muayyan o'zgarishlarga uchraydi. Odatda bazal qatlamdag'i mitozning intensivligi yuza qatlam hujayralarining o'lib, tushib turish intensivligiga teng. Ma'lum sabablarga ko'ra bu nisbat buzilishi mumkin.

Teri epidermis qavatining tuzilishi yuqorida bayon qilingan sxe madan ancha murakkabdir (42-rasm). Junsiz terining epidermisida besh qatlamni: bazal, o'simtali hujayralar qatlamni, donador, yaltiroq va shoxlangan hujayralar qatlamini farq qilish mumkin. Epidermisning tuzilishi va unda yuz beradigan keratinizatsiya jarayonini teri tuzilishini o'rjanayotganda batafsil qarab chiqamiz.



42-rasm. Epidermis hujayralari:


A-och rangli donador dendrosomilar; B- "timus raketkalar" (timus ducts). Elektron mikrofotografiya.

Ko'p qatlamli yassi epiteliy o'zining joylashish o'miga ko'ra, mexanik ta'sirotlarga ko'p uchraydi va zararlanadi. Bu hol epiteliyning regeneratsiya qobiliyati kuchli bo'lishini taqozo qiladi. Yallig'langan biriktiruvchi to'qima epiteliyning tiklanishini rag'batlantiradi. Yallig'lanishning yangi

o'chog'igina bunday vazifani bajara oladi.

Ko'p qatlamli o'tib turuvchi (o'zgaruvchi) epiteliy siydiq chiqaruv yo'llarini qoplab turadi, siydiq tarkibidagi zaharli moddalarning organizmiga qaytadan so'rlishiga va to'qimalardan suvning diffuziya yo'li

bilan siyidkka o'tishiga to'sqinlik qiladi (43-rasm). Organ (m., siyidk pufagi) siyidkka to'lsa, hujayralarning shakli o'zgarishi natijasida epiteliy qatlami (plasti) o'z qalinligini o'zgarturadi. Lekin hujayralar qatlamlarining soni o'zgarmaydi. Aksariyt ko'pchilik hayvonlarning o'zgaruvchan epiteliyida uch qatlarn (zona) farq qilinadi: mitoz yo'li bilan bo'linishga qobil turli shakldagi, chegaralari keskin bilinmaydigan, sitoplazmasi bazofil va tabaqalanmagan mayda hujayralardan tashkil topgan bazal zona; yosh, shuningdek mayda hay-vonlarda faqat bir qavat va ko'pincha hali bazal membrana bilan bog'-langan, bazal zona hujayralardan yirikroq, kuchsiz bo'yaluvchi ko'pixsimon sitoplaz-maga ega hujayralardan iborat oraliq zona. Yetuk hayvonlarda bu zona bir necha qavat, shakli noto'g'ri, ko'pincha noksimon va tig'iz joylashgan hujayralardan iborat.



43-rasm. Qo'y buyrak jomining o'tib turuvchi epitely:
a-a₁ - qoplovchi zonaning shilliq kuchsiz reaksiya
beruvchi shilliq hujayrasи; b-oralig zona; c-mitoz; d-bazal
zona; e-biriktiruvchi to'qimsa.

ralarda ishqorli fosfataza fermentining faolligi yuqori, sitoplazma shilliq modda donachalariga ega. Shilliq modda ayniqsa o'txo'r hayvonlarda ko'p. DNA miqdorini aniqlash shuni ko'rsatadiki, bazal zona hujayralarida diploidiya kuzatilsa, yuzaroq qavatlarda poliploidiya (tetra- va oktoploidiya) mavjud. Buning sahabi DNA sintezi davom qilgani holda bo'linishning sekintashishidir. Epiteliyning distal (erkin) yuzasi kislotali mukopolisaxarid sialomutsin bilan qoplangan. Shilliq modda siyidkning zararli ta'siridan epiteliy osti to'qimalarni himoya qiladi va siyidk tarkibidagi yomon eruvchi tuzlar cho'kmaga tushib, toshlar hosil qilishiga qarshilik qiladi.


Bir tuyog'lilar va maymunlarda buyrak jomining epiteliy hujayralari biriktiruvchi to'qimaga o'sib kirib, ko'p hujayrali shilliq bezlar hosil qiladi.

Bu yerda hujayralararo yoriqlar yo'q. Yirik shoxli molilar va otlarda bu zona yaxshi taraqqiy qilgan; amitoz bo'linish natijasida ko'pincha ko'p o'zakli hujayralardan iborat qoplovchi zona. Bu zona hujayralarining shakli asosi oraliq zonaga qarab joylashgan kesik piramidaga o'xshash. Hujayrlarning organ bo'shilig iga qaragan yuzasi kutikulasimon hoshiya tutadi. Gistokimiyoviy tekshirishlarning ko'rsatishicha hujay-


Shunday qilib, bu epiteliyda ham ko'p qavatlari yassi epiteliydagiga o'xshash qavatma-qavat strukturaviy, gistokimiyoviy va fiziologik o'zgarishlar kuzatiladi. Sun'iy sharoitda o'stirish o'tib turuvchi epiteliy ko'p qatlamli yassi epiteliyga yaqinligini ko'rsatadi. Siyidik pufagining ayrim kasalliklari, shuningdek vitamin A yetishmasligida bu epiteliy ko'p qatlamli yassi shoxlanuvchi epiteliyga aylanishi mumkin.

BIR QATLAMLI EPITELIYLAR

Bu epiteliylar yuqorida qayd qilganimizdek, silindrsimon, kubsimon va yassi bo'lishi mumkin. Silindrsimon epiteliyning ham bir necha turlari bor.



44-rasm. Bir qavatlari ko'p qatordi (yolg'on ko'p qavatlari) pozzmatik tebranuvchi epiteli (A): 1-takchali, hujayralar; 2-oralig hujayralar; 3-qalabsimon hujayralar; 4-bazn membrana; 5-brikitinveli yumshoq in'qina; 6-tukchali tebranuvchi epiteliyning alohsida hujayralari.



Bir qatlamlı ko'p qatorli silindrsimon tukchali-tebranuvchi epiteliy nafas yo'llari shilliq pardasini qoplaydi. Bir xil epiteliotsitlar tebranuvchi tukchalar saqlaydi. Epiteliy yuzasiga yetib bormaydigan past bo'yli, tukchalar yo'q hujayralar kambial elementlari. Tabaqalangan hujayra yuzasida 270 tagacha tukcha bo'ladi. Bu epiteliy hujayralarining yana bir xili qadahsimon hujayrlar bo'lib, ular bir hujayrali shilliq bezlardir.

Tebranuvchi tukchalar 9 juft fibrilladan tuzilgan, o'rtada yana bir juft fibrilla saqlovchi silindrsimon tuzilishga ega, ya'ni ularning tuzilishi sentriola, shuningdek urug' hujayra dumchasining tuzilishiga o'xshash (45-rasm). Tukchalarning qisqarishi epiteliy yuzasida o'tirib qolgan qattiq zarachalar va shilliq modda aralash-masining tashqariga chiqarilishini ta'minlaydi. Bu epiteliyda kambial elementlar, tabaqalangan tukchali-tebranuvchi va qadah-simon hujayralar mavjud. Regeneratsiya va sun'iy sharoitda o'sti-rish paytida bu epiteliy ko'p qatlamlı yassi va o'zgartuvchan epiteliylarga xos belgilarni namoyon qiladi. Nafas olish yo'llarining oldin-gi ichakdan hosil bo'-lishi, xuddi shu manbadan hosil bo'lgan qizilo'ngachda ko'p qavatli yassi epiteliy borligi ham bu ikki epiteliyning genetik yaqinligini ko'rsatadi.

Bir qatlamlı bir qatorli silindrsimon epiteliy. Bu epiteliyning turli organlarda uchraydigan, o'ziga xos morfofunktional belgilarga ega bir necha xili bor (46-rasm).


Ichaklarning shilliq pardasi **silindrsimon "hoshiyali"** epiteliy bilan qoplangan. Epite-liyning so'riliş ja-rayonida ishtirok qiluv-chi hoshiyasi ingichka ichaklarda, ayniqsa, kuchli taraqqiy qilgan va elektron mikroskopik tekshirishlarning ko'-rsatishicha, hoshiya tig'iz joylashgan barmoqsimon o'simtalar - mikrovorsinkalardan iborat (47-48-rasmilar). Mikrovorsinkalar tashqi tomondan piazmo-lemma bilan o'ralgan, silindr shaklidagi sitoplazmatik o'sim-talaridir. Ularning uzunligi 2 mkm gacha, diametri esa 0,08-0,1 mkm. Yetuk hujayra yuzasida 2-3 minggacha mikrovorsinkalar bo'lib, bu hol hujayra so'rish yuzasini bir necha marta oshiradi. Gisto-kimyoiy tekshirishlar hoshiyada ishqoriy fosfatazaning faolligi yuqori ekanligini ko'rsatadi, mikrovorsinkalar orasida mukopolisaxaridlar bor. Hoshiya faqat so'rilişda ishtirok etishdan tashqari oziqa moddalar batamom parchalanib, so'rilişga tayyorlanadigan reaktiv zonadir. Hoshiyali epiteliyda tabaqalangan hujayralarning boshqa turi - qadahsimon hujayralar ham uchraydi. Tabaqalannagan, kambial elementlar ichaklarining maxsus chuqurchalari - kriptalar devorida joylashadi. Laboratoriya hayvonlarida o'tkazilgan tajribalar epiteliy hujayralarida mitoz bir soat-u 15 daqiqa davom etib, ichak vorsinkasini qoplovchi epiteliy 18-54 soat ichida batamom yangilanishini ko'rsatdi.

Bir bo'limti me'da, kavsh qaytaruvchilar me'dasining shirdon bo'limi shilliq pardasi bir qavatli bir qatorli silindrsimon yalang'och epiteliy bilan qoplangan. Bu epiteliy hamma hujayralarining yuzasi biron-bir maxsus moslamalarga ega bo'l-maydi. Barcha hujayralar shilliq ishlab chiqarishda ishtirok qiladi, ularning apikal qismida shilliq to'pla-nadi. Bu hol epiteliy va me'da devorini me'da shirasining ta siridan saqlaydi. Epiteliynig regeneratsiyasi va sun'iy sharoitda o'sish xususiyatlari ichak epiteliyinikiga o'xshash.

Bir qatorli silindrsimon epiteliyning yana bir turi - tukchali-tebranuvechi epiteliy tuxum yo'li va bachadon shilliq pardasida uchraydi. Epiteliy hujayralari tebranuvechi tukchalarga ega. Tukchali hujayralar orasida kubssimon, tukchalar yo'q, sekret ishlab chiqaruvchi hujayralar bor.

Bir qatlamlı bir qatorli silindrsimon epiteliyning ayrim turlarini o't pufagining shilliq pardasi, bezlarning chiqaruv yo'llari, buyrakning siyidik naychalarida uchratamiz.


Bir qatlamlı kubssimon epiteliy. Buyrak kanalchaları devorini, bezlarning sekretor qismları va kichikroq chiqaruv yo'llarini hosil qiladi va kichik bronxlarda uchraydi. Kubssimon epiteliotsitlarning o'zagi yumaloq, ularning markaziy qismida joylashadi. Turli joylardagi epiteliyning tuzilishi va biologiyasi bir xil emas. M., buyrak siyidik naychaları (nefroning proksimal bo'limi) epiteliy hujayralari hoshiyaga, sitoplazmasi tuyyoqchasi-mon chiziqlilikka ega bo'lib, bu hol naychalarda so'rilib, amalga




45-rasm. Epiteliy tubchalar appenansing oxeması: a-tukchalar surʼatlasidigan tekislikta perpendikulyar tekislik bo'yib o'gan kesim; b-tukchalar surʼatlasidigan yuzu bo'yub o'gan kesim; i-tukchalaming ko'ndalang kesimi (punktir bilan tukchalar surʼati yo'naliishi perpendikulyar tekislik ko'satilgan).

oshishini ko'rsatadi. Sekretor hujayralar (bezlar)da sekretsiya bilan bog'liq organellalar taraqqiy qilib, sekretor kiritmalar uchraydi.


Bir qatlamlı yassi epiteliy. Zardob pardalarni qoplovchi, mezodermadan taraqqiy qiluvchi selomik epiteliyni mezoteliy deb ataladi. Hujayralarning chegaralari egri-bugri, ko'p o'zakli bo'lishi mumkin, pinotsitoz qobiliyati yaxshi namoyon bo'ladi. Tananing ayrim joylari (o'pka alveolalari, nefron kapsulasi, bezlarning kichik chiqaruv yo'llari)da tuzilishi, xossalari o'ziga xos bo'lgan yassi epiteliy uchraydi.



46-rasm. Bir qavallı (oddıy) promasmon epiteliy
1-apdali hujayma; 2-bazal membrana; 3-bazal qutb; 4-
apikal qutb; 5-chiziqli hoshiya; 6-yumshoq hirikinuvchi
ta'qima; 7-qon tumiri; 8-leykosit.



47-rasm. A-epitelotsit chiziqli hushiyasining mikroponsinkalarini va shoplazmaning bir qomi (bo'yiga kesim, 21.800 marta kattalar), mikroponsinkalimning ko'zdalang kesimi (6-21.800, B-150.000 marta kattal). Elektron mikrofotografiya



48-rasm. Yangi tug'ilgan buzoq ingichka
schagning epitelotsitlari:
1-epitelotsitning apical qutbi, 2-so'ruchi hoshiya;
3-epitelotsitning plasmolemmasi. Elektron
mikrofotografiya.

SEKRETSIYA BEZLAR

Sekretsiya moddalar almashinuvining alohsida, ixtisoslashgan turining ifodasi bo'lib, hujayra tomonidan butun organizm hayot faoliyati uchun zarur bo'lgan moddalarning ajratib chiqarilishi bilan bog'liqdir. Bu jarayon avval boshdan organizm va muhitning o'zaro ta'siri asosida epiteliy bilan bog'liq bo'lgan. Sekretsiyaga ixtisoslashgan hujayralarning yig'indisi bezlar deyiladi, ularni quyidagicha klassifikatsiya qilish mumkin.

Silindrishimon epiteliy tarkibidagi qadahsimon hujayralar **bir hujayrali**, shilliq (mutsin) ishlab chiqaruvchi **bezlardir**. Aksariyat ko'pchilik bezlar ko'p hujayrali bo'lib, murakkab tuzilishga ega organlari. Ularni morfo-fiziologik xossalariiga ko'ra ikki guruhga: **ichliq (endokrin)** va **tashqi (ekzokrin)** sekretsiya bezlariga bo'lish mungkin. Endokrin bezlar xususiy histologiya bo'limida o'raniлади. Ekzokrin bezlarda (49-rasm) sekret ishlab chiqaruvchi terminal (oxingi) qismchalar va chiqaruv yo'llari farq qilinib, bu bezlarning tasnifi sekretor (oxingi) qismalarining shakli va chiqaruv yo'llarining tarmoqlanishiga asoslanadi. Ekzokrin bezlarning turli tiplari keltirilgan sxemada o'z aksini topgan.



Bez (sekretor) hujayralar uchun umumiyo bo'lgan xususiyat ularning tuzilishidagi qutblilikdir. Bu hodisa sekret ishlab chiqarilishi bilan bog'liq. Sekret, odatda, bez hujayrasi (glandulotsit)ning apikal qismida to'planadi. Glandulotsitda sitoplazmatik to'r va plastinkali kompleks yaxshi taraqqiy qilgan bo'lib, ayrim hollarda mitoxondriyalar ko'p. Gidrolitik fermentlar ishlab chiqaruvchi bezlarning glandulotsitlarida sitoplazmatik to'r juda kuchli taraqqiy qilgan.

Sekretsiya jarayonida uch fazal: sekret hosil bo'lishi, sekretning chiqarilishi (ekstruziya) va sekretor hujayni strukturasining tiddamishi farq qilinadi. Sekret chiqarilishi turli bez hujayralarda har xil bo'ladi. Shunga ko'ra sekret ishlab


chiqarishining uch tipi mavjud (50-rasm). **Merokrin sekretsiya** (*meros-qism, krino-ajratmoq, chiqarmoq*) - bez hujayrasи, o'z shaklinи va tuzilishini sezilarli daramada o'zgartirmasdan sekretini tashqariга ajratib chiqarib turadi. Ter bezlari, so'lak bezlari va boshqa ayrim bezlar bunga misol bo'лади.

Apokrin sekretsiya (*apo - dan, uchidan*) - bez hujayrasиning apikal qismida to'plangan sekret vaqt-vaqt bilan hujayra uchidan ajralib chiqadi va sekretini chiqarib yuborgan hujayra past bo yli bo'lib qoladi. Bunday tipda sat bez faoliyat ko'rsatadi. **Golokrin** (*holos - butunlay*) sekressiya bez hujayrasиning butunlay emirilib sekretga aylanish yo'lli bilan boradi. Terning yog bezlari shu yo'l bilan sekret ishlab chiqaradi. Golokrin bezlарining kambial elementlari yaxshi taraqqiy qilgan.



49-rasm. Oddiy va murakkab ekzokrin bezlarning sxematik tavriri:

1-sekretor qismi tarmoqlangan oddiy naychasi-men bezlar; 2-sekretor qismi tarmoqlangan oddiy alveolyar bez; 3-sekretor qismi tarmoqlangan oddiy naychasi-men bezlar; 4-sekretor qismi tarmoqlangan oddiy alveolyar bezlar; 5-sekretor qismi tarmoqlangan murakkab naycha - alveolyar bez; 6-sekretor qismi tarmoqlangan murakkab alveolyar bez. Sekretor qismalar oqsa, chiqaruv yo'llari ochiq rang bilan tasvirlangan.




50-rasm. Sekretsiyaning tiplari:

A-merokrin; B-apokrin; C-golokrin; 1-kam tabaqalangan hujayralar; 2-o'garayotgan hujayralar; 3-emirilayotgan hujayralar.

BIRIKTIRUVCHI (HIMOYA-TROFIK-TAYANCH) TO'QIMALAR

Biriktiruvchi to'qimalar organizmida juda keng tarqalgan bo'lib, umumiy manba - mezenximadan taraqqiy qilishi, himoya, trofik, tayanch va mexanik vazifalarni bajarishi bilan umumiy guruhg'a (himoya-trofik-tayanch to'qimalar)ga birlashtiriladi. Bu to'qimalarni, ayniqsa, qon, limfa va biriktiruvchi yumshoq to'qimani organizmning ichki muhiti, deb hisoblanadi.

Mezenxima sinsitiy holida tuzilgan, embrionning yuqori sur'atlar bilan o'sishi va rivojlanishi natija-sida tabaqalanib, biriktiruvchi to'qimalariga aylamuvchi embrional to'qimadir. Somitlar, xususan miotomlarning ventro-medial qismi (skle-rotom), lateral qismi plastinkasi (dermo-tom) va boshqalar mezenximaga aylanadi. Morfologik jihatdan biriktiruvchi to'qimalar hujayralar va hujayraaro moddalardan tuzilganligi bilan xarakterlanadi. Birinchi qarashda qon va limfa bilan suyak hamda tog'ay to'qimalari o'rtaida mutlaqo o'xshashlik yo'qdek ko'mishi mumkin. Lekin bu to'qimalar kelib chiqishi (genetika)ning umumiyligi, tuzi-lishi (hujayralar va hujayraaro mod-dalar mavjudligi) va bajaradigan va-zifasidagi o'xsha-shliklari bilan bir-biriga yaqin turadi va umumiy guru-hga kiritiladi.



51-rasm. Hayvonlar qoni hujayralarining yorug'lik mikroskopida ko'rinishi:

1-enitroksitar; 2-neutrofil; 3-eyzinofil; 4-hazofil; 5-kichik limfosit;
6-o'ta limfosit; 7-monositlar.

himoya-trofik guruh - qon, limfa, endoteliy, biriktiruvchi yumshoq va to'rsimon to'qimalar; tayanch-mexanik guruh - biriktiruvchi zinch

Hujayraaro mod-daning tuzilishi ko'p jihatdan to'qimaning fizik (agregat) holatini: qonning suyuqligini, suyakning qattiqligini, poyning tolador tuzilishini belgilaydi. Ko'p turiari mavjud bo'lgan va keng tarqalgan biriktiruvchi to'qimalarini ma'lum darajada shartli bo'lsa ham ikki guruhg'a:

to'qimalar, tog'aylar va suyaklarga bo'lish mumkin.

QON

Qon shakili elementlar va plazmadan tashkil topgan suyuq to'qimadir. Eritrotsitlar, leykotsitlar, **qon plastinkalari** shaklli elementlardir (51- rasm). Suyuq konsistensiyaga ega bo'lgan **plazma** qon to'qimaning hujayraaro moddasiidir. Uning asosiy qismi suv bo'lib, oqsillar (albuminlar, globulinlar, fibrinogen), tuzlar va boshqa moddalarga ega. Plazmani biokimyoiy-fiziologik o'rGANISH tegishli fanlarning vazifasidir. Bu yerda esa bevosita mikroskopda ko'rish va o'rGANISH mumkin bo'lgan qon shaklli elementlarining morfologik hamda ayrim fiziologik xossalari bilan tanishamiz.

Eritrotsitlar (*erythras* - qizil) yoki qonning qizil hujayralari umurtqalarda qizil rangli oqsil birikma (xromoproteid) - nafas olish pigmenti - **gemoglobinga** ega hujayralardir. (II jad.).

Eritrotsitlar soni va diametri

V.N.Nikitin bo'yicha


Hayvonning turi	1mm ³ qondagi eritrotsitlar (mln dona)	Eritrotsitlarning diametri (mkm)
Otlar	7,0-9,5	5,6
Qoramollar	6,0	5,1
Cho'chqalar	6,0	5,0-6,0
Qo'ytar	9,4	4,3
Echkilar	14,5	4,0
Uy quyonni	5,0	6,0
Tovuqlar	3,5	12,0X7,5
O'rdaklar	3,2	13,8X6,6
Baqalar	0,38	22,8x15,8
Odamlar:		
Erkaklar	5,0	7,3-7,5 mkm
Ayollar	4,5	

Keltirilgan jadvaldan ko'rindiki, sut emizuvchilarning 1 litr qoni-dagi eritrotsitlar soni $5 \cdot 10^{12}$ dan $14,5 \cdot 10^{12}$ gacha bo'ladi.

Og'irligi 500 kg keladigan ot qoni-dagi eritrotsitlarning soni 436,5

trilbon; agar soniyasiga bir eritrotsit sanalsa, bunday ot eritrotsitlarini sanab chiqish uchun 14 ming yil kerak bo'lar edi. Agar eritrotsitlarni ketma-ket bir qator qilib terish mumkin bo'lsa edi, hosil bo'lgan zanjir yer sharini ekvator bo'ylab 68 marta o'rab chiqishga yetgan bo'lardi.

I ml qondagi eritrotsitlar soni bir turga mansub hayvonlarda organizmning yoshi, jinsi, mahsuldarligi va ekologik sharoitlar bilan bog'liq bo'ladi.



2-jadval. A-qoramlar va B-tovsq qonining bo'yagan surʼosadagi shakilli elementlari
(Nikitin bo'yicha):

1- o'zagi segmentlangan hanoif; 2- o'zagi tayoqchasiyos, eozinofil; 3- o'zagi segmentlangan eozinofil; 4- yosh; 5- o'zagi tayoqchasiyon; 6-7 o'zagi segmentlangan neytrofil; 8- monosit; 9- katta; 10-sitoplazmasida azozofil dora-chalari bor o'ta va II-kichik limfostilar; 12-qon plastinkalari; 13-eritrotsitlar, B-1- o'zagi tayoq-chasiyon hanoif; 2- eozinofil mikroskop; 3- o'zagi segmentlangan eozinofil; 4-,5-,6-pseudoeozinofilar - neytrofilar (4- mielotsit; 5- o'zagi tayoq-chasiyon; 6- o'zagi segmentlangan); 7- monosit; 8- katta; 9-o'ta va II-kichik limfostilar, 11-plasmotsit; 13- polixromatofil eritrotsit; 14- emisilayotgan entrotsinlarning qoldiqlari; 15-o'zaki oval eritrotsitlar.

Eritrotsitlar yuqori darajada tabaqalangan, gazlar tashishga ixtisoslashgan bo'lib, sut emizuvchilarda hatto o'zakka ham ega emas. Qushlarning eritrotsiti o'zakli bo'lib, oval shaklidadir (II-jad.). Ko'pchilik sut emizuvchilarining eritrotsiti ikki tomonidan botiq disk shaklida (buni ayniqsa rastrlovchi elektron mikroskop yaxshi ko'rsatadi). Shimol bug'usi, tuya va lamalarda eritrotsit oval shakliga ega. Eritrotsitlarning o'ziga xos shakli yetilish paytida, o'zakning yo'qolishi oqibatida yuzaga kelib, gemoglobinning kislorod bilan oson to'yinishini ta'minlaydi. Sut emizuvchilarida eritrotsitlar bir turga mansub hayvonlar qonida doimiy kattalik va shakliga ega. Tuban umurtqalilarda turli kattalikdagi (**anizotsitoz**) va har xil shakldagi (**poykiliotsitoz**) eritrotsitlarni uchratish mumkin.

Eritrotsitlarning yuqori tabaqalanganligini hatto sitoplazmatik to'rga ham ega emasligi ko'rsatadi. Ularning faqat qobig'i mavjud bo'lib, ichida yarim suyuq massa joylashadi. Yosh (retikulyar) eritrotsitlarda ribosomalarning qoldiqlari, sitoplazmatik to'r va mitoxondriyalarni uchratish mumkin. Bunday holat klinik ahamiyatga ega: qonda retikulyar eritrotsitlarning ko'payishi organizmda eritrotsitlarning ko'plab emirilayotganligidan dalolat beradi.


Eritrotsitning atsidofil (oksimil) bo'yalishiga sabab gemoglobindir. Bo'yalishning intensivligiga qarab eritrotsitning gemoglobinga boyligi dairajasini aniqlash mumkin.

Eritrotsitlar muhitning tuzlar konsentratsiyasi o'zgarishiga juda sezgirdir. Tuzlar konsentratsiyasi eritrotsitlar ichidagi va qon plazmasining tuzlar konsentratsiyasi bilan teng bo'lgan eritma **fiziologik eritma** deyiladi. Eng oddiy fiziologik eritma osh tuzining 0,85%-li eritmasidir. Eritrotsitlarning eritmadagi tuzlar konsentratsiyasi o'zgarishiga chidash qobiliyati ularning rezistentligini (chidamliligin) belgilaydi. Yuqori darajada ixtisoslashgan va o'zagi yo'q bo'lgan eritrotsitlar 100-120 kun yashaydi. Emirilayotgan eritrotsitlar o'miga qizil ilikda tinimsiz ravishda yangilari hosil bo'lib, sirkulyatsiyaga chiqib turadi.

Leykotsitlar (*leikos-rangsiz*) - qonning oq hujayralari - eritrotsitlardan farq qilib, doimo o'zakka, organoidlarga ega; ko'pincha leykotsitlarda glikogen (ot va cho'chqada), yog' kiritmalari va fermentlar uchrab, bu hol ularning moddalar almashinuvida faol qatnashuvini ko'rsatadi. Ko'pchilik leykotsitlar trofik vazifa bilan bir qatorda himoya vazifasini ham bajaradi. O'z-o'zidan ravshanki, leykotsitlarning xilma-xil vazifalarni bajarishi ular tuzilishining turflicha bo'lishini taqozo qiladi. Veterinariya mutaxassis uchun leykotsitlarni xatosiz aniqliy bilish katta ahamiyatga ega. Shunga e'tibor qilish kerakki, leykotsitlar qonda eritrotsitlarga nisbatan ancha kam (1 litr qonda $3 \cdot 10^9$ - $18 \cdot 10^9$; qushlarda

$30 \cdot 10^9$ gacha) uchraydi. Leykotsitlar morfo-fiziologik xossalari ko'ra bir necha xil bo'ladi. Turli leykotsitlarning o'zaro foiz nisbatini (**leykoformul'a**) va 1 mm³ qondagi absolyut sonini (**leykoprofil**) bilish ham klinika uchun katta abarniyatga egadir.

Leykotsitlarning morfologik turlarini o'r ganish uchun qon surtmasi maxsus aralashma (ezin va metilin ko'ki) bilan D.L.Romanovskiy (1891 y.) usulida bo'yash yoki bu usulning turli modifikatsiyalari qo'llaniladi.



52-rasm. Bazofil granulositning elektronogrammasi:
1-o'zakning segmentlan; 2-bazofil granular (Blyum va
Fusselar bo'yicha).


nisbatan doimiy, ya'ni yuqori darajada tabaqalangan hujayralardir. Yetuk granulositlarning o'zagi bo'g'imgilarga bo'lingan (segmentlangan) bo'lib, bunday o'zak katta solishtirma yuza (yuzanining massaga nisbati)ga ega va bu hol moddalar almashinuvining intensivligiga bog'liq. Granulositlarning o'zagi xromatinga boy, sitoplazmasida kam sondagi mitokondriyalar, pufakchalar shaklidagi sitoplazmatik to'r, spetsifik donachalar, oksidlanish fermentlari (m., oksidaza) mayjud.

Bazofillarning diametri 8-14 mkm (52-rasm), yirik-yirik donachalar ishqoriy bo'yoqlar bilan bo'yaladi. Ko'k bo'yoq donachalarni binafsha och qizil rangga bo'yaydi. Bo'ylganda bo'yoq rangining bunday o'zgarishi, ya'ni **metaxromaziya** donachalar tarkibidagi glikozaminoglikanlarga bog'liq. Donachalarning heparin saqlashi bazofillarning

Sitoplazmasida maxsus donachalari bo'lgan leykotsitlar **granulositlar**, bunday donachalari bo'lma-ganlari **agranulositlar** deyiladi. Granulositlar esa donachalarning bo'yali shiga ko'ra bazofilllar, eozinofilllar va neytrofillarga, agra-nulositlar **limfositlar** va **monositlarga** bo'linadi.

Granulositlar ko'pa'yishga, o'z strukturasiini o'zgartirishga layoqatsiz va ma'lum turdag'i hayvonlar uchun kattaligi

biriktiruvchi to'qima labrotsitlari (geparinotsitlar)ga yaqinligini ko'rsatadi. Bazofillarning sitoplazmasi binafsha-och qizil rangga bo'yaladi. Bazofillar barcha leykotsitlarning 0,1-2%-ini (qushlarda 3-4%-iti) tashkil qiladi. Donachalarning geperin va gistamin saqlashi bazofillar allergik reaksiyalarida va qon ivishining sekinlashishida ishtirot qilishini ko'rsatadi.



53-rasm. Kalamush eozinofil grandotsiti ultramikroskopik tuzilishining sxemasi:

1-o'zakning segmentlari; 2-kristaloid soqlovchi yetig'm spesifik donachalar; 3-plastinkali kompleks; 4-gramulyar sitoplazmatik to'z (Kozlov sxemas).

3-5% (bu'zan 10%) gacha eozinfillar bo'lib, ular organizmiga kiruvchi yot oqsillar va kasallik paytidagi buzilgan to'qimalarining oqsillarini zararsizlantirishda ishtirot qiladi. Ko'philik kasalliklarning boshlanishida bu xil leykotsitlar soni kamayib, tuzalish paytida esa ko'payadi. Ayrim parazitar kasalliklarda eozinfillarning soni keskin (qoramolda 40% gacha) ortadi.

Neytrofillarning kattaligi 7-15 mkm (II-jad.). Hozirgi paytda "neytrofil" tushunchasi eskirgan hisoblanib, hematologlar "geterofil", "maxsus leykotsit" terminlarini qo'llashni taklif qilmoqdalar. Neytrofillarning donachalari juda mayda, primatlar, it, cho'chqa va mushukda och qizil-binafsha rangga, ot va kavsh qaytaruvchilarda ham kislotali, ham ishqorli bo'yoqlarga, quyonda - atsidofil bo'yaladi. Qushlar neytorofillarining sitoplazmasida atsidofil tayoqchalar mavjud. Donachalar gidrolitik ferment-larga ega lizosomalar bo'lib, ularning hosil bo'lishi plastinkali kompleks

Eozinfillar (atsidofillar) (53-rasm) 8-20 mkm kattalikda bo'lib, yirik-yirik va kes-kin oksifil bo'yaluvi donachalarga ega. Submikroskopik sitokimyo donachalarda kislotali fosfataza (gidroli-tik ferment) mavjudligini ko'rsatadi. Bu ferment dona-chalar yemirilganda faellashadi. Eozinofillarning sitoplazmasi biroz oksifil, o'zagi noto'g'ri shaklda va ko'pincha ikki bo'g'imli. Qonda

bilan bog'liqligi zamonaqiy tekshirish usullari bilan aniqlangan. Neytrophilarning sitoplazmasi kuchsiz oksifil bo'yaladi, uning zichligi hujayra yoshi kattalashishi bilan oshib boradi.

Neytrophillar faol fagotsitlar bo'lib, amyobasimon harakat qila oladi. Ularga I.I.Mechnikov mikrofaglар nomini bergan. Yallig'lanish o'chog'ida mikroblar, to'qimalar yemirilishining mahsulotlari va o'lgan neytrophillar yiring hosil qiladi. Neytrophillar yemirilishida ajralib chiqqan moddalar to'qimalar regeneratsiyasini tezlashtiradi. Neytrophil bakteriyani fagotsitoz qilgach, donachalardagi fermentlar faollashadi va hazrn qiluvchi vakuolaga tushadi. Birozdan so'ng hujayra donachalarini yo'qotib parchalanadi.

Neytrophillar o'zagining murakkab tuzilishini ko'pgina tadqiqotchilar ularning yoshi bilan bog'lashga harakat qiladilar. Lekin biz yuqorida qayd qilganimizdek, o'zakning murakkab tuzilishi granulotsitda moddalar almashinuvining intensivligiga bog'liq. Shunga qaramasdan, hozirgi paytda burcha granulotsitlarning mielotsitlar, metamielotsitlar, tayoqchasimon o'zakli va bo'g'im o'zakli (yetuk granulotsit)lar deyiluvchi xillari farq qilinadi. ("Gemotsitopoez" mavzusiga qaralsin).

Ko'pchilik sut emizuvchilar (ot, yirtqichlar va primatlar)da neytrophillar eng ko'p tarqalgan leykotsitlardir.

Yaxshi bo'yalgan preparatlarda neytrophillarda jinsiy xromatin ko'rindi ("Sitologiya" bo'limiga qaralsin).

Neytrophillar va boshqa leykotsitlar qon oqimida uzoq bo'lmasdan ma'lum vaqt o'tgach, qondan to'qimalarga o'tadi. To'qimalarda ular himoya vazifasini amalga oshiradi. Limfotsitlardan boshqa sirkulyatsiyadan chiqqan leykotsitlar qaytadan qon oqimiga tushmaydi. Limfotsitlar qondan limfaga, limfadan yana qonga qaytib o'tish, ya'ni retsirkulyatsiya qobiliyatiga ega. Leykositlar qon oqimidan to'qimalarga o'tishda kapillyarlar endoteliositlari orasidan, limfotsitlar endoteliositlar orqali ham chiqadi.

Agranulotsitlar (donasiz leykotsitlar) qonning kamroq tabaqalangan hujayralari bo'lib, kam vaqt qonda sirkulyatsiyada bo'lgach, atrofdagi biriktituvchi to'qimaga o'tadi.

Limfotsitlar ancha keng tarqalgan, ayrim sut emizuvchilar (masalan, kemiruvchilarda) leykotsitlarning asosiy shaklidir. Yosh organizmlar qonida limfotsitlar ayniqsa ko'p. Ular qondagina emas, limfada ham doimiy ravishda uchraganligi uchun shunday nom olgan. Organizm og'irligining taxminan 1% ni (A.Shevlev) limfotsitlar tashkil qilib, ularning umumiyy soni odamda 10^{12} ga (R.V.Petrov) etadi.

Limfotsitlar xromatinga boy yumaloq yadroga ega, o'zak-sitoplazma nisbati o'zak foydasiga. Sitoplazma ribonukleoproteidlarga boyligi uchun bazofil bo'yaladi. Sitoplazmaning o'zak atrofidagi qismi kuchsiz

bo'yalib, perimuklear zona hosil qiladi. Limfotsitlar agranulotsitlar hisoblansa-da, ularning sitoplazmasida ayrim hollarda (10%) azurofil donachalar (lizosomalar) uchraydi.

Qon surtmasida katta (diametri 11-18 mkm), o'rta (8-11 mkm) va kichik (4,5-5 mkm) limfotsitlar uchraydi. (54-rasm).



54-rasm. O'rta limfotsitning elektron-syammasi:
1-o'zak; 2-mitokondriyaler; 3-granulyar sitoplazmatik
to'ming kichik kanalchalar; 4-erkin ribosomalar.

va plastinkali kompleks saqlaydi.

Tabaqalanish yo'llari va himoya reaksiyalaridagi roliga ko'ra, limfotsitlarning ikki asosiy turi - T- va B-limfotsitar farq qilinadi. T- va B-limfotsitlarni faqat immunologiya usullari bilan aniqlash mumkin, morfoloqik farqlarni hozircha keskin belgilash qiyin.

T-limfotsitlar stvol hujayralardan timusda taraqqiy qilib, immsunitetning hujayraviy reaksiyalarini amalga oshiradi va gumoral immunitetni boshqaradi. O'z navbatida T-limfotsitlarni ham immunologiya usullari yordamida turli ahamiyatga ega T-limfotsitlar - T-killerlar, T-xelperlar va T-supressorlar va boshqalarga bo'lish mumkin.

B-limfotsitlar qushlarda stvol hujayralardan kloaka bursasi (xaltasi)da, sut emizuvchilarda esa suyakning qizil iligida hosil bo'ladi. Ularning asosiy vazifasi gumoral immunitetni ta'minlashdir. B-limfotsitlardan hosil bo'luchchi effektor hujayralar - plazmotsitlar himoya oqsillari - immunoglobulinlar (immun tanachalar) ishlab chiqarib, qonga o'tkazadi.


Odatda qonda limfotsitlar sonining ortishi - limfotsitozni kasallik yaxshi natija bilan tugayotgani (sog'ayish) bilan bog'laydilar.

Monotsitlar qon surtmasida kattaligi 10-20 mkm bo'lib, o'zagi no-to'g'ri-oval, loviya yoki taqasimon hujayralardir. Sitoplazmasi biroz ba-zofil, kul rangida va azurofil donachalar (lizosomalar) saqlashi mumkin.

Katta limfotsitlar elektron mikroskop ma'lumotlariga qaraganda, gammaglobulinlar ishlab chiqaruvchi limfoplazmotsitlardir. Ki-chik limfotsitlar sitop-lazmasida biron-bir spat-sifik vazifa bilan bog'liq organellalar yo'q, faqat erkin ribosomalar ni uchra-tamiz. O'rta limfotsit ma'lum darajada tabaqa-lanib, sitoplazmasi erkin ribosomalaridan tashqari mitokondriyallarga ega, sitoplazmatik to'r

Monotsitlar barcha leykotsitlarning 2-8% ini tashkil qiladi. Elektron mikroskop monotsitlar sitoplazmasida plastinkali kompleks, erkin ribosomalar va poliribosomalar, granulyar sitoplazmatik to'r borligini ko'rsatadi. Monotsitlar qon oqimidan biriktiruvchi to'qima va ayrim organlarga mi-gratsiya qilib, u yerda makrofaglarga aylanadi.

Qon plastinkalari (*trombotsitlar*, 55-rasm) tarkibidagi maxsus ferment qon ivib, tromb hosil bo'lishida ishtirot qiladi. "Trombotsit" nomi ham ularga shu tufayli berilgan. Ularning morfologiyasini o'rganishda bir qancha qiyinchiliklarga duch kelinadi: trombotsitar nozik tuzilishga ega, ancha mayda va tashqi muhitda oson buziladi. Bo'yagan preparatlarda yumaloq yoki ovalsimon shakliga ega bo'ladi. Ayrim taddiqotchilar qon plastinkalarini hujayralarning bo'laklariga (parchalariga) o'xshatishadi. Plastinka o'rtasida joylashgan **xromomer** (granulomer) - bo'yahuvchi donachalar to'plami va strukturasiz massa - gialomer farq qilinadi. Donachalar metaxromatik (asosli bo'yoqlarning rangini o'zgartirib) bo'yalish xossasiga ega, gialomer kuchsiz oksifil bo'yaladi. Elektron mikroskopiya plastinka chetida mikronaychalarining tutamchasi, undan tashqari donachular, pufakchalar, donachali vakuollar, shuningdek ko'p sonli bo'limgan mitoxondriyalar mavjudligini ko'rsatadi.



55-rasm. Qon plastifikasi ultramikroskopik tuzilishining xenesasi:
1-s-granular; 2-zich gruve-lilar; 3-glikogen; 4-microsondriyalar; 5-plastinka yuzasi
bilan bog'langan naychalar; 7-zich naychalar; 8-glikokaliks.

1 litr qonda $200 \cdot 10^9$ - $400 \cdot 10^9$ qon plastinkasi bo'lib, ularning kataligi 4-5 mkm dan ortmaydi.

Qushlarining trombotsitlari o'zakli yirik, cho'zinchoq shaklli haqiqiy hujayralardir (II-jad.).

GEMOTSITOPOEZ

Gemotsitopoez (*haema-qon, poiesis-hosil qilish*) qon hujayralarin-ning taraqqiyoti bo'lib, bu jarayonni har tomonlama va chuqur o'r ganish qon sistemasi turli kasalliklarining mohiyatini tushunish, ularni davolash va oldini olishda katta abamiyatga ega.

Embrion taraqqiyoti davrida qonning to'qima sifatida taraqqiy qiliishi **embrional gemotsitopoez** deyiladi. U sariq xalta devoridagi mezen-ximada boshlanadi. Embrional gemotsitopoez qon hosil bo'lish markazining bir necha marta o'zgarishi bilan xarakterlariadi.

Sariq xalta mezenximasida qon orolchalar hosil bo'ladi. Orolcha o'rtasidagi hujayralar yumaloqlanib, qonning stvol hujayralarini (keyinchalik proliferatsiya va differensiatsiya natijasida qonning barcha hujayralariga aylanma oluvchi hujayralarni), orolchanai chegaralovchi hujayralar esa yassilanib, bo'lajak qon tomirlarining endoteliy qavatini hosil qiladi. Stvol hujayralarning bir qismi birlamchi (boshlang'ich) qon hujayralari - **blastlarga** aylanadi. Birlamchi qon hujayralarining ko'philigi mitoz yo'li bilan bo'linib, yirik hujayralar bo'lgan birlamchi eritroblast (megablast)larni hosil qiladi. Ular sitoplazmasida ko'p miqdorda gemoglobin to'planib, oksifil eritroblastlarga aylanadi. Oqibatda ancha yirik bo'iganligi uchun megalotsitlar deb nomlangan birlamchi eritrotsitlar hosil bo'ladi. Ularning bir xillari o'zakli, ikkinchi xillari esa karioreksis natijasida o'zagini yo'qtgan bo'ladi. Ushbu tartibda yuz beruvchi megaloblastik eritrotsitopoezdan tashqari sariq xalta devorida normoblastik eritrotsitopoez ham yuz berib, kattaligi voyaga yetgan organizm eritrotsitinikiga teng keladigan ikkilamchi eritrotsitlar (normotsitlar) ham hosil bo'ladi. Sariq xalta devorida eritrotsitopoez qon tomiri ichida (intravaskulyar) yuz beradi. Shu bilan bir vaqtida, qon tomiridan tashqarida (ekstravaskulyar) joylashgan blastlardan kam miqdorda granulotsitlar - eozinofillar va neytrofillar hosil bo'ladi. Sariq xalta devorida hosil bo'luchchi stvol hujayralarning bir qismi tabaqlanmagan holda qoladi. Ular qon orqali shakllanayotgan qon hosil qiluvchi organlarga boradi va u yerda tegishli qon yoki biriktiruvchi to'qima hujayralariga tabaqlanadi.

Sariq xaltaning teskari taraqqiyoti va jigarning hosil bo'lib, shakllanishi natijasida qon hosil bo'lish markazi jigarga ko'chadi. Jigarda gemotsitopoez sariq xaltadan migratsiya yo'li bilan bu yerga kelgan stvol hujayralar hisobiga boradi. Stvol hujayralardan blastlar, ulardan esa ikkilamchi eritrotsitlar hosil bo'ladi. Shuning bilan bir vaqtida jigarda granulotsitlar (asosan, neytrofillar va eozinofillar) ham hosil bo'ladi. Bulardan

tashqari, jigarda gigant hujayralar - megakariotsitlar shakllanadi.

Timus hosil bo'lgach, uning epitely to'qimasiga stvol hujayralar kirisboshlaydi va ular timus limfotsitlariga tubaqlananadi. Timus limfotsitlarining soni ortib, ular immunopoez organlarining T-zonaligaga ko'chib boruvchi T-limfotsitlarni hosil qiladi.

Hosil bo'layotgan taloqqa tushuvchi stvol hujayralar bu yerda barcha xil qon hujayralariga aylana boshlaydi, ya'ni taloq qon hosil qiluvchi universal organga aylanadi. Keyinchalik taloqda limfotsitopoez ustun bo'lib qoladi. Bu erda gemotsitopoez ekstravaskulyar yuz beradi.

Limfa tugunlari hosil bo'lgach, bu joyga keluvchi stvol hujayralar dastlab eritrotsitlar, granulotsitlar va megakariotsitlarga aylanadi. Ammo keyinroq limfotsitopoez boshlanib, limfa tugunlaridagi hujayralarning asosiy qismini limfotsitlar tashkil qiladi.

Suyak iligi hosil bo'lgach, unda gemopoetik elementlar - asosan eritrotsitoblastlar va bo'lajak granulotsitlarni ko'rish mumkin bo'ladi. Stvol hujayralar ekstravaskulyar holatda tabaqlanib, qonning barcha elementlarni shakllantiradi. Bir qism stvol hujayralar suyak iligidagi tabaqlanmasdan saqlanadi. Ular boshqa organ va to'qimalarga migratsiya qilib, qon va biriktiruvchi to'qima hujayralarining manbai bo'lib xizmat qiladi. Suyak iligidagi stvol hujayralar ko'payish va o'z populyatsiyasini son jihatdan saqlab turish (yoki ko'paytirish) qobiliyatiga ega. Shunday qilib, oxir oqibatda, suyak iligi universal qon hosil qiluvchi organga aylanadi.

POSTEMBRIONAL GEMOTSITOEZ (QONNING FIZIOLOGIK REGENERATSIYASI)

Postembrional gemotsitopoez (III-jad.). ixtisoslashgan gemopoetik organlarda amalga oshadi. Mieloid (suyak iligi) va limfold (timus, qushlarda kloaka bursasi, taloq, limfa tugunlari) qon hosil qiluvchi organlar farq qilinadi. Mieloid organlarda eritrotsitlar, granulotsitlar, monotsitlar, megakariotsitlar, limfold organlarda limfotsitlar va plazmotsitlar hosil bo'ladi. Shuni qayd qilish kerakki, sut emizuvchilarning suyak iligidagi (ya'ni mieloid organda) B-limfotsitlar ham taraqqiy qiladi.

Qon hosil qiluvchi organlarda bir-biri bilan yaqin funksional aloqada bo'luvchi retikulyar to'qima va gemopoetik elementlar mavjud. Gemopoetik elementlar retikulyar to'qimaga qon orqali keluvchi polipotent (keng imkoniyatlari, ya'ni turli yo'nalishlarda taraqqiy qilish imkoniyatiga ega) stvol hujayralardan taraqqiy qilib, avval yarim stvol, keyin qon shaklli elementlarining ma'lum turiga aylanuvchi unipotent (bir imkoniyatlari, faqat

ma'lum bir yo'nalishda taraqqiy qiluvchi) hujayralarga tabaqalanadi.


Limfoid organlarda gemopoetik elementlar bilan funksional bir butun bo'lgan stromal retikulyar elementlar bor. Timusning stromasi retikuloepitelial va biriktiruvchi to'qima hujayralardan iborat murakkab sistemadir. Epiteliy hujayralari stvol hujayralarning T-limfotsitlarga tabaqalanishiغا ta'sir ko'rsatuvchi timozin moddasi ishlab chiqaradi. Limfa tugunlari va taloqning ixtisoslashgan retikulyar hujayralari T- va B-limfotsitlar va plazmotsitlarning proliferatsiyasi va differensiatsiyasi uchun sharoit yaratadi.

O'z morfoloyigasiga ko'ra, kichik limfotsitlarga o'xshash bo'lgan qonning boshlang'ich hujayralari to'g'risidagi fikrni, birinchi marta A.A.Maksimov XX-asr boshlarida bildirgan. Bu fikr hozirgi vaqtida o'zining eksperimental tasdig'ini topdi. Koloniya hosil qilish usuli vositasida qonning stvol hujayralarini aniqlash mumkin bo'ldi.

Stvol hujayralar radioaktiv nurlar ta'sir etdirilgan laboratoriya hayvonlari organizmiga kiritilsa, ular bunday hayvon talog'ida hujayralarning koloniyalarini hosil qiladi. Har bir stvol hujayra bir koloniya hosil qilgani uchun, ular koloniya hosil qiluvchi birlik (KHQB) deb nomlangan. Eksperimentda taloqda hosil bo'lgan koloniyalarni sanab, organizmga kiritilgan hujayralar aralashmasidagi stvol hujayralarning soni to'g'risida fikr yuritish mumkin. Stvol hujayralar sirkulyatsiyadagi qon leykotsitlari orasida ham mavjud. Hosil bo'lgan koloniyalarning hujayraviy tarkibini tekshirib, bu hujayralar ikki yo'nalishda taraqqiy qilishi mumkinligi aniqlandi.


Birinchi yo'nalishda taraqqiy qiluvchi **yarimstvol hujayra** (YASH) KHQB-GEMM nomini olib, u gemopoetning granulotsitlar, eritrotsitlar, monotsitlar va megakariotsitlar qatorlarini bera oladi. Ikkinci yarimstvol hujayra esa tabaqalanib, limfopoez qatorlarini bera oladi, KHQB-GEMM dan hosil bo'lvchi monotsit va granulotsitlar (KHQB-GM), neytrofillar va eritrotsitlar (KHQB-GnE), megakariootsitlar va eritrotsitlar (KHQB-MGSE)ga tabaqalanuvchi yarimstvol hujayralar ham aniqlangan.

Yarimstvol hujayralar qonning barcha tur hujayralarning **unipotent** boshlang'ichlariga aylanadi. Bunday unipotent hujayralarning monotsitlarni (KHQB-M), neytrofillarni (KHQB-Gn), eozinofillarni (KHQB-Eo), bazofilarni (KHQB-B), eritrotsitlarni (KHQB-E) va megakariootsitlarni (KHQB-MGS) hosil qiluvchi turlari aniqlangan. Limfopoetik qatorda T-va B-limfotsitlarni hosil qiluvchi unipotent hujayralar farq qilinadi. Polipotent stvol hujayralar, yarimstvol hujayralar va unipotent hujayralar morfologik farqlarga ega emas.



III-jadval. Postembriyonlal gemetsitopoz (N.A.Yurina xismasi).

1-VI-qos hujayrlarining tabaqalalish bosiqchilari, 1-IV-morfologik farqlab bo'lmyadigan birliklar; G-granulotetositlar; M-monotsitlar; E-eritrotsitlar; M(MGTs)-megakaryosit; Eo-hujayrlar;



V-VI-morfologik farg'lab bo'ladigan hujayalar. KHQB-kolumiyyu bosil qildigan
corinofit; Gn-neytrosil granulosit.

Polipotent yarim stvol hujayralarning unipotent hujayralarga aylanishi spetsifik omillar - poetinlar ta'sirida yuz beradi (qaralsin: gemotsitopocznning jadvali). Har bir unipotent hujayradan muayyan tur qon hujayrasining blast (yosh) shakli hosil bo'ladi. Blastlardan gemopoetik hujayralarning morfolegik farq qilinadigan shakllari yuzaga keladi. Bundan keyin qon hujayralarning muayyan turlari hosil bo'lishida qator morfologik o'ziga xosliklarni farq qilish mumkin.

Eritrotsitopoez. Eritrotsitopoez quyidagi sxema asosida yuz beradi: SH-YASH (KHQB-GMEM, KHQB-GnE yoki KHQB-MGSE)-KHQB-E (unipotent hujayra)-proeritroblast-eritroblastlar (bazofil, polixromatofil, oksifil)-retikulotsit-eritrotsit. Taraqqiyot paytida hujayra kichiklashadi, o'zak kichiklashib zichlashadi, sitoplazmada RNK kamayib, gemoglobin to'plana boshlaydi. Sitoplazmaning bazofillik xossasi kuchsizlanib, oksifiliya paydo bo'ladi. O'zak piknozga uchrab, hujayradan chiqib ketgach, avval retikulotsit, keyin eritrotsit hosil bo'ladi. Yetuk (voyaga etgan) organizmning eritrotsitlarga bo'lgan ehtiyoji odatda polixromatofil eritroblastlarning intensiv bo'linishi hisobiga qondiriladi. Ehtiyoj tug'ilganda eritroblastlar ulardan avvalgi bosqichdagi hujayralarning bo'linishidan ham hosil bo'ladi.

Granulotsitopocznning manbai ham stvol va yarimstvol hujayralar bo'lib, u quyidagi sxema asosida amalga oshadi: stvol hujayra (SH)-yarim stvol hujayralar (KHQB-GEMM, KHQB-GM, KHQB-GnE)-unipotent hujayralar (KHQB-B, KHQB-Eo, KHQB-Gn)-mieloblast-promielotsit-mielotsit-metamielotsit-tayoq-cha o'zakli granulotsit-segment o'zakli granulotsit. Bu qatordagi hujayralarni mieloblastlardan boshlab morfologik belgilariga qarab aniqlasa bo'ladi. Promielotsit va mielotsitlar mitoz yo'li bilan bo'linadi. Differensiatsiyalanayotgan granulotsitlar neytrofillar, eosinofillar va bazofillarga xos belgilarga ega bo'la boshidaydi, ya'ni sitoplazmasida spetsifik donachalar hosil bo'ladi, o'zagining tuzilishi murakkablashta boradi. Mielotsitlar, ayniqsa, neytrofillar fagotsitoz qobiliyatiga ega, metamielotsit va undan keyingilari harakatchan bo'ladi. Yetuk organizmning granulotsitlarga bo'lgan ehtiyoji mielotsitlarning ko'payishi hisobiga qondiriladi. Zarurat tug'ilganda mielotsitlar mieloblastlardan, ular unipotent va polipotent stvol hujayralardan hosil bo'ladi.

Megakariotsitopoez quyidagi bosqichlardan iborat: stvol hujayra (SH)-yarimstvol hujayra (KHQB-MGSE)-unipotent hujayra (KHQB-MGS)-megakarioblast-promegakariotsit-megaka-riotsit-qon plastinkalari. Megakarioblast morfologik farqlanadigan, yirik, sitoplazmasi bazofil hujayra. Promegakariotsit va megakariotsit bosqichlarda poliploidiya natijasida o'zak yiriklashadi va segmentatsiyaga uchraydi. Keyin megakariotsit parchalaniib, qon plastinkalariga aylanadi.

Monotsitopoez stvol hujayra (SH)-yarim stvol hujayra (KHQB-GEMM, KHQB-GM)-unipotent hujayra (KHQB-M)-monoblast-promonotsit-monotsit sxemasi asosida yuz beradi.

Limfotsitopoez va immunositopoez, stvol hujayra (SH)-yarimstvol hujayra (YASH)-unipotent hujayra-prolimfotsit-limfotsit sxemasi asosida amalga oshib, uning o'ziga xos tomoni differensiatasiyalangan limfotsitlarning dedifferensiatasiyalanib, blastlar shaklini ola olishidir. T-yo'nalishdagi hujayralarining periferik organlarda tabaqalanishi unipotent hujayralarga, keyin T-blastlarga, katta, o'rta va kichik limfotsitlarga aylanishdan iborat. Kichik T-limfotsitlar turli vazifalarni bajarishga ixtisoslashadi (killerlar, xelperlar, suppressorlar va xotira T-hujayralar).

B-yo'nalishning unipotent hujayralari tabaqalanib, plazmoblastlar, keyin proplazmotsitlar va nihoyat plazmotsitlarni hosil qiladi.

Shunday qilib, hozirgi paytda, qon hosil bo'lishining mavjud bo'lgan nazuriyalaridan **unitarizm** (monofiliitik nazariyaning turi - hamma qon hujayralari bir boshlang'ich hujayradan hosil bo'ladi, deb hisoblovchi) **nazariysi** ko'pchilik tadqiqotchilar tomonidan tan olinadi. Boshlang'ich qon hujayrasi polipotent (plyuripotent) stvol hujayra yoki koloniya hosil qiluvchi birlik (KHQB-s) dir. Gemotsitopoezning 6 bosqichi va bu bosqichlarga mos keladigan gemopoetik hujayralar farq qilinadi: 1. Stvol hujayra - SH (KHQB-s); 2. Yarim-stvol hujayra - YASH (KHQB-a-agarda koloniya hosil qiluvchi hujayra); 3. Unipotent hujayralar (muayyan qon hujayralarining KHQB-i); 4. Blastlar (eritroblastlar, mieloblastlar va h.); 5-6. Yetilayotgan va yetilgan, morfologik belgiligiga qarab farqlash mumkin bo'lgan hujayralar.

LIMFA

Qon plazmasining ma'lum komponentlari doimo qon kapillyarları devori orgali sizib chiqib, to'qima suyuqligiga o'tadi. Bu suyuqlik limfa kapillyarları va tomirlari sisternasi yordamida yana qonga quyiladi. Limfa tomirlaridagi suyuqlik **limfa** deyiladi.

Limfa (*lympha-suv*, namlik)ning solishtirma og'irigi 1,012-1,026, tarkibida fibrinogen bo'lganligi uchun ivishi mumkin. Limfoplazmnaning tarkibi turli joylarda bir xil emas, masalan, ichak limfasi yog'larga boy. Limfaning tarkibi tomirlarning kattaligiga qarab ham (kapillyarlar, limfa tugunigacha va tugundan keyingi tomirlar, magistral tomirlar) o'zgaradi.


Limfoplazmnuning tarkibi qon plazmasi va to'qima suyuqligi tarkibiga o'xshashligi bilan birga muhim farqlari ham bor. Masalan, limfoplazmada oqsillar kam.

Limfa tarkibida limfotsitlar, monotsitlar, juda kam miqdorda granulotsitlar va eritrotsitlar bo'ladi. Qoramollarning bir litr limfasida $7 \cdot 10^9$ ($3,5 \cdot 10^9$ - $14 \cdot 10^9$) limfotsit bor.

ENDOTELIY

Endoteliy mezenximadan boshlang'ich qon hujayralari bilan birga, ular bilan aloqador bo'lgan holda kelib chiqadi. Voyaga yetgan organizmda qon va limfa tomirlari, kapillyarlar va yurakning ichini qoplaydi. Endoteliy bir qavat hujayralardan iborat yaxlit qatlam (plast) bo'lib, tashqi ko'rinishi bilan bir qavatlari yassi epiteliyini eslatadi. Biologik xossalari bo'yicha qon, limfa va retikulyar to'qimaga yaqin turadi. Sinusoid kapillyarlarning endoteliyi fagotsitoz qobiliyatiga ega. Elektron mikroskopiya endoteliy hujayralarining yuzasi silliq bo'lmasdan, balki mikrovorsinkalarga egaligini va pinotsitoz qibiliyati kuchli ifodalanganligini ko'rsatdi. Sinusoid kapillyarlarning endoteliyi kam tabaqalangan, yirik qon tomirlari, masalan, aortaniki yuqori tabaqalangan. Lekin "yuqori tabaqalangan" endoteliy hujayralari ham shikastlanishga regeneratsiya bilan javob bera oladi.

RETIKULYAR TO'QIMA



56-rasm. Limfa tugunning kapallashi simasidagi retikulyar to'qima:
1-retikulyar hujayralar; 2-limfositlar.


Elektron mikroskopiya protoplazmatik ko'prikhalar hujayralarning bevosita tutashib ketishini ta'minlamasdan, balki ikki hujayra orasida si-tolemmadan iborat chegara borligini ko'rsatdi.

Retikulyar to'qima retikulyar (*argirofil* - kumush tuzlari bilan yaqinligi bor) tolalar, bu tolalar bilan bog'liq fibroblastlarga o'xshash retikulyar hujayralar (57-rasm), monotsitlardan kelib chiqadigan makrofaglar

retikulyar to'qima qon hosil qiluvchi organlar stromasini hosil qilib, rivojlanayotgan gemopoetik hujayralarga maxsus mikrosharoit yaratib beradi.

Bu to'qimaning hujayralari (retikulyar hujayralar) protoplazmatik ko'prikhalar vositasida bir-biri bilan tutashib ketadi va siyrak to'r hosil qiladi (56-rasm). El-


va kam tabaqalangan hujayralarga ega. Retikulyar tolalar retikulyar hujayralar mahsuli bo'lib, kimyoviy jihatdan kolagen tolalarga yaqin bo'lsada, ularidan yo'g'onligi, tarmoqlanishi va anastomozlari bilan farq qiladi.



57-rasm. Retikulyar hujayra va retikulyar tolalar o'zaro munosabatining sxemasi:

1-retikulyar hujayraning o'smi; 2-retikulyar hujayraning o'sintilar; 3-retikulyar tolalar; 4-endoplazmatik iz'l; 5-mitochondriyalar.

BIRIKTIRUVCHI TOLADOR TO'QIMALAR



58-rasm. Kollagen tolaming hosil bo'lishi sxemasi:

A-fibroblast tomonidan yuyligan aminokislotalar (prolin, lizin va b.) sitoplazmatik iz'l zibosomalarida sintezlanuvchi o'sil tarkibiga kiradi. O'sil plastinkali kompleksga tegishli, keyin hujayradan tasliqasida tropokollagen shaklida chiqarilib, kollagen tolalari hosil qiladi; 1-fibroblast; 2-pravulyar sitoplazmatik iz'l; 3-plastinkali kompleks; 4-mitochondriyalar; 5-tropokollagen molekulalar; 6-kollagen tola (Velsh va Shostek bo'yicha).

Biriktiruvchi tolador to'qimalarning hujayraaro moddasi **kollagen** va **elastik** tolalar, shuningdek tolalar hamda hujayralar orasini to'ldirib turuvchi amorf (shaklsiz) usosiy moddadan iborat.

Kollagen (*collagen*, *gennoayetishiraman*) tolalar uzoq qaynatil-ganda hayvon yelimi - jelatinga ayla-nadi. Ular ancha yo'g'on bo'lib, tolating bo'yiga qarab joylashuvchi chiziqlilikka ega. Chunki kollagen tola


yo'g'onligi ta-moran bir xil ipchalar – fibrilla-lar tutamchasiidir. Fibrillalar sement-lovchi modda yordamida kollagen tolaga umumlasha-di. Kollagen fibril-lar o'z navbatida protofibrillalardan iborut. Har bir protofibrilla o'z navbatida 3 ta kollagen oqsili molekulalaridan, oqsil molekulasi 3 ta polipeptid zanjirdan iborat. Tolaning bunday tuzilishi polyarizatsion mikroskopiyaga va rentgenostruktur analiz yordamida aniqlangan. Polyarizatsion mikroskop kollagen tola optik anizotroplik xususiyatiga ega ekanligini ko'rsatdi. Uning ko'ndalang chiziqlilikka egaligi tola tarkibidagi fibrillalar kimyoviy tuzilishining davriyigiga bog'liq (58, 59, 60-rasmlar).

Kollagen tola juda pishiq, deyarli cho'zilmaydi, 1 mm² yuzasi hisobiga 6 kg gacha yukni ko'tara oladi, bo'yalganda ham asosli, ham kislotali bo'yoqlarni qabul qila oladi. Mexanik vazifadan tashqari har xil moddalarni adsorbsiya qiluvchi filtr rolini o'taydi.

Argirofil (prekollagen) tolalar kumush tuzlari yaxshi qabul qiluvchi, kam tabaqalan-gan, yoshroq kollagen tolalardir.


Elastik tolalar yoruqlik mikroskopida homogen, yo'g'onligiga ko'ra xilma-xil, cho'-ziluvchan va oson uzeladigan tolalar bo'sib, qaynatilganda yel'm hosil qilmaydi. Elektron mikroskopiyaning ko'rsatishicha, bu tolalar sementlovchi moddasi (elastomutsin) erigan-dan keyin ko'rindan proelastin oqsili iplaridan tuzilgan. Agar maxsus ferment bilan polisaxarid elastomutsin eritisla, tola parchalanib ketadi.

Yirik arteriyalar devorida elastik elementlar ancha qalin membrana-larga aylanadi. Membranalar yuzasini qoplovchi mukopolisaxaridiarning moddalar almashinuvni juda faol. Elastik elementlarning hayvon qarishi bilan mineral moddalarga yaqinligi ortadi. Ular yuzasiga ohak tuzlari va lipidlar o'tirib qola boshlaydi va bu hol qon tomirlari patologiyasida ma'lum ahamiyatga ega.



59-rasm. Kollagen tolaning tuzilishi xemasasi:

A-kollagen makromolekulasining spiral strukturasini (Rich bo'yicha); mayda oq doszachalar – glitsin; yirik oq doszachalar – prolin; shirixlangan doszachalar – hidrokapsolin; B-kollagen tolalaming tuzilishi xemasasi: 1- fibrillalar nitami; 2- fibrilla; 3-profibrilla; 4-collagen molokulasi.



60-rasm. Kollagen fibrilla:
A-negativ bo'yagan kollagen fibrillarining electron mikrofotografiysi (180.000 marta kam.)
B-ko'ndalang chiziqning hosil bo'lishini tushunturuvchi tropokollagen molekulalarning joylashish xerasasi (Xodja va Peterskilar bo'yicha); 1-qozamit seg-esonlar tropokollagen molekulalarning uchilari o'masidagi omiliqlarga to'g'ri keladi; 2-yorug' segmentlari molekulalarning bir-buruni yoniga o'tub turadigan qismalarga to'g'ri keladi.



61-rasm. Biriktiruvchi yumshoq to'qimanining mikroskop katta obyektivida ko'rinishi

(Kasselbon va Risterlar bo'yicha):

1-kollagen tolalar; 2-elastik tolalar; 3-fibroblastlar; 4-gistioytolar; 5-udushgan hujayralar.

mashinuvi jarayonida tolador oqsillar ajralib, ularidan biriktiruvchi to'qimaning tolalari shakllanadi.

Biriktiruvchi tolador to'qimalar hujayralar va oraliq moddalarining o'zaro nisbati, tolalarning joylashish tartibi va xillariga ko'ra siyrak tolalari (biriktiruvchi yumshoq), zinch tolali (biriktiruvchi zinch) to'qimalarga

Amorf (shakisiz) modda fibroblastlar bilan yaqin bog'langan va shu hujayralar tomonidan ishlab chiqariladi. Birik-tiruvchi to'qima taraq-qiyotining dastlabki davrlaridayoq hosil bo'lib, avval deyarli faqat glikozaminoglikan (gialuron kislota, heparin va xondroitin sulfat)lardan iborat. Toluidin ko'ki amorf moddani binafsha rangga bo'yaydi (meta-xromaziya). Amorf mod-dani mikroskopda ko'rib bo'lmaydi. U hujayralar va tolalar oraliqlarini to'ldirib turadi va ko'p miqdorda suvni biriktira oladi, intensiv kechadigan moddalar almashinuvi jarayonida tolador oqsillar ajralib, ularidan biriktiruvchi to'qimaning tolalari shakllanadi.

bo'linadi. Biriktiruvchi zich to'qimaning shakllangan, shakllanmagan, kolagen va elastik turlari bo'ladi.

Slyrak tolali (biriktiruvchi yumshoq) to'qima. Organizmda juda keng tarqalgan va hamma organlarda uchraydi. Bu to'qimaning oraliq moddasida tohular nisbatan kamroq, hujayralar esa ko'proq.

Biriktiruvchi yumshoq to'qimada kollagen va elastik tolalar tartibsi joylashadi (61 rasm). Kollagen tolalar tarmoqlanmaydi va bir-biri bilan anastomozlar hosil qilmaydi. Elastik tolalar esa tutashib, to'r hosil qiladi. Yog' to'qima biriktiruvchi yumshoq to'qimaning lipotsit (yog' hujayralarga boy bo'lgan turidir.

Biriktiruvchi yumshoq to'qimaning kam tabaqalangan (kambial), kichik qon tomirlari va kapillyarlar yaqinida joylashgan, noto'g'ri yulduzsimon shakldagi, xromatinga boy o'zagi mayda hujayralari adventitsial hujayralar deyiladi. Qon kapillyarlarining bazal membranasiga yanada yaqinroq aloqador bo'lgan hujayralar peritsitlar deb ataladi. Bu hujayralar biriktiruvchi to'qimaning boshqa hujayralariga aylanma oladi, degan fikrlar mavjud.

Fibroblastlar biriktiruvchi yumshoq to'qimaning eng ko'p sonli, turli darajada tabaqalangan hujayralar guruhidir. Ular hujayraaro moddalar hosil bo'lishi, shikastlangan to'qimalarning tiklanishida ishtirot qiladi. Fibroblastlar noto'g'ri plastinkasimon shakldagi, ko'ndalang kesimda urchuqsimon ko'rinishli hujayralardir. O'zagi ancha yirik, 2-3 ta o'zakchaga ega, oval yoki yumaloq shaklda va kuchsiz bo'yaladi. Fibroblastlar oraliq moddadan keskin chegaralanib turmaydi. Sitoplaznada hamma organellalar mavjud, oqsil sintezlovchi hujayra bo'lganligi uchun, ayniqsa, sitoplazmatik to'r yaxshi taraqqiy qilgan. Yetuk hayvonlarda fibroblastlar fibrotitsitlarga (definitiv shakli) aylanadi.

Makrofaglar (yirik fagotsitlar). Makrofaglar gemopoetik stvol hujayralardan monotsitlar qatori orqali hosil bo'ladi. Biriktiruvchi to'qimaning qon bilan yaxshi ta'minlangan qismlarida ko'p uchrab, yallig'lanish paytida ularning soni, ayniqsa, ortadi.

Makrofaglar faol fagotsitlar bo'lib, hujayra ichida fagotsitoz qilin-gan zarrachalarni parchalash, turli biologik faol moddalarini sintezlash bilan bog'liq organellalarini va kiritmalari bor. Makrofaglar sitoplazmaga kirgan korpuskulyar zarrachalarni molekulalar shaklga keltiradi. Immunokompetent hujayralar (limfotsitlar) bilan kontaktga kirib, ularga antigen to'g'risidagi kerakli axborotni yetkazadi. Makrofaglarning o'zagi yumaloq, oval yoki loviyasimon, shakli turlicha: yassilangan, yumaloq, cho'zinchoq va noto'g'ri shaklda; chegaralari uniq, ko'pincha sitolemmasi uzun mikroosimtalar hosil qiladi. Sitolemma yuzasida turli hujayralarni va

molekulalarni, masalan, immunoglobulinlarni farqlovchi retseptori bo'r. Makrofaglar xilma-xil biologik faol moddalar (interferon, lizotsim, pirogen, proteazalar va boshqalar) ishlab chiqarib, himoya reaksiyalarining turli turman bo'lishini ta'minlaydi.

Makrofaglar (mononuklear fagotsitlar) sistemasi. Bu sistemaga turli organlar va to'qimalarda joylashgan, fagotsitoz qobiliyatiga ega hujayralar kiradi. Qondan migratsiya qilgan monotsitlar turli organlarning o'ziga xos sharoitida ba'zi bir umumiy struktur, ultrastruktur va sitokimyoysi belgilari ni saqlab qolgan holda, organlardagi mahalliy sharoitlarga muvofiq tegishli o'zgarishlarga uchraydi. Shu organlarning maxsus makrofaglariga aylanadi. Bu guruhga biriktiruvchi yumshoq to'qimaning makrofaglari (gistiotsitlar), jigar kapillyarlarining yulduzsimon retikuloendoteliotsitlari, qon hosil qiluvchi organlardagi o'troq (harakatsiz) makrofaglar, epidermis ichidagi va o'pkadagi makrofaglar va boshqalar kiradi.

Makrofaglar sistemasi organizmning umumiy va mahalliy reaksiylarida ishtiroy qiluvchi kuchli himoya apparatidir.

Mononuklear fagotsitlar sistamasi- MFS (yoki makrofaglar sistemasi) quyidagi hujayralardan iborat: gistiotsitlar (biriktiruvchi to'qima);

yulduzsimon retikuloendoteliotsitlar (jigar kapillyarları);

harakatchan va o'troq makrofaglar (limfa tugunlari, taloq, ilik); alveolyar makrofaglar (o'pka, plevra va qorin pardasi makrofaglari (scroz bo'shliqlar);

osteoklastlar (suyak to'qimasi);

epidermis ichida joylashuvchi makrofaglar (epidermis);


mikrogliya (nerv to'qimasi);

sinovial pardalarining makrofaglari (bo'g'imir) va boshqa organlarning makrofaglari.

Plazmotsitlar. 7—10 mkm kattalikdagisi, oval yoki yumaloq shaklga ega, uncha yirik bo'lmagan, o'zagi ekssentrik joylashuvchi hujayralardir. Sitoplazmasi (ayniqsa, periferik zonası) RNK ga boyligi uchun keskin bazofil bo'yaliadi va kuchli taraqqiy qilgan sitoplazmatik to'rga ega. (62-rasm). Plazmotsitlar immun tanachalar-gammaglobulinlar ishlab chiqaruvchi immuno-kompetent hujayrlar hisoblanadi va gumoral immunitetni amalga oshiradi. Ular antigenlar ta'sirida faollashgan B-limfotsitlardan taraqqiy qiladi.

Labrotsitlar. To'la hujayralar, to'qima bazofillari, gepari-notsitlar kabi bir necha xil nomlar bilan ataluvchi hujayralardir. Tananing turli qismlarida biriktiruvchi tolador to'qima bor joyda uchraydi. Labrotsitlar turli shakldagi, sitoplazmasida ko'p miq-dorda yirik-yirik ba-zofil va tolui-

din ko'ki bilan metaxroma-tik bo'yaluvchi do-nachalari bor hujay-ralardir. Labrotsitlarning organellalari uncha yaxshi taraqqiy qil-magan, sitoplazmasida xilma-xil fermentlar, jumladan, gisti dinde karboksilaza fermenti saqlaydi. Bu hujayralar geparinga o'xshash mukopolisaxarid ishlab chiqarishi aniqlangan. Geparin jigarda hosil bo'luvchi va qonning ivishiga to'sqinlik qiluvechi moddadir. Labrotsit donachalarining tarkibida qonning bazofillariga o'xshash xondroitin sulfat va gialuron kislotalar, gistamin ham bor. Gistamin qon tomirlarini kengaytiradi, kapillyarlarning o'tkazuvchanligini oshiradi va silliq muskulni qo'zg'atadi. Bu hujayralar ko'plab emirilib, qonga ko'p miqdorda gistamin chiqsa (m., ayrim preparatlar va yot oqsillar ta'sirida), organizmda «shok» yuz beradi.



62-rasm. Plazmotsit ultramikroskopik
sizllishining istemasi (Bessi bo'yicha).


1-granulyar sitoplazmatik to'r; 2-kromatin; 3-o'zakchi; 4-o'zak qobig'i; 5-o'zak qobig'ining pora (leshiklari); 6-erkin yonvechi ribosomalr; 7-plastinkali kompleks; 8-sentrissolar; 9-sekretor pufakchalar.

lipotsitlarning soni hayvon fiziologik holatiga ko'ra o'zgarishlarga uchrayıdı (63-rasm).

Pigmentotsitlar (pigment hujayralari) sitoplazmasida melanin pigmenti bo'ladi. Ular doimiy bo'lagan kalta o'simtalarga ega. Ularning nerv qirralari (o'rkachlari)dan hosil bo'lishi isbotlangan va biriktiruvchi


Lipotsitlar (yog' hujayralari). Ular asosan guruhlar holda qoti tomirlari yaqinida joylashadi, lipotsitlar ko'p miqdorda to'planib, yog' to'qimasini hosil qiladi. Yetak yog' hujayrasida sitoplazmaning butun markaziy qismini egallagan yirik neytral yog' tomchisi bo'lib, o'zagi bir chekkaga surilgan. Yangi lipotsit adaventisial hujayralardan hosil bo'ladi. Yog' tomchisi kattalashishi bilan sitoplazmatik to'r va plastinkali kompleks reduksiyaga uchrab, o'zak yassilanadi va hujayra chetiga suriladi. Biriktiruvchi to'qimada

to'qimada joylashgani uchun bu yerda qaralmoqda. Reptiliya, amfibiyva baliqlar terisining biriktiruvchi to'qimasida anchagina miqdorda xromaforlar (pigmentotsitlar) bo'lib, tushqi qoplamming rangini belgilaydi va himoya abhamiyatiga ega. Sut emizuvchilarda pigment hujayralari asosan ko'z pardalarining biriktiruvchi to'qimasida to'plangan.



63-rasm. Oq rangli yog" to'qimaning sxemasi:
1-yog" hujayrasining o'zagi; 2-yog" tonchisi e'tib
ketidan keyin qolgan bo'shiq; 3-biriktiruvchi
to'qima.

to'qimalarda hujayralardan tolador elementlar ancha ko'p va mexanik-tayanch vazifasi yuxshi ifodalangan. Totalarning turi va joylashish tartibiga qarab, bir necha xil biriktiruvchi zich to'qimalar. biriktiruvchi zich shakllangan hamda shakilanmagan kollagen to'qimalar va elastik to'qima mavjud.



64-rasm. Biriktiruvchi zich to'qima (pay)ning
bo'yiga kesimi:

1-kollagen tolalar - 1-tartibli tutamchalar; 2-kollagen tolalarning II-tartibli tutamchasi; 3-fibroblastlarning o'zaklari; 4-beriktiruvchi yumshoq to'qima qavatligi.

Shunday qilib, biriktiruvchi yumshoq to'qimaning hujayralari o'z kelib chiqishi, morfo-funksional xossalariiga ko'ra xilma-xildir. Bu to'qimaning butun organizmda diffuz holda joylashgan hujayralari torimlardagi qon hujayralari va limloid sistema bilan birgalikda funksional jihatdan bir butun apparatni hosil qilib, trofik, himoya va plastik (to'qimalar regene-ratsiyasi) vazifalarni amalga oshiradi.

Biriktiruvchi zich
to'qimalarda hujayralardan tolador elementlar ancha ko'p va mexanik-tayanch vazifasi yuxshi ifodalangan. Totalarning turi va joylashish tartibiga qarab, bir necha xil biriktiruvchi zich to'qimalar. biriktiruvchi zich shakllangan hamda shakilanmagan kollagen to'qimalar va elastik to'qima mavjud.

Paylar biriktiruvchi zich shakllangan to'qimaga misol bo'ladi. Bu yerda kollagen tolalar bo'g'inga ta'sir etadigan kuch o'qi bo'ylab, bir-biriga parallel holda, tartib bilan joylashadi. Biz yuqorida tuzilishini bayon qilgan kollagen tola murakkab struktura bo'lib (59-60-rasmlar), u paylarning birlamchi bog'lamchisi hisoblanadi. Payning ko'ndalang kesimida bir qancha kollagen tolalar birlashib, ikkilamchi bog'lamcha hosil qilishi, tolalar orasida fibrotsitlar (pay hu-

jayralari) joylashganini ko'rish mumkin. Ikkilamchi bog'lamchani biriktiruvchi yumshoq to'qimadan iborat jild-endotenoniy o'rabi turadi. Bir qancha ikkilamchi bog'lamchalur umumiy jild-peritenonly bilan uchlamlchi bog'lamchalarga umumlashadi. Yirik (yo'g'on) paylarda to'rtlamchi bog'lamchalar hosil bo'lishi mumkin. Pay jildlarida qon tomirlari va nervlar joylashadi (64-rasm).

Shakllangan zich elastik to'qima yoki sariq paylar (m., bo'yin usti payi)da tartibli joylashuvchi elastik tolalar ko'p. Bu tolalar ancha yo'g'on, kollagen tolalar esa odatdagidek tuzilishga ega, hujayralarning ko'pchiligi fibroblastlaridir. Elastik tolalarning ko'pligi tufayli bu to'qima sariq rangga ega. Bu to'qimada, paydan farqli o'laroq biriktiruvchi yumshoq to'qima elementlari elastik tolalar orasida bir tekis joylashgan.

Shakllanmagan biriktiruvchi zich to'qima terining derma qavatida va boshqa joylarda uchraydi. Unda kollagen va elastik tolalarning bog'lamchalari tartibsiz joylashadi, shuning uchun shakllanmagan zich to'qima turli yo'naliishlarda bo'ladigan kuchlar ta'siriga chidamli.

Biriktiruvchi tolador to'qimalarda regeneratsiya qobiliyati kuchli, hatto boshqa to'qimalar kuchli shikastanganda hosil bo'lvchi defektlar ham biriktiruvchi tolador to'qima hisobiga to'ldiriladi. Buning sababi biriktiruvchi tolador to'qimalar, xususan biriktiruvchi yumshoq to'qimada kambial elementlarning ko'pligidir.


TOG'AY TO'QIMALAR

Tog'aylar tayanch vazifasini bajarib, skeletning turli qismlari, shuningdek nafas organlarida uchraydi. Tog'ay hujayralari (**xondrotsitlar**)ning turgor holati yuqori bo'lib, hujayralararo modda (**xondromukoid**) zich konsistensiyaga ega.

Tog'aylarni tashqi tomonidan kollagen tolalar va yosh tog'ay hujayralari-**xondroblastlarga** boy biriktiruvchi to'qima - **perixondriy** (tog'ay jildi) o'rabi turadi. Xondrotsitlar perixondriyga yaqin joyda bali xondroblastlarga o'xshash, tog'ayning ichkariroq'ida esa cho'zinchoq shaklli bo'lsa-da perixondriyga perpendicular joylashadi. Xondrotsitlarning yuzasi faqat elektron mikroskopiyaga ko'rsata oladigan mikrotukchalarga ega. Ularning o'zagi yumaloq, xromatinga boy emas, sitoplazmatik to'r taraqqiy qilgan, sitoplazmasida shuningdek yog', glikogen kiritmalari va ko'p miqdorda suv bor. Tog'ayning yoshroq hujayralari tog'ay markaziga siljiyotib bo'linadi va izogen (bir xil yo'll bilan, ya'ni bir hujayraning bo'linishidan kelib chiqqan) guruhi bosil qiladi.

Xondromukoidning organik moddalardan iborat tarkibiy qismlari oqsillar, lipidlar, glikozaminoglikanlar va proteoglikanlardir. Ko'p miqdorda fibrillyar oqsl (kollagen) bor. Xondromukoidning hidrofilligi uning zinch konsistensiyasini va yuqori turgor holatda bo'lishini ta'minlaydi. Tog'aylarga xos modda xondroit (xondroitinsulfat) kislota hujayraaro moddaning bazofilligiga sabab bo'ladi. Kam tabaqalangan tog'ayning erkin xondroitinsulfat kislotaga ega bo'lmagan eng yosh qismlari oksifil bo'yaladi. Yakka-yakka joylashuvchi xondrotsitlarni ham, izogen guruhlarни ham o'rabi turuvchi perisellyulyar modda - "kapsula" endigina hosil bo'lgan va ko'pincha oksifil xondromukoiddir.

Hujayraaro moddada erkin xondroitinsulfat kislota hosil bo'lishi bilan u bazofil bo'yaboshlaydi. Tog'ayning yanada tabaqalaniishi va qarishi natijasida hujayraaro moddaning miqdori ortadi, xondromukoid oddiy oqsl albumoidga aylanadi, xondroitinsulfat kislota yo'qolib, bunday qismlar yana oksifil bo'yaboshlaydi.



65-rasm. Gialin tog'ay:

1-tog'ayusti pardasi; 2-yosh tog'ay hijayralari joylashgan zona; 3-anusiy modda; 4-yugor darajada tursqiqi qilgan tog'ay hijayralari; 5-tog'ay hijayralarning kapsolasi; 6-tog'ay hijayralarning izogen gurhi; 7-tog'ay hijayralari atmosferidagi bazofil anusiy modda.


Kollagen tolalar perikon-driy kollagen tolalarining davomi bo'lib, faqat poliarizatsion mikrosko-piya yordamida yoki tog'ayni maxsus eritmalar

yosh tog'ay hujayraaro moddasida faqat "kapsula" oksifil, qolgan qismlar bazofil bo'yaladi. Tog'ay tabaqalaniishi bilan uning bo'yalishi va mikroskopik ko'rinishi murakkablashib, izogen guruhlar hujayraaro moddadan iborat **xondrin sharlar** (hujayraviy territoriyalar) bilan o'ralgan bo'ladi. Xondrin sharlarning hujayralarga yaqin markaziy qismi bazofil bo'yalsa, qolgan periferik qismi astasekin oksifil bo'yaboshlaydi. Xondrin sharlarni chegaralab turuvchi oksifil yoki kuchsiz oksifil qismlari tog'ay to'sinchalarini deyiladi. Tog'ayning hujayraaro moddasida tolador elementilar ham mavjud.


bilan ishiashdan keyin ko'tinadi. Elastik tolalar-ni esa yorug'lik mikroskopiyasi yordamida ko'rish mumkin. Odatda tog'ay-da qon tomirlari bo'lmasdan, oziqlanish peri-xondriyidagi qon tomirlari hisobiga diffuziya yo'li bilan boradi.

Uch xil tog'ay: gialin (shishasimon, tiniq), elastik va tolador tog'ay mavjud.

Gialin tog'aylar (65-rasm) tanada keng tarqalgan bo'lib, bo'g'indarda, qobirg' alarming uchlarida, burun to'sig'ida va nafas yo'llarining boshqa bo'limlarida uchraydi, embrionning skeleti ham shu tog'aydan iborat. Bu tog'ayning hujayraaro moddasida kollagen tolalar mavjud. Lekin kollagen tolalar perixondriyidan xondromukoidiga kirdi, yorug'lik mikroskopida ko'rinnmaydigan juda ingichka fibrillalarga aylanadi. Gialin tog'ay degan nom ham tog'ayning hujayraaro moddasi tiniq, yorug'lik mikroskopi ko'rsataoladigan strukturalarga ega emasligi uchun berilgan,



65-rasm. Qulq suprasining elastik tog'ayi:
1-tog'ay nni nardasi; 2-yash tog'ay hujayralari;
3-tog'ay hujayralarning oxogen guruhlari; 4-elastik
tolalar.




67-rasm. Katta beldir suyagiga pay tutashadigan joyidagi tolador tog'ay:
1-pay hujayralari; 2-tog'ay hujayralari.

Elastik tog'ay (66-rasm). Bunga qulq suprasi va hiqildoq ustı tog'aylarini misol qilish mumkin. Bu tog'ay hujayraaro moddasida elastik tolalar to'ri mavjud (to'rsimon tog'ay). Elastik tog'ayning ham kollagen tolalari yorug'lik mikrosko-pida ko'rinxmaydi. Izogen guruhlar bu erda kamroq uchraydi.

Tolador tog'ay (67-rasm). Umurtqalar orasida, paylarning suyak-larga tuta-shadigan joylarida, sonning yumaloq payida uchraydi: hujayraaro moddasi zinch joylashgan kollagen tolalar bo'lib, hujayralari yumaloq, kuchsiz bo'yaluvchi xondro-tsitlardir.

Tog'aylarning taraqqiyoti va regeneratsiyasi. Tog'aylar mezenxi-maning zinchashib, skeletogen (tog'ayoldi) to'qimaga aylanishi natijasida taraqqiy qila boshlaydi. (68, 69-rasmlar). Bu to'qimada hali hujayraaro modda yo'q, tayanch vazifa turgor yordamida bajariladi. Keyinroq birlam-chi tog'ay (protoxondrial) to'qima hosil bo'lib, hujayraaro modda ishlab chiqara boshlaydi.



68-rasm. Gislin tog'ayning mezenchimadan hosil bo'lishi:


1-mezenchima; 2-tog'ay taraqqiyetining erta bosqichi; 3-tog'ay taraqqiyetining kechmoq bosqichi; 4-taraqqiy qilayotgan tog'ayning oralıq moddası.

Kam tabaqalangan tog'ayning hujayraaro moddasida xondromukoid va xondrit kislota hosil bo'ladi. Oksifil qismlar bilan birga bazofil qismlar vujuda keladi. Tog'ay yuqori (kuchli) tabaqalanib, qarigan qismlar oksifil bo'yalib, xondrin shar-lar paydo bo'ladi, tog'ayning turgorligi ortadi. Tog'ayning markaziy qismlarida moddalar almashinuvi qiyinlashadi, distrofiya yuz berib, bunday qismlar o'la boshlaydi. Bu joylariga qon tomir-lar o'sib kirib, tog'ayning oziqlanishi yaxshi-lanadi va ko'pchilik hollarda tog'ay suyakka aylanadi.

69-rasm. Sut emizavchilar tog'yu to'qima-sining histogenetida hujayalar ultrastrukturnasida navbatma-yashat yuz beradigan o'zgarishlar (Kodman va

Porter bo'yicha):

- 1-plastinkali kompleks;
- 2-erkin ribosomlar;
- 3-granulyar sityoplazmatik to';
- 4-sityoplazmatik makromolckular chiqashidagi joylardagi zibdashgan qismlari;
- 5-kollagen tolalar;
- 6-glikogen to'planadigan joy;
- 7-mitokondriyalar.




SUYAK TO'QIMA

Bu xil to'qima faqat umurtqalilarda uchrab, juda mustahkum, hujayrsaro moddasining mineralizatsiya darajasi yuqori, tuyanch vazifasini bajarish bilan birga mineral moddalar almashinuvida katta ahamiyatga ega. Skeletda mineral tuzlar juda ko'p (suyak quruq og'irligining 65-70% miqdorida) to'planadi, jumladan, organizmdagi kalsiyning 97%igacha suyak to'qimadir.

Suyakdagagi kalsiy inert emas va moddalar almashinuvida uzhaksiz ishtirok qiladi. Suyak to'qima tuyanch-trofik to'qimalarga xos barcha vazifalarni amaliga oshiradi.

Ikki xil: plastinkali tuzilishga ega bo'lgan va dag'al tolali suyaklar mavjud. Oliy umurtqalilarning suyagi plastinkali tuzilgan suyakdir. Dag'al tolali suyak tuban umurtqalilar, embrion va yangi tug'ilgan hayvonlarda uchraydi (70-rasm).




70-rasm. Oq sichtiqon panjarsimon suyagining suyak plastinkasi. Suyak hujayralari va hujayralararo mudda ko'rsenoqqa.



71-rasm. Osteotit elektronogrammasi (16.000 kat.); 1-o'zak; 2-osteotsitning o'simtlari; 3-osteotsiti o'rabi nizavchi, obaklangan asosiy modda; 4-cytoplazmamning affinimembranasi; 5-heparita osteotsiga yondashib turadigan, obuklarmagan asosiy modda (Dallye va Spirova bo'yicha).

to qima suyuqligi oquvchi suyak kanalchalarini paydo bo'ladi. Osteotsitlar va suyak kanalchalarini qolgan hujayraaro moddadan farq qiluvechi polisaxarid modda, oqsil va juda ingichka kollagen fibrillalaridan tuzilgan yupqa kapsula bilan o'ralgan bo'ladi. Butun qolgan hujayraaro modda kollagen (ossein) tolalar, kam miqdorda amorf modda va kalsiy tuzlaridan iborat. Suya-kda kompakt (zich) va g'ovak moddalar farq qilinadi. G'ovak moddining suyak plastin-kalari (hujayraaro mod-daning o'ziga xos tu-zilgan strukturalari) turli tomonlarga yo'nalgan. Radioaktiv "nishon-langan" atom-larni qo'l-lab o'tkazilgan tekshiri-shlar suyakning bu qismida moddalar alma-shinuvida faol ishtirok qiluvchi labil fosfor ko'pligini ko'rsatdi.



72-rasm. Plastikali suyakning osteonlar sistemasini (kalsifitsiz-lantirilgan naysimon suyak ko'ndalang kesimining histopreparati):

- 1-osteon;
- 2-osteon kanali (qon toruflari bilan);
- 3-suyak bo'shibqlari, (laku-nalari);
- 4-suyak kanalchalarini;
- 5-oraliq plastiklar sistemasini;
- 6-rezorbshum (utashish) chiziq.

Kompakt moddada labil fosfor kam bo'lib, moddalar almashinuvida sus-troq qatnashadi. Bu moddaming o'zaro zinch tegib turuvchi plastinkalari o'ziga xos sistemular hosil qiladi.


Suyakning histologik tuzilishi. Suyak tashqi tomondan biriktiruvchi to'qimadan iborat parda - **periost** bilan o'ralgan. Unda kollagen tolalar, kambial bujayralar bor. Suyaklar bilan paylar tutashgan joylarda periost va suyak to'qima, aymiqsa,

mustahkam birikadi va suyakning yuza qatlamlariga kollagen tolalar-ning bog'lamchalari - teshib o'tuvchi tolalar o'sib kiradi. Periost ostida suyak plastinka-larining **tashqi umumiy (general) sistemasi** joylashadi. Bu sistemada suyak o'qiga nisbatan radial joylashgan, ancha keng, o'z plastinkalariga ega bo'lmagan teshib o'tuvechi kanallar, kanal-lar ichida esa qon tomirlari vu nervlar bor. Teshib o'tuvechi kanallar osteon kanullariga tuta-shadi va ularni o'zaro bog'laydi. **Osteon kanallari** osteoning markazida joylashadi. **Osteon** (72-rasm) bir-birining ichiga kirtilgan turli diametrda silindriar shaklidagi suyak plastinkalardan iborat. Osteonlar oralig'i **interstitzial (oraliq) sistema**lar to'ldirib turadi. Oraliq sistemalarga avval shu erda joylashib, ayni paytda qisman buzilgan yoki buzilayotgan osteonlar deb qaraladi.


Naysimon suyakning ichki bo'shiq'i tomondan osteonlar va oraliq sistemalarni ichki **umumiy (general) sistema** plastinkalari qoplab turadi. Ichki umumiy sistemadan keyin periosiga o'xshash parda - **endost** joylashadi (73-rasm).

Osteotsitlar suyak plastinkalari orasidagi bo'shilqlarda joylashib, suyak kanalchalari sistemasi osteoning hamma joyiga tarqalgan.

Suyak to'qimaning taraqqiyoti. Suyak to'g'ridan-to'g'ri mezenximidan hosil bo'lishi mumkin. Bunday suyaklar **birlamchi suyaklar** deylidi. Tog'ay o'mida hosil bo'lgan suyaklar esa **ikkilamchi suyaklardir**.



73-rasm. Naysimon suyak tuzilishining sxemasi:
1-ayakusti pardasi; 2-qon tomirlari; 3-suyak plastinkalarning tashqi umumiy sistemasi; 4-osteon; 5-oraliq sistema; 6-osteon kanali; 7-teshib o'tuvechi kanal; 8-kompakt suyak; 9-g'ovak suyak; 10-suyak plastinkalarning ichki umumiy sistemasi.



74-rasm. Plastinkali suyak:


A-suyakning zich (kompakt) moddasi; 1-snaskoti pardasi; 2-tashqi umumiy plastinkalar; 3-osteocellar; 4-omliq plastinkalar sistemasi; 5-ichki umumiy plastinkalar; 6-suyakning g'ovak moddasi; 6-suyakning surʼigi.

boʼladi. Togʼay esa qon tomirlariga ega boʼlimgani uchun maʼlum durajagacha oʼsa oladi, keyin esa degeneratsiyaga uchrab, suyak toʼqima bilan almashinadi.

Enxondral osteogenez (togʼayning ichidan boshlab suyak hosil boʼlishi (76-rasm), togʼay pardasiga qon tomirlari oʼsib kirib, kambial elementlarning moddalar almashinuvni yaxshilanishidan boshlanadi. Natijada kambial hujayralar osteoblastlarga tabaqalanadi va togʼayning diafiz qismi yangidan hosil boʼlgan dagʼal tolali suyakdan iborat suyak halqa bilan oʼraladi.

Suyakning mezenximadan taraqqiy qilishida (74-rasm) dastavval kollagen tolalarga boy, mayda va tez koʼpayuvchi hujayralarga ega toʼqima hosil boʼladi. Hujayralar fibroblastlarga oʼxhash, urchuqsimon yoki yulduzsimon shaklda, oʼsimtalar yordamida bir-biri bilan tutashgan. Bu hujayralar nisbatan yirikroq, oʼsimtali, donador, sitoplazzmasi asosiy boʼyoqlarga boʼyahuvgchi hujay-ralar - **osteoblastlarga** aylana-nadi. Submikroskopiya osteo-blastlarda granulyar sitoplazz-matik toʼming tarasqiy qilganligini koʼrsatadi (75-rasm). Keyinchalik suyak hujayraaro muddasining shakl-lanishi tamom boʼlgach, ular osteotsitlarga aylanadi. Hujay-raaro muddanining hosil boʼlishida osteoblastlar asosiy rolni bajaradi. Yangi hosil boʼlgan hujayraaro modda mukoproteoid va kollagen boʼlib, hali mineral tuzlarga ega emas. Bunday toʼqima osteoid toʼqima deyiladi. Keyinchalik fosfataza fermentining paydo boʼlishi va kaisiy tuzlari oʼtirib (choʼkib) qolishi natijasida dagʼal tolali suyak hosil boʼladi.

Togʼay oʼrnida suyak-ning taraqqiy qilishi. Bunday osteogenez togʼay toʼqimaning yemirilishi bilan boradi. Tananing tayanchga ehtiyoji zoʼr joylarida avval togʼay skelet hosil



75-rasm. Mezendirimalas suyak rivojishishi (Peterson bo'yicha):

a-suyakning yangi hosil bo'leyotgan hujaynemu moddas; b-osteoblastlar.

degeneratsiyaga uchrayotgan tog'ayga suyak halqa orqali qon tomirlari va ularni o'rub turgan biriktiruvchi to'qimaning kambial hujayralari o'sib kira-di. Bir qism o'sib kirgan hujayralar osteoklast (suyakni emiruvchi hujay-rajlarga, qolganlari osteoblastlarga aylanib, suyak moddasini hosil qilaboshlaydi.

Diafizda, keyinchalik epi-fiz-larda enxondral suyaklanish va birlamchi suyak iligining hosil bo'lishi boshlanadi. Enxondral suyaklanish davom etishi bilan, periost tomonidan suyak to'qimaning yangi-yangi qavatlari hosil bo'lishi - **periostal osteogenez** ham boshlanadi. Periostal suyak to'qima birlamchi osteonlarga ega bo'ladi. Osteonlar ikkilamchi yo'l bilan, ya'ni so'rilib ketgan eski suyak to'qima o'rniida ham hosil bo'lishi mumkin. Suyak halqasi va enxondral suyakning g'ovak moddasi tashqi tomon dan kompakt periostal, ya'ni periostdan hosil bo'luvchi suyak qavati bilan qoplanadi. Suyakning bo'yiga o'sishi tog'aydan iborat o'sish plastinkasi (epifizar tog'ay - yoki metaepifizar tog'ay) hisobiga boradi. O'suvchi


Tog'ay hujayralarining ko'puishi, tog'ayning suyak halqa mavjudligi uchun eniga o'sa olmasligi hujayralarning qator bo'lib, tog'ay ustunchalari holida joylashishiga olib keladi. Keyin esa diafiz qisimda degeneratsiya jarayonlari yuz berishi, hujayralarning sitoplazmasida fosfataza fermenti psydro bo'lishi mineral tuzlar o'tirib (cho'kib) qolishiga olib keladi. Suyak halqa tez o'sib degeneratsiyaga uchrayotgan tog'ayning mustahkamligini ta'minlaydi va uni sinishdan saqlaydi (77-rasm).

Navbatdag'i bosqichda



76-rasm. A-yorung'lik mikroskopida ko'n-nishi: 1-elektron mikroskopda ko'n-nishi; 1-o'zak; 2-sitoplazma; 3-granulyar sitoplazmatik to'ning turappiyoti; 4-osteosid; 5-suyak to'qimaning mineral-lashgan moddas.

(yosh) organizmlarda suyaklarning metafizar va epifizar qismalari orasida metacapifizar tog'ay yoki o'sish plastinkasi saqlanib qoladi.



77-rasm. Sut emtuvchilarda suyak to'qimaning periondral va enxondral yo'llar bilan hosil bo'lishi (Baxter bo'yicha):

A-periostal suyak: halqning hosil bo'ishi; b-enxondral suyak: bo'linming boshlanishi; 1-tog' suyak: 2-perixondral suyak; 3-hujayraaro moddasi oboklashtgan, pofakechali. Impregnatsiya ega tog'ay; 4-epifizing gatim tog'ayi; 5-tog' ny hujayraaro ustunche; 6-pofakechali hujayraalgasi ega tog'ay; 7-enxondral suyak; 8-birhanchi suyak ilgi; 9-perixondral suyak; 10-octeoblastlar.

Suyakning yemirilib va yangidan hosil bo'lib turishi hayvonning butun umri davomida yuz beradi. Enxondral suyak butunlay yo'qolib, uning o'rniда suyak kanali hosil bo'ladi. Sodda tuzilishga ega (primitiv) dag'al tolali suyak yo'qolib ketadi, shu bilan bir vaqtida suyak to'qimaning yangidan hosil bo'lishi boradi. Osteoklastlar suyak to'qimaning qarib, keraksiz bo'lib qolgan qismlarining yemirilishi va so'rilib ketishini ta'minlaydi. Hosil bo'luchchi bo'shiqliar (lakunlariga qon torimlari va ular bilan birga, kam tabaqalangan biriktiruvchi to'qima elementlari o'sib kiradi. Osteoblastlar hosil bo'lib, hujayraaro modda sintezlana boshlaydi. Vaqt-vaqt bilan hujayraaro modda bosil bo'ladi. Hosil bo'layotgan suyak plastinkalarining eng yoshi ichkarida - osteon kanali atrofida, eng qarisi (eskisi) tashqarida joylashadi.

Suyak to'qimaning regeneratsiyasi (tiklanishi) periost hisobiga yuz beradi. Vaqtincha hosil bo'lib, suyak sinqlarini birlashtirib turuvchi regeneratsion to'qima va o'lgan suyak sinqlari keyinchalik so'rilib ketadi.

Shunday qilib, biriktiruvchi to'qimalarni o'rjanish paytida ularning turli xillari orasida juda ko'p umumiylilar borligini ko'rdik. Qon va limfa endoteliy hamda retikulyar to'qima bilan juda yaqin. Bu to'qimalarning elementlari biriktiruvchi tolador to'qimalar tarkibiga kiradi, biriktiruvchi tolador to'qima esa (perixondriy, periost) tog'ay va suyak to'qimalarga aylana oladi.

MUSKUL TO'QIMALAR


Muskul to'qimalar qisqarishga ixtisoslashgan bo'lib, hujayralari yoki tolalari maxsus ipchalar (**miofilamentlar, mioprotofibrillalar**) borligi bilan xarakterlanadi. Bu ipchalar tolador tuzilishga ega bo'lган aktin va miozin oqsillari molekulalaridan iberat. Bu ipchalardan murakkabroq, qisqaruvchi tuzilmalar - **miofibrillalar** shakllansadi. Muskul to'qimalarda ko'p miqdorda issiqlik ham hosil bo'ldi.

Oliy hayvonlar organizmida silliq va ko'ndalang-targ'il muskul-lar mavjud. Ko'ndalang-targ'il muskullar skelet va yurak muskullariga, yurak muskuli o'z navbatida ishchi (qisqaruvchi) va o'tkazuvchi muskul tolalariga bo'limadi. Shuningdek, ixtisoslashgan qisqaruvchi to'qimalar - mioepiteliotitsitlar, ko'z kamalak pardasining miopigmentotsitlari va ko'z qorachig'ini kengaytiruvchi muskul to'qimalari ham farq qilinadi.

Embrional taraqqiyot paytda silliq muskullar mezenximadan, ko'ndalang-targ'il muskullar mezodermuning miotomlaridan, yurak muskuli esa splanxnotomdan hosil-bo'luchvi mioepikardil plastinkadan taraqqiy qiladi.


SILLIQ MUSKUL TO'QIMA

Silliq muskul to'qimanı organizmida uchrash joylariga ko'ra, ichki organlar muskuli ham deyiladi. Bu to'qima qon tomirlari va ichki organlar devorida uchraydi. Silliq muskulning struktur elementi duksimon shakliga ega miotsittir (78-rasm).



78-rasm. Silliq muskul hujayratalari:

A-ajrasigan; B-unusiga kesilgan (1-o'sak; 2-fibroblastning o'zag; 3-birikinuvchi yumsheq (o'qima). B-ko'ndalang kesimi (1-o'sak, 2-sitoplazma; 3-birikiruvchi io'qima, 4-fibroblastning o'zag; 5-kapillyar; 6-arteriya)



79-rasm. Silliq muskul hujayralarining elektronogrammasi:

A-1-o'zak: 2-sitoplazma; 3-mitokondriyalar; 4-plastinkali kompleks; 5-angiplazmatik to'r; 6-yo'g'on miofilamentlar; 7-plazmolemma (22000 marta kat.). 5-8-ingichka miofilamentlar (9000 marta kat.) A-9-ribosomalar; 10-granulyar sitoplazmennik to'r (46000 marta katal.). Serifikalar hilan pustitosh pufak-chalar ko'rsatilgan.

muskul hujayrasida haqiqiy mio-fibrillalarga umumlashmaydi. Odadagi plazmolemmadan tashqari hujayra yupqa bazal membrana bilan o'ralgan bo'lib, bu membranaga argi-rofil toslolar tutashib turadi. Ayrim hollarda muskul hujayralar bir-biriga zinch tegib turib, orada bazal membrana bo'lmaydi, ular orasida desmosomaga o'xshash tutashtiruvchi apparat hosil bo'ladi.

Silliq muskul to'qima hujayralari bir yo'nali shda bir-biri orasiga suqlib kirib joylashadi, qalin qavat hosil qilib, ancha katta kuch bilan qisqara


Hujayraning ko'ndalang kesimi 10 mikrom dan oshmagani holda uzunligi 20-500 mikrom bo'ladi. Tayoqchasimon o'zagi hujayraning kengaygan o'rta qismida joylashib, unda 1-2 ta o'zakcha va mayda donachalar holidagi xromatin ko'rindi. Mitokondriyalar va plastinkali kompleks o'zak qutblari astrofida to'plangan. Sitoplazmada hujayraning bo'yiga qarab joylashgan, sitoplazmaga bilinarbilinmas uzunasiga chiziqlilik berib turadigan ko'pdan-ko'p miofilamentlar mayjud. Ular bir tekis konturga ega bo'lib, hech qanday ko'ndalang chiziqlilik belgilariiga ega emas. "Silliq muskul" iborasi ham shunga ko'ra qo'lla-niladi. Miozin (yo'g'onligi 17 nm), aktin (7 nm) va oraliq (10 nm) miofilamentlar farq qilinadi (78-79-rasmlar).

Miofilamentlar siliq

oladi. Siliq muskul to'qi-mada har doim qon tomirlari, nerv va biriktiruvchi to'qima elementlari mavjud (80-rasm).

Siliq muskul to'qima vegetativ nerv sistemasi bilan boshqarilib, uning qisqarishi xtiiyoriy emas.

Siliq muskul to'qi-maning taraqqiyoti. Embrional taraqqiyot davrida tez ko'payayot-gan mezenximal hujay-ralar sitoplazmasida miofilamentlar paydo bo'lishi tabaqalanish-ning boshlanish bel-gisidir. Lekin hali ularning soni kam va ma'lum orientatsiya (hu-jayra bo'yiga qarab joylanish)ga ega emas. Keyinchalik hujayralar duksimon shaklini olib, o'simtalarini yo'qotadi, miofilamentlar esa hujayra bo'yiga qarab joylashadi. Voyaga yetgan organizmnda ham miotsitlarning yangidan hosil bo'lishi kuzatiladi (bo'g'ozlik davrida bacha-don devorida, kollateral qon tomirlarining yanidan hosil bo'lishida). Bunda biriktiruvchi yumshoq to'qimaning kambial elementlari (miosfibroblastlar) ma'lum ahamiyatga ega. Siliq muskulda doimiy ravishda fiziologik regeneratsiya, tegishli sharoitlarda (masalan, shikastlanishdan keyin) reparativ regeneratsiya kuzatiladi.



80-rasm. Siliq muskul qavatining

tuzilish xenesi:

1-muskul to'qima hujaynisi; 2-o'zik; 3-
miofilamentlar; 4-sarkolemma; 5-
endomiziy; 6-nerv; 7-qon kapillyari.


Miotsitlarning amitoz bo'linishi ancha ko'p uchraydi, shuningdek ularning mitoz yo'li bilan bo'linaolishi to'g'risida ham ma'lumotlar bor.

KO'NDALANG-TARG'IL MUSKUL TO'QIMA

Ko'ndalang-targ'il muskul to'qimaning struktur birligi **muskul to-lasi** (80-rasm) bo'lib, u mikroskopning kichik obyektlari yordamida ham ko'rindigan ko'ndalang chiziqlilikka ega. Muskul tolesi tuzilishiga ko'ra **simplastdir**. Tolaning diametri 100 mkm gacha, uzunligi 12,5 sm ga yetishi mumkin. Miosimplastning shakli silindirga o'xshash bo'lib, uchi yumaloqlangan. U umumiy vazifani bajarish uchun birlashgan ko'plab hujayralarning maxsus, murakkab tuzilishga ega bo'lgan yig'indisidir. Tolada qobiq - **sarkolemma** (*sarcos* - go'sht, muskul), sitoplazma (**sarkoplazma**), organellalar va ko'plab o'zaklar mavjud. Shuningdek, sarkoplazma miosibrilla-larga umumlashgan qisqaruvchi ipchalar saqlaydi.

Sarkolemmani elektron mikroskop yorda-mida tekshirilganda u ikki qavatdan iborat bo'lib, qavatlar orasi-da kengligi 14-24 nm keladigan bo'shilq borligi ko'rindi. Ichki varaq miosim-plastning plazmolem-masi bo'lib, tashqi varaq bazal membra-nadir. Bu yerda ham basal membrananga argirofil tolalar birik-kan. Sarkolemma ichki varaq'ning aso-siy xususiyati qo'z-g'alishni butun tolaga tarqata olish qobiliya-tidir. Bu varaq **T-naychalar** (*transver-sus-* ko'ndalang) holida telami kesib o'tib, qarama-qarshi tomon plazmolemmasiga tutashadi. Qo'shi T-naychalarining oraliqlari bir-biriga teng. Bunday naychalar sistemasi butun sarkoplazmaga tarqagan va qo'zg'alishni butun tola bo'ylab tez tarqalishini ta'minlaydi.


O'zaklar miosibrillalar tomonidan periferiyaga - sarkolemma ostiga surib qo'yilgan. O'zaklar ayrim hollarda juft-juft bo'lib, yoki uzun zanjir



81-rasm. Ko'ndalang-targ'il skelet muskul to'qimasini (yurug'lik mikroskopida ko'rinishi): A-uzunligiga kesimi; B-ko'ndalang kesimi; 1-muskul tolesining o'zagi; 2-miosibrillalar; 3-perimiyuning birkiitingchi to'qimas; 4-yog' hujayralari; 5-qon tumri; 6-anizotrop disk; 7-izotrop disk; B-muskul tolalarining qon tomirlari.

hosil qilib joylashadi va bu amitoz bo'linishning natijasidir. Oval shakldagi o'zaklar mayda donachalar holidagi xromatin saqlaydi.

Sarkoplazma o'zaklar va qisqaruvchi moddalar oraliq ini to'ldirib turadi. Miofibrillalar va sarkoplazma o'rtaida teskari miqdoriy nisbat mavjud: sarkoplazma ko'p muskullarda miofibrillalar kam va aksincha. Tolasida sarkoplazma ko'p muskullar uzoq vaqt charchamasdan ishlaydi, lekin kuchsizroq qisqaradi, miofibrillalari ko'p muskullar katta kuch bilan qisqaradi, lekin tez charchaydi. Sarkoplazmasi ko'p tolalar qizil, miofibrillalari ko'plari oq tolalar deyiladi. Chunki qizil tolalarda mioglobin ko'p




82-rasm. Ko'ndalang-targ'il skelet muskul
to'qimasi miofibrillalarning tuzilishi:

A-anzotrop disk; I-izotrop disk; Z-zhiziq
(tidefragma); M-M-chiziq (mezonema) (Xaksli
bo'yicha). Elektron mikrofotografiya

bo'ladi. Shuningdek, oraliq tipdag'i tolalar ham farq qilinadi. Sarkoplazmada sarkosomalar (miomitondriyalar), sarkoplazmatik to'r va plastinkali kompleks mavjud. Miofibrillalar ko'ndalang-targ'il muskul tolasida ayrim hollarda bir tekis tarqalib, boshqa bir xil muskullarda esa miofibrillyar maydon-chalar holida joylashadi. Buni tolalarning ko'ndalang kesimida kuzatish mumkin. Miofibrilla murakkab ichki tuzilishga ega. (81-82-rasmilar). Ularning diametri 1-2 mkm, aktin va miozin filamentlar esa ancha ingichka. Miofibrillaning yo'g'onroq miozin filamentlaridan iborat qismi mikroskopda optik anizotrop (A-disk), ingichkaror aktin filamentlari dan iborat qismi izotrop (I-disk)

bo'lib ko'rindi. Miozin filamentlari o'rta qismida yo'g'onishgani uchun A-disk o'rtaidan chiziqcha - **mezofragma** (M-chiziqcha-mesos-o'rta; phragma-to siq) bilan bo'lingan bo'lib ko'rindi. Miofibrillada A- va I-disklar navbatma-navbat tartib bilan joylashadi. Muskul tolasi ichidagi bir miofibrillaning A-disklari boshqa miofibrillalarning A-disklari qarshisida, I-disklari esa boshqa miofibrillalarning xuddi shunday I-disklari qarshisida joylashgani uchun, u ko'ndalang chiziqli bo'lib ko'rindi. I-disklarning

o'rta qismida **telofragma** (*telos-chekka*) yoki **Z-chiziqcha** joylashadi. Miofibrillaning qo'shni joylashgan Z-chiziqchalar oralig' idagi qismi **sarkomer**




83-rasm. Ke'ndalang-targ'il muskul
to'qima sarkomerining bir qismi:
1-yo'g'on miofilamentlar; 2-ko'n-alang
ko'prikhalar, A-A-diskning 0,5 qismi, 3-
ingichka miofilamentlar; 4-I-disk ning 0,5
qismi; H-faqat yo'g'on miofilamentlardan
iborat qism (Xaksli bo'yicha).

Muskul tolani o'rovchi sarkolemma bilan tutashgan biriktiruvchi to'qima

(83-rasm) deyiladi. Binobarin, Z-chiziqcha ikki qo'shni segment (sarkomer)ni tutashtirib turuvchi chegaradir. U mukopolisaxaridlarga boyligi uchun desmosomalarga o'xshash va unga ikki tomondan aktin filamentlari kelib tutashadi. Sarkomer o'rtasida M-chiziqcha bilan ikkiga bo'lingan A-disk, bu diskning chetlarida esa I-disklarning yarimlari joylashadi. Muskul tola qisqarganda A-disklarda ikkita zona farq qilinadi: M-chiziqchaning ikki yonidagi yorug'roq va A-disklarning chetidagi qoramtilroq zonalar. Yorug'roq zona H, qoramtilroq zona **O-zonalar** deb belgilanadi. O-zonaning qoram-tirroq bo'lishi buyerde aktin va miozin filamentlarining bir-biri oralig'iga suqilib kirishi, H-zona esa faqat miozin filamentlari joylashgan zona ekanligi bilan bog'liq. Muskul tolesi kuchli qisqarganda H-zonalar torayadi, hatto I-disklar yo'qolib, miofibrilla butunlay anizotrop bo'lib qolishi mumkin. **Qisqarish tugunlari** shu yo'l bilan hosil bo'ladi. Miofibrillalar va muskul tolesi qisqarganda miozin va aktin filamentlari o'z konfiguratsiyasini o'zgartirmaydi, balki o'zaro bir-biriga nisbatan joylanishini o'zgartiradi (84-rasm). Bunda sarkoplazmatik to'r, sarkolem-maning T-sistemasi, ATP va Ca^{2+} ionlari katta ahamiyatga ega.

Muskul tolalarining uchlari paylarga borib tutashadi. Bu joylarda tola pay ichiga kirib turuvchi barmoqsimon bo'rtiklar hosil qiladi.

tolalari (argirofil fibrillalar) pay bilan mustahkam birikishga yordam beradi. Muskul tolalarini o'rab turuvchi biriktiruvchi yumshoq to'qimaning yupqa qatlamlari **endomiziy** deb ataldi. Uning tolalari surkolemmaga tutashdi. Muskul tolalarining tutam (bog'lamcha)larini xuddi shunday to'qimadan iborat **perimiziy** o'raydi. Butun muskulni tashqi tomondan o'rovchi biriktiruvchi to'qima **epimiziy** deyiladi. Qon va limfa tomirlari hamda kapillyarlar ana shu biriktiruvchi to'qima orqali muskulga kirib boradi. Muskul tolalariga afferent (sezuvchi) va efferent (harakatlaniruvchi) nerv tolalari borib tutashdi.



84-rasm. Kondlang-targ'il muskulning sarkomeri qisqargan (II) va bo'shashgan (I) holida:
1-ingichka miofilamentlar; 2-yo'g'on miofilamentlar; 3-ikki xil miofila-mentlar bir-biri oxlig'iga kirib uradigan qism.

KO'NDALANG-TARG'IL MUSKUL TO'QIMANING TARAQQIYOTI VA REGENERATSIYASI

Embrional taraqqiyot davrida ko'ndalang-targ'il muskul to'qima miotomlardan taraqqiy qiladi. Inkubatsiyaning 5-6 kunlarida tovuq embrionning miotomlaridagi hujayralar **mioblastlar** holida bo'ladi. Mioblastlar (85-rasm) uzunasiga qator bo'lib joylashadi. Ularning sitoplazmasida muskul to'qimasiga xos oqsillar paydo bo'lganligini ko'rsatuvchi nozik tolador tuzilish mavjud, glikogen uchraydi. Eng muhim, bu hujayralar qis-

qara oladi. Tez ko'payuvchi mioblastlar atrofdagi mezenximaga, bo'lajak muskullar o'tmiga ko'cha boshlaydi. Ular guruhlar holida ko'chib, sitoplazmasida ham ko'p sonli bo'lgan miosimplastlar aniqroq ko'rina boshlaydi. Miosimplastlar ikki yo'l bilan: 1) sitoplazmaning bo'linishdan to'xtashi, o'zaklarning esa tez bo'linishi; 2) mioblastlarning o'zaro qo'shilishi natijasida hosil bo'lishi mumkin.



85-rasm. Miotomlardan ko'chayotgan hujaynalar oqimidagi tabaqahemoytagan mioblastlar.

Navbatdagi fazada miosimplastlarning periferik qismida miosifbrillalar tabaqalana boshlaydi, markazda esa o'zaklar va sarkoplazma joylashadi. Bu muskul **nay-chalar fazarasi** (86-rasm). Bu naychalar uzzunasiiga parcha-lanib-bo'linib ko'payishda davom etadi. Oxirgi faza muskul tolasining shakllanish fazasi bo'lib, bu paytda miosifbrillalarning soni ortadi, o'zaklar periferiyaga, sarkolemma ostiga siliydi. Muskul tohalari orasiga o'sib kiruvechi biriktiruvchi to'qima endomiziyini hosil qiladi. Endomiziyda qon tomirlari joylashadi. Muskul tohalari endomiziy vosisasida bir-butun kompleksga umumlashadi. Soddarоq tuzilgan yosh muskul tohalari endomiziy hosil bo'layotgan paytda bo'linib, o'ziga xos "izogen guruhlar" hosil qilishi mumkin.

Miotomlarning ikkinchi xil hujaynalar boshqa yo'nalishda tabaqalaniib, **miosatellitotsitlarga** aylanadi. Miosatellitotsitlar miosimplast yuzasiga yopishib turadi va ularning plazmolemmalari bir-biri bilan kontaktda bo'ladi. Bir miosimplast yuzasida ko'plab bunday hujayralar yotadi. Miosatellitotsit bir o'zakli, mofibrillalari yo'q, organellalari o'zak atrofida joylashgan hujayradir. Ular muskul to'qimaning kambial elementlari hisoblanadi.

Muskul to'qimaning taraqqiyoti organizmning butun umri davomida to'xtamaydi va o'zgaruvchan sharoitlarga moslashib turadi. Muskul tolalari uzayishi va yo'g'onlashishi mumkin, bu jarayon asosida gipertrofiya yotadi.

Regeneratsiya paytida yallig'lanish, degeneratsiya va boshqa sabbarga ko'ra, tiklanish ko'pincha to'liq bo'lmaydi. Hosil bo'lgan defekt biriktiruvechi to'qima bilan to'ladi. Lekin ma'lum sharoitlarda to'liq regeneratsiya ham kuzatilishi mumkin. Shikustlanishdan keyin zararlangan muskul tolasidan sarkoplazma va ko'plab o'zaklardan iborat muskul kurtaklar o'sib chiqadi va undagi o'zaklar amitoy yo'li bilan bo'lna boshlaydi. Keyin muskul kurtakdan mioblastlar ajraladi. Zararlangan tola makrofaglar ishtirokida yemiriladi. Tiklanishning bundan keyingi fazalari ko'p jihatdan normal gistogramczni eslatadi.


YURAK MUSKULI

Bu muskul charchamasdan, ritmik ravishda organizmaing butun umri davomida qisqara oladi. Yurak miokardi ma'lum darajada avtomatizmiga ega. Qorinchalar va bo'lmachalar bir vaqtida qisqarmaydi, lekin ularning qisqarishi o'zaro mos bo'ladi.

Ammo yurak avtomatizmiga qaramasdan uning ishini regulyatsiya qilishda nerv sistemasi katta ahamiyatga ega.

Yurak muskulida ikki xil: qisqaruvchi (ishchi) va o'tka-zuvchi (atipik) tolalar farq qilinadi.

Optik mikroskop yorda-mida yurak muskulini (87-rasm) miosimplastlar (tolalar) dan tashkil topgan-dek bo'lib ko'rindi. Bu tolalar proto-plazmatik ko'rikchalar yordamida o'zaro anasto-mozlar bosil qildi. Tolalar orasida qon




86-rasm. Skelet muskul to'qimasi embriogenezining asosiy bezbighichlari:

a-semitning hijayzlam (1-myotom; 2-dermotom); 3-myoblastlar; 4-myosinplastlar; 5-promotor; 6-myotube (muskul naychi); 7-ohali yetilmagan muskul tola; 8-yetuk muskul tola; 9-sarikinuvchi to'qima hijayzasi; 10-11- bosbighichlar uznisiga va ko'ndatlang kesus-larda ko'rsitilgan.

tomirulari va nervlarga boy biriktiruvchi yumshoq to'qima joylashadi. Yurak muskulining tolalari sarkoplazmaga boy, sarkoplazmada glikogen va sarkosomalar ko'p, miofibrillalar esa kam. O'zaklar tolaning o'rta qismida, miofibrillalar bog'lamcha (tutamcha)lar holida periferiyada joylashadi. Miofibrillarning kamligi oqibatida ko'ndalang chiziqlilik kuchsizroq, uzunasiga chiziqlilik esa keskin ifodalangan. Yurak muskuli tolalarining diametri 10-20 mkm bo'lib, ular funksional tolalar deb ham ataladi.


Elektron mikroskopiya yurak muskulining tuzilishi to'g'risidagi tasavvurlarni ancha chuqurlashtirdi va ravshanlashtirdi. Yurak muskulining tolasi simplast bo'lmasdan,



R7-rasm. Yurak muskul to'qimasi (A-uzumasiga va B-ko'ndalengiga kesimlari):
1-o'zak, 2-hujayra siplazmasi; 3-eraliq
plastinka, 4-biriktinuvchi yumshoq to'qima.

Balki bir o'zakli muskul hujayralari - kardiomiotsitlarning ketma-ket joylashgan zanjiridir. Yonma-yon (ketma-ket) joylashgan kardiomiotsitlarning o'zaro birikishi desmosomalarga o'xshab ketadigan maxsus tuzilmalar yordamida smalga oshadi. Hujayralarning chegaralari topografik jihatdan mukopolisaxaridlarga boy chiziqchalarga to'g'ri keladi. Bu chegara sarkolemmanning ichki qavati, ya'ni plazmolemma bilan belgilanadi. Bu joylarda plazmolemmaga miofilamentlar kelib tutashadi (87-rasm). Hayvon qarishi bilan kardiomiotsitlarning chegarasi qalintashib, oraliq chiziqchalarga aylanadi va bularni yorug'lik mikroskopi yordamida ko'rish mumkin. To'qimalar kulturasida ikki hujayra bir-biridan oraliq chiziqcha bilan ajral-

gan va turli tezlikda qisqarishini ko'rish mungkin. Ba'zi bir patologik jayayralarning shishishi (ko'pchishi), lipidlarning ajralishi ayrim hujayralarda yuz berib, qo'shni hujayraga o'tmaydi. Bular yurak muskuli tolasining ayrim-ayrim hujayralar zanjiri etsanligini tasdiqlaydi. **Yurakning o'tkazuvchi muskulaturasi** och rangdagi va noto'-g'ri konturi bilan ajralib turuvchi to'lalardir (89-rasm).




89-rasm. Yurak muskulining peg'onaliq oraliq plastinka zonasida fuzilish xemasi (elektronqrazzimga asoslangan):

C-sarkolemma; M-mitochondriyalar; Mo—myofibrillar; 1-hujayra qobiq'ning zinchashgan joyi; 2-myofibrillarlarning plazmolenunaga tutashgan uchi; Z-Z-shingchi.

Tolalarning kengaygan qismiariда о'зак (ko'pincha juft) joylashadi. Ishchi muskul tola-lariga nisbatan ati-pik tolalar ancha yo'g'on. Tolada miofibrillalar kam, T-naychalar siste-masi deyarli yo'q. Sarkoplazma va glikogen qisqaruvchi tolalardagidan ham ko'proq, lekin sarkosomalar kam. Tolalar kislородни карн исхлатиб, anaе-роб оксидланиш би-лан ғаноатинади.

Yurak muskulining defekti ko'pincha biriktiruvchi тоqi-ma bilan то'ladi, chunki бу то'qimaning regeneratsiyasi muskul то'qimanikidan tez boradi. Bunday reaksiya hayotiy muhim organ — yurakda katta аhamiyatga ega. Embrional taraqqiyot paytidagi yurak muskuli yurak kurtagini

qoplovchi mezoderma - mioepikardial plastinkadan bosil bo'ldi.



89-rasm. Buqu yuragi muskul to'qimasining

o'tkazuvchi hujayralari:

1-o'zak; 2-siroplazma; 3-miofibrillalar;
4-biekitiruvchi yumshoq to'qima; 5-ishchi muskulatura.

NERV TO'QIMASI

Nerv to'qimasi organizmdagi to'qimalarning biri bo'lib, nerv sistemasining morfologik asosini tashkil qiladi. Nerv sistemasi organizmning ichki va atrof-muhitdan turli ta'sirotlarni juda aniq qabul qilib oladi va bu ta'sirotlarga organizm qaytaradigan javob reaksiyalarni ta'minlaydi. Boshqacha aytganda, bu sistema organizmning atrof-muhit bilan doimiy aloqasini va ko'p hujayrali murakkab organizmning bir-butunligini amalga oshiradi.

Organizmning atrof-muhit bilan bir-butunligining mohiyati hayotiy jarayonlarning asosini tashkil etadigan moddalar almashinuvdir. Atrof-muhit doimo o'zgarishda bo'lib, bu o'zgarishlar organizmda yuz beradigan moddalar almashinuviga jarayoniga ta'sir qiladi. Organizmning ana shu o'zgaruvechan muhitga moslashuv (*adaptatsiya*) qobiliyati nerv sistemasi bilan bog'liq.

Nerv to'qimasi tirik materiyaning oliy, eng mukammal tuzilishga ega bo'lgan shakhidir. Nerv to'qimasi ("miya moddasi") million yillar davomida taraqqiy qilib, shunday mukammal tuzilish va vazifaga ega bo'lganchi, inson miyasi vositasida atrof-muhitni bilish qobiliyatiga egadir. Faqat atrof-muhitning emas, balki materialist faylasuflarning iborasi bilan aytganda, materiya (inson miyasi) o'z-o'zini bilishga qodirdir.

Nerv sistemasining faoliyati ixtiyoriy bo'lmay, balki tashqi muhitdagi o'zgarishlarni va organizm ichki organlarining holatini aks etirishdan iborat. Bu faoliyat asosida **refleks** yotadi. Refleks ta'sirotni nerv hujayrasи qabul qilib olishidan to bu ta'sirotni tegishli javob qaytarilguncha nerv sistemasida yuz beradigan jarayonlardir. Refleks organizmning tashqi muhit ta'sirotlariga, albatta markaziy nerv sistemasi ishtirokida beradigan javobidir.


Nerv to'qimasi organizmning doimiy o'zgarib turadigan atrof-muhitga moslashuvini ta'minlash bilan birga, o'zi ham kuchli ifodalangan moslashuv, yangi-yangi reflekslar hosil qilish va tuzilishini o'zgartirish qobiliyatiga ega. Nerv to'qima atrof-muhitning doimiy o'zgarishlariga muvofiq holda o'zgarishlarga uchraydigan to'qimadir.

Nerv to'qimasi spetsifik funksiyalarni bajaradigan **nevrotsitlar** va ular bilan bog'langan, tayanch, trofik, sekretor hamda himoya vazifalarni o'taydigan **gliotsitlardan** iborat. Nerv to'qimasining barcha elementlari organizmning morfo-funksional jihatdan bir butun bo'lgan **nerv sistemasini** hosil qiladi.

Nevrotsit (nerv hujayrasи, nevron yoki nevronning (90-rasm) xarakterli xususiyati, uning bir yoki bir necha o'simtaga ega ekanligidir. Yetuk nerv hujayrasini o'simtalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi, chunki o'simtasiz

nevrotsit o'zining asosiy vazifasini bajara olmas edi. O'simtalari soniga qarab nevrotstilar **unipolyar** (bir qutbli yoki o'simtali), **bipolyar** (ikki o'simtali) va **multipolyar** (ko'p o'simtali) bo'ladi.

Unipolyar nevrotsit oliv hayvonlar tanasida kamdan-kam uchrab, ko'philik hollarda bu yosh va kam tabaqalangan bo'ladi. Bunday hujayraning shakli noksimon bo'lib, o'tkirlashgan qutbidan nerv impulsini sellyulifugal (hujayra tanasidan chetga - o'simta uchiga tomon) o'tkazuvchi o'simta - neyrit (**akson**) chiqadi. Ko'pincha **pseudounipolyar** (yoq' on bir o'simtali) nevrotstilar uchraydi. Bunday hujayraning o'simtasi bir qutbdan chiqib, hujayra yaqinida ikkiga bo'linadi.



90-rasm. Nerv hujayralari:

A-unipolyar nevrotsit; B-bipolyar nevrotsit; C-multipolyar nevrotsit; 1 - neyrit; 2 - dendrit.

faqat bitta, **dendrit** (*dendron* - daraxt) daraxtsimon shoxlanuvchi o'simta, u bitta yoki ko'p bo'lishi mumkin. Neyrit va dendritlar yo'l-yo'lakay yon shoxchalar ajratib, asta-sekin ingichkalashadi va nerv oxirlari (**terminali**ri)ga aylanadi. Eng ingichka va oxirgi nerv tolalari **telodendriyalar**

Bipolyar nevrotsit odatda duksimon shaklda bo'lib, uning qarama-qarshi qutblardan ikki o'simta chiqadi. Ularning biri neyrit, boshqasi **dendritdir**. Dendrit nerv impulsini sellyulipetal (o'simta uchidan hujayra tanasiga tomon) o'tkazadi. Nerv impulsi ko'pincha dendrit plazmolemmasida hosil bo'lgani uchun neyrofiziologlar dendritni "**impulslar generatori**" deb ataydilar. Nevrotstilarning aksariyat ko'philiyi **multipolyardir**. O'simtalarning biri neyrit, qolganlari esa dendritlar hisoblanadi.

Akson (*axon*, *axis-o'q*) kam tarmoqlanadigan o'simta bo'lib, u nevrotstilarda

deyiladi.

Shunday qilib, nevrotsit tana qism va o'simtalardan iborat. Uning qobig'i **nevrolemma**, sitoplazmasi **nevroplazma** deb ataladi. Nevrolemma nerv impulsini o'tkazishga moslashgan. Nevroplazmaning o'zak atrofidiagi qismi **perikarion** deb nomlangan.

Nevrotsitlarning kattaligi 4-130 mikrom bo'lgani holda, ularning o'simtalari juda uzun - 1,5 metrgacha bo'lishi mumkin. Nevroplazmaning neyriddagi miqdori ayrim hollarda perikariondagi nevroplazmada minglab marta ko'p bo'ladi. Radioaktiv atomlar qo'llab belgilash yo'li bilan o'tkazilgan tekshirishlar oqsillar dendritlarda va perikarionda sintezlanishini ko'rsatdi.

Nevrotsitning yirik va xromatinga boy bo'lmasligi o'zagi ochroq bo'yadidi. O'zak-cha yaxshi ko'rindi, ayrim hollarda ikkita va undan ko'p bo'lishi mumkin. Urg'ochi jinsdag'i sut emi-zuvchilarda jinsiy xromatin ("qo'shi-mcha o'zakcha") uchraydi. Hujayra tanasi va dendritlarning nevroplazmasida xromatofil sub-stansiya (bazofil modda yoki Nissl moddası) (91-rasm) bo'lib, u neyridda uchramaydi. Odamda bu modda yirik-yi

rik parcha-lar, ayrim hollarda mayda donachalar shaklida bo'ladi. Xromatofil modda-ning ko'rinishi, miqdori va joylashishi nevrot-sitning fiziologik holatiga ko'ra o'zgarib turadi. Masalan, neyrin shikastlansa 1-2 haftada u yo'qolib ketishi mumkin. Elektron mikroskopik tekshirishlar xromatofil modda kuchli taraqqiy qilgan sitoplazmatik to'r ekanligini ko'rsatdi. Ko'pchilik nevrotsitlar nevroplazmasida juda ingichka ipchalar - **protofibrillalar** va **mikronaychalar** mavjud. Ularning agregatlari nerv to'qimasini fiksatsiya qilish va kumush tuzlari bilan ishlash natijasida "**nevrofibrillalar**" bosil qiladi. Nevroplazmada ko'plab mitoxondriyalar, o'zak atrofida joylashgan va kuchli taraqqiy qilgan plastinkali kompleks hamda hujayra markazi uchraydi. Shuni qayd qilish kerakki plastinkali kompleks birinchi marta 1898 yili Italiya olimi K.Golji tomonidan nerv hujayrasida tasvirlab berilgan.


Perikarion va dendritlar sitoplazmasi tegishli moddalarni sintezlaydi, organellalar (masalan, mitoxondriyalar)ni hosil qiladi va bular neyrin bo'yida periferiyaga oqib turadi. Shuningdek, o'simtalardan ayrim moddalarni hujayra tanasiga qarab yo'naltiruvchi retrograd oqim ham kuzatiladi.

Biologik faoliyka ega ma'lum moddalar (masalan, mediatorlar)ni sintezlash va sekretsiya qilish barcha nevrotsitlarga xos xususiyatdir. Lekin hozirgi paytda nevrosekretsiyaga ixtisoslashgan hujayralar ham aniqlangan. Bunga misol qilib bosh miya gipotalamus oblastining yadrolarida joylashgan nevrotsitlarni ko'rsatish mumkin. Sekretor nevrotsitlar yirik, nevroplazma va neyrillarda sekretor donachalar saqlovchi hujayralardir. Nev-

rosekret regulyatorlik rolini bajarib, nerv va gumoral sistemalarning vazifasini uyg'unlashtirishda katta ahamiyatga ega.

NEVROGLIYA

Nervrogliya (yunon, *glia* - yelim) nerv to'qimasining doimiy tarkibiy qismi bo'lib, bir qator muhim yordamchi vazifalarni bajaradi. Nevrogliyaning faoliyatilasiz nevrotsitlar faoliyatini tasavvur qilish mumkin emas. Taraqqiy qilishi va morfo-funksional xossalariiga ko'ra, **makroigliya** va **mikroigliya** farq qilinadi. Makroigliya nerv plastinkasidan, ya'ni nevrotsitlar bilan bir manbadan hosil bo'ladi. Mikroigliotsitlar esa glial makrofaglar hisoblanib, gematogen yo'l bilan kelib chiqadi. Makroigliya o'z navbatida uchga: **ependimogliya**, **astrogliya** va **oligodendroigliya**ga bo'linadi (92-rasm).



92-rasm. Nevrotsitlarning bazofil moddasasi:
A-yozug'lik mikroskopi ostida ko'rsashi (Kozhev preparati);
B-elektromogramma (84200 marta kat.), 1-Nissi palassichalar;
2-aksion ajraladigan joy - aksion tepalikchasi; 3-gliotsitlarning o'zaklari.

intensiv ravishda oqsil sintezlaydi.

Astrogliya astrotsit (*yulduzsimon hujaylar*)lardan iborat bo'lib, miyaning tarkibiy qismidir. Astrotsitlar tanasida yaxshi taraqqiy qilgan plastinkali kompleks, shuningdek sitoplazmatik to'r pufakchalar, kam sondagi mitoxondriyalar uchraydi. Protoplazmatik va tolador astrotsitlar farq qilinadi.

Protoplazmatik astrotsitlar asosan miyaning kulrang moddasida joylashadi, trofik va chegaralash vazifalarini bajaradi, yo'g'on o'simtalarga ega. **Tolador astrotsitlar** esa asosan oq moddada joylashib, uzun, kam

Ependima hujayralari (**ependimotsitlar**) orqa miya markaziylarini kanali va miya qorinchalarini ichki yuzasini qoplaydi. Ependimo-tsitlarning bo'shliqqa qaragan yuzasida 40 tagacha tebranuvchi tukchasi bor, qarama-qarshi qutbidan bosh-lanuvchi o'simtasi esa nerv to'qima ichiga kirib boradi va tugmacha simon yo'g'onlashtish bilan tamom bo'ladi. Bu hujayralar



tarmoqlanuvchi, konturi tekis o'simtalarga ega. Astrotsitlarning o'simtalari qon tormirlari atrofida chegaralovchi membranlar hosil qiladi.

Oligodendrogliya (*oligos* - kam, kichik) kuchsiz tarmoqlangan va kam sonli o'simtalarga ega hujayralardan iborat. Oligodendrotsitlar gliyaning keng tarqalgan turi bo'lib, markaziy va periferik nerv sistemasida uchraydi, nerv tolalari va hujayralari tanasini zinch o'rabi turib, parda va kapsulalar hosil bo'llishida ishtirok qiladi.

Mikrogliya hujayralari, markaziy nerv sistemasida tarqoq holda joylashadi. Uncha yirik bo'limgan mikroglotsitlar mayda tikanchilari bo'lgan o'simtalarga ega. Mikrogliya hujayralari harakatchan va fagotsitga moyil. Ularning taraqqiyoti va kelib chiqishi zamonaliviy tushunchalarga ko'ra, quyidagi sxema asosida amalga oshadi: stvol hujayra-monotsitlar-mikroglotsitlar.

NERV TOLALARI

Nerv tolalari nerv impulsini o'tkazuvchi strukturalar bo'lib, ular nevrotsitning o'simta-lari va ularni o'rabi turuvchi pardalardan iborat. Nerv impulsini sellyulipetal yoki sellyulifugal o'tkazishi va neyrin yoki dendrit bo'llishiga qaramasdan, nervositning nerv tolasi tarkibidagi o'simtasi o'q sillindr deb ataladi. Odatda nerv tolalari bog'lamcha holida joylashib, mi-yuning o'tkazuvchi yo'llarini yoki periferik nervlarni hosil qiladi. **Mielintli** va **mielinsiz** nerv tolalari mavjud (93-rasm).




93-rasm. Neyreglyyning turllari:
A-plasmatik astrotsitlar; B-tulador astrotsitlar; C-oligodendroglotsitlar; D-ko'y ili myia qorinchasining ependimotsitlari; E-pial membrane va G-shamming bazal o'simtasi; F-gial chegara membrana va undagi astrotsitlar (A).

Mielinsiz nerv tolalar turli nevrotsitlarning o'simtalari bo'lgan 7-

12 ta o'q silindrga ega. Ular ketma-ket joylashgan oligodendroglotsitlar (**lem-motsitlar**) zanjiri ichida, ya'ni lemmotsitlar sito-plazmasida joylashadi. Nerv tolasini tashqi tomonidan biriktiruvchi to'qimadan iborat bazal membrana o'rabi turadi. O'q silindrlar mielinsiz tolada siyrak joylashib, bir nerv tolasidan ikkinchisiga o'tishi mumkin. O'q silindrlar lemmotsit plazmolemmasini ham ergashtirib olib keradi. O'q silindr plazmolemma burmasining ikki qavati (**mezakson**)ga go'yoki osiliib turadi, ya'ni u bevosita lemmotsit sitoplazmasida yotmasdan, balki sitoplazmadan plazmolemma yordarnida chegaralanib turadi. O'z-o'zidan ravshanki, yorug'lik mikroskopida mezaksonni ham, lemmotsitlarning chegaralarini ham ko'rib bo'lmaydi.

Mielinli nerv tolalar markaziy nerv sistemasida joylashgan (markaziy) va periferik bo'lishi mumkin. Misol tariqasida periferik mielinli tolaning tuzilishini qarab chiqamiz.

Har bir mielinli nerv tolesi faqat bitta o'q silindrga ega bo'lib, u biri ketidan bira joylashgan lemmotsitlar zanjiri ichida yotadi. Tolani lemmotsit-lar tashqarisidan birikti-ruvchi to'qimadan iborat bazal membrana o'rabi turadi. O'q silindr atrofida joylashgan **mielin** qavat qalin va osmyi kislota tuzlari bilan ishllov berilganda qora yadi. Bu hol mielinning lipid-larga boyligini ko'rsatadi, faqat tashqi yuza qavut sitoplazma va lemmotsitlarning o'zaklaridan iborat bo'lib, ochroq bo'yaladi va **neyrolemma** nomini oladi. Lemmotit-larning oraliqlari-da nerv tolesi ingichkalashadi va mielinli tolalarga xos bo'g'imlari hosil bo'ladi. Bu bo'g'imlar o'q silindrga kerakli moddalar va ionlar yetib borishini osonlashtiradi, shuningdek nerv impulsining o'tkazilish tezligiga katta ta'sir ko'rsatadi. Zaharli moddalar ham nerv to-



93-rasm. Nerv tolalarining yorug'lik (A,B) va electron mikroskopda (x,6) korinfa li stenmasi (T.N.Rodostova va n. bo'yicha).

Az-mielinli tola, 5-6-mielinsiz tola 1-o'q silindr; 2-mielin qavati; 3-biriktiruvchi to'qima; 4-mielin ketigi; 5-neyrolemma to'zagi; 6-mielin bo'g'imir; 7-mikrovilli; 8-seyrofilamentlar; 9-mitokondriyalar; 10-mezakson; 11-bazal membrana.

lasiga birinchi navbatda bo'g'imirlar orqali ta'sir ko'rsatadi. Ikki bo'g'im oralig'i nerv tolasining segmenti deyiladi. Yorug'lik mikroskopi segmentning bir necha joyida uzilishlar borligini ko'rsatadi. Aslida bu joylarda mielinning uzilishi yuz bermaydi (pastroqqa qaralsin). Bunday joylar mielin kertiklari deb ataladi. Kertiklar segment markaziga yoki periferiyaga qarab yo'nalgan bo'lishi mumkin, bunda biron-bir qonuniyatni kuzatish qiyin. Ko'pincha kertiklar eng yaqin bo'g'imga teskari yo'nalgan bo'ladi. Oliy umurtqalilar nerv tolasining har bir segmentida lemmotsitning eng tashqi qismida joylashuvchi o'zak, o'zakning atrofida esa kam miqdorda mitokondriyalarga boy sitoplazma to'plangan.


Elektron mikroskop ma'lumotlariga ko'ra, mielin nerv tolasining taraqqiyoti davrida mezakson hosil bo'lishi, uning uzayishi va o'q silindrغا zinch o'ralgan spiralga aylanishi natijasida yuzaga keladi (94-rasm). Bino-barin, mielin lemmotsit plazmolemmasining hosilasidir. Uning lipidlarga boyligi ham shu bilan izohlanadi. Mielin qavatlari shunchalik zinch o'ralganki, ular orasidagi sitoplazma tolating chekkasiga suriladi va avvaligi tadqiqotchilar "Shvann pardasi" deb yuritgan qavatni hosil qiladi. Bevosita o'q silindr atrofida ham kam miqdorda sitoplazma qoladi. Mielin kertiklari uchraydigan joylarda, yuqorida ta'kidlaganimizdek, mielinda uzilish yuz bermasdan, balki mielin plastinkalari sitoplazma tomonidan bir-biridan uzoqlashtirilgan. Ko'pincha mezaksonning ikki varagi ham bir-biridan biroz uzoqlashgan bo'ladi. Mielin kertiklurining ahamiyati hozircha aniqlangan emas.

Nerv tolasidagi bo'g'imirning kelib chiqishini ham elektron mikroskopiya tushuntirib berdi. Mielin hosil bo'layotganda nerv tola bo'yiga ham o'sadi. Toladagi lemmotsitlarning soni esa organizmning butun umri davomida nisbatan doimiydir. Nerv tolasining bo'yiga o'sishi paytda lemmotsit ham uzayadi. Mezaksonning har bir yangidan hosil bo'layotgan qavati avvalgisidan uzunroqdir. Bo'g'imga yaqinlashganda mielin plastinkalari (mezakson qavatlari) keskin egiladi va o'q silindrغا zinch tegib joylashadi. Avval hosil bo'lgan, ya'ni eng ichki qavat bo'g'imgidan uzoq joylashadi.

Mielin to'yingan yog' kisletalarga boy, kimyoviy jihatdan inert va moddarlar almashinuvida deyarli ishtirot qilmaydi. Markaziy nerv sistemasining mielinli tolarida bo'g'imirlar, mielin kertiklari va bazal membranani hosil qiluvchi biriktruvchi to'qima yo'q, chunki uning vazifasini miyada gliotsitlar bajaradi. Mielinsiz tola impulsni sekin va diffuz, mielinli tola esa aniq va tez (60-120 m/sek) o'tkazadi.

NERV STVOLI

Nerv tolalari bog'lamchalar hosil qiladi. Bir qancha bog'lamchalar nevr stvoliga umumlashadi (94-rasm). Har bir nevr tolasini argirofil fibrillalar va fibroblastlardan iborat **endonevriy** o'rabi turadi. Nerv tolalarining bog'lamchasi esa **perinevriy** bilan o'ralgan. Elektron mikroskop perinevriy bazal membranalar bilan navbatlashib joylashadigan 5-6 qavat hujayralardan hosil bo'lganligini ko'rsatadi. U nerv tolalarini zararli ta'sirotlardan saqlashda katta ahamiyatga ega. Butun nerv stvolining tashqi yuzasini birkiruvchilarni yurushda to'qimadan iborat **epinevriy** qoplab turadi. Epinevriy vositasida nerv stvoli atrofidagi to'qimalar bilan harakatchan ravishda tutashadi.




94-rasm. Mielinli nerv tolasing tarauqqiyot sxemasi (T.N.Radostina tamenidan Robertson sxemasiga moslanib tuzilgan):

A-taruqqiyutining ketma-ket keluvchi hujaychilar ko'ndalang kesimida (Robertson bo'yicha); b-shakllangan uch o'lchamli tasvir; 1-neyrolemmitot qobig'ning duplikatsiyasi (mezaksion); 2-akson; 3-mielin kerikali; 4-neyrolemmitotining myelin bo'g'ulari zonasidagi hamroqsimon kontaktlar; 5-neyrolemmitotining sitoplazmasi; 6-spinilsumon o'ralgan mezaksion (mielin); 7-neyrolemmitot o'ziga. Nervning ko'ndalang kesimi: a-epinevriy, b-perinevriy, nerv tobdari bog'lamchalarining ko'ndalung (r) va qiyshiqli (d) kesimlari.

NERV OXIRLARI (terminallari)


Barcha nerv tolalari oxirgi (terminal) apparatlar bilan tugaydi. Bu apparatlar **nerv oxirlari** (terminallari) deyiladi. Bunday apparatlar uch xil bo'ladi: effektor, retseptor va neyronlarning o'zaro aloqasini ta'minlaydigan nerv oxirlari. Effektor nerv terminallari muskul yoki sekretor hujayra bilan tutashib, sinaps hosil qiladi va harakat yoki sekretsiya

effektini keltirib chiqaradi (sinapslar - kontaktlar to'g'risida quyida batafsil to'xtala-miz). Skelet muskulidagi nerv-muskul apparat motorik to'qacha deyiladi (95-rasm). Fanda mavjud bo'lgan motorik birlilik tushunchasi harakatlan-tiruvchi nevrotosit va u bilan bog'langan muskul tolalarini o'z ichiga oladi. Motorik birlilik turkibiga 9 tadan (odamning ko'z muskuli) 1934 tagacha muskul tola kirishi mumkin.



95-rasm. Harakatlanuvchi nerv tolalarining oxirlari (motor to'qachasi):

A-yon tomonidan ko'rimishi (a-va b-mielinli nerv tolalaring oxirlari; c-mielinli tola; d-muskul tola; e-muskul tola o'zag'i); B-utki tomonidan ko'rimishi (f-mielinli tola; g-mielinlashtirilgan tola; h-mielinlashtirilgan tola yoki "ultratenksion nerv tola")



96-rasm. Nerv-muskul dukining tuzilish sheması:

A-intrafusal va ekstrafusal muskul tolalarining motorik sinervatsiyasi (Staditskiy bo'yicha); B-aferent nerv tolalarining intrafusal muskul tolalar o'zklari saltachasi atrofidagi spinolimon uchlar (Kruich bo'yicha), 1-ekstrafusal muskul tolalarining motor to'qachalari; 2-intrafusal muskul tolalarining motor to'qachalari, 3-birikiruvchi lo'qima; 4-o'zklar joylashigan saltacha; 5-o'zklar saltachalar atrofidagi sevuchchi nerv tolalarining bulqa - spinolimon uchlar; 6-ko'ndalang-turg'il muskul tolalar; 7-nerv

Elektron mikroskopning ko'rsatishicha, silliq mus-kulda ayrim hollar da har bir hujayraga kelgan nerv tolosi sinapsga o'xshash apparat bosil qiladi. Ko'pincha esa bir guruh muskul hujay-rilariga bitta nerv terminali to'g'ri keladi (96-rasm).

Sekretor tolalaring oxirgi uchi bez hujayrasiga tig'iz tegib turishi yoki unga chauqur botib kirishi mumkin. Keyingi holda nerv tolosi o'zi bilan birga bez hujayrasini plazmolemmasini ham hujay-ra ichiga qayirib olib kiradi.

Sezuvchi nerv oxir-lari yoki retseptorlar qiti-qlovchi agent ta'sirini qabul qila oladigan ixtisoslashgan hujayralar va sezuvchi nev-rotsit dendritining oxirgi uchlaridan iborat. Retseptor apparatlar kapsulasiz (erkin-yotuvchi) va kapsulaga o'ralgan bo'lishi mumkin.

Epidermisidagi nerv tolasining daraxtsimon (butasimon) oxirgi uchlari, sezuvchi (taktil) epiteliotsitlardagi nerv tolasining oxirgi uchlari, ichki qulqoqning nevro-epitelial elementlari epi-teliydagisi retseptorfardir.


Biriktiruvchi to'qimada kapsulasiz daraxtsimon (butasimon) (97-98 rasmlar) retseptorlar, kapsulaga o'ralgan plastinkali tanachalar, sezuvchi (taktil) tanacha, genetal tanachalar va oxirgi (terminal) kolbachalar, turli kattalikdagi kapsulali to pcha (kalavacha) lar mavjud.



97-sasm. Biriktiruvchi to'qimadagi nerv tolasining retseptor uchlari (A.R.Maslov, bo'yicha).


REFLEKS YOYI

Nerv sistemasining nevrotsitlari funksional ahamiyatiga ko'ra turliha bo'jadi. Sezuvchi yoki afferent (retseptor), efferent (effektor) yoki ishchi va oralig' (assotsiativ) nevrotsitlar farq qilinadi. Nerv sistemasida nerv impulsi bosib o'tadigan yo'l refleks yoyi (reflektor yoy) deyiladi. Eng oddiy reflektor yoy ikki nevrotsit - retseptor va effektor nevrotsitlardan iborat (99-rasm). Ko'pchilik hollarda reflektor yoyda bu ikki nevrotsit orasiga assotsiativ nevron ham kiradi. Retseptor nevro-tsitsining aksoni assotsiativ nevrotsitning dendriti, assotsiativ nevrotsitning aksoni esa effektor nevrotsitning dendriti bilan sinaps hosil qiladi. Refleks yoyida ham umumiy qonuniyat - aksonning nerv impulsini sellyu-lifugal, dendritning esa sellyu-lipetal o'tkazish qonuniyatini amal qiladi. Bu bilan nerv impul-sining faqat ma'lum yo'nalishda, ya ni ret-septor nevrotsit-assotsiativ nevrotsit-effektor nevrotsit yo'nalishida o'tkazilishi ta'mintanadi. Shunisi diqqatga sazovorki, bir nevrotsit chegarasida impuls turli tomoniga tarqalishi mumkin, lekin refleks yoyidagi sinapslar impulsni faqat bir yo'nalishda o'tkazilishini ta'minlaydi. Bu hol sinapsning morfo-fiziologiyasi bilan bog'liqidir.



98-rasm. Kapsula bilan o'rslagan reseptorlar:

A-sezuvchi tascha (Meysher taschagi); 1-kapsula; 2-maxsus hujaymlar; 5-plastikali tascha electron mikroskopik tuzilishining sxemasi; 1-qavat-qavot tuzigan kapsula; 2-ichki kolba; 3-sezuvchi nevrotit dendritining uchi; 4- spiralimon joylashgan kollagen tolalar; 5-fibrotitar; 6-tukchali glial hujaymlar; 7-ikkilanchi sezuvchi hujayuning sezuvchi nevrotit dendriti bilan kontaktlari (Otelin bo'yicha).




99-rasm. Oddiy refleks yeyining sxemasi:

1-sezuvchi nevrotit; 2-teridagi reseptor; 3-sezuvchi nevrotitning dendriti; 4-parda; 5-lemmototizing o'ziga; 6-melin parda; 7-melin bo'g'ini; 8-o'q silindr; 9-melin kertiklari; 10-sezuvchi nevrotitning nevrotit; 11-hansaklantiruvchi nevrotit; 12-hansaklantiruvchi nevrotitning dendriti; 13-hansaklantiruvchi nevrotitning nevrotit; 14-mielinli nerv tolasi; 15-effektor; 16-orqa miya tugani; 17-orqa miya nervining dorsal tarmogi; 18-orqa (dorsal) ilbiz; 19-orqa shox; 20-olding shox; 21-olding (ventral) ilbiz; 22-orqa miya nervining ventral tarmogi.

SINAPSLAR

Nevronlarning bir-biri bilan aloqasi **sinapslar** (grek. *synapsis* - tutashish, kontakt) yordamida amalga oshadi (100-rasm). Sinapslar nerv impulslarining bir nevrotitsidan ikkinchisiga o'tishiga imkoniyat beradi. Sinapslar oblastida bir nevrotitning aksoni terminal shoxchalarga bo'linadi va

ko'pincha tugmacha yoki halqachalarga o'xshash yo'g'onlashish (perisel-lyulyar apparat) hosil qiladi. Bu terminallar ikkinchi nevrotsit tanasi yoki dendrit bilan tutashadi. Terminallarning morfologiysi, dendrit yoki hujayra tanasi bilan qiladigan aloqa, nerv sisternasining turli joylaridagi sinapslarda bir-biridan ancha farq qiladi. **Aksosomatik, aksodendritik, aksoaksonal, dendrodendritik va dendrosomatik** sinapslar mavjud bo'lib, ulardan keyingi uch xilining ahamiyati to'liq aniqlangan emas. Sinaps o'ta sezgir bo'lib, nerv impulsining o'tkazilishini idora qiladi, ya'ni impuls o'tishini osonlashtiradi yoki chegaralab qo'yadi.



190-rasm. Sinapslarning tuzilishi.
A-sinaplar sinutopografiyasining sxemasi;
B-sinaplar tuzilishining sxemasi; a-tonzozlovchi tip; b-qo'zg'atuvechi tip; b-elektrik igufakchalarsiz tip; B-sinap-pufakchalar tuzilishining sxemasi; a-ksosomatik (rangj och) tip; b-adrenergik (zich) tip; c-paminergik va r-peptidergik tip (I.G.Pavlova bo'yicha); G-aksodendritik sinapsning electron mikrofotografiyasi (I.G.Pavlova preparati); 1-aksosomatik sinaps; 2-aksodendritik sinapslar; 3-aksosaksonal sinaps; 4-dendritlar; 5-dendritning tikamimon o'sintigi; 6-axon; 7- sinapsning pufakchalar; 8- presinaptik membrana; 9- postsinaptik membrana; 10-sinapsning yoriqchasi; 11-postsinaptik zichlanishsi.


Ko'pchilik nevrotsitlar juda ko'p boshqa nevrotsitlar bilan sinaptik alopqada bo'lishi hisobga olinsa, har bir nevrotsit ishtiroy qiladigan refleks yoylari juda xilma-xil ekanligini tasavvur qilish mumkin. Mushuk orqa miyasi-ning harakatlantiruvchi nevrotsitida boshqa hujayralar aksonlarining kamida 10000 terminal-lari sinapslar bilan tugashi hisoblab chiqil-gan.

Sinapsning bir qutbi bo'lib aksонning termi-nali xizmat qiladi va **presin-**

aptik qutb deyi-ladi. Bu qutbda mito-xondriyalar va vositachi moddalar - mediatorlar (masalan, noradrenalin yoki atsetilxolin) to'p-langan. Mediator sinap-tik pufakchalar ichida bo'ladi. Sinapsning ikkinchi qutbi (**postsinaptik qutb**) boshqa nevrotosit tomonidan hosil bo'lgan va nevro-tsit plazmolemmasiga bevosita o'tuvchi post-sinaptik membrana bi-lan o'ralsan. Qutblar orasidagi sinaptik bo'shliqqa mediator chiqadi. Impulsni neyromediatorlar vositasida o'tkazuvchi sinapslur **kimyoiy sinapslar**, bevosita elektr o'tkazuvchilarini **elektrik sinapslar** deyiladi. Shuningdek, aralash tabiatli sinapslar ham uchraydi.

NERV TO'QIMASINING TARAQQIYOTI VA REGENERATSIYASI

Nerv to'qimasining taraqqiyoti ektodermaning dorsal qismidan nerv plastinkasi hosil bo'lishidan boshlanadi (101-rasm). Nerv plastinka nerv mayiga aylangan paytda uning tarkibidagi hujayralar hali kam tabaqalangan bo'ladi.



101-rasm. Taraqqiyotning turli bosqichlaridagi sut endizuvchilar embryo-ning urga niyasi;

A-nerv plastinkasi; B va C - taraqqiyotning keyingi bosqichlarda nerv mayi; 1-nerv plastinka hujayrining mitoz bo'limishi; 2-ependima qavatidagi mitoz bo'limishi; 3-o'zakli (tysqich) qavat; 4-tahqi qavat (chejka usul garda); 5-ichki chegara membrana; 6-tahqi chegara membrana; 7-mezenchima.

Keyinroq esa hujayralarning bir xillari noksimon shaklga kirib, sitoplazmasida nevrofilamentlar va mikronaychalar hosil bo'la boshlaydi. Bu hol hujayralarning **nevroblastlarga** ixtisoslasha boshlagani-ning belgisidir. Boshqa bir xil hujayralar ko'p sonli bo'lмаган о'simtalarga ega, г' ovak massa holida joylashib **spongio-blastlar** deb nom oladi. Ularning sitoplazmasida neyrofilamentlar va mikronaychalar yo'q. Nevroblastlar

nevrotsitlarga aylanadi, spongioblastlardan mak-rogliyaning turli xillari rivojanadi. Mikrogliya qonning stvol hujay-ralaridan monotsitlar fa-zasini o'tish orqali yuzaga keladi. Nerv hujayralari nevroblastlar fazasidayoq bo'linish qobiliyatini yo'qtadi. Yosh gliya hujayralari (**glioblastlar**), hatto yetuk astrotsitlar va oligodendroglotsitlar bo'linish qibiliyatini to'la yo'qtmaydi.

Nerv to'qimasining regeneratsiyasini o'rghanish katta ahamiyatiga ega. Organizmning o'zgarib turuvchi tashqi muhit sharoitlariga moslashganligi va o'zgaruvchanligi nerv to'qimasining o'z morfo-funksional xossalarni o'zgartira olish qobiliyati bilan bog'liq. Nevrotsitlar hujaynlarning organizm umri davomida almashinmaydigan populyatsiyasidir va ularga faqat hujayra ichidagi fiziologik regeniratsiya xosdir. Nevrotsitlarning o'sintalari, bimobarin, periferik nervlar shikastlanganda regeniratsiya qobiliyatiga ega. Nerv tolasining regeneratsiyasi yaxshi o'r ganilgan. Shikastlanishdan so'ng tananing sezgirligini yo'qtgan qismi regeneratsiya vositasida tezda o'zining bu qobiliyatini tiklashi mumkin.

Nerv tolesi shikastlanishdan keyingi birinchi kuniardayoq o'q silindrda varikoz yo'g'onlashgan va ingichkalashgan qismlar paydo bo'ladi. 2-5 kundan keyin ingichkalashgan joylar uilib, o'q silindrning fragmentatsiyasi yuz beradi. Taxminan 10-kunga kelib, o'q silindrning qoldiqlari lemmotsitlar va makrofaglarning faol ishtirokida so'rilib-yo'qolib ketadi. Nerv impulsleri kelmasligi oqibatida lemmotsitlar tez o'zgaradi, mielinning kertiklari yo'qoladi va parchalanib ketadi. Ayni paytda lemmotsitlarning o'zaklarini o'rovchi sitoplazma va o'zaklar avval amitoz, mielin emirilgandan so'ng mitoz yo'li bilan ko'payaya boshlaydi. Ko'payayotgan lemmotsitlar mielin va o'q silindr atrofida "ovoidlar" yoki "hazrn qiluvchi kameralar" hosil qiladi. 10-20 kundan so'ng mielin qoldiqlari ham so'rilib ketadi. O'ziga xos tuzilishni o'zgartagan lemmotsitlar qator zamjir holida joylashib tasmalar hosil qiladi. Ayrim hollarda, masalan, qon bilan ta'minlanish buzilganda halok bo'lgan nerv tolesi uzoq vaqt (9 oygacha) o'zining "odatdagi tuzilishini" saqlab qolishi, ya'ni mumifikatsiyalanishi mumkin.

Nerv tolasining markaziy, nevrotosit bilan alogador qismi o'zining odatdagi tuzilishini saqlab qoladi. Tolaning faqat shikastlangan joyga bevosita chegaradosh qismi o'zgarishga uchraydi. Ikki-uch kundan keyin nerv tolesi yo'bevosita kesilgan uchidan, yoki sal yuqoriqroqdan (yon shoxchalar yordamida) o'sa boshlaydi. Nerv tolasining o'sayotgan qismi uchida uncha katta bo'Imagan yo'g'onlashish - o'sish kolbalari hosil bo'ladi. O'q silindr lemmotsitlardan hosil bo'lgan tasmilurga o'sib kirib, ular ichida bir kecha-kundazda 1-4 mm tezlik bilan o'sadi va tolaning avvalgi uchlari borgan yerga borib yetadi.

Ayrim hollarda regeneratsiyaning odatdagi borishi buzildi, chandiq hosil bo'lib, u tikanishiga halaqit beradi.

XUSUSIY GISTOLOGIYA

NERV SISTEMASI

Nerv sistemasini anatomik jihatdan ma'lum darajada shartli ravishda markaziy va periferik qismlarga bo'lish mumkin. Orqa miya bilan bosh miya markaziy nerv sistemasini, nerv stvollari, gangliylar, nerv chatishmalari va terminallari (oxirlari) periferik nerv sistemasini hosil qiladi.


Nerv sistemasining reaktiv hujayralari - **nevrotsitlar** refleks yoyida ma'lum tartibda: **retseptor nevrotsit - assotsiativ nevrotsit - effektor nevrotsit** tartibida joylashadi. Nevrotsitlarning o'simtalari esa nerv sistemasining o'tkazuvchi yo'llarini hosil qiladi.

NERV SISTEMASINING EVOLYUTSIYASI VA EMBRIONAL TARAQQIYOTI

Nerv sistemasining vujudga kelishi organizmlarning evolyutsiya jarayonidagi murakkab taraqqiyoti natijasidir. Kovakichlilarining **diffuz nerv sistemasida** o'simtalari yordamida o'zaro bog'langan, butun tana bo'ylab bir tekis tarqalgan nerv hujayralarining to'ri mavjud. Meduzalar, ignatanllar, tukchali va yumaloq chuvalchanglarda tananing ma'lum joylarida nerv hujayralarining to'planishi (konsentratsiyasi) natijasida nerv tugunlari - gangliylar hosil bo'lishi bilan xarakterlanuvchi **ganglioz** nerv sistema kuzatiladi. Bu hujayralarning o'simtalari harakat va sezuvchi nervlarni shakltantiradi. Keyinchalik gangliylarning yanada konsentratsiyalanishi va tabaqalanishi natijasida anatomik jihatdan yaxshi ifodalangan **markaziy nerv sistemasi** kelib chiqadi.

Paydo bo'lgan nerv naychasi xordalilarda bosh va orqa miyaga aylangan. Nerv hujayralarining tabaqalanishi va miyaning turli joylarida bir tekis joylashmasligi sababli yadroli, to'rsimon (retikulyar) formatsiya va nerv hujayralari qavat-qavat bo'lib joylashgan miya po'stlog'i deyiluvchi uch shakli yuzaga keladi. Evolyutsiya nuqtai nazardan nerv hujayralarining retikulyar formatsiya holida joylashishi eng qadimgi usul hisoblanadi (qara, diffuz nerv sistemasi). Markaziy va pereferik nerv sistemasining anatomik jihatdan o'zgarib, murakkablashib borishi bilan birga, nerv markazlarining tabaqalanishi va gistologik tuzilishining murakkablashuvi yuz beradi. Em-


brion taraqqiyoti paytida nerv sistemasining organlari ektodermadan kelib chiqadigan **nerv maychasidan** takomillashadi. (102-rasm).



102-rasm. 2 sm uzunlikdagj qu'y embrioni orqa miyasining ku'mdalang kesimi (Kasnelson rasmisi):

а-орга мия; б-онга мия макказиј канали; орqa миyaning tubi (и); тони (т) va yes devorlari (д); 1-kultrung modda; 2-oq modda; 3-harakatlantiruvchi nevrotisilalar zonasasi; у-орга мия ганглии; к-dorsal va n-venial iildizlar; н-араласи нерв (орга мия нерв); о-dorsal va o-venital о'rtaлиq egatchilar.

102-a-rasm. Besh miya taraqqiyotining ts'rt bosigichi
(Zavarzindan):
1-exirgi miya; 2-oralig miya; 3-
o'rta miya; 4-keyingi miya; 5-
uzunchoq miya; 6-tepa, 6-ensa va
n-ko'rik egiklari; 7-exirgi miya
yarmishlari; 8-kon'sish tepechachi-
lar; 9-to'n sepacha; 10-katta miya
oyqichalar; 11-miyach; 12-
Vorulij ko'pmgi; 13-Silvry saw
yu'li; 14-to'ninch miya qorin-
chasi.




Bu naychaning oldingi qismi tez o'sadi, kengayadi va bosh miyaga aylanadi, qolgan qismi esa orqa miyani hosil qiladi. Nerv plas-tinkasining ikki chetidan o'smalar ho-lidagi ganglioz plas-tinkular ajralib chiq-qach, qolgan qismi nerv naychasi shak-lini oladi. Nerv naychasi turkibida nevrotitsilar va gliotsitlar tabaqala-nadi, umurtqalar hosil bo'lishi bilan ganglioz plastin-kalar segmentlarga bo'linib, spinal gangliylarga aylana-di. Gangliylarda duksimon shakldagi bipolar hujayralar bo'lib, ular funksional jihatdan sezuvchi nevrotitsillardir. Keynchalik hujayralar-ning o'simtalar chiqadigan qutblari bir-biriga yaqinlashadi, neyrit va dendrit bir umurniy o'simta holida chiqib, keyin T-simon tarmoqlanadi. Bosh miya o'z taracqiyoti mobaynida uch (oldingi, o'rta va keyingi) va besh (oxirgi, oralig, o'rta, keyingi va uzunchoq miya) pufakchali davrlarni o'tadi. (102a.-rasm.)

Anatomik ko'rinishiga qarab, oq va kulrang miya moddalari farq qilinadi. Kulrang moddada nevrotitsilarning tanasi, oq moddada mielinli nerv tolalari (nevrotitsilarning o'simtalar) joylashadi. Nevrogliya har ikkala moddada tayanch-trofik vazifa bajaruvchi asos bo'lib xizmat qiladi.

ORQA MIYA

Orqa miyani biriktiruvchi tolador to'qimadan tuzilgan uchta parda (tashqaridan ichkariga qarab sanalsa): qattiq, to'simon va yumshoq miyu pardalari o'rabi turadi. Miyaning kulrang moddasi markazda, oq moddasi uning atrofida joylashadi.



103-rasm.Orqa miya:

A-mikrofoto (42 marta katt.)-a dorsal o'rataliq eg'ishcha; oq moddasining -a-dorsal, r-lateral, d-ventral anguli; e-kulrang komisura; kulrang moddasining -a-dorsal; 3-ventral va u-lateral ustunlari; k-orta miya markaziy kanali; z-oq komisura.

B-orta miya yodrosi; 2-dinilidosemon modda; 3-g'ovaksimon modda; 4-chejka zona; r-harakatlanuvchi yadro; 6-bog'lamchu hujayralarning yadrosi; e-komissumli hujayralarning yadrosi; 8-Kirk yadro; 9-dorsal ustun yadro; u-vegetativ yadro; k-retikulyar formatsiya.

Orqa miyaning dorsal tomonida dorsal o'rtaliq to'siqcha bo'lib, u miyaning ko'ndalang kesimi preparatlarida gliyadan iborat to'siqcha shaklida ko'rindi, ventral tomonida esa o'rtaliq yoriqcha mavjud. Ular orqa miyani o'ng va chap qismilarga bo'lib turadi. Shuningdek, orqa miya nervlarining dorsal ildizlari kiruvchi, ventral ildizlari esa chiquvchi just (o'ng va chap) dorsolateral va ventrolateral egatchalar ham mavjud. Oq moddaning egatchalar orasidagi qismlari **chilvirchalar** deyiladi. Bunday chilvirchalar miyaning har bir yarmida uchtadan bo'ladi. Bu chilvirchalar orqa miyaning o'tkazuvchi yo'llari hisoblanadi va qisqa - miyaning ayrim qismlarini bir-biri bilan bog'lovchi va uzun - orqa miya bilan bosh miyani bog'lovchi, yo'llarga bo'linadi. Oq moddadagi mielinli nerv tolalarda o'q silindr va mielin parda farq qilinadi.


Orqa miyaning ko'ndalang kesimida kulrang modda "H" harfi yoki qanolari yozilgan kapalak shaklida ko'rindi (103-rasm.)

Kulrang moddaning o'ng va chap yon qismlarini biriktiruvchi qismi **kulrang komissura**, yon qismlari **shoxlar** deyiladi. Miyaning turli joylarida shoxlarning shakli va uzunligi bir xil emas. Ikki just: ingichkarorq **dorsal** va kengroq **ventral shoxlar** mavjud. Ventral shoxlarning dorsolateral qismi lateral shoxlar deyiladi. Dorsal va ventral shoxlarning oralig'iда kulrang modda (nevrotsitlar) oq moddaga o'sib chiqib, **to'rsimon (retikulyar) formatsiya** hosil qiladi. Retikulyar formatsiya bo'yin oblastida yaxshi taraqqiy qilgan va bosh miya o'q (stvol) qismiga qarab davom etadi. Bu yerdagи nevrotsitlarning to'plamlari o'zklar hosil qiladi. Kulrang komissuraning o'rtasida orqa miya markaziy kanali joylashgan va kanalda miya suyuqligi (likvor) mavjud. Kanalning ichki yuzasini ependimogliya qoplab turadi.

Nevrotsitlar kulrang moddada bir tekis tarqalib joylashmasdan, ma'lum joylarda to'planib **yadrolar** hosil qilgan. Nevrotsitlarning bunday to'plamlari, vazifasi umumiy hujayralarning yig'indisi bo'lganligi uchun nerv markazlari hisoblanadi. Ventral shoxlarda joylashgan va yirik nevrotsitlarning to'plami bo'lgan harakatlantiruvchi yadro nevrotsitlarining neyritlari orqa miya nervlarining ventro-lateral egatchalar orqali chiquvchi ventral (harakatlantiruvchi) ildizlarini hosil qiladi. Kulrang modda yarimlari (stolblari)ning o'rtal qismida bog'lamcha yadro joylashadi. Bu yadro nevrotsitlarining o'simtalari, T-simon tarmoqlanib dorsal hamda ventral yo'nalishda davom qiladi va oq modda chilvirchalarining turli tutamchalariga borib tutashadi. Kulrang komissurada joylashgan komissural yadrolar nevrotsitlarining o'simtalari komissuralar orqali qarama-qarshi tomonlar chilvirchalariga

o'tadi. Komissural o'zaklardan yuqoriroq va lateralroq joylashuvchi ko'krak (Kiark) yadrolari hujayralatining o'simtlari miyacha bilan bog'langan, dorsal shoxlar yadrolarining hujayralari oralig' miyadagi ko'rish tepachasi bilan tutashadi. Kulrang moddaning lateral shoxlarida joylashgan hujayralar vegetativ yadrolarga tegishlidir.

Spinal gangliylar orqa miya nervlari dorsal (sezuvchi) ildizlari ventral ildizlar bilan qo'shilish joyida joylashgan. Gangliy nerv izardizchasi pardasiga tutashib ketadigan biriktiruvchi to'qimadan iborat parda bilan qoplangan (104-rasm).



104-rasm. Orqa miya gangliyi (31,5 mm tashkili kattal, mikrofota):
a-gangliy va nerv ildizining qobig'i; gangliyning hujayralari - 6 va nerv tolalari - x; orqa miya nervining dorsal - r va ventral - d ildizlari; c-azlash nerv.


Gangliydagi psev-dounipolyar hu-jayralarning bir-dan-bir o'simtasi T-simon tarmoq-lanib, bu tarmoq-lardan biri perife-riyaga, ikkinchisi esa dorsal ildiz orqali orqa miya-ga yo'naladi. Gangliyning chet qismlarida to'p-lang'an nevrotsit-larning kattaligi 120 mkm bo'lib, ularda nevrofibrillalar, plastinkali kompleks, mitoxondriyalar va xromatofil modda mavjud. Nevrogliya hujayralari **satellitlar** yoki **mantiya hujayralari** deyilib, nevrotitlarni biriktiruvchi to'qimadan ajratib (chegaralab) turadi.

BOSH MIYA

Bosh miyada organizmning tashqi muhit bilan eng muhim va murakkab aloqalarini ta'minlovchi nerv faoliyatining oliv markazlari, shuningdek boshqa muhim vazifalarning markazlari joylashgan. Bu organ juda murakkab tuzilgan bo'lib, turli qismlari histologik tuzilishining o'ziga xosligi, nevrotitsilari o'zaro aloqasining murakkabligi bilan xarakterlanadi. Bosh miyaning asosiy qismi katta yarim sharlardir. Bu qismining kulrang moddasi periferiyada joylashib, u po'stloq deyiladi va organizm butun nerv faoliyatining oliv markazlari joylashgan bo'lim hisoblanadi. Bosh miya kulrang moddasining qolgan hamma qismlari po'stloq osti qismi deyiladi.

Odam miyasi katta yarimsharlari po'stlog'ining sathi 2 m^2 chamasidadir va uning kulrang moddasida 14 mld. dan ortiq nevrotitsilar mavjud. Kat-ta yarimsharlari va miyacha bosh miyaning yopqich qismini tashkil qilib, o'q qismni qoplab turadi. O'q qism orqa miyaning davomi bo'lsada, tuzilishi ancha murakkab, segmentar tuzilishi esa ifodalanganmagan.

O'q qismdan 10 (III-XII) juft bosh miya nervlari boshlanadi. Ularning sezuvchi va harakatlantiruvchi ildiz-



105-sasm. Uzunchoq miya (Nemilov bo'yicha):
a-piramidalar; б-Monsor bug'lamchasi; в-dorsal va i-ventral erqa miya bug'lamchalar; г-ingichka va postazimon bug'lamchalarning yadrolari; д-yoysimon tolalar; ж-edashgan nerv va ҳ-til osti nervining yadrolari; и-oliva; к-dorsal va а-medial qoshimcha olivalar.

lari alohida - alohida emas va bu tolalar vegetativ tolalar bilan o'zaro murakkab aloqada bo'ladi. Bu nervlarning miyadan tashqarida joylashgan gangliylarida sezuvchi hujayralar bor va bu gangliylar spinal gangliylarga to'g'ri keladi. Sezuvchi hujayralar psevdounipolyar nevrotsitlardir. Harakatlantiruvchi va assotsiativ yadrolar bosh miyada orqa miyadagidan ko'ra ko'proq va xilma-xildir.


Uzunchoq miya. Uzunchoq miya (105-rasm), orqa va bosh miyani bog'lovchi yo'llar o'tadigan qism bo'lib, bu yerda shuningdek, nafas olish, qon tomirlarini harakatlantiruvchi va carbonsuvlar almashinuvini boshqaruvchi qadimgi markazlar joylashgan.

Shunga ko'ra uzunchoq miyaning tuzilishi ham orqa miyanigiga nisbatan ancha murakkabdir. Oq moddaning o'tkazuvchi yo'llari orqa miyaning o'tkazuvchi yo'llari kabi bo'lib, faqat joylashashi va shakli jihatidan ulardan birmuncha farq qiladi. Kulrang moddaning orqa miyaga xos shakli va joylashishi bu yerda o'zgargan. Kulrang modda **yadrolar holdi** joylashadi. Ingichka va ponasimon tutamlarning yadrolari adashgan va til osti nervlarning yadrolari, harakatlantiruvchi va assotsiativ yadrolar shular jumlasidandir. Kulrang moddaning o'ziga xos tuzilmasi - **olivalardir**. Retikulyar formatsiya kranial yo'nalishda tobora yaxshiroq taraqqiy qilgan, yadrolar orasidagi joylarni to'ldirib turadi va oq moddaga kirib boradi. Uning nevrotsitlari bir tekis joylashib yoki keskin chegaralanmagan guruhlar bosil qilib, o'simtlari yordamida miyacha, uzunchoq miya va katta yarimsharlar po'stlog'ini umumiy sistemaga birlashtirib turadi. Retikulyar formatsiya bosh miyaning muhim koordinatsion apparati hisoblanadi.

Miyacha. Miyacha bosh miyaning tana muvozanatini saqlaydigan, harakatni reflektor idora qiladigan va muskullar tonusini boshqaradigan qismidir. U uzunchoq miya ustida joylashib, uch juft oyoqchalar yordamida miyaning boshqa qismi bilan birlashib turadi. Miyachaning ustki yuzasi tekis emas va ko'ndalangiga joylashgan jo'yak (egat)chalgarda ega. O'rta qismida ko'ndalang jo'yakchalarini kesib o'tuvchi g'ovaksimon do'nglik ("chuvalchang") mavjud. Oq modda miyachaning markazida, kulrang modda periferiyada po'stloq hosil qilib joylashadi. Oq modda ichida bir necha juft po'stloq osti qavat yadrolari bo'lib, ulardan eng kattasi tishli yadrodir. Vertikal kesimlarda miyacha po'stlog'ining uch qavati: 1) mayda va uncha ko'p sonli bo'lmagan nevrotsitlardan iborat molekulyar (tashqi) qavat; 2) bir qator joylashgan, ancha yirik va uzunasiga kesilganda noksimon shakliga ega nevrotsitlardan iborat qavat va 3) kichik, o'zagi kuchli bo'yaluvcchi, nevrotsitlardan iborat donador qavat aniq ko'rinish turadi (106-rasm).

Miyachaning hujayralari. Noksimon nevrotsitlar (107 -rasm)

miyachanining eng yirik hujayralari bo'lib, ularning oq moddaga qara-gan qutbidan chiqadigan neyrit miyacha oq mod-dasidagi yadrolardan birida tamom bo'ladi.



106-rasm. Kichik eniy po'sting'ming histologich nuzilishi (Kulchitskiy bo'yicha);
2-molekulyar, 5-ganglior va 6-donador qavular.


dona-hujayralar kam miqdordagi sitoplazma va kuchli bo'yaluvchi o'zakka ega. ularning neyriti molekulyar qavatda T-simon tarmoqlanadi, uch-to'rt dendritlari esa qush panjasimon tarmoqlanadi. Bevosita noksimon nevrotsitlar ostida donador qavatning yirik dona-hujayralari joylashadi. Bu hujayralarning dendritlari molekulyar qavatda, neyritlari shu qavatning hujayralari orasida tarmoqlanadi.

Ulardan molekulyar qavatga tomon kuchli tar-moqlanuvchi ikkita dendrit ajratadi. Neyritlar hujayra tunasidan biroz uzoqlashgach, yon shoxchalar bosil qiladi. Bu yon shoxchalar orqaga tomon qaytib molekulyar qavatda tar-moqlanadi va qo'shni nok-simon nevrotsitlar bilan sinapslar holda tutashadi.

Molekulyar qavatda mayda, noto'g'ri ko'pbur-chak shaklidagi **savatchali nevrotsitlar** tarqoq holda joylashadi. Ularning dendritlari nisbatan uzun, kam tarmoqlanadi, neyritlari esa yanada uzun va ko'plab yon shoxchalar ajratadi. Ana shu yon shoxchalar noksimon nevrotsitlar atrosifa nerv tolalaridan iborat xarakterli strukturalar - savatchalar bosil qiladi. Bu qavatda katta va kichik yulduzsimon nevrotsitlar ham bo'lib, har uchala xil hujayralar noksimon hujayralarga tarmozlovchi impulslarni etkazuvchi assotsiativ nevrotsitlardir.

Donador qavatning asosiy hujayra elementlari **dona-hujayralar** kam miqdordagi sitoplazma va kuchli bo'yaluvchi o'zakka ega. ularning neyriti molekulyar qavatda T-simon tarmoqlanadi, uch-to'rt

Miyachanining nerv tolalari afferent va effe-rent tolalardir. Afferent tolalar uch tarmoqli nerv, miya ko'prigi va miyaning stvol qismidan keladi. Ayniqsa, orqa miya-miyacha yo'llarining tolalari ko'pchilikni tashkil qiladi. Afferent tolalar chirmashuvchi (lian-simon) va moxsimon bo'ladi. Moxsimon tolalar donador qavatda kuchli tarmoqlanadi va yaxshi ko'rindi. Ularning terminallari rozetkaga o'xshash bo'lib, dona-hujayralarning dendritlari bilan sinapslar hosil qiladi. Chirmashuvchi tolalar ham mielinli bo'lib molekulyar qavatda liandek noksimon nevrotsitlarning dendritlarini o'rabi oladi. Effektor tolalar noksimon nevrotsitlarning neyritlari bo'lib, miyscha oq muddasidagi yadrolarda tugaydi. Nevrogliya elementlaridan miyachada tolador va plazmatik astrotsitlar, oligodendrogiotsitlar va glial makrofaglar uchraydi.



107-rasm. Kichik miya nevrotislarning sxemasida:

1- noksimon nevrotsitlar; 2-yuldazsimon nevrotsitlar; 3-savitschli nevrotsitlar; 4-dona-nevrotsitlar; 5-yerik dona nevrotsitlar (Goli hujayralari); 6- noksimon nevrotislarning dendritllari; 7-chirmashuvchi tolalar; 8- yo'simmon (moxsimon) tolalar; 9-tolalardan iborat savitschlar; 10-kichik miya mo'pehalar; 11- miyachanining oq muddasi; 12-gorizontal hujayralar (Klava bo'yicha)

BOSH MIYA YARIMSHARLARI

Bosh miya yarimsharlaring ham kulrang va oq muddalari mavjud. Kulrang modda yuqorida qayd qilganimizdek, bosh miya yarimsharlaring po'stlog'ini hosil qiladi. Katta miya yarimsharlaring po'stlog'i olyi nerv faoliyatini amalga oshiruvchi organ bo'lib, bu faoliyat asosida shartli reflekslar yetadi.

Shartli reflekslar-ning refleks yoyi doimo po'stloq orqali o'tib, ular muhitning organizrniga ko'rsata-digan ko'p qirrali ta'sirlariga javoban organizmning hayot faoliyat davrida ho-sil bo'ladi. G'oyat murakkab vazifaga ega bo'lgan po'stloqning tuzilishi ham murakkabdir. Odam miyasi katta yarim-sharlaring po'stloq-ida nevrotislarning shakli va joylashishiga ko'ra 6 qavat farq qilinadi. Po'stloqning turli joylarida qavatlar bir darajada taraqqiy qilmagan, hayvonlar-da esa nevrotsitlar-ning taqsimlanishi va joylashishi, qavatlar yanada kuchsizroq ifodalangan. Shuning uchun hayvonlar katta miyasi po'stlog'ini qavatlarga bo'lish shartli hisoblanadi.

Po'stloqning yuzasidan, yumshoq miya pardasi ostidan ichkariga qarab qo'yidagi qavatlar farq qilinadi (108-rasm):


1) molekulyar qavat. Glial sinsitiy, po'stloqning boshqa qavatlardagi nevrotisitlar dendrilalarining tarmoqlari va miyaning boshqa qismalaridagi nevrotisitlarning neyriftalaridan iborat. Sipanslar qavati sifatida katta ahamiyatga ega. Molekulyar qavatning kam miqdorda uchrovchi duksimon shakldagi nevrotisitlari assotsiativ hujayralardir;

2) tashqi donador qavat. Mayda, uch qirrali piramidal va yulduzsimon nevrotisitlardan tuzilgan. Hujayralarning kattaligi 10 mkm atrofida. Ularning asosidan oq moddaga yo'naluvchi neyrif, uch va yon tomonlaridan turli yo'nalishda dendritlar ajraladi;

3) piramidal qavat. Po'stloqning eng qalin qavati. Bu erdag'i piramidal nevrotisitlarning kattaligi qavatning chuquq qismalariga qarab ortib boradi (10-40 mkm). O'simtalarning shakli va joylashishi avvalgi qavat hujayralarini kiga o'xshash;

4) ichki donador qavat. Mayda yulduzchasi mon va ular orasida joylashgan piramidal hujayralardan iborat bo'lib, tashqi donador qavatga o'xshashdir;

5) ganglioz qavat. Yirik hujayralar - balandligi (bo'y) 120 mkm, asosi (eni) 80 mkm keladigan gigantopiramidal nevrotisitlardan iborat. Ularning xromatofil moddasi yirik parchalar holida. Neyritlari orqa miya



108-rasm. Katta miya yarimsharfi po'stlog'i tuzilishining axemasi (Nemiller bo'yicha bajzi qu'shimchalar bilan): 1-molekulyar; 2-tashqi donador; 3-piramidal; 4-ichki donador; 5-ganglioz va e-polimorf qavatlar; 6-oq medda.

kortiko-spinal (po'sloq-orqa miya) o'tkazuvchi yo'llarning asosiy qismini tashkil etadi va orqa miyaning harakatlantiruvchi o'zaklarida sinapslar bilan tugaydi.

6) **polimorf qavat**. Turli kattalik va shakkidagi, asosan, duksimon, bir neyrit va ikki dendritli hujayralarga ega. Dendritlaridan biri yuqoriga, biringchi qavatga yo'nalsa, ikkinchisi oq moddaning yuza qavatida tugaydi. Uzun neyrit, anchagina qismi neyritning yo'naliishiga teskari yo'naluvchi yon shoxchalarga ega. Neyritlar oq moddaga o'tib, bosh miyaning efferent yo'llari tarkibiga kiradi.

Nevroqliya yarimsharlarda himoya, trofik va tayanch vazifalarni bajaradi ("Umumiy gistoligiya" ga qaralsin).

Po'sloqda nevronlararo aloqlar. Po'sloqning barcha qavatlari da nevrotitlardan tashqari, bu erga miyaning boshqa qismlaridan impulslar olib keluvchi tolalar - proeksiyon tolalar mavjud.

Po'sloqning turli qismlarini bir yarimsharlar doirasida tutashiruvchi yoki qarama-qarshi tomonlarni tutashiruvchi assotsiativ tolalar ham bor. Agar tolalar qarama-qarshi yarimsharlarni tutashtirsa, u holda ular kornissural tolalar nomini oladi.

O'zaro aloqlarining xarakteriga ko'ra bosh va orqa miya yadrolari bilan bog'lanuvchi (proeksiyon) va neyritlari po'sloqning o'zida tamom bo'luvchi (assotsiativ) nevrotitlar farq qilinadi. Proeksiyon nevrotitlar piramidal va duksimon, assotsiativ nevrotitlar yulduzchasimon yoki o'rgamchaksimon shaklda bo'ladi.

Po'sloqning ko'pdan-ko'p sipanslari orasida terminal (oxirgi) va yon sipanslari farq qilinadi. Terminal sinapslar akso-somatik, yon sinapslar esa akso-dendritik sinapslardir. Yon sinapslarni hosil qiluvchi dendritlarning uncha yirik bo'rtikcha shaklda impuls qabul qiluvchi apparati bo'ladi. Elektron mikroskopik va boshqa morfo-fiziologik kuzatishlar yon sinapslarning shartli reflekslar bilan bog'liqligini ko'rsatdi. Shartli reflekslar hosil bo'lishini hozirgi paytda yangi, maxsus RNK sintezianishi bilan bog'lab tushuntirilmoqda.

Miya pardalari. Qattiq miya pardasi (*dura mater*) elastik tolalarga boy biriktiruvchi zinch to'qimadan tuzilgan. Ichki yuzasi glial tabiatga ega "endoteliysimon" hujayralar bilan qoplangan. Bosh miyada qattiq parda suyakning jildi (pardasi) bilan tutashib ketgan, orqa miyada esa undan yog bilan to'lgan epidural bo'shiq bilan ajralib turadi.


O'rgamchak to'risimon (*arachnoidea*) parda biriktiruvchi to'qimaning ingichka bog'lamchalaridan tuzilgan va uning har ikkala yuzasi glial tabiatli "endoteliysimon" to'qima bilan qoplangan.

Yumshoq miya pardasi (*pia mater*) avvalgi pardadan subaraxnoidal

bo'shliq bilan ajralib turadi. Bu bo'shliq cerebrospinal suyuqlik bilan to'lgan va miya qorinchalari bilan tutashgan bo'ladi. Yumshoq miya pardasi ko'plab ingichka to'sinchalar vositasida o'rgamchak to'risimon parda bilan tutashgan va uning to'qimasiga o'xshash to'qimadan tuzilgan. Bu pardanining tashqi yuzasi "endoteliysimon" to'qima bilan qoplangan, ichki yuzasi esa miya bilan yaqindan qo'shilib-o'sishib ketgan. Yumshoq miya pardasi qon temirlariga boy va ularning tarmoqlari miyaga tomon yo'naladi.

NERV SISTEMASINING VEGETATIV BO'LIMI

Bu bo'limning nevrotsitlari markaziy nerv sistemasidan tashqarida: nerv stvollarida va nerv chatishmalaridagi gangliylar tarkibida ham joylashishi bilan xarakterlanadi. Vegetativ gangliylar vertebral, prevertebral va



109-rasm. Vegetativ gangliyning nerv bojayralari:
1-unun aksodi nevrotit; 2-aksion; 3-o'simtalumining urunligi teng nevrotit; 4-gliotstlarning o'zakari.

intramural bo'lishi mumkin. Vegetativ innervatsiyaning refleks yoyi uch nevrotit (qismidan iborat bo'lishi: sezuvchi (pseudounipolyar) nevrotit, markaziy vegetativ nevrotit va vegetativ gangliylardagi (pereferik) nevrotit kuzatiladi. Markaziy vegetativ nevrotitning neyriti mielinli preganglionar toladir. Periferik nevrotitning neyriti, odatda mielinsiz bo'lib, postganglionar tola deb nomlanadi.

Vegetativ bo'limning simpatik qismi orqa miyaning ko'krak oblasti, parasympatik qismi bosh miya yadrolari va orqa miyaning bel-durmg'aza oblastlari bilan aloqada bo'ladi.

Vegetativ gangliylar mikroskopik tuzilishga ko`ra spinal gangliylarga o`xshab ketadi. Ular tarkibida nevrotsitlarning ikki morfologik tipi farq qilinadi. (109-rasm).

Birinchi xili **uzun aksonli nevrotsitlar** deyi-lib, uzun akson (neyrit) va qisqa dendritlarga ega. Ikkinci xili esa **teng o'simtali nevrotsitlar** deyilib, o'simtalarining soni biroz kamroq, ham-ma o'simtalari uzun, gangliydan chiqib, hujay-radan uzoqlashmagun-cha tarmoqlanmaydigan hujayralardir. Bularning qaysi biri neyrit ekan-ligini aniqlash qiyin.

Ovgat hazm qilish yo`li devorida uzun aksonli nevrotsitlar preganglio-nar, adashgan nerv tarki-biga kiruvchi, tolalar bilan bog'liq. Shuning uchun ko`pchilik bu hujayralarni parasimpatik nevrotsitlar deb hisoblaydi.

Teng o'simtali hujayralarni A.S.Dogel va I.F.Ivanovlar mahalliy, markaziy nerv sistemasining ishtirokisiz kechadigan reflektor aktlarni amalga oshiruvchi reflektor yoylarning spetsifik (ixtisoslashgan) nevrotsitlari deb hisoblaydilar.

Vegetativ nervlar va chatishmalar. Vegetativ nervlar ko`p miqdorda mielinsiz tolalarga ega, somatik nervlarga nisbatan ko`proq tarmoqlanadi va chatishmalar hosil qiladi. Nerv stvoliarda ko`pincha nevrotsitlar uchrzydi. Nerv chatishmalari turli kattalikdagи nerv tolalari bog'lamchilaridan hosil bo`lib, tolalar ko`pincha mielinsiz. Chatishmalar tarkibida turli kattalikdagи gangliylar mavjud. Simpatik va parasimpatik tolalar va hujayralarning morfologik farqlari aniqlangan emas, ularni faqat eksperimental yo`l bilan ajratish mumkin.

SEZGI ORGANLARI

Organizmga tashqi va ichki muhitdan ta'sir etadigan murakkab kompleks ta'sirlovchilarni ayrim elementlarga ajratib beradigan nerv tuzilmalari sistemasi **analizator** deb ataladi. Analizator periferik (retseptor) qismi, o'tkazuvchi sistema (afferent nevrotit) va markaziy qism (niyadagi nerv markazining sezuvchi nevrotitlari) dan iborat. Ko'z ko'rish analizatorining quloq eshitish va muvozanat analizatorlarining retseptor qismalaridir.

Retseptorlar ikkiga: **eksteroretseptorlar** va **interoretseptorlarga** bo'linadi. Birinchi guruh retseptorlari ta'sirotni tashqi muhitdan, ikkinchi guruh - ichki organlar va qon tomirlaridan va interoretseptorlarning alohida gurubi (**proprioretseptorlar**) muskullar, fassiyalar hamda paylardan qabul qilib oladi. Bevosita ta'sirotni qabul qilib oluvchi hujayraning to'qima tabiatiga ko'ra, birlamchi va ikkilamchi sezuvchi hujayralar farq qilinadi. Ko'z to'r pardasining tayoqcha va kolbachalari, burun shilliq pardasi hidlov oblastini qoplovchi epiteliy hujayralari orasidagi bipolyar nevrotitlar **birlamchi sezuvchi (nevrosensor)** hujayralardir. Ta'm bilish, muvozanat va eshitish organlarining ikkilamchi sezuvchi (**epiteliosensor**) hujayralari o'simtalarga ega emas va ta'sirotni maxsus tukchalar yordamida qabul qilib olib, sezuvchi nevrotit dendritining epitheliosensor hujayrani o'rabi turuvchi terminal (oxirgi) tarmoqchalariga o'tkazadi.

Ta'sirlovchi bilan bevosita aloqa (**kontakt**) yuz berganda ta'sirotni qabul qiluvechi ta'm sezish, taktil va hidlov retseptorlari kontakt retseptorlari guruhiga, ta'sirotni ma'lum masofadan qabul qilib oluvchi ko'rish va eshitish organlari **distant** retseptorlari guruhiga kiradi.


Odatda, "**sezgi organlari**" deganda eksteroretseptorlar tushuniladi.

Oliy sut emizuvchilarda eksteroretseptorlarning besh turi: ko'rish, eshitish, hidlov, ta'm bilish va taktil sezgi organlari taraqqiy qilgan. Ularning har biri ma'lum ta'sirotlarni: masalan, ko'z yorug'likni, quloq tovushni va h.k., qabul qiladi. Inson atrofdagi predmetlar to'g'risida besh xil eksteroretseptorlarning kompleks faoliyati natijasida yaxlit tushuncha hosil qiladi va bu besh xil retseptorlar insonnинг atrof-muhitni bilishi uchun batamom yetarlidir.

KO'RISH ORGANI


Ko'rish organi, ko'z - yorug'lik ta'sirotlarini qabul qilib oluvchi retseptordir. Uning ichki pardasi - to'r parda yorug'likni sezuvchi qavatdir. To'r pardadagi nevrotitlarning o'simtalari bir bog'lamga to'planib ko'rish

nervini hosil qiladi. Qolgan pardalari - o'rtal va tashqi pardalar, trofik va mexanik ahamiyatga ega.



110-rasm. Ko'z taraqqiyastining sxemasi:

A, B, V, G, D - quyon ko'zin embrional kuragi taraqqiyastining turli boshchilari (kesim, Bremer bo'yicha); a - ko'z pufagi; 6 - ko'z bandi (poyachasi), 8 - ko'z qadahi; r - ko'z gevharining plazmikasi; g - ko'z gevharining pufakchasi; e - gevhar, s - shox parda; 3 - shishasimon tana; u - qovoqlar.



111-rasm. Ko'z so'r pardasi tuzilishining sxemasi:

A-to'r pardada nevrotitsik joylashishning sxemasi (Drouing va Boykov bo'yicha) – 1-taynog'chalı hujayra; K-kolbachalı hujayra; BK-bipolar hujayra; T-top-gorizontallı hujayymalar; As-suzmakanlı hujayra; T-ganglior hujayralar;
B-to'r pardada histologik preparati – 1-pigmentli epitelii hujayralari qovoti; 2-tayyoschilar va kolbachalar qovoti; 3-tashqi chegara membrani; 4-tashqi o'zakli qovot; 5-tashqi to'minot qovot; 6-ichki o'zakli qovot; 7-ichki so'nammot qovot; 8-ganglior qovot; 9-nerv tolalari qovoti; 10-ichki chegara membrana.

Shox parda, ko'zning oldindi kamerasini to'ldi-ruvchi suyuqlik, ko'z gav-hari va shishasimon tana ko'zning nur sindiruvchi muhitlarini tashkil qiladi. Yorug'lik nurlarining bu muhitlarda sinishi natija-sida to'r pardada buyum (predmet)ning tasviri hosil bo'ladi.


To'r pardaga tusha-digan yorug'likning intensivligi o'rtasida teshigi (qorachiq) bo'lgan kamalak parda yordamida idora qilinadi. Bu pardanining siliq muskul tolalari qisqarishi natijasida qorachiqning diametri o'zgaradi.

Akkomodatsiya yoki ko'z fokusga to'g'rilash o'z qavariqligini o'zgartira oladigan, linza vazifasini o'taydigan, gevhar yordamida amalga oshiriladi.

Ko'zning taraqqiyoti. Ko'zning to'r pardasi va ko'zish nervi nerv naychasidan ko'z pufakchalarining bo'rtmalari sifatida rivojlanadi (110-rasm).

Bu pufakchalar ichi bo'sh ko'z poyachalari yordamida embrion miyasi bilan aloqada bo'ladi. Ko'z pufakchasining oldindi qismi o'z bo'shlig'i ichiga botib kiradi, natijada ikki devorli ko'z qadahi hosil

bo'ldi. Ektodermaning ko'z qadahi teshigi qarshisidagi qismi bo'tadi va bo'g'im bo'lib ajraladi. Ana shundan ko'z gavharining pufaksimon kurtagi vujudga keladi. Dastlab ko'z gavhari ichi bo'sh epitelial pufakcha ko'rnishida bo'ldi. So'ngra uning orqa devori epiteliy hujayralari cho'zilib, pufakcha bo'shilg'ini to'ldirib turuvchi ko'z gavhari tolalariga aylanadi. Keyinroq ko'z qadahining ichki devori to'r pardanering ichki, tiniq, yorug'lik sezuvchi qavatiga aylanadi, tashqi devori esa to'r pardanering tashqi pigmentli qavatiga aylanadi. Ko'z qadahi-ning bandini to'r pardadan boshlanib, miyaga boradigan nerv tolalari teshib o'tadi va shunday qilib, bu band ko'rish nerviga aylanadi. Ko'z qadahini o'nb turuvchi mezenximadan tomirla parda va sklera-



112-rasm. To'r parda taynqchali (A) va kolibachali (B) fotoreseptorlari ultramikroskopik tuzillishining sxemasi:

1-tashqi segment; 2-ichki segment; 3-o'zak joy-hosadigan qism; 4-snapolar zonas; 5-nukfalar; 6-mitochondriyal; 7-lipid tonchi; r- sitoplazmatik to'r; d-o'zak; e-disklar.

paydo bo'ldi. Ko'zning oldingi qismida sklera epidermal epiteliy bilan qoplangan tiniq muguz (shox) pardaga aylanadi. Taraqqiyotning ilk bosqichlarida ko'z qadahi ichiga kiradigan qon tomirlari va mezenxima embryonal to'r parda bilan birgalikda shishasimon tana va rangdor (kamalak) pardani hosil qilishda ishtirot etadi. Rangdor (kamalak) pardanering ko'z qornchig'ini kengaytiruvchi va toraytiruvchi muskullari ko'z qadahi qirg'oqlaridan hosil bo'ldi va mionevral elementlar hisoblanadi.

Ko'z soqqasi. To'r parda (retina) ichki parda bo'lib, uning ko'p qismini ko'rish bo'limi tashkil etadi, qolgan qismi ko'r bo'lim bo'lib, siliar va kamalak qismlarga bo'linadi. Ko'r qism ko'ruchchi qismdan tishli (tishsimon) chekka bilan ajraladi. (111-rasm).

To'r pardanering hujayralari. To'r pardanering eng tashqi qavatida pigmentli epitely joy-

lashadi. Bu qavat hujayralarining ichki yuzasidan to' r parda chuuqur qavat-lariga qarab o'sim-talar - "soqollar" yo'nalgan. Bu o'simtalar yorug'lik sezuvchi tayoqchali va kolbachalii hujay-talarni o'rabi turadi. Kuchli yorug'lik ta'sirida pigment donachalar hujay-ra tanasidan o'sim-talarga yo'nalsa, qorong'ilikda hujay-ra tanasiga o'tadi va shu yo'l bilan fo-toretseptorlarga tu-shuvchi yorug'likni idora qiladi. Pig-metli epiteliy hu-jayralari yorug'lik sezuvchi hujayra-larni oziqlantirishda ma'lum ahamiyatga ega.

Navbatdagi qavut fotoretseptorlar - kolbschali va tayoqchali hujayralardan hosil bo'ladi. Bu hujayralar **tayoqchalar** va **kolbachalar** deyluvchi tashqi qismilardan va o'zaklar joylashadigan ichki qismilardan iborat. (112-rasm).

Tayoqchalarda yorug'lik sezuvchi modda - **rodopsin** yoki ko'rish pur-puri bo'lib, bu modda yorug'lik ta'sirida parchalanadi, qorong'ida qaytariladi (tiklanadi). Yorug'lik sezish qobiliyati kuchli tayoqchalar g'ira-shira yorug'likning kuchsiz nurlarini sezaoaldi. Kolbachalar tayoqchalarga nisbatan to'rt pardada kamroq, ularda rodopsin o'mida **iodopsin** bo'ladi, shakli konusga o'xshash. Kolbachalarning yorug'lik nurlarini sezish qobiliyati kuchsizroq, lekin ular rangni ajratma oladi.

Tayoqchali nevrotsitlarning dendriti to'rt parda pigment epiteliyi hujayralarining o'simtalarini orasida joylashadi. Har bir o'simta (tayoqcha) tashqi va ichki segmentlarga ega bo'lib, ularni bog'lovchi qism birlashtirib turadi. Tashqi segment silindрга o'xshash va tiniq bo'ladi. Ichki segment tashqisidan uzunroq, eniroq va qoramtilroq. Elektron mikroskopiya va sitokimyo-fotoretseptorlar nozik tuzilishining ko'pgina o'ziga xos tomonlarini aniqlash imkonini berdi. Tashqi segment qalinligi 14 nm, eni esa 2 mikrom keladigan, o'zaro bog'lanmagan va bir-biriga qalashib yotadigan disklardan iborat. Disklar qalinligi 3 nm keladigan qo'shaloq membranadan tuzilgan. Ichki segmentning tashqi qismidagi mitoxondriyalar to'dasi bir-biriga zichi tegib joylashadi. Perikanonda sitoplazmatik to'rt joylashgan. Ichki va tashqi segmentlarni bog'lovchi qismda bazal tanachadan boshlamuvchi tukchalar joylashadi. Perikaronдан markaziy o'simta - neyrat boshlanib, u to'rt pardaning bipolyar nevrotsitlari bilan siphanslar hosil qiladi.

Ildinchi xil fotoretseptorlar (kolbachalar) tuzilishi jihatdan tayoqchalarga ancha o'xshash, faqat ular qismi tashqining hajmi kattaroq, tashqi segment uzun bo'lib, ichkisi kengaygan. Kolbachalarning tashqi segmenti plazmolemmanning invaginatsiyasi natijasida hosil bo'lguun yarim disklardan iborat. Ichki segmentdagi mitoxondriyalardan iborat ellipsoid ichida yirik lipid toromchi mavjud. Tashqi segment yarim disklarining membranalari bosqqa xil ko'rish pigmenti - iodopsisiga ega. Uch xil asosiy rangni sezishga moslashgan uch xil kolbachalar mavjud. Kunduzgi hayot (trikchilik) o'tkazuvchilarda kolbachalar ko'proq, kechasi hayot kechinuvchilarda (boyqush, ko'rshapalak) ular deyarli

bo'lmaydi. Yana ham ichkariroqda **bipolyar hujayralar** joylashib, ular yong'lik ta'sirini sezuvchi nevronlardir. Bipolyar nevronlarning dendriti to'r pardanining tashqi yuzasiga qarab yo'nalib, kolbachalari va tuyyoqchali hujayralarning ichki qismilari bilan tutashadi, neyrini esa ichki qavatlarga borib, ganglioz qavat hujayralarida siperlari bilan tugaydi. Bipolyar nevrotitsitlarning tanasi yumaloq va asosan o'zak bilan band. Bular retseptor nevronlar bo'lib, bosh miya nervlari gangliylarining nevronlariga to'g'ri keladi, shuning uchun ular to'r parda **gangliyi** ham deyiladi.

Bu qavatning tashqi zonasida gorizontal hujayralar ham bo'lib, ular to'r pardanining assotsiativ apparatini hosil qiladi. Bipolyar nevrotitsitlar qavatining ichki zonasida yumaloq yoki noksimon shaklli, kalta o'simtalarga ega hujayralar bo'lib, ular amakrin hujayralar yoki sentrifugal bipolyar hujayralar deyiladi. Bularning o'simtalari to'r pardanining ichki yuzasiga qarab yo'nalib, bipolyar va ganglioz hujayralar bilan gorizontal assotsiativ aloqa (sinapslar) hosil qiladi.

Bipolyar hujayralardan tu'sirot ganglioz qavat hosil qiluvchi ko'rish nervining gangliyi ham deb ataluvchi **multipolyar ganglioz hujayralarga** uzatiladi.

To'r pardani miyaning tashqariga bo'rtib chiqqan qismi deb qaralsa, bu qavat oraliq miyaning assotsiativ yadrolariga to'g'ri keladi.

Yuqorida aytganimizdek, ganglioz qavat hujayralari bipolyar nevrotitsitlar bilan aloqadordir. Katta va kichik ganglioz hujayralar mavjud. Katta hujayralar kamroq bo'lib, ko'rish sezgilarini o'tkazsa, kichik hujayralar ko'proq bo'lib, vegetativ hujayralar hisoblanadi va uzunchoq miyadagi markazlar (yadrolar) bilan tutashadi.

Vaqti-vaqti bilan ularda nevrosekreziya yuz berib, bu sekret shishasimon tanaga o'tadi.

Ganglioz hujayralar qavutidan keyin ganglioz hujayralar neyrilariidan iborat **nerv tolalari** qavati joylashadi. Bu tolalar to'planib, ko'rish nerviga aylanadi.

To'r parda nevrogliyasi yuqorida ko'rib o'tilgan hujayralarni tutib turuvchi stroma hisoblanadi. Tutib turuvchi glial tola-hujayralar (Myullerning tayanch hujayralari) - to'r pardanining ichki yuzasida kengaygan asosga ega bo'lib, ingichkalashgan uchlari tolalar holida kolbachalar va tayoqchalarga yetib boradi. Bu hujayralarning o'zagi oval shaklda bo'lib, ichki o'zak qavatda yotadi. Plastinkasimon o'simtalari to'r pardanining g'ovak strukturali skeletini hosil qiladi. Ichki va tashqi chegara membranalar ham shu hujayralarning o'simtalariidan hosil bo'ladi. Ichki membrana nerv tolalari qavatini shishasimon tanadan chegaralab turadi, tashqi membrana esa kolbachalar va tayoqchalar ostiga joylashadi.

Shuningdek, to'r pardada astrotsitlar va mikrogliya elementlari uchraydi. To'r pardaning qavatlari tushqi tomondan ichkariga qarab quyidagicha joylashadi:

1. Pigmentli epiteliy qavati;
2. Kolbachalar va tayoqchalar qavati;
3. Tashqi chegara membrana (tutib turuvchi glial tola-hujayralarning o'simtalaridan hosil bo'lgan qavat);
4. Tashqi o'zakli qavat (kolbachalar va tayoqchalarning o'zaklari joylashgan qavat);
5. Tashqi to'rsimon qavat (kolbachalar va tayoqchalarning ichki tolador bo'lmlari bipolyar hujayralarning dendritlari bilan sinapslar hosil qiladigan qavat);
6. Ichki o'zakli qavat (bipolyar, gorizontal, sentrifugal amakrin hujayralar, tutib turuvchi tola-hujayralarning o'zaklari joylashgan);
7. Ichki to'rsimon qavat (bipolyar hujayralar neyritlarining va ganglioz hujayralar dendritlarining tarmoqlari joylashgan qavat);
8. Ganglioz qavat (multipolyar ganglioz hujayralar joylashgan qavat);
9. Nerv tolalari qavati (ganglioz hujayralarning neyritlaridan iborat);
10. Ichki chegara membrana (tutib turuvchi glial tola-hujayralarning o'simtalaridan hosil bo'lgan);

Shuni qayd qilish kerakki, to'r pardaning turli qismlari bir xil ahaniyatga ega emas, binobarin, turlicha histologik tuzilishga ega. Predmet (buyum)ning tasviri tushadigan markaziy qism - eng yaxshi ko'rish oblasti hayvonlarda to'r pardaning markaziy qismi, odanda - sariq dog' deyiladi. Bu joyda yorug'lik sezuvchi hujayralarning eng ko'p konsentratsiyalanishi kuza tiladi. To'r pardardon ko'rish nervi chiqadigan joy ko'r dog' deb atalib, bu yerda nerv tolalari qavati maksimal qafinlikka ega va yorug'lik sezuvchi hujayralar bo'lmaydi. Oldinga tomon, to'rsimon pardaning kamalak qismiga qarab borgan sari nerv hujayralarining o'rnini tutib turuvchi glial-tola hujayralar ola boradi, tishli chekka, siliar va kamalak qismlarda urumman nevronlar yo'q.

Ko'rish analizatori. Tayoqcha va kolbachalar (fotoreceptorlar) qabul qilib olgan yorug'lik ta'sirotlari to'r pardaning bipolyar nevrotsitlariga, ulardan ganglioz nevrotsitlarga, keyin esa ganglioz nevrotsitlarning, ko'rish nervi tarkibidagi neyritlari bo'ylab miyaga yo'naladi. Miya qutisi ichida ko'rish nervlarning tolalari o'zaro kesishib, qisman qarama-qarshi tomoniga o'tganligi uchun har bir ko'z miyaning har ikkala yarim sharlari bilan bog'langan bo'ladi. Tolalar kesishib, qarama-qarshi tomonlarga o'tgach, ko'rish yo'llari holida ko'rish tepachalariga boradi. Ko'rish tepachasidagi nevrotsitlarning o'simtalarini po'stloqning ensa oblastiga boradi. Shunday qilib, ko'rish analizatori birlamchi

sezuvchi hujayralar - tayoqcha va kolbachalurdan tashqari yana uch xil: hipolyar, gangioz va ko'rish tepachasida joylashgan nevrotsitlarga ega.

Ko'zning o'rangi pardasi uch qism: qon tomirli parda, siliar yoki kipriksimon tana (*corpus ciliare*) va rangdor yoki kamalak parda (*iris*)ga bo'linadi.

Tomirli parda (*chorioidea*) qon tomirlariga boy, pigmentli to'qima bilan aralashgan biriktiruvchi to'qima tolalaridan iborat to'ridir. Tashqi va ichki tomondan bu parda maxsus plastinkalar yordamida sklera va to'r parda bilan tutashgan bo'ladi.

Tashqi tomondan hisoblaganda tomirli pardada to'rt qavat farq qilinadi:

1. Tomir usti plastinka (*lamina fiessa sclearae*) elastik tolalar va plastinkalar to'ri bo'lib, pigment hujayralarga ega va qon tomirli pardani sklera bilan tutashtiradi;

2. Tomirli yoki asosiy plastinka (*lamina vasculosa*) xuddi avvalgi plastinkadagidek biriktiruvchi to'qimadan tuzilgan, qon tomirlarining qalin to'riga ega, pigmentga boy va eng qalin qavut;

3. Gomogen modda bilan o'ralgan kapillyarlarning qulin to'ridan iborat kapillyarlar plastinkasi (*lamina choriocapillaris*);

4. Juda yupqa, gomogen bo'lib ko'rinudigan nozik tolali parda - shishasimon plastinka (*lamina basilaris*).

Tomirli plastinka va kapillyarlar plastinkasi orasida yirtqich hayvonlarda tomirsiz, hujayralardan iborat qavat bo'lib (*tapetum cellulosum*), bu qavat qorong'ida ko'zga tushgan yorug'likdan nurlanadi (ya'ni hayvonning ko'zi "yonadi"), tuyeqlilarda fibroz qavat (*tapetum fibrasum*), cho'chqlarda elastik tolalar qavati bo'ladi.

Tomirli parda to'r pardanining oziqlanishi va ko'z ichidagi bosimni regulatsiya qilishda katta ahamiyatga ega.

Siliar tana (*corpus ciliare*) - ko'z gavharini fiksatsiya qilish va uning shaklini o'zgartirish vazifasini bajarib, gavhami o'rab turuvchi belbog'cha holdadir.

Siliar tana ikki qismiga: silliq qism - siliar halqa va markaziy, burmalar bilan qoplangan qismi - siliar tojga bo'linadi.

Siliar xalqa o'z tuzilishi bilan tomirli pardaga o'xshash, bu yerda faqat kapillyarlar plastinkasi yo'q.

Siliar toj siliar xalqaning davomi bo'lib, radial burmalar siliar (kipriksimon) o'simtalarga ega. Siliar o'simtalarning ko'z gavhariga qaragan qismi qalinlashgan bo'lib, ularning asosi qon tomirlariga boy biriktiruvchi to'qimadan iborat. Sklera bilan siliar tana oralig'idagi uchburchak shaklidagi

joyda silliq muskuldan iborat siliar muskul joylashadi.

Siliar tananing oldingi yuzasida halqa shaklidagi siliar chigal bo'lib, u siliar tana va uning muskulini, kamalak parda, shuningdek qon tomirlarini nervlar bilan ta'minlaydi. Siliar tana faqut parasimpatik innervatsiyaga ega.

Kamalak parda (rangdor parda, yoy parda - *iris*) o'rangi pardaning shox parda ostidagi oldingi qismi bo'lib, ko'z qorachig'ini kengaytirish va toraytirish yo'li bilan ko'z soqqasi ichiga tushayotgan yorug'lik miqdorini idora qiladi.

Kamalak parda va shox parda o'rtasida ko'zning oldingi kamerasi, kamalak parda va gavhar o'rtasida ko'zning orqa kamerasi bo'lib, ular ko'z qorachig'i yordamida o'zaro tutashgan va suryuqlik ("namlik") bilan to'lgandir. Kameralar devorining ichki yuzasi berk bo'shilqlarni qoplagani uchun *endoteliy* deb ataluvchi, lekin endoteliyning biologik xossalariiga ega bo'lgagan to'qima bilan qoplangan.

Kamalak pardaning asosi silliq muskul va biriktiruvchi yumshoq, ot, sigir va cho'chqada - zichroq to'qima bo'lib, unda tushqaridan sanaganda quyidagi qavatlar mavjud:

1. "Endoteliy" va tashqi chegara qavat (asosiy modda va fibrotsitlar);

2. Biriktiruvchi to'qimadan iborat asosiy plastinka. Bu qavatda silliq muskul tolalari bo'lib, qorachiqning sfinkteri va dilatatorini hosil qiladi. Keyin ichki chegara qavat (asosiy modda va fibrotsitlar) joylastadi;

3. Bir qator ko'p qirrali, pigmentga ega yirik hujayralardan iborat to'r pardaning kamalak qismi. Bu hujayralar to'r parda pigmentli epiteliy qavatining davomidir.

Kamalak pardada tarqoq joylashgan ko'p sonli qon tomirlari va nervlar bor. Kamalak parda qavatlarida turli miqdorda pigment hujayralar bo'lib, ular ko'zning rangini belgilaydi.

Ot va kavsh qaytaruvchilarda qorachiqning yuqorigi chetida kamalak (rangdor) pardaning biriktiruvchi to'qimadan iborat, qon tomirlari va kuchli pigmentlangan hujayralur saqllovchi, o'smalari mavjud.

Ko'zning tashqi pardasi ikki bo'lim: mexanik ahamiyatga ega bo'lgan ko'z soqqasining zich pardasi - sklera va tiniq bo'lim - shox pardadan iborat.

Sklera (*sclera*) - oqish parda yuza qismi biriktiruvchi yumshoq to'qimaga aylanuvchi biriktiruvchi zich to'qimadan iborat.

Shox parda (*cornea*) tashqi tomondan ko'p qatlamlili yassi epiteliy; ichki tomondan "endoteliy" bilan qoplangan bo'lib, uning asosi yoki xususiy qavatini biriktiruvchi zich to'qima tashkil qiladi.

Xususiy qavatning har ikkala tomoniida bazal membrana: tashqi tomonda oldingi chegara plastinkasi, ichki tomonda orqa (keyingi) chegara

plastinkasi joylashadi. Shunday qilib, shox parda besh qavatga ega.

Shox parda nerv elementlariga boy bo'lsa, qon kapillyarları faqat torgina chekka zonada uchraydi.

Ko'z gavhari (*crystallina*) kapsula, epiteliy va xususiy moddadan iborat.

Gavharning kapsulasi yupqa, timiq, elastiklikka ega, kutikulaga o'xshash parda.

Gavharning epiteliyi gavhar pufakchasingin old devorchasidan kelib chiqadi. Uning hujayralari taraqqiyot jarayonida past bo'yliga aylanib, gavharning oldindi yuzasida joylashadi. Gavharning chetiga yaqinlashgan sani epiteliyning bo yi baland bo'la boradi va hujayralar meridional holatni egallab, astasekin gavhar tolalariga aylanadi.

Gavharning xususiy moddasi olti qirrali, mutlaqo timiq, juda cho'zilgan tayoqchalar - tolalardan iborat.

Gavhar pufakchasi orqa devorining epiteliy hujayralari taraqqiyot jarayonida cho'zilib uzunlashadi va gavhar pufakchasi ichini batamom to'ldirib, gavhar tolalariga aylanadi. Bu tolalarning ayrimlari o'zakka ega, ayrimlari (ko'proq markazda joylashgандари) o'zaksizdir.

Gavhar qon tomirlari va nervlarga ega emas.

Tashqi chekkasi siliar muskulga, ichki chekkasi gavharga tutashadigan tolador xalqa - siliar pay gavhami fiksatsiya qilib turadi.

Shishsimon tana (corpus vitreum) har tomonlama yo'naligan, juda ingichka tolalardan tuzilgan, tolalar orasida suvsimon suyuqlik bor. Shishsimon tanada donadorlik mavjud bo'lib, elektron mikroskopining ko'rsatishicha ular kattaligi $10 \text{ } \mu\text{m}$ keladigan mayda, gialuron kislotaga ega zarachalardir.

Ko'z soqqasining suyuqliklari yorug'lik nurini sindiruvchi muhit bo'lishi bilan birga ko'z ichidagi bosimning doimiyligini ta'minlaydi. Ko'z soqqasining tomirlar sistemasi uning hamma pardalari uchun oziqlanish manbai bo'lib, shuningdek, ko'z soqqasining suyuq muhitlarini hosil qiladi. Ko'z qonni to'r pardanining markaziy arteriyasi va siliar arteriyalardan oladi. Birinchi arteriya to'r pardani, keyingilari esa asosan tomirli parda va sklerani oziqlantiradi. Ko'z soqqasida limfa tomirlari bo'lsasdan, limfa sistema limfa bo'shilqlaridan iborat.

Ko'z soqqasining yordamchi apparatlari. Qovoqlar - terining burmasi bo'lib, himoya vazifasini amalga oshiradi va tashqi teridan iborat qismi yupqa, boshqa joylar terisidek tuzilgan, gardishi 2-3 qator sezuvchi jundar - kipriklarga ega. Qovoqlarning ko'z soqqasiga qaragan ichki yuzasida teri o'miga shilliq parda - kon'yunktiva bor.

Qovoqlar terisi ostida oz miqdorda teri osti kletchatkasi, undan chuqur-

roqda esa ko'ndalang-targ'il muskulidan iborat qovoqning aylana muskuli joylashadi. Navbatdagi qavat fassiya bo'lib, unda qovoqlarni ko'taruvchi-tushiruvchi muskullarning paylari yotadi. Qovoqlarning gardishiga yaqinlashgach fassiya o'mida birkiruvchi zikh to'qimadan iborat tarsal plastinka hosil bo'ladi. Bu plastinkada ko'zni moylovchi suyuqlik ishlab chiqaruvchi, moy bezlariga o'xhash, tarmoqlangan alveolyar bezlar - torsal bezlar mavjud.

Kon yunktiva asosini birkiruvchi to'qimadan iborat xususiy plastinka tashkil qilib, ko'pincha limfatik tugunchalarga ega. Uni ot va yirtqichlarda ko'p qatlamlili prizmatik, kavsh qaytaruvchilar va cho'chqada qadahsimon hujayralarga ega aralash epiteliy qoplaydi. Ko'z soqqasiga o'tish bilan ko'zning shox pardasida epiteliy ko'p qatlamlili yassiga aylanadi.

Uchinchi qovoq kon yunktivaning burmasi bo'lib, ot, cho'chqa va mushukda elastik, boshqa hayvonlarda gialin tog'ayga ega. Qovoqlar nerv elementlariga boy.

Ko'z yosh apparati. Ko'z yoshi bezi murakkab naycha-alveolyar bez bo'lib, uning chiqaruv yo'llari yuqorigi qovoq kon yunktivasining burmasiga yaqin joyda ochiladi. Chiqaruv yo'llar ikki qavatli kubik yoki prizmatik epiteliy bilan qoplangan, yo'l diametri kichiklashishi bilan epiteliy bir qavatliga aylanadi, past bo'yli kubiksimon bo'lib qoladi. Bo'shilg'i tor oraliq bo'limlarga kelib, epiteliy deyarli yassiga aylanadi.

Sekretor bo'limlarning ko'z yoshi ajratadigan hujayralari yumaloq, markazda joyleshgan o'zak va oksifil bo'yaladigan sitoplasmaga ega. Kavshovchi mayda hayvonlarda va yirtqichlarda ayrim hujayralar sitopiazmasi bazofil bo'lib, shilliq kiritmaga ega. Cho'chqada sekretor bo'limlar faqat shunday hujayralardan tuzilgan.

Ko'z yoshi bezida ko'p miqdorda uchrovchi nerv elementlari qon tomlari, birkiruvchi to'qima va bez hujayralari bilan bog'langan.

Ko'z yoshi tepachasi yuzasida qadahsimon hujayralari bo'lgan ko'p qatlamlili yassi epiteliy bilan qoplangan. Ot, qoramol va itda birkiruvechi to'qimadan iborat asosiy plastinkada limfatik tugunchalar, ot va itda, bundan tashqari, qo'shimcha ko'z yosh bezchalari uchraydi.

Ko'z yoshi kanalchalari ko'p qatlamlili yassi (otlarda prizmatik) epiteliy bilan qoplangan.

Ko'z yoshi xaltasi ichki tomondan ko'p qatlamlili yassi, cho'chqada esa o'tib turuvchi epiteliy bilan qoplangan. Birkiruvchi to'qimadan iborat asosi limfold to'qimaga boy.

Ko'z yoshi-burun kanali ko'p qatlamlili prizmatik epiteliy bilan qoplangan. Xususiy plastinkasi limfatik tugunchalarga ega bo'lib, venoz chatishma (to'r)ga boy.

MUVOZANAT VA ESHITISH ORGANI

Quloq muvozanat va eshitish organi bo'lib xizmat qiladi. Tana fazodagi holatining o'zgarishi yoki tovush to'lqinlari quloq ichidagi suyuqlikning harakatini vujudga keltirib, bu suyuqlik o'z navbatida sezuvchi hujayralarning tukchalarini qitiqlashi sezgi hosil qiladi.

Eshituv va muvozanat organlari vazifasining o'xhashligi ulaming morfologik yaqinligida, ya ni bir kompleksiga birikishida ham o'z ifodasini topadi. Bu organ umurtqasizlarning statotsist deb ataladigan, ichi suyuqlik bilan to'lgan epithelial pufakchasinining evolyutsiyasi natijasida kelib chiqadi. Statoisist hujayralarining ichki yuzasida tukchalar, pufakcha ichida esa ohak tanacha - statolit bor. Tananing fazodagi holati o'zgarishi statolitning harakati va sezuvchi hujayralar tukchalarining tebranishiga sabab bo'ladı.

Quloq uch qismi: tashqi, o'rta va ichki quloqdan iborat.

Tashqi quloq quloq suprasi va tashqi eshituv yo'lidan, o'rta quloq nog'ora bo'shlig'i va eshitish suyakchalar - bolg'acha, sandon va uzangi suyakchalaridan tashkil topadi.

Tashqi quloq o'rta quloqdan nog'ora parda yordamida ajralib turadi, o'rta quloq eshitish nayi (Yevstaxiy nayi) orqali halqum bilan tutashadi.

Ichki quloq **suyak labirint** va uning ichiga joylashgan **parda labirintdan** iborat. Suyak labirint chakka suyagi tosh bo'limi qoyali qismi ichiga joylashgan bo'shliqlar va kanallar sistemasidir. O'rta va ichki quloq orasidagi to'siqda biriktiruvchi to'qimadan iborat yupqa parda bilan qoplangan oval va yumaloq teshik ("darcha")lar mayjud. Suyak labirintda uch bo'lim: suyak chig'anog'i, bir-biriga perpendikulyar ravishda joylashgan uchta yarim doira kanallar va dahliz farq qilinadi.

Suyak labirint ichidagi pardalabirint tarkibiga muvozanat organi - parda yarim doira kanallar, oval hamda yumaloq xaltachalar va parda chig'anog'dan iborat eshituv organi kiradi. Parda yarim doira kanallar suyak yarim doira kanallar ichida, oval hamda yumaloq xaltachalar dahliz ichida, parda chig'anog suyak chig'anog ichida joylashadi. Suyak va parda labirint orasida perlifma bilan to'lgan joy ("bo'shliq") qoladi. Bu "bo'shliq" bosh miyaning parda osti "bo'shliqlari" bilan tutashgandir. Parda labirintning ichi endolimfa bilan to'lgan.

Quloqning taraqqiyoti. Quloqning taraqqiyoti keyingi miya pufagi zonasida ektodermidan eshitish chuqurchasi hosil bo'lib, keyin uning eshitish pufakchasi aylanishidan boshlanadi. Boshda bu pufakcha endolimfatik yo'l orqali tashqi muhit bilan tutashib turadi. Pufakcha ajralgandan keyin endolimfatik yo'l uzun, uchi berk o'sma shaklini oladi.

Yeshituv pufakchasinining epitheliotsitlari orasida uchida tukchalari

bo'lgan eshituv hujayralari paydo bo'ladi. Ular yonma-yon hosil bo'layotgan spiral gangliyning bipolyar nevrotitslari dendritlari bilan aloqada bo'ladi. Pufakchanning bir qismida eshituv hujayralari kelajakda muvozanat organi kurtagiga aylanuvchi orolchalar, boshqa joyida eshituv kurtagini hosil qiluvchi tasmacha holida joylashadi. Eshituv pufakchasi ikkiga bo'linib, yuqorigisi bachadoncha (utrikulyus) va uchta, ampulasimon kengaygan qismi bor, yarimdoira kanallarni, pastkisi xaltacha va u bilan tutashgan o'sma hosil qiladi. Bir uchi berk bu o'sma uzayib va spiral shaklida o'ralib, chig'anoq kanaliga aylanadi. Xaltacha, bachadoncha va ampulalar epiteliy qavatida retseptor hujayralar joylashgan qismlar, chig'anoq kanali bazal qismida tasmacha shaklida joylashuvchi va spiral organ tarkibiga kiruvchi sezuvchi hujayralar taraqqiy qiladi. Atrofdagi menziximadan ichki quloq murakkab konfiguratsiyasini takrorlovchi tog'ay, keyin suyak labirint hosil bo'ladi.

Tashqi quloq. Quloq suprasi jun, yog' va ter bezlariga ega teri bilan qoplangan elastik tog'aydan iborat. Quloq suprasiga quloq suprasini harakatga keltiruvchi ko'ndalang-targ'il muskullar tutashadi.

Tashqi eshitish yo'li ich tomondan quloq suprasi terisining davomi bilan qoplangan. Boshlang'ich qismida bu teri junga ega. Bu yo'lning devorida quloq "kiri" (teri moyi, pigment va shilliqdan iborat massa) ishlab chiqaruvchi bezlar bor. Tashqi eshitish yo'lining asosini gialin va tolador tog'ay orolchalariga ega bo'lgan elastik tog'ay naycha tashkil qiladi. Bevosita toshsimon suyakka o'tuvchi qismi suyak to'qimadir.

O'rta quloq. Nog'ora bo'shlig'i yupqa, suyak jildiga tutashib ketuvchi biriktiruvchi to'qimadan iborat, ikki qavatlari kubik, ayrim joylarda prizmatik epiteliy bilan qoplangan shilliq pardaga ega. Quloq suyakchalarini ham shunday parda bilan qoplangan. Epiteliy ostida kapillyarlarning to'ri, ganglioiz hujayralarga ega nerv chigali uchraydi.


Nog'ora parda tashqi quloq va ichki quloqni ajratib turadi va tovush to'lqinlarining tebranishini eshitish suyakchalariga uzatadi. Bu parda biriktiruvchi zinch tolador to'qimadan tuzilib, tashqi eshituv yo'li tomonda yupqa ko'p qatlamli yassi epiteliy, nog'ora bo'shlig'i tomonda bir qatlamli yassi, chet qismi tebranuvchi epiteliy bilan qoplangan.

Quloq (eshituv) suyakchalarini tovush to'lqinlarini nog'ora pardadan oval teshik va perilimfaga uzatadi. Ular plastinkali suyakdan tashkil topib, bo'g'in yuzalarida tog'ay qoldig'iga egadir. Bu suyakchalarining muskuli ko'ndalang-targ'il muskul bo'lib, tovush to'lqinlarining kuchini oshiradi, shuningdek eshituv organini o'ta kuchli ta'sirlanishdan saqlaydi.

Eshituv nayi o'rta quloqni halqum bo'shlig'ining burun qismi bilan tutashtiradi. Bu bilan nog'ora pardaga havoning bosimi muvozanatlashib

turadi. Eshitish nayi nog' ora bo'shilg'i yaqinida suyak, halqum tomonda tog'ay devorga ega, shilliq pardasi ko'p qatorli tebranuvchi epiteliy bilan qoplangan, bodomchalar va shilliq bezchalarga ega. Tog'ay devorda tog'ayning hamma xillari uchraydi. Devorda ko'plab qon tomirlari va uncha katta bo'limgan gangliylarga ega nervlar bor.

Havo xaltasi bir tuyoqlilar eshitish nayining yupqa devorli kengaygan qismidir. Shilliq pardasining epiteliy qavati eshitish nayinikidan qalin, xususiy qavatida esa elastik tolalar, bezlar ko'p, halqum yaqinida ayrim-ayrim silliq muskul tolalari bor.



113-rasm. Ampula che'qqisi (qirras) tuzilishining sxemasi (Kolmer bo'yicha):

1-suyab tuzuvchi epiteliotutlar; 2-ekchali reseptor hujayralar; 3-reseptor hujayralarning tukchalari; 4-ganifuz shuklidagi dirildoqsimon modda; 5-nerv tolalari.

Tayanch hujayralar chu-qurroq, bevosita bazal membranada yotadi, ammo o'zlarining cho'zinchoq tanasi bilan epiteliyning yuzasigacha boradi. Qirra

Ichki quloq. Muvozanat organi. Parda yarim doira kanallar oval xaltachaning o'smasi sifatida taraqqiy qiladi. Ular suyak yarim doira kanallar ichida ekssentrik joylashadi, ya'ni fuqat bir tomondan suyakka tegib yotadi. Parda yarim doira kanallar yupqa tolador xususiy pardadan iborat, tashqi tomondan ko'z kameralaridagidek "endoteliy" bilan qoplangan. Suyak kanallarining suyak jildi ham "endoteliy" bilan qoplangan. Parda yarim doira kanallarning ichi basal membranaga ega bo'lgan bir qatlamli yassi epiteliy bilan qoplangan. Har bir kanal o'z asosida kengayib ampula hosil qiladi. Shu joyda qirra yoki tojdevorning ichki bo'rtmasi hosil bo'ladi. Qirra kanal yotgan tekislikka perpendikulyar tekislikda yotadi. Ichki tarafidan qirrani tayanch va tukchali hujayralardan iborat sezuvchi epiteliy qoplab turadi. (113-rasm).


chetida ushbu hujayralar-ning bo'yli pasayib asta-sekin yarim doira kanal-larning yassi epiteliyiga sylanadi. Epiteliy hujayra-larning yuzasida mikrovor-sinkalar hosil bo'ladi. Tayanch hujayralarning ora-larida past bo'yli tukchali hujayralar yakka-yakku joy-lashadi. Ularning asoslari bazal membranadan yuqo-riroq yotadi, uchlari esa epiteliy yuzasiga etib boradi. Har bir hujayra uzun tukcha bilan tamom bo'ladi. Bu tukchalar epiteliy ustidagi qirga dirildaq moddasining kanalchalariga kirib turadi. Dirildaq modda tuyanch hujayralar tomonidan ishlab chiqarilib, kupula nomini oladi va uni o'ziga xos kutikula deb qaratadi.

Shakliga ko'ra ikki tipdagi tukchali hujayralarni farq qilish mumkin. Ularning bir xili kosacha holidagi perisellyulyar bilan o'ralgan, kontakt yuzasi katta bo'lgan sinaps hosil qiluvchi yumaloq, keng asosga ega. Ikkinci xili prizma shakhida bo'lib, kontakt yuzasi ancha kichik.

Ampulaning biriktiruvchi to'qimasida ko'plab nerv tolalari bo'lib, ularning tarmoqlari epiteliy hujayralari orasiga kiradi va tukchali hujayralarda tamom bo'ladi.

Tananing fazodagi holati (muvozanat) o'zgarsa, parda yarim doira kanallar ichidagi endolimfa harakatga kelib, tukchali hujayralarning tukchalari tebranadi. Qator fiziko-kimyoviy, kimyoviy jarayonlar, shuningdek, hujayradagi fermentlarning faolligi o'zgarishi natijasida nerv impulsi yuzaga kelib, yuqorida qayd qilingan sinapslarga uzatiladi.

Parda yarim doira kanallar, harakatning tezlashishi va sekinlashuvini, shuningdek, aylanma harakatda tananing fazodagi holati o'zgarishini



114-rasm. Statik dog' tuzilishining schemasi
(Kolmer bo'yicha):

1-suyab turuvechi hujayralar; 2-receptor hujayralar; 3-receptor hujayralarning tukchalar; 4-dirildaqsimon moddu;
5- oöcistar; 6-nerv tolalar.


tuyanch hujayralar va ikki tip tukchali hujayralar bor.

Birinchi tip hujayralarning noksimon, keng va yumaloqlangan aso-

sezadi; bunda aylanish qaysi kanal tekisligida yuz bersa nerv impulsi shu kanalda yuzaga keladi.

Oval (*utricleus*) va yumaloq (*sacculus*) xaltachalar devorining strukturasi parda yarim doira kanallarnikiga o'xshash. Bu yerda ham sezuvchi moslamalar - statik dog'lar mavjud bo'lib, (114-rasm) ular-ning tuzilishi qirraning tuzilishiga o'xshab ketadi:

siga kelib tutashuvchi nerv tolalari kosachasimon apparat hosil qiladi (115 rasm).



115-rasm. Makula (static dog') hujayralari ultramikroskopik tulfishining xenesi
(A-suz emizurechilarida,
B-qushilarda):

a-1 tipdagli retseptor hujayri; b-efferent nervning kosachasimon oxiri (terminasiya); c-nerv tolalarining qoshlar makulasidagi ko'p hujayrali kontaktlari (sinapsleri); 2-ll tipdagli tukchali retseptor hujaynalar; 3-harakatsiz tukchalar (stereotsilyalar); 4-harakatchan tukcha (kinotsilly); 5-suyab turuvchi hujayralar va 6-ularning mikrovuruskilari.

Bu apparat ma'lum joylarda retseptor hujayra bilan siphanslar hosil qiladi. Prizmatik shakldagi ikkinchi xil hujayralarning asosiga afferent hamda efferent nerv terminallari bevosita tutashadi va xarakterli sinapslar hosil qiladi. Tukchali sensor hujayralarning uchida 60-80 harakatsiz tukchalar - **stereotsilyilar** va bitta harakatchan tukcha - **kinotsilly** joylashadi. Dirilsoq modda plastinka shakliga ega. Hujayralar yuzasidan ma'lum bir uzoqlikda dirilsoq moddada kalsiuning fosfat va karbonat tuzlariga to'yingan donachalar - **otolitlar** (statokoniylar) uchraydi. Oval va yumaloq xaltsachalardagi otolitlar va tukchali hujayralar boshning fazodagi holati o'zgarishini qabul qiladi.

Muvozanat analizatori. Nerv impulsining muvozanat organidan po'stloqqacha bosib o'tadigan yo'li uch nevrotlit: vestibulyar gangliy, vestibulyar yadro va ko'rish tepachalari nevrotlitlaridan iborat zanjirdir.

"Statik qirra" va "statik dog'" tukchali hujayralarining atrofida tar-moqlanadigan nerv tolalari **vestibulyar gangliyda** joylashgan sezuvchi bipolar nevrotlitlarning dendritlaridir. Bu gangliy ichki eshituv yo'lida vestibulyar nervda joylashgan. Gangliy nevrotlitlarining neyriti vestibulyar nerv tarkibida, keyin vestibulyar nerv chig'anoq nervi bilan qo'shilgach, stato-akustik nerv tarkibida uzunchoq miyaga qarab yo'naldi va **vestibulyar yadro** nevrotlitlarida tamom bo'ladi. Vestibulyar yadro nevrotlitlarining o'simtlari nevrotlitlari po'stloq nevrotlitlari bilan tutashuvchi ko'rish tepachaluriga tomon yo'nalgandir.

Eshituv organi. Suyak chig'anog'i diametri uch tomondagi ko'r qismiga qarab torayib boruvchi chakka suyagi tosh bo'limi ichidagi spiral kanaldir. Kanal otda va mayda kavshovchilarda 2,25, yirtiqchilarda 3, yirik


kavshovchilarda 3,5 va cho' chqada 4 marta buraladi. Kesmalarda chig'anoq kanalini va unda joylashgan eshituv organi bir necha marta uchraydi. Suyakning atrofida kanal aylanadigan (buraladigan) qismi chig'anoq o'qi deyiladi.

Chig'anoq kanalining bu o'qqa qaragan devori ichki, unga qarama-qarshi tomoni tashqi devor deyiladi. Ichki devordan chig'anoq kanal ichiga yo'naluvchi va chig'anoq o'qi atrofida o'rالuvchi plastinkali suyak o'simta - spiral plastinka ajraladi. Spiral plastinka chig'anoq kanalining tashqi devorigacha yetib bormasdan, u bilan faqat biriktiruvchi to'qima vositasida tutashib turadi. Spiral plastinka suyak chig'anoq kanalining tor va berk (ko'r) uchiga biroz yetmaydi. Ko'ndalang kesimda kanal noto'g'ri oval shaklida bo'lib, "8"-ni eslatadi.

Chig'anoq o'qining suyak to'qimasida nerv hujayralarining to'plami - spiral gangliy joylashib, u spiral shaklida cho'zilgandir.

Parda chig'anoq (116-rasm) ham spiral kanal, lekin biriktiruvchi to'qimadan iborat devorga ega.

Uning asosi bo'lib, spiral plastinka va uning davomi-birikti-ruvchi to'qimadan iborat asosiy (bazi-lyar) plastinka xizmat qiladi. Bazilyar plass-tinka - suyak chig'anoq tashqi devori suyak jildidan bosil bo'lgan spiral payga tutashadi. Parda chi-g'anoqning tashqi de-vori suyak chig'anoq devori bilan tutashib ketadi, uchinchi devor xizmatini vestibulyar plastinka o'taydi. Shunday qilib, ko'ndalang kesimda parda chig'anoq uchburchak shaklidadir. Parda



116-rasm. Chig'anoq ga'jik qimi ku'ndalang kesimi tuzilishining izomasi:

A-spiral plastinka; 1-limb; 2-vestibulyar labirint; 6-nog'ora labirint; 3-spiral tarsovchi; 2-spiral gangliy; 5-spiral nay; 2-baziliy membrana; 3-vestibular membrana; 4-vestibulyar nervon; 5-nog'ora nervon; 6-chig'oneqning pardal kanali; 7-tomirli tasmascha; 8-bit qavallli yassi epitel; 9-endoteliy; B-spiral organ (Kortiy organi); a-ichki ustun hujayra; x-tunnel; z-ichki takchali hujayra; n-tashqi takchali hujayralar; s-tashqi fiksagali hujayralar; r-tashqi chegaral-hujayralar; m-tashqi suyak suvchi hujayralar; u-kutikulyar qoplovchi plastinka (N.A.Kozlov rasm'i).

chig'anoq spiral va bazilyar plastinkaga tayanib, suyak chig'anoq kanalini 2 qavat: dahliz narvoni (*scala vestibule*) va nog' ora narvoni (*scala tympani*)ga bo'ladi; dahliz narvoni vestibulyar plastinkaga tegib turadi, nog' ora

narvoni esa bazilyar plastinka ostida joylashadi.

O'rta va ichki quloq chegarasida dahliz narvoni oval "darcha" bilan, nog'ora narvoni yumaloq "darcha" bilan nog'ora bo'shlig'idan ajralib turadi. Uzangicharning tebranma harakati oval "darcha" orqali dahliz narvoni perelimsigiga o'tkaziladi. Dahliz narvoni chig'anoq kanalining ko'r uchida nog'ora narvoni bilan tutash bo'lgani uchun perelimsfaning tebranishi bu yoqqa ham tarqalib, chig'anoq asosiga qaytadi va yumaloq "darcha"ga etib keladi. Oval "darcha"ning pardasi nog'ora bo'shlig'i tomoniga bo'rtib chiqishi perelimsfaning tebranma harakatini keltirib chiqaradi.



117-rasm. Spiral organ hujayrsalarining apical yuzasi.
Rastrlovlchi electron mikroskopda olingan mikrofotografuya x2500 (K.Koychev preparatlari):
1-tashqi sezivchi takchali hujayrlar; 2- ichki sezivchi takchali hujayrlar; 3-suyab tazuvchi hujayrlarning chegaralari.

Bu epitelyi vestibulyar plastinka epitelyining davomi bo'lib, boshqa epitelyiylardan qon kapilyariarining zinch to'riga egaligi bilan farq qiladi. Bu yerda endolimfa sekretsiyasi yuz beradi, degan taxminlar bor.

Bazilyar plastinka biriktiruvchi to'qima-an tuzilgan. Uning tolalari o'z xususiya-lariga ko'ra elastik tolalarga yaqin. Parda chig'anoq bo'shlig'i

Narvonlar devori "endoteliy" bilan qoplangan. Vestibulyar plastinka juda yupqa biriktirovchi to'qima pardadan tuzilgan bo'lib, yirik kavshovchilarda qon tomirlariga ega. Bu plastinkaning ikki chekkasi suyak jildiga o'tadi. Plastinkaning ichki yuzasi bir qatlamlı yassi epitelyi, tashqi yuzasi esa, yarim doira kanallardagi kabi "endoteliy" bilan qoplangan. Parda chig'anoqning tashqi devori suyak chig'anoq devorining suyak jildi bilan qo'shilib o'sib ketgan bo'lib, noto'g'ri shakildagi baland bo'yli hujayralardan iborat epitelyi bilan qoplangan.

tomondan elastik tola-lar qavati **spiral organi** hosil qiluvchi-bazal membrana va epiteliy bilan qoplangan.

Spiral organ eshitish retseptori bo'lib, eshi-tish va tayanch hujay-ralar kompleksidir. Uning ustida qoplovchi plastinka yotadi. Peri-limfa va eshitish suyak-chalari orgali bu yerga uzatiluvchi tovush to'l-qintari bazilyar plastin-ka va shu bilan birga, butun spiral organning tebranishini yuzaga keltiradi. Bu tebranishlar tovush to'lqinlarining kuchi va chastotasiga bog'liq bo'lib, eshitish hujayralarida murakkab sitokimyoviy yo'llar bilan nerv impulsiga aylanadi. Eshitish hujayralarining submikroskopik tuzilishi (117-rasm) bu to'g'rida dalolat berib turibdi. Gistokimyoviy tekshirishlar fermentlarning joylashishi va tovush ta'sirida o'zgarishi qonuniyatlarini ochib berdi.

Spiral organ ko'ndalang kesimida "S"simon hujayralarning ikki qavati ko'rini turadi. Ular ag'darib qo'yilgan rim raqami "V"ga o'xshash bo'lib, **ustun-hujayralar** deyiladi va bazilyar plastinkani tortib, taranglik va elastiklik berib turadi. Ularning kengaygan asosi bazilyar plastinkada yotadi. Anchagina zinch sitoplazmasi ayrim joylarda kutikula hosil qiladi va tayanch fibrillalarga ega. Ustun-hujayralar orasidagi uchburchaksimon bo'shiq - spiral tunnel - butun parda chig'anoq bo'ylab joylashadi. Ustun-hujayralardan chetda tayanch va eshitish hujayralari joylashadi.

Ustun-hujayralardan chetda bir necha qator bo'lib joylashgan baland bo'yli hujayralar tashqi devorga yaqinlashgan sari bo'yli pastlasha borib, parda chig'anoq kanalining tashqi devori epiteliyiga aylanadi. Bu hujayralardan bir qismining yuzasi ko'pdan-ko'p mikrotukchalarga ega bo'lib, glikogen va fermentlarga boy (trofik vazifa). Ichki tomondan tayanch hujayralar kam, avval ular bir necha qator bo'lib joylashadi, keyin spiral ariqcha epiteliyiga aylanadi. Spiral ariqcha spiral organ chegarasini belgilovchi chuqurlikdir.

Eshitish hujayralari tayanch hujayralar orasida joylashib, bazal membranadan yuqori turadi va epiteliyning yuzasigacha yetib boradi.

Ichki tukchali sensor (eshituv) epiteliotsitlar, ko'zachasimon kengaygan asosga ega, bir qator bo'lib joylashadi. Ularning sal qavariq kutikula bilan qoplangan yuzasidan 30-60 ta stereotsiliylar chiqqan. Sitoplazmasida mitoxondriyalar, sitoplazmatik to'r elementlari, aktin va miozin mikrofilamentlari uchraydi. **Tashqi tukchali sensor epiteliotsitlar** uch parallel qator hosil qilib joylashadi. Ularning yuzasida ham stereotsiliylarga ega kutikulyar plastinka bor, asosi esa yumaloqlangan. Sensor epiteliotsitlarning sitoplazmasi monofosfor-estereza va oksidlovchi fermentlarga boy, RNK saqlaydi. Bu hujayralarga statenakustik nervning spiral gangliyidagi bipolyar nevrotsitlarning dendritlari kelib taqaladi.

Qoplovchi plastinka spiral organ ustida osilib turadi. Bu nozik tolali kutikulyar tuzilma limbni qoplovchi epiteliydan kelib chiqadi.

Limb qoplovchi plastinchaning qalinlashgan asosi deb qaraladi. Limb bevosita spiral ariqcha orqasida joylashadi.

Eshitish analizatorida ham tovush to'lqiniari ta'sirida hosil bo'lgan nerv impulsi uch nevrotsitli yo'l orqali po'stloqqa borib yetadi. Eshitish hujayralardan tu'sirot spiral gangliy hujayralariga uzatiladi. Bu hujayralarning neyrilari chiganoq nervini hosil qilib, ichki eshitish yo'lida bu nerv vestibulyar nerv bilan qo'shiladi va stato-akustik nervga aylanadi.

Bosh miya qutisiga kirib spiral gangliy hujayralarining tolalari ajraladi va uzunchoq miyaning **eshitish tepachasi** hujayralarda tamom bo'ladi. Eshitish tepachasi hujayralari esa o'z navbatida **ko'rish tepachasining medial tirsakli tanasiga** o'z o'simtalari yuboradi. Bu yerdagi **multipolyar hujayralar** ushbu yo'lning uchinchi nevrotsitlari bo'lib, ularning o'simtalari katta yarimsharlar po'stlog'iga boradi.

YURAK-TOMIRLAR SISTEMASI

Tomirlar sistemasi atrof-muhit va organizm to'qimalari o'rtaсидаги мoddalar almashinuvida vositachi bo'lgan qonning ma'lum yo'nalishda harakat qilishini ta'minlaydi. Gumorall regulyatsiya vositasida organizmnинг bir butunligini amalga oshirishda ham tomirlar sistemasining ahamiyati katta. Bu sistema turli diametrdagi, tarmoqlangan naychalar kompleksi va yurakdan iborat bo'lib, to'qimalarga qon bilan birga kislorod, oziq moddalar va gormonlarni olib boradi va u yerdan moddalar almashinuvini mahsulotlarini olib ketadi. Yurak-tomirlar apparatining faoliyati nerv sistemasining ta'siri ostida bo'ladi.

Tomirlar organizmning har bir hujayrasi bilan aloqada bo'ladigan qaln to'r hosil qilmaydi, kislorod va oziq moddalar ko'pchilik hujayralarga to'qima suyuqligi orqali yetib boradi. To'qima suyuqligiga esa bu moddalar qon plazmasi bilan birligida kapillyarlar devori orqali sizib o'tadi. To'qima suyuqligi moddalar almashinuvini mahsulotlarini olib ketadi va limfa kapillyarlariga so'rilib o'tadi. Tomirlar sistemasi ikki qism - qon va limfa tomirlari sistemalariga bo'linadi va qon hosil qiluvchi hamda immunoponetik organlar - suyak iligi, taloq, timus, limfoepitelial strukturalar, limfa tugunlari bilan yaqin aloqadadir. Bu sistema organlari qon va limfa bilan birligida mezenximadan, yurak qavatlarining bir qisrnigina mezoderma dan kelib chiqadi.

Qon tomirlari sistemasini yurak, arteriyalar, venalar va kapillyarlar, limfa tomirlari sistemasini limfa kapillyarları, tomirlari va yo'llari tashkil qiladi. Eng kichik arteriyalar (arteriolalar) va venalar (venulalar)ni tutashtiruvchi kapillyarlarda qon va to'qimalar (to'qima suyuqligi) o'rtaaside moddalar almashinuvini yuz beradi.

Arteriyalar va venalar devori uchta pardalari: ichki - intima, o'rta - mediya va tashqi - adventitsiya pardalariga ega. Kapillyarlarining yaxlit va doimiy qavati endoteliyidir.

QON TOMIRLARI

Sariq xalta devorida qon tomirlari qon orolchaları - mezenximadan ajraluvchi hujayralar to'plamidan hosil bo'ladi. Orolchu markazidagi hujayralar qonning shaklli elementlariga aylanadi, chetki hujayralar yassilanib, bo'lajak kapillyarlar endoteliyi uchun boshlang'ich mahsulot (material) bo'lib xizmat qiladi. Yangi-yangi orolchalar to'xtovsiz hosil bo'lib, bir-biriga qo'shilishidan yaxlit naychalar - kapillyarlar hosil bo'ladi. Kapilly-


arior o'zaro tutashib kapillyarlar to'riga aylanadi. Embrion tanasida esa qon tomirlari noto'g'ri shaklga ega va to'qima suyuqligi bilan to'lgan yori-qchalar shaklida hosil bo'ladi. Atrofdagi mezenxima esa ularning devori vazifasini o'taydi. Ushbu mezenximal hujayralar yassilanib, qolgan mezenximadan ajraladi, qon tomirlaridan qon oqa boshlagach, cndoteliy o'ziga xos tuzilishni oladi, atrof mezenximadan esa qon tomirlari devorining qolgan to'qima va pardalari hosil bo'ladi.

Arteriyalar - yurak tomonidan bo'ladigan bosim ostida qonni kapillyarlarga o'tkazadi. Ularda qonning bosimi va oqish tezligi ancha katta. Arteriyalar devorining juda pishiqligi (mustahkamligi), elastik elementlarga egaligi arteriyalar diametrining venalarnikiga nishbatan kichikligi, qonning tez oqishi va puls to'iqinlari mavjudligiga bog'liq.

Diametrining katta-kichikligiga qarab katta, o'rta va kichik arteriyalar farq qilinadi. Bu arteriyalarda qon oqishining mexanik shart-sharoitlari bir xil emas, binobarin, ularning devorlari ham turlicha tuzilgan.

Turli diametrdagi arteriyalar devori tuzilishining asosiy farqi medyaning tuzilishida yaqqol namoyon bo'ladi. Arteriya diametrining o'zgarishi bilan asta-sekin ular devorining, xususan mediyasining tuzilishi o'zgaradi: katta arteriyalarda mediya elastik tolalar va membranalarga boy bo'lsa, kichik arteriyalar mediyasi deyarli fagat siliq miotsitlardan iborat.

Avvalo, har uchala pardasi yaxshi ifodalangan, o'rta kalibrlı yoki muskul tipli arteriya bilan tanishamiz. (118-rasm).



118-rasm. O'rta kalibrdagi arteriya va vena


(Shimanovich bo'yicha):

a-arteriya; b-vena; c-birkituruvchi to'qima; d-yog' so'qima; e-intima; f-ichki elastik membrana; g-media; h-adventitsiya.

Intima (*tunica intima*) endoteliy va endoteliy osti qavatlaridan iborat. Endotelial hu-jayralarning chegarasi kumush tuzlari bilan impragnatsiya qilin-ganda yaxshi bilinadi.

Submikroskopik kuzatishlarning ko'rsatishicha, endoteliy-ning yuzasi silliq bo'lmasdan, juda ko'p chuqurchalar (botiq-liklur)ga ega. Bu chuqurchalar ayrim joylarda kistachalar shaklini olgan. Sitoplazmada mitokondriyalar, hujayra yuzasiga yaqin joylarda ko'p miqdorda pufakchalar uchraydi. Pufakchalar qon tarkibidan hujayra ichiga pinotsitoz yo'li bilan kirgan kiritmalar bo'lib, kamroq miqdorda hujayraning tushqi qismlarida ham, hatto endoteliy hujayralarning ichki elastik membrana teshiklari orqali kirib turadigan va muskul hujayralarigacha borib yetadigan o'simtalarida ham uchraydi.

Endoteliy osti qavat himoya, tayanch va kambial aharniyutga ega bo'lgan hujayralardan iborat. Arteriya diametri katalashishi bilan ushbu hujayralarning soni ortadi, kollagen va elastik tolalar paydo bo'ladi, rivojlangan endoteliy osti qavat vujudga keladi.




119-rasm. Kichik arteriya ultramikroskopik tuzilishining xismasi (Shtaubezand bo'yicha):

a-endoteliy; b-ichki elastik membrana; c-medya; d-endotelio-sinusular sinoplazmadasidagi pufakchalar; e-elastik membranadasidagi endotelio-sinusular o'simtalar o'tadigan submikroskopik vesiklar; f-muskul hujayralardagi mitokondriyalar; g-kistachalar; h-endotelio-sinusular minochondriyalari; i-muskul hujayralarning sinoplazmadasidagi pufakchalar.

Intimaning o'rtalarda bilan chegarasida yaxlit tugallangan plastinka shaklida ichki elastik membrana bor. Bu membrana muskul pardaning o'limdun keyingi qisqarishi oqibatida pre-paratlarda to'lqinsimon yaltiroq chiziq holida ko'rindi. Membrana bir-biri ustiga joylashgan elastik tori va plastinkalar kompleks bo'lib, turli kattalikdagagi mikroskopik va submikroskopik teshik-chalarga ega. Hayvonning yoshi kattalishishi bilan intima endoteliy osti qavat hisobiga qalinlashadi.

O'rtalarda mediya (*tunica media*) spiralsimon joylashgan silliq mitosit-lardan iborat. Muskulning qisqarishidan arteriyaning diametri torayib, organ va to'qimalarga boruvchi qon miqdori idora qilinadi, shuningdek qon kapillyariarga tomon hay-daladi. O'rtalarda tashqi pardalar orasida doimiy uchramaydigan, ichki elastik membranadan yupqaroq tashqi elastik membrana joylashadi. Mediyaning muskul tolalar orasida elastik tolalar to'ri bo'lib, bu to'ri intima va adventitsiyaning elastik elementlari bilan yaxlit sistemaga birlashgan. Muskul tolalar orasida kollagen tolalarning ingichka bog'lamchalari ham bo'lib, ular atrofida biriktiruvchi to'qimaning glikozaminoglikanlarga boy bo'lgan asosiy moddasi bor. Bu moddalar hayvon yoshi ortishi bilan arteriyalar elastikligining kamayishiga olib keladigan o'zgarishlarga uchraydi.

Tashqi pardada - adventitsiya (*tunica adventitia*) ko'p miqdorda ingichka elastik tolalar saqlovchi tolador biriktiruvchi to'qimadan iborat. Adventitsiyada qon tomirlarini oziqlantiruvchi tomirlar (vasa vasorum), shuningdek, tomirlarning nervlari (nervi vasorum) uchraydi.



120-rasm. Orsin bilan bo'yalgan aorta preparatining mikrofotasi (120 marta kat.):
a-intima; b-mediya; c-adventitsiya; d-elastik tolalar

Kichik di-ametlli arteriyalar (119-rasm). Arteriyalarning diametri kichiklashishi bilan endoteliy osti qavati asta-sekin yupqalashib, alohida-alohida joylashuvchi hujayralardan iborat bo'lib qoladi. O'rtalarda bir necha qavat, arteriola-larga kelganda esa faqat bir qavat muskul hujayralar qoladi. Adventitsiya elastik elementlarni yo'qotib, atrofdagi to'qimalar bilan qo'shilib ketadi.

184

Katta diametrli arte-riyalar, yoki elastik tipdag'i arteriyalar devorida elastik elementlari ko'pligi bilan xarakterlanadi. Bu arteriyalarda endoteliy osti qavat qalinlashgan va elastik elementlarga boy, o'rta pardada elastik tolalar o'miga elastik membranalar mavjud, adventitsiya ham elastik tolalarga boy. Arteriya devori kuchli darajada cho'zilib, bo'shilig'i kengaya oladi. Natijada elastik arteriya (masalan, aorta) kuchli qon bosimi va pulsatsiyaga bardosh bera oladi. Aorta (120-rasm) intimasida endoteliy osti qavat ingichka tolali, cho'zinchoq yoki yulduzsimon, kam tabaqalangan hujayrlarga ega biriktiruvchi to'qimadan iborat. Ichki elastik membrana o'mida elastik tolalarning qalin to'ri joylashib, bu to'r qo'shni pardalarning elastik elementlari bilan tutash bo'lGANI sababli aniq ifodalanmagan. Mediya sirkulyar joylashgan silliq muskul hujayralari, elastik membrana va tolalarga boy. Elastik elementlarning muskul hujayralardan ko'pligi yaqqol ko'riniib turadi. Adventitsiya tolalari asosan uzunasiga joylashgan biriktiruvchi to'qimadan iborat, ko'plab qon tomirlarining tomirlariga ega.

Yirik arteriyalar mediyasining elastik elementlari otlarda keskin, boshqa hayvonlarda asta-sekin kamayadi. Bu o'zgarish turli hayvonlarda yurakdan bir xil masofada yuz bermaganidan bir ismli arteriyalar turli hayvonlarda har xil tipga mansub bo'lishi mumkin.

Venalar ham katta, o'rta va kichik diametrli venalarga bo'linadi. Venalarda qomning bosimi past va oqish tezligi kichik bo'lGANidan, ularning teshigi bir ismli arteriyalarnikidan kattadir. Venalarning devori ham, asosan mediyaning yupqaligi sababli arteriyalarning devoridan ancha yupqa.

O'rta diametrli venalar (118-rasm) endoteliy osti qavatida elastik tolalar kam, ichki elastik membrana yo'q.

Mediyada arteriyalardagi qaraganda muskul elementlar kam. Kam sonli elastik tolalar silliq muskul hujayralari va kollagen tolalarni tutashtirib turuvchi to'r hosil qiladi. Adventitsiya mediyaga qaraganda qalintroq.

Kichik diametrli venalar. Venalarning kichiklashuvi bilan avval o'rta, keyin tashqi parda yo'qola boradi. Venulalarning o'rta pardasidan faqat bir qavat muskul hujayralar qoladi.

Katta diametrli venalar. Bu venaiarda tananing qaysi qismida joylashganligiga qarab, qon oqishining mexanik shareitlari bir xil emas. Yurakdan yuqori joylashgan venalarda qon passiv harakatlansadi, shuning uchun mediya kam taraqqiy qilgan. Oyoqlarning venalarida esa, aksincha, u ancha yaxshi taraqqiy qilgan. Ko'pgina yirik venalarning endoteliy osti qavatida uzunasiga joylashgan, adventitsiyasida uzunasiga hamda qiyshiq joylashgan muskul tolalari mavjud.


Venalarning klapanlari intimaning burmalari bo'lib, qonning bir tomonga - yurakka qarab oqishini ta'minlaydi. Ularning skeleti o'zaro chatishib ketgan va qiyshiq joylashgan kollagen tolalaridan iborat bo'lib, sirtidan endoteliy bilan qoplangan. Klapanlarning mavjudligi va atrofdagi muskullarning qisqarishi venalarda qon oqishini ta'minlaydi.

Arteriolovenulyar anastomozlar (121-rasm) mikroskopik kattalikdagi (30-50 mkm) tomirlar bo'lib, ular orgali arterial qon, kapillyarlarni chetlab o'tib, venalarga quyiladi.

Anastomozlarning endoteliy qavati ostida ko'ndalang kesimda epiteliyni eslatuvchi (epiteloid-muskul) hujayralar uzunasiga joylashadi. Ushbu hujayralar qisqar-ganda yo'g'onlashib anastomozni bekitib qo'yadi. Shuningdek epitheloid-muskul hujayralar qon temirlari va yurakning faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi mod-da - atsetilxolin ishlab chiqaradi. Anastomozlarning mediyasida silliq muskul-ning aylanma qavati, adventitsiyasida ayrim uzunasiga joylashuvchi tolalari bor.

Kapillyarlar. Kapillyarlar tornirlar sistemasining asosiy vazifasi - qon bilan to'qimalar o'rtaida moddalar almashtinuvini amalga oshiradi. Ularning strukturasi ham ana shu vazifani amalga oshirish bilan bog'liq. Kapillyarlarning uzunligi 1-4 mm, teshigi ba'zan eritrotsit diametridan kichikroq bo'lgani holda yirik kapillyarlarda 30 mkm ga etadi.

Arterial tomirlarning kapillyarlarga tarmoqlanishi turlicha bo'ladi: umumiy tipidagi kapillyarlar, sinusoid kapillyarlar (taloq, jigar, gipofiz va



121-rasm. Arteriolovenulyar anastomozlar (AVA)


(Vu.I.Afanasev rasmii):

I-massus bekitivchi moslamasta AVA; 1-arteriola; 2-venula; 3-anastomoz; 4-anastomozning silliq muskul hujayralari; II-massus bekitivchi moslamaga ega AVA; A-beckchuchi arteriya tipidagi anastomoz; B-epiteloid tipidagi oddiy anastomoz; 5-murakkab epitheloid (kaluvachasimon) anastomoz; 6-epiteloid tipidagi oddiy anastomoz; 7-anastomozning epitheloid hijayralari; 8-beckchuchi to'qimadas idorat pardadagi kapillyarlar; III-atipik anastomoz; 1-arteriola; 2-ejiga genomsa kapillyar; 3-venula.

boshqa ayrim organlarda). Arterial kapillyarlarning ajoyib to'ri (buyrak), venoz ajoyib to'r (jigar va gipofiz), arteriolovenulyar anastomozlar mavjud. Kapillyarlardan to'rining shakli organning tuzilishi va hujayralarining joylashishiga bog'liq. Kapillyarlardan to'r miyaning kulrang moddasi, ichki sekretsiya bezlari, ayniqsa, qalqonsimon bezoldi bezida kuchli taraqqiy qilgan. Miya po'stlog'ning 1 mm^3 hajmidagi kapillyarlarning umumiy uzunligi 1 metr, oq moddada esa atigi 30 sm bo'lishi hisoblab chiqilgan. Organning faoliyati o'zgarishi bilan kapillyarlardan to'rining zinchligi o'zgarishi mumkin. Organdagi kapillyarlarning hammasi bir vaqtida ochiq bo'lmaydi va organning faollashuvi bilan funksional holatdagi kapillyarlardan ko'payadi.

Kapillyurlarning devori (122-rasm) basal membranada joylashgan endoteliydan tuzilgan.

Endoteliotsitlar no-to'g'ri shaklga ega. Egri-bugri qirrali chegaralarini ku-mush tuzlari bilan ishlangan preparatlarda yoki elektron mikroskopda ko'rish mumkin. Ular da ko'pincha bir, ayrim hollarda ikkita o'zak bor, o'layotgan hujayralar o'zaksizdir. Eng kichik (arterial) kapillyarlarda endoteliotsitlarning o'zaklari suvni shimib olib, hajmi kattalashishi natijasida kapillyar bo'shilg'ini bekitib qo'yishi ham mumkin. Shu yo'l bilan o'zaklar qon oqimini reguliyatsiya qilishda qatnashadi. Qon aylanishi sharoti o'zgarishi bilan hujayralarning shakli va chegaralari o'zgarishi



122-rasm. Kapillyarlarning uch tipi (Yu.L.Afanasev rasmii):
I-uchaksiz endoteliy hujayra va basal membranaga ega genekapillyar; II-fenestri endoteliy va uchaksiz basal membranaga ega genekapillyar; III-yongasman teshkilari bor endoteliyli va basal membranasi umuq-uzuq sinusoid genekapillyar; 1-endoteliotsit; 2-bazal membrana; 3-fenestrular; 4-yoriglar (pores); 5-peritsit; 6-adventitsial hujayra; 7-endotelion va perisintning kontakti; 8-nerv terminali.

mumkin.

Mayda, molekulyar moddalar endoteliy orqali pinotsitoz va rofeotsitoz yo'li bilan tushiladi. Endoteliotsitlar mikrotukchalar, kaveolalar, bo'rtmalar, sitoplazmasi esa pufakchalarga ega. Voyaga etgan organizm kapillyarlarining tabaqaalanish darajasi turlicha: qon hosil qiluvchi organlarda kamroq, boshqa organlarda yuqori tabaqalangan hisoblanadi.


Bazal membrana ko'pchilik hollarda faqat asosiy moddadan iborat. Bu modda protein-lipid sistema bo'lib, oqsil bilan glikozaminoglikanlar birikkan. Gialuronidazaning faolligi ortganda, bu birikma parchalanib, kapillyar devorining o'tkazuvchanligi ortadi. Kapillyarlar bilan ikki xil: peritsitlar va adventitsial hujayralar aloqada bo'ladi. Peritsitlar bazal membrana varaqlari orasida joylashib, kapillyarlarni savatchasimon o'rabi oladi, kapillyar teshigining o'zgarishiga ta'sir ko'rsata oladi. Adventitsial hujayralar bazal membranadan tashqarida joylashgan va kam tabaqalangan elementlardir.

Turli organlar kapillyarlarini tuzilishining o'ziga xos tomonlari ham mavjud. Masalan, nefron-kalavachalari, ichak so'rg'ichlari, ichki sekretsiya beziali kapillyarlarining endoteliotsitlari fenestrlar (sitoplazzmaning yupqalashgan joylari)ga ega, jigar va taloq kapillyarlarida endoteliy va bazal membranuning yoriqsimon teshiklari bor.

Mikrosirkulyatsiya: Mikrosirkulyatsiya to'qimalarda qon va limfa kapillyarlarini mintaqasida qon, to'qima suyuqligi va limfaning

ma'lum yo'naliishiarda hara-kat qilishidir. Mikrosirkulu-iyatsiyani arteriolalar, preka-pillyar arteriolalar, ko'pdan-ko'p kapillyarlar, postka-pillyar venulalar, venułalar, arteriolovenousilar anastomoz-lar va limfa kapillyarlarini amalga oshiradi. Mikrosirkulyator o'zan (havza) (123-rasm) organizmda qonni qayta taqsimlovchi, to'qima hujayralari va qon o'rta sidagi zarur shart-sharoitlarni ta'minlovchi asosiy bo'limdir.

Qon tomirlari devorining oziqlanishi. Arteriyalar devori qon tomirlarining tomirlaridagi va qisman qon tomirining ichidan oqib o'tadigan qon hisobiga oziqlanadi. Qon tomirlarining tomirlari adventitsiyada tar-



123-rasm. Mikrosirkulyatsiya o'zani tomirlarining xemasi:

1-arteriole; 2-veinule; 3-capillaries to'ri; 4-arteriovenousular anastomoz.

moqlanib, mediyaga faqet kapillyarlar kirib boradi. Kapillyarlardan qon tomirlarning tomirlari hisoblanuvchi venalarga to'planadi. Mediyaning ichki zonasasi va intima kapillyarlarga ega emas, ular ichkaridagi qondan shimalib o'tuvchi oziq moddalar bilan oziganladi. Bunda ichki elastik membrananing ahamiyati katta. Hayvon yoshi kattalashishi bilan endoteliy sitoplazmasining yopishqoqligi ortib, arteriyalarning ichkaridan oziganishi yomonlashadi. Bu hol qon tomirlarining patologiyasiga sabab bo'ladi.

Venalar ham arterial stvollarining tarmoqlari bo'lgan qon tomirlarining tomirlari hisobiga oziganladi. Ichki elastik membrananing yo'qligi va puls to'lqinlarining kuchsizligi sababli venalarning ichkaridan oziganishi deyarli ahamiyatga ega emas. Venalar devorining kapillyarları shu venaning o'ziga ochiladi. Tomirlarning devorida qon tomirlaridan tashqari limfa tomirlari ham mavjud.

Tomirlar sisternasi juda o'zgaruvchan bo'lib, qon tomirlari va kapillyarlarning zichligi organlarning ehtiyojiga qarab o'zgarib turadi. Bu hol o'z navbatida qon bosimi va oqish tezligining o'zgarishiga sabab bo'ladi. Qon tomirlari yangidan hosil bo'lishi, avval mavjud bo'lganlari teskari taraqqiyotga uchrashi mumkin. Shu bilan bir vaqtida qon tomirlarining devori yungi sharoitlarga muvofiq o'zgaradi, kichikroq tomirlar yirikroqlariga aylanadi. Qon tomirlari shikastlangandan keyin okal va kollateral qon aylanish tiklanayotganda tomirlar sisternasida katta o'zgarishlar yuz beradi. Tomirlarning regeneratsion qobiliyatini katta. Ularning yangidan paydo bo'lishi va o'sishi avvalda mavjud bo'lgan kapillyarlardan boshlanadi. Endoteliy konussimon o'sma beradi, keyin bu o'sma ichida bo'shilq hosil bo'ladi, keyinroq atrofdagi biriktiruvchi to'qimadan mediya va adventitsiya taraqqiy qiladi. Qon tomirlari uzilganda tiklanish intima hisobiga yuz beradi.

Qon tomirlarining innervatsiyasi. Nervlar qon tomirlarining tomirlari bilan birga kirib, har uchala pardada chatishmalar bosil qiladi. Adventitsiyaning chigali mielinli tolalarga boy bo'lib, daraxtsimon tarmoqlangan terminalarga ega. Katta tomirlarning adventitsiyasida plastinkali tanachalar uchraydi. Bu nerv chatishmalar o'rta pardadagi, muskul tolalartti innervatsiya qiluvchi chatishmalar bilan tutashgan. Endoteliy ostida esa intimaning juda ingichka tolalardan iborat bo'lgan nerv chatishmasi joylashadi. Nerv tolalari qon kapillyarlarini ham kuzatib boradi va o'rabi turadi. Qon tomirlarining nervlari vazifasiga ko'ra harakatlantiruvchi va sezuvchi bo'ladi. Spinal gangliylar nevrotislari dendritlarining qon tomirlaridagi uchlari sezuvchi terminallar bo'lib xizmat qiladi. Simpatik nervlar tomirlarni toraytiruvchi, parasympatik nervlar bosh oblasti tomirlarida kengaytiruvchi nervlardir. Qolgan tomirlar uchun kengaytiruvchi

nervlar masalasi yechilgan emas. Qon tomirlaridagi refleksogen zonalarda qon bosimi va kimyoviy tarkibining o'zgarishlarini qabul qilib oladigan maxsus hujayralarga ega sezuvchi nerv terminallari uchraydi.


YURAK

Yurak qon tomirlari-ning o'zgarishidan hosil bo'lgan, ichi kovakli, 4 kamera va klapamlarga ega, qonning qon aylanish sistemasi bo'y-lab harakat qilishini ta'minlovchi organdir. Uning devorida uch pardasi: endokard, mio-kard va epikard farq qilinadi. Yurakni tashqa-ridan fibroz xaltacha - **perikard** (yurak ko'yla-kchasi) o'rabi turadi.

Sut emizuvchilarda yurak hali embrion uch qavatlari plastinka shaklida bo'lgan paytida visseral mezoderma va endoderma oralig'ida juft naycha holida yuzaga keladi. (124-rasm).

Bu naychalar menenximadan hosil bo'lib, bo'lajak endokardning kurtagidir. Ulami qoplovchi, mezodermadan miokard va epikardga aylanuvchi mioepikardial plastinka taraqqiy qiladi.

Endokard yurakning ichini qoplaydi va yurak klapamlarini hosil qiladi. Uning yuzasi qalin bazal membranada joylashgan va poligonal hujayralardan iborat endoteliy bilan qoplangan. Endoteliy osti qavat kam tabaqalangan hujayrlarga boy biriktiruvchi to'qimadir. Bu qavat ostida silliq muskul hujayralari va elastik tolalardan iborat muskul-elastik qavat joylashadi. Endokardning tashqi qavati yo'g'on elastik, kolagen va retikulyar tolalarga boy biriktiruvchi to'qima. Shunday qilib, endokard tarkibida yirik qon tomirlariga xos hamma to'qima va qavatlar mayjud. Yurak ichki



124-rasm. Yurakning taraqqiyoti (Zavarzindan):
1-ektoderm; 2-endoderm; 3-mezoderma; 4-xorda; 5-nerv
plastikasi; 6-nerv nayi; 7-yurakning juft kurtagi; 8-yurak
kunaklarining qo'shilishi; 9-qizlo'nguch; 10-qizlo'nguch; 11-juft aorta;
12-endokard; 13-mioepikardial plastinka.


pardasining oziqlanishi, asosan, uning ichidagi qon hisobiga amalga oshib, endokardning faqat tashqi qavati qon kapillyarlariga ega.

Klapanlar endoteliy bilan qoplangan tolador zinch biriktiruvchi to'qimadir. Ular qon kapillyarlariga ega emas, hujayralararo moddasi ko'p miqdorda glikozaminoglikanlar saqlaydi.

Miokard yurak muskulidan tuzilgan. Bu muskul to'qimasining hujayralari - kardiomiotsitlar funksional "muskul tolalari" hosil qiladi. Muskul elementlarining orasida biriktiruvchi yumshoq to'qimaning yupqa qatlamlari, tomirlar, kapillyarlar va nervlar joylashadi. Kardiomiotsitlar oraliq disklar vositasida tolalarga umumlashgan, qo'shti tolalar esa anastomozlar yordamida o'zaro tutashgan. Kardiomiotsitharning bu tarzdagi o'zaro aloqalari miokardning funksional bir butunligini ta'minlaydi. Yurak turli bo'limlardan yurak chap qorinchasining miokardi eng kuchli taraqqiy qilgan. Yurak qorinchalar va bo'limchalarining muskuli anatomiq jihatdan zinch biriktiruvchi to'qimadan iborat fibroz halqalar vositasida bir-biridan ajralib turadi. Lekin o'tkazuvchi sistema tarkibiga kiruvchi atrioventrikulyar bog'lamcha yurakaning o'ng bo'limchasidan qorinchalarga o'tadi.

Yurakning

o'tkazuvchi sistemasi (125-rasm) to'rt hosil qiluvchi atipik muskul tolalaridan iborat bo'lib, uning tarkibiga sinus tuguni, bo'limchalar tuguni, atrioventrikulyar bog'lamcha va uning turmoqlari kiradi. Ot, qo'y va qoramolda o'tkazuvchi sistemaniнg tolalari yo'g'on, sarkoplazmaga boy, miofibrillalari kam va glikogen kiritmasiga ega. Yuragi tez-tez qisqaradigan hayvonlarda atipik tolalar ingichkarloq boladi. O'tkazuvchi sistema nerv elementi-



125-RASM. Yurakaning o'tkazuvchi sistemasi (Zavarzindan): 1-sinus tuguni; 2-yurak oldi bo'limi tuguni (atrioventrikulyar tugani); 3-atrioventrikulyar bog'lamcha; 4-uring oyoqchalar va 5-turmoqlari.

tiari bilan boy ta'min-langan.

Epikard birkiruvchi to'qimaning yupqa qavatidan iberat, qon tomirlari o'tadigan joylarda yog' hujay-ralariga boy parda. Uni tushqaridan hujay-ralar ko'pburchak shakliga ega mezoteliy qoplab turadi.


Perikard seroz par-danining orasida fibroz to'qima bo'lgan qatla-midir.

Yurakning vaskulyarizatsiyasi va innervatsiyasi. Yurak devori aortadan boshlanadigan koronar arteriyalar orqali qon bilan ta'minlanadi. Bu arteriyalar yurak pardalarini qon bilan ta'minlovchi qator mayda arteriya-larga tarmoqlanadi. Arteriyalar va venalarning mayda tarmoqlari o'tasida anastomozlar mavjud. Yurak klapanlari qon tomirlariga ega emas. Mio-kardda kapillyarlarning to'ri mikrotsirkulyatsiyani amalga oshiradi. Har bir qisqaruvchi kardiomiotsit kamida ikki kapillyar bilan kontaktida bo'ladi. Qon kapillyarlardan koronar venalarga yig'iladi va yurakning o'ng bo'imasiga quyiladi.

Yurakning innervatsiyasi simpatik va adashgan nervlar tomonidan amalga oshiriladi. Yurakning har uchala pardasida bu nervlarning intramural gangliylarga ega bo'lgan chatishmalari va harakatlantiruvchi tolalari bor. Gangliylardagi miokard bilan bog'langan nevrotsitlar adashgan nerv tolalari bilan ham aloqadadir. Yurakning simpatik tolalari simpatik gangliylar nevrotsitariga taalluqli bo'lib, ular ham miokard bilan bog'langan. Endokardning nerv chatishmasi qon tomirlarida va silliq muskulda tamom bo'luchchi mielinli va mielinsiz tolalarga ega. Bu yerda shuningdek sezuvchi nerv elementlari ham mavjud.

LIMFATIK SISTEMA

Limfa tomirlari limfa tugunlarini ham o'z ichiga oladigan limfatik sistemaning funksional jihatdan qon tomirlari sistemasi bitan yaqin aloqada bo'ladiqan qismidir. Mayda tomirlar orqali limfotsitlarning qondan tushqariga migratsiyasi va limfa tugunlaridan qonga retsirkulyatsiyasi amalga oshadi. Limfa tomiri limfa kapillyarlari, intra - (organ ichidagi) va ekstraorgan (organ tashqarisidagi) limfa tomirlari hamda tananing asosiy limfa yo'llariga bo'linadi. Limfa kapillyarlarning boshlanish qismi ko'r, to'qima suyuqligi ular ichiga shimilib o'tgach, limfa normini oladi. (126-rasm). Ular qon kapillyarlardan ancha keng, yoriqlar shaklida boshlanadi va bir-biri bilan qo'shilib, kapillyarlar to'mini hosil qiladi. Limfa kapillyarlarning devori endoteliydan tuzilib, basal membrana va peritsitlarga ega emas.



126-sasm. A-limfa kapillyari; b-uning ko'ri o'smasi; a-qon kapillyari li-(Nemilov bo'yicha); a-endoteliy, qiyshiq va ayvana (b) hamda uzunasiga (c) joylashgan silliq muskul tolalunga ega biriktiruvchi to'qima qavati.

Limfa tomirlari o'z tuzilishiga ko'ra venalurga ancha o'xshash. Kichik limfa tomirlari limfa kapillyarlariga nisbatan torroq, devori juda yupqa. Yirik tomirlarda har uchala parda mavjud. Intima endoteliy va endoteliy osti qavatga ega va ko'pdan-ko'p klapinlar hosil qildi. Ichki elastik membrana yo'q. Mediya turli yo'nalishda joylashuvchi silliq muskul hujayralari, kollagen va elastik tolalardan iborat. Tanadagi yuqoriga ko'tariluvchi limfa tomirlarida muskul hujayralar ko'p. Adventitsiya biriktiruvchi to'qima va kam miqdordagi uzunasiga joylashuvchi silliq miotsitlardan iborat. Bunday miotsitlar, ayniqsa, ko'krak stvolida ko'p. Limfa tomirlarining tashqi pardasi boshqa pardalariga nisbatan ancha yaxshi taraqqiy qilgan.

Limfa kapillyarlarini miyada, taloq parenximasida, teri va shilliq pardalarning epiteliy qavatida, tog aylarda, sklerada, ko'z gavhari va platsentada bo'lmaydi.

GEMOTSITOPOEZ VA IMMUNOPOEZ ORGANLARI SISTEMASI


Suyak iligi, timus, qushlarning kloaka bursasi, limfa tugunlari, taloq, shuningdek ovqat hazm qilish kanali va boshqa organlarning shilliq pardasidagi limfa tugunchalari **gemopoez** hamda **immunopoez** organlari hisoblanadi va qon bilan birgalikda bir butun sistema hosil qiladi.

Keyingi yillarda immunologiya fani qo'rga kiritgan katta muvaffaqiyatlar "immunitet sistemasi" degan tushuncha paydo bo'lishiga olib keldi. Immunitet sistemasi antigen (yot substansiya)larni aniqlovchi, ularga nisbatan spetsifik reaksiyalarni amalga oshiruvchi maxsus hujayralar - immunotsitlar hosil bo'lishi va ularning o'zaro ta'sirini ta'minlovchi to'qima va organlarni o'z ichiga oladi. Bu sistema qon hosil qiluvchi organlar bilan birga qon va limfadagi limfotsitlar va plazmotsitlarning biriktiruvchi to'qima hamda epiteliyga kirib boruvchi (migratsiya qiluvchi) populyatsiyalaridan iborat. Immunitet sistemasining barcha qismlari neyrogumoral regulyatsiyasi, immunokompetent hujayralarning migratsiyasi va retsirkulyatsiyasi mavjudligi tufayli bir butun sistema holida faoliyat ko'rsatadi.

Suyak iligi, timus va qushlarning kloaka bursasi **qon hosil bo'lishi** va **immunologik himoyaning markaziy organlari** hisoblanadi. Suyak iligining bunday markaziy organ hisoblanishi sabab, bu erda sivoj hujayralar populatsiyasining doimo yangilanib va son jihatdan o'zo'zini saqlab (yoki ko'paytirib) turishi bilan bog'liq. Shuningdek, qizil ilikda eritrotsitlar, granulotsitlar, monotsitlar, trombotsitlar, timusda T-limfotsitlarga aylanuvchi hujayralar, sut emizuvchilarda esa B-limfotsitlar ham hosil bo'ladi. Markaziy organlar - suyak iligi, timus va kloaka bursasida limfotsitlarning ko'payishi va ixtisoslashishi antigenlar ta'siriga bog'liq bo'lmaydi. **Periferik organlar** (limfa tugunchalari, limfa tugunlari, tuloq)da markaziy organlardan bu erga kelgan T-va B-limfotsitlar antigenlar bilan uchrashadi, ular ta'sirida faollashadi va effektor immunotsitlarga aylanadi.

SUYAK ILIGI

Suyak iligi yarim suyuq konsistensiyaga ega bo'lib, suyaklarning bo'shilg'ini to'ldirib turadi. Qizil va sariq ilk farq qilinadi. Qizil ilkning rangi bu yerda ko'plab eritrotsitlar hosil bo'layotgani bilan bog'liq. Ilkning bu turi yassi suyaklarda, umurqalarda va naysimon suyaklarning epifizlari da joylashadi. Embrion taraqqiyoti davrida qizil ilk juda barvaqt paydo bo'ladi.



127-razm. Qizil ilikning keslasi:
1-liposittar; 2-gemotsitopoet qatorining hujayralari; 3-retikulyar hujayru; 4-
megakariotsit; 5-venoz sinus (sinusid tipdag'i kapilyar).

Hayvon tug'ilishi paytiga kelib hamma suyaklarning bo'shliqlari qizil ilik bilan to'lgan bo'ladi. Hayvon tug'ilib, yoshi kattalashishi bilan qizil ilik asta-sekin sartq ilik bilan almashinadi. Suyak iligining stromasi endostdan ajraluvchi va o'zaro anastomozlar hosil qiluvchi biriktiruvchi to'qinadan iborat to'sinlardir. Ular oralig'idagi bo'shliqlarda ko'plab mayda qon tornirlari va kapillyarlarga ega retikulyar to'qima joylashadi. Bu to'qima taraqqiy qilayotgan qon hujayralari uchun maxsus mikrosharoit yaratadi. Qizil ilikning **sinusoid kapillyarları** yetilgan qon hujayralarining qon oqimiga tanlanib o'tkazilishida katta ahamiyatga ega. Keng diametri bo'shliqqa ega bunday kapillyarlar devorida ko'plab "pora" (yoriq)lar mavjud. Kapillyarlarining endotelrotsitlari va ilikning retikulyar hujayralari orasida makrofaglar uchraydi.

Retikulyar to'qima katakchalarida, sinu-soid kapillyarlar atrofida erkin yotuv-chi, morfologik iden-tifikatsiya qilinmay-digan (farqlab bo'lmaydigan) stvol va yurim stvol hujay-ralar, yetilayotgan va yetilgan **gemopoetik hujayralar** joylashadi. Taraqqiy qilayotgan va yetilgan hujayralar asosan eritropoetik, granulopoetik va megakariotsitopoetik qatorlarga taalluqlidir. Eritrotsitlar qatorining makrofag atrofiga to'plangan guruhি **eritroblastik orolcha** deyiladi. Makrofaglar to'plagan temir eritroblastlar tornidan gemoglobin hosil qilishda ishlataladi. Eritroid qator hujayralari glikoproteidlar bilan o'ralgan. Hujayralar yetila borishi bilan glikoproteidlar miqdori kamayadi va hujayralarning harakatchanligi oshib, qon oqimiga chiqishi uchun imkoniyat yaratiladi. **Granulopoetik hujayralar ham orolchalar** holida joylashadi. Bu qatorning yetilmagun hujayralari proteoglikan-

lar bilan o'ralgan. Yetilish jarayonida granulotsitlar qizil ilikda anchagina miqdorda depo holida to planadi (periferik qondagidan 20 marta ko'p). Megakarioblastlar va megakarLOTSITLAR sinusoid kapillyarlar bilan yaqin aloqada bo'lib joylashadi, hatto ular sitoplazmasining periferik qismi poralar orqali sinusoid kapillyar ichiga kirib turadi. Sitoplazmaning fragmentlari qon plastinkalari shaklida bevosita qon oqimiga ajraladi. Mieloid qator hujayralarining orolchalar orasida suyak iligi limfotsitlari va monotsitlarning uncha katta bo'limgan, tomirlarni o'rabi turadigan to'plamlari uchraydi.

Suyak iligida gemopoetik hujayralardan tashqari, muhim yordamchi vazifalarni bajaruvchi hujayralar: fibroblastlar, retikulyar hujayralar, makrofaglar, lipotsit (adipotsit)lar va osteogen hujayralar uchraydi. Osteogen hujayrnalar yoki ularning yaqin avlodlari stvol hujayralarning mieloid hujayralarga aylanishini inchaksiya qiladi.

Sariq ilik voyaga etgan hayvonlarda naysimon suyaklarning diafizlarda joylashadi. Tarkibida lipoxrom tipidagi pigmentga ega bo'lgan yog' hujayralari (lipotsitlar) ko'p bo'lganidan ilikning rangi sariq bo'ladi. Odatda bu yerda qon hosil bo'lmaydi, lekin ko'p miqdorda qon yo'qotilganda va boshqa ayrim patologik holatlarda mielopoez o'choqlari paydo bo'ladi.


Suyak iligiga qon olib keluvchi arteriyalar arterial kapillyarlarga, kapillyarlar venoz sinusoidlarga aylanadi. Sinusoidlarda qon juda sekin oqadi, gidrostatik bosim esa katta. Sinusoidlar bo'shilg'ining doimo ochiqligi, devorida "pore"lar mavjudligi voyaga yetgan qon hujayralarining qon oqimiga o'tkazilishini ta'minlaydi.

Nervlar ilikka suyakdagi oziqlantiruvchi teshiklar orqali suyak par dasidan kiradi. Ular avval qon tomirlari bilan birga tarmoqlanadi, keyin ayrim nerv tarmoqlari retikulyar to qimagu yo'naladi. Ilikda daraxtsimon tarmoqlanuvchi, halqacha va tugmacha shaklidagi nerv terminallari uchraydi.

TIMUS

Timus yoki ayrisimon bez immunitetning markaziy organlaridan biri bo'lib, suyak iligidan keluvchi yarim stvol hujayrlar bu yerda antigenlar ta'sirisiz tabaqlanib, T-limfotsitlarga aylanadi. Shuningdek, timus, T-limfotsitlarning yetilishiga ta'sir ko'rsatadagi gormonlur ishlab chiqaradi. Yangi tug'ilgan hayvonlar timusini operatsiya yo'li bilan olib tushlash (**timektomiya**) butun limfa sistemasining taraqqiyoti keskin sekinlashishiga sabab bo'ladi. Bunda organizm ko'pchilik yuqumli kasalliklarga berilu-

vchan, begona organlar transplantatiga ko'nikuvchan bo'lib qoladi, o'smalar paydo bo'lish ehtimoli ortadi.



128-rasm. Yangi tig'ilgan chuchqa belasining timusi:

1-kapsula; 2-bo'lakchuning mag'iz moddasi; 3-bo'lakchuning po'stloq moddasi; 4-bo'lakchalanum
birikintinchi so'qima.


Embriogenezda timus boshqa limfold organlar va tuzilmalardan oldinroq hosil bo'ladi va faoliyat ko'rsata boshlaydi. Hayvonlarda timus kurtagi juda barvaqt (masalan, qoramollarda embrional taraqqiyotning 25-27 kunlarida) III-IV-halqum cho'ntaklarining nay shaklidagi o'smasi holida hosil bo'ladi. So'ngra bu kurtak atrofdagi qon tomirlariga boy mezenximaga o'sib kiruvechi, yon tarmoqlarga ega yaxlit tasniga aylanadi. Keyinroq taraqqiy qilayotgan organ halqum cho'ntaklaridan ajraladi. Taraqqiyot-

ning ikkinchi oyi oxirlarida epiteliotsitlar orasida limfotsitlar paydo bo'ladi va jadal ko'paya boshlaydi. Shakillanayotgan bo'lakchalarining epiteliotsitlari o'simtali shaklini oladi va to'r hosil qiladi. Uchinchi oydan boshlab bo'lakchalarining po'stloq va mag'iz moddalari hosil bo'ladi, eng oxirgi navbatda dastlabki timus tanachalari paydo bo'ladi.

Timus bir-biridan to'lig'icha ajralmagan **bo'lakchalaridan** tu-zilgan (128-rasm). Tashqa-ridan uni biriktiruvchi to'qimadan iborat yupqa kapsula qoplab turadi. Kapsuladan bo'lakchalar orasiga o'sib kinivchi to'qimada qon tomirlari, nervlar, limfa tomirlari va yog' hujayralari joylashadi. Timus bo'lakchalarining asosini o'simtali hujayralar - epitelioretikulotsitlarning to'ri tashkil qiladi. Epitelioreti-kulotsitlarning oralig'ida esa limfold qatorning ko'pdan-ko'p ko'payayotgan hujay-ralari joylashadi. Har bir bo'lakchada periferiyada joy-lashuvchi **po'stloq modda** va **markaziy-mag'iz modda** farq qilinadi. Yangi tug'ilgan hayvonlarda po'stloq modda miqdori mag'iz moddanikidan ustunlik qiladi.

Po'stloq moddada limfotsitlar tig'iz joylashganidan, u xarakterli ko'rinishga ega va to'q bo'yaladi. Limfotsitlar nisbatan kam bo'lgan mag'iz modda ochiroq bo'yaladi.

Bo'lakchalar po'stloq moddasi epiteliy hujayralarining oraliqlarini T-limfotsitlar to'ldirib turadi. Suyak iligidan bu yerga kelgan (migratsiya qilgan) va T-limfotsitlarga aylanuvchi yirik limfold hujayralar - **limfoblastlar** po'stloq moddaning kapsula osti zonasida joylashadi. Lim-



129-rasm. Timus bo'lakchasi mag'iz moddasingin
bir qismi (sxema):
1-timus tunashasi; 2-limfotsitlarning o'zklari; 3-retikulociteliotsitlarning o'zklari.

fblastlar timusda hosil bo'luvchi gormon - timozin ta'sirida ko'payadi va **T-limfotsitlarga** aylanadi. Po'stloq mod-daning T-limfotsitlari, ma-g'iz moddaga kirmasdan qon oqitmiga o'tadi. Timusda hosil bo'layot-gan limfotsitlarning yet antigenlarni aniqlashga ixtisoslashganlarigina qon-ga o'tib, periferik limfold organlarga boradi. Ko'p-chilik T-limfotsitlar timus-da halok bo'ladi. Po'stloq modda hujayralari gematotimus **to'siq vositasida** qondan chegaralanib turadi va ortiqcha antigenlar bilan aloqa


qilishdan saqlanadi. Bu to'siq qon kapillyarlarining endoteliy qavati va basal membranasi, yakka-yarim limfotsitlar saqlovchi, to'qima suyuqligi bilan to'lgan kapillyarlar atrofidagi bo'shilq shuningdek, epitelioretikulotsitlar va ularning basal membranasidan iborat.

Bo'lakchalarning mag'iz moddasidagi limfotsitlar **retsirkulyatsiya** qiluvchi T-limfotsitlardir. Retsirkulyatsiya postkapillyar venulalarda limfotsitlarning qon oqimidan chiqishi va limfa tomirtari orqali yana qonga tushishidan iborat. Mitoz yo'li bilan bo'linayotgan hujaynlar bu yerda po'stloq moddadagidan ancha kam. Epitelioretikulotsitlarning o'zagi yumaloq, limfotsitiarning o'zidan ochroq bo'yaladi, 2-3 o'zakchaga ega va xromatinga boy emas. Mag'iz moddaning o'rta qismida joylashuvchi **timus tanachalarida** epitheliotsitlar qat-qat bo'lib joylashadi (129-rasm). Ularning kattaligi va soni yosh ulg'ayishi bilan ortadi. Timus tanachalarining epithelioretikulotsitlari yirik vakuolalar, keratin donachalari va fibrillalarning dag'al tutamchalariga ega. Bu tanachalarning ahamiyati hamuzgacha uzil-kesil aniqlangan emas.

Po'stloq moddada ham, mag'iz qismida ham ko'plab makrofaglar uchraydi.

Vaskulyarizatsiyasi

(130-rasm). Timus ichida arteriyalar bo'lakchalararo va bo'lakchalar ichidagi arteriyallarga tarmoqlanadi. Ulardan deyarli to'g'ri burchak hosil qilib qon kapillyarlarini ajra-ladi. Po'stloq mod-daning kapillyarlar to'ri ayniqsa zinch. Po'stloq modda kapillyarlar uzulkisiz basal membranaga va kapillyar atrofi bo'shilq ini chegaralab turuvchi epiteliy hujayralari qavatiga ega.



130-rasm. Timus bo'lakchasining ruzilishi va qon bilan ta'minlanishining sxemasi (Yu.I.Afaneshev va I.P.Bobova rasmii).

1-bektiruvchi to'qimadan thorac kapsulu; 2-po'stloq modda; 3-mag'iz modda; 4-limfotsitlar; 5-epitelioretikulotsit; 6-timus tanachi; 7-bo'lakchalararo binkiruvchi to'qima; 8-lipotit; 9-bo'lakchalararo arteriya; 10-po'stloq moddanning kapillyarlar to'ri; 11-kapsula otsi vena; 12-mag'iz moddanning kapillyarlar to'ri; 13-bo'lakchalararo vena; 14-17-bo'lakchalararo vena.


To'qima suyuqligi bilan to'igan bu bo'shliqda limfotsitlar va makrofaglar uchraydi. Po'stloq modda kapillyarlarining ko'pchiligi bevosita kapsula osti venulalarga quyiladi, ozroq qismi esa mag'iz modda tomon yo'naladi. Bu kapillyarlar po'stloq modda chegarasida postkapillyar venulalarga o'tadi. Mag'iz qismi kapillyarlar atrofida po'stloq modda kapillyarlaridagidek to'siq yo'q. Shunday qilib, po'stloq va mag'iz moddalardan qon mustaqil oqib chiqadi. Limfa kapillyarlarining chuqur (parenximatoz) va yuza joylashgan (kapsulyar va subkapsulyar) to'rlari farq qilinadi. Kapillyarlarning parenximatoz to'ri, ayniqsa, po'stloq moddada kuchli taraqqiy qilgan.

Bo'lakchalararo to'qimada limfa kapillyarları qon tomirlari bilan yonma-yon joylashuvchi limfa tomirlariga quyiladi. Timus kapsulasi orqali limfa tomirlari kirmasligi bilan ham limfa tugunlaridan farq qiladi. Bu hol boshqa joylarda hosil bo'igan limfa timus orqali oqib o'tmasligini ko'rsatadi.

Timusning o'sishi va taraqqiyoti hayvon jinsiy halog'atga yetguncha davom etib, keyin teskari taraqqiyot (*involvutsiya*)ga uchraydi. Timusning involvutsiyasi otlarda 2-2,5 yoshda, cho'chqa va itlarda ikkinchi yoshning boshida, qo'y-echkilarda - 2 yoshda, qoramollarda 4-5 yoshda yuz beradi. Hayvon yoshi ulg'ayishi bilan timusning kichiklashuvi kuzatiladi. Bu hodisa yosh bilan bog'liq involvutsiya deyiladi. Bunda timusning histologik tuzilishi ham o'zgarishlarga uchraydi. Po'stloq moddada limfotsitlar keskin kamayadi. Bo'lakchalar kichiklashadi va bujmayib qoladi, ularda epitelioitsitlar, timus tanachalari, labrotsitlar, sitoplazmasi vakuolizatsiyaga uchragan makrofaglar topiladi. Bo'lakchalararo to'qima dag'allashadi va ko'plab lipotsitlarga ega bo'ladi. Turli ichki va tashqi omillar (masalan, infeksiya, intoksikatsiya, travma, och qolish va boshqalar) ta'sirida timusning vaqtinchalik yoki aksidental involvutsiyasi yuz beradi. Bunda, ko'pincha zararli omillar ta'siri to'xtagach, timus asl boliga qaytadi.

KLOAKA (FABRITSIUS) BURSASI

Kloaka devori dorsal qismining umur-tqa pog'onasi tomonga cho'ntaksimon o'sib chiqishidan hosil bo'l-gan bu limfoepitelial organ qushlarda B-limfotsitlarning taraq-qiyotini amalga oshi-radi va immunopoez-ning markaziy organlaridan biri hisoblanadi. Sut emizuvchilarda bunday organ yo'q va biz yuqorida qayd qilganimizdek B-lim-fotsitlarning dastlabki, antigen ta'siri bilan bog'liq bo'lgan taraqqiyoti suyak iligida amalga oshadi. Bursa tovuqlar emironida taraqqiyotning 12-13 kunlarda hosil bo'lib, jo'ja hayotining 7-haftasida uning involvutsiyasi boshlanadi.




131-rasm. To'veq kloaka bursasi burmasining kesimi:
1-po'stloq va mag'iz moddalariga ega limfa tugunchalari; 2-epiteliy.

Embriogenezda avval organ bo'lakchalarining epitelial asosi hosil bo'ladi, keyin sariq xaltadan migratsiya qiluvchi stvol hujayralardan limfotsitlar taraqqiy qiladi.

Bursa (131-rasm) tuzilishiga ko'ra kovakli organ bo'lib, shilliq pardasi ko'p qatorli silindrik epiteliy bilan qoplangan birlamchi va ikkilamchi burmalarga ega. Burmalarda po'stloq va mag'iz moddalardan iborat, bir-biriga zinch tegib turuvchi, ko'pdan-ko'p **limfa tugunchalari** mavjud. Mag'iz moddada o'simtali epitelrotsitlar, ular orasida o'rta va yirik limfotsitlar, po'stloq moddada ko'plab kichik limfotsitlar joylashadi.

LIMFOID TUGUNCHALAR

Limfold tugunchalar limfold qon hosil qilish qobiliyatiga ega, uncha katta bo'limgan strukturalardir (132-rasm). Ular ovqat



132-rasm. Ining (A) va qo'yning (B) meghay bodomchaları (Ellenberger va Trautman be'yicha): a-bodomchaları chuqurchalar; b-epitely; c-retikulyar to'qima; r-limfa tugunchaları; d-biriktiruvchi yunusloq to'qima; e-bezar; x-ko'ndalang targ'il miskul to'qima tolalari.

shaklga ega, gematoksilin-eozin bilan bo'yalgan kesmalarda to'q havorangda ko'rinishi ko'plab kichik limfotsitlar mavjudligiga bog'liq. Follikulning periferiyasida limfotsitlar siyraklashib, keskin chegarasiz atrof to'qimaga o'tadi. Ayrim hollarda follikulning o'rta qismi ochroq bo'yalgan va ko'plab mitoz figuralariga ega. Bunday qismlar **ko'payish (germenativ) markazi** nomini oladi. Elektron mikroskopiya germinativ markazda granulyar sitoplazmatik to'r yaxshi taraqqiy qilgan plazmotsitlar mavjudligini ko'rsatadi. Limfold tugunchalarning soni va germenativ markazlarning namoyon bo'lish darajasi organizmning immunologik reaksiyalariga bog'liq.

Solitar follikullar (yakka-yakka joylashgan tugunchalar) me'da,

hazm qilish kanali va nafas yo'llari shilliq pardalarining epitely osti qavatida joylashib organizmning ichki muhitiga tashqaridan yet, zararli agentlarning kirib qoli-shiga yo'l qo'ymaydi. Tugunchalardagi limfotsitlar biriktiruvchi to'qimada joylashishi bilan birga epitely orasiga suqilib kira-di, hatto organ bo'shilg'iga ham chiqadi. Shunday qilib, bu yerda retikulyar to'qima, limfotsitlar va epiteliyning o'zaro yaqin aloqasi yuzaga keladi. Limfold tugunchalar kapsulaga ega emas, alohida-alohida joyla-shishi yoki ayrim joy-larda to'plamlar hosil qilishi mumkin. Alohida tugunchalar (**follikullar**) diametri 1 mm gacha bo'lib, sferik

ichaklar, (ayniqsa, yo'g'on ichaklar), nafas yo'llari shilliq pardasida, kon'yunktivada va boshqa joylarda uchraydi. Tegishli ta'sirotlarga javoban bunday tugunchalar diffuz retikulyar to'qimaga ega shilliq pardalarda yan-gidan hosil bo'ladi. Ba zi joylarda limfa tugunchalari to'plamlar hosil qiladi. Bunday hollarda ayrim-ayrim tugunchalar orasidagi retikulyar to'qimada limfotsitlar kamroq, shuning uchun ular bu to'plamlarda yaxshi ko'zga tashlanib turadi.

Og'iz-halqum oblastida **bodomchalar** joylashib, ularning yig'indisi halqum limfold halqasini hosil qiladi. Bodomchalar shilliq pardanining burmasi bo'lib II-halqum cho'ntagining endodermasidan taraqqiy qiladi. Shilliq pardanining ostidagi biriktiruvchi to'qimada retikulyar to'qimaga ega limfa tugunchalarining to'plamlari mavjud.

Bodomchalar atrof to'qimaga keskin chegarasiz (diffuz) o'tuvchi yoki chegaralangan bo'lishi mumkin.

Ichak shilliq pardasi, ayniqsa, yo'g'on ichaklar - ko'r ichakning uchi, chambar ichak va shuningdek yonbosh ichakda limfa tugunchalarining to'plamidan iborat strukturalar - **Peyer blyashkalari** uchraydi.

Hayvonning yoshi ulg'ayishi bilan limfa tugunchalarining soni kamayadi.


LIMFA TUGUNLARI

Limfa tugunlari limfa tomirlari yo'lida, tomirfarning ichida joylashadi va tugunning kapsulasi limfa tomiri devorining davomi hisoblanadi. Tugunlarning eng muhim va universal funksiyalari: gemopoetik, immunopoetik, himoya, filtratsiya, moddalar almashinuvi va depo funksiyalardir.

Limfa tugunlari embrional taraqqiyotning ikkinchi yarmida limfa tomirlari bilan o'ralgan, zichlashgan mezenximal strukturalar shaklida hosil bo'ladi va tuzilishi asta-sekin definitiv holga keladi. Organizm qarigan sari limfold to'qima biriktiruvchi to'qima bilan almashina boradi, limfa tugungi-dagi ko'payish markazlari yo'qoladi.

Voyaga yetgan hayvonlarda limfa tugunlari turli shakl (asosan loviyasi-mon) va kattalikda bo'ladi. Tugunning qabariq tomonidan limfa tomirlari kira-di. Botiq tomoni **tugun darvozasi** deyilib, bu yerdan tugunga arteriya ki-radi, vena va limfa tomirlari chiqadi. Cho chiqada limfa tomirlari tugun darvozasi orqali kirib, qabariq tomonidan chiqadi. Limfa tu-gunida bir-biri bilan bog'langan kapsula osti va markaziy sinuslar bor. Sinuslar buzal membranaga ega bo'limgan maxsus (limfatik) endoteliy bilan qoplangan, limfotsitlar va makrofaglarga ega. Limfa tugunlarini sirtidan kollagen totalarga boy biriktiruvchi to'qimadan iborat **kapsula** qoplab tura-

di (133-rasm). Bu kapsula limfa tomirlari devorining davomidir. Kapsuladan tugun ichiga markaziy qismga yaqinlashgach, tarmoqlanuvchi va bir-biri bilan tutashib to'r hosil qiluvchi trabekulalar o'sib kiradi.



133-rasm. Limfa tugunining tuzilish xemasи:

A-smiki; B-cho'chqanik; 1-limfa kechinuvchi tomirlar; 2-limfa olib ketuvi tomirlar; 3-kapsula; 4-trabekulalar; 5-limfa tugunchalari (follikullari); 6-eşag'iz qism tasmachalari; 7-kapsula oti limfa sinesi;


Kapsula va trabekulalarda yirik shoxli mollarda silliq miotsitlar bo'ladi. Trabekulalar oraliq'ida limfotsitlar bilan to'lgan to'rsimon to'qima joylashadi. Kapsula ostida limfotsitlarning to'plamlaridan iborat limfa tugunchalari yoki follikullari aniq ko'riniib turadi. Ular epitelyi osti limfa tugunchalaridek tuzilgan va reaktiv markaziarga ega. Cho'chqada limfa tomirlari tugunga darvoza tomondan kirkani uchun bu tugunchalar limfa

tugunining chuqur qismlarida - darvoza yaqinida uchraydi. Limfa tugunchalaridan markazga qarab yo'naluvchi, noto'g'ri shakldagi mag'iz qism tasmachalari limfotsitlarning oqimlaridir. Limfotsitlar siyrak joylashgan, shuning uchun ochroq ko'rindagi qismlar limfa sinuslaridir. Shunday qilib, limfa tugunlarining limfa tugunchalaridan iborat **po'stloq moddasi**, mag'iz qism tasmachalari va sinuslardan iborat **mag'iz moddasi** va ikkala modda orasidagi diffuz **parakortikal** (**po'stloq oldi**) zonasini farq qilinadi.

Po'stloq moddaning limfa tugunchalari 0,5-1 mm diametriga ega sharsimon tuzilmalardir. Ularning asosi retikulyar totalari dag'al va egribugri retikulyar to'qimadir. Bu to'qimada limfotsitlar, makrofaglar va boshqa hujayralar joylashadi. Tugunchalarning periferik qismini kichik limfotsitlar, markaziy qismini esa yirikroq va o'zaklari ochroq bo'yaluvchi limfoblastlar, limfotsitlar va makrofaglar egallagan. Markaziy qismda makrofaglar, antigenlar va T-hamda B-limfotsitlarning o'zaro ta'siri natijasida immunitet reaksiyalari amalga oshadi. Antigen ta'sirida faollashgan B-limfotsitlar ko'payishi va yetila borishi bilan B-zonalari hosil qiladi, u yerdan esa mag'iz qism tasmachalariga migratsiya qilib, plazmotsitlarga aylanadi. Tugunchalar reaktiv markazlarining o'sintiali ("dendritik") hujayralari makrofaglarning o'ziga xos turlari bo'lib, sitolemmasidagi retseptorlari bilan immunoglobulinlarni, ular vositasida esa tegishli antigenlarni burkitrib oladilar. Antigenlar o'z navbatida B-limfotsitlarni faollashtiradilar va immunitet reaksiyalarda ishtirok qilishini ta'minlaydilar. Organizmning immunofiziologik holatiga qarab limfa tugunchalari va ularning reaktiv markazlari o'zgaradi. Markazlarning hosil bo'lishi va yo'qolib ketishi 2-3 kun ichida yuz beradi.

Parakortikal zona (134-rasm) po'stloq va mag'iz qismlar chegarasida joylashadi. Hayvon tug'ilgan payida timektomiya o'tkazilsa, bu zona limfotsitlardan xoli bo'lib qoladi va postkapillyar venulalar spetsifik tuzilishini o'zgartirib, oddiy venulalarga o'xshab qoladi. Shuning uchun bu qism limfa tugunining T-zonasi (timusga tobe zonasasi) deb nomlangan. Bu yerda asosan T-limfotsitlar va fagotsitoz qobiliyatini yo'qotgan makrofaglar ("interdigatatsiyalar hosil qiluvchi hujayralar") joylashadi. T-zonada T-limfotsitlarning antigenlar ta'sirida ko'payishi, tabaqalanishi va T-effektorlarga aylanishi yuz beradi. Parakortikal zonaning postkapillyar venulalari limfa tuguniga sirkulyatsiyada bo'lgan T-va B-limfotsitlar o'tadigan joydir.

Mag'iz modda. Mag'iz modda tasmachalari asosida retikulyar to'qima yetuvchi makrofaglar, B-limfotsitlar va plazmotsitlarga ega, o'zaro anastomozlar hosil qiluvchi strukturalardir. Limfa tugunlarining mag'iz moddasi, shuningdek limfa tugunchalarining ko'payish markazlarida asosan B-limfotsitlar joylashgani uchun ular B-zonalar nomini olgan.



134-IZM. Limfa tuguni struktur-funksional

qismalarining joylashish exampleti

1-po'sloq modda; 2-mag'iz modde; 3-parakortikal qism; 4-limfa folikularining ochroq bo'yalgan makkazy qismi; 5-kapsulaosti limfa simus; 6-mag'iz qismi tasmachalar.

Mag'iz qismi tasmachalarida B-limfotsitlarning ko'payishi (proliferatsiyasi) va plazmotsitlarning yetilishi amalga oshadi. Mag'iz qismi tasmachalarini, shuningdek po'sloq modda limfa tugunchalarini retikulyar tolalarning bog'lamchalarida yotuvchi maxsus endoteliysimon retikulyar hujayralar qoplab turadi. Limfa tugunining bir tomonidan kapsula va trabukelalar, ikkinchi tomonidan limfa tugunchalar va mag'iz qismi tasmachalari bilan chegaralangan bo'shilqlari limfa olib keluvchi torinlarning davomi hisoblanib, sinuslar deyiladi. Kapsula osti, tugunchalar atrofi va mag'iz qismi sinuslari farq qilinib, ular o'zaro tutashgandir. Sinuslar orqali oqib o'tayotgan limfa tugunchalar, mag'iz qismi tasmachalarini va parakortikal zona limfotsitlari bilan boyiydi. Organizmning turli holatlarda sinuslardagi erkin yotuvchi hujayralar orasida limfotsitlar, yakka-yarim granulotsitlar va eritrotsitlar uchraydi. Sinuslar bu yerga tushgan antigenlarni tutib qoluvchi fagotsitlarga ega bo'lgani uchun himoya qiluvchi filtrlar rolini o'taydi.

Vaskulyarizatsiyasi. Tugun darvozasi orqali kiruvchi arteriyalarning bir qismi kapsulada tarmoqlansa, boshqalari mag'iz qismi tasmachalarini, parakortikal zona va po'sloq modda tugunchalariga boradi. Tugun orqali, tarmoqlanmasdan o'tuvchi ("tranzit") arteriyalar ham uchraydi. Limfa

tugunida gemokapillyarlarning ikkita - yuza va chauqur joylashgan to'riari farq qilinadi. Gemokapillyarlardan yo'nalishi arteriyalarga teskari va ularidan alohida joylashuvchi venoz sistema boshlanadi. Postkapillyar venu-lalarning endoteliyi odatdagidan ancha qalin bulib, endotelotsitlari orasida "pora"lar bor. Avval ta'kidlaganimizdek, limfoitsitlarning qon oqimidan chiqishida bu venulalar asosiy rotni o'yaydi. Yallig'lanish jarayonlarida regional limfa tugunlari sinuslariga qondan eritrotsitlar ham chiqadi.

Innervatsiyasi. Limfa tugunlari afferent va efferent nervlarga ega. Tugunga keluvchi nervlar, tugun kapsulasida esa intramural gangliylar topilgan. Nervlar mielinli va mielinsiz totalardan tuzilgan va tugun ichida qon tomirlari bilan yonma-yon joylashadi. Tugunning kapsulasi, trabekulalari, tomirlari, po'stloq va mag'iz moddasida retseptor apparat yaxshi rivojlangan. Erkin yotuvchi va kapsula bilan o'ralgan nerv terminallari mavjud.

Limfa tuguni olib tashlanganda limfa olib keluvchi va olib ketuvchi tomirlar saqlab qolinsa, tugunning qisman yoki to'liq regeneratsiyasi amalga oshishi mumkin.

GEMOLIMFATIK VA GEMAL TUGUNLAR

Gemolimfatik tugunlar qizil rangli, sinuslaridagi limfaga qon aralashgan tugunlardir. Bunday tugunlar ot va cho'chqada ko'p uchraydi. Ma'lumki, limfa tugunlari embrional taraqqiyot davrida avval mielopoetik qon hosil qiluvchi organlar bo'lib, keyinchalik limfold qon hosil qilishga o'tadi. Gemolimfatik tugunlar mielopoezga bo'lgan qobiliyatini odatdagidan uzoqroq (ayrim hollarda hayvon tug'ilgandan keyin ham bir necha yil) saqlab qoluvchi limfa tugunlaridir. Bunday tugunlar organizm ko'p miqdorda qon yo'qtiganda limfa tugunlari mielopoezni o'z zimmasiga olishidan ham hosil bo'lishi mumkin. Kavshovchilarda bunday tugunlar qon tomirlari yo'lida joylashgani uchun qo'shimcha taloq hisoblanib, qorin va ko'krak bo'shilg'ining yirik tomirlari atrofida uchraydi.

Gemolimfatik tugunlarning tuzilishi va taraqqiyoti odatdagji limfa tugunlarinikiga o'xshashdir. Ulardan qonni chiqarib yuborilsa, limfa tugunlariga xos tipik tuzilishga ega bo'lib qoladi.

Bir qism sinuslari limfa bilan, bir qism sinuslari esa qon bilan to'lgan tugunlar **gemolimfatik**, hamma sinuslari qon bilan to'lgan tugunlar **gemal tugunlar** deyiladi.

Hayvon yoshi ulg'ayishi bilan gemolimfatik tugunlar involy-

utsiyaga uchrab, po'stiq va mag'iz moddatari yog' yoki biriktiruvchi tolador to'qima bilan almashinadi.

TALOQ

Taloq muhim multifunksional organ bo'lib, limfoid qon hosil qilish, biofiltrlik, qon deposi, qarigan eritrotsitlar hamda trombotsitlarni yemirish vazifasini bajaradi va eritropoezni tormozlovechi modda ishlab chiqaradi. Embrional taloq universal qon hosil qiluvchi organdir. Taloqning bu vazifasi kemiruvchilarda butun umr saqlanib qoladi.


Limfopoez va himoya vazifalariga ega bo'lganligi uchun taloq tuzilishining ko'pgina tomonlari limfa tugunlarinikiga o'xshash. Taloq tuzilishining qator o'ziga xosliklari uning vazifasi xilma-xil ekanligi bilan izohlanadi: taloq qon tomirlari yo'lida joylashgan, uning retikulyar to'qimasi qon bilan yaqin aloqada bo'ladi. Taloq dorsal charvi qavatlari orasida, zichlashgan mezenximal struktura holida hosil bo'ladi. Taraqqiyotning boshtlang'ich davrida bu kurtakdag'i tez ko'payayotgan hujayralardan stroma hosil bo'ladi. Keyinchalik rivojlanayotgan taloqqa stvol hujayralar va makrofaglar kelib o'mashadi. Avval taloqda mieloid qon hosil bo'lishi yuz beradi. Keyin markaziy arteriyalar atrofida timusdan migratsiya qilgan limfotsitlar joylashib, T-zona hosil qilishadi. Undan keyin T-zonalar yonida makrofaglar va B-limfotsitlarning to'planishidan B-zonalar paydo bo'ladi. Limfa tugunchalarining shakkilnishi bilan bir vaqtida qizil pulpa ham rivojlanadi. Hayvon tug'ilgandan keyingi dastlabki davrda taloqda limfa tugunchalari ko'payib va kattalashib, ulardagi ko'payish markazlari rivojlanadi.

Taloq kapsulasi (135-rasm) ancha qalin va pishiq, silliq miotsitlarga ega biri-ktiruvchi to'qimadan tuzilgan bo'lib, qorin zardob pardasi bilan qoplangan. Kapsuladan ichkariga taloq ichki qismida tarmoqlanib va o'zaro tutashib to'r hosil qiluvchi trabekulalar o'sib kiradi. Trabe-kulalar ham silliq miotsitlarga ega. Taloq trabekulalari-ning oralig'ida **pulpa** joylashadi. Taloq pulpasining asosini retikulyar to'qima tashkil qiliib, bu to'qima katakchalarini esa qon hujayralari to'ldirib turadi. Oq va qizil pulpa farq qilinadi.

Oq pulpa (*pulpa lienis alba*) limfa tugunchalari va periarterial limfatik qinlaming kompleksidir. Limfa tugunchalari limfa tugunining tugunchalariga o'xshashdir. Ular 0,3-0,5 mm diametriga ega, yassilangan retikulyar hujayralardan iborat kapsula bilan o'ralgan T- va B-limfotsitlar, plazmotsitlar va makrofaglarning yig' indisidir. Bu tugunchalar orqali eksentrik joylashuvchi arteriyalar o'tadi.

Tugunchalarda keskin chegaralanmagan 4 zona: periarterial, ko'payish markazi, mantiya va chekka yoki marginal zonalar farqlanadi. Periarterial zona tugunchalar arteriyasi atrofidagi uncha katta bo'lmasan, T-limfotsitlar va interdigitatsiyalar yordamida tutashuvchi hujayralardan iborat. Bunday hujayralarning submikroskopik o'simtlari limfotsitlar orasiga suqilib kirib va ular bilan kontakt hosil qilib turadi. Ular antigenlarni adsorbsiya qilib, T-limfotsitlarga kerakli axborotni etkazadi, ularning blasstransformatsiya va proliferatsiyusini rag'batlaniradi. Funktsional jihatdan periarterial zona limfa tugunchalarining timusga tobe T-zonalarining analogi hisoblanadi. Ko'payish markazlari ko'payayotgan B-limfotsitlar, retikulyar hujayralar, makrofaglar va dendritik hujayralarga ega va ochroq bo'yaladi. Navbatdagi mantiya zona bilan chegarada tabaqalanayotgan plazmotsitlar uchraydi. Funktsional jihatdan bu qismlar limfa tugunining tugunchalariga analog, ya ni B-zonalar hisoblanadi. Mantiya zona ko'payish markazlarini o'rabi turuvchi kichik B-limfotsitlar va kamroq miqdordagi T-limfotsitlar, shuningdek, plazmotsitlar va makrofaglardan iborat. Marginal zona takoq limfa tugunchalarining qizil pulpaga o'tuvchi 100 mikromenglikdagi qismi bo'lib, T- va B-limfotsitlar hamda yakka-yarim makrofaglardan iborat. Bu zona devori yoriqsimon "pora" larga ega marginal sinusoid tomirlar bilan o'rangan. Periarterial limfatik qinlar B-limfotsitlar va plazmotsitlarning pulpar arteriyalarni o'rovchi, cho'zinchoq shaklidagi to'plamlaridir. Qinlarning periferiyasida kichik T-limfotsitlar joylashadi.

Qizil pulpa (*pulpa lienis rubra*) taloqning limfa tugunchalari va trabekulalari oralig'ini to'ldirib turuvchi retikulyar to'qima va unda joylashgan qon hujaynalaridan iborat, asosan sinusoid tipidagi ko'pdan-ko'p qon tomirlariga ega qizil rangli qismidir. Qizil pulpaning sinuslar oralig'ida joylashgan qismi pulpar tasmachalar deyiladi va plazmotsitogenetik o'choqlariga ega. Bu yerdagi plazmotsitlarga aylanuvchi B-limfotsitlar oq pulpadan migratsiya qilgan. Qizil pulpada monotsitlar o'tirib qoladi va makrofaglarga



135-rasm. Mashakning talog'i (Ellenberger va Trautman bo'yicha):

1 - kapsoza; 2 - trabekulalar; 3 - trabekulyar arteriya; 4 - trabekulyar vena; 5 - limfa follikularining o'ralg'agan qismi; 6 - markaziy arteriya; 7 - qizil pulpe; 8 - tonirflarning qiri.

aylanadi. Sinuslar taloqning murakkab tormlar sistemasining tarkibiy qismidir.

Taloqda qon aylanishining o'ziga xos tormonlari taloqning ko'p vazifali murakkab tuzilgan organ ekanligi bilan bog'liq. Taloq darvozasi orqali kiruvchi arteriya trabekulyar arteriyalarga tarmoqlanadi. Bu arteriyalarning tashqi pardasi trabekulalarning to'qimasi bilan tutashib ketgan, o'rta pardasi esa spiral holda joylashuvchi siliq maskul bog'lamchalari borligi tufayli yaxshi ifodalangan. Trabekulyar arteriyalardan pulpar arteriyalar ajraladi. Ular trabekulalardan biroz uzoqlashgach, limfotsitlardan iborat limfatik qin, keyin esa limfa tugunchasi ichida arteriyadan bir qancha gemokapillyarlar ajraladi. Arteriya tugunchadan chiqqach, panjasimon tarmoqlanib, bir qancha arteriolalarga aylanadi. Arteriolalar retikulyar hujayralar va tolalardan iborat mufta ("gilza")ga ega ellipsoid arteriolalar holida davom etadi. Mufta arterioladagi o'ziga xos sfinkterdir. Muftali arteriolalarning endoteliysi qisqaruvchi filamentlarga ega. Arteriolalar qisqa arterial gemokapillyarlarga tarmoqlanadi.

Taloqda qon aylanishini tushuntiruvchi bir necha nazariya mayjud. **Yopiq qon aylanish nazariyasiga** ko'ra, hosil bo'lgan gemokapillyarlar taloqning venoz sinuslariga ochiladi. **Ochiq qon aylanish nazariyasiga** ko'ra esa, gemokapillyarlar venoz sinuslar orasidagi retikulyar to'qimaga ochiladi. Uchinchi bir nazariyaning tushuntirishicha taloq kichiklashib puchayganda qon aylanish yopiq yo'l bilan, hajmi kattalashib, taranglashganda ochiq yo'l bilan amalga oshadi. Elektron mikroskopiya odam talogida qon aylanishi ochiq sirkulyatsiya yo'li bilan amalga oshishini ko'rsatdi. Ochiq yo'l bilan qon aylanishida qon sekin harnktalanib, uning shaklli elementlari makrofaglar bilan aloqada bo'ladi. Yopiq qon aylanish sirkulyatsiya va to'qimalarning oksigenizatsiyasi tez amalga oshishini ta'minlaydi.

Taloq venoz sinuslarining diametri 12-40 mikrom bo'lib, venoz sistemaning boshlanishidir. Sinuslarining endotelrotsitlari yoriqlarga ega uzuq-uzuq bazal membranada joylashadi, devori tashqaridan halqa shaklidagi retikulyar tolalar bilan o'ralgan va peritsitlarga ega emas. Sinuslar venalarga o'tadigan joyda venoz sfinkter joylashadi. Venoz sfinkter yopilsa, qon sinuslarda to'planadi, agar arterial va venoz sfinkterlar yopilsa, qon taloqda depo holida to'planadi. Taloqning trabekulyar venalari muskul qavatga ega bo'lmasdan, mediya kuchsiz taraqqiy qilgan. Adventitsiya trabekulalarning to'qimalari bilan qo'shilib o'sishib ketganligidan venalarning bo'shlig'i doimo ochiq va bu hol taloqning siliq miotsitlari qisqarganda qonning taloqdan oqib chiqib ketishini yengillashtiradi. Taloq kapsulasida arteriya va venalar o'rtasida, shuningdek pulpar arteriyalar o'rtasida anastomozlar uchraydi.

Taloqning innervatsiyasi. Nervlar taloq darvozasi orqali qon to-

mirlari bilan birga kiradi. Taloq nervlarida sezuvchi va simpatik totalar mavjud. Ularning bir qismi qon tomirlarini nervlar bilan ta'minlaydi, qol-ganlari esa trabekulalarning silliq miotsitlariga boradi, shuningdek taloq pul-pusiga kirib nerv chatishmalari hosil qiladi.

Hayvon yoshi ulg'ayishi bilan oq va qizil pulpa atrofiyaga uchrab, limfa tugunchalarining soni kamayadi, ko'payish markazlari asta-sekin kichiklashadi. Pulpada makrofaglar va limfotsitlar soni kamayib, granulotsitlar va labrotsitlar ko'payadi. Eksperimentlarda taloqning kattagina qismi olib tashlarsa, u hajmini tiklashi mumkin. Lekin organning shakli va hajmi odatda, to'liq tiklanmaydi.

Immunologik nazorat va himoyani amalga oshiruvchi asosiy hu-jayralar limfotsitlar, makrofaglar va plazmotsitlardir. Avval qayd qilib o'tilganidek, tabaqalanish yo'llari va immuno-morfofiziologik xossalariiga ko'ra ikki xil: T- va B-limfotsitlar farq qilinadi. T-limfotsitlar suyak iligi stvol hujayralardan taraqqiy qiladi. Stvol hujayralar qon bilan timusga keladi va bu yerda antigenlar ta'siri bilan bog'liq bo'lmagan proliferatsiya va tabaqalanish natijasida T-limfotsitlarga aylanadi. Bunday limfotsitlarning begona antigenlarni sezuvchi retseptorlarga ega bo'lган xillari periferik limfoid org'anlarning timusga tobe bo'lган zona (T-zona)lariiga borib o'rashadi. Bu zonalarda antigenlar ta'siri bilan bog'liq proliferatsiya va tabaqalanish natijasida ular T-effektorlarga aylanadi. T-effektorlar immunitetning hujayraviy reaksiyalarini amalga oshiradi, ya'ni begona hujayralar va organizmning genetik jihatdan o'zgargan hujayralarini etmiradi, shuningdek, gumoral immunitetni boshqarishda qatnashadi. Bir xil T-effektorlar antigen to'g'risidagi informatsiyani uzoq vaqt saqlab turuvchi xotira T-limfotsitlarga aylanadi. Timusda hosil bo'luchchi bir guruh T-limfotsitlar organizmning antigenlarni sezuvchi retseptorlarga ega bo'lib, ular sirkulyatsiyaga chiqmaydi va shu yerdayoq yemiriladi.

B-limfotsitlar stvol hujayralardan suyak iligida (qushlarda - klonka bursasida) hosil bo'ladi va periferik limfoid organlarning B-zonalariga borib o'rashadi. Bu joylarda, antigenlar ta'sirida ular proliferatsiya va tabaqalanishga uchrab, effektor hujayrlar - plazmotsitlar va xotira B-hujayralariga aylanadi. Plazmotsitlar muayyan antigenlarga qarshi muayyan antitanacha (gammaglobulin)lar hosil qiladi.

Makrofaglar faol fagotsitlar bo'lib, ular antigenlarni korpuskulyar (zarrachalar) shakldan molekulalar shakliga keltirib, antigenlar to'g'risidagi axborotni immunokompetent hujayralarga yetkazib beradi.

Shunday qilib, immunologik reaksiyalarning amalga oshishi uchun uch xil hujayralar: B-limfotsitlar, makrofaglar va T-limfotsitlar faoliyatining kooperatsiyasi yuz berishi lozim.

ENDOKRIN SISTEMA

(*Endokrin bezlar*)

Endokrin bezlar deb o'z sekreti (*inkreti*)ni bevosita qon yoki limfaga o'tkazuvchi bezlarga aytildi. Bu bezlar nerv sistemasi bilan birgalikda organlar faoliyatini koordinatsiya qilish, ya ni organizmning bir butunligini amalga oshirishda ishtirok qiladi.

Endokrin bezlarning qonga o'tkazuvchi maxsus moddalar - **gormonlar** (*hormon* - harakatlantiraman, qo'zg' staman) moddalar almashinuvini kuchaytiradi yoki susaytiradi, shuningdek sifat jihatidan o'zgartiradi. Gormonlar bir necha xil xossalari: 1) kimyoviy tarkibining doimiyligi; 2) nerv impulslariga nisbatan davomliroq ta'sir ko'rsatishi va 3) bu ta'sirning spetsifikligi bilan xarakterlanadi. Gormonlar **oqsil**, **polipeptid**, **lipid**, **steroid** va **aminokislota** tabiatiga ega bo'lishi mumkin.

Nerv to'lalurining terminallari hujayralar bilan bevosita aloqada bo'lganda nerv sistemasi bu hujayralurga bevosita ta'sir qiladi. Lekin nerv terminallari to'qimalarning barcha hujayralari bilan bevosita bog'langan emas, shuningdek ko'pchilik hujayralar nerv impulslarini bevosita qabul qila olmaydilar. Bunday hollarda ularning o'zaro aloqasi organizm ichki muhiti suyuqliklari (qon va limfa)dagi gormonlar vositasida amalga oshadi. Organizm faoliyatining bu tarzda boshqarilishi gumoral reguliyatsiya deyiladi.

Gormonlar **effektorlar** yoki **nishonlar** deyiluvchi hujayralar va organlarga maxsus ta'sir ko'rsatadi. Bunda nishon-hujayraning maxsus receptorlari gormonni "tanishi" va biriktirib olishi shart. Natijada murakkab fermentativ sistema faollashib, nishon-hujayraning funksional qo'zg' algan holati yuzaga keladi.

To'qima va organlarning har qanday hujayrasi moddalar almashinuvining mahsulotlarini to'qima suyuqligiga, bu suyuqlikdan limfa orqali qonga o'tkazadi. Endokrin bezlarning inkretlari esa to'g'ridan-to'g'ri qon va limfaga o'tadi. Gormonlar organizm turli to'qima va organlariga, jumladan, boshqa endokrin bezlarga ham (m., gipofizning TTG va AKTG lari qalqonsimon va buyrakusti bezlari) ta'sir ko'rsatadi.

Barcha endokrin bezlarning faoliyati nerv sistemasi tomonidan idora qilinadi va ular o'z navbatida nerv sistemasiga, jumladan, olyi nerv faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi: ayrim endokrin bezlarning faoliyatidagi o'zgarishlar nerv sistemasida funksional va struktur o'zgarishlar yuz berishiga olib kelishi mumkin. Ichki sekretsiya bezlari faoliyatining buzilishidan

kelib chiqadigan kasalliklar tegishli bezlarning gormonlari yoki sintetik preparatlar (gormonlar) bilan davolanadi. Endokrin bezlarning fiziologik holati hayvon mahsulorligiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ichki sekretsiya bezlari to'g'risidagi ta'limot - endokrinologiya va uning rivojlanishi veterinariya va zootexniyada katta ahamiyatga ega.

Endokrin bezlar morfologik jihatdan bir necha belgilar: 1) chiqaruv yo'llarining yo'qligi; 2) qon va limfa tomirlariga boyligi; 3) sinusoid tipdagi kapillyarlarga egaligi va 4) ixtisoslashgan sekretor hujayralar borligi bilan xarakterlanadi.

Ayrim organlar (gipofiz, qalqonsimon bez, qalqonsimon bezoldi bezi, epifiz va buyrakusti bezlari) faqat ichki sekretsiya organlari bo'lsa, boshqalari (me'daosti bezi, jinsiy bezlari, platsenta) boshqa vazifalar bilan birga, gormonlar ishlab chiqaruvchi organlar xizmatini ham bajaradi.

Biologik faol moddalar, xususan mediatorlarni sintez qilish va sekretsiya barcha nevrotsitlarga ham xos xususiyat. Lekin ixtisoslashgan sekretor nevrotsitlar, masalan, gipotalamusning neyrosekretor yadrolaridagi nevrotsitlar ham mavjud. Bunday hujayralar sekretsianing morfologik belgilariga ega, neyrosekretini qon yoki miya suyuqligiga o'tkazadi. Ummumani, juda ko'p to'qima va organlarda gormon tabiatli moddalar ishlab chiqarilishi aniqlangan. Bunga sut emizuvchilar, jumladan, odamning turli to'qimalarida juda kam miqdorda ishlab chiqariluvchi gormonlar guruhi - prostoglandinlarni misol keltirish mumkin. Ular xilma-xil fiziologik janayonlarga: silliq muskullar (ayniqsa bachardon muskulii)ning qisqarishi, qon bosimi, ichki sekretsiya bezlari faoliyatini va tuz-suv almashinuviga ta'sir ko'rsatadi. Kimyoviy tabiatiga ko'ra, ular yog' kislotalarning mahsuli bo'lib, tug'ishni yengillashtirish, bo'g'ozlikni sun'iy ravishda to'xtatish va boshqa maqsadlarda qo'llaniladi.

Hozirgi paytda endokrin sistemaning quyidagi tasnifi qabul qilin-gan.

I. Endokrin sistemaning markaziy, regulyator qismlari:

- 1) gipotalamus (neyrosekretor yadrolar);
- 2) gipofiz;
- 3) epifiz.

II. Periferik endokrin bezlar:

- 1) qalqonsimon bez;
- 2) qalqonsimon bezoldi bezlari;
- 3) buyrakusti bezlari.

III. Endokrin va endokrin bo'Imagan vazifalarni birlgilikda baruvchi organlar:

- 1) jinsiy bezlari (urug'don va tuxumdon);

2) platsenta;

3) me'daosti bezi.


IV. Gormonlar ishlab chiqaruvchi yakka-yakka joylashgan hujayralar.

Bu bobda I, II, IV guruhlarga kiruvchi organlar va hujayralar qarab chiqitildi. Qolgan endokrin strukturlar to'g'risida tegishli organlar sistemalarini o'r ganilayotganda so'z yuritildi.

GIPOFIZ

Gipofiz (pastki miya ortig'i, *glandula pituitaria, hypophysis*) ponasimon suyakdag'i "turk egari"ning gipofiz chuqurchasida joylashib, maxsus oyoqcha vositasida oraliq miyaning hipotalamus qismi bilan tutashgan. Bo'yiga kesib qaralganda bezning uch qismi: oldingi, oraliq va orqa qismlari farq qilinadi.

Embriogenetika bez og'iz bo'shilg'i dorsal devori epiteliyining o'smasi - gipofiz cho'ntakchasi va 3-miya qorinchasi tubining o'smasidan rivojlanadi (136-rasm).




136-rasm. Gipofizning taraqqiyoti:


A-lik va B-kuchroq bosqishlari; 1-nerv suyining devori; 2-oyin pufagining devori; 3-og'iz qu'ltig'ining epitheliyi; 4-xorda x-ichak mayi; 5-mezenxim; 6-gipofiz cho'ntag; uning 6-oldingi va 7-orqa devori; k-neyrogipofizning kurtagi.

Gipofiz cho'ntakchasining oldingi devori tez rivojlanib gipofizning oldingi, orqa devori esa oraliq qismlarga aylanadi. Bu ikki qism epiteliy gipofiz (adenogipofiz) deb ataladi. 3-miya qorinchasidan yuzaga keladigan orqa qism neyrogipofiz deyiladi. (137, 138-rasmilar).

Oldingi, eng mas-siv qism epithelial hujayralarning tar-moqlanib qalin to'r hosil qiluvchi, tiz-machalardan iborat. Tizmachalarning oraliqlari sinusoid kapillyarlarga ega birkirituvchi yum-shoq to'qima bilan to'lgan. Bir xil bez hujayralari tizma-chalarning chet (periferik) qismida joylashib, sitoplazmasi bo'yoglarni intensiv qabul qiladigan sekretor granulalar saqlaydi va **xromofil adenotsitlar** nomini oladi.



137-rasm. Gipofizning tuzilish xemasi:
1-oldingi; 2-otrig; 3-tuberal va 4-oreg qismlari; 5-vomerka; 6-gipotalamus.



138-rasm. Uy hayvonlari gipofizi
medial kesimining xemasi:


a-otniki, b-qoronioliki; c-ch'iganiki; d-otniki; e-mushakniki
(Tauman va Fibige bo'yicha).

Hozirgi paytda elektron mikroskopik, immunotsitokimyo va boshqa tekshirish usullarining ma'lumotlariga asoslanib, adenotsitlarning yanada murakkabroq klassifikatsiyasi ishlab chiqilgan bo'sada, hali bu borada muayyan qiyinchilik va noaniqliklar mavjud. (139-rasm).

Atsidesfil adenotsitlar oldingi qism hujayralarining 30-35%-ini tashkil qilib, yirik, oval yoki yumuloqlangan shakldagi donachalari cozin bo'yog'ini qabul qiluvchi hujayralardir. Bular orasida somatotropin gormoni ishlab chiqaruvchi somatotropotropit va prolaktin gormoni ishlab chiqaruvchi lakto-yoki mammotropotropitlar farq qilinadi.

Sekret donachalarining bo'yish xususiyatiga ko'ra, ular **bazofil** va **atsidesfil** adenotsitlarga bo'linadi. Boshqa bir xil bez hujayralari tizmacha-larning o'rta qismini egalab, ular bir-biridan keskin chegaralannagan va sitoplazmasi kuchsiz bo'yalgani uchun **xromofob adenotsitlar** nomini olgan.

Bazofil adenotsitlar oldingi qism hujayralarining 4-10% ini tashkil qiluvchi, atsidofillardan ham yirikroq, sitoplazmasi bazofil, tinch holatda fibrillyar tuzilishda, sekretsya paytida donachalar saqlovchi hujayralardir. Sitoplazmasida glikoproteidlar bo'lganligi uchun SHIK-reaksiya beradi. Bazofil adenotsitlarning ikki xili: **gonadotropotsitlar** va **tireotropotsitlar** (TTG ishlab chiqaruvchi) mavjud. Gonadotropotsitlar o'z navbatida FSG-tsit (FSG ishlab chiqaradi) va LG-tsit (LG ishlab chiqaradi) larga bo'lindisi. Organizmda jinsiy gormonlar etishmasa gonadotropotsitiarda sekretsya belgilari kuchayib, hujayra markazida joylashuvchi yirik vakuol paydo bo'ladi va o'zakni periferyaga surib qo'yadi. Tuzilishi o'zgargan bunday hujayralar "bichilish hujayralari" (kas-tratsiya hujayralari) nomini olgan.



139-rasmi. Adenogipofizi bez hujayralarining ultramikroskopik tuzilishi (B.V.Aleshin sxemasi):

I-follikularni stimulyatsiya qiluvchi gonadotropotsit; II-tirotropotsit; III-somatotropotsit; IV-laciotropotsit (mammotropotsit); V-kortikotropotsit; VI-tirosidektoniya hujayrasи; VII-kastratsiya hujaymasи; VIII-pseudofollikulning yulduzsimon-follikular hujaymasи; 1-c'zak; 2-plastiskali kompleks; 3-mitochondriя; 4-sitoplazmatik to'r; 5-sekretor granular; 6-vakuol; 7-nukreomisinka; 8-pseudofollikulning koloidsimon massasi bilan to'lgan bo'shlig'i.

Adrenokortikotropotsitlar xromofob adenotsitlarning alohida gu-ruhи bo'lib hisobla-nadi va asosan oldingi bo'limning markaziy zonasida joylashadi. AKTG ishlab chiqaruvchi bu hujayra-larning sekretor granulari membranaga o'ralgan pufakchalar bo'lib, oqsil tabiatga ega.

Xromofob adenotsitlar oldingi qism hujayralarining 60% ga yaqinini tashkil qilib, nisbatan mayda, chegaralari aniq bilinmaydigan, kuchsizroq bo'yahuvchi hujayralardir. Ularning bir xillari mitoz bo'linishga qobil va boshqa

adenotsitlarga tabaqalana otadi. Xromofablarning ba'-zilari atsidofil yoki bazofil adenotsitlarga tabaqalana boshlagan, lekin hali sekretor donachalar to'plab ulgurmagan hujayralar bo'lsa, boshqalari tabaqalangan, amma intensiv va uzoq davom etg'an sekretsiya natijasida donachalarini yo'qotgan hujayralardir. Bu guruh hujayralari orasida uzun va tarmoqlangan o'simtalari yordamida o'zaro tutashib to'rt bosil qiluvchi mayda, yulduzsimon hujayralarni ham uchratish mumkin. Ularning ba'zi bir o'simtalari adenotsitlar orasidan o'tib sinusoid kapillyarlar devorida tugaydi. Ba'zan yulduzsimon hujayralar psevdofollikular hosil qilishi mumkin. Xullas, xromofob adenotsitlar bir necha xil hujayralarni birlashtiruvchi umumlashma guruhdir.

Demak, oldingi qism adenotsitlarini quyidagicha klassifikatsiya qilish mumkin.

I. Atsidofillar:

1. Somatotropotsitlar;
2. Mammo (lakto) tropotsitlar.

II. Bazofillar:

3. FSG - sitlar
4. LG - sitlar;
- 4 "a". "Bichilish hujayralari";
5. Tireotropotsitlar.

III. 6. Adrenokortikotropotsitlar.

IV. 7. Xromofob adenotsitlar.

Oraliq qism (epitelial chekka) epiteliy hujayralaridan iborat ensiz tasmacha shaklidadir. Markazda oldingi va oraliq qismlar o'rtasida yoriqcha qoladi, orqa qismdan oraliq qism biriktiruvchi yumshoq to'qimaning yupqa qavati bilan ajralib turadi. Oraliq qismini poligonal yoki prizma shaklidagi, bazofil bo'yaluvchi, sitoplazmasida glikoproteidlar saqlovchi va SHIK-reaksiya beruvchi mayda (200-300 nm kattalikdag'i) donachalari bor hujayralar tashkil qiladi. Ayrim joylarda epithelial hujayraiar oralig'ida kolloidsimon modda to'planadi. Bu qismining gormoni intermedin (melanotsitotropin) pigment almashinuvini, lipotropin - lipidlar almashinuvini idora qiladi. Zamонавиј тасаввурларга ко'ра, бу иккала гормон ва oldingi qismining adrenokortikotropini bosh miyada yirik molekulalui peptid moddanining parchalishidan hosil bo'lib, ularning har biri shu molekulaning fragmentidi.


Gipofizning tuberal qismi (*pars tuberalis*). Tuberal qism yoki infundibulyar tepacha adenogipofiz tarkibiga kiradi. Bu qism gipofiz oyoqchasi atrofida qalinligi 25-60 mikron keladigan mufta hosil qiladi. Epitelial hujayralarning tizmachalari oyoqcha bo'ylab uzunasiga joylashgan qon tomirlari orasida yotadi. Oyoqcha va tuberal qism o'zaro yupqa biriktiru-

vchi to'qimadan iborat to'siq bilan ajralib turadi. Bu to'qima yunshoq miya pardasi bilan tutashib ketgandir. Tuberal qismni tashqaridan o'rgamchak to'risimon parda o'rabi turadi. Bu qism hujayralari kubik yoki silindrik bo'lib, mayda donachalar, ayrim hollarda kolloid tomchilarga ega, asosan tabaqalanmagan hujayralar, lekin atsidofil va bazofil bo'yahuvchilar ham uchraydi. Hozirgacha tuberal qismdan gormonlar ajratib olinmagan.

Neyrogipofiz - infundibulyar oyoqcha bilan orqa qismni o'z ichiga oladi. Qon tomirlari va bachadon muskuli tonusini oshiruvchi vazopressin (anitidiuretik gormon) va oksitosin gipotalamusning suprooptik va paraventrikulyar yadrolarida, neyrosekretiya natijasida hosil bo'ladi, bu qism orqali qonga o'tkaziladi.

Neyrogipofizning neyroglial tabiatli hujayralari - pituitarsitlar turlicha kartalik, shakl va o'simtalarga ega, tayanch vazifa bajaradi. Pituitarsitlar sitoplazmasida bu'zan pigment uchraydi. Orqa qismida gialinizatsiyaga uchragan inkret (Gerring tanachalari), suprooptik va paraventrikulyar yadrolar nevrotsitlariga tegishli mielinsiz nerv tolalari uchraydi.

Gipotalamo-gipofizar neyrosekretor sistema. (140-141-rasmlar).



140-rasm. Gipofiz-gipotalamus sistemada neyrosekretiya xemasid:

1-superoptik va 6-paraventrikulyar yadrolar; 2-uchinch miya co'richasining halqasimos bo'shib'i; 3-neyrosekret tonchilari; 4-oraliq miyadan neyrogipofizga boradigan neyrosekretor yo'l; 5-oddingi qism; 6-ordaq massa (Kreiling va Graa bo'yicha).


Yuqorida ta'kidlaganimiz-dek, oksitosin (paraventrikulyar yadroda) va vazo-pressin (suprooptik yadroda) gipotalamus nevrotsitlari-ning sitoplazmasida neyrosekretiya yo'li bilan ishlab chiqariladi. Inkret nerv tolalari bo'ylab orqa qismga o'tadi va qon kapillyarlariga shimaladi.

Gipofiz markaziy nerv sistemasi bilan boshqa endokrin bezlar o'rtasida vositachi bo'lib, bu jarayon gipofiz old qismi sekretor faoliyatini gipotalamusda ishlab chiqariladigan gormon-regulyatsiya qiluvchi va gormon-ingibitsiya qiluvchi omillar tomonidan idora qilish yo'li bilan amalga oshiriladi. Ushbu omillarni ishlab chiqaruvchi hujayralar gipotalamusning butun paraventrikulyar oblasti, hatto undan tashqarida tarqoq holda joylashadi. Bular guruhlarga to'planmasdan balki tarqoq joylashgan hujaynalardir.

Gipofizda qon aylanishi o'ziga xos farqlarga ega. U bir necha yuqorigi va ikkita pastki gipo-fizar arteriyalari orqali qon bilan ta'minlanadi. Ichki uyqu arteriyasining tarmog'i bo'lgan pastki guruh arteriyalari bez kapsulasi va orqa qismini qon bilan ta'minlaydi, shuningdek, old qismi sinusoidlariga kapillyarlar yuborda.

Yuqori guruh gipofizar arteriyalari qisman ichki uyqu arteriyasidan, qisman arterial halqa-dan ajraladi. O'rta tepalik (medial eminensiya) minta-qasida ular birlam-chi kapillyarlar to'riga tarmoqlanadi. Bu kapillyarlarga gipotalamus adenogipofizotrop mintaqasi nevrotitsitarining aksontlari kelib taqaladi va akso-vazal sipanslar hosil qiladi. Kapillyardagi qonga adenogipofizotrop omillar o'tadi. Birlamchi to'ring kapillyarlar to'planishidan gipofiz portal venalari hosil bo'ladi. Portal venalar adenogipofizda sinusoid kapillyarlarning ajoyib to'rini hosil qiladi. Venoz kapillyarlarning ajoyib to'r bo'lgan bu sistema gipofizdan qon olib ketuvchi venalarga aylanadi. Ajoyib to'r kapillyaridagi qotdan adenogipofizotrop omillar adenogipofizga, adenotsitlarning gormonlari esa qonga o'tказiladi.

Gipotalamusning adenogipofizotrop mintaqasi gipofizning portal sistemasi va gipofiz gipotalamo-gipofizar sistemasini hosil qiladi.



141-rasm. Gipotalamus secretor neyroni akseni terminalsining neyrogipofiz gemokapillyari bilan kontaktining sxemasi (Gershenson bo'yicha):

1-neurofibrillalar; 2-mikrovondriyalar; 3-neurosekret granulalar; 4-sinaptik pefakchalar; 5-bazal membrana; 6-gemokapillyarning endoteliositlari.

Gipofiz innervatsiyasining manbai gipotalamusdagi nerv yadrolaridir. Qon tomirlari bilan bilan gipofizga uyqu chigali (*glomus krotikus*)dan simpatik tolalar keladi. Gipofiz oyoqchasiini o'rovchi biriktiruvchi to'qimada plastinkali tanachalar uchraydi.

EPIFIZ


Epifiz (yuqorigi miya ortigi, *glandula pinealis, corpus pineale*) katta yarimsharlar bilan miyacha oralig'ida joylashadi. Bu bez bioritmlarning reguliyatori hisoblanib, gormonlarining sekretsiyasi ko'zning to'r pardasiga yorug'likning ta'siri bilan bog'liq (melatonin kechasi, serotonin kunduzi ishlab chiqariladi).

Epifiz toq o'sma shaklida, oralig' miya qopqog'idan hosil bo'lib, yosh hayvonlarda yaxshi taraqqiy qilgan, keyin involyutsiyaga uchraydi. Bezzning massasi juda kichik: otda 0,440 g, buqada 0,350 g, echkida 0,075 g, cho'-chqada 0,040 g, itda 0,080 g, odamda o'lchami 5-8x3-5 mm. Bez ependima bilan qoqliangan kulrang tanacha bo'lib, yumshoq miya pardasi bilan o'ralgan. Organ ichiga o'sib kiruvchi biriktiruvchi to'qimada qon tomirlari joylashadi. (142-rasm).


Bez hujayralarining asosiy ko'philigi ochroq bo'yalusvchi, poligonal hujayralar - **pinealotsitlardir**. (143-rasm).

Ular yurnaloq va yirik o'zakka ega, sitoplazmasida ko'p-lab mitokondriyalar, yaxshi taraqqiy qilgan plastinkali kompleks, lizosomalar, agranulyar sitoplazmatik to'r pufakchalar, ri-bosomalar va po-lisomalar uchraydi. Tizrnachalar hosil qilib joylashuvchi pi-nealotsitlar uzun, tarmoqlanuvchi o'sim-talari yordamida o'zar o'tashadi, shuningdek, gemokapillyarlar bilan kontaktlar hosil qiladi. Pinealotsitlar sekretor elementlar hisoblanib, bez bo'lakchalarining markaziy qismida joylashadi. Ular gliotsitlardan hosil bo'ladi.

Gliotsitlar (144-rasm) to'q bo'yaladigan, cho'zinchoq o'zakli, to'r hosil qiluvchi o'simtalarga ega hujayralardir.



142-rasm. Epifiz:
1-kapsula; 2-bo'lakchanning parenximasи; 3-trabekula
(Shaffer bo'yicha).




143-rasm. Epifiz:
1-pinealotitlar,
yu'g' uchraydigan o'sintalar.

to qalqonsimon

Gliotsitlar va bu yerdag'i tolalar pinealotsitlarni o'rabi turuvchi neyroglial to'rdir. Ikkala tip o'ttasida oraliq o'rinni egallayochi hujayralar ham uchraydi; uy hayvonlari, masalan, ot bezida pigmentotsitlar ham bor.

Hozirgi vaqtida epifizning fiziologik faol moddalaridan **serotonin**, **melatonin** va **adrenoglomerulotropin** ancha



144-rasm. Epifiz:
1-neyrogliyaning o'sintali yerk hujayralari.

batafsil o'rjanilgan. Bularning hammasi triptofan aminokislitasining hosilasidir. Serotonin vena qoniga kiritilganda qon bosimi ortadi, siyidik ajralishi kamayadi (buyrak arteriolalarining spazmi), nafas olish qiyinlashadi (bronxiolalarining spazmi), sichqonlarda bola tashlash yuz beradi (bachardon muskulaturasining qisqarishi). Melatonin intermedin (melanotsitotropin)ning antagonisti bo'lib, pigmentasiyaga ta'sir ko'rsatadi. Melatonin neyroaminlar guruhiga kirib gipotalamusning gonadoliberin, gipofizning esa gonadotropinlar ishlab chiqarishiga ta'sir ko'rsatadi. Epifizda neyroaminlar - serotonin va melatonin bilan birgalikda oligopeptid tabiatli xilma-xil gormonlar ham hosil bo'ladi. Bu hol epifizning sekretor hujayralari - pinealotsitlar neyroendokrin hujayralar ekanligini ko'rsatadi. Epifizning gormonlari va regulator peptidlari gipofiz orgali yoki bevosita boshqa endokrin organlar (buyrakusti bezi, qalqonsimon bez)ga ta'sir qiladi.

Bo'yining yuqorigi simpatik tugunidan boshlanuvchi nerv tolalari epifiz bo'lakchalarining parenximasida tarmoqlanadi va serotoninning mel-


atoninga aylanishini kuchaytiradi.

Hayvonning yoshi ulg'ayishi bilan epifizda biriktiruvchi to'qima va gliotsitlar ko'payadi, ohak tuzlari o'tirib qolishidan "miya qumi" hosil bo'ladi.

QALQONSIMON BEZ

Qalqonsimon bezning gormonlari tirozin aminokislitasining holsilalaridir. Bularidan triyodtironin va tetrayodtironin (tiroksin) o'z tarkibida yod borligi bilan xarakterlanadi va moddalar almashinuvini kuchaytiradi, oraliq miya vegetativ markazlariiga ta'sir qilib issiqqliq almashinuvini boshqarishda qatnashadi, shuningdek katta miya markazlariiga ta'sir ko'rsatadi. Ichimlik suvda yod yetishmasligidan enzootik buqoq kasalligi kelib chiqib, hayvonlarning mahsuldotligi va kasalliklarga chidamliligi pasayadi. Bezning, yana bir gormoni - tireokalsitonin qalqonsimon bezoldi bezining gormoni - paratiroid gormonga antagonist sifatida kalsiy almashinuviga ta'sir ko'rsatadi.

Anatomik jihatdan bez ikki bo'lakka ega bo'lib, hayvonlarda o'ziga xos shakl va kattalikda bo'ladi, hijildoqning qalqonsimon tog'ayiga yaqin joylashadi.



145-rasm. Otsing qalqonsimon bez:
1-follikul; 2-follikul devori; 3-kolloid; 4-vakuol; 5-kapillyar; 6-biriktiruvchi to'qima.


yo'nalishdagi kesimlari ko'rindi (145-rasm).

Follikullar ichida gomogen, atsidesfil bo'ya-luvechi suyuqlik - kol-

Qalqonsimon bez tolador biriktiruvchi to'qimadan iborat kapsulaga ega bo'lakchali organ bo'lib, bo'lakchalararo va follikullararo biriktiruvchi to'qima qon tomirlari va kapillyarlariga juda boy. Follikullar bir-biriga zinch joylashib, ular orasida biriktiruvchi to'qima kam va bu to'qima tayanch rolini bajaruvchi

retikulyar tolalarga ega. Voyaga yetgan hayvon qalqonsimon bezining preparatlarda bez follikul-larining turli

loid bor. Bez follikullari devori bir qavatlari (turli hayvon-larda, shuningdek bezning turli funksional holatlarida past bo'yidan to silindrikkacha bo'lgan) epiteliydan iborat. Epiteliyning aksariyat ko'pchilik hujayralari **asosiy tirotsitlar** (yoki follikulyar tirotsitlar)dir. Ular yirik, och bo'yaluvchi va markazda joylashgan o'zakka ega, organellari, apikal qismida mikrotukchalar bor. SHIK-reaksiya bilan glikoproteid tireoglobulinni aniqlash mumkin. Epiteliyning ikkinchi xil hujayralari **parafollikulyar tirotsitlar** deyilib, ular follikulyar tirotsitlardan yirikroq, gemitoksilin-eozin bilan ochroq bo'yaladi, kumush tuzlari bilan impregnatsiya qilganda jigarrang yoki qoramtil donachalarga ega bo'ladi. (146-rasm).



146-rasm. Qalqonsimon bezning follikulyar va parafollikulyar hujayralari (B.V.Aleshin sxemasi):

A-faqat parafollikulyar hujayralardan kuzatildigan og'ir nischtalar oksidlanining qeytasilish reaksiysi farg'ini tila yoki osmaliyi;

B-radioaktiv iod yutilishi (faqt follikulyar hujayralarga xoy); 1-parafollikulyar hujayralarning follikular onslig'ida joytashishi; 2-parafollikulyar hujayralarning follikular devorida joylashishi; 3-follikulyar hujayr; 4-bazal hujayr; 5- "och bo'yaluvchi" hujayr; 6-bazal hujayralarning ko'payishi dan bosil bu'tadigan epitheliy kumus; 7-follikulning bazal membransasi.

Bunday hujayralar follikular oraliq'ida ham joylashishi mumkin. Parafollikulyar hujayralar oqsil (tireokalsitonin, somatostatin) va neyroamin (noradrenalin va serotonin) gormonlar ishlab chiqaradi. Follikular orasida kam tabaqalangan, orolchalar shaklida joylashgan hujayralar - **interfollikulyar tirotsitlar** ham bor. Ulardan yangi follikular hosil bo'ladi.


Kolloid bez follikuli devoridagi hujayralarda hosil bo'ladi. (147-rasm).

Bu yerda qon bilan kelgan mineral tuzlardan oksidlanish natijasida yod ajraladi va glikoproteidlar sintezlanadi. Tireoglobulinlar follikular ichidagi kolloidda hosil bo'ladi. Kolloid hosil bo'lishi bilan bir vaqtida hujayralar apikal yuzasidagi mikrotukchalar ishtirokida uning tirotsitlarga

qaytadan so'rilishi ham amalga oshadi. Hujayradagi proteolitik fermentlar, gipofizning TTG-i ta'sirida bezning gormonlari batamom yetiladi. Tireoglobulinlar to'liq parchalunmasdan, yetilmagan gormonlar qonga tushsa, ularni organizm yot modda hisoblab, autoimmune kasallik kelib chiqadi.

147-rasm. Tirotsit va sekretsiya jarayonining sxeması

(B.V.Aleshin rasmı):



Bezning funksional holatiga qarab follikullarning tuzilishi o'zgaradi. Kolloid ko'p miqdorda to'plansa u intensiv bo'yaldi, epiteliy past bo'yli, mitozlar uchramaydi va follikul hajmi katta bo'ladi. Inkret qayta so'rila boshlasa, epiteliy hujayralari prizmatik shaklga kirib, mitozlar uchraydi, kolloid miqdori kamayadi. Tireotropin qalqonsimon bez faoliyatini stimulyatsiya qiladi, qonda yod miqdori ortadi. Qalqonsimon bez gormonlari haddan tashqari ko'p ajralib chiqsa tireotropin ishlab chiqarilishi susayadi. Qalqonsimon bez **uyqu arteriyasi** orgali qon bilan ta minlanadi. Bez og'irligiga birligiga hisoblaganda, bir daqiqada buyrakka nisbatan to'rt marta, tinch holatda bo'lgan muskulga nisbatan 48 marta ortiq qon oladi.

Simpatik va adashgan nervlarning tarmoqlari bez kapsulasiga kirib, keng sirtmoqli nerv chigali hosil qiladi. Bez ichidagi nerv tolalari qisman qon tomirlarini, qisman bez follikullarini innervatsiya qiladi.


Regeneratsiyasi. Bezning parenximasini kuchli proliferatsiya qobiliyatiga ega bo'lib, yangi follikullar hosil bo'lishining manbai interfollikulyar tirotsitlar, shuningdek mavjud follikullarning tirotsitlaridir.

QALQONSIMON BEZOLDI BEZLARI

(Epitelial tanachalar)

Bu bezlar bir necha (4-5 ta) kichik sarg'ish-jigarrangdag'i oval tanachalar bo'lib, qalqonsimon bez oldida, bez yuzasida, ayrim hollarda (masalan, qorako'l qo'yilarida) uning parenximasi ichida joylashadi. Ayrim hayvonlar (ayniqsa, o'txo'rilar)da peritraxial to'qimada, ko'krak bo'shilg'ida, traxeya va bosh bronxlar atrofida, timusning yuzasi yoki parenximasi ichida qo'shimcha epitelial tanachalar uchraydi. Bezning paratireoid gormoni kalsiy-fosfor almashinuvini reguliyatsiya qilishda qatnashadi, suyak to'qimasining o'sishi va regeneratsiyasida katta ahamiyatga ega. Keyingi paytlarda paratireoid gormonlarning ATF sin-tezlanishi va sarflanishida ishtirok qilishi aniqlangan.

Bezni qoplab turuvchi biriktiruvchi to'qimadan iborat kapsuladan bez ichiga yupqa qavatlar holida interstisial to'qima o'sib kiradi. Bu to'qima retikulyar tolalarga ega, nerv tolalari, qon tomirlari va kapillyarliga boy. Bez parenximasi aniq chegaralangan bo'laklarga bo'lmaydi. (148-rasm).



14

8-rasm. Qalqonsimon bezoldi bezning tizilishi:

A-Mallori xilli bilan bo'yash; B-ultrumkreskopik tizilishi (Yu.L.Afanasev sxemasi); 1-oksifil paratirotitsitlar; 2-bosh paratirotitsitlar; 3-birkutiruvchi to'qima qutamlari; 4-kolloidsimon modda sajloveli follikul; 5-gemokapillyarlar; 6-lipotitsitlar; 7-oraliq hijayralar; 8-presekretor granulular

Kapillyarlar to'ri orasida bez hijayrala-rining tizmachalar'i joy-lashadi. Bu hijayralarni ikki guruhga: asosiy (bosh) va atsidofil paratirotsitlarga bo'lish mumkin. Bosh paratirotsitlar uncha yirik bo'limgan poligonall

shakldagi, kuch-siz bo'yaluvchi o'zak va sitoplazmaga ega bo'lib, asosiy ko'p-chiliikni tashkil qiluvchi va funksional faoli hujayralardir. Organellalar o'rtacha taraqqiy qilgan bo'lib, sitoplazmida argen-taffin donachalar, glikogen va lipofussin pigmenti bor. Atsidofil paratirotsitlar bosh paratirotsitlarga nisbatan ancha yirik, sitoplazmasida yirik-yirik, atsidofil donachalari va yaxshi taraqqiy qilgan mitoxondriyalari bor. Bu ikki xil hujayralar o'rtasida oraliq o'rin tutuvchi hujayralar ham bor. Atsidofil hujayralar hayvonning yoshi ulg'ayishi bilan hosil bo'lib, jinsiy balog'atga yetganda, ularning soni ortadi. Ularni qariyotgan bosh paratirotsitlar deb hisoblaydilar. Lekin mitoxondriyalarning ko'pligi bu fikrga uncha to'g'ri kelmaydi. Atsidofil paratirotsitlar faqat ayrim hayvonlar (otlar, kavshovchilar)ning bezlarida uchraydi. Itlar, mushuk va kavshovchilarda bez hujayralarining o'zagi yirik, sitoplazmasi kam, aksincha ot va cho'chqada o'zaklar mayda, butun preparat och rangli bo'lib ko'rinadi. Hujayralarning tizmachalari orasidagi bo'shliqlar qalqonsimon bez kolloididan farq qiluvchi "kolloid" saqlaydi. Embrion va yosh hayvonlar bezida kolloid bo'lmaydi.

Qalqonsimon bezoldi bezi qon tomirlariga eng boy organlardandir. Bez kapsulasida nerv chigali topilgan. Nervlar organ ichiga qon tomirlari bilan birga kiradi. Bez hujayralarini innervatsiya qiluvchi tolalar topilgan.

BUYRAKUSTI BEZLARI

Buyrakusti bezlari simpatik nerv sistema bilan yaqin aloqada bo'lgan va boy innervatsiya qilinadigan organlardir. Bezlarning po'stloq va mag'iz moddalari turli manbalardan hosil bo'luvchi, tuban umurtqalilarda esa alohida-alohida bezlar shaklida uchraydigan to'qimalaridir.

Organizmida mayda, po'stloq qismdek to'qimadan tuzilgan **interrenal tanachalar** va mag'iz qismdek to'qimadan tuzilib, simpatik gangliylar yaqinida joylashgani uchun **paragangliylar** deb nomlanuvchi strukturalar uchraydi. Paragangliylar bilan qo'shilib ketgan interrenal tanacha qo'shimcha buyrakusti bezi deyiladi.

Interrenal tanachalar ko'pincha otlarda uchraydi, qorin devorining turli joylarida, zardob parda ostida joylashadi. Paragangliylar ko'proq yosh hayvonlarda, ko'krak va qorin bo'shilg'ida uchraydi. Buyrakusti bezlari, interrenal tanachalar va paragangliylar umumiy bir guruh - buyrakusti bezlari guruhini tashkil qiladi. Mag'iz modda va paragangliylarini xrom kislota tuzlari bilan bo'yalgani uchun xromaffin (*affinis* - yaqinlikka ega) sistemaga birlashtiriladi. Po'stloq modda esa interrenal tanachalar bilan

birgalikda interrenal sistemani hosil qiladi. Interrenal sistema organizmda tuz-suv va carbonsuvarl almashinuviga ta'sir ko'rsatadigan, shuningdek jinsiy gormonlarga o'xshash gormonlar - kortizon va boshqa mineralokortikoidlar, glikokortikoidlar, androgenlar, estrogenlar ishlab chiqaradi. Po'stloq qism hayot uchun mutlaqo zarur to'qima bo'lib, u olib tashlansa organizm nobud bo'ladi.

Xromaffin sistemaning gormoni adrenalin jigarda glikogenning parchalanishini kuchaytiradi, qonda qand miqdorini, shuningdek ko'pchilik organlar silliq muskulining tonusini oshiradi. Noradrenalin adrenalingu nisbatan uzoqroq va kuchliroq ta'sir ko'rsatadi. Ayrim paragangliylar (masalan, glomus korotikus) sezuvchi nerv elementlariga boy refleksogen zonalar hisoblanadi.

Bezning po'stloq moddasi va interrenal tanachalar selomani qoplovchi mezodermal epiteliydan, jinsiy burmalar hosil bo'luechi mambadan taraqqiy qiladi. Bo'lajuk po'stloq qism kurtagi ichiga uning yaqinidagi simpatik gangliylar nevroblastlaridan yuzaga keluvchi xromaffinotsilar to'plami o'sib kirib mag'iz moddaga aylandi.



149-rasm. Otning buyrakusti bez:
1-mag'iz moddi; 2-kapnde; 3-qon nora; 4-nerv; 5-to'rumot zona; 6-beq' lanshali zona; 7-yeyimon
(o'pchali) nora.

Bezning histologik tuzilishi. Bezning yuzasi tolador biriktiruvchi to'qimadan iborat kapsula bilan qoplangan. Kapsuladan organ ichiga radial to'siqchalar o'sib kiradi. Retikulyar tolalar bezning asosiy tayanch strukturalaridir. Po'stloq moddada hujayralarning shakli, katta-kichikligi va ulardan hosil bo'lgan tizmachalarining joylashuviga ko'ra, po'stloqda quyidagi zonalar farq qilinadi. (149-150 rasmlari).


To'pchali zona (*zona glomerulosa*; otta-yoysimon zona - *zona arcuata*). Silindrik hujayralarning ko'p marta egilib-bukilib to'pcha shaklini oluv-chi tizmachalaridan iborat. Hujayralarning yaxshi taraqqiy qilgan agranulyar sitoplazma-tik to'ri steroid gormonlar ishlab chiqaruvchi hujayralarga xos xarakterli beligidir.

Oraliq yoki suda-nofob zona. To'pchali zona bilan undan chuqrroqda joylashu-vchi bog'lamchali zona o'rtaida kam tabaqsalangan mayda hujayralardan iborat ensizgina oraliq yoki sudanofob qavat joylashadi. Bu qavatning hujayralari lipid kiritmalarga ega emas. Bu hujayralarning ko'payishi bog'lamchali va to'rsimon zona hujayralarining regeneratsiyasini ta'minlaydi, deb hisoblanadi.

Bog'lamchali zona (*zona fasciculata*) kubik yoki poligonal hujayra-larning radial ravishda bir-biriga parallel joylashgan tizmachalaridan iborat. Hujayralarning sitoplazmasi bazofil massa saqlaydi, lipidlarga boy. Lipidlar preparatga odatdag'i ishlov berishda crib ketib, sitoplazma vakuolizatsiyaga uchragandek ko'rindi. Agranulyar endoplazmatik to'r to'pchali zona hujayralaridan ham kuchliroq taraqqiy qilgan.

To'rsimon zona (*zona reticularis*). Bog'lamchali zona hujayralari ga o'xshash hujayralarning anastomozlar hosil qiluvchi tizmachalaridir. Lipidlar bog'lamchali zona hujayralaridagidan kamroq.

Po'stloq modda hujayralarining sitoplazmasida gistolimyoviy yo'l bilan vitamin C donachalari topilgan.




150-rasm. Quramol buyrukusti bezti bog'lamchali zonasini hujayralarning elektronogrammasi:

1-mitokondriyalar; 2-agranulyar sitoplazmatik to'res; 3-ribosomlar;
4-lipidlar (Plaxoxina bo'yicha).

Po'stloq modda turli zonalaridagi hujayralar bez hujayralarining yoshi turlicha bo'lgan xillari deb qaratadi: to'pchali zona kambial qavat, bog'lamchali zona - voyaga yetgan hujayralar, to'rsimon zona esa qarib degeneratsiyaga uchrayotgan hujayralardir. To'pchali zona hujayralarining mitoz yo'li bilan bo'linishi kuzatiladi. Mag'iz modda biriktiruvchi to'qimaning yupqa qavati bilan po'stloq moddadan ajralib turadi.



151-rasm. Qoramsel buyrakusti bez mag'iz moddasi noradrenotsitining elektronogrammasi:
1-o'zak; 2-o'zakchi; 3-o'zak membranas; 4-sitoplazma; 5-sekretor granular; 6-gramila o'rasiadagi
zich qism; 7-membrana (Plastotina bo'yicha).



152-rasm.Qoramsel buyrakusti bez mag'iz moddasi adrenotsitining elektronogrammasi:
1-o'zak; 2-a-getrokromatin; 3-eukromatin; 4-o'zak membranas; 5-sitoplazma; 6-granulyar sitoplazmatik
to's membranasalari; 7-ribosomalar; 8-polisomalar; 9-sekretor granular; 10-plazmolemmasi (Plas-
tonia bo'yicha).

Mag'iz qism ko'pburchakli hujayralardan iborat, ularning guruhlari orasida biriktiruvchi to'qimaning kapillyarlarga boy yupqa qavatlari bor. Ushbu hujayralarning sitoplazmasidagi donachalar xrom tuzlari bilan sariq yoki jigarrangga, xlorli temir bilan yashil rangga bo'yaladi, kumush va os-miy kislota tuzlaridan qorayadi. Adrenalin ishlab chiqaruvchi hujayralar **adrenotsitlar** (*epinefrotsitlar*) deyiladi. Bu qismda **noradrenotsitlar** (*norepinefrotsitlar*) ham farq qilinadi. Noradrenotsitlar ultrabinafsa nurlar ta'sirida kuchli flyuoressensiyalanadi, argentofil va yod reaksiyasi beradi. Adrenotsitlar azokarmin bilan

bo'yaladi, kislotali fosfataza saqlaydi, flyuoressensiyalanmaydi, yod va kumush bilan reaksiyaga kirish-maydi. Noradre-notsitlarning 1000 -3000 A⁰ kattalik-dagi, membrana bilan o'ralgan va o'ta elektron zich mag'iz qismiga ega pufakchalar bilan, adrenotsitlarning pufakchalar ichidagi muddasi kamroq elektron zichlikka ega. (151, 152-rasmlar).

Simpatik va adashgan nervlarning tolalari bez kapsulasi ostida zich nerv chigali hosil qiladi. Bu chigalning tolalari kapil-lyarlar va sinusoid venalarni o'rabi olgan holda bez ichiga kiradi. Ayniqsa, mag'iz qism nerv elementlariga boy. Bez hujayralarida simpatik nervlarning preganglionar tolalari tugaydi. Mag'iz muddada parasimpatik elementlar yo'q.

GORMONLAR ISHLAB CHIQARUVCHI YAKKA-YAKKA JOYLAGHGAN HUJAYRALAR

Yakka-yakka joylashgan gormonlar ishlab chiqaruvchi hujayralarni, kelib chiqishiga ko'ra, nerv cho'qqisi neyroblastlaridan hosil bo'luchchi sekretor neyrotsitlar va boshqa to'qimalarga taalluqli hujayralar guruhlari bo'lish mumkin.

Birinchi guruh hujayralari neyroaminlar hosil qilish bilan birga oqsil (oligopeptid) gormonlar yetishtirish qobiliyatiga ham ega. Ularni APUD hujayralar (Amine Precursors Uptake and Decarboxylation) guruhni ham deb ataydilar. APUD hujayralar endokrin organlarda (parsfollikulyar tirotsitlar, buyrakusti bezining xromaffinotsitlar) va boshqa organlarda (bosh miyada, ovqat hazm qilish nayi devotida) uchraydi. Neyrosekretor endokrinotsitlar nerv impulslarining bevosita ta'siri ostida bo'lib, gipofizning trop gormonlariga javob beraolmaydi.

Ikkinci guruhga urug'don glandulotsitlarini, tuxumdon follikularining domador qavatidagi hujayralarni misol keltirish mumkin. Bu hujayralar oqsil bo'lmagan steroid gormonlar ishib chiqaradi va adenogipofizning gonadotropinlari ta'sirida bo'ladi. Bu guruh hujayralari neyroaminlar ishib chiqara olmaydilar.

QUSHLARNING ICHKI SEKRETSIYA BEZLARI

Gipofiz. Adenogipofiz tarkibida oraliq bo'lim yo'q. Adenotsitlarning o'zaro anastomozlar hosil qiluvchi tasmaschalari sinusoid kapillyarlar bilan o'ralgan. Tizmachalar orasida ichi kolloid bilan to'lgan follikulsimon strukturalar (kistalar) uchraydi. Ayrim hollarda ular ancha ko'p bo'lishi mumkin. Xromosob va xromofil adenotsitlar, xromofillar orasida esa basozfillar va atsidofillar (A_1 yoki to'q bo'yaluvchi hamda A_2 yoki och bo'yaluvchi atsidofillar) farq qilinadi. Yirik-yirik donachalar saqlovchi A_1 -adenotsitlar ovulyatsiya chaqiruvchi gormon ishib chiqaradi, deb hisoblanadi.

Epifiz. Tovuqlarda 2 mm x 1 mm kattalikda, katta yarimsharlar va miyacha orasidagi uncha katta bo'lmagan bo'shiqdagi joylashadi. Yosh individlarda kolloidsimon modda bilan to'lgan follikullar bezning parenximasini tashkil qiladi. Ular devorida ependimotsitlar, gipendimotsitlar va pinealotsitlar farq qilinadi. Ependimotsitlar markaziy nerv sistemasining ependima hujayralariga o'xshash. Tuxum qo'yish davrida ular sitoplazmasida sudanofil donadorlik paydo bo'ladi. Gipendimotsitlar ependimotsitlar orasida, pinealotsitlar esa follikullarning chetida joylashadi. Follikullar orasida gliotsitlar joylashadi. Jinsiy balog'atga yetgan individlarda follikullar yo'qolib, hujayralarning gormonlar hosil qilish qobiliyatini susayadi.

Qalqonsimon bez. Ko'krak bo'shilig'i kranial bo'limida, o'ng bo'limi qizilo'ngachda, chap bo'limi traxeyada joylashadi. Parenximasasi 70-170 mkm kattalikdagagi, kolloid saqlovchi follikullardan iborat. Tullah va tuxum qo'yishning boshlang'ich davrlarida tirotsitlarning faoliyati yuqori bo'ladi.

Qalqonsimon bezoldi bezlari ikki juft (o'ng va chap) bezchalaridir. O'ng tomondagi bezchalar qalqonsimon bezning kaudal qirrasi yonida, chap tomondagilari 0,5 - 1,5 sm orqaroqda joylashadi. Uch xil epithelial hujayralar tizmachalar hosil qilib joylashadi. Birinchi xil och bo'yaluvchi

suvsimon sitoplazmaga ega va ko'p qirrali, ikkinchi xil xromatinga boy o'zakli to'q bo'yaluvchi hujayralar va birinchi xil hujayralarga aylanuvchi och bo'yaluvchi oval shakidagi o'zakka ega hujayralar farq qilinadi. Atsodofil hujayralar topilmagan. Tuxum qo'yish davrida birinchi xil och bo'yaluvchi hujayralar soni keskin ortadi.

Buyrakusti bezlari. Bu bezlar po'stloq va mag'iz moddaga bo'lingan emas. Kelib chiqishi va tabinti ikki xil hujayralar o'zaro chatishib ketadigan tizmachalar hosil qitadi. Selomik epiteliydan hosil bo'lgan bosh (kortikal) hujayralarning tizmachalari ko'pchilikni tashkil qiladi. Xromaffin hujayralar yirikroq, bazofil bo'yaluvchi sitoplazmasi donachalarga ega va oraliq tizmachalarni hosil qiladi. Bosh hujayralar orasida funksional faol och bo'yaluvchi va nofaol to'q bo'yaluvchi hujayralar farq qilinadi.

OVQAT HAZM QILISH ORGANLARI

Ovqat hazm qilish organlari kompleksi eng qadimgi va ko'plab organlarni o'z ichiga oluvchi eng massiv sistemadir. Bu organlar atrof-muhitdan ovqat moddalar va suvni qabul qilish, ovqat moddalarini mexanik va biokimiyoviy ishlash natijasida parchalanishi, kerakli oziga va mineral moddalar hamda suvni qon va limfaga so'riliishi, keraksiz moddalarini tashqi muhitga chiqarilishi uchun xizmat qiladi. Tuzilishiga ko'ra ovqat hazm qilish organlari bezliarga ega bo'lgan naydir. Bu nayning ikki uchi ochiq bo'lgan uchun ichki yuzasini tana yuzasining davomi, ichidagi massani tashqi muhit, ovqat hazm qilish vazifasini esa organizminning tashqi muhit bilan aloqalaridan biri, deb qarash lozim.

Ovqat hazm qilish organlari ko'pdan-ko'p nerv apparatlari bilan ta'minlangan. Ular ovqat moddalar ta'sirida vujudga keladigan kimyoiy, mexanik ta'sirotlarni qabul qiladi, me'dada ovqat moddalar bo'limgan paytda esa markaziy nerv sistemasiga signallar yuborib ochlik hissini tryg'otadi.

Endoderma birlamchi ichakning shakllanishi uchun dastlabki asos bo'lib xizmat qiladi. Undan ovqat hazm qilish organlari shilliq pardasining epiteliy qavati va bezlar hosil bo'ladi. Mezodermadan zardob pardani qoplovchi epiteliy (mezoteliy) hosil bo'ladi. Atrofdagi mezenxima silliq muskul va biriktiruvchi to'qimani hosil qiladi.


Embrion birlamchi ichak nayining har ikki uchi avval berk (ko'r) bo'ladi. Keyinroq oldingi tomonda og'iz qo'llig'i, orqa tomonda orqa chiqaruv teshigi qo'llig'i hosil bo'ladi. Avvaliga ichak bo'shlig'i bu qo'lliqlardan maxsus to'siqlar bilan ajralib turadi. So'ngra bu to'siqlar astasekin yupqalashadi va teshiladi, birlamchi ichakning ikki uchi esa ochiq bo'lib qoladi. Keyinchalik birlamchi ichakning tez o'sishi natijasida u embrion tanasiga nisbatan uzun bo'ladi, bir necha bukilish va halqalar hosil qiladi. Ichakning ichki yuzasi ham notekis bo'lib qoladi. So'rg'ichilar, bezlar va shilliq pardanining burnmalari yuzaga keladi. Bularning hammasi ovqat hazm qilish shiralari ishlab chiqaruvchi va so'ruvchi yuzalarning kattalashishiga olib keladi. Birlamchi ichak turli bo'limlarining bir tekis o'smasligi va turli vazifalarni bajarishiga ixtisoslashuvi natijasida ovqat hazm qilishning turli bosqichlarini amalga oshiradigan bo'limlar yuzaga keladi. Shilliq pardani qoplovchi epiteliyning o'sib chiqishi natijasida yirik ovqat hazm qilish bezlari hosil bo'ladi.

Ovqat hazm qilish nayi devori tuzilishining umumiy tavsifi.

Ovqat hazm qilish nayining turli bo'limlari tabaqlanish natijasida birlamchi ichakdan hosil bo'lganligi uchun ularning tuzilishida bir qator o'xshashliklar mayjud. Ularning devori barcha naysimon organlar devori kabi uch pardasi: ichki, o'rta va tashqi pardalarga ega (153-rasm).

Ovqat hazm qilish nayi barcha bo'lim-larining ichki par-dasi shilliq ishlab chiqaruvchi epiteliy bilan qoplangan shilliq pardadir. Bu organlarda shilliq parda to'rtta: qop-lovchi, xususiy, muskul va shilliqosti qavatlariidan iborat. Qoplovchi qavat turli bo'limlarda o'ziga xos tuzilgan epiteliy to'qimadir. Xususiy qavat biriktiruvchi yumshoq to'qimadan iborat. Shilliq pardaning muskul qavati silliq muskul bo'lib, hujayralar odatda sirkulyar va uzunasiga joylashgan qavatlar hosil qiladi. Shilliq osti qavat ancha yaxshi taraqqiy qilgan biriktiruvchi yumshoq to'qimadan iborat. Ushbu qavat yo'q organlar (tilning ustki tomoni, qattiq tanglay, milklar)da shilliq parda burmalar hosil qila olmaydi. O'rta parda silliq muskul to'qimadan iborat bo'lib, muskul parda deb ataladi. Ko'pincha bu parda ichki, muskul hujayralari sirkulyar va tashqi, muskul hujayralari uzunasiga (bo'ylama) joylashgan qavatlarga ega. Tashqi parda ko'krak va qorin bo'shilqlaridagi organlarda zardob pardadir. Zardob pardaning asosi biriktiruvchi tolador to'qima bo'lib, mezoteliy uning yuzasini qoplaydi va qo'shni organlar bilan ishqalanishni karnaytsiradi. Bo'shilqlardan tashqaridagi organlar (masalan, qizilo'ngachning bo'yin qismi)da tashqi parda adventitsiya bo'lib, atrofdagi organlar bilan tutashib o'sib ketadi.

Ichak nayining arterial tomirlar sistemasi bir-bisi bilan tutashib ketgan shilliq osti qavatdagi, muskul parda qavatlari orasidagi va zardob parda ostidagi arterial to'rlardan iborat. Shilliq osti qavatda venoz to'r ham mayjud. Bezlardan qon olib keluvchi venalar ham shu to'rga quyiladi. Bu to'rdan kattaroq venalar boshlanib, boshqa pardalardan qon olib ketuvchi



153-rasm. Ovqat hazm qilish yo'li turli bo'limlari devorining uzunasiga kesimi (sxema):

A-qizilo'ngach; B-mc'da; B-ingichka ichak; C-yo'g'en ichak; D-shilliq; E-muskul va III-seruz pardalar; 1-epiteliy qavat; 2-asosiy plastinka (xususiy qavat); 3-muskul plastinka; 4-shilliqosti qavat; 5-adventitsiya.

venalarga qo'shiladi. **Limfa tomirlari** ham ko'p miqdorda uchraydi. Xususiy qavat, shilliq osti qavat va zardob pardada limfa tomirlarining to'rlari mavjud.

Ovqat hazm qilish nayi devori simpatik va adashgan nervlarning tarmoqlari bilan innervatsiya qilinadi. Bu nervlarning tarmoqlari uchta chatishma: zardob parda osti, muskul parda ichi va shilliq osti qavat nerv chatishmalurini hosil qiladi. Ushbu chatishmalarda nerv tolalari bog'lamchalari bir-biri bilan kesishgan joylarda uzun aksonli va teng o'simtali nevrotsitlarga ega gangliylar bor.

Og'iz bo'shlig'i. Og'iz bo'shlig'ida ovqat maydalanadi, so'lak bilan ho'llanadi, luqma hosil bo'lib, osonlik bilan yutiladigan va qizilo'ngach orqali me'daga o'tadigan holga keladi. Og'iz bo'shlig'idagi fermentlar ta'sirida kam miqdorda bo'lsa ham, kraxmalning parchalanishi yuz beradi. Og'iz bo'shlig'i organlarining tuzilishi ko'p jihatdan ana shu vazifalarni bajarishga muvofiqlashgan: shilliq parda ko'p qatlamlı yassi epiteliy bilan qoplangan bo'lib, bezlarga ega va nerv terminallariga boy.

Og'iz bo'shlig'i dastlab og'iz qo'ltig'i shaklida hosil bo'lib, uming atrofida beshta bo'rtma yuzaga keladi. Bularidan biri - peshona bo'rtmasi toq, yuqorigi va pastki jag' bo'rtmalari juft bo'ladi. Yuqorigi va pastki jag' bo'rtmalarini ajratib turuvchi ariqcha keyinchalik og'izning burchaklariga aylanadi. Peshona bo'rtmasi jag' bo'rtmalari bilan qo'shilib, yuqorigi jag' va labni hosil qiladi. Pastki jag' bo'rtmalari esa pastki jag' va labni shakllantiradi. Peshona bo'rtmasida mavjud bo'lgan juft hidlov chuquqchalarining chuqurlashishi va og'iz qo'ltig'iga ochilishidan keyin birlanchi og'iz hosil bo'ladi. Keyinroq bir-biriga tomon o'suvechi tanglay burmalari o'zaro qo'shilib, qattiq va yumshoq tanglay hosil bo'lgach, og'iz bo'shlig'i ikki qavatga ajraladi. Bularidan yuqorigisi burun bo'shlig'i, pastkisi ikkilamchi og'iz bo'shlig'i idir. Shunday qilib, og'iz bo'shlig'ining shilliq pardasi teri ekdotermasi va mezenximasidan kelib chiqadi, anatomik jihatdan esa terining davomidir. Shilliq parda gistologik tuzilishiga ko'ra, epidermisga o'xshash epiteliy va dermaga to'g'ri keladigan biriktiruvchi to'qima qavatiga ega. Shilliq parda kuchli mexanik ta'sirotlarga uchraydigan joylarda epiteliy qalin, kuchli muguzlanadi, biriktiruvchi to'qima qavati qalin va so'rg'ichilar hosil qiladi, ta'sirotlar kuchsiz joylarda esa shilliq parda yupqadir. Shilliq pardada mayda so'lak bezchalari juda ko'p. Hujayralarining morfo-fiziologik xossalari - ko'ra, oqsilli - zardob so'lak ishlab chiqaruvchi va shilliq bezlar furq qilinadi. Ularning ko'pchiligi aralash bezchalalar hisoblanib, murakkab naycha-alveolyar yoki alveolyar tuzilishga ega.

Lablar. Lablar terining og'iz bo'shlig'i chetidagi burmasi bo'lib, bu yerda epidermis og'iz bo'shlig'i shilliq pardasining epiteliy qavatiga

aylanadi. Ko'pchilik hayvonlarda epitelyanchagini yupqalanishiga qaramasdan muguz qavatini yo'qotmaydi. Biriktiruvchi to'qimaning qa'rida tuzilishi va ishlab chiqaruvchi sekretining xarakteriga ko'ra, turli hayvonlarda turlicha bo'lgan lab bezlari mavjud. Yirtqichlar yuqori labining teri yuzasi bezlarga ega emas, cho'chqalar va kavshovchilarda murakkab naychasimon zardob bezlarga boy.

Lablarda chuqur joylashgan va anatomik jihatdan shakllangan ko'ndalang-targ'il muskul - og'izning aylana muskuli mavjud. Lablar sezuv organlari bo'lganligidan ularda ko'plab sezuvchi nerv terminallari uchraydi. Kapsulasiz nerv terminallaridan tashqari, bu yerda kapsula bilan o'ralgan, asosan kolbachalar shaklidagi, biriktiruvchi to'qimada bir tekis tarqalib joylashmagan retseptorlar bor. Epiteliyda daraxtsimon tarmoqlanuvchi nerv tolalari, cho'chqalar tumshuqchasida sezuvchi menisklar mavjud.

Lunjlar. Lunjarning tashqi pardasi teri, o'rtal pardasi ko'ndalang-targ'il muskullar, ichki, shilliq pardasi esa lablarning shilliq pardasiga o'xshashdir. Itlarda shilliq parda pigmentga ega. Shilliq pardada bezlar va ko'plab so'rg'ichlar uchraydi. Lunj bezlari turli hayvonlarda tuzilishi va sekreti xarakteriga ko'ra turlicha bo'lib, muskullar orasida joylashadi. Ularning chiqaruv yo'llari shilliq parda orqali o'tib og'iz bo'shilg'iga ochiladi.

Qattiq tanglay. Qattiq tanglay juda pishiqlik, suyak pardasiga birlashib ketuvchi, ko'ndalang g'ovlarga ega shilliq pardadir. Epiteliy kuchli muguzlangan. Xususiy qavat biriktiruvchi zinch to'qima bo'lib, vena tomirlariga boy. Otlarda bu venalar ma'lum sharoitlarda shishish qobiliyatiga ega.

Yumshoq tanglay. Yumshoq tanglay shilliq pardanining burmasi bo'lib, og'iz va halqum bo'shilg'i orasiga chiqib turadi. Uning asosi ko'ndalang-targ'il muskul to'qimadir. Og'iz bo'shilg'i qaragan yuzasidagi shilliq parda og'iz bo'shilg'i shu pardasining davomi bo'lib, epiteliy ostidagi ancha qalin biriktiruvchi to'qimada shilliq bezlarning to'plamlari va tanglay bodomchalari joylashgan. Halqum yuzasining shilliq pardasi burun bo'shilg'inikiga o'xshash tebeanuvchi epiteliy bilan qoplangan, biriktiruvchi to'qima yupqaroq, shilliq bezlar kamroq uchraydi.


Milkilar. Milkarning shilliq pardasi bezlar va limfa tugunchalariga ega emas. Epiteliy kuchli muguzlangan. Epiteliy osti biriktiruvchi to'qima jag' suyagining pardasiga tutashib ketgan.

Til. Til kurtagi embrionda juda barvaqt, birinchi va ikkinchi jabra yoylari orasida, qalqonsimon bez kurtagi old tomonida joylashgan toq bo'rtma holida paydo bo'ladi. Keyinchalik bu bo'rtma oldinga qarab o'sib, ikkita yon g'ovlar hosil qiladi.

Qalqonsimon bez kurtagi ketida hosil bo'lувчи bo'rtma yon g'ovlar bilan qo'shib, bir butun organ - tilga aylanadi.

Tilning shilliq pardasi (154-rasm) og'iz bo'shlig'ining boshqa organlaridek ko'p qatlamlı yassi, tilning ustki tomonida kuchli muguzlanuvchi, epiteliy bilan qoplangan. Biriktiruvchi to'qima epiteliyga o'sib kirib, anchagina uzun so'rg'ichlar hosil qiladi. Tilning yon tomonlari, osti va shilliq pardanining og'iz bo'shlig'i tubiga o'tadigan qismi so'rg'ichlarga ega emas. Tilning ustki yuzasidagi so'rg'ichlar shakliga ko'ra ipsimon, zamburug'simon, novsimon va bargsimon so'rg'ichlarga bo'linadi. Ipsimon so'rg'ichlar mexanik vazifa bajaradi, ya'ni og'izdag'i ovqat parchalari silqib tushib ketmasligini ta'minlaydi va mexanik ta'sirotlarni sezishga yordam beradi. Yirtqichlarda ular halqum tomonga egilgan bo'lib, ilgak shaklidadir. Ot va cho'chqalarda ipsimon so'rg'ichlar ingichka va juda uzun. Kavsh qaytaruvchilarda bu so'rg'ichlarning usti kuchli muguzlangan epiteliy bilan qoplangan.


Zamburug'simon so'rg'ichlar haroratni, ta'mni sezish va taktil sezish funksiyalarini bajaradi. Ularning asosi ingichka, yuqori qismi ken-gaygan va zambu-ruqqa o'xshaydi. Ko'p qatlamlı yassi epiteliy hujayralari orasida ta'm sezuvchi piyozechalar bor. Ot va qoramol-larda zamburug'simon so'rg'ichlarning ta'm sezuvchi piyozechalar kamroq, qo'y, echki va cho'chqalarda ko'p-roq, itlarda esa juda ko'p. Novsimon (155-rasm)



154-rasm. Sigir tilining zamburug'simon so'rg'ichlari:
1-ko'p qavati yassi epiteliy; 2-shilliq pardanining sususiy qavati; 3-qon temorlati; 4-birkittiruvchi to'qimasing bitamchi so'rg'ichlar; 5-birkittiruvchi to'qimasing ikkilanchi so'rg'ichlar; 6-tiling asos; 7-ko'ndalang-targ'il muskul totalarining uzmasiga (a) va ko'ndalangiga (6) kesimi (Tintakov bo'yicha).

so'rg'ichlar til-ning yuzasi epite-liyidan halqasimon chuqurcha bilan chegaralanib turadi. Ta'm sezish vazifasini baja-radi. So'rg'ichlarning yon yuzasini qoplovchi epiteliyda guruhlar holida joylashgan ta'm sezish piyozchalari bor. Bunday piyozchalar, ayniqsa, cho'chqalar va itlarda ko'p. Otlar, kavshovchilar va cho'chqalar so'rg'ichlarining butun yon yuzasi bo'ylab ta'm sezish piyozchalar joylashadi, so'rg'ichlarni chegaralovchi chuqurchaning so'rg'ichga qaragan yuzasida esa bunday piyozchalari yo'q.

Bargsimon so'rg'ichlar ta'm sezish vazifasini bujaradi. Kavshovchilarda bunday so'rg'ichiar yo'q. Boshqa hayvonlarda ikkita bunday so'rg'ich til tubi (asosi)ning yon tomonida joylashadi. Epiteliy nisbatan yupqa bo'lib, ta'm sezish piyozchalariga ega.



155-rasm. Tilning novsimon so'rg'ichi:

1-ko'p qavalliyassi (epithelium); 2-xususiy qavalliyassi; 3-balkanshaklida so'rg'ichlar; 4-anqcha (tumov); 5-ov; 6-siliq muskul hujayralari; 7-ta'm sezish piyozchasi; 8-zardob so'lak bezlarining oxirgi bo'limlari; 9-shilliq so'lak bezlarining oxirgi bo'limlari; 10-ko'ndalang - tag'il muskul sistema; 11-so'lak bezning chiqaruv yo'li.

ajralib turadi. Ularning o'zklari cho'zinchoq-oval shaklda va hujayra asosiga yuqin joylashadi, sitoplazmasining apikal bo'limi mitokondriyalar va agranulyar sitoplazmatik to'rga boy. Ta'm sezuvechi hujayralarning apikal

Ta'm sezish piyozchalari (156-rasm) ellipsoid shaklda bo'lib, epiteliy yuzasidan ikki-uch qator hujayralar bilan ajralib turadi va epiteliydagagi ta'm sezish teshikchasi (pora) orqali og'iz bo'shilig'i bilan aloqada bo'ladi.

Ta'm sezish piyozchalari epi-teliy yuzasiga nis-batan vertikal joy-lashgan, bir-biriga zinch tegib turuvchi cho'zinchoq hujayralardan iborat. Retseptor, tayanch va bazal hujayralar farq qilinadi. Re-tseptor yoki ta'm sezuvechi sensor epiteliotsitlar bir-biridan tayanch hujayralar bilan



uchida membrananing ta'sirotni qabul qiluvchi yuzasini kengaytiradigan mikrotukchalar mavjud. Mikrotukchalar orasida elektronlarni yomon o'tkazadigan (elektron zich), fosfatazalar, oqsil va mukoproteidlarga boy, ta'mli moddalarni adsorbsiya qiluvchi substansiya joylashadi. Hujayralar membranasida ta'm sezuvchi maxsus retseptor oqsillar mavjud. Har bir ta'm sezish piyozchasiga 50 ga yaqin afferent nerv tolasi kirib tarmoqlanadi. Bu tolalar tayanch epiteliotsitlar bo'ylab boradi va sensor hujayralar bazal bo'limining yon yuzasida sipanslar hosil qiladi. Tayanch hujayralar yirik o'zakli, granulyar va agranulyar sitoplazmatik to'r yaxshi ifodalangan, plastinkali kompleks va tonofibrillalarga ega hujaynalardir. Ular tayanch vazifa bajaradi va glikoproteidlarni sekretsiya qilishda qatnashadi. Bazal hujayralarning uchi epiteliy yuzasiga borib yetmaydi. Ular kam tabaqalangan hujayralar hisoblanib, tayanch va sensor epiteliotsitlarga aylanadilar, deb qaratadi. Ta'm sezish piyoz-chalari, ayrim hollarda qattiq tanglayda, bodo-mchalar, halqum, hiqildosusti tog'ayining shilliq pardasida, lunj-ning ichki yuzasida ham uchraydi. Otlarda ta'm sezish piyoz-chalari oval, kavsh qaytaruvchilarda tuxumsimon, cho'chqa-larda urchuqsimon, itlarda deyarli yumaloq shaklida bo'ladi.

Tilning asosi uch o'zaro perpendikulyar yo'nalishda - uzunasiga, ko'ndalangiga va vertikal joylashgan ko'ndalang-targ'il muskul tolalaridan iborat. Otlarda tilning ustki tomonida tog'ay mavjud.

Til bezlari epiteliy ostidagi biriktiruvchi to'qimada va muskul bog'lamchalarini orasida joylashadi. Ular murakkab, alveolyar, naycha-alveolyar tuzilishiga ega zardob, shilliq va aralash so'lak ishlab chiqaruvchi bezlardir.

Ta'm sezish analizatori. Ta'm sezish hujayralari qabul qilgan ta'sirot ta'm sezish nervlari tolalarining terminallariga uzatiladi. Zamburug'simon so'rg'ichdag'i nerv tolalarini yuz nervining (VII-juft nerv) tirsaklı tuguni bipolyar nevrotsitlarining dendritlaridir. Bu tolalar quloqning nog'ora tori orqali til nerviga o'tib, bu yerga keladi. Nevsimon va bargsimon so'rg'ichlarda tolalar til-halqum nervining (IX-juft nerv) "toshti" tugunidagi bipolyar nevrotsitlarning dendritlaridir. Har ikkala tugun nevrotsitlarining neyritlari uzunchoq miyadagi ta'm sezish yadrolariga boradi. Bu yadrolardagi multipolyar nevrotsitlarning neyritlari ko'rish te-pachasidagi ta'm sezish markaziga boradi. Bu markaz nevrotsitlarining o'simtalari katta yarimsharlar po'stlog'ida tugaydi. Shunday qilib ta'm sezish analizatori uch neyronli zanjirdir.

Tishlar. Tishlar (157-rasm) og'iz bo'shilig'i shilliq pardasining hosilasidir.



156-rasm. Ta'm sezish plynchchasining tuzilishi:


A-mikroskopik tuzilishi – 1-so'rg'ichning ko'y qurash yassi epitel; 2-ta'm sezish porasi; 3-ta'm sezish plynchchasining tayorsh hujayralari; 4-retseptor hujayralar; 5-shifchalar; 6-biriktiruvchi to'qima; 7-elektron mikroskopik tuzilishi – 1-ta'm sezish retseptor hujayras; 2-tayanch hujaya; 3-bazal hujaya; 4-epiteliy hujaya; 5-mikrovorsinkalar; 6-nerv tolafanining uchlari; 7-nerv tolasi; 8-mikoproteidlar (Peyzner nomi); 9-retseptor hujaynalar elektron mikroskopik tuzilishining xususi: 1-ta'm sezish pomri; 2-mikrovorsinkalar; 3-sitoplazma; 4-snaps; 5- o'zak; 6-nerv tolafanining uchi.

Tishlar mustahkam, suyakdan ham qat-tiqroq to'qimadan iborat va mexanik vazifa bajaradi. Tish-ning eng qattiq to'qimasi emal epiteliyidan, tish suyagi - dentin esa biriki-ruvchi to'qimadan hosil bo'ladi.


Tishning gisto-genezi. (158, 159-rasmlar)

Har bir jag tishining kurtagi - tish plastinkasi epiteliy-ning biriktiruvchi to'qimaga kirib tu-ruvchi o'smasidir. Bu plastinka jag'ga o'xshash taqasimon shakliga ega, ko'ndalang kesimda tayoqchani eslatadi. Keyinchalik tish plastinkasidan bo'lajak sut tishlarining o'smalari - emal organlar o'sib chiqadi.

Emal organlarning jag' ichiga qaragan tomoni ochiq bo'lib, bu joydan emal organ ichiga tish so'rg'ichlari - zichlashgan mezenxima o'sib kiradi. Shuningdek, tish kurtagi atrofidagi mezenxima ham zichlashib, tish xaltachasini hosil qiladi. Emal organning ichki, tish so'rg'ichiga qaragan tomonida hujayralarning tubaqlanishidan **enameloblastlar** (adamanto-blastlar) - emal hosil qiluvchi hujayralar paydo bo'ladi.




157-rasm. Kavshovchilar (A) va ot (B) kurak tishning urzusidagi kesimlari:
1-tish tuji; 2-tish bo'shlig'i; 3-dentin; 4-enmal; 5-cement.



158-rasm. Tish taraqqiyotining xususleri:
1-milk epiteliyi; 2-tish platunkasi; 3-spetsial tish organlari; 4-tish so'rg'ichlari (Shter bo'yicha).

Enameloblastlarning tish so'rg'ichiga qaragan uchlari cho'ziladi va o'sintalar hosil qiladi. Emalning tuzilish elementlari - emal prizmlari ana shu o'sintalardan hosil bo'ladi va uzun tayoqcha shaklini oladi. Asta-sekin yo'qolib ketuvchi enameloblastlar emal prizmlarini yopishtiruvchi modda ham ishiab chiqaradi. Emalda ohak tuzlari to'planadi. Emaldan avvalroq tishning asosiy to'qimasi - dentin hosil bo'ladi. Dentin so'rg'ichining eng tasbqi, bevosita enameloblastlar ostida yotuvchi, prizma shaklidagi bujayralardan hosil bo'ladi. Tish so'rg'ichining qolgan to'qimasi qon tomirlari va nerviarga boy bo'lib, tish pulpasiga aylanadi. Tish xaltachasidan sement hosil bo'ladi. Emal organning qoldig'i emal kutikulasi hosil qilib, tish emalining ustini qoplab turadi. Shakllangan sut tishi avval jag' ichida chuqur joylashib, asta-sekin o'sadi va milkdan tashqariga chiqadi. Undan keyin ham tishning o'sishi davom etib, tish toji milkdan butunlay tashqariga o'sib chiqadi.





159-rasm. Tish taraqqiyotining o'rangi boshichi:
 1-milk epitheliy; 2-tish plastiksani; 3-emal organ; 4-tish so'rg'ichi; 5-tish xaltachi; 6-tish kajakchasining surʼingi; 7-odontoblastlar; 8-canal organ pulpsi; 9-adamantoblastlar; 10-emal organning tasbqi bujayrulari; 11-dentin; 12-emal (Nemilov bo'yicha).

Tishning histologik tuzilishi. Taraqqiy qilgan tishda uch qism: tish toji, bo'yinchasi va ildizi farq qilinadi. (157-rasm).

Toj tishning jag' dan chiqib turgan qismi, ildizi jag' suyagi chuqurusi ichida joylashgan qismi, bo'yinchasi esa ular orasidagi milk bilan qoplangan qismidir. Toj ichidagi tish bo'shilg'ini qon tomirlari va nervlarga ega **tish pulpası** to'ldirib turadi. Tish bo'shilg'i ildiz uchiga qarab davom qiladi va **ildiz kanallı deb** ataladi. Bu kanal orqali tish pulpasiga nervlar va qon tomirlari kiradi.

Tishning asosiy to'qimasi dentinning ustini toj qismida emal, ildiz qismida segment qoplaydi. Kavsh qaytaruvchilarning jag' tishlari, otlarning barcha tishlari tojida emal ustini ham segment qoplab turadi.

Dentin shakli o'zgar-gan, juda qattiq suyak to'qimadir. Dentinning suyakdan mikroskopik farqi shundaki, odontob-lastlar dentinning ichki yuzasida to'p-lang'an va sut tish-larida bevositu pulpa bilan chegaradoshdir. Yosh ulg'ayishi bilan ular orasida hujayra-lari kam tolador qatlam hosil bo'ladi. Dentin ichiga odon-toblastlarning faqat o'simtalari kirib boradi. Ular dentin naychulari ichida yotadi va radial yo'nalishda dentin yuzasiga yetib bo'radi. Dentin naycha-laridan yon tarmoqchalar ajralib, bir-biri bilan anastomozlar hosil qiladi. Ayrim naychalar kolbasimon shaklini olib emal ichiga kirib turadi. Yosh ulg'ayishi bilan naychalar ingichkalashadi, eng ingichkalari esa yo'qoladi, ya'ni ohaklanish jarayoni bir umr davom etadi va organik qismlar anorganik qismlar bilan almashinadi. Notekis ohaklanish interoglobulyar "bo'shilqlar" va "kontur" chiziqlar hosil bo'lishiga sabab bo'ladi. **Emal** (160-rasm) tishning eng qattiq to'qimasi bo'lib 97%ga yaqin noorganik modda saqlaydi.




160-rasm.Tishning histologik tuzilishi:
A-toj tishning ko'ndalang shifi (Ellenberger bo'yicha); 1-sement; 2-dentin; 3-emal; 4-emal prizmalar (Trautman va Fibiger bo'yicha).

Uzun, ingichka tayoqchalar shakldagi emal prizmaları enameloblastlarning hosilasidir. Prizmalarning joylashishi radial yo'nalishdan biroz chetga chiqadi, ular biroz egilgan bo'lib, bir-biriga zinch tegib yotadi. Emalning ohaklanishi bir tekisda bormaydi. Emalning yuzasini yupqa strukturasiyoz pardasi - emal kutikulasi qoplab turadi.

Sement tarkibi va gistologik tuzilishiga ko'ra dag'al tolali suyakni eslatadi. Bu yerda dag'al tolali suyakka xos bo'shiqlar uchraydi. Sementning oziqlanishi tish chuqurchalari tomonidan bo'lib, sement chuqurcha devoriga teshib o'tuvchi tolalar (Sharpey tolalar) vositasida birikkari. Tish pulpasi ko'p miqdorda dirildog modda, kollagen va prekollagen tolalarga ega, o'troq va adashgan hujayralarga boy biriktiruvchi yumshoq to'qimadir. Pulpaning eng chetki qavati odontoblastlardir. Ular bir qavatlari prizmatik epiteliyiga o'xshab ketadi. Tishlarning almashinishi osteoklastlar tomonidan sut tishlar ildizining yemirilishidan boshlanadi. Natijada tish toji tushib ketadi. Shu bilan bir vaqtida sut tishi hosil bo'lgan plastinkadan doimiy tish rivojlanma boshlaydi. Bungacha tish plastinkasi so'rilib yo'qolib ketmaydi va jag'ning qa'rida saqlanib qoladi. Embriondagi kabi bu plastinkada emal organlar hosil bo'lib, ichiga tish so'rg'ichlari o'sib kiradi. Doimiy tishlarning keyingi taraqqiyoti sut tishlarining taraqqiyoti kabi boradi.

So'lak bezlari. Oqiz bo'shilig'iga uchta yirik bez: *qulogoldi*, *jag'osti* va *tilesti* so'lak bezlarining chiqaruv yo'llari ochiladi. Bu bezlar shilliq pardadan tashqarida joylashadi, embrional taraqqiyot jarayonida og'iz bo'shilig'i epiteliy qavatining bo'rtmasidan hosil bo'ladi. Ana shu bo'rtma mayda naychalarga turmoqlanib o'sib, naychalarining uchi ko'r holda, tamom bo'ladi. Epitelial bo'rtmalarni o'rovchi mezenxima bezlarning stromasiga aylanadi. So'lak bezlari murakkab, alveolyar yoki naycha-alveolyar bezlar hisoblanib, ishlab chiqargan so'lagining xarakteriga ko'ra zardob, aralash (zardob-shilliq) bezlar farq qilinadi. Zardob so'lak turkibida fermentlar (ptalin va maltaza), shilliq so'lak tarkibida mutsin bo'ladi. So'lak ovqatni namlab, chaynalish va yutilish jrayonlarini yengilashtiradi. So'lak tarkibidagi fermentlar polisaxariddar va boshqa moddalarning par-chalanishida qatnashadi. So'lak bezlarining sekretor qismalarida serotsitlar, mukotsitlar va mioepitelial hujayralar farq qilinadi. Serotsitlar (zardob hujayralar)ning sitoplazmasi atsidofil bo'yaladi. Ularning yumaloq shakldagi o'zagi hujayra markazida joylashadi. Mukotsitlar (shilliq hujayralar)ning sitoplazmasi kuchsiz bazofillik xossasiga ega bo'lib, asos bo'yoqlar bilan ochroq bo'yaladi. O'zagi hujayra asosida joylashadi va pachoglangan, kesmalarda tayoqcha shakliida ko'rinishadi. Mioepitelotsitlar yulduzsimon shakldagi qisqara oluvchi hujayralardir. Ular sekretor hujayralardan tashqarida joylashib, o'zlarining o'simtalari bilan sekretor qismlarni o'rabi-

turadi. Mioepiteliotsitlar har doim sekretor hujayralar asosi bilan basal membrana orasida joylashadi.



161-rasm. Qulqoldi su'lak bezi:
1-oxirgi bo'limlar; 2-uraliq bo'limlar; 3-acik naychalar; 4-yog' hujayrlari; 5-bo'lakchalari.
birkinzuchi to'qima.

Qulqoldi bezi (161-rasm). Qulqoldi bezi murakkab, bo'lakchali, alveolyar, sekretor qismalarining xarakteriga ko'ra, ko'pchilik hayvonlarda sof zardob bez. Qo'y va cho'chqalarning bezida shilliq hujayralarning kichik-kichik guruhtari ham uchraydi. Yirtqichilarning bezi zardob va aralash bezlar oralig'ida turadi. Bez kapsulasidan parenxima ichiga o'sib kiruvchi to'siqlar bezni bo'lakchalarga bo'ladi. Bezin umumiyl tuzilishini daraxtiga taqqoslash mumkin: daraxtning tanasiga bezning bosh chiqaruv yo'lli, daraxtning butun shox va shoxchalar sistemasiga bezning murakkab tarmoqlungan chiqaruv yo'llari sistemasi, daraxting murakkab barglariga bezning sekretor bo'limlari to'g'ri keladi. Chiqaruv yo'llari va sekretor

bo'limlar orasidagi bo'shliqlarni bezning stromasini hosil qiluvchi biriktiruvchi to'qima to'ldirib turadi. Bu to'qimada esa qon, limfa tomirlari, nervlar va gangliylar joylashadi.


Bezning bosh chiqaruv yo'li ikki qavatlari prizmatik, yo'ning og'iz bo'shlig'iغا ochiladigan qismi ko'p qatlamlari yassi epiteliy bilan qoplangan va tashqurisidan zinch biriktiruvchi tolador to'qima bilan o'ralgan. Bezning ichida, interstisial to'qi-mada bu yo'ning tarmoqlari joylashib, ularning devorida avval ikki qa-vatli, keyinroq, ular kich-rayishi bilan ikki qatorli prizmatik epiteliy mavjud. Bez bo'lakchalar orasi-dagi bu yo'llar bo'lakchalar ichiga kirib tar-moqlanadi va chiziqlilikka ega so'lak naychalariga aylanadi. Bu naychalar devorining hujayralari sitoplazmasida mitoxondriyalarning o'ziga xos joylanishidan silindrik epiteliy chiziqli bo'lib ko'rindi. O'z navbatida chiziqlilikka ega so'lak naychalar ham tarmoqlanib oraliq bo'limlarga aylanadi. Bu bo'limlarning devori past bo'yli kubsimon epiteliydan iborat. Oraliq bo'limlar tarmoqlanib alveolalar shaklidagi sekretor bo'limlarga ochiladi. Ayrim hayvonlarda sekretor bo'limlar naycha-alveolalar shaklidadir. Sekretor qismilar konussimon shaklidagi serotsitlardan iborat.

Kavshovchilarda qulogoldi bezi tinimsiz so'lak ajratib tursa, ayrim hayvonlarda sekret to'planish va sekret ajratib chiqarilish fizalarini kutatish mumkin.

Sekretor va oraliq bo'limlar, ayrim hollarda esa, so'lak naychalar ham yulduzsimon mioepitelioticsitlar bilan o'ralgan. Bu hujayralarning o'zagi atrofidagi biriktiruvchi to'qima hujayralari o'zagiga nisbatan yirikroq, ochroq bo'yaladi va sekretor hujayralar bazal qismiga yopishib turadi.

Jag'osti bezi (162-rasm). Jag'osti bezi pastki jag'ostida, ikki qorinli va qanotsimon muskullar orasi-da joylashadi. Tuzilishiga ko'ra murakkab, naycha-alveolyar, aralash tarkibili so'lak ishlab chiqaruvchi bez. Interstisial to'qimasi kam taraqqiy qilgani sababli bezning bo'lakchali tuzilishi yaxshi ifodalananmagan. Bezning ayrim sekretor bo'limlari faqat mukotsitlar, ayrimlari har ikki tipdag'i so'lak hujayralariga ega. Sekretor bo'limlar ikki tipdag'i so'lak hujayralarga ega bo'lgan hollarda serotsitlar mukotsitlardan iborat sekretor bo'limlarga "zardob yarim oy" shaklida yopishib turadi. Jag'osti bezi histologik tuzilishining qolgan jihatlariga ko'ra qulog oldi beziga o'xshash.

Tilosti bezi. Tilosti bezi til osti burmasining shilliq pardasi tagida joylashib, strukturasiga ko'ra murakkab, naycha-alveolyar bezdir. Cho'chqa va otlarda aralash, kavshovchilarda va yirtqichlarda uzun chiqaruv yo'liga ega qismi aralash, qolgan qismi shilliq bez hisoblanadi. Aralash so'lak ishlab chiqaradigan qismi jag'osti beziga nisbatan ham mukotsitarga boyroqdir.



162-rasm. Jug'usti so'lak bez:


1-seruz axegi bo'llimlar; 2-aratash exirgi bo'llimlar; 3-seruz yamymoyer; 4-aratash oxegi bo'llimning shilliq hujayrlari; 5-oeslik bo'llim; 6-so'lak naych; 7-sezuchali hujaym; 8-bo'lakcha ichidagi biriktireuvchi to'qima; 10-bo'lakchalararo chiqaruv ya'lli.

So'lak bezlarining innervatsiyasi. Bezlarining nervlari sekretor, sezuvchi va qon tomirlarini innervatsiya qiluvchi nervlarga bo'llinadi. Nervlar mielinli va mielinsiz tolalardan tuzilib, gangliylarga ega. Qon tomirlarining nervlari qon tomirlarini kengaytiruvchi (parasimpatik) tolahardan tuzilgan. Gangliylar vegetativ nerv sistemasiga taalluqlidir. Sekretor nervlar: fiziologik ma'lumotlarga ko'ra so'lak naychalarni o'rovchi nerv elementlari bosh miyaga, sekretor bo'llimlarning nervlari simpatik sistemaga qarashli bo'ladi. Sezuvchi nervlar bez naychalarida, qon tomirlarida va interstitsial to'qimada tipik sezuvchi nerv terminalari hosil qiladi.

Halqum. Halqum (*pharynx*) ovqat hazm qilish va nafas olish yo'llari bir-birini kesib o'tadigan, qisqarganda ovqat luqmasining yutilishini ta'minlaydigan organdir.

Shilliq pardasi halqumming ventral, ya'ni hiqildaq bo'llimida ko'p qatlamlı yassi, dorsal - burun bo'llimida ko'p qatorli tukchali-tebranuvchi

epiteliy bilan qoplangan. Epiteliy bu ikki turining bir-biri bilan almashinishi asta-sekinlik bilan yuz beradi. Halqum burun bo'limining shilliq pardasi burun bo'shilg'i shilliq pardasidagidek aralash (zardob-shilliq) sekret ishlab chiqaruvchi naycha-alveolyar bezlarga ega. Xususiy qavatning biriktiruvchi yumshoq to'qimasida retikulyar to'qima ham mavjud.



163-rasm. Qizil'ongachsin ko'ndalang
kesami (makrofots):

a - shilliq pardanining epitheliy va 6 - xususiy qavatlar; n - betlar; r - qizil'ongachsin
bo'shilg'i; x - muskul pardanining ichki va o'tsobi qavatlar; z - adventitsiya; 3 - qon im-
mirlari; u - shilliq pardanining xususiy qavatdan ajralib turmaydigan shilliqosti qavti.

Muskul parda bilan chegaradosh joyda zich-lashgan biriktiruvchi gola-dor to'qimadan iborat halqumning ichki fassiyasi joylashgan. Halqumning og'iz bo'shilg'i bilan chegarasida, shilliq pardada limfoid follikullarning to'p-lamlari - bodomchalar mavjud. Joylashishiga ko'ra tan-glay, til, halqum va hiqildaq ustidan bodomchalar farq qilinib, ularning yig'indisi halqumning limfoid halqasini hosil qiladi.

Muskul parda ko'n-dalang-targ'il muskul to'qimadan iborat halqumning anatomik shakllangan mus-kullaridir.

Adventitsiya birikti-ruvchi tolador to'qimadan iborat halqumning tashqi fassiyasidir.

Innervatsiyasi. Halqumning shilliq pardasida turli-tuman sezuvchi nerv terminallari bor. Muskul parda boshqa organlarning ko'ndalang-targ'il muskullaridek innervatsiya qilinadi.

Qizilo'ngach. Qizilo'ngach (*oesophagus*) (163-rasm) ichki pardasi shilliq modda bilan namlangan ko'p qavatlari yassi epiteliy bilan qoplangan, ovqat luqmasini me'daga tez o'tkazadigan, hazm shirasi ishlab chiqaruvchi bezlarga ega bo'lmagan organdir.

Muskul pardasi ancha yaxshi rivojlangan. Embrional taraqqiyot jarayonida qizilo'ngach birlamchi ichakning oldingi bo'limidan taraqqiy qiladi.

Shilliq pardanining epiteliy qavati turli hayvonlarda turliha muguzlanuvchi ko'p qatlamlari yassi epiteliy. Tadqiqotchilarning fikricha qizilo'ngachning endodermal epiteliyi evolyutsiya jarayonida ektodermal epiteliyiga almashtigan. Embrional taraqqiyot paytida avval bir qatlamlari prizmatik epiteliy paydo bo'ladi, keyin u ko'p qatorli prizmatik-tebranuvchi va nihoyat hayvon tug'ilishi oldidani ko'p qatlamlari yassi epiteliyiga aylanadi. Xususiy qavat biriktiruvchi yumshoq va to'rsimon to'qimalardan iborat. Muskul qavat siliq muskul hujayralarning aymam-ayrim bog'lamchalaridan iborat bo'lib, faqat me'da yaqinida yaxlit qavatga aylanadi. Muskul qavatning qisqarishidan shilliq pardada uzunasiga joylashgan chuqur burmalar hosil bo'ladi. It va cho'chqalarda qizilo'ngachning kranial qismida bu qavat yo'q. Shilliq osti qavat biriktiruvchi yumshoq to'qimadan iborat bo'lib, tarmoqlangan, ayrim hollarda murakkab, **naycha-alveolyar shilliq bezlariga** ega. Idha bu bezlar butun qizilo'ngach bo'ylab bir tekis tarqalgan, cho'chqada faqat oldingi bo'limda, ot, mushuk va kavsh qaytaruvchilarda esa halqum bilan chegaradosh zonada joylashadi. Cho'chqada bu yerda limfa follikullari ham uchraydi.

Muskul parda ichki, tolalari sirkulyar va tashqi, tolalari uzunasiga joylashgan qavatlarga ega. Lekin turli hayvonlarda aynan shu turga xos farqlarni: quyon va yirtqichlarda uch qavat, ot va kavsh qaytaruvchilarda

ko'pincha uch, cho'chqalarda hatto to'rt qavatni ko'rish mumkin. Muskul parda qizilo'ngachning boslanish qismida asosan ko'ndalang-targ'il muskul bo'lib, kaudal yo'nalişda asta-skin silliq muskulga aylanadi. It va kavsh qaytaruvchilarda bu parda butunlay ko'ndalang-targ'il muskul. Ot va mushuklarda qizilo'ngachning oxirgi uchdan bir qismida, cho'chqada esa faqat uncha uzun bo'limgan oxirgi qismida silliq muskul mavjud.

Tashqi parda bo'yin oblastida adventitsiya, ko'krak qafasi (plevra) va qorin bo'shilg'ida (qorin pardasi) zardob parda hisoblanadi.


ME'DA

Me'da kurtagi ichak nayining kengaygan qismi xifatida hosil bo'lib, dorsal va ventral ichak tutqichlarga osilib turadi. Me'daning bo'lajak qabariq (katta egilgan) joyi dorsal, botiq (kichik egilgan) joyi ventral tomonga qaragan bo'ladi. Keyinchalik diafragma va jigarning taraqqiyoti, dorsal ichak tutqichning tez o'sishi natijasida me'da buralib, qabirin joyi ventral, botiq joyi dorsal tomonga qarab qoladi. Shu bilan bir vaqtida ichak nayining bo'yiga o'sishi va egilib-bukilishlar hosil qilishi oqibatida me'da ko'ndalang holatda joylashadi. Dorsal ichak tutqich kichik charviga aylanadi. Dorsal ichak tutqich varaqlari orasida taloq, ventral ichak tutqich varaqlari orasida esa jigar va me'daosti bezi hosil bo'ladi. Kavsh qaytaruvchilarda me'da ichak nayining urchuqsimon kengayishidan hosil bo'lib, avval ikki qism: katta va to'rt qorinlarning kurtagi va shirdon kurtagidan iborat. Qat qorin kurtagi ancha keyin, shirdon kurtagini oldingi qismidan hosil bo'ladi.

Sut emizuvchilarning bir bo'limga ega me'dasi oddiy (bezli shilliq parda bilan qoplangan) va murakkab (qizilo'ngach ochiladigan qismi ko'p qavatlari yassi epiteliy bilan qoplangan) bo'ladi. Ko'p bo'limli me'da uch (tuyada) yoki to'rt (shoxli mollarda) bo'limga ega. Oldingi ikki yoki uch bo'limi me'daoldi bo'limlari deb ataladi va shilliq pardasi qizilo'ngach epiteliyining davomi hisoblanuvchi epiteliy bilan qoplangan. Oxirgi bo'limi haqiqiy me'da hisoblanib, bezli shilliq parda bilan qoplangan.

BIR BO'LIMLI ME'DA

Shilliq parda (*t.mucosa*) (164-rasm) me'daning kardial qismida och, pilorik qismida to'qroq va fundal qismida esa to'q rangga ega bo'lib, buning sababi turli qismalarda bezlarning taraqqiy qilishi va qon bilan ta'minlanishi turlichaligidir.



164-rasm, Me'da tubining mikroskopik tuzilishi (A) (sxema):

1-bir qavatlari silindrik bez epitelyi; 2-me'da chuqurchalar; 3-osc'dasining fundal berzilari; 4-shilliq pardanining xususiy qavati; 5-shilliq pardanining muskul qavati; 6-shilliqosti qavat (a-qon tonislar); 7-yog' hujayralari; 8-muskul parda qavatlari oqasidagi nerv chigali; 9-seroz pardzi; 10-shilliq parda; 11-muskul pardanining qiyshiq; 12-sirkulyar va 13-bo'ylama qavatlari; 14-yaza epiteliy qavat mukosollarini elektron mikroskopik tuzilishining sxemasi (1-to bo'yicha; 1-makrovesinkular; 2-shilliq sekreting granulalar; 3-mitochondriyalar; 4-plastinikali kompleks; 5-granulyar sitoplazmatik to'r; 6-bazal membrana).


muskul hujayralaridan iborat ikki qavatga ega. Shilliq osti qavat biriktiruvchi yumshoq to'qima bo'lib, ancha qalin, qon va limfa tomirlariga boy. Bu qavatda shilliqosti nerv chigali joylashadi, cho'chqlarda limfa tugunchalari ham bor.

Otar bir bo'limli me'dasining ko'r xalta qismi, cho'chqular me'dasining divertikul qismi qizilo'ngachdagidek epiteliy bilan qoplangan, shilliq pardasi qizilo'ngachning shu pardasiga o'xshash tuzilishga ega.

Muskul parda (*t. muscularis*) me'dada qavatning murakkab joylanashi bilan xarakterlanadi. Bu taraqqiyot jarayonida muskul parda qavatlarining bir tekis o'smasligiga bog'liq. Ichki qavatning muskul hujayralari sirkulyar joylashadi, me'daga kiraverishda uning bir qism to'lalari qiyshiq joylashgan qavat, me'dadan chiqish joyida esa pilorik sfinkter hosil qiladi. Tashqi qavat hujayralari me'dasining qabariq va botiq qismlarida uzunasiga joylashgan, boshqa qismlarida qiyshiq yo'nalishda joylashgan.

Seroz parda (*t. serosa*) yupqa biriktiruvchi to'qimadan iborat tashqi parda bo'lib, mezoteliy bilan qoplangan.

Shilliq pardada burmalar va chuqur-chalar mavjud. Qoplov-chi qavat bir qavatlari, prizmatik ylang'och epiteliy. Uning prizma-tik hujayralari baland bo'yli, o'zagi bazal qismiga yaqin joylashadi, sitoplazmasining apikal qismida ko'p miqdorda shilliq modda kiritmalari saqlaydi. Epiteliyning xususiy qavatga o'sib kirishidan me'da bezlari hosil bo'ladi. Shilliq pardanining xususiy qavati to'rsimon to'qima aralashgan biriktiruvchi yumshoq to'qimadir. Bu qavatda me'da bezlari joylashadi. Mus-kul qavat ichki sirkulyar va tashqi uzunasiga joylashgan silliq



165-rasm. Me'da tubinsing bezlari: 1 - buccal bo'yinchasi; II-tanasi va III-tubi; 3-bir qavallli bez epitheliy; 2-me'da chuqurchasi; 4-xususiy qavat; 5-qo'simcha hujayralar; 6-parietal hujayralar; 6-bosh glandulositlar; 7-musklui qavat.

Me'da bezlari (165-167-rasmlar). Tuzilishi va joylanishiga ko'ra uch tipdagi: **fundal**, **plorik** va **kardial** bezlar farq qilinadi.


Fundal (tub qism) bezlar tarmoqlanuvchi, naychasimon oddiy bezlar bo'lib, shilliq pardadagi me'da chuqurchalarining tubiga ochiladi. Har bir chuqurchaga ikki-uchta naycha ochilib, bezda tub (oxirgi qism), tana (o'rta qism) va toraygan bo'yincha qismlar farqlanadi. Bez naychasi devorida bir necha xil hujayralar uchraydi.

Bosh glandulositlar (166-rasm) asosiy ko'pchilikni tashkil qiluvchi kubsimon hujayralardir. Sitoplazmasi bazofil bo'yaladi (RNK ga boy), mitokondriyalar va sekretsiya bilan bog'liq organellalar - sitoplazmatik to'r (ribosomalarga boy va hujayra basal qismida joylashgan), plastinkali kompleks (o'zak yonida, apikal qismiga qaragan tomonda joylash-gan)ga ega. Sitoplazmasida pensi-nogen donachalari bor. Och hayvonlarda bosh glan-

dulotsitlar yirik, tiniqmas sitoplazmaga ega, ovqat-lantirilgan hayvonda ular kichik-lashadi. Hujayra yuzasida past bo'yli mikrovorsinkalar joylashadi.

Parietal glandulotsitlar (166-rasm) nok shaklida, kamroq sonda uchrvavchi, bosh glandulotsitlar va mukotsitiardan tashqarida, ularning bazal qismiga tegib yotadi. Bu hujayralarning atsidofil bo'yaluvchi sitoplazmasida hujayra ichi kanalchalar mavjud. Kanalchalar bosh glandulotsitlar orasidan o'tib bez ichiga ochiladi.

Parietal glandulotsitlar ishlab chiqarndagin xloridlarga boy sekret me'da shirasidagi xlorid kislotaga aylanadi. Oqsilli sekret ishlab chiqar-magani uchun bu hujayralarda siteplazmatik to'r taraqqiy qilmagan.



166-rasm. Me'da tubi bosh (A) va parietal (B) glandulotsitlari electron mikroskopik tuzilishining oxemasasi:
a-mikrosondriyalar; b-granulyar sitoplazmatik to'r; c-plastinkali kompleks; r-pepsinogen domchalari; s-mikrovorsinkalar; e-bazal membrana; x-o'zak; i-kanalch; 2-mikrosondriya; 3-o'zak; 4-plastinkali kompleks; 5-lizosoma.

Mukotsitlar (qo'shi-mcha hujayralar) asosan bo'yinchaligida qism yaqinida joylashib, cho'zinchoq, hu-jayra asosiga yaqin yotuvchi o'zakka ega,


Bez bo'sh-lig'iga qaragan apikal uchida shilliq kiritmalar bor. Me'da shilliq'i keskin ishqoriy reaksiyali bo'lib, me'da devorini me'da shirasi turkibidagi kislota ta'siridan himoya qiladi.

Bez bo yinchasida joylashgan **bo'yinchalik bezlari** (yoki kambial hu-jayralar) me'da chuqurcha-larini qoplovchi epiteliy hujayralariga yondashib yotib, bezlarning kam tabaqalangan kambial eleme-ntlaridir. Ular past bo'yli, yirik oval-yumaloq o'zakli, mitoz bo'linish qobiliyatiga ega hujayralardir. Ulardan me'da shilliq pardasini qoplovchi va bez hujayralar tabaqalanadi. Bez devorida endokrin tabiatli enteroxromaffinotsitlar ham uchraydi.

Pilorik bezlar kam miqdorda pepsin, shuningdek, shilliq sekret ishlab chiqaradi. Oddiy naychasimon shakldagi bu bezlar siyrakroq joylashadi, ko'proq egilib-bukiladi, tarmoqlanadi va chuqurroq me'da chuqurchalariga ochiladi, bezning bo'shilg'i kengroq, chiqaruv yo'llari otlaming bezlarda uzun, yirtqichlarnikida qisqa bo'ladi. Bezlар devorida fundal bezlarning mukotsitlariga o'xshash hujayralar, bo'yinchalik bezlari va argentaffino-tsitlar uchraydi. Ko'pchi-lik hujayralarning sito-plazmasi bazofil, oval shakldagi o'zaklari hujay-ra asosida yotadi, me'da chuqurchalarni qoplovchi epiteliotsitlarga nisbatan ochroq bo'yaladi va shilliq ishlab chiqaradi.

Argentaffinotsitlar yoki **enteroxromaffinotsitlar** turli tadqiqotchilar tomo-nidan turlicha nomlanib, me'daning har uchala tip bezlari (ko'proq pilorik bezlar) devorida, shuningdek ichaklar epiteliyida ham uchraydi. Hozirgi paytda enteroxromaffinotsitlar endokrin elementlar hisoblanib, biokimyoiy va boshqa xossalariiga ko'ra, ularning 20 dan ko'proq xili farqlanadi. Gastrin, gistogramin, serotonin, glyukagon, endorfinit, sekretin, somatostatin singari gormonlar va fiziologik faol moddalar ishlab chiqaradi.

Kardial bezlar. Chiqaruv yo'llari uzun, sekretor bo'limlari keng bezlar bo'lib, yirtqichlarda kam taraqqiy qilgan va qizilo'ngach yaqinidagi uncha katta bo'lmagan zonani egallaydi. Cho'chqada bezlar egri-bugri,



167-sunn. Me'da berflarning uch tipi:
A-fondal B-polarik va C-kardial bezlar; a-qoplovchi
epiteliy; b-ning - 6-bo'yinchasi; c-inasi va r-tubi;
x-ayrim bezlarning ko'ndalting va qizishiq kesimlari; e-buz;
z-parietal; z-qo'shuncha glandulotsitlar.


ko'p tarmoqlangan bo'lib, me'da tubining anchagina qismi, shuningdek, divertikulda ham uchraydi. Silindr yoki kubsimon, o'zagi yumaloq va bazal joylashgan, sitoplazmasida atsidofil granululari bo'lgan bez hujayralari amilolitik ferment ishlab chiqaradilar. Bez hujayralarining funksional holati o'zgarishi bilan ularning mikrostrukturasi ham o'zgaradi: granulular paydo bo'ladi yoki yo'qolib ketadi, sitoplazmasi ochroq yoki intensivroq bo'yaladi.

KO'P BO'LIMLI ME'DA

Kavsh qaytaruvchilar me'dasi to'rt bo'limga ega. Shu bo'lilmalarning uchtaşı yugorida qayd qilganimizdek me'daoldi bo'limalri hisoblanib, shilliq pardasi ko'p qavatli yassi epiteliy bilan qoplangan va bezlarga ega emas. (168-rasm).

Epiteliyda hujayralararo yoriqchalar sistemasi mavjud. Bu bo'limalarda ovqat moddalar mehanik va bakterial tu'sirotlarga uchraydi. Bu yerda ma'lum miqdorda oziq moddalarning so'riliishi histologik, histokimyoiy va fiziologik usullar bilan isbotlangan.

Katta qorin. Shilliq pardasining yuzasida turli kattalik va shaklga ega so'rg'ichlar (bo'rtiklar) bor. Bu so'rg'ichlar shilliq pardaning xususiy qavati va epiteliy hisobiga hosil bo'lgan. Shilliq pardaning muskul qavati ayrim-ayrim muskul bog'lamchalaridan iborat. Shilliq osti



168-rasm. Qoranol me'da oldi bo'limalri histologik tuzilishining xususlari:

A-katta qorin; B-to'rt qorin; C-epiteliy qorin; D-shilliq pardanining xususiy qavati; E-muskul qavat; F-shilliqso'i qavat; G-muskul pardanining arikalar va bo'yalmu qavatlar; H-seroz pardasi; I-birkimyevchi so'qimning epithelyga o'sib kirishi; J-katta qorin shilliq pardanining so'rg'ichlari; K-to'rt qorinining katta burmaxi; L-muskul bog'lamlari; M-qorinning katta vanag'i; N-muskul pardasi arikulyar qavatining o'smasi. Katta hushchigani - katta qorin so'rg'ichi (I), to'rt qorin burmaxi (K) va qorin vanag'i (M). Texyer bo'yicha.

qavat ancha yaxshi rivojlangan.

Muskul parda ichki, hujayralari sirkulyar joylashgan va tashqi, hujayralari uzunasiga joyla-shgan qavatlarga ega bo'lib, silliq muskuldan tuzilgan.

To'rkorin. Shilliq pardani qoplovchi epiteliy katta qorindagidek. Shilliq parda o'zaro tutashib katakchalar hosil qiluvchi ko'pdan-ko'p burmalarga ega. Bu pardaning yuzasi to'rga o'xshash bo'lib ko'rinadi. Muskul qavat tarqoq joylashgan silliq muskul hujayralaridan iborat. Faqat yirik burmalarining uchida uzunasiga joylashgan muskul hujayralarining yaxlit bog'lamchalari bor. Muskul parda katta qorinning muskul pardasidek qavatlarga ega. Bu parda qizilo'ngach ariqchasi muskul pardasi bilan tutashgan. Qizilo'ngach ariqchasing devori to'rkorinnikidek tuzilgan.

Qatqorin. Shilliq parda varaqlar shaklidagi uzunasiga joylashgan burmalar hosil qiladi. Ko'p qavatlari yassi epiteliy ko'plab past bo'yli so'rg'ichlarga ega. Muskul qavat yaxshi rivojlangan va varaqlarga o'sib kirgan. Eng yirik va baland bo'yli varaqlarga muskul pardaning ichki, sirkulyar qavati ham o'sib kiradi.

Me'da oldi bo'limlarning zardob pardasi odatdagidek tuzilishiga ega.


Shirdon devorining tuzilishi bir bo'limli me'da bezli qismlarining tuzilishiga o'xshash: fundal, pilorik va kardial bezlar joylashgan qismlar farq qilinadi. Kavsh qaytaruvchilarning pilorik bezlari boshqa hayvonlarnikidan uzunroq.

QUSHLAR ME'DASI

Qushlarning tishlari yo'qligi va ovqat anchagina mexanik ishllov talab qilishiga ko'ra me'dasi o'ziga xos tuzilgan: **bezli** va **muskulli** bo'limlarga ega.

Bezli me'da (169-rasm). Ovqat bu yerda deyarli to'xtamasdan qisqagina oraliq bo'lim orqali muskul-li me'daga o'tadi. Bezli me'da ovqat hazm qilish nayiming uncha katta bo'imagan ken-gaygan qismidir. Shilliq pardaning ko'p-dan-ko'p burmalari va maxsus chuqur-chalari - bezli xaltachalar sekretor yuzaning kattaligini ta'minlaydi. Qoplovchi qavat shilliq ishlab chiqaruvchi bir qavatlari prizmatik epiteliyidir. Bezli xaltachalarning chuqurligi 4 mm gacha yetadi va shilliq pardaning yuzasiga ochiladi. Bevosita shilliq parda yuzasiga ochiluvchi yuza va bezli xaltachalarga ochiluvchi chuqur joylashuvchi bezlar, farq qilinadi. Xususiy qavat qon tomirlariga boy, limloid tuzilmalarga ega biriktiruvchi yumshoq to'qima. U bezli xaltachalarni o'rab turgani uchun bo'lakchalararo to'qimaga o'xshab

ketadi. Muskul qavat qizilo'ngach muskul qavatining davomi bo'lib, kuchli taraqqiy qilgan.



169-rasm. Tavuq bezli (A) va muskul (B) me'dalarining shilliq pardasi: 1-bezli saltcholar; 2-yuz va n-chuqur joylashgan bezlar; 3-muskul qavat; 4-muskul partsi; 5-bezlar; 6-"shox" modda; 7-biriktiruvchi to'qimsa.

Muskul parda ichki, muskul hujayralari bo'ylama joylashgan va tushqi sirkulyar, shuningdek, ayrim joylarda bo'lmaydigan zardob parda ostida joylashgan bo'ylama qavatlarga ega silliq muskul.

Zardob parda odatdag'i tuzilishga ega.

Muskul me'da. Bu yerda ovqat mexanik va kimyoviy ta'sirga uchraydi.


Shilliq parda kubsimon epiteliy bilan qoplangan va naychasimon bezlar shakkidagi chuqurchalarga ega. Bu bezlarning sekreti qotib, shilliq parda yuzasida kuchli "shox" qavat hosil qiladi. Shox qavatning yuzasi tekis emas va ovqatning mexanik ishlanişiga yordam beradi. Shoxning tarkibi teri shox moddasiga mutlaqo o'xsharnaydi.

Epiteliyosti qavat bezlarning orasi va ostida joylasbган biriktiruvchi to'qimadir. Muskul qavat yo'q. Zich biriktiruvchi to'qimadan iborat shilliqosti qavatga muskul pardaning ichki payi, deb qarash mumkin.

Muskul parda kuchli taraqqiy qilgan, anatomik shakllangan silliq muskullardir. Muskul bog'lanchalari orasida shilliq parda payining davomi hisoblanuvchi biriktiruvchi to'qima mavjud.

Zardob parda odatdagidek tuzilgan.

ICHAKLAR



170-rasm. Ingichka ichak:


1-shiliq; 2-muskul va 3-seroz pardalar; 4-so'rg'ichning epitifiy;
5-shiliq pardaning xususiy qavati; 6-so'rg'ichlar; 7-kriptolar; 8-
muskul qavat; 9-shillaqoti qavat; 10-qon temirleri; 11-shiliqosti
nerv chigali; 12-muskul pardaning sirkulyar va 13-bo'ylama
joylashgan qavatlari; 14-muskul pardasi qavatlari orasidagi nerv
chigali; 15-mezoteliy.

Ichaklarning morfofiziologik xossalariiga ko'ra ikkiga: **ingichka** va **yo'g'on** ichaklarga bo'linadi. Ingichka ichaklarda ovqat hazm qilish jarayonlari oxiriga yetadi, parchalangan oziqa moddalar qonga va limfaga so'riladi. Ushbu fiziologik xossal ingichka ichaklarning tuzilishida o'z aksini topadi, ya'ni bu ichaklarda hazm shirasi ishlab chiqaruvchi bezlar va maxsus so'rish apparati - so'rg'ich tukchalar mavjud.

Embrion taraqqiyoti davrida boshlang'ich ichak nayi o'zining ventral devori tomon egiladi. Ichakning bu egik qismi birlamchi ichak sirtmog'i deyladi. Bu sirtmoq pastga tushuvchi va yuqoriga ko'tariluvchi bo'limlardan iborat. Me'da shakllanib, uning pilorik qismi o'ng tomonga o'tishi bilan ichakning boshlanish qismi ham o'ng tomonga o'tadi. Shu bilan bir vaqtida ichakning boshlanish

qismi uzayib, qorin bo'shilg'i o'ng tomo-nining yuqori qismida joylashadi. Ichakning boshlanish qismidan o'n ikki barmoq ichak taraqqiy qiladi. Ingichka va yo'g'on ichakning chegarasida bo'lajak ko'richak-ning kurtagi hosil bo'ladı. Pastga tu-shuvchi bo'limning o'n ikki barmoq ichakka aylamuvchi qismidan keyingi qis-mining bo'yiga, ayniqsa, tez o'sishi natijasida egilib-bukilishlar va halqalar hosil bo'lib, qorin bo'shilg'ining butun chap tomonini to'Idiradi. Yo'g'on ichakning oldindi qismi yuqoriga ko'tariladi va o'ngga qayriladi. Birlarmchi ichak halqasi yuqoriga ko'tariluvechi bo'limining kattagina qismi chambar ichakni hosil qiladi.

Ingichka ichak. Ingichka ichakning shilliq pardasi (170-rasm) ko'pdan-ko'p halqasimon burmalar hosil qilib, bu burmalar uning yuzasini ikki martadan ziyodroq oshiradi. Bundan tashqari, bir-biriga zich joylashgan ichak so'rg'ichlari mavjud bo'lib, ular shilliq parda yuzasiga baxmaldek tus berib turadi. Ichak so'rg'ichlari shilliq pardanining ichak bo'shilg'iga barg yoki barmoqsimon o'sib chiqishidan hosil bo'lgan. Ularning soni juda ko'p. O'n ikki barmoq ichak so'rg'ichlari ochi ichaknikiga nisbatan past bo'yli va yo'g'onroq bo'ladı. So'rg'ichlar oraliq'ida epiteliy xususiy qavatga botib kirib chuqurcha (cripta)lar hosil qiladi. Bu chuqurchalar oddiy, ayrim hollarda tarmoqlangan naychilar shaklida bo'lib, bezlar deb ham ataladi. Ularning shakli turli hayvonlarda bir xil emas: kavsh qaytaruvchilarda qiya joylashgan va sal egiluvchan, yirtqichlarda ular to'g'ri (tik), ot va cho'chqada ko'proq egilgan. Chuqurchalar yirtqichlarda eng zich ot va cho'chqalarda eng siyrak joylashadi.



171-ess. Bir qavatlari silindrik hoshiyali epiteliyning
izxmasi (A) va spezialotsit apikal qutining elektron-
ogrammasi (B): 1-hoshiyaning mikrovosimkalar; 2-
o'zak; 3-bazal membrana; 4-bisiktinavchi to'qima.

Shilliq pardani qoplovchi bir qavatlari prizmatik hoshiyali epiteliy tarkibida bir necha xil hujayrlar uchraydi. Silindr (prizma) shaklidagi, apikal yuzasi chiziqli hoshiya bilan qoplangan hujayralar (171-rasm) asosiy ko'pchilikni tashkil qiladi. Epitelotsitlarning hoshiyasi zinch joylashgan, balandligi 0,5 mmga yaqin mikroso'rg'ichlar (mikrotukehalar)dan iborat. Mikroso'rg'ichlar bir tekis tarqalib yoki to'plamchalar hesil qilib joylashishi mumkin.

Har bir hujayradagi mikroso'rg'ichlarning soni 3000 gacha bo'lib, ular hujayraning so'rish yuzasini 30 martagacha oshiradi. Bu ko'rsatgich hujayra yoshiga qarab avval ortib boradi, qariyotgan hujayralarda asta-sekin kamayadi. Masalan, bo'linish natijasida, hosil bo'lgan va kriptalarda joylashuvchi hujayrada 280 mikroso'rg'ich bo'lishi aniqlangan. Mikroso'rg'ichlar yuzasida lipoproteidlar va glikozaminoglikanlardan iborat glikokaliks joylashadi. Mikroso'rg'ichlarni hosil qiluvchi hujayra membranasida fermentlarning ma'lum tartibda joylastishi ovqat moddalarning qat'iy tartibda boradigan gidrolizlanish reaksiyalarida katta ahamiyatga ega. Har bir mikroso'rg'ich submikroskopik kanalchaga ega. Bu hol so'rili yuzasini oshirish bilan birga, g'ovak katalizator rolini ham o'taydi. Mikroso'rg'ichlar yordamida epiteliy hujayrasiga moddalarning kiritilishi pinotsitoz yo'li bilan boradi. Hujayra ichidan bu moddalar yon membrana orqali hujayralar orasidagi yoriqlarga, u yerdan basal membrana orqali qon va limfaga o'tadi. Gistokimyoiy usullar bilan mikroso'rg'ichlarda glikozaminoglikanlar va ular bilan bog'liq bo'lgan fermentlar borligi aniqlangan. Glikozaminoglikanlar hujayraga mikroorganizmlarning kirishiga qarshilik qiladi. Hujayra sitoplazmasida organellalarning o'ziga xos joylashuvi moddalar almashinuvining o'ziga xosligiga bog'liq. Mayda yog'tomchilari mikroso'rg'ichlar oralig'ida lipazalar ta'siriga uchrab par-chalanadi, xolesterin va xolinesteraza yordamida eriydigan holga kelib hujayra ichiga o'tadi, keyin esa plastinkali kompleks va mitoxondriyalar ishtirokida neytral yog'ga aylanadi. Bundan tashqari emulsiya holidagi yog'lar bevosita hoshiya orqali hujayra ichiga yoki bekituvchi plastinkalar orqali hujayralar oralig'iga o'tishi mumkin. Carbonsuvlar monosaxaridlar holiha so'rildi va epiteliy hujayralarida glikogenga sylanishi mumkin. Oqsillarning so'rili shartlari hali to'liq aniqlangan emas.

Ichak so'rg'ichlarining biriktiruvchi to'qimasi shilliq pardaning muskul qavatidan boshlanuvchi silliq muskul hujayralariga ega. Qon kapillyarlari epiteliy ostida, limfa kapillyari so'rg'ichning markazida joylashadi. So'rg'ich uchida qisqa arterial tarmoqcha bevosita venaga aylanadi, ya'ni arterio-venoz anastomoz hosil qiladi. Bu venaga so'rg'ichning burcha kapillyarlari quyiladi. So'rg'ichlar muskul hujayralari qisqarganda erigan oziqa

moddalarni so'ruvchi nasos kabi so'rib oladi. Qon so'riliш paytida qon kapillyarlari orqali, tinch holatda esa anastomoz orqali o'tadi.

Mikroso'rg ichlarga ega epiteliotsitlar orasida tipik mukotsitlar hisoblanuvchi **qadahsimon ekzokrinotsitlar** joylashadi. Ularning soni ingichka ichak bo'yib kaudal yo'nalishda ortib boradi. Sekret (shilliq) to plagan bunday hujayralarning o'zagi bazal qutb yonida, plastinkali kompleks va mitoxondriyalar o'zak atrofida joylashadi. Sekret chiqarib yuborilganda hujayra ingichkalashib, sitoplazmaning donadorligi yo'qoladi, o'zak kichiklashadi.

Bir tuyoqlilar va kemiruvchilarda kriptalar tubini qoplovchi epiteliotsitlar orasida yirik, sitoplazmasining apikal qismida atsidofil bo'yaluvchi donachalar bo'lgan hujayralar - **atsidofil donador ekzokrinotsitlar** uchraydi. Cho'chqa va yirtqichlarda bunday hujayralar yo'q.

Me'da-ichak endokrinotsitlarining o'zagi uncha yirik emas, yumaloq yoki oval shaklda bo'lib, hujayralarning basal qismida joylashadi. Sitoplazmasi o'zak yaqinida joylashuvchi mayda donadorlikka ega. Donachalar cozin bilan bo'yaladi, shuningdek kumush tuzlarini yaxshi qabul qiladi va shu xossaliga ko'ra argentaffinotsitlar ham deyiladi. Endokrinotsitlar ichak so'rg'ichlarini va chuqurchalarini (kriptalarini) qoplovchi epiteliotsitlar orasida uchraydi. Lekin ular chuqurchalarda anchagina ko'proq. Biokimiyoviy va morfo-fiziologik xossalariغا ko'ra, bu hujayralarning bir necha turlari farq qilinadi. Ular ishlab chiqargan serotonin, motilin, P modda, enteroglyukagon, sekretin, xoletsistokinin, pankreozamin, gastrin va boshqa gormonlar hamda biologik faol moddalar juda katta aharmiyatga ega. Me'da-ichak endokrinotsitlari neyroendokrin (nerv to qimasidan taraqqiy qiluvchi) hujayralar hisoblanib, serotonin va oligopeptidlardan ishlab chiqaruvchi endokrin elementlar guruhi (APUD-guruhi)ga kiradi.

Kriptalarda mitoz bo'linishga qobil, butun ichak epiteliyi uchun kambiy vazifasini bajaruvchi tabaqalanmagan **epiteliotsitlar** ham mavjud. Gistoavtoradiografiya usuli bilan, DNK hosil qiluvchi moddalarni qollab o'tkazilgan tekshirishlarning ko'rsatishicha, ko'payuvchi hujayralar chuqurchalardan so'rg'ichlar uchiga qarab siljiydi. Laboratoriya hayvonlaridan sichqon va kalamushlarda 2-3 kecha-kunduzda ichak shilliq pardasining epiteliyi to'lig'icha yangilanadi.

Shilliq pardanining xususiy qavati qon hosil qiluvchi organlarning retikulyar hujayralariga o'xshash o'simtali hujayralar bilan aloqada bo'yuvchi retikulyar tolalarga boy biriktiluvchi to'qimadir. Bu yerda doimo eozinofillar, limfotsitlar, shuningdek plazmotsitlar uchraydi. Shilliq pardanining muskul qavati silliq muskul tolalaridan iborat bo'lib, ichki sirkulyar va

tushqi uzunasiga joylashgan qavatlarga ega.

Shilliqosti qavat biriktiruvchi yumshoq to qima bo'lib, lipotsitlarga boy. Shilliq pardada limfoid to qimaning to plamlari uchraydi. Shilliq pardaning xususiy qavatida yakka tartibda joylash-gan (solitar) limfoid tugunchalar butun ingichka ichaklar bo'y-lab tarqal-gan. Ingichka ichakning distal bo'-limlari uchrovchi yirikroq tugunchalar muskul qavat orqali o'tib, qisman shilliq osti qavatda ham joylashadi. Guruhlarga to plangan limfoid tu-gunchalar (agregatlar) odatda yonbosh ichak-da uchraydi. Bu agregatlar joylashgan joylarda shilliq pardada so'rg'ichlar bo'lmaydi.

Yosh ulg'ayishi bilan solitar tugunchalarning ham, limfoid agre-gatiarning ham soni kamayadi.


O'n ikki barmoq

ichakning shilliqosti qavatida murakkab, naychasimon, tarmoqlangan duodenal bezlar joylashadi. Shilliq sekret ishlab chiqaruvchi bu bezlar me'daning pilorik bezlariga birmuncha o'xshashdir. Bezlar chiqaruv yo'llari ichak chuqurchalariga yoki ichak so'rg'ichlari orasiga ochiladi. Bezlarda shilliq ishlab chiqaruvchi hujayralardan tushqari, atsidofil donachalarga ega ekzokrinotsitlar, me'da-ichak endokrinotsitlari, qadahsimon ekzokrinotsitlar va hatto parietal glandulotsitlar ham uchraydi.

Muskul parda odatdag'i ikki qavatga ega siliq muskulidir. Har ikkala qavatning muskul hujayralari qat'iy sirkulyar va qat'iy uzunasiga emas, biroz spiralsimon joylashgan. Muskul parda ximusni aralashtirish va ichak bo'ylab harakatlantirish uchun xizmat qiladi.

Zardob parda odatdag'i tuzilishga ega.

Yo'g'on ichak. Yo'g'on ichaklarda intensiv ravishda suv va mineral



172-rasm. Yo'g'on ichak:

1-shilliq; 2-muskul va seroz pardalar; 4-shilliqosti qavat; 5-shilliq pardani opplovchi epitel; 6-qadahsimon epitelotsitlari; 7-kriptolar; 8-xosassy qavat; 9-muskul qavat; 10-shilliqosti qavatdagi serv chigali; 11-limfa folikuli; 12-qon torishari; 13-muskul pardanining sirkulyar qavat; 14-muskul pardanining bo'ylama qavati; 15-mezonetsiy.


moddalar so'rildi, qisman kletchatka parchalunadi. Yo'g'on ichaklar funksiyasining bunday o'ziga xos tomonlari ichak devorining tuzilishiha o'z ifodasini topgan. Yo'g'on ichakning tuzilishi (172-rasm) ingichka ichakdan quyidagilar bilan furg qiladi: 1) chuqurchalar (kriptalar) tubidagi atsidofil donador ekzokrinotsitlar bu ichakda bo'lmaydi; 2) yo'g'on ichak-larning so'rg'ichlari embrional taraqqiyoti paytida hosil bo'ladi, lekin keyinchalik ular teskari taraqqiyotga uchrab, yo'qolib ketadi; 3) epiteliotsitlarning hoshiyasi yaxshi taraqqiy qilmagan; 4) qadahsimon ekzokrinotsitlar juda ko'p. Ular ishlab chiqargan shilliq suvi so'riliishi natijasida qotaboshlagan ichak ichidagi massani o'rab oladi va uning harakatlanishini yengillashtiradi; 5) epiteliy osti limfov strukturalar (solitar follikullar) va ularning agregatlari ko'p uchraydi; 6) teniyali hayvonlarda muskul pardanning tashqi qavati tassasimon qalinlashishlar - teniyalar hosil qiladi; 7) qonlimfa temirlari va nervlarning joylashishi birmuncha soddaroq.

To'g'ri ichakning oxirgi qismida prizmatik epiteliyning teri tipidagi ko'p qatlamlı yassi epiteliya keskin o'tishi kuzatiladi. To'g'ri ichak devorida elastik tolalar, epiteliy osti limfa tugunchalari ko'p uchraydi. Cho'chqalarda shilliq ishlab chiqaruvchi anal bezlar, yirtqichlarda yog'bezlariga o'xshash sinuslar shaklidagi paraanal bezlar uchraydi.

Qorin pardasi (bryushina). Qorin pardasi mezoteliy bilan qoplangan bo'lib, uning birikitiruvchi to'qima-dan tuzilgan qavati qatlam-qatlam joylashgan membra-nadan iborat. Membrana esa kollagen tolalar bog'lamchalar va elastik tolalar to'ridan tuzilgan. Qorin pardasi turli organlarda o'ziga xos belgilarga ega bo'lib, bu erda ingichka ichakning zardob pardasiga o'xshashlik kuza-tiladi. U quyidagi qatlam-larga ega: a) mezoteliy; b) mezoteliyning bazal membranasi; v) yuza joylashgan tolador kollagen qavat; g) yuza joylashgan diffuz elastik to'r; d) chuqur joylashgan bo'ylama elastik to'r; e) chuqur joylashgan kollagen-elastik to'r. Oxirgi qavat ichak muskul pardasining birikitiruvchi to'qimasi bilan tutashib ketgan.

ME'DAOSTI BEZI

Me'daosti bezi (pancreas) ekzokrin va endokrin qismlarni o'z ichiga oluvchi aralash bezdir. (173-rasm). Ekzokrin qismi chiqaruv yo'llari orqali o'n ikki barroq ichakka quyluvchi fermentlarga boy pankreatik shira ishtab chiqaradi. Endokrin qismida hosil bo'luvchi gormonlar to'qimalarda carbonsuvarlar, oqsillar va yog'lar almashinuvini boshqarishda ishtirot qiladi.



173-rasm. Me'daosti bezi:

1-bo'lakcha; 2-ekzokrin qismi; 3-endokrin qism (pankreas orolchasi); 4-bo'lakchalararo birikinuvchi to'qima; 5-vena; 6-bo'lakchalararo chiqaruv yo'lli; 7-oxirgi bo'lim (atsinuslar); 8-arteriya; 9-venoz kapil'yalar; 10-sentrotsinoz bujaynalar.

Bezning ekzokrin qismi pankreatik atsinuslar (sekretor qismlari), oraliq bo'limlar, bo'lakcha ichidagi, bo'lakchalararo va umumiy chiqaruv yo'llaridan iberat.

Bez ekzokrin qismining struktur-funksional birligi atsinuslar bo'lib, ular sekretor va oraliq bo'limlarni o'z ichiga oladi. Atsinuslar bazal membra-nada joylashuvchi 8-12 yirik ekzokrin atsinotsitlar, bir necha mayda sentrotsinoz epiteliotsitlardan iberat bo'lib, tashqi ko'rinishi xaltachalarga o'xshaydi. Atsinuslar orasida retikulyar tolalar, gemokapillyarlar va nerv tolalari uchraydi.

Ezkokrin atsinotsitlar (174-rasm) sitoplazmasining bazal qismi bazofil bo'yaldi, apikal qismi kuchsiz oksifil bo'yalib, nofaol ferment-zimogen donachalariga ega. Donachalarning miqdori bujayralarning funksional holatiga bog'liq - och hayvon bujayralarida donachalar ko'p, ovqat hazm qilish paytida esa ular atsinuslar ichiga chiqariladi. Sitoplazmaning bazal qismida ribosomalarga boy va yaxshi taraqqiy qilgan sitoplazmatik to'r membrunalari joyleshadi. Sentrotsinoz epiteliotsitlar atsinuslar markazida joylashgan, sitoplazmasi och bo'yaluvchi, o'zagi yirik


Bez embrional taraqqiyot jarayonida o'n ikki barmoq ichak shilliq pardasi epiteliy qavatining o'sib chiqishidan taraqqiy qiladi. Me'daosti bezi tuzilishiga ko'ra murakkab, bo'lakchali bezdir. Uni tashqaridan birik-tiruvchi to'qimadan iberat yupqa kapsula o'rabi turadi, parenximasini bo'lak-chalarga bo'lingan. Bo'lakchalar orasidagi yupqa biriktiruvchi to'qima qavatda qon tomirlari, nervlar, nerv tuganchalari va bezning chiqaruv yo'llari joylashadi. Bezinig ekzokrin qismi pankreatik atsinuslar (sekretor qismlari), oraliq bo'limlar, bo'lakcha ichidagi, bo'lakchalararo va umumiy chiqaruv yo'llaridan iberat.



174-rasm. Me'daosti benti atsinusining bujayrasi:
1-bazal qubining granulyar sitoplazmatik to'ri; 2-apikal qubining zimoga gramplasi. Elektron mikrofotografiya (Blyum va Faunett bo'yicha).

yassi hujayralur bo'lib, atsinuslar ichiga suqilib kiruvchi oraliq bo'limlar devorini hosil qiladi. Atsimuslar devorida ekzokrin atsinotsitlar orasida atsinoz-insulyar hujayralar uchraydi. Bu hujayralarning sitoplazmasi zimogen-dan tashqari o'ta elektron zinch, membrana bilan o'ralgan donachalarga ega va gormonlar ham ishlab chiqaradi.

Oraliq bo'limlarning devori mayda, och bo'yaluvchi hujayralardan iborat. Atsimuslar va oraliq bo'limlarning o'zaro aloqasi xilma-xil va ancha murakkabdir. Oraliq bo'limlar devori bir qavat kubik epiteliydan iborat atsimuslararo chiqaruv yo'liga ochiladi. Bu yo'llarning hujayralari pankreatik shiraning suyuq komponentini hosil qiladi, degan fikrlar bor. Atsimuslararo chiqaruv yo'llar bo'lakcha ichida joylashgan, devori kubik epiteliydan iborat yirikroq yo'llarga ochiladi. Bu yo'llar atrofida gemokapillyarlar va nerv tolalariga ega biriktiruvchi yumshoq to'qima joylashadi. Ushbu chiqaruv yo'llari bo'lakchalararo chiqaruv yo'llariga ochiladi. Bo'lakchalararo yo'llar umumiy chiqaruv yo'lda quyiladi. Bu yo'llarning hammasi baland bo'ysi prizmatik epiteliy va biriktiruvchi to'qimaga ega shilliq parda bilan qoplangan. Umumiy chiqaruv yo'lining ichakka ochiladigan joyida sirkulyar joylashuvchi silliq miotsitlardan iborat sfinkter mavjud. Chiqaruv yo'llari epiteliy qavatida qadahsimou ekzokrinotsitlar, pankreozamin, xolitsistokinin gormonlari ishlab chiqaruvchi endokrinotsitlar, xususiy qavatda mayda shilliq bezlar uchraydi.



175-rasm. Me'dosti bezining orolchalar:
1-insulyar hujayra; 2-orolchaning gemokapillyarlar; 3-atsimuslar;
4-zimogen granulalar; 5-gosogen zona.

Bez endokrin qismi-ni
tashkil etuvchi orolchalar (175-rasm) epitelial hujayralar-ning to'plamiali bo'-lib, butun parenxi-mada, atsimuslar ora-sida tarqoq holda joylashadi. Orolchalar bez parenximasining qolgan qismiga nisbatan kuchsizroq (ochroq) bo'yaladi. Orolchalar ayrim holarda bezning ekzo-krin qismidan birik-tiruvchi to'qima bilan chegaralanib tursa, boshqa

hollarda bunday to'qima bo'lmaydi. Endokrin orolchalarning soni, katta kichikligi o'zgarishlarga uchrab turadi va turli individlarda turlicha bo'ladi. Masalan, katta yoshdagi odamlar me'da osti bezlarida bir-ikki mln. ta orolchalar bo'lishi mumkin. Orolchalarning stromasi retikulyar tolalardan iborat. Bu yerda ko'p miqdorda qon tomirlari, sinusoid kapillyarlar bor.

Insulotsitlar (orolchalarning hujayralari) atsinoz hujayralardan maydarоq bo'ladi. Ularning sitoplazmasida granulyar sitoplazmatik to'r uncha kuchli taraqqiy qilmagan, lekin plastinkali kompleks, mitoxondriyalar va sekretor granulalar mavjud. Sekretor granulalarning fizik-kimyoviy va morfologik xossalariiga ko'ra, insulotsitlarning besh asosiy tipi: B (bazofil), A (atsidofil), D (dendritik), D₁ (argirofil) va PP hujayralar farq qilinadi. **B (bazofil) hujayralar** insulotsitlarning 70-75% ga yaqinini tashkil qilib, insulin gormoni ishlab chiqaradi. Ularning sitoplazmasida suvda eri-maydigan, spirtda esa to'lig'icha eriydigan bazofil donachalari bor. Ular aldegidfuksin, gensian binafshasi bilan ko'k rangga bo'yaladi. Donachalarning kattaligi 275 nm atrofida. 20-25% insulotsitlar **A (atsidofil) hujayralar** hisoblanib, insulinning antagonist bo'lgan glyukagon gormoni ishlab chiqaradi. Ular asosan orolchalarning chet qismida joylashadi. **A hujayralarning** sitoplazmasida suvda yaxshi eriydigan, spirt tu'siriga chidamli, kislotali fuksin bilan bo'yaluvchi 230 nm kattalikdagi donachalar bor. **D (dendritik) hujayralar** orolchalarning chetida joylashuvchi noksimon, ba'zan yulduzsimon hujayralar bo'lib, insulotsitlarning 5-10%ini tashkil qiladi. Donachalarining kattaligi 325 nm, ishlab chiqaradigan gormoni somatostatin me'daosti bezining A, B va atsinoz hujayralariga ta'sir ko'rsatadi. **D₁ (argirofil) hujayralar** kam uchraydi, mayda, 160 nm kattalikdagi donachalari bor va VIP-faktor (vazoaktiv intestinal polipeptid) ishlab chiqaradi. VIP-faktor somatostatinning antagonistini hisoblanadi, shuningdek, arterial bosimni pasaytiradi. **PP-hujayralar** insulotsitlarning 2-5%ini tashkil qilib, orechchalarning chetida, shuningdek ekzokrin qismlarda ham uchraydi. Ular mayda donachalar (140 nm gacha)ga ega poligonal hujayralar bo'lib me'da va pankreatik shiralar ajralishini stimulyatsiya qiluvchi pankreatik polipeptid ishlab chiqaradi.

Me'daosti bezidagi adashgan nerv sistemasiga taalluqli tolalar bezning sekretor qismlarini, simpatik tolalar qon tomirlarini innervatsiya qiladi. Turli sezavchi nerv terminallari (retseptorlar), jumladan, **plastinkali tanachalar** (Fater-Pacheni tanachalari) mavjud.

JIGAR

Jigar yirik ovqat hazm qilish bezi bo'lib o't ishlab chiqaradi. Shuningdek, u bir qator boshqa vazifalarni bajaruvchi muhim multifunksional organ hisoblanadi. Jigarda qon plazmasining oqsillari sintezlanadi va oqsillar almashinuvni qoldiqlaridan mochevinasini hosil bo'ladi. Jigar



176-rasm. Jigarning kesimi:

1-jigar bo'lakchasi; 2-matkany vena; 3-jigar to'sinchalar; 4-gepatotsit; 5-triada; 6-bo'lakchalararo o't yo'li; 7-bo'lakchalamaro vena; 8-bo'lakchalararo arteriyu; 9-bo'lakchalamaro binkitiruvchi to'qima.

bujayralari glikogen sintezlaydi va ehtiyyot holda saqlaydi. Me'da, ichaklar, me'daosti bezi va tulogdan kelgan qon jigarda moddalar alma-shinuvining qoldiqlari va boshqa zararli moddalardan toza-la-nadi. Gormonlar, biogen aminlar, dorivor moddalar ham shu yerda inaktivatsiya qi-linadi. Jigarda xolesterin almashinuvni yuz beradi, organizm uchun zarur bo'lgan yog'larda cruv-chi vitaminlar A, D, E, K va boshqalar to'pla-nadi. Embrional rivoj-lanish paytida jigar qon yetishtirish vazifasini ham amalga oshiradi. Mana shu xilma-xil vazifalarning asosiy


ko'philigini jigar parenximasini tashkil qiluvchi hepatotsitlar bajaradi. Jigar vazifalarining xilma-xil va murakkabligi jigar histologik tuzilishining murakkabligida o'z ifodasini topgan. Hepatotsitlar bir tomonidan qon kapillyarları bilan, ikkinchi tomonidan esa o't kapillyarları bilan bog'langan. Embrional taraqqiyot jarayonida jigar kurtagi o'n ikki barmoq ichak shilliq pardasi ventral tomoni epiteliy qavatining qorin bo'shilg'iga bo'rtib chiqishidan hosil bo'ladi. Taraqqiy qilayotgan bu kurtak ikkiga bo'linib, jigar va o't pufagi kurtaklariga aylanadi. Kranial kurtak tez o'sib embrionning eng katta organi jigarga aylanadi. Atrofdagi mezenximadan jigarning stromasi hosil bo'ladi.

Jigarning histologik tuzilishi. Jigarning kapsulasi biriktiruvchi

zich tolador to'qimadan tuzilgan va mezoteliy bilan qoplangan. Kapsuladan jigar bo'lakchalari orasida joylashuvchi interstitsial to'qima boshlanadi. Cho'chqalarda bu to'qima yaxshi taraqqiy qilgani uchun jigarning bo'lakchali tuzilishi yaxshi ifodalangan. Interstitsiya otlar, ayniqsa, yirtqichlar va kemiruvchilar jigarida kam taraqqiy qilgan.

Jigarning klassik bo'lakchasi (176-177-rasmalar) parenximaning kichik (0,5-1,7 mm) qismi bo'lib, olti qirrali prizmaga o'xshaydi. Bo'lakchaning o'rasisida **markaziy vena** joyla-shadi. Bo'lakchaning asosiy massasini **gepatotsitlardan** iborat to'sinchalar tushkil qiladi. **Gepatotsitlar** to'sinchalarlardan ikki qator bo'lib joylashadi. To'sinchalar turmoqlanishi, shunin-gdek, o'zaro tutashib anastomozlar bosil qili-shi mumkin. Ular bo'lakcha periferiyasidan markaziy venaga tomon radial ravishda joylashnidi.

Bo'lakchalar ichidagi **qon kapillyarları** to'sinchalar orasida yotadi va ular ham periferiyadan markazga tomon yo'nalib markaziy venaga quyiladi. Kapillyarlarning devori yassi endotelotsitlardan iborat. Endotelotsitlarning o'zaro tutashadigan joylarida mayda teshiklar (poralar)ga ega g'alvirsimon qismlar mavjud. Endotelotsitlar orasida yaxlit qavat hosil qilmasdan tarqoq joylashgan ko'plab **yulduzsimon makrofaglar** uchraydi. Ular monotsitlar sistemasiga kiradi va o'z vazifalarini bajarayotganda erkin (harakatchan) makrofaglarga aylanaoladi. Kapillyarlarning boshlanish va oxirgi qismlaridan boshqa joylarida bazal membrana yo'q. Kapillyarlar torgina sinusoid atrofi **bo'shilg'i** (Disse bo'shilg'i) bilan o'ralgan. Gepatotsitlarning bo'shliqqa qaragan uchi mikrotukchalar bilan qoplangan. Bo'shliq atrofida gepatotsitlar orasida peresinusoidal lipotsitlar ham joylashadi. Ular fibroblastlar singari tozali strukturalar hosil qiladi, shuningdek, yog larda cruvchi vitaminlarni to'playdi, deb hisoblanadi. Bo'shliq ichiga kapillyarlardan qon




177-rasm. Sat emizuvchi jigar bo'lakchasining tuzilishi sxemasi:

1-jigar arteriyasining tamog'i; 2-jigar venasining tamog'i; 3-o't yo'lli; 4-gepatotsitlardan iborat to'sinch; 5-jigar sinusoidining endoteliy; 6-markaziy vena; 7-venoz simas; 8-o't kapillyari (Xem bo'yicha).

plazmasining tarkibiy qismlari, patologik sharoitlarda esa qon hujayralari ham o'tadi.

Jigar to'sinchasini bosil qiluvchi gepatotsitlarning qatorlari orasida o'z devoriga ega bo'limgan, diametri 0,5-1,0 mikrom keladigan o't kapillyarlari joylashadi. O't kapillyarlari boshi berk holda to'sinchalarning markaziy uchidan boshlanib, bo'lakcha periferiyasiga yo'naladi va xolan-giolalar orqali bo'lakchalararo o't yo'llariga ochiladi. Xolangiolar devori ikki-uchta oval shakldagi hujayralardan iborat qisqa naychalardir. Gepatotsitlarning o't kapillyarlari qaragan uchlari ham mikrotukchalarga ega. (178-rasm).



178-rasm. Gepatotsit oxemasasi va uning qon va o't kapillyarlari bilan o'zaro munosabatlari:
1-izozomalar; 2-granulyar sitoplazmatik to'r; 3-sinusodning endoteliositlari; 4-eritrosit; 5-perovaskulyar bo'shlig'; 6-lipoprotein; 7-agranulyar sitoplazmatik to'r; 8-glukogen; 9-o't kapillyari; 10-mitokondriyalar; 11-plastiskali kompleks; 12-peroksisoma;

Jigar bo'lakchasing qon kapillyarlari (**sinusoidlar**) to'sinchalar orasida, o't kapillyarlari to'sinchalar ichida joylashgani uchun normal sharoitda bu ikki tur kapillyarlar orasida bevosita aloqa yo'q.

Keyingi paytlarda jigar fiziologiyasi va patalogiyasining ayrim tomonlarini morfologik asoslashga inti-lish natijasida jigarning **portal bo'lakchalari** hamda **jigar atsinuslari**, deb ata-luvchi morfo-funksional birliklar to'g'risida fikrlar paydo bo'ldi. Jigarning **portal bo'lakchasi** qo'shni joylashu-

uchi uchta klassik bo'lakchaning segmentlarini o'z ichiga oladigan uchburchak shaklidadir. Portal bo'lakchaning markazida jigar triadası, burchaklarida esa markaziy venalar joylashadi. Qon jigar arteriyasi va darvoza venasining triada tarkibiga kiruvchi tarmoqlaridan portal bo'lakcha periferiyasiga - markaziy venalarga tomon oqadi. Jigar atsinusi esa qo'shni joylashuvchi ikkita klassik bo'lakchaning segmentlarini o'z ichiga oluvchi romb shaklida bo'lib, uning o'tkir uchlarida markaziy venalar, o'tmas uchida triada joylashadi. Atsinuslarda ham gemokapillyarlar markazdan periferiyaga yo'naladi.

Gepatotsitlar yoki jigar epiteliotsitlari (178-rasm) jigarga xos funksiyalarning asosiy ko'philigini bajaruvchi 20-25 mkm kattalikdagi noto'g'ri ko'pburchak shakliga ega hujayralardir. Bir qism gepatotsitlar ikki yoki ko'p o'zakli, ayrimlari poliploid o'zakli bo'ladi. Hayvonning yoshi ulg'ayishi bilan poliploidlik ortib boradi.


Gepatotsitlarning sitoplazmasi RNK ga boyligi uchun asosli bo'yoqlar bilan ham bo'yaldi. Ularda hujayralarga xos hamma umumiy organellalar mavjud. Granulyar sitoplazmatik to'r oqsillar sintezida, arganulyar sitoplazmatik to'r carbonsuvi lar almashinuvida ishtirot qiladi. Sitoplazmada bir tekis tarqalib joylashuvchi ko'plab mitoxondriyalar, sitoplazmatik to'r kanalchali atrofida joylashuvchi va yog'lar almashinuvida qatnashuvchi peroksisomalar, plastinkali kompleks va lizosomalar gepatotsitlarning doimiy uchravchi organellalaridir. Yuqorida qayd qilganimizdek, gepatotsitlarning qon va o't kapillyarlariga qaragan yuzalari mikrotukchalarga ega. Gepatotsitlar glikogen, lipid va pigment kiritmalar saqlaydi. Glikogen sintezlanishi va qaytadan sarflanashi ovqat hazm bo'lishi bilan bog'liq. Kechasi glikogen sintezlanishi, kunduzi esa o't ajralishi ustunroq bo'ladi. Kecha-kunduz bilan bog'liq bioritmni kuzatish mumkin. Jigar bo'lakchasida o't bosil bo'lishi periferiyadan boshlanib, markazga temon tarqalishi, glikogen to'planishi bunga teskari yo'nalishda bo'lishi kuzatiladi.

Jigarda qon aylanishi. Jigar arteriyasi jigarni arterial qon bilan ta'minlaydi. Darvoza venasi qorin bo'shlig'inining toq organlaridan olib keluvchi qon ichakda so'riluvchi moddalarga boydir. Jigarga kirkach, arteriya va darvoza venasi ko'p marta tarmoqlanib, bo'laklar, segmentlar va bo'lakchalararo arteriya va venalarni hosil qiladi. Bu joylarda jigar arteriyasi va darvoza venasining tarmoqlari yonida o't yo'lining ham tarmog'i joylashgani uchun ular **jigar uchligi** (triadas) nomini oladi. Triadalar yonida limfa tomiri ham yotadi. Bo'lakchalararo arteriya va vena jigar bo'lakchalarining qirralari bo'ylab boradi. Ulardan turli batandlikda (tekistikda) bo'lakchalarini o'rabi turuvchi bo'lakchalar atrofi (**septal**) arteriya va venalar ajraladi.

Bo'lakchalararo va septal venalarning muskul pardasi kam taraqqiy qilsa-da, ularning tarmoqlanish joylarida miotsitlar to'planib sfinkterlar hosil qiladi. Tegishli arteriyalar esa muskul tipdag'i to'mirlardir.

Septal arteriyalar va venalardan boshlanuvchi kapillyarlar jigar to'sinchalari orasiga kirdi, qo'shilib ketadi va bo'lakcha ichi sinusoid-larga aylanadi (179-rasm). Sinusoidlardagi qon arteriyal va venoz qonining aralashmasidir. Sinusoidlar diametri 30 mikrometriti gacha, bazal membranasi uzuq-uzuq tomirlardir. Ular bo'lakchalarining markaziy vena-siga quyiladi. Markaziy venalar bo'lakchadan chi-qib, bo'lakchalar orasidagi to'siqlarda joylashuvchi bo'lakchalarosti venalarga quyiladi. Bo'lakchalarosti venalar triadalar tarkibiga kirmasdan alohida joylashadi. Markaziy vena va bo'lakchalarosti venalar muskulsiz venalardir. Bo'lakchalarosti venalar qo'shilib, jigar venasining tarmoqlarini hosil qildi. Jigar venasining tarmoqlarida yaxshi taraqqiy qilgan muskul sfinkterlar bor. Jigar parenximasini juda ko'p qon kapillyarlariga ega bo'lganligidan bo'lakchalarda qon juda sekin oqadi. Bu hol hepatotsitlar va qon o'tasida almashinuv jarayonlari to'liq o'tishini ta'minlaydi. Zaruriyat tug'ilganda jigarda anchagina qon depo holida o't planishi mumkin.

O't chiqaruv yo'llari. Yuqorida qayd qilganimizdek, o't kapillyarlar o'z devoriga ega emas, xolangiolalarning devori esa 2-3 ta oval shakldagi hujayralardan iborat. Bo'lakchalararo o't yo'llarining devori bir qavatli kubsimon epiteliy, yirikroq yo'llarniki esa biriktiruvchi yumschoq to'qima qavatiga ega. Jigarning va o't xaltasining o't yo'llari hamda umumiy o't yo'li ingichka naychalar bo'lib, devori uch pardaga ega. Shilliq pardasi bir qavatli baland bo'yli silindrik epiteliy bilan qoplangan yaxshi taraqqiy qilgan biriktiruvchi to'qimadan tuzilgan. Epiteliotsitlar orasida qadahsimon hujayralar ham uchraydi. Xususiy



179-rasm. Quyon jigarining in'eksiv qilingan tomirlari:

1-markaziy vena; 2-bo'lakcha ichidagi sinusodlar; 3-septal vena; 4-jigar to'sinchalari yotadigan joylar; 5-bo'lakchalararo venalar.

qavat elastik tolalarga boy bo'lib yakka-yarim shilliq bezlarga ham ega. Muskul parda spiralsimon joylashgan silliq miotsitlar va biriktiruvchi to'qimadan iborat.

O't pufagi yo'lining pufakka ochiladigan, umumiy o't yo'lining o'n ikki barmoq ichakka ochiladigan joylarida muskul parda sfinkter hosil qiladi. Adventitsiya biriktiruvchi yumshoq to'qimadan iborat. O't pufagining shilliq pardasi ko'plab burmalar hosil qiladi. Epiteliy hoshiyaga ega baland bo yli silindrik hujayralardan iborat. Xususiy qavat elastik tolalarga boy. Pufakning bo'yin oblastida naycha-alveolyar shilliq bezlar bor. Epiteliy o't tarkibidagi suvni shimish qobiliyatiga ega. Muskul parda to'r hosil qilib joylashuvchi silliq miotsitlar va biriktiruvchi to'qimadan iborat. Sirkulyar joylashuvchi miotsitlar ko'proq. Adventitsiya to'r hosil qilib joylashuvchi yo'g'on elastik tolalarga ega biriktiruvchi zinch to'qimadir. Tashqi pardaning qorin bo'shilg'iga qaragan yuzasi mezoteliy bilan qoplanadi va seroz parda hisoblanadi.

Jigarning innervatsiyasi. Nerv tolalari jigar darvozasi orqali qon tomirlari bilan birga kiradi. Ko'philik nerv tolalari interstitsiyada tarmoqlanadi, lekin anchagini qismi bo'lakchalariga ham kiradi. Sekretor nerv tolalari bo'lakchalar ichida, to'sinchalar orasida nerv terminallari hosil qiladi, ayrimlari to'sinchalarini hosil qiluvchi hujayralar orasiga ham kiradi. Sezuvchi tolalar bo'lakchalararo to'qimada, qon tomirlari devorida va bo'lakchalar ichida daraxtsimon tarmoqlangan, bir xil tolalari kapillyarlarda, boshqalari esa gepatotsitlarda tugaydigan nerv terminallari hosil qiladi. Bo'lakcha ichida nerv tolalari to'sinchalar bo'ylab yuradi. Ayniqsa, qon tomirlari afferent innervatsiyaga boy. Sezuvchi nerv tolalaridan hosil bo'lgan chatishmalarda nevrotsitlar, kapsulaga o'ralgan terminallar (m., plastinkali tanachalar) uchraydi. Qon tomirlarining nervlari simpatik tabiatga ega bo'lib, ular tomirlarning sfinkterlariga ta'sir ko'rsatadi va jiga dagi qon miqdorini reguliyatsiya qiladi. O't yo'llarining o'z nervlari bor. Bu yerda mayda gangliylar, sezuvchi kapsula bilan o'ralgan terminallar uchrab, ularga xemoretseptorlar deb qaratadi.

Jigarning yoshga qarab o'zgarishi va regeneratsiyasi. Hayvon yoshi ulg'ayishi bilan gepatotsitlarda lipofussin pigmenti o'tirib qola boshlaydi. Gepatotsitlarning o'zagi gipertrofiyaga uchrab, bo'linayotgan hujayralar keskin kamayadi. Qari hayvonlarning jigarida bo'lakchalararo biriktiruvchi to'qimaning miqdori ortadi. Jigarning regeneratsiya qobiliyati kuchli bo'lib, gepatotsitlar kattaligining ortishi va ularning proliferatsiyasi hisobiga boradi. Carbonsuv va oqsillarga boy oziqa regeneratsiyani tezlashtiradi.

NAFAS OLISH ORGANLARI SISTEMASI


Nafas olish organlari sistemasi qon va havo o'ttasida gazlar almashinishimi ta'minlaydi. Bu jarayon o'pka alveolalari - yupqa devorga ega bo'lgan pufakchalarda yuz beradi. Alveolalar qon kapillyarlari to'ri bilan o'ralgan. Nafas olish organlari ayirish va termoregulyatsiya jarayonlarida ham ishtirok qiladi. Bu sistema hidlov va ovoz organlari bilan yaqin aloqadadir.

Ontogenezda bu organlar ovqat hazm qiliш sistemasi bilan yaqin aloqada bo'ladi: burun bo'shilig'i birlamchi og'iz bo'shilig'ning burun va og'iz bo'shiqlariga bo'linishidan, hiqildaq, traxeya va o'pka - oldindi ichak (qizilo'ngach) ventral devorining ko'r o'smasidan hosil bo'ladi. Bo'yin oblastida hosil bo'lvchi ikkita nayning yuqorigisi qizilo'ngach, pastkisi esa traxeyadir. Traxeyaning oldindi, kengaygan qismi hiqildaqn, o'sishni davom ettiradigan keyingi qismi esa bronxial daraxtni hosil qiladi. Oqibat natijada bronxial daraxti alveolyar bezga o'xshash bo'lib qoladi. Keyinchalik o'pkaga qon tomirlari va mezenxima o'sib kiradi. Mezenxima o'pkaniq interstitzial to'qimasiga aylanadi.

BURUN BO'SHILIG'I


Burun bo'shilig'i dahliz, nafas olish va hidlov zonalariga bo'linadi. Dahliz burun bo'shilig'i kirish qismida, burunning tog'ay qismi ostida joylashib, uning shilliq pardasi ko'p qavatli yassi epiteliy bilan qoplangan biriktiruvchi yumshoq to'qimadir.

Shilliq parda jun tukchalari va yog' bezlariga ega. Nafas olish zonasasi (180-rasm) burun bo'shilig'ning oldin-gi-pastki qismini egal-lab, shilliq pardasi-ning och qizg'ish rangi bilan ajarilib turadi. Epiteliy ko'p qatorli tukchali-tebranuvchi prizmatik bo'lib, qadahsimon hujayralarga ega. Bazal membranada joylashgan, kam tabaqalangan bazal epiteliotsitlar tez ko'payadi va qarigan hujayralarni almashtirib turadi. Xususiy qavat asosan to'rsimon to'qimadan tuzilgan, chuoqrroq qismlarda biriktiruvchi yumshoq to'qimaga aylanadi. Bu to'qima elastik tolalarga boy, epiteliy osti limfa tugunchalariga ega. Xususiy qavat suyak va tog'ay pardalari bilan tutashib ketgan. Bu qavatda naycha-alveolyar zardob-shilliq bezlar mayjud. Oo shirmcha havo bo'shiqlari - yuqorigi jag' va peshona bo'shiqlarining shilliq pardasi ham burun bo'shilig'i nafas olish zonasasi shilliq pardasindek tuzilgan, faqat biroz yupqaroq.



180-rasm. Ot burun bo'shlig'ining shilliq pardasi (Ellenberger va Troutman be'yicha):
A-nafas olinib vo b-hidlov bo'limlari; a-epitelij; 4-xususiy qavat; s-bezlar; r-bezlarning chiqaruv yo'llari; n-arteriya; e-vena; m-serv.

Hidlov zonasasi (181-rasm). Burun bo'shlig'ining orqa-yuqori qismini egallab, shilliq pardasi sarg'ishroq yoki to'q qo'ngir rangga ega. Epitelij (182-rasm) ko'p qatorli prizmatik bo'lib, unda tuyanch va hidlov hujayralari farq qilinadi. Tayanch hujayralar tukchalarga ega emas, bo'yancha baland, o'zaklari odatda epitelijning yuzaroq qismida joylashadi. Hidlov hujayralari uzzin, tayoqchasi mon bipolyar nevrotsilardir.




181-rasm. Burun bo'shlig'ining hidlov bo'limi:

1-hidlov epithelij; 2-shilliq pardanligi xususiy qavati; 3-tuyanch hujayralari; 4-hidlov hujayralari; 5-periferik o'simishlar; 6-hidlov tagmachiisi; 7-nerv svotchali; 8-hidlov hujayralarining akredint; 9-qon tomidan; 10-shilliq bez.

182-rasm. Hidlov epiteliyt ultramikroskopik tuzilishining exemasi:


1-hidlov hujayralari; 2-taynoch hujayralar; 3-hidlov tugmachasi (antennalar); 4-kompleks hidlov amennasi; 5-markaziy o'simta (akson).



Hidlov hujayra periferik qisqa o'simta - dendrit va markaziy uzun o'simta - neyriga ega bo'lib, tayanch epitheliotsitlar orasida joylashadi. O'zak hujayraning o'rta qismida yotadi. Hidlov hujayralari periferik o'simtasining distal uchi yo'g'onlashib, hidlov tugmachasi hosil qiladi. Tugmacha 10-12 ta (itlarda 150 tagacha) harakatchan hidlov tukchalariga ega. Hidlov tukchalarining submikroskopik tuzilishi sentriola hosilalarining tuzilishini eslatadi. Yuzasida faqat mikrotukchalar bo'lgan hujayralar ham uchraydi (taxminan 10%).

Itlarda hidlov hujayralarining soni 225 min. gacha, odamda 6 min. atrofida bo'ladi. Xususiy qavat biriktiruvchi yumshoq va to'rsimon to'qimalardan iborat bo'lib, tarmoqlangan naysimon bezlarga ega. Ularning sekreti shilliq pardani ho'llab turadi, hidlov sezgisini vujudga keltiruvchi qattiq moddalarni eritadi.

Burun bo'shilig'ining vas-kulyarizatsiyasi va inner-vatsiyasi. Arteriya, vena va kapillyarlarning to'rlari mavjud bo'lib, iflos va sovuq havo burun bo'shilig'iga kirganda devori shishish (ko'pchish) qobiliyatiga ega venalar - venoz sinuslar bor. Tomirlar devorida hara-katlantiruvchi va sezivchi nerv terminallari uchraydi. Bir qism nerv tolalari beziar va ularning chiqaruv yo'llarini chirmab oluvchi terminallar hosil qiladi.



183-rasm. Hidlov analizatori:


a-tuyanch va 6-hidlov hujayralari; b-mezkazdeus tubqaridagi hujayralar va rularning markaziy o'simtlari; c-mitral hujayralar; d-hidlov yo'llerining hujayralari; e-miya po'stlog'ning piramidal hujayralari

Hiqildoq devorini shilliq, o'rta va tashqi pardalar hosil qiladi. Shilliq parda qadahsimon hujayralarga boy, ko'p qatorli silindrik-tebranuvchi epiteliy bilan qoplangan. Hiqildoq ushti tog'ayida va ovoz paylarini qoplov-

chi burmalarda esa ko'p qavatlari yassi epiteliy mavjud. Hiqildoq ustı tog'ayi epiteliyida ta'm bilish piyozhaları uchraydi. Xususiy qavat biriktiruvchi yumshoq va to'rsimon to'qima bo'lib, yog' hujayralari va epiteliyosti limfa tugunchalariga ega; shilliq pardaning ayrim joylarida naycha-alveolyar tipdagi, seroz, shilliq va aralash beziar bor. O'rta parda anatomiq shakllangan hiqildoq tog'aylari va muskullaridan iborat. Ayrim-ayrim tog'aylarni o'zaro tutashtiruvchi paylarning asosi fibroz, ovoz paylarning asosi esa elastik to'qimadir. Hiqildoq muskullari ko'ndalang-targ'il muskul to'qima. Tashqi parda fassiya holida shakllangan. Hiqildoqning shilliq pardasi nervlarga boy. Sezuvchi tolalar epiteliy ostida daraxtsimon, to'pchasimon, erkin yotuvchi ipchalar yoki kapsulaga o'ralgan retseptorlar hosil qiladi. Retseptorlar ayniqsa, hiqildoqusti tog'ayi va ovoz paylarida ko'p. Harakatlanuvchi nervlar hiqildoq muscularini, vegetativ tolalar qon tornirlarini innervatsiya qiladi.

TRAXEYA

Traxeya tog'ay skeletiga ega naysimon organdir (184-rasm).



184-RASM. Traxeya:

1-shilliq parda va 2-uning shilliqoti qavati; 3-fibroz tog'ay parda; 4-adventiziya; 5-ko'p qacorli tukchali silindrlik epiteliy; 6-qadzhaimon hujayralar; 7-shilliq pardaning xususiy qavati; 8-bezar; 9-tog'ayusti pardasi; 10-galin tog'ay; 11-muydu silliq miotsitlaming bog'lamchalar (Bronchobranchial cartilages).

Shilliq pardani qoplab turuvchi ko'p qatorli prizmatik tebranuvchi epiteliy tukchali, qadahsimon, endokrin va bazal hujayralarga ega. Tukchali epiteliotsitlarning tukchalari, burun bo'shlig'i tomonga qarab tebranadi. Xususiy qavat elastik tolalarga boy biriktiruvchi tolador to'qima. Shilliq pardasi to'rt qavatlari organlar shilliq pardasining muskul qavatiga to'g'ri keladigan joyda elastik tolalar ayniqsa ko'p va uzunasiga joylashgan. Uning ostidagi biriktiruvchi to'qima qavati tog'ay jildi bilan tutashib ketgan. Bu qavatda aralash, mushukda **seroz tipdag'i traxeal bezehalar** mavjud. Tog'ay-fibroz (tog'ay-tolador) parda biriktiruvchi tolador to'qima bo'lib, uning qavatlari orasida gialin tog'ay halqlari joylashgan. Tog'ay halqlarining uchini siliq miotsitlardan iborat traxcal muskul tutashtirib turadi. Tashqi parda adventitsiyadir. Traxeyaning innervatsiyasi hiqildaqnikiga o'xshash.


O'PKA

O'pkaning havo yo'llari - daraxtsimon tarmoqlanuvchi bronxlar va respirator bo'lim alveolalar sistemasidir. Alveolalar eng kichik bronxlarning oxirgi ko'r qismalaridir. Kichik bronx (bronxiola)lar - bo'lakcha bronxlari va ularning yanada mayda tarmoqlari - respirator bronxiolalar, alveolalar bilan birgalikda o'pka bo'lakchalarini hosil qiladi. O'pka bo'lakchalar tarkibiga qon tomirlari va kapillyarlar ham kiradi. Ushbu strukturalarni bo'lakcha ichi biriktiruvchi to'qima o'zaro tutashtirib turadi. Bo'lakchaning shakli piramidaga o'xshash bo'lib, bo'lakchalar orasida interstisial (oraliq) to'qima joylashadi. Pirumidaning o'tkir uchi o'pka ichiga qarab yo'nalgan. Bo'lakchali tuzilish cho'chqa va kavsh qaytaruvchilar o'pkasida yaxshi ifodalangan.

Bronzial daraxt. Traxeyaning bifurkatsiyasi natijasida **bosh bronxlar** hosil bo'lib, ular o'pka to'qimalari ichiga kirib boradi va yirik, o'rta va **mayda bronxlarga** tarmoqlanadi. O'pka bo'lakchasiga kirib boruvchi bo'lakcha bronxi **bronxiola** hisoblanadi. Bo'lakcha bronxi mayda bronxning davomi bo'lib, tuzilishiga ko'ra unga o'xshash. Bo'lakcha bronxi bo'lakcha ichida tarmoqlanib **terminal**, keyin **respirator (alveolyar)** **bronxiolalar** hosil qiladi. Respirator bronxiolalarning devorida onda-sonda alveolalar uchraydi. Bu bronxiolalar bir necha marta tarmoqlanib alveolyar yo'llarga ochiladi. Bunday yo'llar 2-3 ta **alveolyar xaltacha** bilan tugaydi. Alveolyar yo'llar va xaltachalarning devori o'pka alveolalaridan iborat.

Bosh bronxlar devorining tuzilishi traxeyanikiga o'xshash, lekin tog'aylar haqiqiy (uchlari tutash) halqlar hosil qilgan va ularning diametri

o'zgarmasdir. Katta bronxlarda tog'aylar to'r shaklida bo'lib, preparatlarda alohida-alohida yotuvechi plastinkalar kabi ko'rinadi. Bronxlar diametri kichiklashishi bilan shilliq pardada asta-sekin o'rta parda xarakterini oluvchi siliq muskul qavat yuzaga keladi va qalinchash boradi, tog'ay esa kamayadi.



185-rasm. Havo yo'lari shilliq pardasi epitheliotsitlari ultramikroskopik tuzilishining xemosi:

1-tukchasiiz hujayralar; 2-qadahsimon hujayralar; 3-endokrin hujayralar; 4-bazal hujayralar; 5-tukchasiiz hujayralar; 6-sekretor (Klar) hujayralar; 7-hoshiyali (mikrovosinskali) hujayralar; 8-nerv nolasi; 9-bazal membra (Yu.L Afanusev bo'yicha).

otsitlardan tashqari bronxial daraxt distal bo'limlarida sekretor, hoshiyali (cho'tkali) va tukchasiiz epitheliotsitlar ham uchraydi. (185-rasm).


Sekretor epitheliotsitlarning gumbazsimon uch qismi tukchalar va mikrotukchalarga ega emas, sekretor donachalar bilan to'lgan bo'ladi. O'zagi yumaloq, agranulyar sitoplazmatik to'r yinxshi taraqqiy qilgan. Bu hujayralar surfaktantni parchalovchi fermentlar ishlab chiqaradi.

Tukchasiiz

epitheliotsitlar bronxiolalarda uchrab prizmatik shaklga ega. Ularning uchi qo'shni tukchali hujayralardan sal ko'tarilib turadi, glikogen donachalar, mitoxondriyalar va sekretsimon donachalar saqlaydi. Funksional ahamiyati aniqmas.

Kam uchrovchi, ovoid shakldagi, apikal uchi-da kalta mikrotukchalari bo'lgan ho-shiyali hujayralarga xemoreceptorlar deb qaratadi. O'pka bo'-lakchasiiga kirayotgan bronxiolaning shilliq pardasi bir qatorli silin-drik tukchali epiteliy, terminal bronxiolalar-ning shilliq pardasi esa bir qavatl

Kichik bronxlarda tog'ay juda kam, bronxiolalar devorida tog'ay yo'q. Shilliq pardaning qoplovchi qavati avval ikki, keyin bir qatorli prizmatik epiteliyga aylanadi. Traxeya shilliq pardasini qop-lovchi epiteliyda uchrovchi tukchali, qadahsimon, endokrin va bazal epitheli-



186-rasm. O'pka atsimasi:


A-exemus 5-mikrofotografiya: 1-bieganchi respirator bronxiolalar; 2-ikkiliechi respirator bronxiolalar; 3-uchlanchi respirator bronxiolalar; 4-alveolyar yo'llar; 5-alveolyar xaluchalar.

kubik tukchali epitelyi bilan qoplangan. Epiteliyda hoshiyali (cho'tkali), sekretor va hoshiyasiz hujayralar uchraydi. Respirator bronxiolalarning kubik epiteliyida tukchali hujayralar kam uchraydi.

Bronxlar shilliq pardasi xususiy qavatining chuoq qismlarida trax-
cal bezlarga o'xshash **bronxial bezlar** joylashadi. Ular shilliq-seroz xarak-
terdagi sekret ishlab chiqarib, epitelyi yuzasiga ochiladi. Bronxial bezlar
kavsh qaytaruvchilar va yirtqichlarda yaxshi taraqqiy qilgan, bir tuyyoqlilar-
da kamroq uchraydi. Kichik bronxlar va bronxiolalar bezlarga ega emas.

Bo'lakcha bronxi, arteriya va nervlar o'pka bo'lakchasingning uchi-
dan kiradi, vena esa chiqadi. O'pka bo'lakchasi yanada maydar oq
strukturalar - **atsinuslardan** (12-158 ta) tuzilgan. Atsinus (186-rasm) o'pka
bo'lakchasingning bir terminal bronxiola havo bilan ta'minlaydigan qismidir.
Ikkala o'pkadagi atsimuslarning soni 20 mingga yaqin va ular bir-biridan
biriktiruvchi to'qima vositasida ajralib turadi.

O'pka alveolalarining soni voyaga etgan organizmlarda juda katta
(masalan, odamda 300-400 mln.) Ularning umumi yuzasi otta 500 m²,
odamda 50-100 m², mushukda 7,2 m² ni tashkil qiladi. O'pka alveolalarining
devorini gazlar almashinuviga moslashgan respirator epitelyi tashkil
qiladi. Bu epitelyi lyuqlar, kanallar yoki teshikchalarga ega bo'lmadan,
gazlar almashinishi osmos yo'li bilan boradi.



187-rasm. Kalamush o'pka alveolasingning rastloviuchi
electron mikroskopda ko'rinishi, 3500 marta kat.
1-2 tip mikrovosinkali alveolasingning anikal yuzasi; 2-
surfaktantning agrishisi; 3-hujayralarning chegaralar; 4-
genokagillysler; 5-alveolalar o'stasiagi pora
(L.K.Romanova bo'yicha).

Alveolalar devorida bir necha xildagi hujayralarni
farq qilish mumkin. (187-rasm). Shulardan birinchi
xili **respirator alveo-lotsitlar** bo'lib, ularning
apikal uchida kalta mikrotukchalar bor. Organellalari
yaxshi taraqqiy qilmagan, pino-tsitoz pufakchalar
uchraydi, o'zagi oval yoki yumaloq shakida bo'lib, 1-2
ta o'zakchaga ega. Ikkinci
xil **hujayralar** ko'plab mito-
xontriylar, yaxshi
rivojlangan plastinkali kompleks va ko'plab osmofil
kritmalarga ega bo'lib, o'ta


tabaqalangan hujayralardir. Bular surfaktant nomini olgan lipoproteid tabiatli modda ishlab chiqaradi. Surfaktant nafas chiqarilganda alveolalar devorining yopishib qolmasligini ta'minlaydi va alveolotsitlardan havo o'tishi uchun qulay sharoit yaratadi. Uchinchi xil alveolotsitlar apikal uchida mikrotukchalari bo'lgan neyroepitelial hujayralardir. Ular ancha kam uchraydi, serotonin va boshqa fiziologik faol moddalar ishlab chiqaradi.

Alveolyar

epiteliy ostida **bazal membrana** va **elastik tolalar to'ri** mavjud. Qon kapillyarlarining to'ri epiteliyning bazal membranasiga zinch yopishib turadi. Aerogematik baryer (havo-qon to'sig'i) kislorod alveola ichidagi havodan qonga, qondagi karbonat angidrid esa alveola ichiga o'tishi yo'lidagi to'siqdir. U morfoloqik jihatdan respirator epiteliy, kapillyarlar devoridagi **endoteliy** va ularning bazal membranalaridir.

Eng yupqa joyda - alveolotsitlar va endotelotsitlarning

o'zaklari joylashmagan joyda - bu to'siqning qalinligi 0,5 mkm atrofida bo'ladi. Alveolalar devorining tushqi qismida, alveolyar epiteliotsitlardan farq qiluvchi septal hujayralar joylashadi. ularning kichik limfotsitlarga, fibroblastlarga va plazmotsitlarga o'xshash xillari farq qilinadi. O'pka alveolalari devorida, ba'zan ular bo'shilig'ida makrofaglarni uchratish mumkin. Makrofaglar mononuklear fagotsitlar sistemasiga kirib,



188-sasm. O'pka alvenasi va gemokapillyarlarning devori (sxema):
1-alveola ichi; 2-alveolyar epiteliotsit; 3-gemokapillyar uming endotelotsiti; 4-kapillyar ichi; 5-bazal membrana; 6-eritrosit.

sitoplazmasida tutib olingen yet zarrachalar, lipoid tomchilar va vakuolalar bor. Ular alveolalar orasidagi biriktiruvchi to'qimadan alveola ichiga kiradi.

O'pkaning vaskulya-rizatsiyasi. O'pka to'qimasi bronxial arteriya orqali oziqlanadi. Gaz-lar almashinishini esa o'pka arteriyasi sistemasi amalga oshiradi. Ikkala sistema o'rtaida anastomozlar mavjud. O'pka tomirlarga juda boy organ bo'lib, bu uning gaz almashinish vazifasi bilan bog'liq. O'pka arteriyasining tarmoqlari bronxial daraxt bo'yab alveola-lar asosigacha borib yetadi va kapillyarlar to'rini hosil qiladi. Alveolalarni o'rabi tu-ruvchi kapillyarlar alveolalar devori bilan juda yaqin aloqada bo'ladi (188-rasm). Kapillyarlar yig'ilib venalarni hosil qiladi. O'pkaning limfatik sistemasi limfa kapil-lyarlari va to'mirlarining yuza va chuqur joylashgan to'rlaridan iborat. Yuza to'r visseral plevrada joylashadi. Chuqur to'r o'pka bo'lakchalarichida, bo'lakchalararo to'siqlarda, qon tomirlari va bronxlar atrofida joylashadi.

O'pkani simpatik va parasimpatik nervlar innervatsiya qiladi. Harakatlantiruvchi nerv tolalari tomirlar va bronxlarni innervatsiya qiladi. Simpatik tolalalar qon tomirlari muskulaturasini qisqartiradi, parasimpatik tolalalar bo'shashadir, bronxlarda esa bu nervlarning ta'siri aksincha bo'ladi. Sezuvchi nerv tolalari o'pka to'qimasi va qon tomirlari bilan bog'liq. Butasimon, halqalar shaklidagi va boshqa retseptorlar bo'ladi.

O'pka tug'ilishdan keyin gazlar almashinishing boshlanishi natijasida va organizmning o'sishi bilan bog'liq holda katta o'zgarishlarga uchraydi, uning nafas olish yuzasi oshadi, stromasida elastik tolalar ko'payadi. Yosh ulg'ayishi bilan esa respirator yuza kichrayadi, biriktiruvchi to'qima miqdori ortadi, bronxlarda tuzlar o'tirib qolib, gaz almashinish vazifasi susayadi. Shilliq pardadagi kambial elementlar hisobiga fiziologik regeneratsiya amalga oshadi. Organning biror qismi xirurgik yo'l bilan olib tashlansa bu qism tiklanmaydi.

PLEVRA

Plevra ko'krak bo'shilg'ini qoplab turuvchi parda bo'lib o'z tuzilishiga ko'ra ko'p jihatdan qorin bo'shilg'i pardasi va perikardga o'xshash. Boshqa zardob pardalar kabi plevra asosini biriktiruvchi tolador to'qima tashkil qilib, mezoteliy bilan qoplangan. Uning biriktiruvchi to'qima qismi besh qavat: basal membrana, yuza kollagen-tolador qavat,

yuza elastik-diffuz qavat, chuqur joylashgan bo'ylama elastik to'r qavat va chuqur joylashgan panjara simon kollagen-elastik qavatlarga ega. Visseral plevrانing elastik totalari o'pka to'qimasining elastik totalari bilan yagona sistema hosil qiladi. Qobirg'a plevrasida elastik elementlar kamroq. Mezoteliy plevrانing ishqalanishini engillashtiruvchi o'ziga xos suyuqlik ishlab chiqaradi.

QUSHLAR O'PKASI

Qushlar o'pkasi plevra bilan qoplanmasdan ko'krak qafasi bilan qo'shib o'sib ketgan. Havo yo'llarining oxiri ko'r emas, balki anastomozlar to'rini hosil qiluvchi havo kapillyarları bilan tamom bo'ladi. Bosh bronxlar birinchi tartibili, ular esa ikkinchi tartibili bronxlarga tar moqlanadi. Ikkinchi tartibili bronxlarning



189-rasm. Qushlar o'pkasi histologik tuzilishining xramasi:


1-parabronx; 2-havo o'iazuvchi kapillyarlar; 3-genokapillyarlar; 4-aerofagi o'pka so'qimasini bilan o'ralgan parabronx (parabronxial segment).

tegib yotadi va qo'shib o'sib ketadi. Ularning bo'shligi respirator epiteliy, endoteliy va ular uchun umurniy bo'lgan basal membrana bilan ajralib turadi (**aero-gematik to'siq**).

Har bir o'pkadan bosh bronxning davomi hamda yana uchta bronx chiqib kengayadi va havo xaltalari hosil qiladi. (190-rasm). O'pkadan tashqariga chiquvchi bronxlar ektobronxlar deyiladi. Havo xaltalari

tarmoqlari **parabronxlar** deyilib, diametri 100-150 mkm ga teng. Parabronxlar va ularning **havo kapillyarları** o'pka bo'lak-chasini hosil qiladi (189-rasm). Uchuvchi qushlarda qo'shni bo'lakchalarining kapillyarları anastomoz hosil qiladi, yuguruvchi qushlarda bunday anasto-mozlar yo'q. Parabronxlar bir qavatlari yassi epiteliy bilan, ularga nisbatan radial joylashuvchi havo kapillyarlarining devori respirator epiteliy bilan qoplangan. Qon va havo kapillyarları bir-biriga zinch

bronxlarning kengaygan, ko'r holda tamom bo'ladigan tarmoqlaridir. Ularning devori nisbatan yupqa, silliq muskul va elastik tolalarga ega. Xalta ichki yuzasi prizmatik epiteliy, tashqarisi seroz parda (adventitsiya) bilan qoplangan. Havo xaltalarining tarmoqlari suyaklarga kirib borib, ular ichida havo bo'lishini ta'minlaydi.



190-rasm. Qushlar havo yo'llarida havosining
harakatlanish sxemasi (Kolb bo'yicha):

1-sidomchi bronx; 2-knosal va 3-kaudal ko'krak
havo xaltalari; 4-kaudal havo xaltasining o'rta
bronxga o'sish joyi; 5-qorm havo xaltasi; 6-
ikkilamchi bronxtar va parabronxtar.


TERI VA UNING HOSILALARI

Teri organizmni tashqi muhitning mexanik, termik va boshqa omillaridan himoya qilish, issiqqliq ulmashishini boshqarish (termoregulyatsiya), nafas olish, ayirish va vitaminlar (vitamin D) almashinishida ishtirok qilish kabi xilma-xil vazifalarni bajaradi. Shikastlanmagan teri ko'pchilik kimyoviy moddalar va mikroorganizmlarni organizmning ichki muhitiga o'tkazmaydi. Shuningdek, teri sezgi organlaridan biri bo'lib, organizmni tashqi muhit bilan bog'lovchi vosita hisoblanadi. Shox, timoq, tuyeoq, junnar, yog', ter va sut bezlari terining hosilalariidir.

Terining gistogenezi. Teri ustini qoplab turuvchi ko'p qatlamlı yassi, keratinizatsiyaga uchrovchi, epiteliy - epidermis ektodermadan, birkirituvchi to'qimadan iborat xususiy teri (derma) dermatomlardan yuzaga keladigan mezenximadan taraqqiy qiladi. Teri osti qavati tipik biriktiruvchi yumshoq to'qima bo'lib, u ham mezenximadan taraqqiy qiladi, ayrim joylarda juda ko'p miqdordagi lipositlarga ega. Epidermis avval bir qavatlari bo'lib, keyin taraqqiyot natijasida qavatlarining soni ortadi.

TERINING GISTOLOGIK TUZILISHI

Epidermis (191-192-rasmlar) terining himoya vazifasini amalga oshiradi. U tananing turli joylarida turlicha qalinlikka ega. Epidermisda qon tomirlari bo'lmasdandan, uning oziqlantishi va kislород bilan ta'minlanishida derma so'rg' ichli qavatining ahamiyati katta. Epidermis bazal qavatini egal-lagan prizmatik hujayralar mitoz yo'li bilan teri yuzasiga parallel chiziq bo'yab bo'linadi. Hosil bo'lgan hujayralardan biri bazal qavatda qoladi, ikkinchisi uning ustida joylashadi. Naybatdagi bo'linishida avval hosil bo'lgan hujayra yuzaroq qavatga siljiydi va asta-sekinlik bilan epidermis yuzasiga tormon siljiyturib ko'p burchak shaklini oladi, keyinchalik ularda donachasimon kirit-malar paydo bo'ladi. Sitoplazmada degenerativ o'zgarishlar yuz berib, o'lgan hujayralar shox tangachalariga aylanadi va tushib ketadi. Bu jarayon epidermisning turli joylarida bir xil intensivlikda borgani uchun aynan bir bosqichda bo'lgan hujayralar qavatlarni hosil qiladi. Tananing junsiz va epidermis anchagina qalinishida bo'lgan qismlarida besh qavat: **bazal, tikanli hujayralar qavati, donador, yaltiroq va shox qavatlar** mayjud. Bazal va tikanli hujayralar qavatlarni *yetishtiruvchi qavat deb ham ataydilar*.



191-rasm. Terialing histologik tuzilishi:
 1-epidermis; 2-dermis; 3-densa; 4-gigoderma (teri
 osti qavati); 5-jun o'qi; 6-jun folliculining
 chiqaruchsasi; 7-jun ildiz; 8-ter bezimng chiqaruv
 yo'li; 9-yog' bezi; 10-jun muskul; 11-jun follicul
 li; 12-ter bezi; 13-jun piyozchasi; 14-jun
 so'rg'ichi; 15-teri osti venasi; 16-teri osti yog
 uq qavasi.


Bazal qayat bevosita basal membrana ustiga joylashib basal epidermotsitlar, melanoblast va melanotsitlar, shuningdek epidermis ichidagi makrofaglardan iborat. Epidermis va uning ostidagi derma o'rtafigi chegara tekis emas va bu ularning o'zaro tegib turadigan yuzasini kengaytiradi. Basal epidermotsitlar (193-rasm) silindrshimon yoki oval shaklda bo'lib, sitoplazmasi bazofil, o'zagi yumaloq va xromatinga boy. Bularda hujayralarga xos barcha organellalar bilan bir qatorda **tonofilamentlar**, ayrimlarida **melanin** pigmenti uchraydi.



192-rasm. Junsiz terining epidermisini tuzilish xismasi:

1-shox qavat; 2-yulitiroq qavat; 3-donador qavat; 4-okanli hijayralar qavatlari; 5-hazal qavat; 6-biriktiruvchi to'qimak; 7-ter bessing chiqaruv yoki.

Bazal epidermotisitlar bir-birlari va yuqoridaq qavat hijayralari bilan desmosomalar yordamida, basal membrana esa yarim desmosomalar vositasida birikadi. Basal qavat hijayralari orasida **stvol hijayralar** ham mavjud bo'lib, ular epidermisning fitiologik regeneratsiyusini ta'minlaydi.



193-rasm. Epidermis zirrim qavaflarinin ultrastruktur tuzilish xismasi:

1-bazal; 2-okanli; 3-donador; 4-yulitiroq va shox qavatlari; 5-biriktiruvchi to'qimak; 7-keratotit; 8-melantot; 9-desmosoma; 10-yarim desmosoma; 11-hazal membrana; 12-mitokondriyalar; 13-plastiskali kompleks; 14-erkin ribosomalar; 15-granulyar sioplazmatik to'r; 16-tonofibellalar; 17-pinotsinuz pufikchalar; 18-melanin granulalari; 19-o'zak; 21-22-keratogalin granulalari (Zavarzin bo'yicha).

Melanotsitlar kumush bilan impregnatsiya qilingan preparatiarda tarmoqlanuvchi uzun o'simtalarga ega va erkin yotadi. Sitoplazmasida ko'p miqdorda melanin donachalar bor, lekin organellalari kam taraqqiy qilgan, tonofilamentlar yo'q.

Epidermis ichidagi makrofaglar ham atrofdagi hujayralar bilan desmosomalar hosil qilmasdan erkin yotadi, o'simtalari borligi uchun dendrositlar, deb ham ataladi. Sitoplazmasida ko'plab argentaffin donachalar mavjud. Dendrositlar dermadan migratsiya yo'li bilan epidermisning bazal va tikanli hujayralar qavatlariga o'tgan. Ular epidermisga kiruvchi limfotsitlar bilan birga immunologik nazoratning mahalliy sistemasini tashkil qiladi. Tikanli hujayralar qavati bir necha qavat yirik poligonal hujayralardan iborat. Hujayralar orasida sitoplazmatik "ko'prichalar", ularning tutashadigan joylarida desmosomalar joylashadi. Desmosomalarga tonofilamentlarning tutamchalari - tonofibrillalar kelib tutashadi.

Donador qavat keratogialin donachalariga ega ikki-to'rt qavat hujayralarni o'z ichiga oladi. Hujayralarning sitoplazmasida ribosomalar, mitokondriyalar, lizosomalar, fragmentatsiyaga uchrangan tonofibrillalar hamda ularning yonida yetuvchi yirik keratogialin donachalari mavjud (193-rasm). Keratogialin ishqoriy bo'yqolar bilan yaxshi bo'yaladi. Donador qavat hujayralarning sitoplazmasi va o'zagida degenerativ o'zgarishlar paydo bo'ladi. Yaltiroq qavat yorug'lik mikroskopida gomogen bo'lib ko'rindi va oksifilli bilan ajralib turadi. Keratogialin eleidinga aylangan. Elektron mikroskop bu qavat ikki-to'rt qavat yassi, organellalari va o'zaklari emirligan, ko'plab keratin fibrillalari saqlovchi hujayralardan iboratligini ko'rsatadi. Shox qavat shox tangachalaridan iborat. Bu yerda haqiqiy shox modda - keratin mavjud. Tangachalar hujayralarning to'liq degeneratsiyaga uchrashidan hosil bo'lib, ular orasida havo pufakchalari bor.

Terining jun bilan qoplangan qismlarida epidermis yupqaroq bo'lib, keratinizatsiya jarayoni soddalashadi - epidermida ikki qavat: yetishtiruvchi va shox qavatlar farqlanadi. Qoramollar terisida deyarli hamma vaqt to'rt qavat mavjud.

Qushlarda epidermis himoya qiluvchi burmachalar ("qalqoncha"lar) hosil qiladi. Bu yerda shoxlanish keratogialin hosil bo'lmasdan amalga oshadi. Teri pigmenti dermaning yulduzsimon hujayralarida hosil bo'lib, ikkilamchi yo'l bilan epidermisga o'tadi. Qushlar terisining qizil rangi qon tomizlari ko'pligi va maxsus pigment tetraeritrin mavjudligiga bog'liq.

Xususiy teri (derma) terining biriktiruvchi to'qimadan iborat asosi bo'lib, epidermis ostiga joylashadi va ikki qavat: so'rg'ichli va to'rsimon

qavatlarga ega. Bu ikkala qavat keskin ifodalangan chegarasiz bir-biri bilan tutashib ketgan. To'rsimon qavat o'z navbatida teri osti qavatiga o'tadi.

So'rg'ichli qavat demanining "so'rg'ichlari" bilan birga epidermis ostida joylashadi. Ko'p miqdorda hujayra elementlari (fibrotsitlar, gistositlar, leykotsitlar, melanodesnoblastlar) hamda kollagen va elastik tolalar bog'lamchalariga ega tolador to'qimadan tuzilgan bu qavat qon tomirlari, kapillyarları, nerv elementlariga boy. Epidermis va so'rg'ichli qavatning orasida joylashgan basal membrana glikozaminoglikanlarga boy.

To'rsimon qavat anchagini yo'g'onlikka ega, taribisiz ravishda chatishib ketgan bog'lamchalar hosil qiluvchi kollagen va elastik tolalardan tuzilgan, hujayralari kam, shakllanmagan biriktiruvchi to'qimadir.

Teriosti qavati tipik biriktiruvchi yumshoq to'qima bo'lib, lipotsitlarga boy. Tananining ayrim joylarida lipotsitlar juda ham ko'p va u yog' to'qima deyiladi.

Terida yog' va ter bezlari mavjud. **Yog'** bezlari oddiy (ot va itlarda turmoqlangan) naycha-alveolyar bezlar bo'lib, doimo junlar bilan yonma-yon joylashadi va o'zlurining qisqa chiqaruv yo'llari bilan jun qiniga ochiladi. Sekretor bo'limining chet qismida mitotik bo'linuvchi hujayralar joylashib, qarigan hujayralar bez ichiga qarab siljiydi, degeneratsiyaga uchrab asta-sekin yog' tomchilariga aylanadi. Demak yog' bezi golokrin bezdir. **Yog'** bezlari sigir emchagi terisida, burun-lab yaltirog'i (ko'zgusi) terisida, yumshoq tovon, shox va timoqlarda uchramaydi.

Ter bezlari (194-rasm) oddiy naychasimon bezlar, uzun, bir uchi ko'r naychalar holida bo'lib, otda kalavachasimon egilgan, mushuk, it, cho'chqa va kavsh qaytaruvchilarda kamroq egilib-bukiluvchi bezlardir. Ularning devori kubsimon epiteliyidan iborat va mioepiteliotsitlar bilan o'rulgan. Bezlarning sekretor qismi asta-sekin chiqaruv yo'llariga aylanadi. Bu yo'llarda ikki yoki uch qatorli epiteliy mavjud. Chiqaruv yo'llari yog' bezlarining chiqaruv yo'llaridan yuqoriroqda jun qiniga, ayrim hollarda epidermis yuzasiga ochiladi. Sekretsiya tipiga ko'ra merokrin va apokrin ter bezlari mavjud. Merokrin bezlar hujayralarining sitoplazmasida glikogen, yog' va siyidik kislota tuzlarining kiritmalari bo'ladi. Ularning sekreti - ter 98-99% suv va juda kam miqdorda organik moddalarga ega bo'lib hidsizdir. Bunday bezlar junsiz terida


bo'ladi va suv almashunishi hamda termoregulyatsiya uchun katta ahamiyatga ega. Apokrin bezlarning bo'shilg'i keng, doimo jun ildizi bilan bog'liq holda joylashadi, sekreti sitoplazma zarracha-arini saqlaydi, konsentratsiyasi yuqori va hidli bo'ladi.

Turli hayvonlar terisi-ing ma'lum joylarida o'ziga xos bezlar

uchraydi. Qora-o'llar burun-lab yaltirog'ining zardob bezlari, cho'chqa tumshuqhasining ter bezlariga o'xshash bezlari, o'tlar tuyog'ining strelna va echkilarning shox bezlari, qo'yilar tuyoqlararo xaltachasining yog' va ter hamda chot terisining nay-imon sariq-qo'ng'ir va tarmoqlangan yog' bezlari shular jumlasidandir.

Qushlarning terisi ekskretor vazifa bajarmaydi, ularda faqat dumning ustki tomonida joylashuvchi **qopchiq bezlari** mavjud bo'lib, suvda suzuvchi qushlarda yaxshi taraqqiy qilgan va patlamni ho'l bo'lishidan saqlovchi maxsus sekret ishlab chiqaradi.

Terining vaskulyarizatsiyasi va innervatsiyasi. Qon tomirlari fassiyalar ostida joylashuvchi arterial to'r dan teriga o'tadi va to'rsimon qavatning chuqur qismlarida terining arterial to'rimi hosil qiladi. Bu to'riming tarmoqlari ter bezlari va yuzaroqda joylashgan qavatlarni qon bilan ta'minlaydi. So'rg'ichli qavat so'rg'ichlari ostida ikkinchi arterial to'r bo'lib, u so'rg'ichlar va yog' bezlurini qon bilan ta'minlaydi. Har bir so'rg'ich kapillyarlar sistemasini hosil qiluvchi o'z arteriolasiga ega. Terining turli qavatlarda bir necha venoz to'r mavjud.



194-rasm. Jun tuzllishining sxemasi:

- 1-jun xalasi;
- 2-po'stloq va mag'iz moddalar;
- 3-kutikula;
- 4-tashqi epithelial qim;
- 5-ichki epithelial qinevning ikki qavati;
- 6-jun so'rg'ichi;
- 7-jun chaquchasi;
- 8-jun so'rg'ichi;
- 9-jun chaquchasi;
- 10-yng' hexa;
- 11-junni ko'taruvchi muskel;
- 12-epidermising o'suvchi va shox qavatlari.

Teri sezgi organi bo'lgani uchun nerv elementlariga boy va nervlar terining turli qavatlari keng halqali chatishmalar hosil qiladi. Eng zich nerv chatishmasi so'rg'ichli qavatdadir. Ayrim nerv tolalari epidermisga kirib boradi va uning shoxlangan qavatiga yaqinlashavergach fiziologik degenaratsiyaga uchraydi. Terida daraxtsimon turmoqlanuvchi retseptorlar, plastinkali tanachalar, sezuvchi menisklar, sezuvchi tanachalar, qushlar terisida Gerbst tanachalari uchraydi.

Taktil sezgi analizatori. Teridagi sezuvchi nerv terminallari spinal gangliylar nevrotsitlari yoki bosh miya nervlari sezuvchi gangliylari nevrotsitlariga (1-nevrotsit) taalluqlidir. Bularning markaziy o'simtalari (neyritlar) miyaga yo'naladi. Ta'sirot orqa miyaning bog'lamchali va harakat nevrotsitlariga yoki dorsal hamda ventral orqa miya-miyacha bog'lamchalari orqali miyachaga yo'naladi. Ingichka yoki ponasimon bog'lam orqali ta'sirot uzunchoq miyaga, ushbu bog'lamchalarining yadrolaridagi nevrotsitlar (2-nevrotsit)ga uzatiladi. Keyin ta'sirot ko'rish tepachalariga o'tkaziladi. Bu yerda analizatorning 3-nevrotsitlari joylashadi. Bu nevrotsitlarning neyritlari miya po'stiog' ining tegishli zonalarida tamom bo'ladi.

TERI HOSILALARI


Junlar epidermisning teri ichiga o'sib kirishidan rivojlanadigan hosilasidir. Junning teridan chiqib turgan qismi - o'qi va teri ichida joylashgan qismi ildizi farq qilinadi (194-rasm).

Junlarning taraqqiyoti epidermisning dermaga o'sib kirishidan boshlanadi. Bu o'smalar avval epidermisning qalinlashgan qismi shaklida bo'lib, keyinroq biriktiruvchi to'qimaga chuqr botib kiradi va uchi yo'g'onlashib, bo'lajak jun piyozchasini hosil qiladi. Bo'lajak jun piyozchasiqa qon kapillyarlariga boy biriktiruvchi to'qima - jun so'rg'ichi o'sib kiradi. Jun kurtagining o'rta qismidan yog' bezlari o'sib chiqadi va taraqqiy qiladi. Shu joydag'i mezenximada janni ko'taruvchi muskul hosil bo'ladi. Jun kurtagida, asosan jun piyozchasida murakkab keratinazasiya jarayonlari yuz beradi. Keratin to planayotgan hujayralar shox tangachalariga aylanib janni shakllantiradi.

Jun o'qi uch qavat: mag'iz, po'stiq qavatlari va kutikuladan iborat. Mag'iz qavat muguzlanib ulgurmagan, o'zak qoldiqlari va pigmentli junda pigment donachalariga ega hujayralardan iborat.

Hujayralar orasida hayo bilan to'lgan bo'shiqliqlar bor. Ingichka junlarda bu qavat bo'imasligi mumkin. Po'stiq qavat junning asosiy massasini tashkil

qiladi. U duksimon, shoxlanayotgan, bir-biri bilan mustahkam birikkan hujayralar va pigmentdan tuzilgan. Hujayralarda o'zak qoldiqlari, junga mustahkamlik beruvchi tonofibrillalar uchraydi. Kutikula o'zaksiz va pigmentsiz shox tangachalaridan iborat.



195-rasm. Ot tuyog'i devorining ko'ndalang kesimi (Teixer bo'yicha):

A - nyoqning devori va B - nyoq devorining demasi; C - nyoq suyagi; D - yaltiroq qavat; E - himoya qavati; F - shox maycha; G - yaproqsimon qavat; H - ikkilamchi yaproqchalarga ega biriamchi yaproqcha; I - demansing yaproqchalari; J - tomirsi va K - periodontal qavatlar.

ralar mavjud. Eng tashqi, tashqi ildiz qini bilan chegaradosh, bir qator yassi epitelial hujayralar qavati. Bu qavat hujayralarining o'simtalarini navbatdagidə donador qavat hujayralari orasidagi yoriqchalarga o'z o'simtalarini yuboradi; nurni kuchli sindiradi va kuchli oksifil (atsidofil) bo'yaladi. Ularda

Jun ildizi teri ichida joylashadi. Ildizning yo'g'onlashgan uch qismi jun piyoqchasi nomini olib, unga qon tomiri va nervga ega bo'lgan, biriktiruvchi to'qimadan iborat jun so'rgichi o'sib kiradi. Jun ildizining hosil bo'lishida ishtirok qiluvchi epidermis ildiz qini, qinni o'rovchi biriktiruvchi to'qima ildiz xaltachasi deyiladi. Ildiz qini epidermisning bazal membranasini bo'lgan shishasimon purda bilan ildiz xaltachasidan ajralib turadi.

Tashqi va ichki ildiz qinlari farq qilinadi. Tashqi ildiz qini epidermisning davomi bo'lib, unga yog' bezlari ochiladigan joydan yuqorida bazal (prizmatik hujayralar), tikanli hujayralar va shox qavatlari kira-di. Jun piyoqchasiiga tomon shox qavatning yo'qolishidan u yupqalashadi. Ildiz piyoqchasi yaqinida bir qator hujayralardan iborat bo'lib qoladi. Ichki ildiz qini yog' bezlarining chiqaruv yo'llari ochiladigan joydan chuqurroqda, tashqi ildiz qinidan markazroqda joylashadi. Unda bir necha qavat pigmentli hujay-

keratining oraliq mahsuloti trixogialin donachalari bo'ldi. Jun ildizi bilan ichki ildiz qini o'rtaisdagi qin kutikulasini jun kutikulasining davomidir.

Junni ko'taruvchi muskul jun bilan epidermis o'rtaisdagi o'tkir burchak hosil bo'lgan tomonda joylashadi. Bu muskul va jun ildizi orasida yog' bezlari joylashadi.

Jun o'qining egilib-bukilgan bo'lishi jun xaltachasining egilib-bukilganligi bilan bog'liq va jun sifatining yaxshilagini ko'rsatadi. Dag'al junli qo'ylerda bir ildiz xaltachasidan bitta, mayin junli qo'ylerda esa - bir necha ingichka jun tolasi chiqadi.

Sezuvchi (sinuoz) junlar yo'g'on, uzun va qayishqoq bo'lib, ildiz xaltasi qavalalarining orasida qon bilan to'lgan bo'shilq (sinuslar) bor. Bunday junlar lablar, qovoqlar va burun teshiklari atrofida joylashadi.

Tullah (junlarning almashinishi) doimiy - permanent va mavsumiy bo'ldi. Yiliga ikki marta yuz beradigan mavsumiy tullah yovvoyi hayvonlarga xosdir. Uy hayvonlarida permanent tullah kuzatiladi. Jun almashinishi jun so'rg'ichida qon aylanishi to'xtashi va jun ildizida hujayralarning regeneratsiyasidan boshlanadi. Yangidan hosil bo'layotgan jun pyoyzchasi va so'rg'ichi xuddi embrional davrdagidek tarsoqqiy qiladi.

Tuyoqlar. "Tuyoq" anatomik tushunchasi uchinchi barmoq (falanga) mintaqasida joylashgan teri hosilalarini o'z ichiga oladi (195-rasm). Shakli o'zgargan teri bu erda ham epidermis va dermadan iborat. Epidermis kuchli rivojlangan shox qavat bilan xarakterlanadi. U uchinchi barmoq (falangani) qoplovchi shox kapsula - tuyoq kapsulasini bosil qiladi. Shox moddasi tuyoqning turli qismlarida o'ziga xos tuzilgan va ma'lum fizik xossalarga ega strukturadir. Dermaning shakli rivojlanayotgan shox moddaga ta'sir ko'rsatadi, chunki u bevosita derma bilan aloqador bo'lgan epidermasdan hosil bo'ldi. Tuyoq kapsulasida shoxning ikki tipdag'i: naychasimon va yaproqsimon tuzilgan xillari mavjud. Naychasimon tuzilishli shox - dermaning so'rg'ichlari yuzasida hosil bo'ldi. Tuyoq kapsulasining tovoni (kafti), o'qchaning shox qismi va tuyoq shox devorining o'rta qavati naychasimon tuzilishli, tuyoq shox devorining ichki qavati esa yaproqsimon tuzilishli shoxdir. Tuyoq kapsulasining to'qimasi epidermising shox qavatiga to'g'ri keladi. Tuyoq kapsulasi ajratib olinganda bazal qavat tuyoqning dermasi ustida qoladi.


Tuyoqning derma qavati (196-rasm) qon tomirlariga boy biriktiruvchi to'qimadan shakl-langan. Teri dermasidagi nisbatan ancha ko'p bo'lgan qon tomirlari tuyoqning haddan tashqari qalin epidermisini oziqlantirish uchun xizmat qiladi. Shoxning tuzilishiga ko'ra tuyoq shox devorini uch qavatiga bo'lish mumkin. Tashqi qavat - yaltiroq qavat (glazur) kam shoxlangan yassi hujayralardan iborat bo'lib, yupqa yuza qavatni hosil qiladi.

ladi. U tuyeq jiyagining epidermisidan rivojlanadi, ya'ni shox jiyak tuyeq shox devorining ustiga tomon o'sib yaltiroq qavatga aylanadi. O'rtangi himoya qavat eng mustahkam va qalin qavat bo'lib tuyeq aylanasi (toji)ni qoplovchi epidermisidan hosil bo'ladi. Bu qavat yuqorida pastga qarab o'sadi. Tuyoq aylanasi (toji)da dermaning yuzasi tekis bo'lmasdan so'rg'ichlarga ega, uni qoplovchi epidermis ham shoxlanish jarayonida shox ustunchalariga aylanadi. Ustunchalarning markazida siyrak joylashgan shox tangachalaridan iborat mag'iz qismi yuzaga keladi. Naycha devorini so'rg'ichlarning yon yuzasida hosil bo'lib, bir-biriga zinch tegib yetuvchi shox tangachalari hosil qiladi.

Tangachalarning spiralsimon joylashishi va ulardag'i tonofibrillalar naychalarga alohida mustahkamlik bag'ishlaydi. Naychalar orasida so'rg'ichlar oralig'idagi epidermisidan hosil bo'luchchi oraliq shox joylashadi. Shox naychalari tuyeq devori yuzasiga parallel ravishda, tuyeq aylanisidan tuyeq uchiga tomon yo'nalib joylashadi. Tuyoq shox devorining eng ichki, yaproqsimon, qavatini tuyeq dermasini qoplovchi epidermis hosil qiladi. Bu qavatning zinchligi kamroq bo'lib, pigmentsizdir. Tuyoq devori dermasi yuqorida pastga qarab joylashuvchi, yaproqchaldan iborat bo'lgani uchun, unda joylashuvchi epidermis ham yaproqchaisimon shox etishtiradi. Tuyoqni kesib tozalayotganda tovon tomonda pigmentsiz yaproqsimon qavat tuyeq devori va tovoni chegaralovchi oq chiziq bo'lib ko'rindi.

Tuyoq devori dermasining tashqi qavati yaproqchali qavat deyiladi. U elastik tolalarga boy biriktiruvchi zinch to'qima. Uning yaproqchalar ikkilamchi yaproqchalar hosil qiladi. Bu qavat ostida biriktiruvchi zinch to'qimadan iborat qon tonirli qavat joylashib, u dermaning to'rsimon qavatiga to'g'ri keladi. Eng ichki qavat hujayralari kam va tog'ay orolchalariga ega biriktiruvchi zinch to'qima bo'lib, tuyeqsimon suyakning pardasini hosil qiladi. Jiyak dermasida ingichka, 1-2 mm uzunligidagi, siyrak joylashuvchi so'rg'ichlar bor. Bu yerda suyak pardasi o'mida uncha qalin bo'limgan teri osti qavati mavjud. Tuyoq aylanasi (toji) pastga qarab yo'nalgan, 0,5 sm gacha uzunlikka ega, zinch joylashgan so'rg'ichlar bilan xarakterlanadi. Teri osti qavati yaxshi rivojlangan.

Tuyoq tovoni va o'qcha tuyeq shox devoridagi nisbatan yum-



196-rasm. Omul kapsulasiz tuyog':
jiyak (a), tuyeq toji (b) va tuyeq devorining
dermasi (c).

shoqroq naychasimon tuzilishli shoxdan iborat. Naychalar bu erda yuzaga nisbatan vertikal joylashgan. Derma anchagina uzunlikdagi, distal yo'naluvchi so'rg'ichlarga ega. Bu yerda ham suyak pardasi qavati mavjud. O'qcha dermasida so'rg'ichlar va teri osti qavati farq qilinadi.




197-rasm. Cho'chqa homilasi tuyogchasingin ko'ndabang kesimi:
a-epidermis; b-dermis; c-yaproqlar.

Suyagining pardasi changalning derma qavati bilan zinch bitishib o'sib ketgan. Aylana (toj)ni dorsal va ventral qismlarida kam taraqqiy qilgan so'rg'ichlar, yon tomonlarida esa rudimentar yaproqchalar bor. Changalning shox g'ilofi bazal qavatning shoxlanmagan epitelial hujayralari va kuchli shoxlungan hamda changalning dorsal qismida eng qalin, shoxlangan yassi hujayralar qavatidan iborat.

Shoxlarning usosini peshona suyagining suyak pardasi teri dermasi bilan zinch bitishib o'sib ketgan o'simtasi tashkil qiladi. Terining epidermisi qattiq shox qavat - shox g'ilofiga aylangan. Shoxning shox to'qimasi naychasimon tuzilishli va oraliq shoxdan iborat. Shox epidermisining o'suvchi qavati - epikeras shox ilidizi yonida xususiy teri va shox g'ilofi orasida joylashib, u olib tashlansa shox qayta tilanmaydi.

SUT BEZI


Sut bezi filogenet nuqtai nazaridan apokrin ter bezlarining gomologi bo'lib, o'z funksional ahamiyati, fao-liyatining boshqarilishiga ko'ra, urg'ochi hayvon ko'payish sistemasi bilan yaqindan bog'liq orgандir.



198-rasm. 6 oylik buzoq emchagini
ho'ziga kesimi:

a-emchak kanali; b-sut havzası va s-uning yon burmaları; c-qo'shilishcha yon kanallar.

epidermis yuzasidan ko'taralib (chiqib) turadi (198-rasm). Emchak birlamchi chiqaruv yo'lining devorida ko'plab yon o'smalar va kavernalar hosil bo'ladi.



199-rasm. Sut bezisi atsimuslari tuzilishining sxemasi:
1-atsimuslar; 2-sut yo'li; 3-bo'lkachsiz hidagi sut yo'li; 4-
apokrin sekretiya; 5-myoepiteliotsitar; 6-nerv ulaski; 7-
gemokapillyar; 8-laktostat.


Embrional taraqqiyot jayaronida sut bezlari epidermisdan taraqqiy qiladi. Embrionning ko'krak va qorin tomonida epidermis qalinlashib ikkita sut chiziqlari hosil bo'ladi. Sut chiziqlaridan sut bo'rtiklari yuzaga keladi va ma'lum vaqtgacha sut chiziqlari va bo'rtiklari o'zaro aloqada bo'ladi. Qoramollarda bo'lajak yelin o'mida to'rtta sut bo'rtiklari paydo bo'lib, ulardan mezenxima ichiga epiteliy tasmacha o'sib kiradi. Keyinroq epiteliy tasmachalar ichida bo'shiqliar paydo bo'ladi, bo'rtikchalar esa emchaklarning kurtagi hisoblanib, bo'shiqliar paydo bo'ladi. Ular o'zaro qo'shilishib, sut sisternasiining kurtagiga aylanadi. Sut sisternasi devormi qoplovchi epiteliy emchak chiqaruv yo'liga parallel joylashuvchi qo'shimcha naychalar hosil qiladi. Keyinchalik naychalar orasidagi to'siqlar yo'qolib ketadi. Sut bezining chiqaruv yo'llari va sekretor bo'limchalarini sut sisternasi ni qoplovchi epiteliyning yon yo'llari va o'smalaridan hosil bo'ladi.

Sut bezining taraqqiyoti hayvon tug'ilgandan keyin ham davom etadi,

jinsiy balog'atga yetish davrida, ayniqsa, intensiv boradi. Birinci bo'g'ozlik davridagiga bez sekretsiyaga uzel-kesil tayyorlanadi. Uch oylik embrion - buzoq clinining mezenximasida ko'p miqdorda yog' hujayralari to'planishi diqqatni o'ziga tortadi. Bu vaqtida organizmning boshqa qismlarida yog' yo'q. Shuning uchun bu yog'ning ahamiyati to'g'risida tadqiqotchilar turlicha fikrdadir.

Sut bezi mu-rakkab, bo'lakchali, naycha-alveolyar tuzilgan, sek-retsiya tipiga ko'ra apokrin bezdir. Bezning chiqarov yo'llari ko'p marta tarmoqlanuvchi naychalar sistemasi bo'lib, sekretor bo'limlar - naycha-alveolalar bilan tamom bo'ladi. Sut bezi (yelin)ning har bir bo'limi uchun alohiba bo'lgan noto'g'ri-cho-zinchoq shaklga ega sut sisternasi mavjud bo'lib, sut sisternadan emchak chiqarov yo'li orqali tashqariga chiqariladi. Sut alveolalar (naycha-alveolalar) bir-biri ketidan zanjir shaklida joylashib, teshikchalar yordamida o'zaro tutashgan bo'ladi.

Sut alveolasi (199-rasm) naycha-alveola shaklida bo'lib, uning devori bir qavatlari epiteliyan iborat. Apokrin sekretsiya jarayonida epiteliotsitlar - laktotsitlar o'z bo'yini (balandligini) o'zgartiradi. (200-rasm). Elektron mikroskop epiteliotsitlar sekretsiya jarayonida kubsimon yoki prizmatik shaklda bo'lib, mitoxondriya-larga boy, kuchli taraqqiy qilgan sitop-lazmatik to'r va ribosomalar, plastinkali kompleksiga ega ekan-ligini ko'rsatadi. Ular-ning apikal yuzasida mikrotukchalar mavjud. Alveolalarda sut yig'ilib qolsa, epiteliotsitlarda sut yog'i virik tomchi shaklidagi kiritma-



200-rasm. Sigir yelini sut hosil bo'lishining morfoloyg'isi (Krelling va Grau bo'yicha):

A-ni ishlab chiqarayotgan alveola kesimi; b-ning holatdag alveola kesimi; c-alveola epiteliyi; d-laktotsitlarning secret kirtmalar; e-alveola ichidagi secret tomchilari; r-erkin o'zaklar.

lar holida to' planadi. Sut bermayotgan bez epite-liyida gistokimyoviy yo'l bilan glikogen topilgan. Alveolyar sut tarkibida sut sharchalari (yog'tomchilar), sitoplazmatik sharchalar (ayrim hollarda o'zaklar bilan), sut qalpoqchalari, erkin o'zaklar va adashgan hujayralar bo'ldi. Sutning suyuq qismi sut plazmasi deyiladi. Sut alveolalari mioepitelial hujayralar bilan o'ralgan.

Sut chiqaruv yo'llarining devoridagi epiteliy kichik diametrlı yo'llarda kubik, keyin prizmatik va sut sisternasi yaqinida ikki qavatli prizmatik epiteliyidir. Sisterna ichini ikki qavatli prizmatik epiteliy qoplaydi. Sut chiqaruv yo'llari ko'pdan-ko'p kengaygan qismlarga ega, o'zaro anastomozlar hosil qiladi. Kengaygan qismlar orasida silliq miotsitlardan iborat sfinkter bor.

Emchak terining burmasi bo'lib, uning chiqaruv yo'lini qoplovchi ko'p qavatli yassi, shoxlanuvchi epiteliy va terisini qoplovchi epidermis orasida biriktiruvchi to'qima va silliq muskul joylashadi.

Biriktiruvchi to'qimada yotuvchi silliq miotsitlar to'rtta: 1) uzunusiga joylashgan; 2) emchak sfinkterini hosil qiluvchi sirkulyar; 3) o'zaro chatishib ketuvchi hujayralar qavati va; 4) radial qavatlar hosil qiladi.


Hayvon jinsiy balog'atga yetish davrida sut bezining o'sishida keskin jonlanish yuz beradi. Bez to'qimaning ham, biriktiruvchi to'qimaning ham miqdori ortadi. Bo'g'ozlik boshlanishi bilan sekretor bo'limlar va chiqaruv yo'llari kattalashadi, bez to'qima biriktiruvchi to'qimadan ko'pligi yaqqol ko'rindi. Sekretor bo'limlarda bo'shiqliqlar paydo bo'lib, ularning devori o'z definitiv (odatdag'i) tuzilishini oladi. Keyinchalik bo'shiqliarda og'iz sati to'planadi. Laktatsiya davrida alveolalar yiriklashib biriktiruvchi to'qimadan yupqa qavatlar qoladi. Laktatsiya davri oxirida alveolalar kichiklashib, ayrinlari "bo'shab" qoladi, ularning soni kamayadi. Biriktiruvchi to'qima esa nisbatan ko'payadi.

Nervlar, qon tomirlari sut beziga bo'lakchalararo to'qima bo'ylab kirib boradi. Qon tomirlarining nervlari va sekretor nervlar topilgan. Bu yerda ko'plab retseptor nerv terminallari ham topilgan. Erkin yotuvchi va kapsulaga o'ralgan retseptorlar bor (plastinkali va genetal tanachalar, terminal kolbachalar). Ular, afidan, baroretseptorlar bo'lib, sut hosil bo'lishi va chiqarilishi reflekslarida ishtiroy qiladi. Bevosita neyroregulyatsiyadan tashqari, nerv sistemasi sut beziga endokrin bezlar orqali ham ta'sir ko'rsatadi.

SIYDIK AYIRISH ORGANLARI

Organizmda oqsillar dissimilyatsiyasi natijasida azot, fosfor, oltingugur hamda boshqa elementlarga ega, neytral bo'limgan va organizm uchun zaharli mahsulotlar hosil bo'ladi. Bunday moddalarini ayirish va tashqariga chiqarish, qondagi tuzlar konseentratsiyasini ma'lum me'yorda tutib turish ayirish organlarining vazifasıdir. Avval qayd qilganimizdek, oqsillar almashinuvining azotli qoldiqlari jigarda **mochevinaga** aylanadi va qonga o'tkaziladi. Buyrakda esa qondagi mochevina, siydiq kislotasi va kreatinin filtratsiya yo'li bilan qondun siydiqka o'tadi. Ayirish vazifasi qisman teri, nafas olish va ovqat huzm qilish organlariga ham xosdir.

Ayirish organlarining filogenezi (201-rasm). Eng oddiy (primitiv) ayirish organlari - **protonefridiylar** yassi chuvalchanglarga



201-rasm. Siydiq ayirish organlari tarihi va embrional taraqqiyoti (Kasachstan xemasi):

A-protonefridiy; B-metanefridiy; C-sildingi buyrak (proctostes); Г-biriamchi buyrak; Д-doinay buyrak; ε-tukchali hujayra va δ-uning tukchalar; η-ayruv kanalchilar; γ-tananing ikkilamchi bo'shilig'i; ζ-voronka; η-arerial kalavacha; ζ-yig'uchchi kanalcha; ζ-nefros kapsalasi.

xosdir. Protonefridiylar tananing barcha to'qimalarida turmoqlanuvchi naychalar sistemasi bo'lib, tukchali hujayralardan boshlanadi. Halqali chuvalchanglarda ikkilamchi tana bo'shilig'i paydo bo'lishi bilan **metanefridiylar** yuzaga keladi. Bu ayirish organida tukchali hujayra o'z vazifasini yo'qotib, uning o'mini naychaning kengaygan va tukchali qismi egallaydi. Naychaning bu qismi tana bo'shilig'idagi suyuqlik bilan "yuvalib" turadi. Chuvalchanglar tanasi segmentlarga bo'lingani uchun har bir segmentda ikkitidan (juft) ayirish naychalar mavjud bo'ladi. Umuriqalilarning aj-dodlari ham ana shunday ayirish organlariga ega bo'lган. Keyinroq tanadagi barcha ayirish naychalar uchun umurniy chiqaruv yo'li paydo bo'ladi. Bu yo'l ichakka (kloakkaga) yoki tashqariga ochiladi. Ayirish organ-

lari keyinchalik quyidagicha o'zgaradi: 1) naychaning tana bo'shligiga ochiluvchi voronkasimon qismi o'miga maxsus filtratsion apparat - **buyrak tanachasi** hosil bo'ladi; 2) egri siyidik naychasi uzayadi, yanada egri-bugri shaklini olib nefronga aylanadi; 3) nefronlarning umurniy soni ortadi.

Ayirish organlarining **embriogenezi**. Ayirish organlari **pronefros** (*pronephros* - old buyrak) shaklida bo'yin oblastida segment oyoqchalari (nefrotomlar)dan hosil bo'ladi. Pronefros 3-4 (5) juft uchi berk (ko'r) naychalardan iborat. Ularning tebranuvchi epiteliyidan tuzilgan voronkasimon kengaygan asosi tana bo'shligiga ochiladi. Voronka yonida arterial to'peha joylashadi. Bu to'pchadan ajraluvchi moddalar almashinuvining mahsulotlari naycha ichiga tushadi. Bu naychalarning uchlari pronefrosning chiqaruv yo'lini hosil qiladi. Chiqaruv yo'li esa kloakaga ochiladi. Pronefros to'garak og'izlilar buyragiga to'g'ri keladi. Hali pronefros yo'qolib ketmasdan **mezonefros** (*mesonephros* - oraliq buyrak) hosil bo'ladi. Mezonefros ko'krak va bel oblastlarida joylashib, u ham pronefros kabi bir uchi berk (ko'r) naychalardan iborat. Mezonefrosning naychalari ham voronkaga ega, lekin shu bilan birga, naychalar devori kapsula hosil qiladi. Arterial to'peha kapsula ichiga o'sib kiradi. Mezonefros selorna bilan bevosita aloqaning yo'qligi, qo'shimcha egri kanalchalar, ya'ni nefronlar taraqqiy qilishi bilan xarakterlanadi va metameriya yo'qolib, buyrak kompakt organga aylanadi. Mezonefros tuban umurtqalilar - baliqlar va amfibiyalarda o'z vazifasini doimiy amalga oshiradi, reptiliyalar, qushlar va sut emizuvchilarda esa faqat embrional taraqqiyot davrida uchraydi. Pronefrosning chiqaruv yo'liga mezonefros naychalari ochilgach, u mezonefral chiqaruv yo'li nomini oladi.

Doimiy (definitiv) buyrak yoki **metanefros** (*metanephros s. ren*) o'z vazifasini reptiliyalar, qushlar va sut emizuvchilarda amalga oshiradi. Definitiv buyrak ikki manbadan: nefrogen to'qimadan va mezonefral chiqaruv yo'lining kaudal qismidan hosil bo'ladi. Mezonefral chiqaruv yo'li kranial tomonga qarab o'sib, tarmoqlanadi va siyidik yig'uvchi hamda to'g'ri siyidik naychalariga aylanib, nefronlar bilan tutashadi. Mezonefral chiqaruv yo'lidan buyrak jomi va siyidik yo'li (ureter) ham hosil bo'ladi. Siyidik pufagi allantois va kloaka ventral bo'limining qo'shilishidan hosil bo'ladi. Uning asosi siyidik yo'lidan yuzaga keladi.


BUYRAKLAR

Buyraklar parenximasining asosi elementi siyidik naychalaridir. Ularning joylanishi va tarmoqlanishi ancha murakkab, lekin muayyan qonuniyatga bo'yusunadi. Buyrakning chuqr qismlarida ular deyarli to'g'ri

bo'lib, buyrak jomiga nisbatan radial yo'nalishda joylashadi, yuza qismida esa egri-bugri bo'lib joylashadi. Buyrakda yuza - po'stloq va chuqur - mag'iz qismlar bo'lib, bu qismlar makroskopik jihatdan (rangi bo'yicha) farq qiladi. Po'stloq qism mag'iz qismiga nisbatan qon bilan ko'proq ta'miniangan va to'qroq rangga ega. Bu qismida buyrak (Malpigi) tanachalari joylashadi. Po'stloq va mag'iz qismlar chegarasida yirik arteriya va venalar joylashadi.

Buyrak kapsulasi tolador biriktiruvchi to'qimadan iborat bo'lib, kapsuladan buyrak parenximasini ichiga o'sib kiradigan biriktiruvchi to'qima juda yupqa bog'lamchalar holida bo'ladi, shuning uchun ham buyrak kapsulasi oson ajraladi.

Po'stloq qism radial ravishda joylashgan qon tomirlari vositasida mayda bo'lakchalarga bo'linadi. Po'stloq modda mag'iz qismiga ustunlar (Berteni ustunlari) holida o'sib kirib, uni piramidalarga bo'ladi.



202-rasm. Nefronning tuzilishi
(sxema):


1-nefron kapsulasi; 2-proksimal bo'limning egri-bugri qismi; 3-proksimal bo'limning to'g'ri qismi; 4-ingichka bo'lim; 5-distal bo'limning to'g'ri qismi; 6-distal bo'limning egri-bugri qismi; 7-siydik yig'uvchi nay.

O'z navbatida mag'iz qism to'g'ri naychalari bo'lakcha-larning o'rta qismiga nurlar (Ferreyn nurlari) shaklida o'sib kirib turadi.

Mag'iz qismning chuqur zonalarida turli nurlarning naylari bir-biri bilan qo'shib, yirikroq naylar hosil qiladi. Eng yirik siyidik yig'uvchi naylar so'rg'ich naylar deyildi.

Nefron (202-rasm) siyidik naychalari sistemasi bo'lib, kapsula va uning bo'yinchasi, proksimal bo'lim (I tartibli egri kanalcha), nefron sirtmog'i (halqasi), distal bo'lim (II tartibli egri kanalcha)dan iborat. Nefron to'g'ri kanalcha orqali siyidik yig'uvchi nayga ochiladi.

Odamda har bir nefronning uzunligi 18-50 mm, barcha nefronlarning umumiy uzunligi - 100 km ga teng. Yirik shoxli mollarda nefronning uzunligi 40 mm atrofida, ikkala buyrakdagagi nefronlarning soni 8 mln ga teng. It buyragida 180-370 ming nefron bor. Faqat 1% ga yaqin nefronlar to'lig'icha po'stloq moddada joylashadi, 80% nefronlarning sirtmog'i mag'iz qismning tashqi zonasiga kirib boradi. Bu nefronlar po'stloq va oraliq qism nefronlari deb ataladi. Qolgan 20% ga yaqin nefronlarning buyrak tanachasi, proksimal va distal bo'limlari po'stloq qismida, mag'iz qism chegarasida joylashib, sirtmog'i mag'iz qismiga chuqur kirib boradi. Bular uzun yoki yukstamedullyar (mag'izoldi) nefronlardir.



203-rasm. Nefron kapsulasi
ichki varagi va tosedi
kalavacha kapillyarlarini sub-
mikroskopik tuzilishining
sistemasi:

- 1-podotsitlar; 2-sitotubekulular;
- 3-podo-tsitlamning sitopodiylari;
- 4-endotelictistilar sitoplazmasi;
- 5-bazal membrana; 6-
- endoteliositlarning poralar;
- 7-endoteliositning o'zagi; 8-
- mezangiolit; 9-kapillyarning
ichi.


Buyrakning stromasi retikulyar hujayralur va retikulin totalarga boy tolador biriktiruvchi yumshoq to'qimadir. Bu to'qima qon to'mirlari atrofida joylashadi, siyidik naychalarini bir-biri bilan tutashirib turadi, shuningdek, kam tabaqalangan hujayralarga ega.

Nefron kapsulasi (Boumen-Shumlyanskiy kapsulasi) siyidik kanalchasinining ken-gaygan, uchi ko'r qismi bo'lib, bu qism o'z-o'zi ichiga botib kirishi natijasida ikki qavatl devorga ega. Kapsulaning visseral va tashqi devorlari orasidagi bo'shilg siyidik kanalchasi bo'shilg'ining davomidir. Kapsulaning ichki devori kapsula ichida joylashgan arterial to'peha (Malpigi to'phasi) bilan tutashib o'sib ketadi va buyrak tanachasini hosil qiladi. Elektron mikroskopning ko'rsatishicha, bu devor mezenximani eslatuvchi to'rsimon tuzilmadir (203-rasm). Uning hujayralari **podotsitlar** deyiladi. Podotsitlarning tanasidan bir necha yirik o'simta - **sitotrabekulalar** ajraladi (204-rasm).

Sitotrabekulalar o'z navbatida uch qavatl bazal membranaga borib birikuvchi ko'pdan-ko'p mayda o'simtalar - **sitopodiyalar** ajaratadi. Sitopodiyalar oraliq ida podotsitlar tanasi oralaridagi tor tirkishlar orqali kapsula bo'shilg'i bilan tutashadigan yoriqchalar joylashadi. Uch qavatl bazal membrana kapillyarlar endoteliyi va podotsitlar uchun umumiyydir.

Birlamchi

siyidik buyrak tanachasi kapillyarlarining (205-rasm) devori va nefron kapsulasi devorining ichki varag'i orqali qon plazmasidan filtrlanadi. Birlamchi siyidik qon plazmasidagidek midorda mochevina va glyukoza bor, lekin oqsillar bo'lmaydi. Elektron mikroskopning



204-rasm. Kalavacha arterial kapillyari devori va uni qoplovchi kapsula visceral varagi orqali o'tgan kesimining electron mikroskopda ko'rinishi (sxema).

Krelling va Graudam:


a-podotsit; b-kapillyarning endotelyi; c-bazal membrana; d-podotsitning sitotrabekulalar; e-podotsit o'sagi va f-kirimtaleri.

ko'rsatishicha kapillyarlarning devori xuddi g'alvirdek teshiklarga ega, lekin oqsillarning makromolekulalari bu teshiklardan o'taolmaydi. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, bu teshiklar o'z kattaligini o'zgartira oladi. Podotsitlar bu pardani qoplab tursalar-da unga unchaliq yopishib turmaydi, aksincha ular orasida bo'shliqlar sistemasi qoladi. Shunday qilib moddalar almashinuvining mahsulotlari qondan siyidikka osmos yo'li bilan emas, balki juda tor teshiklar orqali filtrlanish yo'li bilan o'tadi. Bunda asosiy regulyatsiya qiluvchi vosita bazal membranadir, endoteliydag'i va podotsitlarning pedikulalari orasidagi teshiklarning diametri 20-100 nm, bazal membranadagilarini 6,5 - 10 nm. ni tashkil qildi.




205-rasm.kalavuscha kapillyartarining elektronogrammasi, x25000:
1-endoteliy; 2-bazal membrana; 3-sitopodiyalur; 4-eritrotsit.

Nefron kapsulasining **bo'yinchcha qismi** yassi hamda kubsimon epiteliy oralig'ida turuvchi epiteliydan iborat bo'lib, proksimal bo'limga ochiladi. **Proksimal bo'limning bo'shlig'i** tor, devori bir qatlamlili kubsimon epiteliy-dan iborat (206-rasm). Egri-bugri shakldagi bu naychada glyukoza, juda ko'p miq-dorda suv, shuningdek, xloridlar qonga qayta so'rildi va birlamchi siyidik haqiqiy siyidikka aylanadi. Natijada organizm o'ta suvsizlanishdan saqlanadi, siyidikda esa mochevinaning konsentratsiyasi oshadi. Proksimal bo'lim epitheliotsitlari "loyqa" (tiniqmas) sitoplaz-ma, "cho'tkali hoshiya", bazal qismida tayoqchasimon chiziqlilikka ega (207-rasm). Hujayralar orasidagi chegara egri-bugri bo'lib, kumish tuzlari bilan maxsus ishlov berishdan keyin aniq ko'rinadi. Hujayralarning bu belgiliari nefron kapsulasi yaqinida yaqqol ifodalangan bo'lib, kapsuladan uzoqlashgan sari kamyib boradi. "Cho'tkali hoshiya"da ishqorli fosfatazaning aktivligi



206-rasm. Buyrak tanachasi. Proksimal va distal egri-bugri naychalari:
1-buyrak tanachasi; 2-kapsulaning tashqi yarag'i;
3-kapsula bo'shligi; 4-kapillyardar kalvachasi; 5-
proksimal egri-bugri naychi; 6-distal egri-bugri
naychi.



207-rasm. Proksimal bo'lim devori epiteliotsiti ultransikroskopik tuzilishining xossalari:
e-mikrovosimkalar; d-mizokondriyalar; b-plastinik
kompleks; c-sekret kionimlari; a-bazal membrana; e-
vaz; c-bazal plazmalemmaning bormalari.

yuqori bo'lib, agar aktivlik pa-saysa siyidik bilan qand ajralib chiqadi.

Proksimal bo'lim hujayralarida sekretsiya belgilarini ham ko'rish mumkin. Gistokimyoviy yo'l bilan epiteliyning hoshiyasi yodga boy sekret ishlab chiqarishi aniqlangan. Voyaga yetgan hayvonlarda organizmga parenteral yo'l bilan (ovqat hazm qilish sistemasini chetlab) kiritilgan begona (yot) oqsillar proksimal bo'lim epitheliotsitlari to-monidan gidrolizlanadi.

Proksimal bo'limdan keyin joylashgan **nefron sirtmog'**ining pastga tushuvchi (ingichka) va yuqoriga ko'tariluvchi (yo'g'on) naylari bor. Tushuvchi nay mag'iz qismiga yo'nalsa, chiquvchi nay mag'iz qismin dan po'stloq qismiga yo'naladi. Ingichka nay devori endoteliyga o'xshash past bo'yli epiteliydan iborat. Yo'g'on nay epiteliy hujayralari sitoplazmasining tiniqmasligi, sitoplazmadagi tayoqchasimon chiziqlilik va "cho'tkali hoshiya"si bilan proksimal bo'lim epiteliyini eslatadi. Lekin bu belgilar yo'g'on naycha devorida kuchsizroq ifodalangan.

Nefron sirtmog'idan keyin keladigan **distal bo'limning** epiteliy hujayralari proksimal bo'limnikidan hujayralarining ochtroq bo'yalishi, "cho'tkali hoshiya"ning bo'imasligi bilan farq qildi. Bu yerda ham suv va xloridlarning

qaytadan qonga so'rilishi yuz beradi deb hisoblanadi. Distal bo'lim to'g'ri kanalcha (bog'lovchi bo'lim) orqali chiqaruv yo'llari sistemasiga kiruvchi naychaga ochiladi. Bu naycha esa siyidik yig'uvchi nayga ochiladi. Ushbu bo'limlarning hammasi hujayralar chegarasi yaxshi bilinadigan kubsimon epiteliyidan iborat devorga ega. Siyidik yig'uvchi naychalar po'stloq qismning yuza zonalarida bir qavatlari kubsimon epiteliy, quyi zona va mag'iz qismlarda esa bir qavatlari past bo'yli silindrishmon epiteliyidan iborat devorga ega. Epiteliotsitlarning och va to'q bo'yaladiganlari farq qilinadi. Och bo'yaluvchi hujayralarda organellalar kamroq, sitoplazma ichki burmalar hosil qiladi. To'q bo'yaluvchi hujayralar o'z ultrastrukturasi bilan me'da fundal bezlaridagi xlorid kislota ishlab chiqaruvchi parietal hujayralarni eslatadi. Siyidik yig'uvchi naychalarida bir qism suv qonga so'rilishi bilan birga siyidik kislotali reaksiyaga ham ega bo'ladi. Keyingi hodisani to'q bo'yaluvchi epiteliotsitlarning sekretor faoliyati bilan izohlash mumkin.

Buyrakda qon aylanishi. Buyrakning vazifasi qonni fiiltrash bilan bog'liq bo'lganligi uchun u qon tomirlari va kapillyarlarga boy, kapillyarlari eng avvalo nefron kapsulasi, proksimal va distal bo'limlar bilan aloqada bo'ladi. Buyrak arteriyasi buyrakning darvozasi orqali kirib organning bo'laklari orasidan yuruvchi bo'laklararo arteriyalarga tarmoqlanadi. Har bir bunday arteriya po'stloq va mag'iz qismlari chegarasiga kelib ikkita yoysimon arteriyaga tarmoqlanadi. Bu arteriyalar bir-biriga qarama-qarshi tomonga yo'naladi. Yoysimon arteriyalar mag'iz qismiga to'g'ri arteriolalar, po'stloq qismiga esa radial arteriyalar ajratadi. Radial arteriyalar mag'iz modda nurlari orasi bo'yab buyrak yuzasi va kapsulasiga qarab boradi. Bu arteriyalardan yon tarmoqchalar ajraladi. Yon tarmoqlar buyrak tanachalariga qon keltiruvchi arteriyalar bo'lib, ular tarmoqlanib arterial kapillyarlarning to'pchalarini hosil qiladi. O'z tuzilishiga ko'ra qon keltiruvchi arteriyalar arteriolalar hisoblanadi. Buyrak tanachasining to'phasi kapillyarlari qon olib ketuvchi arteriyaga aylanadi. Bu tomir ham arteriola bo'lib, uning diametri qon keltiruvchi arteriya diametridan kichik, shuning uchun arterial to'pcha kapillyarlardagi qon bosimi nisbatan ancha yuqori bo'ladi. Qon olib ketuvchi arteriya to'phadan chiqqach yana kapillyarlarga tarmoqlanib, po'stloq qism to'qimalarini qon bilan ta'minlaydi. Shunday qilib, buyrakdagi mavjud ikki kapillyarlar sistemasini ham arteriyalar hosil qiladi. Po'stloq qism kapillyarlari radial venalarga to'planadi. Radial venalarga buyrakning yuza qismlaridan qon keltiruvchi yulduzsimon venalar ham quyiladi. Mag'iz qism kapillyarlari ham radial yo'naluvchi venalar hosil qiladi. Radial venalarning hammasi po'stloq va mag'iz qism chegarasida joylashuvchi yoysimon venalarga, yoysimon venalar esa buyrak venasiga to'planadi.

Yukstamedullyar nefronlarda qon olib ketuvchi arteriyalar diametri qon keltiruvchi arteriyalar diametridan biroz kattadir. Bu arteriyalar orasida anastomozlar ham mavjud. Yukstamedullyar nefronlarning qon olib ketuvchi arteriyasi qisman mag'iz qismi siydiq naychalari orasida kapillyarlarga, qisman esa tomirlar tutamcha (bog'lamcha)si to'g'ri tomirlariga tarmoqlanadi. To'g'ri tomirlar kapillyarlardan ko'ra kattaroq diametriga ega, devori yopqa. Ular mag'iz qismida sirtmoq hosil qiladi. Sirtmoqning arterial va venoz qismlari yaqin joylashib, qarama-qarshi yo'nalishda qon oquvchi sistemada elektrolitlarning tez almashinishini ta'minlaydi. Tomirlar tutamcha (bog'lamcha)si qayta so'riluvchi suvni olib ketishi natijasida siydiqning konsentratsiyasi odadagi darajaga kelishida katta ahamiyat kasb etadi. Yukstamedullyar nefronlar buyrak orqali juda ko'p qon o'tganda shunt sistemasi sifatida qisqa va oson yo'l bo'lib xizmat qiladi. Ayrim hollarda qonning asosiy qismi mana shu qisqa yo'l orqali o'tib shuntlanish yuz beradi. Shuntlanish buyrak po'stloq qismining qonsizlanishi (ishemiya)ga, hatto nekrozga olib kelishi mumkin.

Odam buyragida 1 mln.ga yaqin arterial to'pchalar bo'lib, ularning umumiy uzunligi 25 km, yuzasi $1,5 \text{ m}^2$ ga yetadi. Itning har bir buyragida 180-370 ming to'pcha bo'ladi. Murakkab siydiq hosil bo'lish jarayonining birinchi fazasi - filtratsiya nefronlarning buyrak tanachalarida amalga oshadi va natijada bir kecha-kunduzda 100 litrga yaqin birlamchi siydiq hosil bo'ladi. U nefronlarning naychalari orqali o'tayotganda siydiq hosil bo'lishining ikkinchi fazasi - reabsorbsiya yuz beradi. Birlamchi siydiq tarkibidan qand va oqsil batamom yo'qoladi, ko'p miqdordagi suv qayta so'rilib bir kecha-kunduzda ajraladigan haqiqiy siydiq miqdori 1,5-2,0 litr atrofida bo'ladi. Siydiqning konsentratsiyasi oshib, undagi kreatinin va mochevina keskin ortadi. Yig'uvchi naylarda siydiq hosil bo'lishining yakunlovchi (uchinch) fazasi amalga oshadi, siydiq kuchsiz kislotali reaksiyaga ega bo'lib qoladi. Siydiq hosil bo'lishining barcha fazalari nefron hujayralari aktiv faoliyatining natijasidir.

Buyrakning yukstaglomerulyar (YUGA) va prostoglandin apparatlari yoki endokrin sistemasi. Yukstaglomerulyar (to'pcha oldi) apparat (208-rasm) renin ishlab chiqaradi va qonga o'tkazadi. Uning tarkibiga yukstaglomerulyar hujayralar, zich dog' (macula densa) va yukstavaskulyar hu-jayralar, ba'zi tadqi-qotchilar ning fikricha, mezangial hujayralar ham kiradi. Yuksta-glomerulyar hujay-ralar qon keltiruvchi va qon olib ketuvchi arteriolalarning endo-teliy osti qavatida yotadi. Ular oval yoki poligonal shakldagi, sitoplazmasida SHIK-reaksiya beruvchi, yirik sekretor (renin) donachalar saqlovchi hujayralardir.

Zich dog' distal bo'limga buyrak tanachasi yaqinida, qon keltiruvchi va qon olib ketuvchi arteriolalar orasidan o'tadigan qismidir. Zich dog'-ning epiteliotsitlari nisbatan balandroq, basal membranasi juda yupqa va basal burmalar yo'q bo'lib, ularga "natriy retseptorlari" deb qaraladi. Zich dog', qon keltiruvchi va qon olib ketuvchi arteriolalar orasidagi uchburghaksiy joyda yotuvchi oval yoki noto'g'ri shakldagi yukstavaskulyar hujayralar uzun, arterial to'pcha mezangiotsitlari bilan aloqada bo'ladigan o'simtalgarda ega. Ularning sitoplazmasida fibriliyar strukturalar mavjud. Mezangiotsitlar buyrak tanachalari kapillyari orasida joylashadi, qisman ular uchun tayanch bo'lib xizmat qiladi va hujayralararo modda ishlab chiqaradi. Ularning shakli yulduzsimonga yaqin keladi. Mezangiotsitlarni ba'zi tadqiqotchilar peritsitlarga o'xshatishsa, boshqalari yukstaglomerulyar hujayralarning davomi, deb qaraydilar.

Yukstaglomerulotsitlar "charchaganda" yukstavaskulyar hujayralar va mezangiotsitlar renin ishlab chiqarishni o'z zimmasiga oladilar, deb hisoblanadi.

Prostaglandin apparat interstitzial hujayralar va siydiq yig'uvchi naylar nefrotsitlarini o'z ichiga oladi. Interstitzial hujayralar mezenximal tabiatga ega bo'lib mag'iz qismi piramidalarning stromasida joylashadi. Ularning cho'zinchoq shakldagi tunalaridan bir xillari nefron sirtnog'i naychalarini, boshqalari qon kapillyarlarini o'rabi turuvchi o'simtalar ajraladi. Interstitzial hujayralarning organellalari yaxshi turaqqiy qilgan, sitoplazmasida osmiofil



208-rasm. Yukstaglomerulyar apparat (xccma):

1-kalavachan qon keltiruvchi arteriolasi; 2-kalavachan qon olib ketuvchi arteriolasi; 3-kalavachan kapillyari; 4-endoteliosit; 5-nefron kapsulasi visseral varag'ning podostitllari; 6-bazal membrana; 7-mezangiotsitlar; 8-kalavachus kapsulasining ichi; 9-nefron kapsulasi parietal varagi; 10-nefrenning distal bo'lumi; 11-zich dog'; 12-endokrinotsitlar (yukstaglomerulyar hujayralar); 13-yukstavaskulyar hujayralar; 14-buyrak stromasi.

(lipid) granulalar bor. Ular qon bosimini pasaytiruvchi prostaglandin ishlab chiqaradi deb hisoblanadi. Shuningdek siydiq yig'uvchi naylarning och bo'yakuvchi hujayralari ham prostaglandinlar hosil bo'lish manbai deb qaratadi. Buyrakda mavjud bo'lgan endokrin kompleks organizmdagi umumiyy qon aylanish va buyrakdag qon aylanishni, shu yo'l bilan esa siydiq hosil bo'lishni idora qiladi.

Buyrakning limfatik sistemasi po'stloq siydiq naychalari va buyrak tanachalarini o'rabi turuvchi kapillyarlar to'ridan boshlanadi. Po'stloq qisrnadan limfa bo'lakchalararo arteriya va venalarni g'ilofdek o'rabi olgan limfa kapillyarlar to'ri orqali 1-tartib limfa tomirlarga oxib boradi. 1-tartib limfa tomirlariga mag'iz qisriming to'g'ri arteriya va venalarni o'rabi turuvchi limfa kapillyurlari ham quyiladi. 1-tartib limfa tomirlari o'z narbatida yoysimon arteriya va venalarni o'rabi turadi va yirikroq tomirlar - 2-3-4-tartib limfa kollektorlari hosil qiladi. Kollektorlar esa buyrak bo'lakchalarini orasida joylashuvchi sinuslarga ochiladi. Siruslardagi limfa regionar limfa tugunlariga boradi.

Buyrakning innervatsiyasi. Buyrak nervi larga juda boy. Ular kapsula ostida nerv chigali hosil qilib, keyin buyrak darvozasi orqali ichkariga kiradi. Nerv chigalida mayda gangliylar ham bor. Nervlar qon tomirlari bilan yonmaydon boradi va ularning devorida sezuvchi hamda harakatlantiruvchi terminallar hosil qiladi. Nefronning barcha bo'limlari ham innervatsiya qilinadi. Buyrak jomi tomonidan hamda qon tomirlari bilan kiruvchi nervlar buyrak tanachalarigacha borib yetadi. Buyrak nervlari simpatik va afferent nervlardir. Buyrakning turli xil strukturalarini innervatsiya qiluvchi polivalent terminallar ham uchraydi.


Buyraklarning taraqqiyoti organizm tug'ilgandan keyin ham ancha vaqt davom etadi. Bu hodisa mavjud nefronlarning o'sishi va tabaqalanishi bilan bog'liq, nefronlarning uzunligi, zyniqsa, keskin o'zgarishlarga uchraydi.

SIYDIK CHIQARUV YO'LLARI

Buyrak jomi. Buyrak jomi siydiq yo'lining buyrak ichida joylashuvchi kengaygan qismi bo'lib, uning devori uch parda: shilliq, muskul pardalar hamda adventitsiyadan iborat. Shilliq parda biriktiruvchi yumshoq va to'rsimon to'qimsadan tuzilgan, ko'p qatlamlili o'tib turuvchi epitely bilan qoplangan, it va otlarda naycha-alveolyar tipdagi shilliq bezlarga ega. Muskul parda silliq muskuldan iborat bo'lib, uncha taraqqiy qilmagan, ichki va tashqi qavatida silliq miotsitlar uzumasiga, o'rta qavatida sirkulyar joylashgan. Adventitsiya biriktiruvchi yumshoq hamda to'rsimon to'qimalarning aralashmasi bo'lib, kavshovchilar va yirtiqichlarda silliq muskul tolalariga ham ega.

Siydiq yo'lli (ureter). Shilliq parda ko'p qavatli o'tib turuvchi epitely bilan qoplangan biriktiruvchi yumshoq to'qima

bo'lib, uzunasiga joylashgan chuqur burmalar hosil qiladi (209-rasm). Otlarda xususiy qavatda, buyrak jomidagi kabi naycha-alveolyar shilliq bezlar mavjud. Shilliq pardada muskul qavat farq qilinmaydi. Muskul parda kuchli taraqqiy qilmagan, tolalari uzunasiga joylashgan ichki va tashqi hamda yaxshi taraqqiy qilgan, tolalari sirkulyar joylashgan o'rta qavatlarga ega bo'lib, silliq miotsitlardan tuzilgan. Tashqi parda ko'p joyda zardob parda, qisman adventitsiya shaklidadir.



209-rasm. Cho'chiga siydirik yo'llining ko'ndalang kesimi:

a—epiteliy; b—shilliq pardanining xususiy qavati; c—muskul pardanining uch qavati.

siydirik pufagining ichki (sfinkterini) hosil qiladi. Tashqi pardanining qorin bo'shilig'i tomon yuzasi zardob parda, qelgan qismi adventitsiyadir.




Urg'ochi hayvonlarning siydirik chiqarish kanallı (*urethra feminina*). Erkak hayvonlarning siydirik chiqarish kanali erkaklik jinsiy a'zosi bilan birga o'rGANILADI. Urg'ochi hayvonlarning bu kanali qin dahliziga ochiladigan qisqa nay bo'lib, shilliq pardasi ko'p qatlamlili yassi epiteliy bilan qop-langan. Shilliq pardanining xususiy qavati venalar to'riga boy biriktiruvchi yumshoq to'qima. Muskul parda silliq miotsitlarning alohidia-alohida yetuvchi bog-lamchalaridan iborat bo'lib, ichki, uzunasiga joylashgan va tashqi sirkulyar qavatlarga ega. Tashqi parda biriktiruvchi tolador to'qima, ko'ndalang-targ'il muskul tolalariga ham ega bo'lib, siydirik pufagining tashqi sfinkterini hosil qiladi.

Siydirik chiqarish yo'llari nerv elementlariga boy bo'lib nerv chigallari va gangliylarga ega. Polivalent (siydirik pufagida) sezuvchi, harakatlantiruvchi terminallar, siydirik pufagining tashqi pardasida plastinkali tanachalar (Fater-Pacheni tanachalari) uchraydi.

Siydirik pufagi. Shilliq parda ko'p qavatli o'tib turuvchi epiteliy bilan qoplangan elastik tolalarga boy biriktiruvchi to'qimadir. Epiteliyning ko'p qavatli o'tib turuvchi epiteliya xos uch qavati: yuza, oraliq va bazal qavatlari yaxshi ifodalangan. Yirik shoxli mollarda shilliq parda muskul va shilliqosti qavatlariga ham ega. Muskul parda siydirik yo'llining muskul pardasidek tuzilishga ega. Siydirik pufagining bo'yincha oblastida muskul pardanining o'rta, sirkulyar qavati kuchli taraqqiy qilgan

210-rasm. Tovsq buyragi bo'lakchasining
tevallish xarakasi:

1-kapula; 2-po'stloq qism bo'lakchasi; 3-bo'lakcha ichi venasi; 4-syidik yig'uvchi naychi; 5-mag'iz qism naychalar; 6-mag'iz qism simmung'i; 7-syidik yo'llining ikkizumchi tarmoqlari; syidik yo'llining berlanchi tarmog'; 9-syidik yo'lli.




211-rasm. Tervuning ajratilgan mag'iz (A) va po'stloq (B) qism nefronlari:
1-nefroning proximal bo'limi; 2-nefroning oraliq qismi; 3-buyuk tarschasi; 4-nefroning hig'lovchi bo'limi; 5-nefroning sinusop'i; 6-sirimoqning ingichta tisagi; 7-sirtmogning yo'g'on tisagi; 8-po'stloq syidik yig'uvchi naychi.

Qushlarning buyragi (210-rasm) har biri po'stloq va mag'iz qismlariga ega bo'lган uch bo'lakdan iborat. Po'stloq va mag'iz qismlar o'z navbatida bo'lakchalarga bo'linadi. Mag'iz qismning bir bo'lakchasiiga odatda po'stloq qismning bir necha bo'lakchasi to'g'ri keladi. Har bir bo'lakchaning markazida bo'lakcha ichi arteriyasi va venasi joylashadi. Qushlar buyragida po'stloq bo'lakchalari doirasida joylashgan **po'stloq nefronlari** va **mag'iz nefronlari** farqlanadi. Mag'iz qism nefronlari asosan mag'iz moddada joylashadi. Mag'iz qism nefronlari buyrakda joy-lashishi va tuzilishiga ko'ra sut emizuvchilarining nefronlariga to'g'ri keladi. Po'stloq nefronlari kamroq egilib-bukilgan, sirtmog'i-ning ingichka qismi yo'q va morfologik jihatdan repti-liyalar buyragi kanalcha-lariga yaqinroq turadi (211-rasm). Po'stloq nefron-larining buyrak tanachalari bo'lakcha ichi venasi yaqinida joylashadi. Mag'iz qism nefronlarining buyrak tanachalari po'stloq qism bo'lakchalari cho'qqisida joylashadi.

KO'PAYISH ORGANLARI SISTEMASI

Ko'payish yoki jinsiy organlar sistemasida jinsiy hujayralar va gormonlar hosil bo'lib, otalanish, sut emizuvchilarining urg'ochi jinslarida esa embrional taraqqiyot uchun zarur sharoitlar ham yaratiladi. Jinsiy funksiya boshqa funksiyalar orasida alohiba o'rinn tutadi. **Jinsiy (reproduk-tiv) sistema** tirk organizmning boshqa hamma sistemalaridan faqat individium hayoti uchun emas, balki umumyan biologik tur uchun o'ziga xos ahamiyati borligi bilan farq qiladi. Uning vazifasi - ko'payish, biologik turning saqlanishi va ravnaqi uchun zarur miqdorda individuumlarni yetishtirishdir. Bu organlar funksiyasining normal kechishi individium hayoti, sog'lomligi va mahsul dortligiga ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi.




212-rasm. Amfibiyalar (A), tovuz (B) va sut emizuvchilar (C) birlashtida birlaschi jinsiy hujayralarning paydo bo'lishi:
1-hemila plazmati; 2-birlaschi jinsiy hujayralar.

Erkaklik jinsiy organlari sistemasiga jinsiy bez - urug'don, urug' chiqaruv yo'llari, jinsiy sistemaning qo'shimcha bezlari, siyidik-jinsiy kanal va jinsiy a'zo; **urg'ochilik jinsiy organlari sistemasiga** jinsiy bez - tuxumdon, tuxum yo'li, bachadon, qin, qin dahlizi, klitor va jinsiy lablar kiradi.

Jinsiy yoki ko'payish sistemasi organlari embriogenezi va anatomik joylashuviga ko'ra ayiruv organlari bilan yaqindan bog'liq, hamda ko'pincha siyidik ayiruv-jinsiy organlar sistemasiga birlashtiriladi.

Jinsiy bezlar embrionning birlamchi buyragi - mezonefros (Wolf tanaasi) yuzasidagi zardob pardaning qalinlashuvi natijasida jinsiy burmalar shaklida hosil bo'ladi. Bu burmalar taraqqiy qila borib oval shaklini oladi va shu bilan birga, ular ichiga sariqlik endoder-masidan, migratsiya yo'li bilan, qon orgali bo'lajak jinsiy hujayralar (gonoblastlar)ning kirib joylashishi kuzatiladi (212-rasm).



213-rasm. Jinsiy bezlar taraqqiyotining sxemasi:

a-indifferent bosqich; b-urug' ochi hayvon tomoniga taraqqiyot; c-erkak hujayon tomoniga taraqqiyot; 1-Müller kanali; 2-Volf kanali; 3-jinsiy-stylik sinusi; 4-siydik yo'li; 5-akkilanchi buyruk; 6-Volf tamaasi; 7-jinsiy kurtak; 8-tuxumdon kurtagi; 9-tuxumdon kurtagi; 10-reduksiya bo'lgan Volf kanali; 11-urug'don kurtagi; 12-'erkak bachadoni'.

Avvaliga bu jarayon har ikki jinsga mansub bo'lgan individiumlarda bir xil borib, jinsiy burmalar **indifferent jinsiy kurtak** deyiladi (213-rasm). Indifferent jinsiy kurtakning urug'don yoki tuxumdonqa aylanishi otalanish paytida zigota o'zagida yuzaga kelgan xromosomalar to'plami (nabori)ga bog'liq. Jinsiy xromosomalar to'plami XY bo'lsa urug'don, XX bo'lsa - tuxumdon taraqqiy qiladi. Taraqqiy qilayotgan individium erkak jinsga mansub bo'lganda indifferent jinsiy kurtakdag'i epithelial hujayralar tez ko'payib tizmachalar hosil qiladi. Ushbu tizmachalar **egri urug' naychalariga** aylanadi. Keyinroq oraliq naychalar hosil bo'lib, ular egri urug' naychalarini birlamchi buyrak (mezzonefros) naychalari bilan tutashtiradi. Oraliq naychalariga urug'don to'g'ri naychalar va urug'don to'rining kurtagi deb qaraladi. Shunday qilib urug'donning egri naychalari urug'don ortig'iga aylanuvchi birlamchi buyrak va uning chiqaruv yo'li bilan aloqada bo'lib qoladi. Birlamchi buyrakning chiqaruv yo'li urug' yo'lining kurtagi hisoblanadi. Shu bilan bir vaqtida birlamchi buyrakning juft yon (okal) chiqaruv yo'li hosil bo'ladi. Bu juft chiqaruv yo'l yoki Müller kanali tananining keyingi qismida o'zaro qo'shilib toq kanalga aylanadi. Erkak individiumlarda bu kanal reduksiyaga uchrab oldingi va orqa qismlarining qoldiqlari qoladi. Oldingi qismning qoldig'i - gidiatida urug'don ortig'i yuzasida joylashadi, orqa qism qoldig'i erkak "bachadoni"

deyilib, biriktiruvchi to'qimadan iborat bo'ladi.

Erkak hayvon jinsiy sistemasining qo'shimcha bezlari urug' yo devorining bo'rtib chiqishidan hosil bo'ladi. Urug'don bel oblastida bo'lib, taraqqiyot jarayonida urug'don xaltasiga tushadi. Urug'don urug'don xaltasiga tushmay qolishi kriptorxizm deyiladi.

Taraqqiy qilayotgan individuum urg'ochi jinsga mansub bo'lga indifferent kurtakening epiteliy hujayralari ko'payib guruhlarga tsqsi nadi. Kurtak tuxumdonqa aylanadi. Embrional taraqqiyotning ikkinchi mida tuxumdonning butun markaziy, ya'ni mag'iz qismida bu hujay so'rilib ketadi va faqat yuza qismida saqlanib qoladi. Atrofdan o'sib 1 vchi mezenxima ularni "**tuxum sharları**" deyiluvchi kichikroq guruhi bo'ladi. "Sharlar"ning ichida bir nechtdan jinsiy **hujayra** joylashadi.


Keyinchalik tuxum "sharları" **tuxum follikullariga** bo'linadi. likullar odatda bir jinsiy hujayra (**ovotsit**) va uni o'rabi turuvchi folliku epiteliydan iborat.

Urug'don taraqqiyoti paytida kuzatilgani kabi tuxumdon kurta ham oraliq naychalar vositasida birlamchi buyrak bilan aloqa yuzaga ke. Lekin tezda bu strukturalar reduksiyaga uchrab birlamchi buyrakdan r'mentor organ - tuxumdon ortig'i qoladi. Mezonefral kanaldan bache keng payi varaqlarining orasida joylashuvchi biriktiruvchi to'qimadan rat tasmacha (Gertner kanali) qoladi. Kavsh qaytaruvehilarda bu tasmachi bo'shliq bor. Myuller kanali kuchli taraqqiy qilib tuxum yo'lli bachadon shoxlariga aylanadi. Bu kanalning tana orqa qismidagi bo'limidan bachadon tanasi va qin hosil bo'ladi. Bachadonning har hayvonlarda turlicha tipga mansub bo'lishi (m: kemiruvchilar qo'sha kavsh qaytaruvchilarida ikkiga bo'lingan, otlarda ikki shoxli va primatl: oddiy) hayvonlarda Myuller kanallarining qo'shilib, toq bo'lim hosil qil turli darajada bo'lishi bilan bog'liq.

Jinsiy sistemaning taraqqiyotida tegishli jinsga xos belg rivojlanishining kechikishi, qarama-qarshi jins belgilarinining sekinlik b yu'qolish natijasida **germafroditizm** yuzaga keladi. Germafrodit hodisasi kuzatilganda organizmda har ikki jinsga xos belgililar turli daraj ifodalangan bo'ladi. Tashqi jinsiy organlarning taraqqiyotidagi anomaliya sosta germafroditizm deb atalsa, jinsiy bezlarda ham urug'don, ham t umdonqa xos strukturalar bo'lishi, shuningdek, bu ikki jinsiy bez yonma-yon joylashashi haqiqiy germafroditizm deyiladi. Bunday hol q loq xo'jalik hayvonlarida juda kam uchraydi. Germafroditizmning sabab xromosomalar anomaliyasi, buyrak ustti bezlарining taraqqiyoti va faoliy dagi kamchiliklar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

ERKAK HAYVONLARNING KO'PAYISH ORGANLARI SISTEMASI

Urug'don. Urug'don erkaklik jinsi bo'lib, bu yerda spermatogenetik amalga oshadi va erkaklik gormonlari hosil bo'ladi. Urug'donni qoplovchi xususiy qin parda qorin pardasi (bryushina)ning visseral varag'i bo'lib, oqish parda bilan qo'shilib o'sishib ketgan (214-rasm). Oqish parda bevosita urug'don parenximasini o'rabi turadigan, elastik tolalarga boy birkirituvchi to'qimadan tuzilgan pardadir. Aylarda oqish parda uch qavat bo'lib joylashuvchi, septalarga ham kirib boruvchi muskul tolalarga ega. Oqish pardadan urug'don ichiga radial ravishda septalar (to'siqlar) o'sib kiradi. Oqish parda urug'don ortig'i urug'donga



214-rasm. Urug'don kesimining kichik (A) va katta (B) obyektiyida ko'rinishi:

1-oqish parda; 2-tomari parda; 3-septalar; 4-urug'donning o'taliu to'siq'i; 5-egn urug' naychalarining ko'msalang kesimi; 6-oralig to'qemi; 7-urug' naychalarining pardasi; 8-assentotisilar; 9-spermatogoniylar; 10-bo'shamchi spermatotilatit; 11-ak'ilamchi spermatotilatit; 12-spermatidalar; 13-spermiyalar.

naychalarining uzunligi 70-80 sm, soni 300-450 ta bo'lib, umumiy uzunligi 200-300 m gacha, ba'zi hayvonlarda 1-3 km gacha yetadi. Egri urug' naychalarining boshlatish qismi ko'r, ikki septa oralig'ida joylashuvchi naychalar murakkab ravishda egilib-bukiladi va tutashib bit sistemani hosil qiladi. Ular qo'shilishib, urug'don to'riga qarab yo'naluvcchi to'g'ri urug' naychasiga aylanadi.

Urug'don to'ridan urug' olib chiquvchi naychalar boshlanadi. Bu naychalar urug'don ortig'i nayiga birlashadi. Urug'don ortig'i nayi esa urug' yo'liga aylanib yorg'oqdan tashqariga qarab yo'naladi. Urug' olib chiquvchi naychalar urug'don ortig'i boshchasini, urug'don ortig'i nayi uning tunasini hosil qiladi.

Egri urug' naychalarining devori xususiy parda bilan o'salgan. Bu pardani ichki tomondan basal membranada joylashuvchi epiteli-

tegib turadigan tomondan ichkariga o'sib kirib urug'don **oralig qismi** (*mediastinum testis*)ni hosil qiladi. Urug'don oralig qismi tutashib to'r hosil qiluvchi bo'shliq (kovak)-larga boy. Urug'don oralig qismi va unda joylashgan to'r **Gaymor tanasi** deyiladi.

Urug'donning parenximasi bo'shlig'i anchagina keng (150-200 mkm) egri urug' naychalaridan iborat. Bu


spermatogen qavat qoplaydi. Xususiy pardada basal, mioid va tolador qavatlar farq qilinadi. Xususiy pardaning basal qavati epiteliyo-spermatogen qavat basal membranasi va mioid hujayralarning basal membranasi orasida joylashuvchi collagen tolalar to'ridan iborat. Mioid qavat (ichki hujayrali qavat) actin filamentlariga ega, lekin tipik siliq miotsitlardan farq qiluvchi o'ziga xes mioid hujayralardan hosil bo'lgan. Mioid hujayralar naycha devorining ritmik ravishda qisqarishini ta'minlaydi. Mioid hujayralar ichki hujayrasiz qavat nomini olgan basal membranada joylashadi. Undan tashqarida fibroblastlarga o'xshash hujayralardan iborat tashqi qavat joylashadi.

Egri urug' naychanning devoridagi epiteliyo-spermatogen qavat turkibidagi jinsiy va somatik hujayralar jinsiy bez kurtagi taraqqiyoti paytida aralashib ketgan (215-rasm). Jinsiy hujayralar taraqqiyot natijasida spermatogen hujayra-larga, somatik hujayralar tutib turuvchi hujayralar (**sustentotsitlar**)ga aylanadi. Sustentotsitlarning

ko'piksimon sitoplazmasida lipid tomchilar, oqsil kristallari va boshqa trofik kiritmalar mavjud. Bu hujayralar-ning o'zagi ancha yirik, uchburchak shaklida, och bo'yaladi, o'zakchalarini yaxshi ifodalangan. O'zak hujayra asosida joylashadi, sitoplazma esa naycha bo'shilg'i tomonga bo'rtib chiqib turadi.

Sustentotsitlar jinsiy hujayralarning differensiatysi uchun mikrosharoit yaratadi, ularni zaharli moddalar va turli antigenlar ta'siridan himoya qiladi. Adenogipofiz tomonidan FSG sekretsiyasini tormozlovchi faktor ishlab chiqaruvchi och bo'yaladigan va jinsiy hujayralarning bo'linishini stimulyatsiya qiluvchi faktor ishlab chiqaradigan to'q bo'yaladigan Sustentotsitlar farq qilinadi.

Egri urug' naychalarning devoridagi jinsiy hujayralar spermat-



215-rasm. Egri urug' kanalchasining rivojlanayotgan spermoylar va sustentotsitlar o'rasisidagi aloqesi ko'rinadigan bir qismi:

1-basd membrana; 2-A-tipdagi w'q bo'yaluvchi (qonamir) spermatogenot; 3-poxitessing o'rta davridagi berlamchi spermatotot; 4-taraqqiyotning ilk bosqichidagi spermatodalar 5-taraqqiyotning oxiridagi spermatodalar; 6-sustentotsit; 7-A-tipdagi och bo'yaladigan spermatogenot; 8-B-tipdagi spermatogenot.

genezning turli davrlariga xosdir. Ma'lumki, spermatogenez to'rt davr: ko'payish, o'sish, yetilish va shakllanish davrlariga bo'linadi. Ko'payish davrida bo'lgan hujayralar ya'ni **spermatogoniylar** mayda, naycha devorining chet qismida joylashadi. Ayrim hollarda bu hujayralarda mitoz bo'linish belgilari ko'rindi. Spermatogoniylar ikki asosiy tip: A va B tiplarga bo'linadi (215-rasm). A tipga mansub spermatogoniyalarning ham och bo'yaluvchi va to'q bo'yaluvchi xillari mavjud. A tipga kiruvchi har ikki xil spermatogoniyalarning o'zagidagi xromatin dekondensatsiya holatida bo'ladi. B tipdagagi spermatogoniyalarning o'zagi A tipdagilarnikidan biroz yirikroq, xromatin donachalar (lo'ndachalar)ga to'plangan. Och bo'yaluvchi A tipdagagi spermatogoniylar yangilanayotgan stvol hujayralar, to'q bo'yaluvchilari esa "rezerv" hujayralar bo'lib zarurat tug'ilmaguncha ular tinch holatda bo'ladi va spermatogenez siklida ishtirok qilmaydi. B tipdagagi spermatogoniylar nisbatan tabaqalangan hujayralar bo'lib ularning mitoz bo'linishidan hosil bo'yaluvchi hujayralar **1-tartib spermatotsitlar** deyiladi. 1-tartib spermatotsitlar o'sish davriga kirgan hujayralar bo'lib, egri urug' naycha devorida spermatogoniyalarga nisbatan ichkariroqda joylashadi.

1-tartib spermatotsit meyozi bo'limib yetiladi. Meyoz ustma-ust yuz beradigan ikki bo'linishdan iborat. Meyozining birinchi bo'linishi natijasida **II-tartib spermatotsitlar** hosil bo'ladi. Shu vaqtning o'zidayoq meyozining ikkinchi bo'linishi yuz beradi. Shuning uchun II-tartib spermatotsitlarni preparatlarda kamdan-kam hollarda ko'rish mumkin. Meyozning ikkinchi bo'linishi natijasida II-tartib spermatotsitlardan **spermatidalar** hosil bo'ladi. Spermatidalar yetilgan, gaploid hujayralardir. Ular spermatotsitlardan maydaroq va o'zagi ochroq bo'yaladi, egri urug' naycha devorining ichki yuzasida bir necha qavat bo'lib joylashadi.

Spermatidalar **spermiyalarga** aylanish jarayonida sustentotsitlarning sitoplazmasini o'zları bilan birga egri naycha bo'shilg'i tomon olib chiqadi va natijada bug'doy boshog'ini eslatadigan strukturna hosil bo'ladi.

Egri naycha turli qismlari devorining mikroskopik ko'rinishi turlichadir, chunki spermatogenez jarayoni egri naychaning barcha qismlari bo'ylab sinxron ravishda yuz bermaydi. Ayrim joylarda bu jarayon hatto yuz bermayotgan bo'lishi ham mumkin ("bo'shab qolgan naychalar"). Spermatogenezning yangi sikli egri naychaning shu qismida yuz berayotgan sikl tugamasdan yana boshsanadi. Ya'ni ayrim olingan joyda spermatogoniyalarning ko'payayotgani kuzatiladi va shu vaqtning o'zida egri naycha devorining ichkariroq qismida bir necha qavat bo'lib spermatidalar joylashadi. Bular avvalgi siklini tamomlayotgan hujayralardir. Agar biroz fursatdan keyin egri naychaning aynan shu qismini kuzatish mumkin bo'lsa

edi, unda I-tartib spermatotsitlar ko'rinardi. Spermatidalar esa biroz cho'zilib oval shaklga kirgan bo'lardi. Yana birozdan keyin esa yetilish davri boshlanib, I-tartib spermatotsitlarda meyoz belgilarni ko'rish mumkin bo'lardi. Shu vaqtning o'zida avvalgi sikl spermatidalarining spermiylarga aylana boshlashi kuzatilardi. Keyin meyoz natijasida yangi yangi spermatidalar hosil bo'lar, eskilari spermiylarga aylanib, boshoqcha holida joylashar edilar. Shu bilan birga, egri naycha devorining chetki qavatidagi spermatogoniyalarda meyoz belgili, ya'ni yangi sikl boshlangani ko'rinardi.

Egri kanalchalar oralig'ida biriktiruvchi yumshoq to'qima (interstitiya)da qon va epitelio-spermatogen qavat orasida moddalar almashinuvini ta'minlovchi mayda qon tomirlar, gemokapillyarlar va limfokapillyarlar joylashadi. Gemokapillyarlar va egri urug' naychalarining bo'shiqlari orasidagi strukturalarning yig'indisi **gemotestikulyar to'siq** deyiladi. Bu to'siq rivojlanayotgan jinsiy hujayralar uchun o'ziga xos (spetsifik) sharoit yaratadi.

Urug' don glandulotsitlari nisbatan yirik, yumaloq yoki poligonal, sitoplazmasi atsidofil va periferik qismida vakuolalarga ega, glikogen va oqsil kiritmalari saqlovchi hujayralardir. Ular gemokapillyarlar atrofida to'planadi. Yaxshi taraqqiy qilgan agranulyar sitoplazmatik to'r va ko'pdan-ko'p mitoxondriyalar mavjudligi bu hujayralarning steroid gormonlar sintezlashini ko'rsatadi. Yosh ulg'ayishi bilan glandulotsitlarning sitoplazmasida pigment to'planadi. Mushuk va ayg'irlarning glandulotsitlarda sarg'ish pigment, yog' kiritmalari va oqsil kristallari bo'ladi. Cho'chqa va ayg'irlarda bunday hujayralar ko'p, yirtqichlar va kavsh qaytuvchilarda (ayniqsa, takada) kam. Ayrim hollarda glandulotsitlar oqish parda va urug' don tizimchasida ham uchraydi.

Urug' don glandulotsitlari ikkilamchi jinsiy belgilari va qo'shimcha jinsiy bezlarning taraqqiyotini ta'minlaydigan erkaklik gormoni ishlab chiqaradi. Gipofizining lyuteinizatsiya chaqiruvchi gormoni bu hujayralarga ta'sir ko'rsatadi. Gipofizi olib tashlangan hayvonlarga lyuteinizatsiya chaqiruvchi gormon kiritilsa spermatogenez yuz bermaydi, lekin erkaklik jinsiy gormoni ta'sirining hamma belgilari kuzatiladi. Aksincha bunday hayvonga follikular taraqqiyotini stimulyatsiya qiluvchi gormon kiritilsa spermatogenez yuz beradi, lekin erkaklik gormoni ta'sirining belgilari kuzatilmaydi.

To'g'ri urug' naychali va urug' don to'rinining devori hujayralarning balandligi turlicha - yassi, kubsimon va prizmatik epiteliyidan iborat.

Urug' denga nervlari va qon tomirlari urug' don tizimchasi bo'ylab kiradi. Urug' donning asosiy nerv chigali biriktiruvchi to'qimada bo'lib,

ko'pchilik nerv tohalari qon tomirlarida tugaydi. Egri naychalar atrofida ham nerv chigallari bo'lib, ulardan ajraluvchi varikoz kengaygan ingichka nerv tohalari spermatogen hujayralarning oralarigacha kirib boradi.

Urug'don ortig'ida urug' suyuqligi to'planadi, sekretsiya va so'riliish jarayonlari yuz beradi, spermiylarda sitoplazmatik tomchi hosil bo'ladi, ya'ni urug' chiqaruvchi yo'llarida urug' suyuqligi (sperma)ning batarnom tayyorlanishi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar amalga oshadi. Urug'don ortig'ining boschasi tor naychalar - urug' olib chiquvchi naychalardan tuzilgan. Bu naychalarning devori epiteliy va biriktiruvechi to'qimadan iborat. Epiteliyning ikki xil: lipoid kiritmalarga ega prizmatik tukchali-tebranuvchi va kanalcha bo'shilg'iga sekret ishlab chiqaruvchi past bo'yli hujayralari bor. Sekretor hujayralar qattiq zarrachalarni fagotsitoz qilish, shuningdek so'rish qobiliyatiga ham ega. Biriktiruvchi to'qima qavatida ayrim silliq muskul tohalari ham uchraydi. Bu naychalar urug'don ortig'i nayiga ochiladi. Urug'don ortig'i nayi egri-bugri bo'lgani uchun preparatlarda kesimga ko'p marta tushadi. Jinsiy balog'atga yetgan hayvonlarda nay devori ikki qavatlari bilan qoplangan. Epiteliyning asosida past bo'yli bazal hujayrlar joylashadi. Bu hujayrlar bilan birga sekretiya qobiliyatiga ega, baland bo'yli hujayralar ham mavjud. Sekretsiya fazasiga ko'ra, bu hujayrlar yuzasida stereotsiliya (tukcha)lar, ayrim hollarda tugmacha simon o'simtlar hosil bo'ladi. Ularning sitoplazmasida joylashishi va kattaligi turlicha donachalar bor. Bu donachalar sekretsiyaga aloqadordir. Naycha ichida spermiylar joylashadi. Epiteliy ostida biriktiruvchi to'qima, sirkulyar joylashgan silliq muskul tohalardan iborat qavatlar mavjud. Bu yerda elastik tohalari uchraydi. Qon tomirlari urug'dondagidan kamroq, limfa tomirlari esa ko'proq uchraydi.

URUG' CHIQARUV YO'LI

Urug' chiqaruv yo'lining shilliq pardasi avval ikki qatorli, keyin esa bir qavatlari prizmatik epiteliy bilan qoplangan. Epitelioitsitlar tukchalarga ega emas. Shilliq parda uzunasiga joylashgan chuqur, ayrim hollarda mu'rakkab burmalar hosil qiladi. Urug' chiqaruv yo'lining kengaygan distal qismi ampula (mushukda yo'q) deyilib, erkaklik jinsiy apparatining qo'shimcha bezidir. Uning sekreti spermiylar uchun oziqlantiruvechi muhit bo'lib xizmat qiladi. Ampulaning shilliq pardasi ko'plab chuqurchalar va bo'rtikchalarga ega. Bu strukturular bezlar bo'lib cho'chqada juda mayda, itda yirikroq, buqada yirik, aymirda eng yirik va tarmoqlanuvchi bo'ladi. Aymir va buqalar bezlarining katta bo'shliqlarida amiloid (eqsilning bir

turi) uchraydi.

Muskul parda tolalari sirkulyar joylashgan ichki va uzunasiga joylashgan tushqi qavatlarga ega silliq muskulidir. Bu pardaning reflektor qisqarishtidan perestaltik harakat kelib chiqadi, sekret bo'shliqdan chiqib tezda sperma bilan aralashadi.

Zardob parda boshqa joylardagidek tuzilgan.

QO'SHIMCHA JINSIY BEZLAR

Pufakchasiomon bezlar urug' yo'lining ampulasi kabi urug' yo'lining hosilasi bo'lib, o'z chiqaruv yo'llari bilan urug' yo'liga ochiladi. Ayg'irlar va kemiruvchilarida bu bezning shilliq pardasi sekretsiya qobiliyatiga ega prizmatik epiteliy bilan qoplangan, burmalarga boy naysimon organidir. Kavsh qaytaruvchilar va cho'chqalarda esa naycha-alveolyar tuzilishga ega bo'lib, tolali zikh biriktiruvchi to'qima va silliq muskul tolalaridan iborat parda bilan o'ralgan. Bu pardadan o'sib kiruvchi to'siqlar bez parenximasini bo'lakchalarga bo'lib turadi. Kemiruvchilarida bez sekreti urug' suyuqligining oxirgi qismi bilan ajralib chiqib ivish (zichlashish) xususiyatiga ega.

Prostata bezning tanasi silliq muskul tolalari va biriktiruvchi tolador to'qimadan iborat kapsula bilan o'ralgan. Kapsuladann bez ichiga o'sib kiruvchi to'siqlar bez parenximasini bo'lakchalarga bo'lib turadi. Ot va cho'chqalarda har bir bo'lakchadagi markaziy bo'shliqqa turli tomonidan ko'plab o'smalar ochiladi. O'smalarning bo'shlig'iga esa naysimon, keng sekretor qismlar ochiladi. Bo'shliqlar va sekretor qismlarning devori balandligi turli qismlarda turlicha bo'lgan bir qavatlari prizmatik epiteliy bilan qoplangan. Yirtqichlar va kavsh qaytaruvchilarining bezida markaziy bo'shliqlar yo'q, chiqaruv yo'llarida quyuqishigan sekretning aggregatlari mavjud bo'lib, ular ayrim hollarda mineral tuzlar bilan boyib, prostatik toshlarga aylanadi. Bez sekreti spermiylar harakatini stimulyatsiya qiladi, qinning kislotali muhitini neytrallaydi. Prostata bezi olib tashlangan hayvonlarda spermatogenez va testosteron sekretsiyasining susayishi bezning endokrin faoliyatini ham mavjudligidan dalolat beradi. Prostata bezi nerv elementlari va mayda gangliylarga boy.

Piyozsimon (bulba-uretral) bezlar ayg'ir va cho'chqalarda juda yirik, mushukda kuchsiz taraqqiy qilgan, itda esa yo'q. Bezinng naycha-alveolyar shakldagini sekretor qismlari bir qavatlari prizmatik epiteliydan tuzilgan. Sekretor qismlar, asta-sekin chiqaruv yo'llariga, bu yo'llar esa qo'shilishib bosh chiqaruv yo'liga aylanadi. Sekretor qismlarning oralig'i

biriktiruvchi to'qimaga boy. Bez sekretining funksional ahamiyati aniq ma'lummas. U siyidik chiqarish kanalini siyidik qoldig'idan tozalaydi, cho'chqa va otlarda bachadon bo'yinchasida tiqin hosil qilib urug' suyuqligini tashqariga oqib chiqishiga qarshilik ko'satadi, deb hisoblanadi.

Siyidik chiqarish kanalining shilliq pardasi siyidik pufagi yaqinida (tos qismida) o'tib turuvchi, keyin ko'p qatorli prizmatik epiteliy bilan qoplangan. Tos qismning shilliq pardasi to'rt qavatga: epiteliy, limfa tugunchalariga ega bo'lgan biriktiruvchi tolador to'qima, venoz to'r hamda biriktiruvchi to'qimadan iborat tomirli va bezli (prostata bezining tarqoq qismi) qavatlarga ega. Bezli qavat tumom bo'lishi bilan shilliq parda ikki qavathi (epiteliy va siyidik chiqaruv kanalining kovakli tanasi) bo'lib qoladi. Kovakli tana biriktiruvchi zikh tolador to'qimadan iborat bo'lib endoteliy bilan qoplangan turli shakldagi sinuslar (kovaklar)ga ega. Arterio-venoz anastomoziar mavjudligi uchun kovakli tana tez qonga to'ladi.

Muskul parda siyidik chiqaruv kanali muskulidan iborat bo'lib sirkulyar joylashgan ko'ndalang-targ'il muskul tolalaridir. Ayy'irlarda muskul parda uncha aniq bilinmaydigan ikki qavat: ichki, tolalari uzunasiga joylashgan va tashqi sirkulyar qavtiharga ega.

Tashqi parda adventitsiyadir.

Siyidik chiqarish yo'lining kavernozi qismi jinsiy a'zo tarkibiga kiradi. Bu qismning shilliq pardasi ko'p qatlamli yassi epiteliy bilan qoplangan va kovakli tanaga ega.

JINSIY A'ZO

Jinsiy a'zo ikkita kovakli tanadan iborat bo'lib, ventral (mushukda dorsal) tomonda siyidik chiqarish kanali uchun ariqcha hosil bo'ladi. Kovakli tana elastik tolalarga boy oqish parda bilan qoplangan. Kovakli tana **tomirli** (ayg'irlarda) va **fibroz** (kavsh qaytaruvchilarda) bo'lishi mumkin. Fibroz tipdag'i kovakli tanada yog' hujayralari ko'p bo'ladi. It va cho'chqalarning kovakli tanasi oraliq tipga kiradi. Kovakli tana sinuslari qon tomirlarining davomi bo'lib venoz qonga to'lgan. Arteriyalar ko'pdan-ko'p tarmoqlar hosil qilib arterio-venoz anastomozlarga aylanadi. Anastomozlar intimaning qalinlashishidan hosil bo'lgan klapanlarga ega. Arteriyalar venoz sinuslar bilan bevosita tutashib ereksiya yuz berishini ta'minlaydi. Anastomozlar bekilsa kovakli tanaga qon kelishi to'xtaydi. Qon elastik elementlarning qisqarishi natijasida venular orqali chiqib ketadi. Erekxiya yuz bermagan (tinch) bolatda kovakli tanaga kapillyarlar orqali qon keladi.

Jinsiy a'zo boshchasining asosini kovakli tana hosil qilib uning


tomirlari siyidik chiqaruv kanali kovakli tanasi bilan anastomozlar hosil qiladi. Preputsiy terining buklami bo'lib, ichki tomoni ko'p qatlamlı yassi epitely bilan qoplangan, junga ega emas, oddiy teriga aylanadigan joyida naycha-alveolyar, tarmoqlangan yog' bezlari bo'lib, ular smegma ishlab chiqaradi.

Hamma kovakli tanalar sezuvchi va qon tomirlarini harakatlantiruvchi nerv terminallariga boy. Genital tanachalar jinsiy a'zo boshchasingning terisida, ayniqsa, ko'p uchraydi.

URG' OCHI HAYVONLARNING KO' PAYISH ORGANLARI SISTEMASI

Tuxumdonlar voyaga yetgan urg'ochi hayvonlarda oval shakldagi biriktiruvchi to'qimadan iborat organidir. Tuxumdonning oqish pardasi qorin pardasi epiteliyining davomi bo'lgan bir qavatli kubsimon epiteliy bilan qoplangan biriktiruvchi zinch to'qimadir. Tuxumdonda po'stloq (follikulyar) va mag'iz qismilar farq qilinadi (216-rasm). Har ikkala qismning asosi biriktiruvchi to'qima bo'lib,

mag'iz qismida retikulyar to'qina, po'stloq qismida kollagen tolalar uchraydi. Tuxumdon biriktiruvchi to'qima-sida elastik tolalar juda kam. Po'stloq qismida ko'plab follikullar joy-lashadi, mag'iz qismida esa katta diametrligi qon tomirlari uchraydi. Po'stloq va mag'iz qismilarning bir-biriga nisbatan joylashuvi turli hayvonlarda bir xil emas. Biyada qon tomirlariga boy ("ma-g'iz") qism tashqaridan joylashib, tuxumdonning ovulyatsiya yuz beradigan chuqrchasasi po'stloq qismiga




216-rasm. Tuxumdon tuzilishining sxemasi:
1-mesovary; 2-geminavis epithelium; 3-birikmechi follicle; 4-ikki qavva devori follicul; 5-follikulda bo'shilig bosil bo'lishining boshlanishi; 6-atretik follicul; 7-deyarli te'liq yetilgan follicul; 8- atretik follicul; 9-yetilgan follicul; 10-ontas; 11-follikulyar xuyunqil bilan to'lgan bo'shilq; 12-yetilgan follicul; 13-ajralib chiqqan taxum hujayra; 14-rovoglansayotgan sanq tanzi; 15-birkintiruvchi to'qima; 16-lyineinoxitilar; 17-qos ivig'ioq fibrini; 18-ivigan qos; 19-tuxumdonning biriktiruvchi to'qimasi; 20-to'lig'icha shakllangan sanq tanzi; 21-tuxumdonning oqroq tanasi; 22-qon tomirlari.

to'g'ri keladi.

Tuxumdon po'stloq va mag'iz qismlarining biriktiruvchi to'qimasi mezenximal tubiatli, endokrin-trofik vazifali interstitsial hujayralarga ega. Bunday hujayralar mushukda ko'proq uchraydi. Interstitsial hujayralar urug'don glandulotsitlariga to'g'ri kelib, follikullarni o'rovchi teka (parda)ning ichki qismida - kapillyarlar atrofida joylashadi.

Ovogenezning ko'payish davri urg'ochi individuumning embrional tarsoqqiyoti davridayloq tugaganligi uchun tug'ilgan hayvon tuxumdonida ovogoniylar bo'lmaydi. Po'stloq qismining eng tashqi qavatida joylashgan yosh jinsiy hujayralar birinchi tartibili ovotsitlardir. Ular uzoq o'sish davri ("tinch holat")-dagi, individuumning butun umriga yetarli chtiyot jinsiy hujayralardir. Bir qavat yassi epithelial (follikulyar) hujayralar bilan o'ralgan birinchi tartibili ovotsit **birlamchi follikul** deyiladi (217-rasm). Bunday follikullar hayvon jinsiy baloq'atga yetguncha biroz o'sishi mumkin. Lekin ularning keyingi o'sishi gipofizaning follikullarni



217-rasm. Sut emizuvchilar ootsiti va ovarial follikuli tarsoqqiyotining besqichlari:

A-G-birlamchi follikullar; D-E-ichida bo'shilig'i bo'lgan ikkilamchi follikullar; 1-surli toj; 2-follikul pardasi; 3-donador qavat; 4-yaltiliq zone; 5-cotst; 6-exozmi de'mboqcha; 7-follikul bo'shilig'i; 8-follikul pardasining ichki qavati; 9-follikul pardasining tasbiqi qavati; 10-donador membrana; 11-yetilgan follikullar.

stimulyatsiya qiluvchi gormoni (FSG) ta sirida yuz beradi. Follikul o'sishi bilan tuxumdon po'stloq moddasining chuquq-roq qismiga qarab silijydi, follikulyar hu-jayralar kubsimon shaklini oladi. Shu bilan birga ovotsit ham o'sadi. Keyin ovotsit atrofida mod-dalar almashinishi mahsulotlaridun **yaltiliq parda (zona pellucida)** hosil bo'ladi, epiteliy esa ko'p qavatliga aylanadi. Bunday o'suvchi follikulda ovotsit atro-fida tartib bilan radial yo'nalishda

joylashgan hujayralardan iborat **nurli toj (corona radiata)** hosil bo'ldi. O'sayotgan ovotsit uchun bunday hujayralar trofik ahamiyatga ega. Nurli toj hujayralari orasida polisaxarid va gialuron kislota mavjud. Epiteliyning qolgan qavatlari donador qavat (stratum granulosum) deyiladi. Follikulning ustini biriktiruvchi to'qimadan iborat parda - **teka (theca folliculi)** qoplab turadi. Teka va epiteliy orasidagi yupqa bazal membrana shishasimon plastinka nomini oladi. Bunday follikul ikkilamchi follikuldir.

Follikul taraqqiy qilishi bilan, suyuqlik hosil bo'lib, hujayralar orasida bo'shilq paydo bo'la boshlaydi. Bo'shilg'i suyuqlik bilan to'la borgan follikul kattalashib oddiy ko'z bilan ko'rindigan darajaga etadi. (217-rasm). Bunday follikul **pufakchali follikul** (Graaf pufakchasi, *folliculus ovaricus vesiculosus*) deyiladi. Uning follikulyar hujayralardan iborat devori, devorining ichki yuzasida tuxumli bo'rtikcha (do'mboqcha) va ichi follikulyar suyuqlik bilan to'lgan bo'shilg'i bor. Bu suyuqlikda follikulin (estrone, estrogen) gormoni bor. Estrogen gipofizning lyuteinizatsiya chaqiruvchi gormoni ta'sirida interstitsial hujayralar va follikulning donador qavati hujayralarida hosil bo'ldi. Estrogen jinsiy yetilish davrida hosil bo'lib, sut bezining taraqqiyotini stimulyatsiya qiladi va kuyikish (estrus)ni chaqiradi. Follikulning o'sishi va hujayralarining taraqqiyotiga gipofizning follikkullarni stimulyatsiya qiluvchi gormoni ta'sir ko'rsatadi. Follikulyar suyuqlikning ko'payishi va ichki bosim oshishi natijasida follikul yorilib ovotsit tuxumdonidan tashqariga chiqadi, ya'ni **ovulyatsiya** yuz beradi. Hayvonlarda ovulyatsiya kuyikish (estrus) davriga to'g'ri keladi, chunki bu vaqtida urg'ochi hayvon jinsiy a'zolari qon bilan mo'l ta'minlanib, follikulyar suyuqlik hosil bo'lishi kuchayadi. Follikulning yorilishi (ovulyatsiya) murakkab neyrogumoral faktorlarga bog'liq. Ovulyatsiya bir qator faktorlar, asosan gipofizning faoliyati bilan bog'liq bo'lib, nerv sistemasi tomonidan reguliyatsiya qilinadi.

Nerv impulsi follikulning yorilishiga bevositu sabab bo'ldi. Jinsiy aloqa vaqtida yuz bergan ovulyatsiya (mushuk, quyon va sassiq ko'zlanarda) **provakatsion ovulyatsiya** deyilib, unga jinsiy qo'zg'alish yuzaga keltirgan nerv impulsi sabab bo'ldi. Jinsiy aloqa bilan bog'liq bo'imasdan yuz beradigan ovulyatsiya **spontan ovulyatsiya** deyiladi.

Follikul yorilgach, undan follikulyar suyuqlik va nurli toj hujayralari bilan o'ralgan ovotsit chiqadi. Tuxum yo'lida ovo'sit meyozi bo'linishga uchraydi va yetiladi, spermiyalar bilan uchrashib otalanadi. Tuxum hujayraning yetilishi ustma-ust yuz beradigan ikki bo'linish (meyoz)dan iborat. Birinchi bo'linish natijasida I-tartibli reduksion tanacha ajralib chiqib, I-tartibli ovotsit II-tartibli ovotsitga aylanadi. Bu bo'linish ovulyatsiyagacha ham yuz berishi mumkin. Ikkinci bo'linish natijasida II-tartibli reduksion

tanacha va yetilgan tuxum hujayra hosil bo'ladı.

Ovulyatsiyaga uchragan follikul o'mida **sariq tana** rivojlanadi (216-rasm). Avval bu follikul bo'shilg'i qon bilan to'ladi, keyin donador qavat va teka ichki qavati hujayralarining ko'payishi natijasida qon quyug'i o'mida biriktiruvchi to'qima hosil bo'ladı. Hujayralar ko'p burchak shaklini olib, ular oralig'iga qon tomirlari va biriktiruvchi to'qima o'sib kiradi. Sariq tana ishlab chiqaruvchi progesteron (lyuteosteron) gormoni bachadon shiliq pardasini embrionni qabul qilib olishga tayyorlaydi va homiladorlik paytida o'zgartiradi, shuningdek, sut bezlarining sekretor qismlariga ta'sir ko'rsatadi. Qo'y, echki va cho'chqalarning sariq tanasida pigment (lyutein) yo'q. Yuqorida qayd qilinganidek, lyuteinizatsiya chaqiruvchi gormon sariq tana rivojlanishini stimulyatsiya qiladi. Lyuteinizatsiya chaqiruvchi va follikullarni stimulyatsiya qiluvchi gormonlarning birgalikda ta'sir qilishi ovulyatsiyaga sabab bo'ladı. Sariq tana ma'lum vaqt faoliyat ko'rsatgach, teskari taraqqiyotga uchraydi. **Chin** (bo'g ozlik davridagi), **yolg'on** (bo'g ozlik yuz bermagandagi) va **turib qolgan** (patologik) sariq tuzalar farq qilinadi.

Follikullar kavsh qaytaruvchilar tuxumdonida bir tekis tarqalib joylashgan, yirtqichlarda aniq ko'rinish turuvchi guruhlarga uyushgan. Biyalarда ovotsitlar yaqqol ko'rinnmaydi, qo'y va mushuklarda esa yaxshi ko'rindi. Follikul ichida bitta, yirtqichiarda, cho'chqa va qo'y larda ikki-oltita ovotsit bo'ladı.

Ovogenezning ko'payish davri embriogenez paytida yuz bergani uchun hayvon tug'ilganda uning tuxumdonida ma'lum miqdorda ovotsitlar mavjud. Masalan, voyaga etgan sigimining ikkala tuxumdonida 200 mingga yaqin ovotsit bor. Lekin sakkiz yoshli sigimining tuxumdonlarida 2500 ga yaqin ovotsit qoladi. Demak, ko'philik ovotsitlar yetilish davrigacha nobud bo'ladı. Bu hodisa **follikullar atreziyası**, teskari taraqqiyotga uchrayotgan follikullar **atretik follikullar** deyladi. Yetilib ulgarmaydigan bunday follikullarning ahamiyati ularning jinsiy gormon ishlab chiqarishidadir, chunki faqat yetiladigan follikullarning gormoni organizm uchun yetarli emas.

Qon tomirlari va nervlar tuxumdoniga birgalikda kiradi. Tuxumdonning arteriya va venalari spiral shaklida yuradi va ko'p tarmoqlanadi. Tuxumdon follikuli o'sishi bilan uning ichki qavatida qon tomirlarining murakkab to'ri hosil bo'ladı va sariq tananining teskari taraqqiyoti bilan bu to's reduksiya uchraydi. Tuxumdon nervlarining bir qismi qon tomirlari devorida tarmoqlanadi, ko'philik nervlar po'stloq qismiga kiradi va follikullar atrofida chatishmalar hosil qiladi. Ayrim tolalarning hatto ovotsitgacha yetib borganini kuzatish mumkin. Sariq tana, atretik follikullar va interstit-

sial hujayrafar ham innervatsiya qilinadi. Jinsiy balog'atga yetgan hayvon tuxumdonida yangi tug'ilgan hayvonnikiga nisbatan nerv elementlari an-chagini ko'p bo'ladi.


Qushlar tuxumdoni (218-rasm). Qushlarda faqat chap tuxumdon faoliyat ko'rsatib u turli kattalikdagi bo'laklardan tuzilgan (urug'donlar qushlarda ham juft bo'ladi). Tuxumdonning

po'stloq va mag'iz qismi farq qilinadi. Eng yosh ovotsitning diametri 40 mm, ovulyatsiyadan oldin esa u tuxum sarig'ining kattaligi darajasigacha o'sadi. Ovulyatsiyadan keyin sariq tana hosil bo'lmaydi. Progesteroning qaysi histologik strukturalar tomonidan ishlab chiqarilishi ma'lum emas. U tuxum yo'li bezlarining sekre-tsiyasini stimulyatsiya qiladi. Atretik follikular qushlarda ham uchraydi. Qushlarning o'ng tuxumdoni rudiment holida bo'lib, yosh jo'janing chap tuxumdoni olib tashlansa o'ng tuxumdon urug'don shaklida taraqqiy qilishi mumkin.

Tuxum yo'lli. Shilliq parda (219-rasm) bir qavat bir qatorli silindrik tukchali-tebranuvchi epitely bilan qoplangan bo'lib, xususiy qavati ayrim silliq muskul hujayralariga ega biriktiruvchi yurnshoq va retikulyar to'qimalardan iborat. Shilliq parda murakkab burmalar hosil qiladi. Tuxum yo'ida bezlar yo'q, lekin tukchali epitheliotsitlar orasida shilliq ishlab chiqaruvchi hujayralar mavjud bo'lib, ularning soni va joylashuvi jinsiy sikl davrlariga qarab o'zgaradi.


Muskul parda ichki sirkulyar, tashqi, kam taraqqiy qilgan bo'ylama qavatlarga ega bo'lib, silliq muskulidir. Ikkala qavat orasida qon tomirlariga boy birikti-ruvchi to'qima joyla-shadi.

Zardob parda tuxum yo'lini tutib turuvchi charvining davomi bo'lib, qorin bo'shilg'ining zardob pardalariga o'xshash tuzilgan.



218-rasm. Toviqning tuxumdoni:
1-yetilmagan follikul; 2-qon tomiti; 3-biriktiruvchi to'qima;
4-follikul oyoqchasi; 5-germinativ epitely; 6-o'nik; 7-och
rangli saraq modda; 8-to'q negli saraq modda; 9-sariqlik
parda; 10-radial zona; 11-follikulning donador va
12-biriktiruvchi to'qima pardalari.

Qushlarning tuxum yo'li. Qushlarda faqat chap tuxum yo'li rivojlangan bo'lib, u yaxshi ifodalangan vo-ronka, voronka bo'yin-chasi, uzun va kengaygan oqsil bo'lim, oraliq bo'lim hamda keskin kengaygan qism – bachelon, kloakaga ochiluvchi qindan iborat.



219-rasm. Tuxum yo'li:

A-tuzilishi, ko'ndalang kesim (Savangi va Tarka bo'yicha); 1-shilliq pardaning tukchali epiteliy bilan qoslangan hummalar; 2-shilliq pardaning xusnay qavati; 3-muskul parda; 4-qon tomiri; 5-seroz parda.

5-shilliq pardaning rastrlovchi electron mikroskopda ko'rimishi: 1-tehniqvchi tukchalar; 2-sekretor hujayralarning apical yuzasi; 3-sekret ionchilar.

bo'linuvchi to'r shaklida joylashgan silliq miotsitlardan iborat.

Seroz parda odatdagiday tuzilgan. Tuxum yo'lining devorida limfotsitarning to'plamlari va ko'plab plazmotsitlar uchraydi.

Bachelon. Shilliq parda (endometriy) bir qavatli prizmatik epiteliy bilan qoplangan (220-rasm). Epitelotsitlar menstruatsiyadan oldin tukchalarga ega bo'ladi. Tukchali hujayralar ora-sida, ayniqsa, bachelon bo'yinchasida shilliq hujayralar joylashadi. Epiteliy bilan biriktiruvchi to'qima o'rtasidagi basal membrana yaxshi bilinib turadi. Epiteliy qoramolda ko'p qavatli yassi, biyalarda bir qavatli baland bo'yli, qo'yillarda bir qavatli prizmatik. U ko'pdan-ko'p bezlar hosil qiladi. Bez-larning epiteliyi shilliq pardani qoplovchi epite-liyga o'xshashdir. Yirtqi-chlarda bezlar kam

Shilliq pardasi uzunasiga joylashgan burmala - gara ega bo'lib bir yoki ikki qavatli silindrik tukchali tebranuvchi epiteliy bilan qoplangan. Qadahsimon hujayralar yakka-yakka joylashadi. Xususiy qavat naychasimon bezlarga ega. Voronkaning bezlari ishilab chiqargan oqsil xalazalarni hosil qiladi. Oqsil qismlarning bezlaridagi hujayralar RNKga juda boy. Bachadonning bezlari egiluvchi naychalar shaklida bo'lib, hujayralari vakuolalar, donachalar hamda mikrotukchalarga ega va tuxum po'chog'ining mineral qismini hosil qiladi. Organik qismini esa epiteliy sintezlaydi.

Muskul parda ayrim hollarda, ikki qavatga


tarmoqlanadi va egilib-bukiladi, uzunligi turlicha, biyalarda ko'proq, kavsh qaytaruvchilar hamda cho'chqalarda yanada kuchiroyq egilib-bukiladi va tarmoqlanadi. Sigirlar bachadonining bezlari parallel qatorlar holida joylashadi. Xususiy qavat hujayralarga boy biriktiruvchi to qimadir. Bu qavatning chuqur qismida ko'plab qon tomirlari joylashadi. Kavsh qaytaruvchilarda xususiy qavat qalinlashishidan shilliq parda bo'rib karunkullar hosil bo'ladı. Karunkullar xorionning kotiledonlari bilan tutashadigan moslamalardir. Bu joyfarda qon tomirlarining zinch to'rlari, muskul pardadan yetib kelgan muskul tolalar mavjud.

Muskul parda (miometriy) ichki sirkulyar va tashqi bo'ylama qavatlarga ega. Ikki qavat orasida muskul tolalari qiyshi joylashuvchi va qon tomirlariga boy qavut bor. Sirkulyar qavat bachadon bo'yinchasida sfinkter hosil qiladi. Bachadon miofislari ancha uzun va ko'pincha tarmoqlangan bo'ladı. Sigirda qon tomirli qavat kam taraqqiy qilgan, ayrim hollarda sirkulyar qavatning tashqi qismida joylashadi, cho'chqada esa bunday qavat umuman yo'q.

Seroz parda (perimetriy) qorin bo'shilig'i seroz pardalariga o'xshash tuzilgan.

Arteriya va venalarning asosiy to'ri muskul pardanining qon tomirli qavatida joylashgan va undan bachadon devorining turli qavatlari tarmoqlar ajraladi. Kapillyarlarning juda zinch to'ri hevosita epiteliy ostida joylashadi.

Bachadon qorin bo'shilig'i vegetativ nerv chigallarining tarmoqlari bilan innervatsiya qilinadi. Bachadon nervlari tarkibiga simpatik, parasimpatik va sezuvchi tolalar kiradi. Ular bachadonning har uchulua pardasida chigallar hosil qiladi. Bu chigallardan muskul va biriktiruvchi to qimaga yetib boradigan nerv terminallari ajraladi. Nerv elementlari jinsiy bag'atga yetish jarayoni va bo'g'ozlik davrida, ayniqsa, ko'payadi.



220-rasm. Bachadonning kesimi:
 1-bechadon ichi; 2-shilliq parda; 3-epiteliy; 4-ichki sirkulyar qavat; 5-tashqi bo'ylama qavat; 6-nomirli qavat; 7-bezar; 8-muskul pardaning o'rta qavati; 9-qon tomiri.

Qin. Shilliq parda uzunasiga joylashgan burmalarga ega bo'lib, ko'p qatlamlı yassi epitely bilan qoplangan, jinsiy siklining estrus davrida epitely qavatlarining soni ortadi. Xususiy qavat to'rsimon to'qima elementlariiga ega biriktiruvchi yumshoq to'qima bo'lib, bu yerda epiteliyosti limfa tugunchalari ham uchraydi. Elastik tolalar ko'p, bezlar uchramaydi.

Muskul parda ichki sirkulyar va tashqi bo'ylama qavatlarga ega siliq muskuldir. Qin dahlizi bilan chegaradosh zonada qiyshi joylashgan tolalar paydo bo'lib, qavatlarning chegarasi yaxshi biliinmaydi.

Tolador parda biriktiruvchi yumshoq to'qima bo'lib yirik qon tomirlari va gangliylari bo'lgan nerv bog'lamlariiga ega.

Qin nervlari bachadon nervlari hosil bo'luchchi manbalardan hosil bo'ladi. Nerv tolalari qon tomirlari va muskul hujayralarda tamom bo'ladi. Qon tomirlarida va muskul pardada sezuvchi terminallar (retseptorlar) bor. Ko'pgina kapsula bilan o'ralgan tanachalar (genetal tanachalar) shilliq pardada joylashadi, yalang'och nerv uchlari biriktiruvchi to'qima va epiteliyida joylashadi.

Qin dahlizi. Shilliq pardasi qin shilliq pardasiga o'xshash, lekin bu yerda qavatlar qalin, jinsiy lablar yaqinida xususiy qavatda shakli o'zgargan kovakli tana - siyidik chiqaruv kanali kovakli tanasining davomi (dahliz kovakli tanasi)ni ko'rish mumkin. Bu tanalar biyalar va itlarda, ayniqsa, taraqqiy qilgan. Epiteliyda katta, dorsal bezlar - naysimon-shilliq bezlar va kichik, ventral bezlar - naycha-alveolyar shilliq bezlar mavjud.

Muskul pardasi murakkab tuzilgan bo'lib, anatomik shakllangan ko'ndalang-targ'il muskullarga ega.

Tolador pardasi qinning shunday pardasiga o'xshash. Innervatsiyasi qinning innervatsiyasi kabi.

Klitor. Kovakli tana bo'lib qon tomirlari va nervlarga boy, tolador to'qimali oqish parda bilan qoplangan. Shilliq pardasi halqasimon burma hosil qiladi va qin dahlizi shilliq pardasining davomidir. Bu parda genetal tanachalarga boy.

Jinsiy lablar. Terining burmasi (buklami) bo'lib, qin dahlizi shilliq pardasiga o'tadi. Ter va yog' bezlariga boy. Jinsiy lablar asosini ko'ndalang-targ'il muskul tashkil qiladi. Jinsiy lablar, ayniqsa, sezuvchi innervatsiyaga boy.

Platsenta ("bola joyi") yuqorida qayd qilganimizdek ("Embriologiya" bo'limi) allantoxorionning bachadon shilliq pardasi bilan birikishidan hosil bo'ladi, ona organizmini taraqqiy qilayotgan homila bilan bog'lovchi vaqtinchalik organdir. U horilaning oziqlanish, ayirish va gaz almashinish organi, shuningdek, endokrin vazifani ham bajaradi. Turli hayvonlarning platsentasi xorion yuzasida so'rg'ichlarning joylashishi va

bu so'rg'ichlarning endometriy bilan aloqasining xarakteriga qarab to'rt tipga bo'linadi.

Diffuz platsenta


cho'chqa va bir tuy-oqlilarda, shuningdek, tuya, kitsimonlar va begemotlarda uchraydi. Bunday platsentada so'rg'ichlar xorionning butun yuzasida bir tekis tarqalib joylashadi va bachadon devoridagi bezlar (kriptalar)ga kirib turadi. Har ikkala tomondan ham epitelyi to'qima yemirilmaydi va shuning uchun platsentar aloqa **epitelloxorial** hisoblanadi (221-rasm). Bola tug'ilganda xorionning so'rg'ichlari bachadon kriptalaridan ajralib chiqaturlib to'qimalar yemirilishiga sabab bo'lmaydi va jinsiy yo'llardan qon oqishi kuzatilmaydi.

Kotiledoni

platsenta kavsh qaytaruvchilarda uchraydi. Xorionning so'rg'ichlari guruuhlar (kotiledonlar) holida joylashadi va endometriyning

karunkullari bilan tutashadi. Karunkullar zonasida endometriyning epitelyi qavati yemirilib ketadi va kotiledon shilliq pardanining biriktiruvchi to'qima qavatiga botib kiradi. Bunday platsentani **desmoxorial platsenta** deb ataladi.

Belbog'simon (zonal) platsenta yirtqichlarda uchraydi. Xorionning



221-rasm. Cho'chqaning epitelloxorial platsentasi (Kreiling va Graudan):

a-allantoik epitheliyi; b-chorion epitheliyi; c-chorion kapillyari; d-bachadon shilliq pardasining xususiy qavati; e-bezar; f-qos tomonlar; memometriyning sirkulyar (i) – va bo'ylangs (k) qavatilar; g-bachadon epitheliyi; h-bachadon kapillyarlar.

so'rg'ichlari joylashgan keng zona (qism) embrion pufagini belbo-g'dek o'rabi turadi. Homilaning bachadon devori bilan aloqasi yanada mukammal: so'rg'ichlar endometriy biriktiruvchi to'qima-sidagi qon tomirlarining endoteliyi bilan kon-taktda bo'ladi. Shunga ko'ra, bunday platsenta **endoteliokorial platsenta** ham deyiladi.

Diskoidal platsenta primatlarga xos bo'lib, xorionning so'rg'ichlarga ega qismi disk shaklidadir. So'rg'ichlar endometriy xususiy qava-tida yetuvchi qon bilan to'igan bo'shliqlar - lakunlar ichiga kirib turadi va **gemoxorial platsenta** deyiladi.

Platsentadagi ona va homila (bola) qonlari o'rtasidagi to'qimalar **geamatoplatsentar baryer** (to'siq)ni hosil qiladi va homilani turli ta'sirotlar, jumladan, antigenlardan himoya qiladi. Lekin bu to'siqdan alkogol, nikotin, narkotiklar, ko'pgina dorivor moddalar, shuningdek, ona qonidagi gormonlar oson o'tadi. Platsentara aloqa epitelioxorialdan gemoxorial aloqaga qarab o'zgarganda platsentaning mukammallashuvi bilan **geamatoplatsentar bar'erni** hosil qiluvchi to'qimalarining qavatlari ham kamayib boradi. Primatlarda xorionning yuzasida elektronlarni yomon o'tkazuvchi, hujayraviy tuzilishga ega bo'lgagan, amorf qavat (qalinligi 0,1-2,0 mikrom) - fibrinoid mavjud. Bu qavat ona va homila o'rtasidagi immunologik munosabatlarni o'zaro mutanosib holga keltirishda katta ahamiyatga ega, deb hisoblanadi.

JINSIY SIKLNING TURLI DAVRLARIDA URG'OCHI HAYVONLAR JINSIY SISTEMASIDA YUZ BERADIGAN GISTOLOGIK O'ZGARISHLAR

Tuxum hujayralarning yetilishi, ovulyatsiya va sariq tana hosil bo'lishi siklik ravishda, doimio bir xil vaqt oralig'ida takrorlanuvchi jayayonlardir. Shu bilan birga, boshqa jinsiy organlarda, ayniqsa, shilliq pardasi rivojlanayotgan embrionni implantatsiya qilishga tayyorlanayotgan bachadonda anchagina o'zgarishlar yuz beradi. Bu o'zgarishlar qon kelishining ko'payishi, shilliq pardalarning shishib bo'rtishi, sekret ajralishining kuchayishidan iborat bo'lib, nerv qo'zg'alishi va kompleks tashqi simptomlar bilan xarakterlanadi va kuyikish deyiladi.

Jinsiy siklning davomliligi, ya'ni ikki siklning oralig'i hayvonning turiga bog'liq. Yovvoyi hayvonlarda (bo'ri, bug'u va b.) kuyikish yiliga bir marta kuzatiladi va bola tug'ilishi hamda uning taraqqiy qilishi bola uchun eng qulay muddati larga to'g'ri keladi. Uy hayvonlarida iqlim sharoitlari yosh avlod uchun ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo'lib, jinsiy sikl qisqa:

it va echkilarda kuyikish yiliga ikki marta; sigir, cho'chqa va mayda kavshovchilarda har 17-21 kunda; biyada 21-28 (va ko'proq) kunda, ko'pincha noregulyar; mushukda yiliga 2-4 marta yuz beradi. Jinsiy sikl bo'g ozlikdan qisqa bo'lgani uchun otalanish yuz bermasa kuyikish takrorlanadi.

Jinsiy sikl to'rt faza: proestrus, estrus, metestrus va diestrus-dan iborat.

Proestrus (proestrum) kuyikishga tayyorlanish fazasidir. Graaf pufakchalar o'sadi va tuxumdon yuzasidan bo'rtib chiqib turadi. Avvalgi siklning sariq tanasi anchagini kichiklashadi. Tuxum yo'li va bachadon epiteliy hujayralarining balandligi ikki va undan ortiq marta oshadi.

Itlarda jinsiy organlarga qon kelishi maksimal ravishda yuz berib, bachadon ichiga qon oqishi, tashqi jinsiy organlarning bo'rtib shishishi, jinsiy yo'ldan qon aralash shilliq sekret oqishi kuzatiladi.

Sigirda kuyikishdan ikki-uch kun avval bachadon shilliq pardasi bezlarining faoliyati boshlanadi. Ularning hujayralari ko'payadi, bo'shliqlari kengayib, uzunligi ortadi, sekret ajralishi boshlanadi. Cho'chqada kuyikishga bir-bir yarim kun qolganda shilliq parda biroz bo'rtadi.

Qin epiteliyida katta o'zgarishlar kuzatiladi. Hujayralarning ko'payishi natijasida uning qalinligi ortadi, shox qavat paydo bo'ladi (oq sichqon, kalamush va b.da) hujayralar odatdag'i 3-4 o'rniغا 20 ga yaqin qavat bosil qiladi. Qin shillig ida leykotsitlar va yirik epiteliotsitlar topiladi. Uy hayvonlarida bu belgilari uncha aniq ifodalanmagan.

Estrus (oestrus) jinsty apparat va nerv sistemasida jinsiy sikl davomida kurzatiladigan o'zgarishlarning maksimal ifodalanishi bilan xarakterlanadi. Bu o'zgarishlar ovulyatsiya va bachadon shilliq pardasining embrionni qabul qilib olish (implantatsiya)ga tayyorlanishi bilan xarakterlanadi. Shu bilan birga, kuyikishning eng yuqori momenti ovulyatsiya bilan bir vaqtga to'g'ri kelmaydi. Sigirlarda, ovulyatsiya kuyikish boshlangandan 24 soatdan keyin, tamom bo'lgandan 14 soatgacha vaqt ichida (kuyikish 2-30 soatgacha) davom qiladi. Biyalarda esa kuyikishga bir-ikki kun qolganda (kuyikishning davomligi - 5-14 kun) yuz beradi. Itlarda odatda ovulyatsiya bir necha kun davom qiladi (kuyikish davomligi 9-14 kun va shuning oqibatida bir ovulyatsiya davrining tuxum hujayralari turli erkak hayvon spermiylari bilan otalanishi mumkin).

Bachadon devorining qalinlashishi asosan shilliq parda hisobiga yuz beradi. Shishgan ayrim epiteliotsitlar ajralib tushadi, sekretor hujayralarning soni ortadi. Xususiy qavat bo'rtadi, qon tomirlari kengayadi, bezlar to'g'rilanadi va o'sadi. Ba'zan kapillyarlar yorilib qon chiqishi na-

tijasida bezlar sekreti qizg'ish rangga bo'yaladi. Bachadon bo'yinchasi ochiladi va qin orqali tashqariga shilliq ajralib chiqadi.

Itlarda kuyikish stadiyasi qon oqishining to'xtashi, jinsiy yo'llardan oqib chiqayotgan shilliqning rangi ochroq bo'lishi, shilliq pardalar gi-perimiyasining susayishi bilan xarakterlanadi.

Mayda kemiruvchilarda qin shillig'ida ko'p miqdorda yirik shox tangachalariga aylangan epitely hujayralari paydo bo'ladi.

Metestrum (metoestrum) - sariq tana shaklianishi, bachadon va qinning barcha pardalarining bo'rtib shishishi bilan xarakterlanadi. Bezlar taraqqiyoti va sekretor epiteliotsitllarning balandligi maksimumga yetadi. Laboratoriya hayvonlari qini surtmasida o'zaksiz shox tangachalari, o'zakli mayda hujayralar, shuningdek leykotsitlar uchraydi.

Diestrum (dioestrum) - kuyikish simptomlarining so'nishi va jinsiy apparatning tinch holati fazasidir. Sariq tana reduksiyasining boshlanishi bilan yangi Graaf pufakchalari paydo bo'ladi. Tiklanish va degenerativ jarayonlar muvozanatlashadi. Bachadon pardalarining qalinligi astasekin kamayib me'yorga keladi. Qin surtmalarida juda kam miqdorda o'zakli mayda hujayralar va tangachalar uchraydi.

Bo'g'ozlik boshlanganda bachadon shilliq pardasi anchagina "yumshoqlashadi", bachadon platsentasi hosil bo'ladi, bachadon va allantois qon tomirlarining aloqasi ta'minlanadi. Muskul tolalarning ko'payishi va giper-trofiyasi natijasida muskul parda qalinlashadi, qon tomirlari kuchli darajada tarmoqlanadi va o'sadi. Seroz parda ham biriktiruvchi to'qima hisobiga qalinlashadi.

Jinsiy sikli yuqoridagi kabi to'rt fazaga bo'lish biologiyada hamma tomonidan qabul qilingan bo'lib, urg'ochi hayvonlar jinsiy apparatida yuz beradigan siklik o'zgarishlarni to'liq hisobga oladi.

Veterinariya akusherlari biologik asoslanmagan bo'lsada, klinik amaliyot maqsadiga mos keladigan qo'zg'alish, tormozlanish va muvozanianish fazalarini farq qiladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Александровская О.В. и др. Цитология, гистология и эмбриология. М.: "Агропромиздат" М., 1987.
2. Гистология (под ред. Афанасьева Ю.И., Юриной Н.А.). "Медицина" М., 1989.
3. Де Робертис Е., Новинский В., Саэс Ф. Биология клетки. Пер. с англ., «Мир», М., 1973.
4. Заварзин А.А. Основы частной цитологии и сравнительной гистологии многоклеточных животных. "Наука", 1976.
5. Зуфаров К.А. Гистология. Ибн сино номидаги нашриёт Т., 1991.
6. Иванов И.Ф., Ковалевский П.А., Цитология, гистология, эмбриология, "Колос", М., 1976.
7. Козлов Н.А., Яглов П.Н. Частная гистология домашних животных. «Зоомедгиз», М., 2007.
8. Куприянов В.В., Караганов Я.Л., Козлов В.И., Микроциркуляторное русло. "Медицина", М., 1975.
9. Михайлов И.Н., Структура и функция эпидермиса "Медицина", М. 1979.
10. Сапин М.Р., Юрина Н.А., Эпинген Л.Е., Лимфатический узел. "Медицина", М. 1978.
11. Тинников Г.Г., Гистология мясопромышленных животных, "Пищевая промышленность", М. 1980.
12. Токин Б.П., Общая эмбриология "Высшая школа", М. 1970.
13. Хлыстова З.С. Становление системы иммуногенеза плода человека "Медицина", М. 1987.
14. Хэм А., Кормак Д. Гистология в 5 т., пер. с англ., "Мир", М. 1982.
15. Петров Р.В. Иммунология, "Медицина", М. 1983.
16. Panasenko E.D., Umarov E.A. O'zbek tilining imlo lug'ati. T. "Iqtisodiyot va huquq dunyosi", 1988.

Учебник объединяет цитологию, гистологию и эмбриологию и ставит задачу изучения как отдельную дисциплину каждой из этих отраслей биологической науки. В разделе «Цитология» даны подробные сведения о строении и функции клеток, в разделе «Гистология» - о строении, эволюции и гистогенез тканей, «Эмбриология» включает сведения о росте и развитии зародышей животных.

Учебник предназначен для студентов по направлениям «5440100 – ветеринария» и «5111009 – профессиональная образование: ветеринария», подготовлен к печати на новом узбекском алфавите. Учтены требования учебных программ и учебных планов подготовки бакалавров по этим специальностям.

Рецензенты:

Дехканов Т.Д. профессор кафедры гистологии Самаркандского государственного медицинского института.

Кулиев Б.А. доцент Самаркандского сельскохозяйственного института.

The textbook combines Cytology, Histology and Embryology and puts the task of studying as a separate discipline each of these branches of Biological science. In the "Cytology" gives detailed information on the structure and function of cells in the "Histology" - about the structure, evolution and tissue histogenesis, "Embryology" includes information about the growth and development of animal fetuses.

The textbook is designed for students in areas of "5440100 - Veterinary" and "5111009 - professional education Veterinary Medicine", prepared for printing on a new Uzbek alphabet. Take into account the requirements of educational programs and curricula for bachelors in these specialties.

Рецензенты:

Dehkanov T.D., Professor of the Department of Histology of Samarkand State Medical Institute.

Kuliiev B.A. Associate Professor of Samarkand Agricultural Institute.

MUNDARIJA

So'zi boshi	3
I qism. UMUMIY GISTOLOGIYA	5
Gistologiya fani va uni o'r ganish usullari	5
Gistologiya taraqqiyotining tarixi	9
I bob. Umumiy sitologiya asoslari.	12
Protoplazmaning kimyoviy tarkibi va fiziko-kimyoviy xossalari	13
Hujayraning tarkibiy qismilari	16
Hujayralarning organellalari	20
O'zak	27
Hujayralarning fiziologik xossalari	31
Hujayralarning bo'limishi	31
Mitoz	34
Tirik moddaning hujayraviy tuzilishga ega bo'lmagan shakllari	41
II bob. Embriologiya.	42
Jinsiy hujayralar (gametalar)	43
Gimetogenez, meyoz va otulanish	47
Embrional taraqqiyotning dasilabki boshichlari	54
Embrion varaqlarining differentsiatsiyasi	60
Qushlarning embrional taraqqiyoti	62
Sut emizuvchilarning embrional taraqqiyoti	69
III bob. To'qimalar to'g'risida ta'limot.	76
Epiteliy to'qimalar	77
Ko'p qatlamli epiteliylar	80
Bir qatlamli epiteliylar	83
Sekretsya. Bezlar	87
Biriktiruvchi (himoya-trofik-tayanch) to'qimalar	89
Qon	90
Gemotsitopoez	98
Postembrional gemotsitopoez	99
Limfa	104
Endoteliy	105
Retikulyar to'qima	105
Biriktiruvchi tolador to'qimalar	106
Tog'ay to'qimalar	113
Suyak to'qima	117
Muskul to'qimalar.	123
Silliq muskul to'qima	123
Ko'ndalang-targ'il muskul to'qima	126
Yurak muskuli	131
Nerv to'qimasi	135
Nevrogliya	138
Nerv tolalari	139

Nerv stvoli.....	142
Nerv oxirlari (terminallari)	142
Refleks yoyi.....	144
Sinapslar.....	145
Nerv to' qimasining taraqqiyoti va regeneratsiyasi.....	147
II QISM. XUSUSIY GISTOLOGIYA.....	149
IV bob. Nerv sistemasi.....	149
Orqa miya	151
Bosh miya	154
Nerv sistemasining vegetativ bo'limi.....	160
V bob. Sezgi organlari.....	162
Ko'rish organi.....	162
Muvozanat va eshitish organi.....	172
VI bob. Yurak-tomirlar sistemasi.....	181
Qon tomirlari.....	181
Venalar.....	185
Yurak.....	190
Limfatik sistema.....	192
VII bob. Gemotsitopocz va immunopoez organlari sistemasi	194
Suyak iligi.....	194
Timus (ayrisimon bez)	196
Kloaka (Fabritsius) bursasi.....	200
Limfoid tugunchalar.....	202
Limfa tugunlari.....	203
Gemolimfatik va gemal tugunlar.....	207
Taloq	208
VIII bob. Endokrin sistema (endokrin bezlar).....	212
Gipofiz.....	214
Epifiz	220
Qalqonsimon bez.....	222
Qalqonsimon bezoldi bezlari.....	225
Buyrakusti bezlari	226
Gormonlar ishlab chiqaruvchi yakka-yakka joylashgan hujayralar	230
Qushlarning ichki sekretsiya bezlari.....	231
IX bob. Ovqat hazm qilish organlari.....	233
Og'iz bo'shilg'i	235
Til	236
Tishlar.....	239
So'lak bezlari	244
Halqum.....	247
Qizilo'ngach	249
Me'da	250
Bir bo'limli me'da	250
Ko'p bo'limli me'da	255

Qushilar me' dasi.....	256
Ishaklar.....	258
Mi' da osti bez.....	263
Jigat.....	267
X bob. Nafas olish organlari sistemasi.....	273
Burun bo'shligi.....	279
Hipoidog.....	276
Traxeya.....	277
O'pka.....	278
Plevra.....	282
Qushilar o'pkasi.....	283
XI bob. Teri va uning hosilalari.....	285
Terining histologik tuzilishi.....	285
Teri hosilalari.....	291
Sut bez.....	295
XII bob. Siyidik ayirish organlari.....	299
Buyraklar.....	300
Siyidik chiqaruv yo'llari.....	309
XIII bob. Ko'payish organlari sistemasi.....	313
Erkak hayvonlarning ko'payish organlari sistemasi.....	316
Urug'don va urug'don ortigi.....	316
Urug' chiqaruv yo'li.....	320
Qo'shumcha jinsiy bezlar.....	321
Jinsiy a'zo.....	321
Urg'ochi hayvonlarning ko'payish organlari sistemasi.....	323
Qushilar tuxumdoni.....	327
Tuxum yo'li.....	327
Bachadon.....	328
Qin.....	330
Platsenta.....	330
Jinsiy siklning turli davrlarida urg'ochi hayvonlar jinsiy sistemasida yuz beradigan histologik o'zgarishlar.....	332
Foydalananligan adabiyotlar.....	335

N.SH.SHODIYEV, N.B.DILMURODOV

SITOLOGIYA, GISTOLOGIYA
VA EMBRIOLOGIYA

Qog'oz bichimi 60x84 1/16. Shartli bosma tabog'i 21,4
Buyurtma № 01/1, 200 nusxa.

«F.Nasimov» XK uskunalarida chop etildi
Samarqand sh. Muazzamxon ko'chasi, 34